ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIKDA KONSEPTUAL TAHLIL MUAMMOLARI

I XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

- **Zamonaviy o‘zbek tilshunosligining nazariy masalalari**
- **Amaliy tilshunoslikdagi dolzarb muammolar**
- **O‘zbek adabiyotining ilmiy-nazariy asoslari**
- **Badiiy asar tahlilida falsafiy va milliy asosning o‘rni**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Termiz

22-23-noyabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIKDA KONSEPTUAL TAHLIL MUAMMOLARI MAVZUSIDAGI I XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Termiz – 2024

22-23-NOYABR

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНЫЕ

t/r	Muallif F.I.O., material nomi	Bet
1-SHO‘BA. ZAMONAVIY O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALARI		
1	Rafiqjon Zaripov Ergashboy o‘g‘li. TILNI REJALASHTIRISH TADQIQOTLARI ILMIY NATIJALARIDAN KORPUS TUZISHDA FOYDALANISH	10-16
2	Feruza Uralovna Jumayeva. MA’NO TARAQQIYOTI: SEMIK TAHLIL, ANTROPOSENTRIK YONDASHUV	17-22
3	Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna. QIYOSIY-TARIXIY METOD HAMDA UNING SHEVALAR LEKSIKASINI O‘RGANISHDAGI O‘RNI	23-25
4	Jamoliddinova Iroda Bahodir qizi. O‘ZBEK TILIDA “QAT’IYAT” KONSEPTINING USLUBIY XOSLANISHI	26-29
5	Buranova Dildora Ximmatovna. INGLIZ TILIDA INKORNI IFODALASHNING IMPLISIT SHAKLI	30-34
6	*Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, Fahriddinova Muhlisa Qahramon qizi.* TILSHUNOS OLIMLARNING TILGA OID QARASHLARI	35-40
7	Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna, Farmonova Nazirabegim Sadriddinovna. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MAQOLLARNINGKONSEPTUAL TAHLIL MUAMMOLARI	41-44
8	Yusupova Muntoza Baxtiyor qizi. EVFEMIZATSIYALASHGAN MAQOL VA MATALLAR TADQIQIGA LINGVISTIK YONDASHUVLAR	45-49
9	Fotima Abduhamidova, Dilobar Gulamova. TIL TARAQQIYOTIDA EVFEMISTIK QATLAM.	50-52
10	*Мамадаминова Жамила Турабоевна.* ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ В КОНТЕКСТЕ РУССКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ	53-60
11	Nodirov Chorshanbi Elmurod o‘g‘li, Abdimo‘minova Gulhayo Ne’mat qizi. PEDAGOGLAR UCHUN CHET TILINI O‘RGANISH, CHUQUR KASBIY SALOHIYAT HAMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH BUGUNGI TA’LIM TALABI SIFATIDA.	61-64
12	*Мамаджанова Карина Абдукаримовна.* РАЗВИТИЕ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ У СТАРШЕКЛАССНИКОВ ЧЕРЕЗ МЕТОД SHADOWING	65-70
13	*Mavlonova Sevinch, Oromidinova Dildora Pardabayevna, Morozova Anastasia Vladimirovna*. Theoretical and Applied Issues in Uzbek Linguistics and Literature: Structural Analysis, Educational Challenges, and Literary Interpretation.	71-74

14	Mustafayeva Gulmira Murtazakulovna. KIRISH SO‘Z VA KIRITMALI GAPLARDA OLAM LISONIY MANZARASINING IFODASI	75-78
15	*Холмурзаева Умида Улугбек кизи, Оромидинова Дилдора Пардабаевна.* Проблемы концептуального анализа в современном языкознании и литературоведении	79-82
16	Yuldosheva Guli Xayrulla qizi. SO‘Z YASALISHI USULLARINING DAVRIY SISTEMASI	83-86
17	Ergashova Hilola. TILLARDA KODLAR ARALASHUVI	87-90
18	Mirzayeva Durdona Hasan qizi. HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA TIL, LISON, ME’YOR VA NUTQ MUNOSABATI	91-97
19	Aliqulova Feruza O‘ktam qizi. EXPLORING METHODS TO ENHANCE THE COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH TEACHERS USING THE WORKS OF CHARLES DICKENS.	98-103
20	Qulmamatova Muattar Otabek qizi. INGLIZ VA O‘ZBEK MADANIYATIDA “BOYLIK” VA “KAMBAG‘ALLIK” KONSEPTLARINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI	104-109
2-SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIKDAGI DOLZARB MUAMMOLAR		
21	Shukurov Otabek Ulashevich. YANGI O‘ZLASHMALAR VA LUG‘ATLAR EVOLYUTSIYASI	110-113
22	*Муратов Баходир XXX.* ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ КОНТРОЛЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В 9 КЛАССЕ УЗБЕКСКОЙ ШКОЛЫ	114-119
23	*Radjabova Marjona Axmadovna.* O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA QUR’ONI KARIM TAFSIRI – DINIY MATNLARNING ASOSIY MANBASI	120-123
24	A.M. Shofqorov. ISMLAR USLUBIYATI	124-126
25	Nasiba Raimnazarova. O‘ZLASHGAN DILEKTAL SO‘ZLARNING ETIMOLOGIK-QIYOSIY TAVSIFI	127-129
26	Nasiba Raimnazarova, Gulchiroy Faxritdinova. MILLATIMIZ “GUVOHNOMA”SI	130-133
27	*Абдурахманова Хилола Рахматуллаевна.* РОЛЬ ФИЛОСОФСКО-НАЦИОНАЛЬНОЙ ОСНОВЫ В АНАЛИЗЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ	134-139
28	Adzheminova Elvina Rifatovna. CURRENT PROBLEMS OF PRACTICAL LINGUISTICS	140-142
29	Majidova Shahnoza Komilovna, Bobomurodova Mahzuna Ortiq qizi. GIDRONIMLARNING TIL TIZIMIDAGI O‘RNI	143-147
30	Mustaqimova Qunduz Sobirovna, Maxmudova Maxliyo Maxsudovna. AMALIY TILSHUNOSLIK VA METROLOGIK TA'MINOT: O‘ZBEKISTON SHAROITIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR	148-151

31	Bo‘ronova Mekkamtosh Xoliqulovna. EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF TEACHINGAIDS IN THE MODERN CLASSROOM	152-156
32	*Boboqulova Nilufar Xayrullo qizi.* PROVERBS WITH THE SOMATIC COMPONENT *MOUTH/OG'IZ* IN TWO LANGUAGES	157-160
33	Nodira Hamidova. G‘AFUR G‘ULOMNING NASRIY ASARLARIDA KASB–HUNAR VA KIYIM–KECHAK NOMLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI	161-165
34	Majidova Shahnoza Komilovna, Normamatova Husnora Shomamat qizi, Shodiyeva Maftuna G‘ayrat qizi. ABDUQAYUM YO‘LDOSHNING “PUANKARE” HIKOYASIDA QO‘LLANILGAN O‘XSHATISHLAR	166-169
35	Musurmonqulov Adham Abdurashid o‘g‘li. TILSHUNOSLIKDA UYADOSHLIK HODISASI VA UNING LINGVISTIK TASNIFI	170-173
36	Mirzayeva Gulasal Ergashovna. A COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK TERMS RELATING TO TAILOR	174-178
37	*Турсахатов Эркин Элмуродович.* СИСТЕМА ЗАДАНИЙ ПО ОБУЧЕНИЮ РУССКОЙ РЕЧИ НА ПРАКТИКУМЕ ПО РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.	179-185
38	Khidirova Makhfuza Amirkulovna. LITERATURE REVIEW ON ANIMAL IDIOMS: EXPLORING CULTURAL AND LINGUISTIC DIMENSIONS	186-192
39	Xaitova Gulhayo Tovasharovna. MADANIY KONTEKST VA O‘ZBEK TILIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING QO‘LLANILISHI	193-195
40	Soatov Ibrohimbek Alisherovich. “EDUCATION-UPBRINGING” CONCEPT AS A LINGUACULTURAL PHENOMENON: INSIGHTS FROM ENGLISH AND UZBEK	196-200
41	Muattar Temirova. A LINGUISTIC ANALYSIS OF OXYMORONS IN THE ENGLISH LANGUAGE	201-204
42	Soatova Yulduz Soatovna. ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA QOSH TASVIRI ORQALI AYOL GO‘ZALLIGINI IFODALOVCHI SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI	205-208
43	Hamidova Nodira, Toshqulova Zebiniso, Xudoyberdiyeva Dinara. BADIIY MATNDA RANG-TUS SIFATLARINING USLUBIY VOQELANISHI	209-213
44	Musurmonqulov Adham Abdurashid o‘g‘li. TILNING LEKSIK QATLAMIGA UYADOSHLIK (IDEOGRAFIK) JIHATDAN YONDASHUV	214-217
45	Nosirova Shoirakhon Ulugbek qizi. COMPARATIVE ANALYSIS OF LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF	218-222

	COMMUNICATION BEHAVIOR OF PEOPLE IN VARIOUS JOB OCCUPATIONS	
46	*Iskandarov Bahrom.* LINGUISTIC-STYLISTIC FEATURES OF JACK LONDONS NOVEL “MARTIN EDEN”	223-226
47	Muradova Sevara Zoir kizi. THE MAIN SEMANTIC FEATURES OF HYDRONYMS IN ENGLAND	227-232
48	Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, Toshpo‘latova Iroda Ismoilovna. USLUBIYAT VA NUTQ USLUBLARI TASNIFI	233-236
49	Ismoilova Gulyora Xabibullo qizi. DINIY MAQOLLARNING SEMANTIK TAHLILI	237-240
50	Hayitmurodova Laylo Qurbonovna. O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK - SEMANTIK TAHLILI	241-243
51	Odilova Sadoqat Abduhamitovna. SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA DIALEKTIKAL SO‘ZLARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI	244-247
52	Almardanova Jamila Safar qizi. JINOYAT OLAMIDAGI JARGONLARNI O‘RGANISH	248-251
53	*Faxriddinova Gulchiroy Nuritdin qizi.* O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATLARIDA TEXNIKAVIY TERMINLARNING TARJIMA VA IZOHLASH MASALALARI	252-256
54	Xamzayeva Farog‘at Abdujabbor qizi. HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA URG‘UNING AHAMIYATI	257-259
55	Bozorova Muxlisa Hamidovna. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO‘Z TURKUMLARINING TATQIQI	260-262
56	*Аликулова Азиза Шухратовна.* АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИКЛАДНОЙ ЛИНГВИСТИКИ	263-266
57	Qurbonova Gavxar Xurramovna, Avazova Dilfuza Xayrullo qizi. IFODALILIK VA IBORALAR	267-269
58	O‘razova Inobat. O‘ZBEK TILIDA BO‘G‘INNING SO‘ZLARDA QO‘LLANILISHI, AHAMIYATI, JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI	270-273
3-SHO‘BA. O‘ZBEK ADABIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI		
59	*Parda Alimov.* SHOIR BO‘LIB EL ICHRA YURAMAN	274-276
60	*N.X.Ashurova, A.Sattorov.* HOZIRGI O‘ZBEK ADABIYOTIDA KINOYAVIY TASVIR VOSITALARINING YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASIDAGI O‘RNI	277-283
61	*Ибрагимова Мохира Муратовна*. ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ СТИЛЯ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ	284-286
62	*Teshayeva Gulnoza.* O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ADABIY PARALLEL JANRINING AHAMIYATI	287-290
63	*Toshpo‘latov Zayniddin, Toshqulova Zebiniso, Qudratova Xosila.* OKSYUMARONNING BADIIY ADABIYOTDAGI O‘RNI	291-294

64	*Toshqulova Zebiniso, Bozorova Muxlisa Hamidovna.* BADIIY ASARLARDA TA'SIRCHANLIK VA BO'YOQDORLIKNI OSHIRISHDA ANTITEZANING O'RNI	295-298
65	*Farida Xakimova, Fahriddinova Muhlisa.* THE INFLUENCE OF WORLD LITERATURE ON UZBEK LITERATURE	299-304
66	*Toshqulova Zebiniso, Boymamatova Farida, Mengboyeva Feruza*. BADIIY ASARLARDA SIFAT ASOSLI ANTITEZALAR	305-308
67	*Rasulova Zulfiya Rasul qizi, Norqobilova Sumbula Nuriddin qizi* NAVOIY HAYOTIGA BIR NAZAR	309-312
68	*Muzaffarov Javlon Kodirjonovich.* MIFOLOGIK ARXETIPLAR VA ULARNING ZAMONAVIY ADABIYOTDA ISHLATILISHI	313-316
69	*Aliyeva Orzigul.* ISTEHZO USULINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI	317-320
70	*Jo'raboyeva Yulduzxon Shuxratjon qizi*. Nazar Eshonqul hikoyalarida ramziylik	321-324
71	*Qudratova Manija Shohmansur qizi*. O'ZBEK FOLKLORI VA UNING ADABIYOTDAGI O'RNI	325-328
72	*Muhammadiyeva Mehriniso*. NAVOIYNING HAYOT YO'LI VA U YOZGAN ASARLARNING DUNYO TAMADDUNIGA QO'SHGAN HISSASI	329-335
73	*To'raxonov Oybek*. YANGI O'ZBEK ADABIYOTINI DAVRLASHTIRISH	336-339
4-SHO'BA. BADIIY ASAR TAHLILIDA FALSAFIY VA MILLIY ASOSNING O'RNI		
74	Mardonova Lobar Umaraliyevna. SAROY XONIMLARI OBRAZLARI VA TEMURIYLAR SALTANATIDA AYOLGA MUNOSABATNING BADIIY IN'IKOSI	340-345
75	Parda Alimov. YANA BUGUN BAHORGA ZORMAN	346-348
76	*Mardonova Lobar Umaraliyevna, Choriyev Zufarbek Erkinovich.* ERKIN A'ZAMNING "SHOVQIN'' ROMANI BADIIY TALQINI	349-352
77	*Atamurodova Feruza Tashmurotovna.* The Origin and Development of English Novel: A Descriptive Literature Review.	353-356
78	Raimnazarova Nasiba Xaliyarona, Abdullayeva Sitora Xayrulla qizi. IQBOL MIRZO SHE'RLARIDA OKSYUMARON HODISASI TALQINI	357-360
79	Saidmuradova Saxiba Jalmuradovna, Jo'rayeva Muhayyo Botirovna. XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING "BESH BOLALI YIGITCHA" ASARIDAGI ORIF OBRAZINING O'ZIGA XOS XARAKTER XUSUSIYATLARI	361-364

80	Normengliyeva Dilnoza Baxtiyor qizi, Saidmuradova Saxiba Jalmuradovna. IBRATNING „SHIKOYATI ZAMONA“ ASARI BADIIY TALQINI	365-369
81	Saidmuradova Saxiba Jolmuradovna, Normamatova Husnora Shomamat qizi. “CHOL VA DENGIZ” ASARINING BADIIY MOHIYATI	370-373
82	Sattorov Shokir Jabborovich. GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI	374-379
83	Toshpo‘latov Zayniddin, Toshqulova Zebiniso, Salimova Surayyo Ibragim qizi. G‘AFUR G‘ULOM SHE’RIYATI MISOLIDA OTA OBRAZIGA TAVSIF BERISHNING USLUBIY JIHATLARI	380-384
84	Nodirov Chorshanbi Elmurodovich. ZAMONAVIY ADABIY JARAYONLAR, INSTITUT (UNIVERSITET) TALABALARINING TIL KURSLARINI O‘RGANISHIDAGI YANGI YONDASHUVLARI	385-388
85	Hakimova Farida Ilhom qizi, Ochildiyeva Dilrabo, Bozorova Muxlisa. AHMAD LUTFIY QOZONCHINING “O‘GAY ONA” ASARIDAGI FOTIMA OBRAZINING O‘ZBEK AYOLLARIGA XOS BO‘LGAN FAZILATLARI	389-391
86	*Умарова Фарангиз Фуркатжон кизи, Юсупов Муратбек Рахимович.* ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ РУССКОЯЗЫЧНЫХ ПИСАТЕЛЕЙ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА А.П.ЧЕХОВА «ДАМА С СОБАЧКОЙ» И ПОВЕСТИ Ч. АЙТМАТОВА «ДЖАМИЛЯ»)	392-395
87	Xakimova Farida Ilhom qizi, O‘razova Inobad Normurod qizi. AHMAD LUTFIY QOZONCHINING “O‘GAY ONA” ASARIDA ONA OBRAZI	396-400
88	Kurbonova Gavkhar Xurramovna, Kholiyorova Zulfiya. INTERPRETATION OF PROVERBS IN THE WORKS OF SAID AHMED	401-403
89	Toshqulova Zebiniso, Ochildiyeva Dilrabo. O‘ZBEK AYOLLARIGA XOS QASOSKORLIK HISLATI (NAZAR ESHONQULNING “SHAMOLNI TUTIB BO‘LMAYDI” ASARIDAGI BAYNA MOMO MISOLIDA)	404-407
90	*Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi, Abdiyeva Mehriniso Farxod qizi.* YANGI O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA INSON RUHIYATI (ABDUQAYUM YO‘LDOSH ASARLARI MISOLIDA)	408-412
91	Toshqulova Zebiniso. TUN VA TONG OBRAZINING TARIXIY DAVRLARGA XOS NAMOYON BO‘LISHI	413-417
92	Musurmonqulov Adham Abdurashid o‘g‘li, Iskandarova Jasmina Bahodir qizi. “PUANKARE” HIKOYASIDA ARMONGA AYLANGAN ORZU TALQINI.	418-422

93	Hakimova Farida, Xolmo‘minova Mahliyo Shavkat qizi. “KICHIK HIKOYANING YUKSAK BADIIY DUNYOSI”	423-426
94	Dusmuratov Qahromon Mamadiyevich. IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANI EPISTOLYAR USLUBNING YORQIN NAMUNASI	427-429
95	Aliyeva Dilshoda. “DONISHMAND SIZIF” ROMANIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR TALQINI	430-433
96	Qodirjonova Iqbola Bahodir qizi. KRISTOFER POL KERTIS ASARLARINING BADIIY TAHLILI: MILLIY KOLORIT VA FALSAFIY YONDASHUV	434-437
97	Achilova Zuxra Qurbonovna. “MALLA SAVDOGAR” DOSTONIDA TUT DARAXTI GENEZISI VA UNDA IFODALANGAN EZGULIK RAMZI	438-447
98	*Mengziyoyeva Dilorom Anvar qizi*, ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARI HAYOTIY TAJRIBA PODEVORIDIR	448-452
99	Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li. “TIL VA ADABIYOT HAQIDA BIR YOKI IKKI SO‘Z”	453-456
100	Mamatqulov Botir Jovli o‘g‘li. KNUT GAMSUNNING “EDVARDA” ROMANIDA SHAXS FOJIASI	457-460
101	Dosmambetova Muyassar. THE ROLE OF PHILOSOPHICAL AND NATIONAL FOUNDATIONS IN LITERARY ANALYSIS	461-463
102	Ergasheva Zebo Odiljon qizi. ABDULLA QAHHORNING “MING BIR JON” HIKOYASI TAHLILIDA FALSAFIY VA MILLIY ASOSNING O‘RNI	464-466

I SHO‘BA. ZAMONAVIY O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALARI

TILNI REJALASHTIRISH TADQIQOTLARI ILMIY NATIJALARIDAN KORPUS TUZISHDA FOYDALANISH

Rafiqjon Zaripov Ergashboy o‘g‘li
Renessans ta’lim universiteti dotsenti, Filologiya fanlari doktori (DSc).
zaripovrafiqjon1@gmail.com

Annotatsiya: Tilshunoslikda rejalashtirish tushunchasining shakllanishi, tilni rejalashtirish atamasining vujudga kelish omillari, uning maqsadlari, talqinlari, lingvistlar, sotsiologlar, ijtimoiy tilshunoslik vakillari tomonidan berilgan tariflari, semantik mundarijasida jamlangan ma’nolar mazkur maqolada tavsiflanib, til korpusini takomillashtirishga asoslangan tilni rejalashtirish tavsiflariga e’tibor qaratilgan, tilni rejalashtirish tadqiqotlari ilmiy natijalaridan korpus tuzishda foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinib, muayyan xulosalar berilgan

Kalit so‘zlar: Tilni rejalashtirish, til qurilishi, til funksiyalari, til korpusini takomillashtirishga asoslangan tilni rejalashtirish tavsiflari, korpus, korpus birliklari, korpus tuzish.

Abstract: The formation of the concept of planning in linguistics, the factors that led to the emergence of the term language planning, its goals, interpretations, definitions given by linguists, sociologists, and representatives of social linguistics, and the meanings contained in its semantic content are described in this article, and attention is paid to the characteristics of language planning based on the improvement of the language corpus, the possibilities of using the scientific results of language planning research in corpus construction are analyzed, and certain conclusions are given.

Keywords: Language planning, language construction, language functions, characteristics of language planning based on the improvement of the language corpus, corpus, corpus units, corpus construction.

Аннотация: Формирование понятия планирования в лингвистике, факторы возникновения термина языковое планирование, его цели, трактовки, тарифы, данные лингвистами, социологами, представителями социальной лингвистики, смыслы, собранные в его смысловом наполнении, описаны в В данной статье уделено внимание описаниям языкового планирования на основе направленного совершенствования языкового корпуса, проанализированы возможности использования научных результатов исследований языкового планирования при построении корпуса и сделаны определенные выводы.

Ключевые слова: Языковое планирование, языковая конструкция, функции языка, описание языкового планирования на основе

совершенствования языкового корпуса, корпус, единицы корпуса, состав корпуса.

Tilni rejalashtirish atamasi 1960-yillarda mustamlakachilik siyosatiga barham berilishi fonida mustaqillikka erishgan, rivojlanayotgan mamlakatlarni modernizatsiya qilish bilan bog‘liq jarayon uchun ishlab chiqilgan. U davrning ijtimoiy va iqtisodiy rejalashtirilishiga asoslangan o‘z ixtiyorida samarali texnikaga ega bo‘lgan texnik mutaxassislarning g‘amxo‘rligi sifatida, asosan, mafkuradan xoli bo‘lgan obyektiv jarayon sifatida[10: 92] o‘ylab topilgan. Bu tegishli davlat siyosiy organlarining roziligini talab qilsa-da, “muammolarni oqilona hal qilish” sifatida qaraldi. Vaqt o‘tishi bilan til muhandisligining murakkabligi tan olindi. Endilikda u “keng doiradagi turli xil ijtimoiy-lingvistik vaziyatlarni” o‘z ichiga olishi kerak edi: “turli xil manfaatlar va aholi guruhlari (ayollardan qochqinlargacha), turli xil kommunikativ sharoitlarda (ommaviy axborot vositalari, kanallar, axborotni qayta ishlash) va birinchi navbatda, turli mafkuraviy va real, global va mahalliy ijtimoiy-siyosiy sharoitlar[7: 131].

Tilni rejalashtirish turli maqsadlarga qaratilgan bo‘ladi va o‘z ichiga turli xil vositalarni qamrab oladi. *Tilni rejalashtirish* tadqiqotlarda paydo bo‘lgan birinchi atama emas. Tadqiqotlarda bunday faoliyat turini atash uchun birinchi atama sifatida *til muhandisligi* kiritilganligi qayd etiladi[9: 740]. Shuningdek, ushbu faoliyatni ifodalash uchun *glottopolitika[4:41]*, *tilni rivojlantirish[11: 217]*, *tilni tartibga solish[3: 73]* birliklaridan foydalanilgan.

Tilni rejalashtirish atamasini fanga birinchi marta Haugen 1959-yil kiritgan. U tilni rejalashtirishni bir xil bo‘lmagan nutq jamoasida yozuvchilar va notiqlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish uchun me’yoriy orfografiya, grammatika va lug‘at tayyorlash faoliyati[6: 8], – deb ta’riflagan. Keyinchalik u bu faoliyatni tilni rejalashtirish natijalari, tilni rejalashtirish bo‘yicha mutaxassislar tomonidan qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishning bir qismi sifatida ko‘rib chiqdi[5: 52]. Shundan so‘ng bir qator olimlar *tilni rejalashtirish* atamasini turlicha talqin qilib, uning semantik mundarijasini boyitishga harakat qildilar.

Kuzatuvlarimiz natijasida namoyon bo‘ldiki, tilni rejalashtirish tadqiqotchilar tomonidan to‘rt xil yondashuv asosida tavsiflangan:

1) til boshqaruviga asoslangan tilni rejalashtirish tavsiflari;

2) til qurilishiga asoslangan tilni rejalashtirish tavsiflari;

3) til korpusini takomillashtirishga asoslangan tilni rejalashtirish tavsiflari;

4) til funksiyalarini o‘zgartirishga qaratilgan tilni rejalashtirish tavsiflari.

Mazkur tadqiqotimizda til korpusini takomillashtirishga asoslangan tilni rejalashtirish tavsiflariga e’tibor qaratgan holda, tilni rejalashtirish tadqiqotlari ilmiy natijalaridan korpus tuzishda foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilamiz va muayyan xulosalar berishga harakat qilamiz.

Til korpusini takomillashtirishga asoslangan tilni rejalashtirish tavsiflari bir nechta olimlar tomonidan keltirilgan bo‘lib, ularda tilning fonetik, orfografik, grammatik, leksik yoki semantik xususiyatlarini kodlash borasidagi qarashlar nazarda tutilgan.

Qayd etish joizki, o‘sha davrda til korpusi deyilganda lingvistik mezonlar ham nazarda tutilgan. Biz bu borada o‘sha davrda bildirilgan qarashlarni va ularda keltirilgan me’zonlarni bugungi kunda til korpusiga tadbiq etish mumkin deb hisoblaymiz va bu boradagi qarashlarimizni mazkur tadqiqotda dalillashga harakat qilamiz.

Til korpusini takomillashtirishga asoslangan tilni rejalashtirish tavsifining eng ahamiyatlisi Gorman tomonidan bildirilgan bo‘lib, unda lingvistik me’zonlarni rejalashtirish borasida quyidagi qarashlar bildiriladi: Tilni rejalashtirish atamasi, mening fikrimcha, tilning orfografik, grammatik, leksik yoki semantik xususiyatlarini tanlash, kodlash va ba’zi hollarda ishlab chiqish hamda kelishilgan korpusni tarqatish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni ifodalash uchun mos keladi[3: 73]. Gormanning ta’rifida asosiy e’tibor tilning strukturasini rejalashtirishga qaratilgan bo‘lib, tilning orfografik, grammatik, leksik yoki semantik xususiyatlarini tanlash, kodlash va ba’zi hollarda ishlab chiqish tilni rejalashtirishning asosini tashkil etishi, shuningdek, tilni rejalashtirish mafkuralari til korpusiga tatbiq etilishi mumkinligi ta’kidlanmoqda.

Til siyosati tadqiqi bo‘yicha fundamental izlanishlar muallifi, ijtimoiy lingvistika bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarni amalga oshirgan Fishman ham tilni

rejalashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratadi va bu jarayonni milliy darajadagi lingvistik muammolarni hal qilish bo‘yicha olib boriladigan ilmiy ishlar doirasida baholaydi. Tilni rejalashtirish atamasi, odatda, milliy darajada til muammolarini hal qilishning tashkiliy izlanishlarini anglatadi[2: 79]. Ushbu olim va o’sha davrdagi ayrim maslakdosh lingvistlar, sotsiologlar, ijtimoiy tilshunoslik vakillari tomonidan bu boradagi tadqiqotlarda keltirilgan qonuniyatlar muayyan tillarning milly korpusini tuzish uchun asos bo’lishi mumkin. Shu o‘rinda korpus va uning turlari, tilni rejalashtirish tadqiqotlarida keltirilgan farazlar va me’zonlar korpusning qaysi o’rinlarida qo’llanishi mumkinligiga e’tibor qaratsak.

Tadqiqotlarda korpusning ikki turi: ma’lum bir tilning milliy korpusi hamda mualliflik korpuslari ajratilib, dunyoda yaratilgan korpuslar qayd etilgan tiplar doirasida shakllantirilishi qayd qilinadi. Milliy korpus yaratish orqali tilning elektron-ma’lumotlar bazasi yaratiladi, sun’iy intellekt asosida tilni qayta ishlashga: imloviy-tahrir, avtomatik ishlov berish va tarjima dasturlarini tuzishga, turli belgilar asosida qidiruvni amalga oshirishga erishiladi. Ilmiy adabiyotlarda korpus turlarining boshqa tasniflari ham kuzatiladi[12: 48].

1950-yildan keyingi manbalarda korpusning grafizatsiya, standartlashtirish va modernizatsiya kabi an’anaviy asosiy toifalari adabiyotlarda keng yoritilgan. Ayrim manbalarda uning kodifikatsiya va ishlab chiqish kabi turlari ham tavsiflanadi. Kodifikatsiya va ishlab chiqish toifalari odatda standartlashtirish va modernizatsiya turlari tarkibida qayd qilinadi.

Fergyuson tillarning rivojlanishini taqqoslash mumkin bo‘lgan uchta o‘lchov mavjudligini ta’kidlaydi: Grafizatsiya – bu yozuv tizimlarini qisqartirish va takomillashtirish; standartlashtirish – mintaqaviy va ijtimoiy dialektlarni ustun qo‘yadigan me’yorni ishlab chiqish; modernizatsiya – boshqa tillarga xos bo‘lgan nutq shakllari doirasidagi o‘zaro tarjima qilish qobiliyatini rivojlantirish[1: 38]. Biz qayd etilgan korpus turlarining turli tillarda shakllantirilishida tilni rejalashtirish tadqiqotlari yetarlicha asos bo’ladi deb hisoblaymiz. Chunki tilni rejalashtirishga aloqador tadqiqotlarni amalga oshirgan tadqiqotchilar korpusning yuqoridagi turlari bo’yicha ham izlanishlar olib borgan va rejalashtirish korpus tuzish me’zonlariga ham

muvofiqligini qayd etishgan. Quyida qayd etilgan korpus turlariga qisqacha e'tibor qaratamiz.

Grafizatsiya tamoyillari va mezonlarini ikkita toifaga ajratish mumkin: 1) psixolingvistik yoki texnik; 2) sotsiolingvistik.

Psixolingvistik yoki texnik tamoyillar va mezonlar quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi: yozuv tizimini o'rganish, o'qish, yozish, boshqa tilga o'tish, zamonaviy chop etish texnikasi, qayta ishlash usullarining qulayligi.

Ijtimoiy fikrlarga nisbatan texnik mulohazalar yozma tizimni qabul qilish yoki rad etishda kamroq ahamiyatga ega.

Standartlashtirish. Fergusonga ko'ra: Ideal standartlashtirish – bu tilning barcha maqsadlari uchun kichik o'zgartirishlar yoki o'zgarishlar bilan mos keladigan yagona, keng qabul qilingan me'yorga ega bo'lgan tilni anglatadi. Mintaqaviy variantlar o'rtasidagi farqlar juda kichikdir[1: 8].

Kodifikatsiya. Bu jarayon, odatda, standartlashtirish talablariga mos keladi. Standartlashtirishning o'zi bir qator jarayonlardan tashkil topadi. Standartlashtirish jarayonini Rubin oltita o'zaro bog'liq qismlarga ajratadi: 1. Me'yorni izolyatsiya qilish. 2. Me'yorning ayrim odamlar guruhi tomonidan "to'g'ri" yoki "afzal" deb baholanishi. 3. Belgilangan matnlar yoki uslublar uchun me'yorni belgilash. Dastlabki uchta komponent Rubinning fikriga ko'ra, har doim birga bo'ladi. Standartlashtirishni muvaffaqiyatsizlikka olib keluvchi omil bu tartib hisoblanadi. Standartlashtirish amalda qo'llanishi uchun belgilangan me'yorlar 4. Qabul qilinishi. 5. Qo'llanilishi. 6. Uning o'rnini boshqa me'yor o'zgartirmaguncha amalda bo'lishi lozim[8:157].

Modernizatsiya. Tilning zamonaviy mavzular va nutq shakllari uchun mos muloqot vositasiga aylanish jarayoni modernizatsiyani anglatadi. Til resurslari yangi talablarga javob berish uchun til yangi vazifa hamda mavzularni o'zida mujassamlashtirishi lozim. Shuningdek, ushbu jarayon rivojlanayotgan, modernizatsiya qilinayotgan tillar bilan birga rivojlangan zamonaviy jamiyatlar tilida ham sodir bo'ladi.

Muayyan til korpusini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanib, bunda ko'plab soha vakillarining sohaviy bilimi va mashaqqatli mehnati talab qilinadi. Shu

ma’noda tilni rejalashtirish tadqiqotlarida ilgari surilgan farazlar tillar korpusi yaratilishi uchun muayyan darajada qo‘llanilishi mumkin. Odatda, til korpuslari davlatlar, hukumatlar, tashkilotlar yoki bir nechta soha mutaxassislarining hamkorligida, ilmiy, texnik va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashlar natijasida shakllanadi. Hozirgi kunda dunyoning qator mamlakatlari rasmiy va milliy tillarining korpusi shakllantirilgan va faoliyat olib bormoqda. Qayd etilgan korpus turlari me’zonlari yuqorida keltirilgan tilni rejalashtirish ilmiy natijalariga muayyan darajada mos kelishi aniqlandi. Xususan, til birliklarini kodlash, standartlashtirish, kodlash va modernizatsiya qilish nuqtai-nazardan o’zaro hamohanglikka ega.

Tilni rejalashtirish atamasi ko‘proq muayyan tilning qonuniyatlarini rejali tarzda shakllantirish, o‘zgartirish yoki tartibga solishni nazarda tutadi. Bu jarayon bir vaqtning o‘zida til qo‘llash darajalariga ham ta’sir qilib, jamiyatda rejali tarzda yangi til me’yorlarini targ‘ib qilishni talab qiladi. Shuningdek, tilni rejalashtirish til taraqqiyotini rejali tarzda tashkillashtirish mexanizmi sifatida qaralishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ushbu atamani til korpusiga tatbiq qilish, bizningcha, maqsadga muvofiq. Chunki til korpusiga til qonuniyatlari va materiallari rejali tarzda, tartib bilan joylashtirilishi lozim. Bunda tilni rejalashtirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarlicha asos bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Ferguson Charles A. The language factor in national development. // In Frank A. Rice (Eds.). Study of the Role of Second Languages in Asia, Africa, and Latin America. – Washington: Center for Applied Linguistics of the Modern Language Association of America, 1962. – 8 p.
2. Fishman Joshua A. Language modernization and planning in comparison with other types of national modernization and planning. // In Joshua A. Fishman (Eds.), Advances in Language Planning. – Mouton: The Hague, 1974. – 79 p.
3. Gorman Thomas P. Language allocation and language planning in a developing nation. // In Joan Rubin and Roger Shuy (Eds.). Language Planning: current issues and research. – Washington: Georgetown University Press, 1973. – 72 p.
4. Hall Robert A., Jr. American linguistics, 1925–1950. // Archivum Linguisticum. 1951, 4(1): 1–16; (2): 41–43 pp.
5. Haugen Einar. Linguistics and language planning. // In William Bright (Eds.). Sociolinguistics: proceedings of the UCLA Sociolinguistics Conference 1964. – Mouton: The Hague, 1966. – 52 p.

6. Haugen Einar. Planning for a standard language in modern Norway. // Anthropological Linguistics. 1959, 1(3). 8 p.
7. Jernudd Bjorn H. The (r)evolution of sociolinguistics. // In Christina Bratt Paulston., G. Richard Tucker (Eds.). The early days of sociolinguistics. – Dallas. Texas: Summer Institute of Linguistics, 1997. – 131 p.
8. Joan Rubin. Language standardization in Indonesia. // In Joan Rubin, Bjorn H. Jernudd, Jyotirindra Das Gupta, Joshua A. Fishman, Charles A. Ferguson (Eds.). Language Planning Processes. – The Hague: Mouton, 1977(b). – 157 p.
9. Miller George A. Language engineering. // Journal of the Acoustical Society of America. 1950, 22(6). 720 p.
10. Nekvapil Jirı. From language planning to language management. // Sociolinguistica. 2007, 20(1). – 92 p.
11. Noss Richard. Higher Education and Development in Southeast Asia. // Language Policy and Higher Education. 1967, Vol. 3, part 2. – Paris: UNESCO and the International Association of Universities, 1967. – 217 p.
12. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. – 48 с.

MA’NO TARAQQIYOTI: SEMIK TAHLIL, ANTROPOSENTRIK YONDASHUV

Feruza Uralovna Jumayeva
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. So‘zning ma’no tarkibi, taraqqiyoti denotativ, konnotativ, integral, differensial semalar tahlili asosida o‘rganilgan. Ma’no taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: sema, semema, integral semalar, diffirensial semalar, denotativ sema, konnotativ sema, tafakkur, idrok.

Аннотация. Смысловая структура и развитие слова изучаются на основе анализа денотативных, коннотативных, целостных, дифференциальных закономерностей. Выявлены факторы, влияющие на развитие смысла.

Ключевые слова: сема, семема, интегральная сема, дифференциальная сема, денотативная сема, коннотативная сема, мышление, восприятие.

Abstract. The meaning structure and development of the word is studied based on the analysis of denotativ, connotativ, integral, differensial patterns. Factors affecting the development of meaning have been identified.

***Key words*:** sema, semema, integral sema, differensial sema, denotativ sema, connotativ sema, thinking, perception.

O‘zbek tilshunosligida til birliklarining ma’nosini, uning tarkibiy qismlari, strukturasi, taraqqiyotini o‘rganishga doir salmoqli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Sh.Rahmatullayev, I.Qo‘chqortoyev, R.Yunusov, M.Mirtojiyev, H.Jamolxonov, M.Hakimova, N.Mahmudov, A.Nurmonov, Sh.Iskandarova, S.Muhammedova, Y.Odilov kabi olimlar ma’no taraqqiyoti, manoning tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi paradigmatik-sintagmatik munosabatlarni keng ko‘lamda tadqiq etdilar.

Til tadqiqiga antroposentrik yondashuv ma’noning inson tomonidan qanday idrok etilishi va nutqiy ifoda topishini o‘rganishga qiziqishni kuchaytirdi. Obyektning subyekt tomonidan idrok etilishini, tushuncha hosil bo‘lishi va tushunchalarning tilda ma’no kasb etib, lisoniy libos olishi hamda so‘z ma’nosining turlicha idrok etilishini kuzatish va uning asosini aniqlash semantik tahlillarga antroposentrik yondashuv zarurligini isbot etdi. Bunday yondashuv so‘z ma’nosining shakllanishi, taraqqiyotini semik tahlil usulida o‘rganish bilan birga so‘zning inson ruhiyati, tafakkuri, tasavvuriga ta’sirini va shu asosda yangidan yangi ma’nolarning yaralishi, kashf

etilishini, ma’no taraqqiyotida inson omilining ta’siri mavjudligi va ma’noning o‘z-o‘zini tashkil etish, rivojlantirish xususiyatiga ega ekanligini ham tadqiq etishga yo‘l ochdi. Sh.Safarovning bu boradagi ilmiy izlanishlari ma’no tadqiqiga o‘zgacha bir yo‘l, usul olib kirdi. Ma’noni tadqiq etishda diskursiv-sinergetik yondashuvning ahamiyatli ekanligini isbot etdi. Ma’no taraqqiyotida inson omilining ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ma’noning o‘z-o‘zini tashkil etishida, ichki rivoj topishida inson omili tashqi kuch sifatida ta’sir etadi.

So‘z va uning ma’nosi orqali borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat kabilarning obrazi tasavvur etiladi. Shu bilan birga insonlarning ularga munosabati anglashiladi. So‘z inson sezgilari, his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatadi, bu ta’sirlar har bir insonda o‘ziga xos tarzda kechadi va bu jarayon so‘zning qanday hislar bilan idrok etilganiga bog‘liq bo‘ladi. *Kitob* so‘zi orqali shu narsaning obrazi tasavvur etiladi, *muzqaymoq* deyilganda uning obrazini tasavvur qilish bilan bilan birga, sovuqlik, shirin ta’m his qilinadi. Hissiyotga ta’sir etuvchi so‘zlar inson tana a’zolarida o‘zgarishlar hosil qiladi. Yuzning qizarishi, qaltiroq, hayajonlanishni his qilish, yig‘lash, kulish, qo‘rqish kabi hissiyotlar qo‘zg‘aladi. Ayrim so‘zlar ijobiy, ayrimlari salbiy hislarni uyg‘otadi. M., *asalim* so‘zi ijobiy, *isqirt* so‘zi salbiy ta’sirga ega. Demak, so‘z orqali denotat yoki referentni tasavvur qilish bilan birga ular orqali xotiraga muhrlangan hislar ham jonlanadi. M., *nastarin* deyilganda uning ko‘rinishi, obrazi tasavvur etiladi, hidi yodga tushadi. Uning insonga ko‘rsatgan ta’siri his etiladi. Har bir inson o‘ziga xos idrok qobiliyatiga ega, shu bois *nastarin* haqida she’r o‘qilganda har kim uning mazmunini o‘z tasavvuri, his-tuyg‘ulariga monand tarzda anglaydi. Bir so‘z orqali kimdir yoqimli, kimdir yoqimsiz hislarni tuyadi. Bu hislar ham vaziyatga ko‘ra o‘zgaruvchan bo‘lib, *non* so‘zi och holatda boshqa, to‘q holatda boshqa hislarni o‘yg‘otadi. Bunday holatlar ma’noning nutqiy vaziyatlarga ko‘ra o‘zgaruvchan ekanligini bildiradi. Diqqatning bir obyektning turli tomonlariga qaratilishi ham ma’nodagi tovlanishlarga sabab bo‘ladi. *Kulgi* so‘zidan kulish tushunilsa, bu kulgini kimdir yuzda, kimdir ko‘zda, kimdir labda ko‘radi. Shunga ko‘ra *yuzida kulgi, labida kulgi, ko‘zida kulgi* kabi bog‘lanishlar hosil bo‘ladi. Bir obyektga turli tomondan nazar tashlash, diqqatning butunga yoki uning qismlariga qaratilishi

so‘z ma’nosida o‘zgarish bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ma’no tarkibini va so‘zning nutqda qo‘llanish doirasini kengaytiradi. Har bir inson o‘z diqqat-e’tibori, idrok qobiliyati bilan so‘z ma'nosining taraqqiyotiga ta’sir etadi.

Ma’lumki, borliqdagi narsa hodisalar o‘xshash belgilariga ko‘ra turlarga, sinflarga, guruhlarga birlashtirilgan holda idrok etiladi. Tilda so‘zlar doirasidagi tur va tasnif munosabati birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differensial) semalar tahlili asosida amalga oshiriladi. *Ot, it, mushuk* kabi so‘zlarni bir turga birlashtiruvchi sema “hayvon” semasi bo‘lsa, “kishnamoq” “hurmoq” “miyovlamoq” kabi semalar bu so‘zlarni bir-biridan farqlovchi semalar hisoblanadi. *Hayvon* so‘zi “insondan boshqa har qanday jonivor” ma’nosini bildirsa, uning ma’no tarkibi “ot”, “it”, “mushuk” kabi semalar bilan ham boyitiladi. *Hayvon* so‘zi bilan tur-jins munosabatiga kirishuvchi *ot, it, mushuk* kabi so‘zlar ularni birlashtiruvchi va farqlovchi barcha semalari bilan birga *hayvon* so‘zining ma’no tarkibini kengaytiradi. *Hayvon* so‘zining ma’no tarkibida “ot”, “it”, “mushuk” kabi semalar asosiy semalar bo‘lsa, “miyovlaydi”, “huradi”, “kishnaydi” kabi semalar chetki semalar bo‘ladi. Tur nomi sifatida qaralgan *hayvon* so‘zi tasavvurda aniq bir obrazni gavdalantirmaydi. *Hayvon* uyasiga mansub bo‘lgan barcha so‘zlarning semalarini o‘zida mujassam qiladi. Shu bois turli so‘zlar bilan sintagmatik, paradigmatik munosabatlarga kirishadi. Bunday bog‘lanishlar natijasida e’tibordan chetda qolgan semalar ham yuzaga chiqadi. *Insonni so‘z ayladi judo hayvondin, Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin.* (Alisher Navoiy) misralari orqali ham *hayvon* so‘zining ma’no tarkibida “so‘zlash, gapirish imkoniyatiga ega emaslik” sememasi mavjudligi ma’lum bo‘ladi. So‘zlarni o‘zaro qarshilantirish asosida ko‘plab chetki semalarni yuzaga chiqarish mumkin bo‘ladi. M., *inson* va *hayvon* so‘zlarini qarshilantirish asosida bir qancha e’tibor qaratilmagan semalar yuzaga chiqadi: “ongli-ongsiz”, “gapirish qobiliyatiga ega – gapirmaydi” va hakazo. Bunday semalarni aniqlash asosida so‘z ma’nosining tarkibini kengroq tasavvur qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. So‘z ma’nolarini bunday qarshilantirish, zidlash asosida yashirin semalar yuzaga chiqadi, so‘z tarkibi hosila, ko‘chma ma’nolar bilan boyiydi. So‘zning bunday ma’nolar asosida boshqa so‘zlar bilan paradigmatik munosabatlarga kirishuvi, so‘z

yasash qoliplariga moslashishi, grammatik shakllarni olib o‘zgarishi va turli so‘zlar bilan sintagmatik munosabatlarga kirishishi ma’no taraqqiyotiga asos bo‘ladi.

Tildagi ko‘plab otlar turning nomi yoki yakka predmetning nomi sifatida qo‘llaniladi. Turdosh otlar bir turdagi predmetlarning umumiy nomini bildiradi, tasavvurda umumlashma bir obrazni yaratadi, shu jihatdan uning tarkibini asosan integral semalar tashkil etadi va shunga ko‘ra signifikativ ma’nosi shakllanadi, farqlovchi semalar ishtirokida ularning denotativ ma’nosi hosil qiladi. M., *olma* so‘zi uchun “meva” yoki “daraxt” semalari umumlashtiruvchi sema vazifasida bo‘lsa, “qizil”, “sariq” semalari farqlovchi sema bo‘ladi. Shunga ko‘ra “meva” semasi signifikativ ma’noni shakllantirsa, unga “qizil”, “sariq” semalarining qo‘shiluvi denotativ ma’noni hosil qiladi. Tur va tasnif munosabatida denotativ semalar ham birlashtiruvchilik xususiyatini namoyon qiladi. So‘zlarning paradigmatik munosabatlarga kirishuvida konnotativ semalarning farqlovchilik xususiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Kishilarning borliqdagi narsa-hodisalarga munosabati so‘zda, uning shakli yoki ma’nosida ifoda topadi. Biror narsa-hodisaga “yaxshi” yoki “yomon” munosabat bildirish uchun qo‘llanilgan semalar konnotativ semalar bo‘lib, shu asosida farqlovchi belgi(sema)lar hosil bo‘ladi. Ma’no taraqqiyotida konnotativ semalarning alohida o‘rni bor. Konnotativ semaning asosiy ma’no ifodalashga o‘tishi denotativ semani ahamiyatsiz semaga aylantiradi, konnotativ semalar ham hosila, ko‘chma ma’nolarni hosil qiladi va bu ma’nolarning nutq vaziyatida o‘zgarishlarga uchrashi yana yangi ma’nolar hosil bo‘lishiga olib keladi. *Asal* so‘zining denotati iste’moldagi bir shirinlik bo‘lib, unga nisbatan hosil bo‘lgan ijobiy munosabat, asalga xos xususiyatlarning inson xususiyatlariga qiyos qilinishi insonlararo ijobiy munosabatlarda *asal, asalim* kabi so‘zlarning qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. M., *asal bolam, asal qizim* va h.k. *Asalim* deb erkalashda hosil bo‘ladigan hislar asal ta’mi orqali hosil qilingan hislardan butunlay farqli bo‘lib, bunday murojaat va erkalashlarda asal ta’midan olingan hislar emas, erkalash asosida hosil bo‘ladigan hislar uyg‘onadi. *Asal* so‘zi sintagmatik munosabatlarda turli xil hissiy-ta’siriy bo‘yoqdorlikni namoyon qiladi. M., bolaga nisbatan qo‘llangan *asalim* so‘zi bilan yoriga, suyuklisiga nisbatan qo‘llangan *asalim* so‘zi orqali hosil bo‘ladigan hislar, sezgilar butunlay farqli ekinligini

bilamiz. So‘zlarning konnotativ semalar asosida turli so‘zlar bilan sintagmatik, paradigmatik munosabatlarga kirishuvi, nutq vaziyatiga ko‘ra o‘zgarishlarga uchrashi, subyektiv munosabatlarning individual jihatdan farqli ekanligi ma’no taraqqiyotiga ta’sir etivchi muhim omillardir. Konnotativ semalar sintaktik qurilmalarda nozik, bo‘yoqdor qirralarini namoyon qiladi va shu ma’nolar asosida hosila, ko‘chma ma’nolar paydo bo‘ladi. Bunday ma’nolarda denotativ semalarning ahamiyati pasayib, hatto ma’no tarkibidan chiqib ketishi kuzatiladi, konnotativ semalar esa asosiy ma’no ifodalashga o‘tadi. Bunday ma’noviy o‘zgarishlar ko‘p ma’noli so‘zlar tarkibini hosila, ko‘chma ma’nolar bilan kengaytiradi va bu ma’nolar ba’zan alohida so‘z sifatida ajrab chiqib mustaqil holda qo‘llanishi kuzatiladi.

Konnotativ semalar integral sema sifatida ham, differensial sema sifatida ham so‘zlarni bir guruhga birlashtirish yoki ularni farqlash, qarshilantirish xususiyatiga ega. M., *asalim, shakarim* kabi so‘zlar ijobiy ma’noga ko‘ra bir guruhga mansub bo‘lsa, *mol, eshak* so‘zlari haqoratni bildirganda salbiy ma’no bo‘yog‘ini hosil qiladi. Bunday so‘zlar guruhi ijobiy va salbiy konnotatlarni ifodalashiga ko‘ra o‘zaro zidlanadi. Bunday so‘zlar muayyan nutqiy vaziyat ta’sirida, ohang ta’sirida aks, ters ma’no ifodalashi kuzatiladi. M., *asalim* so‘zini zaharhandalik bilan qo‘llash yoki *eshak* so‘zini erkalash ma’nosida qo‘llash teskari ma’nolarni, hislarni ifoda etadi.

Xullas, ma’no taraqqiyotini o‘rganishda integral va differensial semalar tahliliga asoslanish samarali usul bo‘lib, buni ham leksemalar, ham sememalar doirasida amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Sememalar doirasida amalga oshirilganda polisemem leksemalarning ma’no tarkibi va taraqqiyotini antroposentrik yondashuvlar asosida keng ko‘lamda o‘rganish imkoniyati hosil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили, 1-қисм. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – 298 б.

2. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – 168 б.

3. Юнусов Р. Полисемия и синонимия имён существительных места в современном узбекском литературном языке. Автореф. дисс …канд. филол. наук. –Ташкент, 1974.

4. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – 284 б.

5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 272 b.

6. Ҳакимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008. – Б 8.

7. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 149 б.

8. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш. (шахс микромайдони). Филол. фанл. докт. ...дисс. автореф. Тошкент. 1999.

9. Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари. Филол. фан. доктори. ...дисс. Тошкент, 2007, - 325 б.

10. Одилов Ё.Р. Ўзбек тилида энантиосемия. Докторлик дисс. автореф.Тошкент, 2016. – 102 б.

11. Сафаров Ш. Семантика. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2013. –344 б.

QIYOSIY-TARIXIY METOD HAMDA UNING SHEVALAR LEKSIKASINI O‘RGANISHDAGI O‘RNI

Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
tillabayeva87@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyati qarluq shevalarining turkiy yozma yodgorliklarga munosabati, shevalardagi ayrim turkiycha so‘zlar qadimiy turk yozma yodgorliklar tilida ham uchrashi to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritilgan. Ularning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishiga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, mazkur til birliklari yig‘ilgan materiallar asosida qiyoslanib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: til, Samarqand viloyati, qarluq shevalari, areal yo‘nalish, qiyosiy metod, umumiylik, xususiylik, lug‘aviy birliklar, “Devoni lug‘otit turk”,

Аннотация: В данной статье рассматривается связь карлукских диалектов Самаркандской области с тюркскими письменными памятниками, тот факт, что некоторые турецкие слова в диалектах встречаются и в языке древнетюркских письменных памятников. Обсуждается их изучение в мировой и узбекской лингвистике. Также на основе собранных материалов были сопоставлены и проанализированы данные языковые единицы.

Ключевые слова: язык, Самаркандская область, карлукские диалекты, ареальная ориентация, сравнительный метод, общность, специфика, лексические единицы, «Девони луготит тюрк», «Кутадгу билиг».

Annotation: This article discusses the relationship of the karluk dialects of the Samarkand region to turkish written monuments, the fact that some turkish words in the dialects are also found in the language of ancient turkish written monuments. Their study in world and uzbek linguistics is discussed. Also, these language units were compared and analyzed based on the collected materials.

Key words: language, Samarkand region, karluk dialects, areal orientation, comparative method, generality, specificity, lexical units, "Devoni lugotit turk", "Kutadgu bilig".

Ma’lumki, o‘zbek tili shevalarining xilma-xilligi bilan turkiy tillar orasida salmoqli o‘rinni egallaydi. Shu bois ham shevaga doir lug‘aviy birliklarni eng qadimiy asarlar tili bilan solishtirish dialektologiya fani uchun ahamiyat kasb etadi. Zotan, har bir til va shevaning o‘z va o‘zlashgan qatlami mavjud bo‘lib, ularni qiyoslab o‘rganish juda muhim. Bu borada olim Yorqin Abdurasulovning umumturkiy so‘zlarni umumiylik yoki xususiylik kasb etishiga ko‘ra tasniflashi fikrimizning yorqin namunasidir [1: 55-b]:

1. Turkiy tillarda qarindoshlik atamalari.
2. Turli hayvon va jonivorlar atamalari.
3. Odam, hayvon va parrandalar jismoniy a’zolariga oid atamalar.
4. O‘simlik nomlari va ularning a’zolariga oid atamalar.
5. Jo‘g‘rofiy va samoviy tushunchalarni anglatuvchi birliklar.
6. Tabiat hodisalarini ifodalovchi atamalar.
7. Narsa, voqea, hodisa, harakat, belgi va miqdor ifodalovchi atamalar.

Ko‘plab mamlakatlar qatori o‘zbek xalqi ham rang-barang yodgorliklarga ega bo‘lib, “O‘rxun- Enasoy” yodgorliklari, “Devoni lug‘otit turk”, “Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul haqoyiq” kabi asalarlar nafaqat O‘rta Osiyo xalqlari adabiyoti va shevashunosligi tamaddunida, balki jahon tilshunosligi rivojida ahamiyati katta. Qozoq tilshunosi U.K.Isabekova Mahmud Koshg‘ariy asariga yuqori baho berib, u nafaqat ilk marta turkiy tillar shevashunosligini qiyosiy-tarixiy yo‘nalishda izohlaganligini, balki shevashunoslikning areal yo‘nalishini ham oldindan belgilab berganligini alohida ta’kidlab o‘tadi: “Koshg‘ariy ishining ahamiyatli jihati shundaki, tadqiqotda ilk bora o‘rta asrlar turkiy qabilalar tillari misolida lisoniy va areal tasniflash asosida turkiy olamning dastlabki xaritasi yaratildi, turkiy qabilalarning lisoniy va geografik chegaralari, lisoniy aloqa xususiyatlari ko‘rib chiqildi” [2: 301-b]. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, shevalardagi ayrim turkiycha so‘zlar qadimiy turk yozma yodgorliklari tilida ham uchraydi. Misollarni qiyosiy-tarixiy metod yordamida solishtiraylik:

Samarqand viloyati qarluq shevalarida	**“Devonu lug‘otit turk”da**	**Adabiy tilda**
alqïš	*alqish (I,123)*	*olqish*
āxur	*aqur (I,46)*	*oxur*
ämāč	*amach (I,86)*	*omoch*
bāl	*bal (III,171)*	*bol*
äjrān	*ayran (I,142)*	*ayron*
ušuk	*ushuk (I,102)*	*sovuq*

Olim A.Aliyev haqli ta’kidlaganidek: “O‘zbek adabiy tili va turkiy tillar hamda qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari leksikasidagi bunday yaqinlik hozirgi turkiy tillarning bir tip, bir sistemadagi tillar ekanligi bilan izohlanadi. O‘rta Osiyodagi turkiy tillar lug‘atida bir xil qo‘llanadigan so‘zlar bilan bir-birlaridan farqlanadigan, u tillarning asosiy lug‘at boyligini tashkil qiluvchi so‘zlar mavjuddir” [3: 177-b].

Xullas, tilshunoslikda turli tillarga mansub shevalarni o‘rganish, tarixiy asarlarga murojaat qilish, turkiy yozma yodgorliklar tilini tadqiq etish, ularning adabiy tilga munosabati, fonetik tizimi, grammatik qurilishi, leksik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Shevalarga xos xususiyatlarni tadqiq etish nafaqat ma’lum bir tilga xos xususiyatlarni aniqlash, balki bir til oilasiga mansub tillar o‘rtasida bog‘liqlikni aniqlashga, bir-biriga yaqin bo‘lmagan tillar orasidagi so‘z o‘zlashtirish bilan bilan bog‘liq masalalarga oydinlik kiritishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси.- Т., 2009.
2. Исабекова У.К. Махмуд Кашгари – основоположник ареальной лингвистики // Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – Москва, 2017. – №8.
3. Алиев А.Ю. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. — Т.: “Фан”, *1974.*
4. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк.− Тошкент: Фан, 1960.

O‘ZBEK TILIDA “QAT’IYAT” KONSEPTINING USLUBIY XOSLANISHI

Jamoliddinova Iroda Bahodir qizi
Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti
irodajamoliddinova8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada rasmiy va badiiy uslubda “qat’iyat” konseptining turli vositalar bilan ifodalanishi haqida so‘z boradi. Jumladan, qat’iyatni ifodalovchi so‘zlar (qasam, ishonaman, aminman, kerak, shart), frazemalar (so‘z bermoq, bel bog‘lamoq), jumlalar (haqqiga qasam, ishonchim komilki), turli poetik figuralar (takror, xiazm, gradatsiya), pleonastik qo‘llashlarning badiiy va rasmiy uslubda izohlari misollar yordamida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Konsept, “qat’iyat” konsepti, leksik sath, rasmiy uslub, badiiy uslub, poetik figuralar.

Аннотация: В этой статье речь пойдет о том, как понятие “решимость” в формальном и художественном стиле выражается различными способами. В том числе слова, выражающие решимость (Клятва, я верю, уверен, должен, должен), фразы (клятва на право, я уверен), предложения (клятва на право, я уверен), различные поэтические фигуры (повторение, перекресток, градация), объяснения плеонастических применений в художественном стиле освещаются примерами.

Ключевые слова: понятие, понятие “настойчивость”, лексический уровень, формальный стиль, художественный стиль, поэтические фигуры.

Annotation: This article will talk about the expression of the concept of “perseverance” by various means in a formal and artistic style. Including words that express determination (oath, believe, I am sure, necessary, condition), phrasemas (to give words, tie a waist), sentences (true, I am sure), various poetic figures (repetition, chiasm, gradation), explanations of pleonastic applications in the artistic style are illuminated using examples.

Keywords: concept, concept” perseverance", lexical line, formal style, artistic style, poetic figures.

O‘zbek tilida qat’iyatning uslubiy xoslanganligini kuzatish mumkin. Ma’lumki, rasmiy-idoraviy uslubda farmoyish hujjatlari matnida qat’iyat leksik, grammatik birliklar, grafik vositasida aniq ko‘rinadi. Farmoyish hujjatlaridan buyruq matnlarini tahlilga tortamiz. Buyruq deb “muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo‘llanadigan huquqiy hujjatga aytiladi[1:144]. Har qanday buyruq matni ikki: asoslovchi va farmoyish qismdan iborat bo‘ladi. Asoslovchi

qism asosiy faoliyatga oid buyruqlarda farmoyish qismdan avval, kadrlar shaxsiy tarkibiga oid buyruqlarda esa keyin keladi. Har ikki tur buyruqlarda farmoyish qism “BUYURAMAN” so‘zi bilan boshlanadi. Mazkur “buyuraman” so‘zi buyruqdagi topshiriqning qat’iy ekanligini, undagi topshiriq aniq bajarilishi kerak ekanligini bildiradi. Bu haqida D.Lutfullayeva ham quyidagicha fikr bildiradi: “*Buyurmoq* fe’lini birinchi shaxs birlik shaklida hamda aniq nisbatda qo‘llash orqali buyurish amalining yakka shaxsga tegishli ekanligiga urg‘u beriladi va shu asosda unga qat’iy buyruq ruhi singdiriladi. Bu fe’lning *-a* ko‘rsatkichli hozirgi-kelasi zamon shakli bilan ifodalanishida ikki holatni payqash mumkin: buyruqning bayon etilish vaqti uni chiqargan shaxs uchun doimo hozirgi zamonni anglatsa, uni bajaruvchi shaxs uchun kelasi zamon ma’nosi anglashiladi. *Buyurmoq* fe’lining farmoyish matnida *“BUYURAMAN”* shaklida kelishi bu fe’lning aniq bir morfologik shaklda qo‘llanish belgisiga ega bo‘lishini ko‘rsatadi”[2:47]. Odatda farmoyish hujjatlardan buyruq, farmoyish, ko‘rsatma va qarorlar matnida rahbarlar tomonidan aniq topshiriqlar beriladi. Shulardan tashkilot, muassasalarda eng ko‘p ishlatiluvchi hujjat buyruqdir. Asosiy faoliyatga oid buyruqlar matnida farmoyish qism “buyuraman” so‘zi bilan boshlanadi hamda har bir farmoyishdagi fe’l buyruq mayli, majhul nisbatda qo‘llanadi. Bu o‘rinda majhul nisbatning qo‘llanishi ham asosiy e’tibor bajaruvchiga emas, balki topshiriqning bajarilishiga, topshiriqning qat’iyligiga, bajarilishining majburiyligiga qaratiladi.

3-rasm.

BUYURAMAN:

I. Buyumlar va moliyaviy yo‘qlama o‘tkazishda quyidagi muddatlar belgilansin:

1. Tayyor mahsulotlarning ishlab chiqarishda tugallanmagan xarajatlari uchun – 2020-yil 1-yanvargacha.

2. Birlashma mulki, asosiy mablag‘lar uchun – 2019-yil 15-dekabrgacha.

3. Mo‘ljallangan zararni qoplash uchun vaqtinchalik qarz (dotatsiya) hisob-kitobi, soliqlar badallari va byudjetdan boshqa to‘lovlar bo‘yicha moliya organlari bilan hisob-kitob, pul mablag‘lari, qimmatdor buyumlar va qat’iy hisobotdagi hujjatlar, yuqori tashkilotlar bilan hisob-kitob holati uchun – 2020-yil 1-yanvargacha.

II. Rejalashtirilgan yo‘qlamani o‘tkazish uchun quyidagilardan iborat komissiya tuzilsin:

1. Karimov I. – rais (kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi)

Badiiy uslub tilning barcha imkoniyatlari ochiladigan, barcha go‘zalliklari namoyon bo‘ladigan, muallifning har qanday ma’noni ifodalash usullarini ko‘tara oladigan, muallif va obraz haqida ma’lumotlar bera oladigan uslubdir.

Badiiy matnda qat’iyat o‘zgacha ma’no kasb etadi. Badiiy matnda lisoniy shaxsning o‘z tuyg‘ularida, o‘z hissiyotlarida qat’iy ekanligi, fikrlari rostligiga ishonchi komil ekanligi ifodalanadi. Badiiy matnda inkor shakllarning qo‘sh qo‘llanishi orqali ham qat’iylikning kuchaytirilishi ko‘p kuzatildi: *Bugun seni ko‘rmasam bo‘lmas* (albatta ko‘rishim kerak).

Bu hodisa pleonazm emas. “Agar bo‘lishsizlik ko‘rsatkichi har ikki komponentga qo‘shilganda, yetakchi fe’ldagi inkor ma’nosi ko‘makchi fe’ldagi *-ma* formanti orqali inkor etiladi va natijada tasdiq ma’nosi kelib chiqadi. Masalan: aytmay qo‘ymaydi, bilmay qolmaydi kabi. Ikki inkorning bo‘lishlilik anglatish hodisasi qo‘shma fe’lning doirasi bilangina chegaralanmasligini A. G‘ulomov ko‘rsatib o‘tgan edi. U dunyodan bolasiz o‘tmadi (-siz va -ma) kabi. Yuqoridagi misollarda qo‘llangan ikki inkorning birini tushirib qoldirsak, grammatik ma’no tamoman o‘zgaradi, ya’ni sof inkor ifodalanadi. Ma’lumki, pleonastik qo‘llanishda affikslarning birini tushirib qoldirsak ma’no keskin o‘zgarmaydi, o‘zgargan taqdirda ham bu farq stilistik tomondangina bo‘ladi”[3:20].

Badiiy matnda qat’iyat takrorlar orqali ham yorqin ifodalanadi. Ma’lum bir so‘zni takror qo‘llanishi orqali fikrning qat’iy ekanligi yanada bo‘rttiriladi:

Bir she’r yozay BAXT haqida, armonlardan charchadim,
Rashku firoq, arazlardan,hijronlardan charchadim.
Osmoniy bir so‘roqlarni jamlab kelsin so‘zlarim.
Jonim yegan, shubhalardan, gumonlardan charchadim (Muhammad Yusuf).

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida hujjatlar matnida qat’iyat leksik, grammatik, grafik vositalar orqali yuzaga chiqib, topshiriq, mas’uliyat, da’volarning qat’iy ekanligini bildirsa, she’riy matnlarda lisoniy shaxsning o‘z tuyg‘ularida, o‘z hissiyotlarida qat’iy ekanligi, fikrlari rostligiga ishonchi komil ekanligi ifodalanadi. Unda qat’iyat turli vositalar, jumladan, pleonastik qo‘llashlar, poetik figuralar va qat’iyat semantikali so‘zlar orqali ifodalanadi. Nasriy asar matnlarida esa qat’iyat

obrazning tasvirining barcha jihatlariga, jumladan, ovozi, xatti-harakati, qarashlari, fikri va nutqiga singdirib yuboriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aminov M., Madvaliyev M., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 144
2. Лутфуллаева Д. Мустақиллик даври расмий-идоравий иш услуби тараққиёти. – Тошкент, 2020. – Б. 47.
3. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент: Фан, 1988. -Б. Яндашева Т. Ўзбек ва инглиз тилларида “гўзаллик” концептининг ифодаланиши ва лингвопоэтикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. 21-бет.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б.
5. Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. - М.-Л., 1978. –С.82-84
6. Бекмуродов М. Миллат руҳи / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2019 – №43 (4545).
7. Muhayyo Hakimova. (2024). The Influence of National Thinking on the Formation of Abstract Vocabulary. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(5), 447–450.

INGLIZ TILIDA INKORNI IFODALASHNING IMPLISIT SHAKLI

Buranova Dildora Ximmatovna
TerDu tayanch doktoranti

Annotatsiya: Inson intelektual hayotining turli bosqichlari davomida inkor ko‘plab fan olimlarining o‘rganish sohasi bo‘lib kelmoqda. Negativlik har xil tillarda o‘ziga xos til birliklari bilan ifoda etiladi. Ushbu maqolada inkorni ifodalashning implisit shakli haqida so‘z yuritiladi. Implisitlik muammosi va uni ifodalash usullari ko‘plab tilshunos olimlarda qiziqish uyg‘otadi va negativlikni eng muhim lingvistik kategoriyalardan biriga aylantiradi.

Kalit so‘zlar: negativlik, implisit inkor, eksplisit inkor, leksik-grammatik kategoriya,leksema.

Аннотация: На различных этапах интеллектуальной жизни человека отрицание было областью исследования многих ученых. Негатив выражается в разных языках с помощью определенных языковых единиц. В данной статье речь идет о неявной форме выражения отрицания. Проблема имплицитности и способы ее выражения интересуют многих лингвистов и делают негативность одной из важнейших лингвистических категорий.

Ключевые слова: негативность, имплицитное отрицание, явное отрицание, лексико-грамматическая категория, лексема.

Abstract: During various stages of human intellectual life, negation has been the field of study of many scientists. Negativity is expressed in different languages with specific language units. It is discussed about the implicit form of expressing negation in this article. The problem of implicitness and the methods of its expression are of interest to many linguists and make negativity one of the most important linguistic categories.

Key words: negativity, implicit negation, explicit negation, lexical-grammatical category, lexeme.

Inkorning tabiati haqida ko‘plab tadqiqotlarning olib borilganiga qaramay, hali hanuz inkor va uning tabiati haqida aniq hamda universal ta’rif berilgani yo‘q. Inkor nafaqat lingvistika , balki falsafa , mantiq va boshqa turli tuman fanlarning o‘rganishg obyekti dir[1]. Dunyoda inkor shaklga ega bo‘lmagan til yo‘q. Tilshunos Ch. Bally inkorga nutq akti sifatida qaraydi va unga quyidagicha ta’rif beradi: “Inkor- tasdiq gapning inkor gap orqali rad etilishidir”[2].

Tilshunos V.A. Plungyan esa inkorni “universal grammatik to‘plam” deb ataydi[3]. Inkorning asosiy vazifasi borliqdagi narsa va voqelikka bo‘lgan so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi. Negatsiya bitta gap, uning bir qismi, alohida

bir birikma yoki so‘z orqali ifoda etiladi. L.N.Lunkova fikriga ko‘ra :”Inkor nafaqat oddiy tasdiq gaplar tarkibida, balki shart ergash gaplar, qo‘shma gaplar va gapning boshqa bo‘laklari tarkibida ham uchraydi”.[4]

Inkor lingvistik universaliyadir, u turli yo‘llar bilan ifodalansada, barcha tillarda aks etadi. Lingvistik inkor kategoriyasining umumiy mantiqiy mazmunini yo‘qlik, farq, mahrumlik, shuningdek, denotativ xususiy ma’nolarini: kelishmovchilik, e’tiroz, rad etish kabilar tashkil etadi. Tildagi inkor leksik-grammatik kategoriyadir, chunki u leksik (yoki implisit - salbiy semantikaga ega so‘zlarda) ifodalanadi: to refuse, to ignore, yoki eksplisit - inkor affiksli so‘zlarda) va grammatik,shu jumladan sintaktik jihatdan (tasdiq - inkor gap konstruktsiyalarining qarama-qarshiligi)[5]. Lingvistik universaliya sifatida inkor turli til darajalarida namoyon bo‘ladi: leksik, grammatik va fonetik. Bundan tashqari, inkorni ifodalash uchun ishlatiladigan vositalar juda xilma-xil bo‘lib, ular implisit va eksplisitni o‘z ichiga oladi[6]. G.I. Kalinechinko inkorning implisit shakli haqida so‘z yuritar ekan , unga shunday ta’rif beradi: “Muayyan tillarda negativlik bilvosita ya’ni inkor ma’noni ifodalovchi so‘zlarni ishlatmasdan bir qator lingvistik vositalardan foydalangan holda ifodalanishi mumkin. Bu kabi ifodalash implisit inkor deb ataladi. Implisit inkor butun bir jumlaning inkor ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xos intonatsiya va qo‘shimcha lingvistik omillar bilan kuchaytiriladi”[7].

L.N.Lunkova implisit inkor grammatik bo‘lmagan mexanizmlarni qo‘llash orqali ifodalanadi deya ta’kidlaydi.Olimning fikricha, bu negativ xabar yoki g‘oya inkorni ifodalovchi grammatik belgilarni talab qilmaydi degani emas. Semantik darajada u ko‘pincha yashirin tarzda ya’ni bilvosita amalga oshiriladi. Bu, ayniqsa, ishora qilish, muallifning voqea yoki bayonotga nisbatan hissiy va baholovchi munosabatini aks ettirish zarurati tug‘ilganda ishlatiladi[8]. Inkorni ifodalashning implisit vositalariga sintaktik, leksik, birliklar kiradi, ular bayonotning ma'lum kombinatsiyasida negativ ma'noning shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, bu holatlarda inkorning izohlanishi semantik transformatsiya orqali ham ifodalanishi mumkin, masalan: I tell a lie! = I cannot tell a lie.[9].

O.A.Prokofyeva ta’kidlashicha: “Implisit inkor aksariyat hollarda va ifodaning stilistik va ekspressiv xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan: I thouhgt you are clever! = You are not clever at all. Ushbu jumla suhbatdoshning aqliy qobiliyatiga berilgan bahoni rad etishning istehzoli ma'nosiga ega bo‘lib, u so‘zlovchining hissiy holatini ham, uning shaxsiy munosabatini ham ifodalaydi”.[10] Implisit inkor ko‘pincha borliqning muammoli tabiatining modal ma'nolari, harakatni amalga oshirish, nutq predmetiga biron bir xususiyatni berish, shuningdek, so‘zlovchining hissiy holatini bildiruvchi ma'nolar bilan ifodalanadi. [11].

Implisit inkorga ega bo‘lgan gaplar o‘zining leksik tarkibi, sintaktik tuzilishi va ma’lum bir intonatsiyasi bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga ko‘ra, implisit inkor ma'noni anglatuvchi leksik-semantik ko‘rsatkichlar orasida quyidagilar ajralib turadi:[12]

1. Predmet oldidan o‘rin egallab, gapga salbiy ma’no beradigan good, much, a lot, excellent,kabi so‘zlar: *Masalan: What is the good of buying a car if you cannot drive it? = Agar haydashni bilmasangiz mashina sotib olish nimaga kerak? (sotib olish kerak emas) (Longman dictionary of contemporary English. P.757)*
2. Inkor ma’noga ega bo‘lgan va og‘zaki nutqda g‘azabni ifodalab gapning ma’nosini kuchaytirish uchun ishlatiladigan **the hell, the devil** kabi so‘zlar:

Masalan:The hell she will help us. = She won't help us.(dictionary.com)

3. Nonsense, stuff, rubbish, rot, kabi o‘zidan oldingi gapni inkor etishga xizmat qiluvchi so‘zlar;

Masalan: She was blamed for stealing the money. – You do talk rot. (Nonsense.) (= She couldn’t do it).

4. So‘zlovchining suhbatdosh nutqiga salbiy munosabatini bildiruvchi leksik takrorlar: Masalan:You look happy and lucky. - Happy and lucky? You know nothing about my life.(I am not happy and lucky as you think.)
5. So‘roq konstruksiyalarida implisit inkor so‘roq so‘zlar bilan fe’llarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nolari o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan ifodalanadi:[12] Masalan: It is very difficult situation to do something. What can I do? (I cannot do anything)

Bunday konstruksiyalarda implisit inkor ritorik so‘roq ma’nosini ifodalab keladi:[13]

Masalan: How could I possibly forget? - I cannot forget.(grammarly.com)

Gap tuzilishida grammatik inkor bo‘lmasa-da, uning negativlik ma’nosini ayrim leksemalar bilan ham ifodlash mumkin.Bular inkor semantikaga ega so‘zlardir:

a) refuse, f**ail, deny, doubt, miss, ignore , deny, *ban*,*neglect*** *kabi fe’llar; Masalan: Prosecutor Deanna Heer KC said that Noor had repeatedly denied to police that she had been threatened to force her to agree to the procedure.(BBc News)*

b) doubt, failure, lack, objection kabi otlar; Masalan: "The lack of medicine is catastrophic and there is no space in hospitals," Dr Hams told the BBC.(BBC News.14.12.2023)

c) absurd, opposite,absent, wrong, kabi sifatlar; Masalan: Attendance data shows that 17% of pupils in Wiltshire schools were recorded as persistently absent, which means missing more than 10% of school sessions, as of February.(BBC News. 16.03.2024)

d) hardly, scarcely, barely kabi ravishlar; Masalan: Nikki Hesford says she hardly uses cash now, preferring the convenience of payment apps(BBC News. 18.09.2018)

e) against, without kabi predloglar. Masalan: The 17-year-old from Jammu district was born with phocomelia, a rare congenital disorder, making her one of the few female archers to compete without arms.(BBC News.25.08.2024)

Inkor kategoriyasining implisit shakllarini ifodalash usullari murakkab bir hodisa bo‘lganligi sababli zamonaviy tilshunoslikda yetarlicha o‘rganilmagan. Chunki, implisit inkor negativlik ma’nosini ifodalashni osonlashtiradigan grammatik ko‘rsatkichlar bilan ifodalanmaydi, balki bunday gaplarning semantikasi lingvistik mikrokontekstga bog‘liq bo‘ladi, so‘zlovchining dunyo, qolaversa, o‘zi va hissiy holati haqida sub‘ektiv hamda cheklangan mulohazalarini aks ettirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR.

1. L.N. Lunkova. Explicit and Implicit Negation in the Natural Language. Вестник РУДН, серия *Теория языка. Семиотика. Семантика*, 2016, № 1. P.19
2. ЛЭС (1980): Лингвистический энциклопедический словарь [Linguistic Encyclopedic Dictionary] / Под ред. В.Н. Ярцевой. Москва,1980.-С.354-355.

3. Плунгян В.А. Введение в грамматическую семантику: Грамматические значения и грамматические системы языков мира [Introduction to Grammatical Semantics. Grammar Codes and Grammar Systems of Languages Worldwide]. Москва,2011.-С.94-100.
4. L.N. Lunkova. Explicit and Implicit Negation in the Natural Language .Вестник РУДН, серия *Теория языка. Семиотика. Семантика*, 2016, № 1. P.21
5. О.А. Прокофьева. Функционально-семантические особенности отрицания в современном английском языке [Текст]: дис. ... канд. филол. наук. - Пятигорск: Изд-во ПГЛУ, 2002-С.36-37
6. О.А. Прокофьева. Функционально-семантические особенности отрицания в современном английском языке [Текст]: дис. ... канд. филол. наук. - Пятигорск: Изд-во ПГЛУ, 2002.-С.37
7. Калиниченко, Г.И. Особенности употребления отрицания в современном английском языке [Текст] // Единство системного и функционального анализа языковых единиц / Г.И. Калиниченко, О.В. Серкина. – Белгород: Изд-во Белгород. ун-та, 1996. – Вып. №2. – С. 28
8. L.N. Lunkova. Explicit and Implicit Negation in the Natural Language .Вестник РУДН, серия *Теория языка. Семиотика. Семантика*, 2016, № 1.-P.22.
9. Jespersen O. Essentials of English Grammar. - L., 1959. – P.387.
10. О.А. Прокофьева. Функционально-семантические особенности отрицания в современном английском языке [Текст]: дис. ... канд. филол. наук. - Пятигорск: Изд-во ПГЛУ, 2002.-С.39
11. Шаповал Л.Н. Фонетическая реализация имплицитного отрицания в английском языке (теоретически - экспериментальное исследование): Диссертация ... канд. филол. наук.: 10.02.04. - Пятигорск, 1989. - 26с.
12. О.А. Прокофьева. Функционально-семантические особенности отрицания в современном английском языке [Текст]: дис. ... канд. филол. наук. - Пятигорск: Изд-во ПГЛУ, 2002.-С.40
13. L.N. Lunkova. Explicit and Implicit Negation in the Natural Language .Вестник РУДН, серия *Теория языка. Семиотика. Семантика*, 2016, № 1.-P.22.

TILSHUNOS OLIMLARNING TILGA OID QARASHLARI

Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li
TerDPI o‘qituvchisi
Fahriddinova Muhlisa
TerDPI 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslik sohasida faoliyat yuritgan mashhur olimlarning tilshunoslikka oid nazariyalari tahlil qilinadi. Avvalo, tilshunoslik nazariyalarining rivojlanish tarixiga qisqacha nazar tashlanadi. Maqolada Ferdinand de Sossyur, Noam Chomskiy, jadidshunos olimlar va boshqa bir qator olimlarning tilni tahlil qilishda olib borgan yondashuvlari va konseptual strukturalari o‘rganiladi. Har bir olimning tilshunoslikka qo‘shgan hissasi, ularning asosiy nazariy fikr va tushunchalari, masalan, Sossyurning strukturalizm ta’limoti, Chomskiyning generativ grammatika nazariyasi kabi masalalar muhokama qilinadi. Maqola, shuningdek, bu nazariyalar orasidagi farqlarni va umumiy jihatlarni ham yoritadi, tilshunoslik sohasining zamonaviy ko‘rinish va tendensiyalarini ko‘rsatib beradi. Ushbu maqola tilshunoslik fanining asosiy yo‘nalishlari va ularning rivojlanishini chuqurroq tushunishga qiziqqanlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Tilshunoslik, tilshunos olimlar, nazariyalar, strukturalizm, generativ grammatika, Saussure, CHomskiy, jadidshunos olimlar, til tahlili, Behbudiy, Abdulla Avloniy, yondashuvlar, kommunikatsiya, kognitiv tilshunoslik, ijtimoiy tilshunoslik, poststrukturalizm, etnolingvistika, funksionalizm.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвистические теории известных ученых, работавших в области языкознания. Прежде всего дан краткий обзор истории развития лингвистических теорий. В статье рассматриваются подходы и концептуальные конструкции Фердинанда де Соссюра, Ноама Хомского, историков и ряда других ученых при анализе языка. Обсуждается вклад каждого ученого в лингвистику, их основные теоретические идеи и концепции, такие как теория структурализма Соссюра и теория порождающей грамматики Хомского. Статья также проливает свет на различия и общие моменты между этими теориями, показывает современный взгляд и тенденции в области языкознания. Данная статья может быть полезна тем, кто заинтересован в более глубоком понимании основных направлений языкознания и их развития.

Ключевые слова: лингвистика, учёные-лингвисты, теории, структурализм, порождающая грамматика, Соссюр, Хомский, учёные-историки, языковой анализ, Бехбуди, Абдулла Авлони, подходы, коммуникация, когнитивная лингвистика, социолингвистика, постструктурализм, этнолингвистика, функционализм.

Annotation: This article analyzes the linguistic theories of famous scientists who worked in the field of linguistics. First of all, a brief look at the history of the development of linguistic theories is given. The article examines the approaches and conceptual structures of Ferdinand de Saussure, Noam Chomsky, historians and a number of other scientists in the analysis of language. Each scientist's contribution to linguistics, their main theoretical ideas and concepts, such as Saussure's theory of structuralism and Chomsky's theory of generative grammar, are discussed. The article also sheds light on the differences and common aspects between these theories, and shows the modern outlook and trends in the field of linguistics. This article may be useful for those who are interested in a deeper understanding of the main areas of linguistics and their development.

Key words: Linguistics, linguistic scientists, theories, structuralism, generative grammar, Saussure, Chomsky, historical scientists, language analysis, Behbudi, Abdulla Avloni, approaches, communication, cognitive linguistics, sociolinguistics, poststructuralism, ethnolinguistics, functionalism.

Tilshunoslik, inson tilining tabiati, tuzilishi, rivojlanishi va ishlatilishini o‘rganadigan fan sifatida ko‘plab ilmiy maktablar va yondashuvlarni keltirib chiqargan. Tillarni o‘rganishda olimlar turli nazariyalar asosida yangi metodlarni ishlab chiqqan va ular orqali tilning ijtimoiy, psixologik, struktural va evolyutsion tomonlarini o‘rganlar. Ushbu maqolada tilshunoslikka oid ba’zi mashhur ilmiy qarashlar va nazariyalar tahlil qilinadi. Tilshunoslik tarixida eng birinchi asosiy nazariya Strukturalizmga asoslangan bo‘lib, uning asoschisi Ferdinand de Sossyur hisoblanadi. Saussere tildagi barcha elementlar o‘rtasidagi munosabatlar va tilning ichki tuzilishini o‘rganishga katta ahamiyat bergan. Uning asosiy qarashi shu bo‘lganki, til - bu faqat alohida elementlar yig‘indisi emas, balki ular o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlar tizmidir. Sossyur tilni ikki asosiy komponentga bo‘lgan: “lan” [tilning umumiy tizimi] va “parol”[1]. U strukturalizmni rivojlantirish uchun bir nechta o‘zining nazariyalarini o‘ylab topgan va ko‘plab izlanishlar olib borib ishlagan. Strukturalizmni rivojlantirishda keyinchalik Strauss, Roland Barthes va Michel Foucault kabi olimlar ham hissa qo‘shdilar. Xususan, ulardan Strauss strukturaviy tahlil metodlarini etnologiya va folklor sohalariga tatbiq qilib, til va madaniyatning o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rgandi. Barthes esa tilshunoslik va adabiyot nazariyasini birlashtirib, til va madaniyatdagi belgilarning ma’nosini o‘rganishga qaratdi.

Poststrukturalizmda esa, til va madaniyatga bo‘lgan yondashuvlar yanada ko‘proq subyektivlik va dekonstruksiya tamoyillariga asoslangan. Til haqida yana boshqa olim esa shunday xulosa beradi. XX asrning o‘rtalarida, tilshunoslikda Noam CHomskiy tomonidan ishlab chiqilgan generativ grammatika tilda yangi bir burilish yasadi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. CHomskiy tilni faqat tashqi nutqiy ko‘rinishlar emas, balki insonning aqliy tuzilmasi orqali tushunishga harakat qildi. U inson ongida tilni o‘rganishga imkon beradigan biologik imkoniyatlar mavjudligini ta’kidlagan. CHomskiyning “Universal Grammatika” nazariyasi barcha tillarning asosida bir nechta umumiy strukturalar borligini, va bu strukturalar inson aqli tomonidan o‘rganish uchun dastlabki imkoniyatlarni yaratadi degan fikrni ilgari suradi. Bundan tashqari, tilshunoslikda psixologik yondashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. Psixolingvistika esa, til va psixika o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Olimlar tilni inson ongining faoliyati sifatida ko‘rib, tilni insonning fikrlash jarayonlari bilan bog‘lashga harakat qiladilar. Bundan kelib chiqadiki, til faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki insonning tafakkur va aql-idrokini aks ettiruvchi bir tizim sifatida qaraladi. Tilning shunday sohasi ham borki, u tilni ijtimoiy konteksda o‘rganadi va tilning jamiyatdagi roli, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi farqlar, til va ijtimoiy tabaqalanish o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashga qaratiladi. Bu soha ijtimoiy tilshunoslik deyiladi. Bundan tashqari etnolingvistika va funksionalizm kabi yondashuvlar ham tilning ijtimoiy va madaniy muhitga ta’sirini tahlil qiladi. Etnolingvistika tilni milliy va etnik guruhlar identifikatsiyasining asosiy vositasi sifatida ko‘rib, uning etnik madaniyat va tarix bilan aloqasini o‘rganadi. Funksionalizm esa, tilni jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalarni bajaruvchi tizim sifatida ko‘radigan nazariyadir. Tilimizda kognitiv so‘zini ham ko‘p eshitamiz. Kognitiv tilshunoslik - bu tilni insonning fikrlash jarayonlari va idrokini aks ettiruvchi tizim sifatida tushunish yondashuvidir. Bu yondashuvda, til faqat tashqi nutqiy ifoda emas, balki dunyo haqidagi tushunchalarni shakllantiruvchi kognitiv jarayon sifatida qaraladi. Kognitiv lingvistika, masalan, George Lakoff va Ronald Langacker tomonidan rivojlantirilgan, ularning fikricha, til tushunchalar va fikrlash bilan bog‘liq bo‘lib, insonlarning dunyoqarashi va xatti- harakatlarini shakllantiradi.

Til borasidagi qarash va nazariyalar faqat bu olimlarning xulosalari bilan cheklanib qolmaydi. Bu borada jadidchi boblarimiz ham ko‘pgina qimmatli fikrlar bildirishgan. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixida jadidlar harakati XX asrning boshlarida ijtimoiy, siyosiy va madaniy yangilanishni targ‘ib qilgan muhim bir harakat bo‘lib, ular o‘zlarining ta’lim- tarbiya, milliy uyg‘onish va til masalalaridagi qarashlari bilan diqqatga sazovor. Jadidlar, asosan, musulmon jamiyatida yangi ta’lim tizimini, turli madaniyatlarni va zamonaviy ilmiy yondashuvlarni o‘rganish uchun yangicha fikrlashni targ‘ib qilganlar. Ularning tilshunoslikka oid nazariyalarida, avvalo, tilning ijtimoiy rolini, milliy tillarning rivojlanishini va ta’limdagi ahamiyatini ko‘rib chiqqanlar. Bu maqolada jadidlarning ham tilshunoslikka oid asosiy qarashlari va nazariyalari haqida ma’lumot berilib o‘tiladi. Jadidlar harakatining tilshunoslikka oid qarashlarini o‘rganishda, avvalo, ularning milliy va ijtimoiy manfaatlarga, ta’limni yangilashga qaratilgan ishlari e’tiborga olinadi. Jadidlar uchun til nafaqat kommunikatsiya vositasi balki milliy birlashuv va ijtimoiy taraqqiyotning asosi bo‘lib xizmat qilgan. Jadidlar tilni ijtimoiy birlik va uyg‘onish vositasi sifatida ko‘rganlar. Ular turk, arab, fors tillarining o‘rni va zaruratini inkor etib, o‘zbek tilining milliy ta’lim va jamiyatdagi roli haqida ko‘plab izlanishlar olib borganlar. Jadidlarning ta’lim tizimi haqida qarashlari juda keng edi. Ular o‘zbek tilida zamonaviy ta’limni ishlab chiqishga, madaniyatni va ilmni o‘zbek tilida targ‘ib qilishga katta e’tibor berishgan. Jadidlar, shu bilan birga, o‘zbek tilining yozma shaklini modernizatsiya qilish, lotin harflariga asoslangan yozuvni qo‘llashni taklif qilishgan. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi xalqni o‘z tilida bilim olish imkoniyati bilan ta’minlash edi. Jadidlar tilni zamonaviy bilimlarni o‘rgatish vositasi sifatida emas, balki milliy uyg‘onish va jamiyatni isloh qilishning asosiy quroli sifatida ko‘rganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidlardan biri bo‘lib, tilshunoslikka oid qarashlari juda ahamiyatlidir. Behbudiy o‘zbek tilining rivojlanishi va uning ta’lim tizimida keng qo‘llanilishi tarafdori edi. U, shuningdek, o‘zbek tilining o‘qitish metodikasini ishlab chiqishga, tilni o‘qitishning yangi usullarini tatbiq qilishga alohida e’tibor qaratgan. Behbudiy “Til masalasi”[4:8] maqolasining oxirida hech qaysi bir til faqatgina o‘z so‘z boyligi bilan taraqqiy eta olmasligi, boshqa tillardan yangi so‘zlar qabul qilish hisobiga rivojlana olishini

ta’kidlash bilan bir qatorda, tilni soflashtirish bilan vaqtni bekor sarflamasdan uning o‘rniga “kelar zamon uchun hozirlanayluk, o‘tgan zamon uchun emas” [4:34] degan qat’iy fikrni o‘rtaga tashlaydi. Bundan tashqari, u Turkistonning turli mintaqalari shevalari orasida farq bo‘lgani uchun ushbu shevalarda adabiy asarlar yozish ham maqsadga muvofiq emasligini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda, Behbudiy adabiy til yaratish borasidagi asosiy muammo va to‘siq sifatida millat onalarning savodsizligini ko‘radi. Adabiy til yaratmoq uchun, Behbudiyga ko‘ra, birinchi navbatda “biz avval onamizni o‘qutub, anga til o‘rgatmoqimiz kerak”[4:34]. Adabiy tilning hamda ilm-fanning rivoji millat onalarining bilimiga bog‘liq ekanini ta’kidlagan. Abdulla Avloniy ham jadidlarning eng muhim tilshunos olimlaridan biridir. Avloniy o‘zbek tilining yozma shaklini modernizatsiya qilishga harakat qilgan va ko‘plab lug‘atlar, grammatikalar va boshqa tilshunoslikka oid asarlar yaratgan. U o‘zbek tilining lotin harflarida yozilishining zarurligini ta’kidlagan va tilni ilmiy asosda rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Jadidlarning tilshunoslikka oid qarashlari, nafaqat o‘zbek tilining rivojlanishiga, balki boshqa turkiy tillarning ham o‘zaro bog‘lanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ularning ilmiy ishlari va tilshunoslikka oid yondashuvlari hozirgi kunda ham zamonaviy tilshunoslikka va ta’lim tizimiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Jadidlarning tilshunoslikka bo‘lgan yondashuvi, o‘zbek tilining zamonaviy talablarga javob berishi, uning taraqqiyotini ta’minlash va milliy ongni rivojlantirish uchun muhim qadamlardir. Ularning asarlari zamonaviy ta’lim va tilshunoslikda muhim manba bo‘lib qolmoqda.

Tilshunoslik sohasidagi ilmiy qarashlar va nazariyalar doimo rivojlanib borayotgan fanlar hisoblanadi. Har bir yondashuv tilning turli jihatlarini o‘rganishga qaratilgan va har bir olim o‘z qarashlari orqali tilning murakkab tabiati haqida yangi bilimlar yaratgan. Strukturalizm, generativ grammatika, kognitiv lingvistika, poststrukturalizm kabi yondashuvlar tilshunoslikning rivojiga muhim hissa qo‘shgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlarni hisobga olishga qaratilgan yangi yondashuvlar ham o‘z o‘rnini topgan.

Shunday qilib, tilshunoslikni o‘rganish orqali til nafaqat kommunikatsiya vositasi sifatida, balki inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy tizimining ajralmas

qismi sifatida ko‘riladi. Bu ilmiy soha o‘zining doimiy yangilanishi va yondashuvlarining xilma- xilligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy, A. [1911]. “O‘zbek tilining grammatikasi.” Buxoro, Behbudiy nashriyoti.
2. Sayfullayev N. H. o‘g‘li. (2023). IJTIMOIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(12), 106–111.
3. Khayrullayev, M. [2020]. “Tilshunoslik nazariyalari va zamonaviy yondashuvlar”. O‘zbekiston ilm-fan va ta’lim jurnali.
4. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.
5. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.
6. SHokirov, B. [2018]. “Jadid tilshunosligi: Tajriba va istiqbol”.O‘zbek tilshunosligiga oid ilmiy izlanishlar to‘plami.
7. Majidova Shahnoza Komilovna, & Ashurova Muhayyo Rustam qizi. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 87–90.
8. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
9. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI.
10. Abdirashidov, Z. Sh. 2020. “Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilshunoslikka oid tadqiqotlariga doir”. O‘zbekiston: til va madaniyat 2: 24–37.

“ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MAQOLLARNING KONSEPTUAL TAHLIL MUAMMOLARI”

Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi assistenti
Farmonova Nazirabegim Sadriddinovna
Osiyo xalqaro universiteti
3-FT (O‘)-24 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqol arabcha “qavvola” so‘zidan olingan bo‘lib ≪aytmoq yoki so‘zlamoq≫ ma’nolarini anglatadi. Maqollarda xalqning necha ming yillar davomida turmushda sinalib, anglangan haqiqatlar ixcham axloqiy baho tarzida umumlashtirilgan bo‘ladi. O‘zbek xalq maqollari uzoq davrlar davomida yashab kelmoqda. Alohida janr sifatida ham maqollar shakllangan. Avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga bizgacha yetib kelmoqda. Ota-bobolarimizdan meros sifatida qo‘llaniladigan nasihat desak ham adashmaymiz.

Аннотация: пословица происходит от арабского слова “qavvola”, что означаето говорить или говорить≫. В пословицах истины народа, проверенные и осознанные в браке на протяжении многих тысячелетий, будут обобщены в виде лаконичных моральных оценок. Узбекские народные пословицы существуют уже давно. Также как отдельный жанр сформировались пословицы. Из поколения в поколение, из уст в уста доходит до нас. Мы не ошибемся, даже если скажем увещевание, которое передается по наследству от наших предков.

Abstract: The proverb comes from the Arabic word “qavvola", which means to speak or to speak. In the proverbs, the truths of the people, tested and realized in marriage for many millennia, will be summarized in the form of concise moral assessments. Uzbek folk proverbs have been around for a long time. Proverbs have also formed as a separate genre. From generation to generation, word of mouth reaches us. We will not be mistaken, even if we say an admonition that is inherited from our ancestors.

Kalit so‘zlar: maqol, sipoh, hut, omoch, yer tanobi, hammol, qantar

Ключевые слова: пословица, сипох, хижина, плуг, земной таноби, ветер, Кантар

Keywords: proverb, sipoh, hut, plow, earth tanobi, wind, Kantar

Maqollar ko‘pincha kundalik suhbatlarda, adabiyotda, darsliklarda va tarbiyaviy suhbatlarda qo‘llaniladi. Chunki maqollar nutqga o‘zgacha joziba beradi. Maqollar butun dunyoda mavjud. Har bir xalqning o‘ziga xos hikmatli so‘zlari mavjud. Ammo ular til jihatidan o‘zaro farq qilinadi lekin ma'nosi jihatidan ko‘pincha bir-biriga o‘xshash bo‘ladi. Masalan, rus xalqi orasida bir maqol bor “Лучше поздно, чем никогда” (Yaxshisi kech bo‘lsa ham, lekin umuman bo‘lmasligidan ko‘ra yaxshi)

ingliz tilidagi “Better late than never” maqoliga o‘xshaydi. O‘zimizda, esa „Hechdan ko‘ra kech yaxshi”,- deb aytishadi. E’tibor berib qarasak ma’nosi bir xil faqat tili boshqa. Maqollar ko‘pincha yo fikrni boshlash oldidan, yo fikr bayoni jarayonida, yo fikrni xulosalash maqsadida ibratli so‘z sifatida aytiladi. “Maqollar uzoq umrli bo‘ladi”, deb bejizga aytishmagan. Chunki kundan kunga yangi-yangi maqollar yoshlar yoki qarilar yordamida yaratilib, so‘z san’ati xazinasi boyiyveradi. Yosh avlodni tarbiyalash uchun ham maqol juda asqotadi. Maqollar ixcham ham, sh’eriy shaklda ham bo‘lishi mumkin. Mavzusiga qarab ham maqollarni ajratish mumkin. Maqollar doim ham bir mavzuda emas, balki turli xil mavzularda, turli ko‘rinishda bo‘ladi. Ishonch va ishonchsizlik, erk va erksizlik, naqd va nasiba, reja va rejasizlik, dehqonchilik va chorvachilik, to‘y va motam, do‘stlik va dushmanlik, yaxshi so‘z va yomon so‘z va turli xil mavzularda bo‘lishi mumkin. Masalan, “Qudachilik-mingyilchilik”,-deb aytilgan gapni ko‘pincha to‘ylarda eshitamiz.Bu maqol qarindosh-urug‘chilik haqida. Hatto hozirgi kungacha shu maqolni to‘y kunlari ishlatishadi. Maqollarni ish jarayonida, oddiy yoki jiddiy muomala munozaralarda, to‘y-hashamlarda ham aytish mumkin ekanligini guvohi bo‘liyapmiz. Har bir gapga bir maqolni qo‘shib, fikrni dalillash, tasdiqlash yo inkor etish ham mumkin. Bu esa maqol bilish darajangizga bog‘liq hisoblanadi.

Itlik ovchi ovulga sig‘mas maqolida ovchi ov qila-qila uzoqlarga ketib qolib, qosh qoraygach, uyiga qaytib kela olmay, majburan biror ovulda tunab qolmoqchi bo‘lsa, uning bir o‘ziga har qanday xonadon ham joy topib beradi. Ammo uning yonida itini ko‘rgan odam “joy yo‘q” deb qo‘ya qoladi.

Ovchining zo‘ri sher otar, erning zo‘ri yer ochar maqolida haqiqiy mergan ovchi ov mahalida eng yaxshi o‘ljani ko‘zlaydi. Mard, mehnatsevar olijanob kishilar esa qo‘riq, bo‘z yerlarni, ishga yaroqsiz bo‘lib yotgan tashlandiq, changalzor yerlarni ochib, hosildor qilib, bog‘-rog‘ga aylantiradi.

Usta ovchi bekorga o‘q otmas maqoli orqali usta ovchi bekorga o‘qni sarf qilib otavermaydi, arziydigan ov uchraganda, qulay payti kelganda otadi, deyilmqchi.

Maqollarda ajdodlarimiz axloqiy qarashlari va albatta tafakkuri yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek xalq maqollarida, o‘zbek xalqining dono siymosi, tarixiy taqdiri, bag‘rikengligi, saxovati, adolatpeshaligi, ilmga, mehnatga chanqoqligi, bunyodkorligi, mehmondo‘stligi, oilaparvarligi, bolajonligi, bolaparvarligi, to‘g‘riligi, sevgi-sadoqati, g‘ayrat-shijoati, quvonchi, iztirobi, dushmanlariga qahr-g‘azabi, betakror urf-odatlari va an’analari yaqqol aks etib turadi. Xalq shu maqollari orqali kelajak avlodiga o‘z

turmush tajribalaridan kelib chiqqan holda saboq beradi. Shuning uchun ham maqollar qisqa, lo‘nda va eslab qolishga oson bo‘lgan iboralar shaklida tez-tez uchrab turadi.

Adabiyotlar:

1. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUGOTIT TURK” DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.
2. Bobojonova, D. (2024). TYPES OF OCCUPATIONS RELATED TO THE LIFE OF THE UZBEK PEOPLE (within the profession of blacksmithing). Modern Science and Research, 3(2), 739–746. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29461
3. Bobojonova , D. . (2024). MANIFESTATION OF LEXEMES RELATED TO THE PROFESSION OF BLACKSMITHING IN FOLK PROVERBS. Modern Science and Research, 3(1), 687–693. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28380
4. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). Mahmud Kashgari’s Work "Devonu Lug‘otit Turk" is an Important Scientific Heritage. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, *1*(10), 538–543. Retrieved from https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2169
5. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI’S WORK "DEVONU LUG‘OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. Modern Science and Research, 2(12), 742–748. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27184
6. Bobojonova, D. (2023). THE ROLE OF MAHMUD KASHGARI’S WORK "DEVONU LUG‘OTIT TURK" IN THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE. Modern Science and Research, 2(4), 568–5672. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/19394
7. Okhunjonovna, B. D. (2023). Comparative Analysis of Proverbs in "Devonu Lug‘Otit Turk" and Currently Available. *European Journal of Higher Education and Academic Advancement*, *1*(2), 194–198. Retrieved from https://journal.silkroad-science.com/index.php/EJHEAA/article/view/139
8. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).
9. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). A Proverb is a Product of Folk Wisdom. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, *1*(9), 333–338. Retrieved from https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1509

10. Oxunjonovna, B. D. (2022). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISSONIY INTERFERENSIYANING KO‘RINISHLARI. *PEDAGOGS jurnali*, *14*(1), 22-25.
11. Bobojonova, D. (2023). THE IMPORTANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS. Modern Science and Research, 2(10), 670–675. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25751
12. Bobojonova, D. (2023). MAHMOUD QOSHGARI’S ”DEVONU LEXICOTIT TURK" AND ITS PLACE IN LINGUISTICS. Modern Science and Research, 2(10), 538–540. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24506
13. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *10*(10), 168–170.
14. Bobojonova, D. . (2023). ANALYSIS OF IDIOMS THAT PRESERVE BOTH FORM AND CONTENT IN MAHMUD KASHGARI’S "DEVONU LUG‘OTIT TURK". Modern Science and Research, 2(9), 64–67. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23909
15. Okhunjonovna, B. D. (2024). Analysis of Folk Proverbs Based on Medicine. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*(3), 125-131.

EVFEMIZATSIYALASHGAN MAQOL VA MATALLAR TADQIQIGA LINGVISTIK YONDASHUVLAR

Yusupova Muntoza Baxtiyor qizi
Farg‘ona Davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada evfemizatsiyalashgan maqol va matallarda metasemiotik, pragmatik semiotik, semantic, semasiologik, onomasiologik yondashuvlar va bu lingvistik yondashuvlarga olimlarning qarashlari yoritilgan. Evfemik birliklarga yondashuvlar. Evfemizm va evfemizatsiya hodisasi farqlangan.

Annotation. In the article, metasemiotic, pragmatic semiotic, semantic, semasiological, onomasiological approaches to euphemized proverbs and sayings and the views of scientists on these linguistic approaches are highlighted. Approaches to euphemistic units. Euphemism and the phenomenon of euphemization are distinguished.

Аннотация. В статье выделены метасемиотический, прагматический семиотический, семантический, семасиологический, ономасиологический подходы к эвфемизированным пословицам и поговоркам, а также взгляды ученых на эти лингвистические подходы. Подходы к эвфемистическим единицам. Выделяют эвфемизм и явление эвфемизации.

Kalit so‘zlar: evfemizm, evfemizatsiya, implitist ma’no, metasemiotik yondashuv, pragmatik yondashuv, lingvokuturologik, ko‘chim, evfemik birliklar.

Key words: euphemism, euphemization, implicit meaning, metasemiotic approach, pragmatic approach, linguo-cultural, analysis, euphemistic units.

Ключевые слова: эвфемизм, эвфемизация, имплицитное значение, метасемиотический подход, прагматический подход, лингвокультурный, анализ, эвфемистические единицы.

Maqol va matallarda evfemizatsiya hodisasini nafaqat lingvokulturologik, balki metasemiotik va pragmatik, substitutiv, onomasiologik va semasiologik yondashuvlar asosida lug‘aviy va kontekstual jihatdan tadqiq qilish masalani chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

Evfemik birliklarning denotativ va signifikativ komponentlari semantik tahlilida evfemik birlik beradigan ma’no, so‘zning signifikativ komponentida ifoda etilgan konnotatsiyalarga e’tibor qaratiladi. Evfemik birliklar tahlilida semantik aspektdan tashqari metasemiotik aspekt ham ahamiyatlidir. Metasemiotik aspektda evfemik birliklarning kontekstda beriladigan ma’nosi nazarda tutiladi. So‘zlar kontekstda turli ma’no anglatadi. Shu bilan birga, evfemik birliklar ham kontekstda turli ma’no anglatishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, metasemiotik aspektda evfemik birliklar

tadqiqida olamning milliy manzarasi, xalqlarning dunyoqarashi namoyon bo‘ladi va natijada efvemizmlarning turli tillardagi farqlanishi vujudga keladi.

M.X.Sammanining ta’kidlashicha, maqol va matal tarkibidagi evfemizmlar ko‘chma ma’noda talqin etiladi, ya’ni gapda yoki so‘z birikmasida leksema yoki so‘z birikmasi ifoda etadigan sema yo‘qolib, qo‘shimcha sema vujudga keladi. Bunda har qaysi til birligida ikki xil ma’no mavjud bo‘ladi: virtual va actual [1]. Har qaysi so‘z ifodasi orqali inson ongida uning virtual ma’nosi vujudga keladi. So‘zning aktual ma’nosi faqat ma’lum bir kontekstdagina o‘z ifodasini topadi.

Evfemizatsiyalashgan maqol va matallarga metasemiotik yondashuvdan tashqari pragmatik yondashuv ham muhimjihatdir. I.V.Samarina va Ye.Yu.Oberemchenko evfemizmlarni pragmatik jihatdan tadqiq qilish jarayonida ularning quyidagi funksiyalarini ajratib chiqadi: baholash belgisining almashtirilishi, ya’ni tabu so‘z berayotgan salbiy ma’no evfemizm orqali neytrallashishi yoki ijobiylashishi; evfemizm tasviriy parafrazasifatida metaforik ko‘chim, metonimik ko‘chim, antonimik ko‘chim, ma’no torayishi orqali gavdalanishi; tabu so‘z berayotgan ma’noning ichki shaklining “niqoblashtirilishi”[2].Mazkur funksiyalarni I.V.Samarina va Ye.Yu.Oberemchenko siyosiy evfemizmlar asosida ajratib chiqqan. Maqol va matallar tarkibidagi evfemizmlarning pragmatik jihatdan tadqiqida biz ham ularning ma’no ko‘chishi asosidagi tasnifiga e’tibor qaratdik.

Asosan, maqol va matallardagi evfemizatsiya hodisasi tasviriy parafraza, ya’ni ifoda mazmuni o‘zgartirilgan holda berilib, qo‘shimcha so‘zlar bilan tasvirlanadi, metaforik va metonimik ko‘chimlarni tashkillaydi. Evfemizatsiyalashgan maqol va matallarni pragmatik jihatdan tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslikning yangi bosqichi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish demakdir, chunki ushbu yo‘sindagi tadqiq maqol va matallarni kommunikativ birlik sifatida o‘rganishga turtki beradi.

Ma’lumki, maqol va matallar semiotika, frazeologiya paremiologiya, folkloristika, lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan atroflicha tadqiq etilgan. Lekin maqol va matallarni kommunikativ asosda tadqiq qilish aynan muloqotda ular bergan ma’noni izlash va tahlilga tortish dolzarb masalalardan biridir. Bunda maqol va

matallardagi xalq mentaliteti, ongi, tafakkuri bilan birga ular beradigan implitsit ma'no ham o'rganiladi.

Implitsit – lot. "implicitus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "aralashtirmoq" ma'nosini ifodalaydi [3]. Ma'lumki, til va nutq hodisalari tadqiqida implitsit va eksplitsit ma'no farqlanadi. Til implitsitligi ostida til tizimi bilan bog'liq semantika tushuniladi, nutq implitsitligi esa ma'lum bir nutqiy vaziyatdan kelib chiqadi [4]. Shu ma'noda ingliz va o'zbektillarida implitsitlik hodisasining shakllanish masalasigaasosiy e'tibor qaratiladi. Demak, evfemizatsiyalashgan maqol va matallarda yumshatish funksiyasi bilan birga "pardalashtirish" yoki "niqoblashtirish" funksiyalari ko'rilib, kontekstda tabulashgan yoki ifodalash uchun noqulay bo'lgan holat implitsit tarzda uzatiladi. V.I.Zabotkina evfemizmlarni ifodani pragmatik maqsadda qo'llash uchun yumshatish va bilvosita uzatish uslubiy vositalariga kiritadi [5]. Ko'rinib turibdiki, evfemizm hodisasi va evfemizatsiya jarayoni nafaqat tabulashgan holat, vaziyat, narsa-predmetlarning salbiy ko'rinishlarini ijobiy tarzda yumshatish orqali uzatishda, balki ifodaning bilvosita, ya'ni implitsit tarzda uzatilishini ham nazarda tutadi.

Maqol va matallar tarkibidagi evfemizatsiya holati haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo, evfemizm va evfemizatsiya terminlarni farqlash lozim. Evfemizm tushunchasining turli izohlar va talqinlarini yuqorida ko'rib chiqdik, lekin evfemizm va evfemizatsiya tushunchalarini maqol va matallar tarkibida qanday izohlashimiz mumkin, degan savol uyg'onmoqda. Biz bu holatda evfemizm va evfemizatsiya tushunchalarni ta'riflashda Chjan Sanning ushbu tushunchalarga bergan izohiga yondashamiz: evfemizatsiyani ikki ma'noda talqin etish kerak: birinchidan, nutqni evfemizmlar bilan to'ldirish; ikkinchidan, metaforizatsiya, metonimizatsiya jarayoniga asoslangan mazmuniy jarayon sifatida. **Evfemizm** – bu predmetning bilvosita parafrastik metaforizatsiya va metonimizatsiya orqali nomlanishidir, **evfemizatsiya** – efemizmlar yordamida predmetni nomlash jarayonidir [6].

Ushbu terminlar izohida M.L.Kovshovaning talqiniga asoslanib, ta'kidlashimiz joizki, evfemizm – til fakti asosida vujudga keluvchi belgi, ma'no va so'zlovchi o'rtasidagi munosabatdir. Evfemizatsiyani ushbu olima nutq birligi sifatida izohlar

ekan, uning bilvosita nutqiy aktlar doirasida pragmalingvistik xususiyatlarini e'tiborga olishni lozim topadi. Olimaning fikricha, **evfemizm** til tizimi hodisasi bo'lsa, **evfemizatsiya** muloqot hodisasidir.

Evfemizatsiya jarayonini tadqiq qilishda yana boshqa yondashuvlar mavjud bo'lib, bu borada semiotik yondashuv ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda bitta obyekt turli nominatsiyalar orqali ifodalanadi va evfemizm ikkilamchi nominatsiya sifatida ta'riflanadi. Keyingi yondashuv uslubiy yondashuv bo'lib, bunda evfemizmga uslubiy vosita sifatida yondashiladi. Uchinchi yondashuv semantik yondashuv bo'lib, evfemizmlarni semasiologik va onomasiologik jihatlarini tadqiq etadi. Semasiologik jihatdan evfemizm sememasi aniqlanib, uning leksik ma'nosidagi pragmatik jihat tahlilga tortiladi, ya'ni baholash xususiyati, ekspressivlik va konnotativlik. Onomasiologik jihatdan evfemizmning majoziy ma'nosi tahlil qilinadi. To'rtinchi yondashuv – pragmatik yondashuv bo'lib, evfemizm nutqiy aktlar doirasida tadqiq qilinadi. Lekin bu yondashuv bizning tadqiqotimizda asosiy o'rin egallamaydi, balki pragmatik jihatdan nutq vaziyatida qo'llanilgan maqol va matallar doirasida evfemizmlarning pragmatik vazifalari tadqiqiga e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, zamonaviy tilshunoslikda antoropotsentrizm nazariyasi rivojlanganligi boismazkur yondashuv asosida evfemizmlarni tadqiq qilish ularning inson omili bilan bog'liq jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Kognitiv yondashuv orqali evfemizmlar bilan bog'liq kategorizatsiya va kontseptualizatsiya tushunchalari tahlil qilinadi. Psixolingvistik yondashuv orqali subyekt va nutq vaziyatiga taalluqli holatlar tadqiq qilinadi [7]. Xullas, evfemizmlar bugungi kunda keng va turli yondashuvlar orqali tadqiq qilinib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Саммани М.Х.Метафорические эвфемизмы в аспекте лингвокультурологии // Новейшая филология: итоги и перспективы исследований. – Ом. гос. ун-т, 2019 [The latest philology: results and prospects of research. Omsk State University, 2019]. – С.178-180.
2. Самарина И.В.,Оберемченко Е.Ю.Прагмалингвистические особенности эвфемии как средства реализации имплицитности в дипломатическом дискурсе. – Изд.дом "Среда"https://pshreda.com
3. https://ru.wiktionary.org/wiki

4. Ермакова Е.В. Многоаспектность проблемы имплицитности: имплицитность в языке и речи//Известия Саратовского университета, 2009.– Т.9. – С.58-61; buhaqidaqarang: Бондарко А.В. Эксплицитность/имплицитность в общей системе категоризации семантики // Эксплицитность/ имплицитность выражения смыслов. – Калининград: Светогорск, 2006. – С. 24.
5. Заботкина В.И. Новая лексика современного английского языка: Учеб. пособие для ин-тов и фак. иностр. яз. / В.И.Заботкина. – М.: Высш. шк. – 1989. – 126 с.
6. Чжан Ч. Эвфемизация в русском и китайском языках: лингвокультурологические и лингвопрагматические аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2013.– 208 с.
7. Романов С.И. Лингвокультурологический аспект эвфемизмов русского языка: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук.–Тула, 2021. –35с.

TIL TARAQQIYOTIDA EVFEMISTIK QATLAM.

Osiyo xalqaro universiteti
6-FT(O‘)-24 guruh talabasi
Fotima Abduhamidova
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi assistenti
Dilobar Gulamova

Annotatsiya. Ushbu maqola evfemizmlarning maktab darsliklarida tutgan o‘rni va ta’sirini o‘rganadi, bu lingvistik vositalar o‘quvchilarning nozik yoki murakkab mavzular haqidagi tushunchalarini qanday shakllantirishini tahlil qiladi. Ko‘pincha noqulay vaziyatni yumshatish yoki yashirish uchun qo‘llaniladigan evfemizmlar ma’lumotni yanada yoqimli yoki ijtimoiy jihatdan maqbul tarzda shakllantirish orqali hislar va munosabatlarga ta’sir qiladi.

Tayanch iboralar: *Evfemizmlar, lingvistik qurilmalar, idrok etish, tanqidiy fikrlash, ta’lim mazmuni, urf-odat.*

ANNOTATSIYA. Sintaktik sath birliklari zamonaviy tilshunoslik uchun muhim birliklardan hisoblanadi. Bular qatorida kirish so‘z va kiritmalarning borligi hamda ularda olam lisoniy manzarasining ifodalanishi tadqiqot obyektlari sirasiga kiradi. Mazkur maqolada mazkur sintaktik birliklarning olam lisoniy manzarasini aks ettiruvchi sifatidagi xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: olam lisoniy manzarasi, kirish so‘z, kiritmalar, lingvomadaniyat, olamning ilmiy manzarasi, gap bo‘lagi.

АННОТАЦИЯ. Синтаксические единицы уровня являются важными единицами для современной лингвистики. В частности, существуют вступные слова и вставки, которые представляют собой лингвистическую картину мира. В данной статье освещаются особенности этих синтаксических единиц как отражения лингвистического пейзажа мира.

Ключевые слова: лингвистическая картина мира, введение, введение, лингвистика, научная картина мира, фраза.

ANNOTATSION: This article is part of a series on the Bible. Syntactic level units are important units for modern linguistics. Specifically, there are introductory words and inserts that represent a linguistic picture of the world. This article focuses on the features of these syntactic units as reflections of the linguistic landscape of the world.

Keywords:linguistic worldview, introduction, introduction, linguistics, scientific worldview, and the phrase.

Har bir til xalqning madaniyati orqali idrok qilinadi, tasavvur qilish tuyg‘ularini uyg‘otadi. U insonni obyektiv borliq haqidagi bilimlarining yanada mustahkamlanishiga yordam beradi, bu jarayonda “olamning lisoniy manzarasi” atamasiga ehtiyoj seziladi.

Olamning ilmiy manzarasi - bu fanda ishlab chiqilgan fundamental tushunchalar va fanning prinsiplari bilan ifodalanadigan borliq haqidagi tasavvurlarning eng umumiy tizimidir. Bu tasavvurlardan ushbu fanning asosiy postulat (dastlabki qoida, faraz)lari kelib chiqadi [2:58]. Bu ta’rifga asoslanib olamning lisoniy manzarasiga va madaniyatning til bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqsak.

Ma’lumki, madaniyatni inson, inson shaxsi yaratadi va uning o‘zi unda yashay boshlaydi. Aynan shaxsda isonning ijtimoiy tabiati oldingi planga chiqib oladi, odamning o‘zi esa ijtimoiy-madaniy hayot subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs etnos yoki xalqning madaniy an’ana istiqbollari nuqtai nazaridan o‘rganilishi shart, chunki odam tasavvurida inson tug'ilishi uchun madaniyat doirasida shakllanuvchi madaniy-antropologik prototip zarur. Mazkur prototip sintaktik sath birliklari ishtirokidagi matnlarda ham kuzatiladi. Kirish so‘z va kiritma gaplar qatnashgan gaplarda ham olamning lisoniy manzarasi muallif pragmatik maqsadi orqali aks etadi.

Kirish kengaytiruvchilarining barchasi o‘ziga xos yagona «so‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini bildirish» umumiy ma’nosini birlashtiradi [3:107]. Bu munosabat suhbatdoshga qaratilgan va unga gapiruvchining fikri, irodasi va his-tuyg‘ularini to‘g‘ri idrok etishga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Ularning funksiyalari ko‘p qirrali bo‘lib, xabarning ishonchliligi, uning manbasini ko‘rsatish, qabul qiluvchiga e’tibor, hissiy baholash va boshqalarni o‘z ichiga oladi. “Kirish komponentlar gap strukturasiga kirmaydi, gap bo‘lagi hisoblanmaydi, gapdagi boshqa bo‘laklar bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaydi. Biroq muloqot ishtirokchilari uchun ular funksional va pragmatik vosita sifatida juda muhimdir” [1:204]. Kirish komponentlarning ma’nosi mavhum grammatik xarakterga ega. Ular gap ichida o‘zining leksik ma’nosini yo‘qotadi va mavhum semantik ma’no tashuvchisi sifatida qatnashadi. Gapda ifodalanayotgan mazmunning ishonchli, taxminiy yoki shubhali ekanini so‘zlovchining o‘zi baholaydi. P.A.Lekant semantik jihatdan kirishlarning quyidagi turlarini ajratadi: 1) ishonch, tasdiq, gumon kabi modal ma’nolarni ifodalovchi: *albatta, darhaqiqat, balki, ehtimol kabi. - Saltanatxonni chaqirtiray, deb edim. Bir kelib o‘ynab ketsa, yaxshi bo‘laridi. - Mayli, bugun kechgacha otang kelmasa, ertaga chaqirtirarsan (Cho‘lpon, «Kecha va kunduz»).* 2) hissiy – emotsional ma’no ifodalovchi: *afsuski, baxtimga, baxtingga, baxtga qarshi, dahshat* kabi. *Baxtimga, darrov taksi kelib to‘xtadi (So‘zlashuvdan).* 3) fikr muallifini ko‘rsatuvchi: *menimcha, bizningcha, qo‘shnilarning fikricha, mutaxassislar aytadiki, gazetada yozilishicha* kabi. Olimning fikricha, tanqidchining vazifasi birinchi navbatda asarning salohiyatini ko‘ra bilish va unga to‘g‘ri baho berish bo‘lgan (O‘z.A). 4) bayon qilingan fikrlarni

umumlashtiruvchi: *odatdagidek, har doimgidek, o‘z odaticha, qoida tariqasida, umuman olganda kabi. Umuman olganda, O‘zbekistonda uzoq yillar mobaynida yashash jarayonida turganlar o‘z an’anaviy madaniyati majmuyini sezilarli darajada saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi (Internetdan).* 5) muloqotga yo‘naltiruvchi: eshiting, bilasizmi, o‘ylab ko‘ring, ishonasizmi, tan oling kabi. Tan oling, xuddi shunday bo‘lganmidi? (So‘zlashuvdan) 6) avvalgi fikr bilan bog‘lovchi (bu o‘rinda gaplarni shakliy jihatdan bog‘lovchi grammatik vosita emas, fikrlarni mantiqan bog‘lovchi semantik vosita sifatida talqin qilinadi): demak, shunday qilib, aksincha, biroq kabi. Bilasanmi, o‘g‘lim, insonga familiya zeb bermaydi, aksincha, inson familiyaga zeb beradi. (Gazetadan). Kirishlar tarkibiga ko‘ra kirish so‘z, kirish birikma, kirish gap shakllarida qo‘llanadi. Kirish so‘z: *Darhaqiqat, inson uchun kerakli barcha shifo vositalarini tabiat ne’matlari orasidan topish mumkin. (Ma’ruzadan)* Kirish birikma: Muallifning yozishicha, (Imom al-Buxoriy) Bag‘dodda istiqomat qilgan paytda, ko‘pincha, oyning nurida ijod qilib, qorong‘i kechalarda sham yorug‘ida kitob yozar ekan (https://saviya.uz). Kirish gap: *Xabaringiz bor, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqimda men boshqa ko‘pgina muhim masalalar qatorida Yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyani qabul qilishga oid O‘zbekiston tashabbusiga yana bir bor jahon hamjamiyatining e’tiborini qaratdim (O‘zbekiston Prezidenti nutqidan).* Bu o‘rinda shuni aytib o‘tish kerakki, kirish gap bilan kiritma gapni farqlash zarur. O‘zbek tilshunosligida grammatikaga oid ko‘pgina darslik va qo‘llanmalarda kirish gap va kiritma gap orasidagi farq yaxshi ochib berilmagan. R.Sayfullayeva va boshqa hammualliflarning «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» o‘quv qo‘llanmasi (2009)da ham M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldoshevalarning «Ona tili» darsligi (2017)da ham gapni murakkablashtiruvchi vositalar tarkibida kirish so‘z, kirish birikma va kiritma gaplar tavsiflangan holda kirish gaplar e’tibordan chetda qoldirilgan1 . Bu jihatdan B.O‘rinboyev tasnifi ancha mukammal shakllantirilgan. Olim kirishlar kirish so‘z, kirish birikma, kirish gap, kiritmalar ham kiritma so‘z, kiritma birikma, kiritma gap shakllarida mavjudligini to‘g‘ri tasniflagan. Quyidagi faktik materiallar bunga dalil bo‘la oladi: a) kiritma so‘z: Turkiy (o‘zbek) va forsiy tillarni chog‘ishtirishga

bag‘ishlangan maxsus asar - «Muhokamat ul-lug‘atayn»ning maydonga kelishi (1499) bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi: tilshunoslikning hozirgi kunda chog‘ishtirma (kontrastiv) lingvistika deb yuritiluvchi yangi yo‘nalishiga asos solindi (A.Nurmonov, «Tanlangan asarlar»). b) kiritma birikma: Turkiyshunoslikning maxsus fan sifatida shakllanishida Mahmud Koshg‘ariyning (XI asr) xizmatlari katta (Darslikdan). v) kiritma gap: Bu qarash esa ijodda individuallik rolini pasaytirish (avtor o‘limi), asardagi obrazlarning voqelik bilan aloqasini inkor etishga (ya’ni, belgi voqelikka ishora kilmaydi, u o‘zinigina ifodalaydi) olib keladi (D.Quronov, «Adabiyotshunoslik lug‘ati»). Kiritmalar, ko‘pincha ilmiy va publitsistik matnlarda qo‘llanadi. Lekin kiritma qatnashgan gaplarda ham lingvokulturologik xususiyatlar aks etgan bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, kirish so‘z va kiritma gaplar ishtirok etgan matnlarda muallifning maqsadi va istagi yanada ochiq-oshkora namoyon bo‘ladi, matniy tahlil jarayonlarida ham lingvomadaniy xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. “Olamning lisoniy manzarasini o‘rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o‘zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan olamning konseptual manzarasi masalasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi” [4: 892].

ADABIYOTLAR:

1.Лекант П.А. Синтаксис простого предложения в современном русском языке: Учебное пособие. 3-е изд., – М.: Высш. Школа, 2004. – С. 214.
2.Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. (Lingvomadaniyatshunoslik asoslari) – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – B.58.
3.Qurbonova M., Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Mengliyev B. O‘zbek tilining struktural sintaksisi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Universitet, 2004. – B. 107.
4.Xalimova M. Olam milliy lisoniy manzarasi tasvirida til va madaniyat mushtarakligi // ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021. – B.888-892.

ПРОБЛЕМЫ КОНЦЕПТУАЛЬНОГО АНАЛИЗА В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ И ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Холмурзаева Умида Улугбек кизи ТерГПИ
Студентка 3-курса 302-группы
Научный руководитель: преподователь
кафедры русского языка и литературы ТГПИ
Оромидинова Д.П. xolmurzayevaumida47@gmail.com
Тел:+998943475704

Аннотация: В статье рассматриваются ключевые проблемы концептуального анализа, возникающие в контексте современного языкознания и литературоведении. Особое внимание уделяется применению концептуального анализа в исследовании узбекской литературы, анализируется роль концептов в языке и текстах узбекских писателей. Автор подчеркивает важность научно-теоретических основ, которые помогают выявить культурные и национальные особенности литературы, а также осуществить глубокий анализ концептов как единиц мировосприятия и значений. В работе исследуются основные методы концептуального анализа, их значение для понимания литературных произведений и их социально-культурной среды.

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik kontekstida yuzaga keladigan kontseptual tahlilning asosiy muammolari ko'rib chiqiladi. O‘zbek adabiyotini o‘rganishda konseptual tahlildan foydalanishga alohida e’tibor qaratilib, o‘zbek yozuvchilari tili va matnlarida tushunchalarning tutgan o‘rni tahlil qilinadi.Muallif adabiyotning madaniy-milliy xususiyatlarini aniqlash, tushunchalarni dunyoqarash va ma’no birliklari sifatida chuqur tahlil qilishga yordam beradigan ilmiy-nazariy asoslarning muhimligini ta’kidlaydi. Ishda kontseptual tahlilning asosiy usullari, ularning adabiy asarlar va ijtimoiy-madaniy muhitni tushunishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Abstract: The article examines the key problems of conceptual analysis that arise in the context of modern linguistics and literary criticism. Particular attention is paid to the use of conceptual analysis in the study of Uzbek literature, the role of concepts in the language and texts of Uzbek writers is analyzed.The author emphasizes the importance of scientific and theoretical foundations, which help to identify the cultural and national characteristics of literature, as well as to carry out a deep analysis of concepts as units of worldview and meaning. The work examines the main methods of conceptual analysis, their significance for understanding literary works and their socio-cultural environment.

Ключевые слова: концептуальный анализ, языкознание, литературоведение, узбекская литература, научно-теоретические основы,

культурные концепты, лингвокультурология, литературный анализ, концепты как единицы восприятия, национальная идентичность.

Tayanch so‘zlar: konseptual tahlil, lingvistik bilim, adabiyot, o‘zbek adabiyoti, ilmiy-nazariy asoslar, madaniy tushunchalar, til madaniyati, adabiy tahlil, birlik tushunchalari, milliy o‘zlik.

Key words: conceptual analysis, linguistic knowledge, literature, Uzbek literature, scientific and theoretical foundations, cultural concepts, linguistic culture, literary analysis, concepts of unity, national identity.

Современное языкознание и литературоведение сталкиваются с рядом теоретических и методологических проблем, связанных с анализом концептов — структурированных единиц знания и мировосприятия, выраженных через язык. Концепты занимают важное место в лексиконе и текстах, выступая как основа как языковой, так и культурной идентичности. В узбекской литературе, как и в других национальных литературах, концепты играют ключевую роль в отображении социальных, исторических и культурных реалий. Научно-теоретические основы узбекской литературы требуют внимательного подхода к концептуальному анализу, который помогает раскрыть многослойные значения текстов и их взаимосвязь с национальной и культурной спецификой.

Концептуальный анализ — это метод, направленный на исследование и деконструкцию значений и концептов, воплощенных в языковых единицах и текстах. В рамках языковедения концепт рассматривается как единица, выражающая культурные, социальные и философские представления народа. В литературоведении концепт помогает анализировать особенности авторской картины мира, способы взаимодействия персонажей и их внутренние конфликты. Одной из проблем концептуального анализа является определение границ и структуры концептов[2]. Исследователи сталкиваются с вопросами о том, что считать концептом, каково его содержание и какие аспекты отражаются в текстах. Это становится особенно актуальным при анализе литературы, в которой часто используются многозначные и символические формы выражения.

Узбекская литература обладает своей уникальной концептуальной системой, которая отображает как исторические процессы, так и особенности народной культуры. Научно-теоретическое изучение узбекской литературы

включает в себя анализ культурных концептов, таких как «гуманизм», «братство», «свобода», которые часто встречаются в произведениях классиков и современных авторов. Особое внимание стоит уделить историко-культурному контексту, который лежит в основе этих концептов. Применение концептуального анализа в узбекской литературе позволяет глубже понять, как писатели выражают культурные ценности и как эти концепты меняются в зависимости от исторической эпохи. Например, произведения Алишера Навои, Абдулазиза Ходжаева или современных узбекских авторов отражают сложный процесс взаимодействия традиций и новаторства, отражающийся в концептуальных категориях их произведений.

Проблемы концептуального анализа в литературоведении

Основной проблемой концептуального анализа в литературоведении является сложность выявления и декодирования концептов в текстах. Каждый автор вносит индивидуальную интерпретацию в общие концептуальные категории, что затрудняет их стандартное определение. Кроме того, концепты могут изменяться с учетом времени и культурных изменений. Это требует от исследователей гибкости в подходах и использования междисциплинарных методов, таких как лингвокультурология и культурная антропология. В узбекской литературе концепты часто используются для обозначения глубоко укоренившихся национальных представлений и традиций, которые требуют детального контекстуального анализа. Например, понятие «мехр» (любовь, сострадание), которое играет важную роль в произведениях Навои, в разных исторических контекстах приобретает различные оттенки, и это нужно учитывать при проведении концептуального анализа.

Концептуальный анализ может служить мощным инструментом в литературной критике. Он помогает более точно интерпретировать произведения, выявлять скрытые смыслы и символику, а также оценивать их в контексте определенных культурных и исторических процессов. В узбекской литературе, где переплетаются исламские, монгольские и восточные традиции,

использование концептуального анализа позволяет выявить многогранность авторских мировоззрений и глубину культурных кодов.

Концептуальный анализ представляет собой важный метод в современном языкознании и литературоведении, способствующий более полному пониманию культурных и языковых особенностей, заложенных в литературных произведениях. В контексте узбекской литературы этот подход позволяет не только раскрывать авторскую концепцию, но и исследовать процессы формирования национальной идентичности, а также динамику культурных изменений, происходящих в литературе. Проблемы концептуального анализа в литературоведении требуют дальнейших исследований, что особенно важно для сохранения и развития национальной культурной и литературной традиции.

Список литературы

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология / Под ред В.П. Нерознака. М., 1997.
2. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж, 1996.
3. Демьянков В.З. Термин «концепт» как элемент терминологической культуры // Язык как материя смысла / Отв. ред. М.В. Ляпон. М., 2007.
4. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепт, дискурс. М., 2004.
5.Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология / Под ред В.П. Нерознака. М., 1997
6. Lobar Mardonova, & Eshmuradova Asila. (2024). NAZARIY ADABIYOTLARDA BADIIY OBRAZGA DOIR QARASHLAR . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 61–64.
7. Бердиева, Ш. Н. (2024). ЭВОЛЮЦИЯ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ РАЗЛИЧНЫХ ИСТОРИЧЕСКИХ ПЕРИОДОВ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(5), 210-212.
8. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *10*(10), 168–170.

SO‘Z YASALISHI USULLARINING DAVRIY SISTEMASI

Yuldosheva Guli Xayrulla qizi
Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘z yasalishi usullarining turlari, diaxron va sinxron so‘z yasalishi, ularning o‘zaro muvofiq kelish-kelmasligi kabi masalalar yoritilgan. Umumiy olib qaraganda, so‘z yasalishining usuli qanday va qancha bo‘lishidan qat’i nazar yoki diaxron, yoki sinxron, yoxud har ikkala tilshunoslik o‘rtasida barqaror o‘ringa ega bo‘ladi va buni ma’lum leksemani so‘z yasalishi jihatidan tahlil qilib aniqlash lozim.

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие вопросы, как виды способов словообразования, диахроническое и синхроническое словообразование, их совместимость. В общем, независимо от того, насколько и насколько способ словообразования является либо диахронным, либо синхронным, либо тем и другим, он имеет устойчивое место в языкознании, и это называется словообразованием определенной лексемы, которое должно определяться путем анализа.

Abstract: This article covers issues such as types of word formation methods, diachronic and synchronic word formation, and their compatibility. In general, regardless of how and how much the method of word formation is either diachronic, or synchronic, or both, it has a stable place in linguistics, and this is called the word formation of a certain lexeme. should be determined by analysis.

Kalit so‘zlar: so‘z yasalish usullari, diaxron so‘z yasalishi, sinxron so‘z yasalishi, fonetik usul, semantik usul, leksik-semantik usul, affiksatsiya, kompozitsiya.

Ключевые слова: способы словообразования, диахроническое словообразование, синхронное словообразование, фонетический метод, семантический метод, лексико-семантический метод, аффиксация, композиция.

Key words: methods of word formation, diachronic word formation, synchronic word formation, phonetic method, semantic method, lexical-semantic method, affixation, composition

Barchamizga ma’lumki, tilshunoslik ham boshqa bir qator sohalar kabi doim ildam rivojlanishdan, taraqqiy etishdan aslo to‘xtamaydi. Tilshunoslikning bu rivoji uchun ko‘plab olimlarning o‘rni beqiyosdir, albatta. Chunki ular o‘z sohalari, o‘z yo‘nalishlari borasida tinimsiz izlanishlar, tun-u kunlik mehnatlari ortidan fanimizning rivojini boyitib bormoqdalar. Ma’lumki, tilshunoslikda har bir bo‘limning o‘z o‘rganish obyekti, predmeti mavjud. Umumiy qilib olganda, barchasining markazida so‘z yotadi, ammo aynan shu leksemaning qay tarafini o‘rganishiga ko‘ra barcha

bo‘limlar bir-biridan farq qiladi. Masalan: fonetika- leksemalarni yuzaga chiqarayotgan bo‘g‘in, tovushlarni, leksikologiya-leksemaning ifodalayotgan semasini, morfologiya uning grammatik taraflarini, sintaksis boshqa so‘zlar bilan birikib, bajaradigan vazifasini, morfemika bo‘lsa so‘zning tarkibini o‘rganadi. Shular qatorida biz ushbu maqolada kengroq to‘xtalib o‘tadigan bo‘lim- so‘z yasalishi esa leksemaning kelib chiqishi yoxud uning qanday vujudga kelganligini o‘rganadi.

So‘z yasalishi bo‘limining asosiy obyektlaridan biri so‘z yasalishining davrlar nuqtayi nazaridan olingan quyidagi turlaridir.

1) tarixiy (diaxron) so‘z yasalishi;

2) hozirgi (sinxron) so‘z yasalishi.

O‘zbek tilining turli davrlarida so‘z yasalishining ham turli ko‘rinishlari, har xil qoliplari mavjud bo‘lgan. Ularning ba’zilari bugungi kunda ham sermahsul, yangi so‘z yasashda faol qo‘llanilmoqda, ammo ba’zilari esa zamonaviy tilshunoslikning hech bir qoida-yu qolipiga mos kelmaydi. Shuning uchun ham ularni faqatgina tarixiy yasalish shakllari degan nom bilangina tushuntirib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tilshunoslikning bugungi kundagi grammatikasida eng keng tarqalgan so‘z yasalish usullari affiksatsion (asosga qo‘shimchalar qo‘shish) va kompozitsion (ikki asosning birikuvi) usullardagi so‘z yasalishlaridir: soyabon, hunarmand, ishtirokchi, qoidabuzar, ko‘ksulton…

Aynan shu so‘z yasalishi usullarining ham tarixiy so‘z yasalishiga tortadigan tomonlari bor. Ma’lumki, qo‘shimchalarni biz unumli va unumsiz kabi turlarga ajratamiz. Hozirgi kunda unumsiz bo‘lgan ayrim qo‘shimchalar ma’lum vaqt oldin unumli tarzda ko‘plab yasalmalarni yuzaga keltirgan. Masalan, -sa shakli hozirgi kunda faqat “suvsamoq” fe’lida yasovchi qism vazifasini bajara oladi, lekin u diaxron tilshunoslikda ko‘pgina fe’llarning yasalma bo‘lishida faol bo‘lgan: biliqsa, etsa… Shu bilan birgalikda yana aytishimiz kerakki, ayrim so‘zlar bugungi kunda tub holatda, faqatgina asosdan iborat, ammo diaxron tilshunoslik nuqtai nazaridan affiksatsion usulda yasalgan yasalma hisoblanadi. Masalan: qishloq, ovloq so‘zlari aslida qish+la+q(qishni o‘tkazish uchun joy), ov+la+q(ov qilish uchun mo‘ljallangan yer) ma’nolarida bo‘lgan, lekin bu kabi so‘zlar asos va qo‘shimchaga bog‘liq bo‘lgan

ma’nosini yo‘qotganliklari uchun ham(qishloq-doimiy yashash hududi, ovloq-qarovsiz, kimsasiz qolgan yer) sinxron leksik fondda tublashgan so‘zlar hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda yasalmalar orasida ko‘pchilikni tashkil etayotgan yana bir so‘z yasalishi usuli bu kompozitsion so‘z yasalishi hisoblanadi. Bunda ikki mustaqil ma’noga ega bo‘lgan birlikning birikuvidan hosil bo‘lgan yagona leksemalar kompozitsion, ya’ni so‘zlarni o‘zaro qo‘shish yo‘li bilan hosil qilingan yasalma hisoblanadi. Erksevar, asalari, boshpana va shu kabilar. Bu so‘z yasalishi usulining diaxron so‘z yasalishiga tegishli tomoni shundaki, diaxron tilshunoslikda xuddi yuqoridagi kabi, ikki mustaqil ma’noli leksemaning birikuvidan hosil bo‘lgan yasalmaning sinxron tilshunoslikda bir qismining ma’nosi yo‘qolishi, tilda u so‘zning ishlatilmasligi, so‘zning yasama hisoblanmasligiga sabab bo‘lishidir. Masalan: kechqurun so‘zida shu holni kuzatishimiz mumkin (sinxron tilshunoslikda qurun so‘zi mustaqil leksema sifatida iste’moldan chiqqan).[3]

Semantik usul hisoblangan so‘z yasalishi turini ham diaxron tilshunoslikka oid bo‘lgan birlik va bugungi kun tilshunosligida o‘zini oqlay olmaydi deyishimiz mumkin. E’tibor qiling: kun-quyosh so‘zining sinonimi, kun-tunning zidi. Ushbu keltirilgan so‘z diaxron leksikada yasalma hisoblangan, lekin zamonaviy tilshunoslikda yasalmalik xususiyatlari mutlaqo mavjud emas, shuning uchun ham bu kabi birliklar o‘zaro ma’nodosh so‘zlar sifatida leksikologiya birligi hisoblanadi.

Diaxron tilshunoslikda fonetik birliklardan biri hisoblangan tovush o‘zgarishlari hodisalaridan birortasi amalda qo‘llanilgan holda ham yangi so‘z yasalishi mumkin bo‘lgan. Masalan: ost-ust, ko‘z-ko‘r va shu kabilar. Yuqoridagi holat kabi bu so‘zlar ham zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaraganda bugungi kunda o‘z samarasini bermay qolgan, ya’ni so‘z yasalishi sifatida o‘zini mutlaqo oqlay olmaydi. Negaki, bu misollar so‘z yasalishi qoidalariga muvofiq kelmaganligi singari fonetik hodisalar qoidalariga ham muvofiq emas. Shu tufayli fonetik usul deya qaralgan maxsus so‘z yasalishi usulini ham faqatgina diaxron so‘z yasalishi hosilasi deyishimiz o‘rinli.

XX asrning 80-yillarida chop etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida so‘z yasalishining semantik-leksik usuli ham borligi aytib o‘tilgan. Bu usulda yasalgan

yasalmalar ma’lum vaqtda so‘z birikmasi, zamonaviy tilshunoslikka kelib esa yaxlit leksema holatida bo‘lganligi tushuntirib o‘tilgan. Masalan: oqqush aslida oq rangli qush, belbog‘ aslida belga bog‘langan bog‘ich bo‘lgan…

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, jadallik bilan rivojlanib borayotgan tilshunosligimizning leksik fondida sinxron yasalmalar bilan bir qatorda diaxron yasalmalarning ham o‘rni beqiyosdir va ulardan aslo voz kechib bo‘lmaydi. Ma’lum izchilliklardan so‘ng hozirgi kunda ham unumli bo‘lgan sinxron so‘z yasalishi birliklari diaxron so‘z yasalishi birligiga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ham har ikkala davriy yasalishlar o‘zaro bir-birini taqozo etib turadi va chambarchas bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Asadov. T. X. O‘zbek tilida so‘z yasalishi tadqiqi va rivoji xususida. Toshkent-2022.
2. Mardonova. S. O‘zbek tilida sinxron va diaxron so‘z yasalishi.
3. Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev, I. Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent “O‘qituvchi” n. 1980.

TILLARDA KODLAR ARALASHUVI

Ergashova Hilola Anvar qizi
TerDPI 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqiy muloqot chog‘ida so‘zlovchining axborot berish sharoitidan kelib chiqqan holda, bir tildan (yoki til variantlaridan, dialektdan, uslubdan) boshqa bir til ko‘rinishiga o‘tishi kodlar aralashuvi, ya’ni bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tishi haqida tushunchalar berib o‘tilgan. Hozirgi yoshlarimizning qanchalik adabiy tilda so‘zlashi, kodlar aralashuvi va subkodlardan foydalanishi batafsil yoritilgan.

Аннотация: В данной статье переход от одного языка (или языковых вариантов, диалекта, стиля) к другой форме языка, исходя из условий общения говорящего, представляет собой кодовое смешение, т. е. от одного кодового расположения к другому кодовому расположению. Подробно рассмотрены литературный язык, смешение кодов и использование субкодов современной молодежью.

Annotation. In this article, the transition from one language (or language variants, dialect, style) to another form of language, based on the conditions of the speaker's communication, is code mixing, i.e., from one code arrangement to another code arrangement. The literary language, code mixing, and use of subcodes by today's youth are covered in detail.

Kalit so‘zlar: Kodlar aralashuvi, subkodlar, shevalar, lahjalar, atama, kommunikatsiya, nutqiy muloqot, rasmiy muloqot, metaforik, o‘zbek tili, rus tili, ingliz tili.

Ключевые слова: Кодовое смешение, субкоды, диалекты, диалекты, термин, общение, устное общение, формальное общение, метафорическое, узбекский язык, русский язык, английский язык.

Keywords: Code mixing, subcodes, dialects, dialects, term, communication, spoken communication, formal communication, metaphorical, Uzbek language, Russian language, English language.

Kodlar aralashuvi (yoki bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish) inglizcha code mixing (yoki code-switching) terminining tarjimasi bo‘lib, ushbu atama XX asrning 70-yillarida ingliz tilshunosligida paydo bo‘lgan.[1] Biroq mazkur atama iste’molga kirmasidan oldin bu hodisaga R. Yakobson e’tibor qaratgan: “Har qanday umumiy kod ko‘p shaklli bo‘lib, u xabarning vazifasi, adresat va suhbatdoshlar orasidagi munosabatga ko‘ra so‘zlovchi tomonidan erkin tanlanadigan turli subkodlarning iyerarxik (pog‘onali) majmuyidir”[2]. Keyingi yillarda kodlar

aralashuvi hodisasi turli jihatdan Auer (1998), Myers-Scotton (1993), Poplack (1980), McCormick (2002), Mahootian and Santorini (1996), Rampton (1995) kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.[3] Ijtimoiy-kommunikativ tizimni tashkil toptiruvchi kodlar va subkodlar vazifalariga ko‘ra taqsimlangandir. Bu mazkur til jamoasini tashkil etgan xuddi o‘sha so‘zlashuvchilar kontingentining umumiy muloqot vositalar majmuyini muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda qo‘llashini bildiradi. Masalan, agar gap adabiy til subkodlari haqida ketadigan bo‘lsa, unda adabiy til egalari ilmiy faoliyatda ilmiy uslubdan, boshqaruv organlarining yozishmalarida, ish yuritishda, yurisprudensiyada, albatta, rasmiy uslubdan, diniy marosimlarda esa diniy-tashviqot uslublaridan, so‘zlashuvda esa dialektlardan foydalanishi kerak bo‘ladi. Har bir kichik bir hududning o‘z so‘zlashuv shakli va tushunadigan tili bo‘ladi. Katta davlatlarning o‘z tillari mavjud. Masalan: O‘zbekistonda o‘zbekcha, Angliyada esa inglizcha, Tojikistonda tojikcha, Germaniyada esa nemis tilida so‘zlashiladi. Biz Angliyaga borib o‘zbekcha gapirolmaymiz, gapirsak ham hech kim bizni tushunmaydi. Shunday ekan, qaysi davlatda bo‘lmaylik, o‘sha davlatning tilida so‘zlashishimiz kodli so‘zlashuv hisoblanadi. Hozirgi kunda kodlar aralashuvi jarayoni kuchayib bormoqda. Buni albatta, hozirgi yoshlarimizning so‘zlashuv jarayonida ham ko‘ramiz. Yoshlar so‘zlashayotganda o‘zbek tilida so‘zlaydi, ammo rus tilidan ham ayrim so‘zlarni, shevalardan ham ayrim so‘zlarni qo‘llaydi. Bu esa kodlar aralashuvi jarayonini yuzaga keltiradi.

Boshqacha qilib aytganda, so‘zlovchi muloqot jarayonida sharoitidan kelib chiqqan holda, bir tildan boshqa bir tilga o‘tadi. Bunga o‘xshash manzara ikki yoki undan ortiq til qo‘llaniladigan jamiyatlarda ham kuzatiladi. Ikki yoki undan ortiq tilda so‘zlashuvchilar, odatda, bu tillarni muloqot sharoitiga ko‘ra bo‘lishadi: rasmiy sharoitda hokimiyat vakillari bilan rasmiy tilda, kundalik hayotda, uyda, qo‘shnilar va boshqalar bilan esa shevada gaplashadilar. Bu holatda ham bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tiladi, faqat bu yerda birinchi misoldagidek kod tilning uslublari sifatida emas, balki turli tillar sifatida namoyon bo‘ladi. Nutqiy muloqot chog‘ida so‘zlovchining axborot berish sharoitidan kelib chiqqan holda, bir tildan (yoki til variantlaridan, dialektdan, uslubdan) boshqa bir til ko‘rinishiga o‘tishi kodlar

aralashuvi, ya’ni bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish deyiladi. Kommunikatsiya sharoitidagi qanday o‘zgarishlar so‘zlovchining bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tishga majbur qiladi. Masalan, muloqotdagi insonnning almashinishi, ya’ni so‘zlovchi murojaat qilgan kishining o‘zgarishi kodlarning aralashuviga sabab bo‘lishi mumkin. Agar muloqotdagi inson so‘zlashuvchi bilgan ikki tildan faqat birini bilsa, shu paytgacha muloqotda bilingv (zullisonayn) suhbatdoshlar boshqa til yoki har ikkala tilni qo‘llagan bo‘lishlariga qaramay, muloqot oxirida muloqotga kirishgan insonga tanish bo‘lgan tilni qo‘llashga o‘tadi. Masalan, bir kuni yurtimizdagi biror bir ziyoratgohga turistlar keldi. Ular turli joylardan kelishgan. Tabiiyki bunda mehmon insonlarning tilidan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Agar ular qozoq, rus kabi davlatlardan bo‘lsa, rus tilida gapirishni boshlaymiz. Shu orada ingliz mehmoni ham suhbatga qo‘shilsa, birdan tilimizni o‘zgartirib ingliz tilida so‘zlashga kirishamiz. Chunki hammaga tushunarli bo‘lgan bir tildan, ya’ni ingliz tilidan foydalanamiz. Bu jarayon kodlar almashunivini vujudga keltiradi. Muloqotga kirishuvchilar sonining o‘zgarishi ham kodlarning almashinuvi va ko‘chishini keltirib chiqaradi. Masalan, Toshkentda yashovchi do‘stimiz rolidagi namanganlik bir so‘zlovchi oilada, yoxud hamyurtlari bilan muloqot chog‘ida Namangan shevasida gapiradi, lekin u ish joyida, boshqaruv organlariga murojaat qilganda, hatto, kundalik hayotda adabiy tilning me’yoriy shakllaridan birini qo‘llashga majbur bo‘ladi. Agar bunday kod o‘zgarishi yuz bermasa, ularni ish joyidagi hamkasblari yoki boshqaruv organlarining vakillari tushunishmaydi va ular o‘zlarining maqsadi (arizasi yoki shikoyatini ko‘rib chiqish)ga erisha olmaydilar, ya’ni axborot almashinuvida muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Muloqot mavzusi ham kodlarning tanlanishiga ta’sir qiladi. Masalan, bir tilshunos lingvistik fanlar doirasida ma’ruza qilganda yoki tilshunoslar bilan munozara qilganda lingvistik terminlardan tashkil topgan ilmiy uslubdan foydalanadi. Lekin mavzu kundalik maishiy hayotga o‘tganda, boshqa subkod o‘zgarishi yuz beradi. Insonning kodlarni almashtirish qobiliyati uning tilni (yoki til subkodlarni) yuqori darajada bilishini, uning muayyan kommunikativlik va madaniyat darajasini ko‘rsatadi. Kodlarning aralashuvi mexanizmi kishilar orasidagi o‘zaro tushunish va nutqiy muloqot jarayonining qulayligini ta’minlaydi.

Kodlar aralashuvining ikki turi mavjud: 1. Kodlarning vaziyatli aralashuvi. Bunda til yoki tilning mavjud shakllarini tanlash rasmiy va norasmiy vaziyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Bunda muloqot vaziyatidan kelib chiqib harakat qilamiz. Shuningdek, rasmiy muloqotlarda rasmiy so‘zlardan, norasmiyda esa dialekt va lahjalardan foydalanishni misol qilsak bo‘ladi. 2. Kodlarlarning metaforik aralashuvi. Ijtimoiy vaziyatning to‘liq o‘zgarishini emas, balki bunda to‘liq tilning emas birgina so‘zning o‘zgarishi (mavzu o‘zgarishi, muloqotchilar o‘rtasidagi ijtimoiy-kommunikativ to‘siqlarni bartaraf qilish yo‘nalishining o‘zgarishi)ni taqozo qiladi. Xulosa qilib aytganda, bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish deganda, so‘zlashuvchining bir tildan (yoki til subkodlaridan) boshqa bir tilga to‘liq o‘tishi tushuniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Miriam Meyerhoff. Introducing Sociolinguistics. -New York: Routledge 2006. -P . 287; Беликов В. И., Крысин J I П. Социолингвистика. -M ., 2001. -C .
2. Jakobsori R. Linguistics in its relation to other sciences //Main Trends o f Research in the Social and Human Sciences. - Paris, 1970. -P . 458.
3. Sayfullayev N. H. o‘g‘li. (2023). IJTIMOIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(12), 106–111.
4. Miriam Meyerhoff. Introducing Sociolinguistics. -New York: Routledge 2006. -P . 287.
5. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Ro‘ziyeva Umida Azamat qizi. (2024). G‘AFUR G‘ULOMNING “SHUM BOLA” ASARIDAGI TARIXIY VA ARXAIK SO‘ZLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *22*(6), 353–356.
6. Usmonova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2014.
7. Majidova Shahnoza Komilovna, & Shodiyeva Maftuna G‘ayrat qizi. (2024). O‘ZBEK TILIM-O‘ZLIGIM . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 49–52.
8. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 5.
9. Lobar Mardonova, & Nargiza Jo‘rayeva. (2024). O‘ZBEK TARIXIY ROMANLARI VA JAHON TARIXIY ROMANCHILIGINING BADIIY SINTEZI SIFATIDA . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 65–70.
10. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.

HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA TIL, LISON, ME’YOR VA NUTQ MUNOSABATI

Mirzayeva Durdona Hasan qizi
TerDPI 2-kurs talabasi

Anotatsiya. Ushbu maqolada jamiyat a’zolari uchun kommunikatsiya quroli sanalgan til, uning lison, nutq, me’yor bilan munosabati aks etgan. Shuningdek, maqola til, lison, me’yor va nutq munosabatlari haqidagi eng qiziqarli va dolzarb ma’lumotlar bilan boyitildi. Ushbu maqola orqali mavzu yanada keng yoritib beriladi.

Аннотация. В данной статье отражен язык, который считается инструментом общения членов общества, и его взаимосвязь с языком, речью и нормами. Также статья была обогащена самой интересной и актуальной информацией о языке, языке, нормах и речевых отношениях. В этой статье эта тема будет раскрыта более подробно.

Annotation. This article reflects the language, which is considered a tool of communication for the members of the society, and its relationship with language, speech, and norms. Also, the article was enriched with the most interesting and relevant information about language, language, norms and speech relations. This article will cover the topic in more detail.

Kalit so‘zlar: lisoniy munosabat, UMIS va AHVO, paradigmalar, lisoniy ziddiyat, lisoniy tasnif, semema, leksema, morfema, model, qolip.

Ключевые слова: языковое родство, UMIS и AHVO, парадигмы, языковой конфликт, лингвистическая классификация, семема, лексема, морфема, модель, шаблон.

Key words: linguistic relationship, UMIS and AHVO, paradigms, linguistic conflict, linguistic classification, sememe, lexeme, morpheme, model, template.

UMIS va AHVO munosabati dialektikaning (ya’ni butun borliq – tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosiy yashash) qonuniyatlaridan biri bo‘lganligi sababli, u har bir fanda o‘ziga xos tarzda xususiylashadi.[1:40] Shu boisdan aytish mumkinki, bilishning fahmiy bosqichi mutlaq xususiylik bilan o‘ralashib qolmaganligi kabi, idrokiy bosqich ham mutlaq umumiylikni – UMISni tiklay olmaydi. Biroq har bosqich o‘z vazifasiga ega. Chunki har bir davr o‘z fani oldiga muayyan maqsad va aniq talablarni qo‘yadi. «Fanlarning taraqqiyoti shu davrning ilg‘or falsafiy fikri, davr uchun yetakchi bo‘lgan fan sohalarining yutuqlari bilan uzviy bog‘liq. Turli fanlarning manbalari ko‘p qirrali bo‘lganligi sababli, davrning yetakchi falsafiy fikri aniq fanlardan o‘rganish manbaining qaysi tomonlariga alohida e’tibor berish lozimligini, borliqdagi mavjud qonuniyatlarni mantiqiy kategoriyalarda qay usulda aks ettirish

Yo‘llarini belgilab beradi».[1:41] UMISning tildagi tajallisi lison, AHVOniki esa nutq deb yuritiladi.

Umumiy	**A**lohidalik
Mohiyat	**H**odisa
Imkoniyat	**V**oqelik
Sabab	**O**qibat

Masala mohiyatini yaqqolroq tasavvur qilish uchun hammaga tushunarli bo‘lgan hayotiy bir dalilga murojaat qilamiz. Hovlida turli xil gul turlari mavjud va ular kuzatish uchun berilgan bo‘lib, sezgi a’zolari orqali his qila olamiz. Ularning barchasi ongimizda yaxlit “gul” sifatida shakllana boshlaydi. Bu insonga vazifa shaklida berilmagan bo‘lsada, u o‘zi “avtomatik” shaklda inson ongida gavdalanadi. Falsafada “umuman gul”ga nisbatan UMIS, ko‘z oldimizda turgan gulga nisbatan esa AHVOni qo‘llash mumkin. Ongimizda gavdalangan gul UMIS, ko‘z oldimizda turgan AHVOning biri ikkinchisisiz bo‘lmaydi. UMIS va AHVO tushunchalarini farqlovchi belgilar quyidagi jadvalda berilgan:

UMIS	**AHVO**
Moddiylikdan holi	Moddiylikka ega
Takrorlanuvchan	Betakror
Cheklangan	Cheksiz
Ijtimoiy	Individual
Barqaror	O‘tkinchi

[1:37]

Bunga shunday ta’rif berishimiz mumkin:

1. UMIS moddiylikka ega bo‘lmaydi. “Umuman gul” tushunchasi haqida tasavvurlarimiz bizning ongimizda gavdalanadi. UMISda gul haqidagi faqatgina umumiy tushunchalar bo‘ladi va bunda uning farqli jihatlari e’tiborga olinmaydi. Masalan, qizil gul, oq, gul, biri yilda faqatgina bir mavsumda ochiladi, boshqa biri esa doim gullab turadi va h.k. Bu farqli jihatlar “gul” UMISi inson ongida shakllanayotgan vaqtda inobatga olinmaydi. Farqli jihatlari AHVOda namoyon bo‘ladi. AHVO

moddiylikka ega bo‘ladi va u sezgi a’zolari orqali seziladi, ya’ni inson ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lib turadi

2. “Umuman gul” UMISi har bir AHVOda takrorlanaveradi. Borliqda qancha AHVO bo‘lsa ham unda UMISning bir qirrasi namoyon bo‘laveradi. Lekin AHVO sifatidagi gullar takrorlanmaydi. So‘lib qolgan gul yoki uzilgan gulni qayta tiklab bo‘lmaydi. Gullar qayta ochilsa ham, u avvalgi gul bo‘lmaydi. Gul qayta so‘lsa-yu ochilgani bilan “umuman gul” tushunchasi o‘zgarmay turaveradi.

3. UMIS sifatida «umuman gul» bitta. Ammo gul AHVOlari cheksiz. Shu kungacha mavjud bo‘lgan va kelajakda ekib, o‘stiriladigan va qayta ochiladigan gullar sonini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ammo UMIS bittaligicha turaveradi.

4. “Umuman gul” deganda har bir insonning ko‘z oldiga gulning umumiy sememalari keladi. Masalan, “o‘simlik”, “xushbo‘y hidli o‘simlik”, “obodonlashtirish va yon atrofga go‘zallik ulashish maqsadida ekiluvchi bir yillik o‘simlik yoki buta”, “madaniy o‘simlik”. AHVOda har bir individual shaxs tomonidan esa turlicha voqelikka aylantiriladi. Masalan, atirgul.

A: Atirgul eng ko‘p tarqalgan, xushbo‘y hidli ko‘p yillik o‘simlik.

B: Men atirgulni faqat yaqroqlarini emas, uning tikanlarini ham sevaman. Bu ikkala misolda ikki xil individning atirgul so‘zini eshitganda hayoliga kelgan ilk gaplari, AHVOda voqelangan bo‘lib, ikki xil uslubda, ikki xil nazariyada tasvirlangan.

5. UMISda inson tafakkuri orqali idrok qilingan har bir so‘z barqaror holatda turadi. Gul ko‘p yillik o‘simlik, sovg‘a uchun eng yaxshi narsa: gulning biologik va estetik jihatlari haqida umumiy tushuncha sifatida qaralishi o‘zgarmaydi. Faqatgina u yanada sayqallanishi, qo‘shimcha ma’lumotlar va sifatlar bilan boyib borishi mumkin. AHVO esa o‘tkinchi. Gul abadiy gullab turmaydi va u so‘liganidan keyin qayta tiklanmagani va yo‘q bo‘lib ketadi, AHVO ham xuddi shunday xarakterlanadi.

Umuman olganda AHVOda ishlatigan har bir so‘z “ombor”dan olinadi. Qachonki u “ombor”da o‘sha so‘z haqida tushuncha bo‘lsagina, biz undan foydalana olishimiz, o‘z o‘rnida qo‘llashimiz mumkin. Agar UMISda so‘z haqida tushuncha noto‘g‘ri bo‘lsa, so‘zda chalkashliklar va nuqsonlar kuzatilishi mumkin.

Lisonda bor imkoniyatlar-gina nutqda voqelanadi, lisonning imkoniyatlari boy bo‘lib, nutqda uning ma'lum bir qismi-gina namoyon bo‘ladi deyishdan lison go‘yo azaliy, tug‘ma, mukammal degan fikr tushuniladi. Vaholanki hali tili chiqmagan go‘dakning miyasidagi til xotirasi qismida hech qanday ramz bo‘lmaydi; go‘dak nutqni egallay boshlaganidan keyin-gina miyasida ramzlar paydo bo‘ladi. Demak, lison azaliy (zot) emas, balki nutq asosida shakllanadigan, to‘ldiriladigan boylik. [3:5]

Sintaksisda UMIS va AHVO munosabati quyidagi tarzda namoyon bo‘ladi. [1:31] Masalan,

Gulnoraning o‘rtog‘i

Kitobing muqovasi

Kompyuterning g‘ilofi

Davlatning bayrog‘i kabi so‘z birikmalari alohida-alohida AHVO bo‘lib, ularning umumiy **qaratqich kelishigidagi mustaqil so‘z + egalik shaklidagi mustaqil so‘z = qaratuvchi va qaralmishning turli munosabatlari** qolipi – UMISining (mustaqil so‘z atamasi uchun qulaylik maqsadida tilshunoslar tomonidan qabul qilingan inglizcha *word* so‘zining bosh harfi bo‘lgan W shartli belgisidan foydalanamiz: **W qaratqich kelishigi – W egalik qo‘shimchasi** tarzida) voqelanishi.[1:31] Albatta, faqatgina bu modeldan emas, yana bir qancha turli modelllardan foydalaniladi. Masalan,

Olmani yemoq, Kitobni olmoq, Vazifani bararmoq kabi so‘z birikmalari ham alohida alohida AHVO, ularning umumiy qolipi **tushum kelishigidagi mustaqil so‘z + noaniq shakldagi fe’l** shakli. **W tushum kelishigi + W fe’lning noaniq shakli**

Tilshunoslikda lisoniy va nutqiy jihatni farqlash bu fan yaratilishidan buyon muhokamalarga sabab bo‘lib kelmoqda. Har bir fanda cheksiz hodisalar doimo muhokamalarga sabab bo‘ladi va aniq bir to‘xtamga kelish juda qiyin bo‘ladi. Insoniyat

bor ekan, bir-biri bilan muloqot qilar ekan, UMIS va AHVO hodisalari cheksiz davom etaveradi.

Lison – UMIS tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko‘p qavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta’siriga o‘ta sezgir, o‘zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o‘z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli iyerarxik sistemadir. Lison deyilganda, ma’lum bir jamiyatning barcha a’zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo‘yilgan, hamma uchun umumiy va majburiy, fikrni ifodalash va boshqa maqsad uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o‘zaro birikish qonuniyatlari yig‘indisi tushuniladi.[1:33] Lison - tilimizda avvaldan mavjud bo‘lgan, tayyor shaklda turadigan birlik. Buning yanada tushunarliroq talqini, bir so‘z bilan aytganda, lison bu bizning so‘z boyligimizdir. Lisonimizda qanchalik ko‘p, fonema, morfema, leksema yoki model bo‘lsa, bizning nutqimiz shunchalik aniq, tushunarli va ravon bo‘ladi. Lisonimizda mavjud birliklarni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llay ola bilishimiz uchun esa bizga me’yor kerak. Lisonning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo‘lib, lisoniy imkoniyat – sinonimik qator, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklardan har birining voqelanish o‘rni va xususiyatini belgilaydi. Biz lisonimizda mavjud bo‘lgan so‘zlarni me’yordan “filtrlab”, “elakdan o‘tkazamiz” va natijada nutq hosil bo‘ladi. Ya’ni, lisondan olinayotgan har bir so‘z, fonema tashqi muhitga qarab moslashtirilib chiqariladi.

Lison va nutqning majmui esa til deb yuritiladi. Til - sof lisoniy qobiliyat va imkoniyat. U tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat’iy sistemaga tizib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy kommunikatsiya vositasi. Tilda bosh ichki ziddiyat – atash (nominativ) va ifodalash (ekspressiv) vazifalarining dialektik birligi. [1:33]

Nutq – til vositalari yordamida fikrni ifodalash jarayoni. **Nutq –** lisonning me’yor elagidan o‘tgan muayyan moddiy (yozma, og‘zaki, tasviriy, imo-ishora, signal, va h.k.) shakllaridan birida voqelanishi. Demak, lisonda birlik va birikish qonuniyati farqlanadi.

Lisoniy birlik UMIS sifatida mavjud ekan, u moddiylikdan xoli bo‘lmog‘i lozim. Bunda «lisoniy birlikning tashqi tomoni» ko‘rinishga, moddiylikka ishora qilmaydimi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. To‘g‘ri, lisoniy birlik moddiy qiyofadan xoli. Biroq ular ongda qandaydir tarh, ramz sifatida saqlanadi. [1:33] Masalan, *e* fonemasining talaffuz xususiyati haqida umumlashma tasavvur o‘zbek tilida so‘zlashuvchi barcha jamiyat a’zolari tilida birdir. Bu *e* fonemasining shakli, tashqi tomoni bo‘lsa, uning ma’no farqlash, chegaralash tomoni ichki jihati sanaladi. *e* fonemasi xususiyatlari va ma’no farqlashning o‘ziga xos birligi, yaxlitligi sifatida ongda mavjud bo‘ladi. Har bir fonemaning ma’no farqlash va talaffuz xususiyatlari umumlashmasi o‘ziga xos bo‘lib, biriniki ikkinchisinikidan farqlanadi va mustaqil fonemaga qo‘yilgan talab uning aynan o‘xshash bo‘lishiga Yo‘l qo‘ymaydi.[1:34] Masalan, “Men uyga keldim” so‘zidagi “men” ham(gap egasi), “uyga”(qayerga kelgani) ham, “keldim”(nima qilgani) hech qachon takrorlanmaydi. Ushbu gapda qatnashgan *e* harfi, har bir so‘zda alohida o‘z moddiyatiga, makoniga ega. “Men uyga keldim” so‘zi bir muddat o‘tib xuddi o‘zidek takrorlansa ham, avval so‘z kabi bo‘lmaydi(fiziologik, makon va zamon jihatidan ham), ya’ni hech qachon takrorlanmaydi.

Xulosa qilib aytganda, til, lison, me’yor va nutq munosabatlari tilimizdagi eng muhim hodisalardan biridir. Shuningdek, bu hodisalar cheksiz davom etaveradi. Tilimizni yanada chuqurroq bilish, nutqning aniq va ravonligini oshirishda bu hodisalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir kishining tasavvuri har xil bo‘lganidek, lisonidagi so‘zlarni qo‘llashi turlicha bo‘ladi va bu biroz chalkashliklarni olib kelishi mumkin. Shuning uchun har bir shaxs lison, til va nutq munosabatlarini o‘rganishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ra’no Sayfullayeva - Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent 2010
2. Shavkat Rahmatullayev – Hozirgi o‘zbek adabiy tili(darslik), Toshkent “Universititet” 2006
3. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).

4. Sayfullayev Najibullo,Boboniyozova Manzura. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(02).
5. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.
6. Sayfullayev N. H. o‘g‘li. (2023). IJTIMOIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(12), 106–111.
7. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.
8. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
9. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
10. Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi. (2024). OKSYUMORONNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 26–30.

EXPLORING METHODS TO ENHANCE THE COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH TEACHERS USING THE WORKS OF CHARLES DICKENS.

Aliqulova Feruza O‘ktam qizi
Lecturer, Termez state pedagogical institute
aliqulovaferuza2@gmail.com

Abstract. Educators should help students recognize the deep satisfaction that comes from engaging with literary works. Furthermore, by sharing insights and interpretations of selected texts with aspiring English teachers, educators can spark their interest in these works. This article explores strategies for enhancing reading skills and competencies in future English language teachers.

Keywords: reading literary works, developing reading competencies.

Abstrakt. O‘qituvchilar o‘quvchilarga adabiy asarlar bilan shug‘ullanishdan kelib chiqadigan chuqur qoniqishni tushunishlariga yordam berishlari kerak. Bundan tashqari, ingliz tili o‘qituvchilari bilan tanlangan matnlarni tushunish va talqin qilish orqali o‘qituvchilar ushbu ishlarga qiziqish uyg‘otishi mumkin. Ushbu maqola bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida o‘qish ko‘nikmalari va malakalarini oshirish strategiyalarini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: adabiy asarlarni o‘qish, o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirish.

H.S.Karomatov o‘zlarining tadqiqot ishlarida Qur’oni karim mavzulariga oid o‘zbek mumtoz adabiyotining durdona asarlarini tahlil qilib, Qur’onning o‘zbekcha tarjimalariga xos badiiy uslub masalasi, Muhammad va Iso (a.s.)lar siymolarining badiiy ifodasi, “Yusuf va Zulayxo” dostonining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni kabi dolzarb masalalarni yoritib berganlar. Olimning fikriga ko‘ra, Qur’on tili o‘ta murakkab bo‘lib, tarjimalarining o‘zi ham bir olam sifatida alohida tadqiqotlar mavzuidir. Qur’onning jahon tillariga o‘girilgan tarjimalarini o‘rganish qiyosiy tahlil bilan bir qatorda turli vaqt voqe’ligini ham inobatga olishni taqozo etadi. Ayni paytda Qur’onda o‘z zamonasining tarixiy voqe’ligi munosib o‘rin olgan bo‘lib, uni o‘rganmay turib, tarjimaga qo‘l urish befoydadir [2;26].

N.M.Uluqov esa o‘zining nomzodlik ishida diniy matnlarning o‘zbek tiliga tarjimasi va bu jarayonda yuzaga kelgan qo‘llanma so‘zlar, ularning bir turi bo‘lgan – ekzotik leksikani ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganadi. Olim o‘zbekcha diniy matn ekzotizmlarini lug‘aviy-ma’noviy guruhlarga bo‘lib, ularning semantik xususiyatlarini tahlil qilgan. N.M.Uluqov diniy matnlar yuzasidan quyidagicha fikr bildiradi: “O‘zbekcha diniy matnlar makrosistemasini islom dini ta’limoti va uning qonuniyatlari tashkil qiladi. Bu turkum sirasiga kiruvchi matnlar diniy ruhga egaligi bilan xarakterlanadi” [3:33]. Albatta, Qur’oni karimning arab tilida nozil bo‘lishi, qolaversa Arab xalifaligining Markaziy Osiyoga hujumi, asrlar osha barcha asarlar fors va arab tillarida yozilishi tilimizning leksik qatlamida arabcha so‘zlarning borligidan darak beradi. Shu xususda N.M.Uluqovning fikrlari mos keladi: “O‘zbekcha diniy matnlar lug‘aviy tarkibi jihatidan ham boshqa matn turlaridan keskin farq qiladi. Chunki diniy matnlar arab xalqining moddiy va ma’naviy hayoti, shu xalqning o‘ziga xos urf-odatlari va udumlari, yashash tarzi, shu xalq yashayotgan ijtimoiy-siyosiy muhit xuddi o‘sha xalq uchun aloqa vositasi vazifasini bajarayotgan tilda, ya’ni arab tilida

yoritilgan, aks ettirilgan” [3:34]. Bu esa hozirgi kunda ham o‘zbek tilshunosligida diniy matnlarning asosiy manbasi Qur’oni karim va uning tafsirlari ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida diniy mavzudagi tadqiqotlar ko‘lami ozchilikni tashkil qilsa-da, yildan-yilga Qur’oni karim tafsirlarlari yuzasidan olib borilayotgan ishlar sezilarli darajada ko‘paymoqda. Shunday tadqiqotlar qatorida Sh.M.Sultonovaning “Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy ishi, M.R.Galiyevaning “Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkurning aks etishi” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi, Sh.T.Yusupovaning “Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi” mavzusidagi tadqiqot ishi, Sh.R.Amonturdiyevaning “O‘zbek diniy matnining funksional-stilistik tadqiqi” deb nomlangan dissertasiyasi, N.U.Ismoilovaning “Qur’oni karim tavsirlaridagi o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy ishlari shular jumlasindandir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy tilshunoslikda din va til munosabatlarining bir kesimda lingvistik jihatdan tadqiq qilinishi diniy mavzudagi tadqiqotlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lmoqda. O‘zbek millatining diniy qarashlari islomga asoslangan ekan, dinimizning muqaddas kitobi Qur’oni karim va uning tafsirlari o‘zbek tilshunosligida diniy matnlarning asosiy manbasi hisoblanadi va bu o‘z navbatida yangi tadqiqotlarning vujudga kelishida turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Abdullayev, I.Usmonov va boshqalar. Qur’on va qur’onshunoslik. – Toshkent islom universiteti Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. – Toshkent, “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – 259 b.

2. H.S.Karomatov. O‘zbek adabiyotida Qur’on mavzulari (adabiy-tarixiy tahlil)): Filol. fan. dokt. diss. – Toshkent, 1993. – 281 b.

3. N.M.Uluqov. O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi: Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1997. – 143 b.

ISMLAR USLUBIYATI

A.M. Shofqorov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Badiiy asarlarda ismlarga uslubiy ma’no ham yuklanadi. Bu esa asar badiiyligini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada Alisher Navoiy asarlarida ismlar uslubiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ismlar uslubiyati, obraz, ijodkor mahorati, uslub, uslubiyat, uslubiy ma’no, uslubiy vazifa.

Аннотация. В произведениях искусства имена также нагружены стилистическим значением. Это способствует повышению художественности произведения. В статье рассматривается стиль имен в произведениях Алишера Навои.

Ключевые слова: стиль названий, образ, творческое мастерство, стиль, методология, методологическое значение, методологическая задача.

Annotation. In works of art, names are also loaded with stylistic meaning. This serves to enhance the artistry of the work. The article discusses the style of names in the works of Alisher Navoi.

Keywords: style of names, image, creative skill, style, methodology, methodological significance, methodological task.

Yozuvchining individual uslubida so‘zlarni obrazli ishlatish turlicha bo‘ladi. Har bir ijodkor voqelikni o‘zgacha idrok etadi. Ularning tasvir vositalaridan foydalanish usuli, poetik sintaksisi boshqalardan ajralib turadi. “Badiiy adabiyotda tasvir etiladigan manbalar doirasi juda ham kengdir. Adabiyot turli xil kasb-hunar egalarining, har xil toifadagi kishilarning his-hayajonlarini tasvirlabgina qolmay, ularning ichki dunyosini, jamiyatdagi amaliyotini ham aks ettiradi”. [4; 30.]

Buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy g‘azaliyotida lirik qahramon – romantik oshiqning butun orzu-o‘ylari, ishq-muhabbat yo‘lidagi barcha orzu-umidlari ideal darajada go‘zal, tengsiz va noyob xislatlarning egasi ma’shuqani, ularning tashqi va ichki dunyosini badiiy tasvirlash muhim o‘rin tutadi.

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” asaridagi ko‘pgina g‘azallarda lirik qahramon portreti o‘z tili va dilidan g‘oyat mahorat bilan tasvirlanadi. Xususan, ma’shuqa obrazi tasvir va tavsif etib bo‘lmas darajada ko‘rkam, hatto uni oyga, quyoshga ham tenglashtirib bo‘lmas darajada tasvirlangan. Shuningdek, bu obraz sharq

adabiyotida ta’rif va tavsif qilingan barcha mashhur ma’shuqalardan beqiyos go‘zal va ustun turuvchi tengsiz ayol sifatida tasvirlangan.

Navoiy ma’shuqa obrazining barkamol portretini yaratish va unga xos bo‘lgan insoniy xislatlar, noziklik, uyatchanlik, mehr va hayo, nafosat hamda ayollarga xos ta’sirchanlik, noz-u ishva yoki oshiqqa nisbatan “atayin” beparvolik hamda rahm-shavqatsizlik singari xususiyatlarni tasvirlashda ko‘pgina turli-tuman badiiy usullar bilan bir qatorda uni mashhur ma’shuqalarga solishtirish, qiyoslash usulidan keng foydalangan.

Alisher Navoiy g‘azallarida Shirin, Layli, Azro (Uzro) kabi ismlarning tez-tez uchrab turishi aslida mana shu usul taqozosi bilan yuzaga kelgan. Manbalarda keltiilishicha “Xazoyin ul-maoniy” asarining to‘rtta devonida mashhur ma’shuqalarning nomi – Layli ismi 71 marta, Shirin ismi esa 40 marta uchraydi. [2; 13.] Layli va Shirin ismlarining ishlatilishi muhim badiiy-uslubiy maqsadlar bilan aloqador.

Shoirning tasvirlashicha, yori shu darajada ko‘rkamki, uning husnini ko‘rgan ajoyib, nafis gullar va mashhur go‘zallar Layli-yu Shirin hijolatda, uning Majnun-u Farhodi bo‘lsa hayronlikdadir:

Bog‘ aro ruxsoru qadding jilvasin to ko‘rdilar,
Bo‘ldi obu tobsiz gulbargi ham, shamshodi ham.
Layli-yu Shirin bo‘lub sendin xijil, mendin dog‘i,
Ham aning Majnunidur hayron, munung Farhodi ham. [1; 412.]

Bu kabi holatni shoir yana bir g‘azalida quyidagicha tasvirlaydi. Oshiq o‘zining tengsiz ko‘rkam ma’shuqasi bilan faxrlanadi va bu husn kamoloti oldida o‘zini hushyor bo‘lishga, yanglishib qolmaslikka chaqiradi:

Desalar: Laylimu ortuq husn aro yo ul pari?
Garchi Majnunsen, kerak yong‘ilmag’aysen, ey ko‘ngil. [1; 456.]

Keltirilgan baytda ajoyib so‘z o‘yinini ko‘ramiz. Odatda, Majnun doimo Laylini deydi va uning ishqida “majnun” bo‘lib qolgan, shunday ekan, husn aro “Laylimu ortiq... yo ul pari?” deb so‘rasalar, albatta, Majnunning “Layli” deb javob berishi tabiiydir. Chunki, u birinchidan, Laylining oshig‘i – Majnun, ikkinchidan, umuman

majnun (aql-hushi o‘zida emas)dir. Demak, Majnun nomi keltirilgan baytda ham atoqli ot, ham turdosh ot (oddiy so‘z) vazifasida ustalik bilan qo‘llangan.

Shunday qilib, Navoiy g‘azallarida tez-tez uchrab turuvchi Layli, Shirin ismlari bu asarlarga tasodifan kiritilgan emas. Shoir o‘zi tasvirlayotgan ma’shuqani ulug‘lash, undagi beqiyos go‘zallik, chuqur va teran nafosatni yuqori darajada ta’rif va tavsiflash uchun bu ismlarga katta uslubiy ma’no yuklaydi.

Alisher Navoiy g‘azallarida Azro (Uzro), Shirin, Layli ismlari insoniy nafosat va odobning ramzi, o‘lchovi sifatida qabul qilingan. Shoir o‘zi tasvirlayotgan ma’shuqani mana shu ko‘rkamlik va kamolot o‘lchovi bilan o‘lchaydi. Ammo shu bilan birga uning sevgilisi shoir uchun eng ko‘rkam va tengi va qiyosi yo‘q insondir. U mashhur Layli va Shirindan ham husn-u malohatda, ham ma’naviy dunyosiga ko‘ra qisyoslab bo‘lmas darajada ustun va afzaldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий Хазойин ул-маоний. – Тошкент: “ЎзР ФА”, 1959, 781 б.
2. Begmatov E., Shofqorov A. Ismlar uslubiyatiga doir. – Navoiy: “NDPI”, 2002. 346 b.
3. Yo‘ldoshev B. O‘zbek onomastikasi masalalari. – Samarqand: “SamDU”, 2011. 110 b.
4. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983. 247 б.
5. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toskkent: “O‘qituvchi”, 1992. 160 b.

O‘ZLASHGAN DILEKTAL SO‘ZLARNING ETIMOLOGIK-QIYOSIY TAVSIFI

Nasiba Raimnazarova,
Termiz davlat pedagogika instituti
katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya: O‘zlashgan dialektal so‘zlarning etimologik-qiyosiy tahlillariga bag‘ishlangan ushbu maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan arab, fors, xitoy tilidan o‘zlashgan ayrim so‘zlar tadqiqqa tortilgan.

Kalit so‘zlar: Izohli lug‘at, dialektizm, etimologik tahlil, arab, fors, xitoy, sof o‘zbekcha dialektizmlar.

Аннотация: В данной статье, посвященной этимологическому и сравнительному анализу заимствованных диалектных слов, изучаются некоторые слова, заимствованные из арабского, персидского и китайского языков, приведенные в «Толковом словаре узбекского языка».

Ключевые слова: Толковый словарь, диалектизмы, этимологический анализ, арабский, персидский, китайский, чисто узбекский диалектизмы.

Abstract: In this article, devoted to the etymological and comparative analysis of adopted dialectal words, some words adopted from Arabic, Persian, and Chinese given in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language" are studied.

Key words: Explanatory dictionary, dialectism, etymological analysis, Arabic, Persian, Chinese, purely Uzbek dialectisms.

Tarixan turfa xalqlar aro siyosiy, madaniy, iqtisodiy, harbiy munosabatlar natijasida; asrlar silsilasida kechgan muhim istilolar ta’sirida barcha jabhalarda ma’lum darajada sodir bo‘lgani kabi Turonzaminning yerlik xalqlari, millatlari so‘zlashuviga, leksikasiga bir qadar chog‘ishib, istifoda etilganini, bu so‘zlarning aksariyatiga bugun ham o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida tartib berilganini kuzatish mumkin. Ushbu so‘zlar orasida shevaga oid so‘zlar ham borki (shevaga oid sof o‘zbekcha so‘zlar ham talaygina), o‘zlashgan dialektal so‘zlarning, turli fonetik, morfologik hodisalarga evrilishi diqqatga sazovor.

Arab tilidan o‘zlashgan shevaga xos so‘zlar: *bahmak, dallok, jazira, jubba, katmon, la’li, nag‘mag‘ar, rag‘ba, satil, soqa, tabla, tavr, takya, xabarkash, g‘ash, g‘ishava, havo, hayot, haz, hudhud, zot, kasod.*

Fors tilidan o‘zlashgan shevaga xos so‘zlar jami 89 tani tashkil qiladi: *asp, badraf, badgo‘y, bacha, bachcha, bozbarak, gavara, girgodir, govvos, govgun,*

go‘psangi, dav, dasta, dolon, domod, dudkash, dumkashak,do‘xt, do‘g‘ov, zambur, zardoli, zov, kalapatra, kallapo‘sh, kalon, kat, losh, mardak, mo‘rcha, namxush, objo‘sh, oftoba, olu, pardevor, parniyon, poycha, rosh, sang, sangbo‘ron, tezpazak, tirama, xazonchinak, xarrak, chilopchi, shakarob, shodimarg, g‘aynoli, hamshira, hamsoya va hk. Bundan tashqari o‘zbek tilida til boyishining ichki imkoniyatlari asosida yoki turli tildan o‘zlashgan so‘zlarning kombinatsiyasidan yoxud ularni juftlash yordamida hosil bo‘lgan shevaga oid leksemalar ham mavjud*:*

- **o‘zbekcha so‘z + -kash:** *adramkash, davkash, dudkash.* Biroq ushbu misollar qatorida faqat *dudkash* so‘ziga berilgan izohda uning forscha so‘z ekanligiga ishora mavjud, qolgan so‘zlarning etimologiyasi berilmagan.

Sof o‘zbekcha so‘zlar: 2 tomli O‘TILda sof o‘zbekcha shevaga oid so‘zlarning miqdori ko‘p bo‘lganligi uchun misollar berish bilan kifoyalanildi.

- 1-tomda 280 ta sof o‘zbekcha shevaga oid so‘zlar mavjud bo‘lib, *alish, aravak, arna, axtalamoq, acha, achchiq-tirsak, aya, ayanchli, aqirmoq, bebilchak, betkay, biqiq, bopta, bosqi, buvak, buyur, galdiraklamoq, gapchil, gellamoq, guvalak, gujum, davara, davur, dashsha, dikdikka, doyi, yop, yorg‘i, jajman, jirov, jubba, zambar, ik, ilakmoq, ishgir, kashal, kirpi,mayriq, mayta, manqa, moyak, nahal, obdish, oqqiyar, og‘izliqvahk…*

- 2-tomda 212 ta sof o‘zbekcha shevaga oid so‘zlar mavjud bo‘lib, *saldom, sangbo‘ron, sas, satil, saqmon, siydam, sinchaloq, sulgi, so‘g‘on, talqin, tappak, tancha, tatim, tiklamoq* (tikilmoq), *tirkash, tokbur, tolgul, tolma, totuq, tutal, to‘bichoq, ulimoq, uchak, ushuk, xasva, chakki, chandoza, chanoq, chapati, chag‘alay, chekchaymoq, chibor, shiptir, shuvoq, emgak, esh, yumurtqa, o‘bdan, o‘pich, o‘rgamchi, qaptalvahk.*

5 jildli O‘TILda sof o‘zbekcha so‘zlar (turkiy leksik qatlam) 1000 ta so‘zdan oshiq miqdorni tashkil etadi. “1981 yilda nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 715 ta sheva so‘zi qayd etilgan”. 2 tomli O‘TILda sof o‘zbekcha qatlam 500 ta so‘z atrofidagi miqdorni tashkil etadi.

Arab tilidan o‘zlashgan shevaga xos so‘zlar: *odamsiyoq, tarz, says, salla, soqa II, soqa III, so‘ri, tabla, qalam.*

Fors-tojik tilidan o‘zlashgan shevaga xos so‘zlar. 91 ta fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar mavjud: *asp, bachcha, badraf, beshmat, boz, giranda, govgum, dahmarda, dahanak, do‘lvar, joyravo, juvona, zirava, zardoli, kadi, kelbat, qissa, murdashuy, namxush, nonpaz, obtova, olvoli, oynasoz, oftoba, pishak, sang, sangzor, so‘zanak, tabar, tezpazak, charxak, chorsi, yaxob, g‘adang, hanuzvah.k.*

Xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlar 2 tomli O‘TILdagina mavjud. Sof xitoy tiliga mansub so‘zning miqdori 1 dona bo‘lib, u *chung* so‘zidir.

ChO‘NG*[xit] dial.* Katta, ulkan, zo‘r. *Cho‘ng xarsang. Cho‘ng gavdali. Cho‘ng daryo. Cho‘ng Oloy yaylovlari. — Ho‘l va quruq holda dasturxonni bezagan ham uzum,.. cho‘ng daromad manbai ham uzum.* R. Musamuhamedov, Yaxshidan bog‘ qoladi. *Andijonliklarning karvoni.. umid manziliga yetib keldi. Ammo bu bilan oldimizda turgan cho‘ng vazifalar tamomiga yetdi emas.* G‘. G‘ulom, Jon Andijon.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shevaga xos so‘zlarning etimologik tavsifi o‘zbek tilining soflik, qadimiylik xususiyatlarini ochishda ahamiyatlidir. Ikki tomli va besh jildli lug‘atlar qiyosiy tahlil qilinganda ulardagi farqlar, o‘zgarishlar yaqqol seziladi. Shevaga oid so‘zlarning ushbu tahlili izohli lug‘atning yangi nashrlarini yaratish amaliyotida foydalanilsa, tadqiqotimizning ilmiy-amaliy ahamiyati yanada ortgan bo‘lar edi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. 1-жилд. – 680 б.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. 2-жилд. – 671 б.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2007. 3-жилд. – 688 б.

4. Жомонов Р. Ўзбек тилининг изоҳли луғати учун диалектизмлардан сўз танлаш принциплари ва уларнинг берилиши: Филол. фанлари номзоди... дис. – Т., 1991. – 55 б.

5. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, *46*(1), 63–66.

6. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.

MILLATIMIZ “GUVOHNOMA”SI

Nasiba Raimnazarova,
TerDPI katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD).
Gulchiroy Faxritdinova,
TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Til millatning ruhi. Bugungi kunda millatimiz shahodat jabhalarining asosi bo‘lgan ona tilimiz nufuzi, uni globallashuv jarayonida tashqi va ichki bo‘hronlardan, “ommaviy madaniyat” va turfa tashviqiy xurujlardan himoyalash, tilning qadr-qimmati va ahamiyatini yosh avlod hayotiga tatbiq etish, tilimiz ustuvorligini singdirish, ardoqlash va himoya etishning qanday an’anaviy va zamonaviy usullari bor? Ushbu maqolada shular haqida qisqacha bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *4-modda, millatparvarlik, davlat idoralari, ma’muriy jazo, qadriyat, meros, peshtoqlar, ehtiyoj, ardoqlash, usullar, Herman Hesse.*

Аннотации: Язык – душа нации. Сегодня авторитет нашего родного языка, который является основой мученичества нашей нации, защищает его от внешних и внутренних кризисов, «массовой культуры» и различных пропагандистских атак в процессе глобализации, применяет ценность и важность языка. язык в жизнь молодого поколения, прививать и уважать приоритет нашего языка и каковы традиционные и современные методы защиты? В этой статье они будут кратко описаны.

Ключевые слова: статья 4, национализм, государственные органы, административное наказание, ценность, наследие, границы, нужда, честь, методы, Герман Гессе.

Abstract: Language is the soul of the nation. Today, the authority of our mother tongue, which is the basis of the martyrdom of our nation, to protect it from external and internal crises, "mass culture" and various propaganda attacks in the process of globalization, to apply the value and importance of the language to the life of the young generation, to inculcate and honor the priority of our language and what are the traditional and modern methods of protection? This article will briefly describe them.

Key words: Article 4, nationalism, state agencies, administrative punishment, value, heritage, fringes, need, honor, methods, Herman Hesse.

Kishi avia chipta sotib olish uchun chiptachiga shaxsini tasdiqlatish uchun hujjat uzatadi... Samolyot uchish oldidan nazoratdan o‘tkazish joylaridagi xodimlar guvohnoma, chipta va yo‘lovchiga razm tashlab, “xavfsiz parvoz” tilaydi...

Millat ham shu. Xuddi odam kabi millatning qiyofasini oydin etuvchi “guvohnoma”lari bor. Ularning eng ulug‘i – til! Agar millat tilsiz bo‘lsa, kelajak sori

parvoz etolmaydi! To tilini topguncha, tiliga erishib, uni o‘z hayotida, o‘z izzati nafsi, sha’ni, g‘ururi, faxri o‘laroq ma’naviy hayotida muntazam tatbiq etib, ardoqlab, o‘zga tillar izdihomida ona tilining qadr-qimmati uchun kurashmas ekan, parvoz haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas! Bu haqida so‘nggi yuz yil ichida jadidlardan to yangi asr ziyolilariga dovur ko‘p va xo‘p qayg‘urildi, aytildi va bitib kelinayotir. Biroq globallashuv o‘chog‘idan uzluksiz uchqun sachratayotgan taraqqiyot olovi jahonga yangi atamalari, yangi narsa-buyum, joy va zamonaviy texnologiyalar nomlari hamda internet olamining so‘nggi “topildiq”larini bermoqda. Aniqrog‘i shu yo‘l bilan ko‘plab madaniyat va qadriyatlar, an’analarga bilib-bilmay mafkuraviy xavf solmoqda. Shunday shovqinli muhitda o‘zbek jamiyatida ham, duch kelgan ajnabiy kalomni iistifoda etib, uni nafaqat so‘zlashuvda, balki ommaviy axborot vositalari orqali keltirilishi muqarrar bo‘lgan ma’naviy zararini inobatga olmay,ko‘r-ko‘rona targ‘ibu tashviq etish holatlari o‘z ona tili nufuziuchun kurashga kirgan odamni ranjitadi, albatta. Xo‘sh, nima qilmoq kerak?! Qanday qilsak, ona tilimiz asrlar osha barqaror, o‘zining bor go‘zalligi bilan keyingi nasllarga meros qoladi? Bu yuzaki qog‘ozbozlik, haybarakallachilik yoinki “xo‘ja ko‘rsin” qabilida ish tutish bilan hal qilib bo‘ladigan tarixiy vazifa emas.

Til – hal qiluvchi masala. Millatning yo u yoqli-yo bu yoqli bo‘lishini belgilab beruvchi asosiy birlik. Demak, tilni saqlab qolish uchun qilinadigan ishlarga ham millatni saqlab qolish darajasida ahamiyat qaratilmog‘i lozim. Nazarimizda, amallar quyidacha:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 4-moddasiga o‘zgartirish kiritish, o‘zbek tilining buzilishi holatlari qonunan javoblargikka tortilishi mazmunida band kiritish va shu bo‘yicha tegishli qonun hujjatlarini ishlab chiqib, qonunni kuchga kiritish;

davlatchilikning muhim birliklari, qonun va qonunosti hujjatlari, Qaror, Farmon va Farmoyishlar, diplomatik aloqalar, jahon minbarlaridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy va madaniy masalalarga doir so‘zlanadigan nutq, tezislar o‘zbek tilida bayon etilishini ta’minlash;

O‘zbekistonda o‘zbek tilining buzilish holatlariga yo‘l qo‘yuvchi jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llash (nega endi eng oddiy yo‘l harakati qoidasini buzgan haydovchi jarimaga tortilib, butun boshli o‘zbek tilini buzgan fuqaro jarima to‘lamasligi kerak?);

barcha viloyatlar va poytaxtning markaziy ko‘chalaridan tortib, to eng chekka hududlarigacha peshtoqlarga ilingan yozuvlardan to taomnomayu, bank qurilmalarning cheklarigacha aks etadigan barcha ijtimoiy-maishiy yozuvlar o‘zbek tilida bo‘lishini qonunan joriy etish va muntazam nazoratga olish;

ommaviy axborot vositalari, davlat va nodavlat televideniyelar orqali sof o‘zbek tilining nufuziga putur yetkazuvchi har qanday audio, vidyeo, matnlarni cheklash, tartibga solish;

o‘zbek tili – vatanparvarlikning asosiy belgilaridan biri ekanligini aks ettiruvchi targ‘ibot vositalari, reklama, rolik, qo‘shiq, film va turli yondosh ijodiy sohalar yordamida g‘oyaviy mahsulotlar tayyorlash;

umumta’lim maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab, oliy ta’lim muassasalari va oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili fanini o‘qitish metodikasini tubdan isloh etish, tilning yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ajralmas qismi, ifoda vositasi – ovozi (!) bo‘lishini yosh avlod qalbida g‘oyaviy jihatdan mustahkam usullarda shakllantirib borish;

xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimlarida buyuk ajdodlarimiz va o‘zbekning millatparvar ziyolilari merosini chuqur o‘rgatishga, har bir o‘quvchining shaxsiy va milliy izzati nafsinio‘stirishga, Ona Vatani va Ona tilinidan g‘urur hissini tuyuvchi, millat va mamlakat manfaatlarini har qanday sharoitda himoya qilishga qodir o‘g‘il-qiz bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiluvchi “Millatparvarlik fani”ni joriy etib, astoydil yeng shimarsak, bu sa’y-harakatlar, albatta, kutilgan natijalarni beradi.

“O‘z tilini yaxshi bilmagan, sevmagan, ardoqlamagan va uni himoya qilmagan xalqning shoiri bo‘lish uyatdir”, deydi olmon adibi Herman Hesse. Shu ma’noda o‘zbek tilining taqdiri faqat va faqat ma’naviyat va ma’rifat yo‘li orqali obod bo‘lishi mumkin. Mamlakat har qancha taraqqiy etib, ertaknamo shaharlar qurib, qimmatbaho

qog‘ozlaru oltinu kumushga ega bo‘lmasin, millat o‘z ona tilida so‘zlamas ekan, bari abas – u qiyofasiz, ertangi kun uchun yo‘lsiz, demakdir.

Shunday ekan, o‘zbek tili uchun qayg‘urishni minbarlardan tushgach ham, maqolayu tezisni yakunlagach ham, har kuni, har soatda ko‘z oldimizdan ketkazmasligimiz, hayotiy ehtiyoj o‘laroq qabul qilishimiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. “Surxon yoshlari” gazetasi 2021 yil 12-son;
3. Hesse H. “Nyurnbergga sayohat”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012 y. 3-b. Olmonchadan Mirzaali Akbarov tarj.
4. www.lex.uz sayti
5. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, *46*(1), 63–66.
6. Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi. (2024). OKSYUMORONNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 26–30.
7. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
8. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
9. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.
10. Sayfullayev N. H. o‘g‘li. (2023). IJTIMOIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(12), 106–111.
11. Раимназарова, Н. (2023). Формоструктурное описание диалектизмов в толковых словарях. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 316–319.

РОЛЬ ФИЛОСОФСКО-НАЦИОНАЛЬНОЙ ОСНОВЫ В АНАЛИЗЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Абдурахманова Хилола Рахматуллаевна
Термезский государственный педагогический институт
старший преподаватель кафедры «Русский язык и литература»

Аннотация: В данной статье рассматривается значение философско-национальной основы в анализе художественных произведений. Акцент сделан на том, как эти основы влияют на восприятие искусства и его интерпретацию, а также на формирование культурной идентичности. Статья исследует взаимодействие философских подходов с эстетическими концепциями, а также роль национальной культуры в контексте глобализации.

Ключевые слова: философия, национальная культура, художественное произведение, культурная идентичность, эстетика.

Annotation: This article examines the significance of the philosophical-national basis in the analysis of works of art. The emphasis is on how these foundations affect the perception of art and its interpretation, as well as the formation of cultural identity. The article explores the interaction of philosophical approaches with aesthetic concepts, as well as the role of national culture in the context of globalization.

Key words: philosophy, national culture, artistic work, cultural identity, aesthetics.

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy asarlarni tahlil qilishda falsafiy-milliy asosning ahamiyati ko‘rib chiqilmoqda. Mazkur asoslar san’atni qabul qilish va uning tushuntirilishiga, shuningdek, madaniy o‘zinchalikni shakllantirishga qanday ta’sir qilishiga e’tibor qaratilgan. Maqola falsafiy yondashuvlarning estetik kontseptsiyalar bilan o‘zaro hamkorligini, shuningdek, milliy madaniyatning globalizatsiya kontekstidagi rolini tadqiqlaydi.

Kalit so‘zlari: Falsafa, milliy madaniyat, badiiy asar, madaniy o‘ziga xos, estetika kabi asosiy so‘zlar.

Введение

Художественное произведение является многослойной текстурой, в которой переплетаются различные культурные, исторические и философские аспекты. Философско-национальная основа зачастую определяет смысловую структуру текста и его влияние на общество. В условиях глобализации, когда культурные идентичности подвергаются значительным изменениям, исследование философских и национальных основ художественного творчества становится особенно актуальным.

Философские основы в художественном произведении

Философия, как дисциплина, изучающая фундаментальные вопросы о бытии, знании, истине и морали, играет ключевую роль в формировании художественного дискурса. Художник, создавая произведение, невольно отражает свои мысли и взгляды на окружающий мир. Философские течения (гуманизм, экзистенциализм, постмодернизм) задают контекст для понимания произведения. Например, экзистенциалистские идеи о свободе выбора, абсурде и осмыслении жизни четко прослеживаются в текстах таких авторов, как Альбер Камю и Федор Достоевский, демонстрируя, как философия пронизывает художественное осмысление человеческого существования.

Взаимоотношения искусства и философии динамично разворачиваются в духовной культуре. Философия рассматривается как сознание, а искусство – как самопознание культуры. Художественное сознание выступает как теоретическая рефлексия художественной культуры. Философия выполняет важную функцию, являясь интеллектуальной квинтэссенцией культуры. Весь комплекс философских наук не только осмысляет ценности, но и выражает, формирует ценностное отношение к миру.[1].

С точки зрения писателя, произведение — это возможность прояснения и выражения собственных мыслей и идей, познания и анализа мира, даже несмотря на то, что, будучи заключены в темницу слова, мысли редуцируются, привязанные к одной культуре, детерминированные возможностями языка. «Воспроизведение звука облегчает, впрочем, всегда неточное, воспроизведение мысли. Звук становится намеком, знаком прошедшей мысли. В этом смысле слово объективизирует мысль, ставит ее перед нами, служит тем делом, без которого невозможно самопознание» — писал А.А. Потебня [2. С. 26].

С точки зрения читателя, или реципиента, литературное произведение — это не только возможность развлечься или убить время. Текст — это также не готовые ответы на вопросы, не набор универсальных моделей поведения. В первую очередь, художественное произведение — это возбудитель мысли, генератор новых идей, возникающих как в процессе, так и после чтения у самого читателя. [3].

Национальная составляющая художественного анализа текста

Национальная идентичность также формирует уникальный контекст для художественного восприятия. Каждая культура имеет свои традиции, символы и мифы, которые находят отражение в искусстве. В произведениях русской литературы можно увидеть, как национальная идея переплетена с темами свободы, духовности и трагедии. Классики, такие как Лев Толстой и Антон Чехов, демонстрируют сложности человеческих отношений на фоне исторических реалий их времени, что делает их работы универсальными и в то же время глубоко национальными.

Чехов рано задумался об особенностях русского национального характера. В конце 80-х годов, когда рождался замысел повести «Степь», его остро волновала проблема русской ментальности, что нашло отражение в первой поставленной на сцене чеховской пьесе «Иванов». Неслучайно у героя чеховской драмы - распространенная русская фамилия: Иванов. Распространенность фамилии подчеркивала национальную типичность персонажа. Чехова интересовали истоки русского характера, причины, обусловившие его отличительные черты, его отличительные особенности. [4].

Каждая национальная литература «обладает историческим опытом конструирования национальной идентичности. Этот процесс происходил (и происходит) в меняющихся контекстах (политических, социальных, культурных), влияющих на национальную идентичность литератур. Он уникален для каждой национальной литературы. Вместе с тем в нем есть и точки соприкосновения, обусловленные общностью ситуации, в которой происходило конструирование идентичности литератур» [4, с. 7].

Художественный текст представляет собой сложный культурно-языковой феномен, полнота восприятия которого зависит от уровня культуры личности, ее фоновых знаний. Специфическую черту художественной литературы составляет индивидуальное своеобразие творчества писателя, которое находит свое языковое выражение в системе использования языковых категорий, образующих в своей взаимосвязи единое целое с содержанием и являющихся носителями

национально-культурного своеобразия. Выявление, интерпретация и анализ национально-культурной и идейно-художественной информации в исследуемых художественных текстах невозможны без предварительного комплексного изучения сферы контекстов.

Пожалуй, именно художественный текст является самым ярким представителем стиля текста, отражающего национальную специфику принадлежности к той или иной культуре. Художественный текст несет эстетическое, эмоциональное, высоко смысловое, символическое, эталонное, образно-метафорическое значение в культуре, а также отражает национальный характер, менталитет и мировосприятие того или иного народа в пространстве литературного наследия данной культуры. Таким образом, произведения художественной литературы представляют большой интерес с точки зрения изучения национально-культурной специфики и культурной принадлежности художественного текста. Отличительной чертой именно художественного текста является чрезвычайно активное использование тропов и фигур речи: эпитеты, сравнения, метафоры, авторские неологизмы, повторы на разных языковых уровнях, игра слов, основанная на многозначности слова или оживлении его внутренней формы, ирония, «говорящие» имена и топонимы, синтаксическая специфика художественного текста оригинала, диалектизмы. [6].

Взаимодействие философского и национального в художественном произведении

Наиболее насыщенные художественные произведения зачастую становятся результатом синергии философских и национальных основ. Анализируя произведения, необходимо учитывать, как философские идеи синтезируются с национальной спецификой. Например, в творчестве Федора Достоевского наблюдается противоречие между личной свободой и коллективной моральной ответственностью, что отражает сложность русской идентичности.

Тема противоречия между личной свободой и коллективной моральной ответственностью является центральной в творчестве Фёдора Достоевского. Это

противоречие раскрывается через борьбу героев с собой, обществом и высшими принципами. Рассмотрим основные аспекты:

Личная свобода как вызов. Герои Достоевского, такие как Раскольников в "Преступлении и наказании" или Иван Карамазов в "Братьях Карамазовых", часто стремятся испытать пределы человеческой свободы. Они бросают вызов моральным и религиозным нормам, желая доказать право человека на абсолютную самостоятельность. Однако их внутренние противоречия показывают, что такая свобода часто оказывается невыносимой.

Коллективная ответственность. Достоевский подчеркивает идею о том, что человек неотделим от общества и Бога. Взаимосвязь героев с коллективом и моральными обязательствами нередко приводит их к осознанию невозможности существования без признания своей ответственности перед другими. Так, Раскольников приходит к покаянию через осознание страдания других людей.

Русская идентичность. В творчестве Достоевского это противоречие отражает особенности русской мысли XIX века. Для него характерно соединение западных идей индивидуализма и православного коллективизма. Через свои произведения писатель исследует уникальный путь России, в которой человек ищет баланс между свободой и служением.

Моральный поиск героев. Например, в "Идиоте" князь Мышкин символизирует идею высшей добродетели, стремящейся соединить личное счастье и сострадание. Однако его благие намерения часто приводят к трагедиям, что указывает на сложность гармонизации личного и общественного начал.

Таким образом, противоречие между свободой и ответственностью в произведениях Достоевского является не просто конфликтом, а отражением глубинного поиска смысла жизни. Этот поиск укоренён как в индивидуальном, так и в национальном сознании.

Заключение

Роль философско-национальной основы в анализе художественного произведения невозможно переоценить. Она не только придает глубину и многогранность смыслу текста, но и формирует общий контекст для его

восприятия. Важно учитывать эти аспекты как в процессе создания, так и в процессе интерпретации художественных произведений. В условиях глобализованного мира сохранение и осмысление национальной идентичности через призму философии становятся необходимыми для формирования культурного диалога между народами.

Список литературы

1. Малинина Н.Л. Художественный образ как референция искусства и философии. Контекст и рефлексия: философия о мире и человеке. 2017. Том 6. № 6А. С. 219-226.

2. Потебня А.А. Из записок по теории словесности. — Харьков: Паровая типография и литография «М. Зельберг и С-вья», 1905.

3. Вестник РУДН, серия Теория языка. Семиотика. Семантика, 2010, № 2

4. Ю.Н.Шестикова. Постановка проблемы русского национального характера в повести А. П. Чехова «Степь». Уралский филологический вестник.2016 год. № 5. 50-57 стр.

5. Ибрагимов М. И. Национальная идентичность татарской литературы: современные методы исследования : очерки. - Казань : ИЯЛИ, 2018. - 104 с.

6. Межова М. В. Филологические науки. Вопросы теории и практики, № 9 (39) 2014, часть 1.

CURRENT PROBLEMS OF PRACTICAL LINGUISTICS

Adzheminova Elvina Rifatovna
Lecturer at the department of russian philology at Fergana state university
Fergana, Uzbekistan
nochkaelvi@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные проблемы практической лингвистики, охарактеризованы вопросы, касающиеся использования языка в различных сферах жизни. Был проведен анализ фактов, посвященных языковой адаптации. Показано, что адаптация требует глубокого понимания как исходного, так и целевого культурного контекста. Обращено внимание на широкий спектр вопросов, касающихся актуальных проблем практической лингвистики.

Ключевые слова: практическая лингвистика, языковая ситуация, сферы жизни, культурный контекст, клиентский опыт в переводе, эффективная и своевременная коммуникация, междисциплинарный подход.

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliy tilshunoslikning dolzarb muammolari muhokama qilinadi va hayotning turli sohalarida tildan foydalanish bilan bog'liq masalalar yoritiladi. Tilning moslashuvi bo'yicha faktlar tahlili o'tkazildi. Moslashuv manba va maqsadli madaniy kontekstni chuqur tushunishni talab qilishi ko'rsatilgan. Amaliy tilshunoslikning dolzarb muammolari bilan bog'liq keng ko'lamli masalalarga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: amaliy tilshunoslik, til vaziyati, hayot sohalari, madaniy kontekst, tarjimada mijoz tajribasi, samarali va o'z vaqtida muloqot, fanlararo yondashuv.

Annotation: This article discusses current problems of practical linguistics and describes issues related to the use of language in various spheres of life. An analysis of the facts on language adaptation was carried out. It is shown that adaptation requires a deep understanding of both the source and target cultural context. Attention is drawn to a wide range of issues related to current problems of practical linguistics.

Key words: practical linguistics, language situation, spheres of life, cultural context, client experience in translation, effective and timely communication, interdisciplinary approach.

Current problems of practical linguistics cover a wide range of issues relating to the use of language in various spheres of life.

First of all, it is language adaptation, how to effectively adapt texts for different cultural and linguistic contexts, especially in the context of globalization. Language adaptation is the process of changing text or speech to make it more understandable and acceptable to the target audience, taking into account cultural, social and linguistic

characteristics. This process plays a key role in various fields such as translation, marketing, education and intercultural communication. Here you need to consider taking into account the cultural norms, traditions and customs of the target audience [1:34]. For example, some expressions or jokes may be incomprehensible or even offensive in another cult. If we talk about lexical adaptation, then we need to mention a change in vocabulary for better perception.

This may include using simpler words or equivalents that resonate better with the reader. Syntactic adaptation is important, changing sentence structure to ensure clarity. For example, some languages prefer shorter sentences. Customize your writing style based on your audience. For example, scientific texts require a formal style, while a more informal and conversational style may be appropriate for a youth audience. Taking into account the specifics of the situation in which the adapted text will be used, for example, advertising, educational materials or publications on social networks. Applying adapted texts in a real situation and collecting feedback from the target audience for further improvement [3:18]. Adaptation requires a deep understanding of both the source and target cultural context. Changes may cause some nuances and meanings to be lost. Different audiences may interpret adapted texts differently.

In conclusion, language adaptation is an important tool to overcome language and cultural barriers, which is especially important in today's globalized world.

Secondly, there is the customer experience in translation: the study of how to improve the quality of translation and make it more understandable to the target audience. Customer experience in translation is the totality of customer experiences and interactions with translation services throughout the entire process. The importance of this aspect lies in the fact that customer satisfaction directly affects the reputation of translation agencies and further cooperation. Let's look at the key elements and factors influencing the customer experience in translation. The quality of the translation is a critical factor. Clients expect precision, naturalness and stylistic compliance. It is important to attract qualified translators who not only speak the language but are also familiar with the topic of translation. Effective and timely communication between the

client and the translator or agency improves the client experience. Feedback on progress, possible problems and deadlines is important.

Customer experience in translation is a complex process that requires attention to many details [2:41]. A successful translation agency should strive not only for high quality translations, but also to create a positive and memorable experience for its clients. This not only builds trust, but also increases the likelihood of repeat business and referrals.

In addition to the above, current problems in practical linguistics cover a wide range of issues, such as cognitive linguistics (understanding how people perceive and process linguistic information, and how this affects language learning and use), cross-cultural communication (problems related to differences in the linguistic and cultural context, which may lead to misunderstandings, technology and automation (the impact of new technologies such as machine translation and natural language processing on the practical application of linguistic knowledge, language and identity (how language influences the formation of personal and group identity, especially in multilingual communities), social aspects of language (language policy issues , linguistic equality and protection of endangered languages), phonetic and phonological changes (the study of changes in pronunciation and their consequences for communication).

These problems require an interdisciplinary approach and can be solved through the collaboration of linguists, psychologists, cultural scientists and communication specialists.

List of used literature:

1. Budagov R. A. The law of polysemy of a word // Man and his language: articles /R. A. Budagov. M.: Moscow State University Publishing House, 1974.- p. 117-123.
2.Vereshchagin E. M.,Kostomarov V. G. LANGUAGE AND CULTURE. Linguistic and regional studies in teaching Russian as a foreign language. Publishing house "Russian Language" V/O "Soveksportkniga" of the State Committee for Press. 103012 Moscow, Staropansky lane.- p. 112-115.
3. Vinogradov V.V. On the main types of phraseological units in Russian language // Selected works. Lexicology and lexicography. M., 1977. - pp. 140-161

GIDRONIMLARNING TIL TIZIMIDAGI O‘RNI

Majidova Shahnoza Komilovna
TerDPI Katta o‘qituvchisi
majidovashahnoza59@gmail.com
Bobomurodova Mahzuna Ortiq qizi
TerDPI 1-kurs magistri

Annotatsiya. Surxondaryodagi joy nomlari bo‘yicha ma’lum toponimik tadqiqotlar yetarli bo‘lmasada, olib borilgan. Olimlarimiz boshqa, mikrotoponimlar va alohida gidronimlarni o‘rganishga e’tibor bermay kelmoqda. Maqolada buni amalga oshirish uchun ushbu sohadagi mikrogidronimlar ham ko‘rib chiqiladi. Gidronimlarning tadqiqi tarixi va gidronimlarning kelib chiqishiga e’tibor qarating.

Kalit so‘zlar. Toponimika, gidronim, etnik belgi, mikrogidronim, geografik atamalar, antroponimlar, geografik obyekt, etnografik, tarixiy.

Аннотация. По топонимам Сурхандарьи проведены некоторые топонимические исследования, однако они недостаточны. Наши ученые продолжают игнорировать исследования других, микротопонимов и отдельных гидронимов. Для этого в статье также рассматриваются микрогидронимы данной области. Сосредоточьтесь на истории исследования гидронимов и происхождении гидронимов.

Ключевые слова. Топонимия, гидроним, этнический символ, микрогидроним, географические термины, антропонимы, географический объект, этнографический, исторический.

Annotation. Some toponymic research has been done on place names in Surkhandarya, although it is insufficient. Our scientists continue to ignore the research of other, microtoponyms, and particular hydronyms. The article also considers the microhydronyms in this area to do this. Focus on the history of hydronym research and the origins of hydronyms.

Keywords. Toponymy, hydronym, ethnic symbol, microhydronym, geographical terms, anthroponyms, geographical object, ethnographic, historical.

Toponimik nomlar qadimiy va uzoq davrlarning mahsuli bo‘lib, muayyan hududning tarixi, geografiyasi, tabiati va taraqqiyot tendensiyalari haqida boy ma’lumot beruvchi lisoniy manbadir. Shunga ko‘ra toponimlar tarix, etnografiya, geografiya, arxeologiya, geologiya kabi ko‘plab fanlarning tekshirish obyekti bo‘la oladi. Toponimlar joyning nomlari, umumiy asosda so‘zlar bo‘lib, so‘z sifatida ularning lug‘aviy-semantik xususiyatlari, nomning vujudga kelish sabablari, toponimlarning tuzilishi va yasalish xususiyatlari tilshunoslikning o‘rganish

manbalarida biridir.

Joy nomlarining muhim jihatlari muayyan bir joyni boshqasidan farqlash hisoblanadi. Shaharlar, qishloqlarni bir-biridan ajratish uchun, shahar va qishloqlardagi manzillarini adashmay topish va bir-biridan farqlash uchun toponimik obyektlarga turlicha nomlar qo‘yilgan. Bunday nomlar *toponimlar* yoki *geografik nomlar* deb yuritiladigan bo‘lib, ularni o‘rganadigan soha esa *toponimika* deyiladi.

Olim S.Qorayev toponimika haqida fikr bildirib, quyidagilarni bayon etadi: “Toponimika yunoncha *topos* – joy va *onoma* (yoki *onima*) – nom so‘zlaridan olingan. Toponimiya onomastikaning o‘ziga xos sohasi bo‘lib, uning ham bir qator turlari mavjud. Bular: gidronomiya – (yunoncha gidro – suv) daryolar, ko‘llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo‘ltiqlar, bo‘g‘ozlar, sharsharalar nomlari; oykonimiya (yunoncha oykos – uy), polinimiya – (yunoncha polis – shahar) qishloq hamda shaharlarning nomlari, mikrotoponimiya – (yunoncha mikros – kichik) kichik obyektlar: dalalar, o‘tloqlar, daraxtzorlar, jarlar, yo‘llar, ko‘priklar va hatto atoqli otga ega bo‘lgan ayrim daraxt nomlari; oronimiya – (yunoncha oros – tog‘) yer yuzasidagi relyef shakllari – tog‘lar, cho‘qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug‘-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar – etnotoponimlar (yunoncha etnos – xalq) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antrotoponimlar (yunoncha antros – odam) deb yuritiladi”[2:5].

Ko‘rinadiki, toponimika juda katta hajmdagi joylarni: shaharlar, qishloqlar, ovullar, daryolar, soylar, tog‘lar va boshqalarning nomlari haqidagi fan bo‘lib, ushbu nomlarning kelib chiqishi, joylarning nomlanish tamoyillarini o‘rganuvchi soha, uning natijalaridan nafaqat tilshunoslik, tarix, arxeologiya va boshqa fanlar ham manfaatdordir.

Toponimik obyektlar inson turmush tarzi bilan bog‘liqligi, inson hayotining bir qismi bo‘lganligi uchun ham ular bilan bog‘liq masalalar, ularga qo‘yilgan nomlar, muayyan toponimik obyektning joylashish o‘rnini aniqlash kabi masalalar bilan qadimdan shug‘ullanib kelingan. “Tarixchi va geograf Hofizi Abru Shahobuddin Abdulloh ibn Lutfilloh ibn Abdurrashid al-Havofiyning “Tarixi Hofizi Abru” nomli mashhur asarida yer yuzidagi suvlar, tog‘-toshlar, mamlakatlar va ulardagi aholi

manzillari, shuningdek, Fors, Kermon, Xurosonning batafsil geografiyasi va tarixi, Movarounnahr geografiyasi bayon etilgan. Xususan, *Samarqand, Buxoro, Kesh, Naxshab, Termiz* kabi shaharlar hamda *Jayxun, Sayhun, Murg‘ob* va boshqa daryolar, mamlakatlar, viloyatlarning kenglik va uzunliklari haqida ma’lumot berilgan”[1:381].

Shuningdek, H.Hasanovning “Sayyoh olimlar” asarida qayd qilinishicha: “Tarixiy-geografik asar hisoblangan “Hudud ul-olam”da Markaziy Osiyo, davlatlari, shuningdek, O‘zbekistonga oid ko‘pgina geografik ma’lumotlar ham berilgan. Xususan, Buxoro, Baykand (Poykend), Sug‘d, Tavovis, Karmina (hozirgi Karmana), Kushoniy (Kushaniya), Samarqand, Kesh, Tirmiz (Termiz), Farg‘ona, Shom va boshqa shahar hamda viloyatlar ta’rifi keltirilgan. Asarda hozirgi Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, O‘zbekiston va G‘arbiy Xitoy hududi tasvirlangan va dengiz, daryo va boshqa joy nomlari keltirilgan. Asarning “Dengizlar va qo‘ltiqlar haqida so‘z” nomli bobida *Xazar dengizi* (hozirgi Kaspiy dengizi), *Xorazm dengizi* (Orol dengizi), “Daryolar haqida so‘z” bobida *Jayxun* (Amudaryo), *Xarnob* (Panj daryosi irmog‘i bo‘lishi mumkin), *Chag‘onrud* (Surxondaryo), *O‘zgand* (Qoradaryo), *Xirsob* (Kurshob), *O‘sh daryosi* (Oqbura), *Qubo daryosi* (Quvasoy), *Xatlom* (Norin), *Parak* (Chirchiq), *Buxoro daryosi* (Zarafshon) kabi tarixiy gidronimlarning hududlari, quyilish manbai, irmoqlari, oqim yo‘nalishi, ayrim gidronimlarning nomlanishi haqida to‘liq ma’lumot keltirib o‘tilgan”[3:266].

“Hudud ul-olam” (“Dunyoning hadlari”) tarixiy-geografik asar. Ushbu asar fors-tojik tilida 982-983-yillarda yozilgan bo‘lib, muallifi noma’lum. Ushbu asarda: “Movarounnahr daryolari: Jayxun (Amu) daryosi Vahon hududidan oqib chiqadi va Bomir (Pomir) viloyati va Shig‘noni Vahon hududidan o‘tib, Xorazm dengiziga quyiladi.. …Xarnob (Panj) Qasark tog‘ining g‘arbidan oqib chiqadi va Badaxshon va Polg‘ar (Parxor) orasidan o‘tib Jayxunga qo‘shiladi. …Yana bir daryoki, uni Vaxshob deydilar, Vaxsh tog‘laridan chiqadi, Vaxsh (shahri) yaqinida Jayxunga quyiladi. …Chag‘onrud (Surxondaryo)ki, Chag‘oniyondan oqadi va Termiz yonida Jayxunga quyiladi. …Yana biri O‘zgand suvidirki, Xallux tog‘i (orqasi)dan boshlanib, O‘zgand, Bob (Pop), Axsikat, Xo‘jand, Banokat shaharlari yonidan o‘tadi va to Choch yerlarigacha yetadi, so‘ngra Xorazm dengiziga quyiladi. …Yana bir daryo (hozirgi

Qurshob daryosi) Xurshobdirki, Buttamon chekkasidan, shimoliy tog‘laridan boshlanib, Xurshob shahri yaqinida O‘zgandga (Sirdaryoga) quyiladi. …Yana boshqasi O‘sh suvidirki, O‘zgandga quyiladi. …Yana bir daryo Qubo (suvi)dirki, Qubo shahri yaqinida O‘zgand (suvi)ga quyiladi. …Yana boshqasi Parak daryosidirki, Choch yerlaridan o‘tadi, O‘zgandga quyiladi. Bu daryolar hammasi qo‘shilgandan keyin yaxlit suv Choch daryosi deyiladi, arablar (toziyon) bu daryoni Sayhun deb ataydilar”[4:6-10] kabi ma’lumotlar keltirilgan.

“Hudud” asarida Zarafshon Buxoro daryosi deyilgan. Ko‘rinadiki, daryolar ko‘p holatlarda shaharlar, viloyatlar va qishloq nomlari bilan atalgan.

“Hudud ul-olam” muallifi Sirdaryoni bir o‘rinda Hasart deb atagan. Shunga ko‘ra Sirdaryo X asrda O‘zbekiston tuprog‘ida O‘zgand va Hasart nomlari bilan atalgani ma’lum bo‘ladi. Shunday qilib, Hasart mahalliy nom hisoblanib, qadimgi yunonlarning kitoblarida yozilgan Yaksart shakli Hasartdan o‘zgartiribroq olingan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘zbek adabiyotiga qo‘shilgan bebaho hissa bo‘lib, nafaqat Movarounnahr, balki Hindiston va Afg‘onistonning tarixi, xalqi, tili, etnografiyasi, geografiyasi, o‘simliklar dunyosi va hayvonot olami, kishilarining kasb-kori, turmush tarzi va boshqa xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan bebaho xazinadir. Shuningdek, “Boburnoma” gidronimlarni o‘rganishda ham muhim tarixiy manbadir. Asarda *Andijon suvi, Aylamish daryosi, Jayxun // Amudaryo, Koson suyi, Sayhun // Sirdaryo // Ars suyi, Sang suyi, Xoqon arig‘i, Xo‘jan suyi* singari ko‘pgina gidronimlar keltirilib, ular haqida ham ma’lumotlar berilgan[5:336].

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Yunon olimlari asarlarida O‘rta Osiyoning geografik nomlari to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi. “Tarix fani otasi” Gerodot Gerkand (Kasbiy) dengizi va Araks daryosini (Amudaryoni) tilga olgan. Miloddan avvalgi I asr – milodning I asrida yunon tarixchilari asarlarida hozirgi Amudaryo Oks (yoki Oksos) deb atalgan. Olimlar Oks (ba’zan Akes) Amudaryoning qadimiy nomi – O‘kuz “daryo” so‘zi deb hisoblaydi. “Avesto” va boshqa tarixiy manbalarda Amudaryoning Arang, Raxa, Ranxa, Aranxa kabi nomlarini ham uchratish mumkin. Arablarda Jayxun “jo‘shqin (daryo)” deb atashgan.

Maqolada gidronimlarni to‘plash va ularni lisoniy jihatdan tadqiq etishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotchi mazkur tadqiqotda gidronim va gidronimika tushunchasini izohlaydi. Mazkur soha bo‘yicha rus va turkologiyadagi tadqiqotlarni sharhlab, gidronimlarning nomlash tamoyillari, lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlari, xronologik tavsifi, tuzilish va yasalish xususiyatlari haqida mukammal ma’lumotlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. II ж.
2. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.
3. Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981.
4. Ҳудуд ул- олам // Масъул муҳаррир Мирсодиқ Исҳоқов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007.
5. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002.
6. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, *46*(1), 63–66.
7. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. *Proceedings of International Educators Conference*, *2*(1), 648–653.
8. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Ro‘ziyeva Umida Azamat qizi. (2024). G‘AFUR G‘ULOMNING “SHUM BOLA” ASARIDAGI TARIXIY VA ARXAIK SO‘ZLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *22*(6), 353–356.
9. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.
10. Majidova Shahnoza Komilovna, & Normamatova Husnora Shomamat qizi. (2024). XUSUSIYAT BILDIRUVCHI SIFATLARLARNING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 153–157.
11. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.
12. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 5.
13. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
14. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
15. Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi. (2024). OKSYUMORONNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 26–30.

AMALIY TILSHUNOSLIK VA METROLOGIK TA'MINOT: O‘ZBEKISTON SHAROITIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Mustaqimova Qunduz Sobirovna
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti,
«O‘zbek va xorijiy tillar» kafedrasi katta o‘qituvchisi
Maxmudova Maxliyo Maxsudovna
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
Kimyo va oziq-ovqat fakulteti, 118-23 MSM guruh talabasi
maxliyomaxmudova05@gmail.com

Annotatsiya: Metrologiya, o‘lchovlar va ularning aniqligini ta'minlashga qaratilgan bo‘lsa, amaliy tilshunoslik esa til va kommunikatsiyaning turli sohalardagi roli, ayniqsa ilmiy-texnik sohalarda ahamiyatini o‘rganadi. O‘zbekiston sharoitida, metrologik xizmat ko‘rsatish va o‘lchovlarni to‘g‘ri amalga oshirishda tilshunoslikning roli katta, ammo bir qator dolzarb muammolar mavjud. Ushbu maqolada, O‘zbekistonda amaliy tilshunoslik va metrologik xizmat ko‘rsatishdagi asosiy muammolar, shu jumladan yangi metrologik terminologiya va lug‘atga ehtiyojni o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: xalqaro standartlar, terminologiya, tilshunoslik, atamalar, texnik atamalar, ko‘p tillilik

Аннотация: Метрология фокусируется на измерениях и их точности, а прикладная лингвистика изучает роль языка и коммуникации в различных областях, особенно в научно-технических. В условиях Узбекистана роль языкознания в оказании метрологических услуг и правильном проведении измерений велика, но существует ряд актуальных проблем. В этой статье мы рассмотрим основные проблемы прикладной лингвистики и метрологического обслуживания в Узбекистане, в том числе потребность в новой метрологической терминологии и словарном запасе.

Ключевые слова: международные стандарты, терминология, лингвистика, термины, технические термины, многоязычие.

Abstract: Metrology focuses on measurements and their accuracy, while applied linguistics studies the role of language and communication in various fields, especially in scientific and technical fields. In the conditions of Uzbekistan, the role of linguistics in the provision of metrological services and the correct implementation of measurements is great, but there are a number of actual problems. In this article, we will explore the main problems in applied linguistics and metrological services in Uzbekistan, including the need for new metrological terminology and vocabulary.

Key words: international standards, terminology, linguistics, terms, technical terms, multilingualism

Metrologik ta'minot – bu o‘lchovlarning to‘g‘riligini, ularning xalqaro standartlarga mosligini va sifatini ta'minlash tizimidir. O‘zbekiston uchun, metrologik xizmatlar davlat iqtisodiyoti, sanoat tarmoqlari va ilmiy tadqiqotlar uchun katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu sohada bir qator muammolar, ayniqsa tilshunoslik va terminologiya sohasida, faoliyatning samaradorligini pasaytiruvchi omil bo‘lib qolmoqda.

Metrologiya sohasida ishlab chiqilgan xalqaro standartlar, ayniqsa alqaro o‘lchovlar va og‘irliklar byurosi (BIPM) tomonidan belgilangan Xalqaro tizimi (SI), O‘zbekiston uchun o‘lchovlarni bir xilda va to‘g‘ri bajarishni ta'minlaydi. Biroq, o‘lchovlar va ilmiy-texnik atamalar o‘zbek tiliga moslashtirilayotganda, ba'zi noaniqliklar yuzaga kelmoqda.

O‘zbekistonda metrologik ta'minotning samarali ishlashi uchun, ilmiy-texnik terminlarning to‘g‘ri va aniq tarjima qilinishi zarur. Bugungi kunda ko‘plab metrologik atamalar hali ham ingliz tilidan tarjima qilinmagan yoki noaniq tarjima qilingan. Misol uchun, "kalibrlash" (calibration), "o‘lchov birligi" (measurement unit), "normativ hujjatlar" (normative documents) kabi atamalarni ba'zi hollarda noto‘g‘ri tushunish yoki o‘zgacha talqin qilish mumkin.

O‘zbekistonda hozirgi kunda metrologik xizmat ko‘rsatishda ishlatiladigan yangi terminlarning ma'nosini aniqlashtirish va umumiylashtirish uchun maxsus metrologik lug‘at yaratish zarurati mavjud. Shu nuqtai nazardan, metrologik lug‘atning ishlab chiqilishi nafaqat o‘lchov birligini tushunishda, balki yangi texnologiyalarga asoslangan metrologik xizmatlarni tashkil etishda ham yordam berishi mumkin. Metrologik lug‘atda o‘zbek tiliga moslashtirilgan aniq va ilmiy terminlar bo‘lishi kerak, bu esa o‘lchovlar va nazariyalar bo‘yicha izchil va tushunarli tushunchalar yaratadi.

Metrologik xizmat ko‘rsatishda bir nechta tillar o‘rtasidagi farqlar ham muhim muammolarni keltirib chiqaradi. O‘zbekistonda, o‘zbek, rus, ingliz va boshqa tillarda ishlovchi mutaxassislar o‘rtasida o‘lchov va texnik atamalarni tushunishdagi tafovutlar yuzaga keladi. O‘zbekistonda ko‘p tillilikning keng tarqalganligi, ba'zan metrologik atamaların bir xil tushunilmasligiga olib keladi. Masalan, "normativ" so‘zi rus tilidagi

"норматив" (normativ) so‘zi bilan bir xil ma'noga ega bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi tushunchalar ba'zi hollarda xatoliklarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, rus va ingliz tillaridagi texnik atamalar o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima qilinmagani uchun, o‘lchovlar va sifatni ta'minlash jarayonida noaniqliklar yuzaga kelishi mumkin.

Xalqaro hamkorlikda o‘zbek mutaxassislari va boshqa mamlakatlardagi muhandislar o‘rtasida metrologik ma'lumotlar almashinuvi jarayonida tilshunoslik masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, metrologik atamalarni yagona, aniq va bir xil tushuncha shaklida tasdiqlash zarur.

O‘zbekistonda, metrologiya sohasida yangi texnologiyalar va ilmiy yutuqlar bilan bog‘liq terminologiyaga ehtiyoj ortmoqda. Masalan, raqamli o‘lchov tizimlari (digital measurement systems) yoki intellektual o‘lchov tizimlari (intelligent measurement systems) kabi yangi atamalar hali keng tarqalgan emas. Bu atamalarni o‘zbek tilida to‘g‘ri va izchil tarjima qilish, ularni o‘zbek ilm-fanida ommalashtirish uchun maxsus me'yoriy hujjatlar yaratish kerak. Bu esa metrologik xizmat ko‘rsatishda samarali va to‘g‘ri ishlashni ta'minlashga yordam beradi.

O‘zbekistonda metrologik hujjatlarning tarjimasi bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Sertifikatlash va akkreditatsiya jarayonlarida ishlatiladigan hujjatlar ba'zan noto‘g‘ri tarjima qilinadi yoki noto‘g‘ri tushuniladi. Bu esa o‘z navbatida, o‘lchov va sifatni tasdiqlashda xatoliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, kalibrlash sertifikati yoki akkreditatsiya hujjatlarining tarjimasi noaniq bo‘lishi mumkin, bu esa o‘lchov natijalarining ishonchliligiga putur etkazadi.

O‘zbekiston Milliy Akkreditatsiya Organiyasi (UzNAA) tomonidan amalga oshiriladigan akkreditatsiya va kalibrlash sertifikati olish jarayonlari uchun ishlatiladigan hujjatlarning to‘g‘ri va aniq tarjimasi zarur. Bu hujjatlarda texnik atamalar va izohlarning aniq bo‘lishi, ularning xalqaro miqyosda qabul qilinishini ta'minlaydi.

Yangi metrologik lug‘atni yaratish, faqatgina o‘lchov birligi va texnik atamalarning ma'nosini aniq belgilash bilan cheklanmasligi kerak. Shu bilan birga, metrologiya sohasidagi har bir yangi texnologiya va ilmiy yutuq bilan bog‘liq terminologiyani o‘z ichiga olishi zarur. O‘zbekistonda ilmiy va texnik taraqqiyot

jarayonlari davomida, xalqaro standartlarga mos ravishda yangilangan metrologik lug‘at ishlab chiqish, o‘lchovlar va normativlarni yagona tushunchada tushunish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston sharoitida amaliy tilshunoslik va metrologik ta'minot sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun ilmiy-texnik terminologiyani yangilash va metrologik lug‘atni ishlab chiqish zarur. Bu jarayon nafaqat o‘lchovlarning to‘g‘riligini ta'minlashga, balki xalqaro hamkorlik va sertifikatlash tizimlarining samarali ishlashiga yordam beradi. O‘zbekistonda metrologik xizmat ko‘rsatishda ishlatiladigan til va atamalarni aniq va to‘g‘ri aniqlashtirish, o‘lchov tizimlarini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘mirov R. M. *Metrologiya: Nazariy va amaliy asoslar*. 2011. Toshkent: "Fan" nashriyoti.

2. Lomov S. A. *Ilmiy-texnik terminologiya va uning rivojlanishi*. 2005. Moskva: "Nauka" nashriyoti.

3. BIPM (International Bureau of Weights and Measures). *International System of Units (SI)*. 2008. Paris: BIPM.

4. Saidov U. B. *O‘zbek tilidagi ilmiy-texnik atamalar va ularning tarjimasi*. 2017. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

5. Kuzovkova V. P. *Metrologiya va sifatni ta'minlash tizimlari*. 2014. Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti.

6. Shaykhutdinov A. S. *Ko‘p tillilik va metrologik xizmatlar: Tajribalar va tahlillar*. 2019. Toshkent: Ilm-Fan.

7. Bahrudinov A. F. *Metrologik xizmat ko‘rsatish: Xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti*. 2020. Toshkent: O‘zbekiston Davlat Texnika Universiteti nashriyoti.

8. Fitzgerald J., Nelson D. *The Role of Linguistics in Technical Communication*. 2010. London: Wiley-Blackwell.

9. Samsonova L. E. *Tarjima va terminologiya: Ilmiy-texnik atamalarni to‘g‘ri tarjima qilish*. 2016. Moskva: Yevropa nashriyoti.

10. Kamilov D. B. *Metrologiya va texnik tizimlar: O‘zbekiston uchun yangi standartlar va texnologiyalar*. 2018. Toshkent: "O‘zbekiston Standartlari" nashriyoti.

EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF TEACHINGAIDS IN THE MODERN CLASSROOM

Bo‘ronova Mekkamtosh Xoliqulovna
Denov institute of entrepreneurship and pedagogy
“Foreign languages and literature” department teacher
mexkamtoshb@gmail.com
Tel: 998919699432

Annotation: The significance and effects of several teaching tools in modern classrooms are covered in this paper. It draws attention to the transition from conventional materials to cutting-edge digital tools and seeks to assess how these resources improve learning results. Data was collected from basic to higher education classrooms using a mixed-methods methodology. Both qualitative (teacher and student feedback) and quantitative (student performance) data were gathered. Printed materials, digital tools, apps, and immersive VR/AR technologies were among the teaching aids that were examined.

Key words: classroom,educators, digital tools,methods, educational apps, textbooks,teaching aids, learners, methods, material, paper.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy sinflarda bir qancha o‘qitish vositalarining ahamiyati va ta’siri yoritilgan. Unda an’anaviy materiallardan zamonaviy raqamli vositalarga o‘tish jarayoniga e’tibor qaratilib, ushbu resurslarning o‘quv natijalarini yaxshilashdagi rolini baholash maqsad qilingan. Ma’lumotlar umumiy o‘rta ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan sinflarda aralash uslub orqali to‘plangan. Sifatli (o‘qituvchi va o‘quvchilar fikrlari) va miqdoriy (talabalarning ko‘rsatkichlari) ma’lumotlar yig‘ildi. Ko‘rib chiqilgan o‘qitish vositalari orasida bosma materiallar, raqamli vositalar, ilovalar va immersiv VR/AR texnologiyalari mavjud edi.

Kalit so‘zlar: sinf, o‘qituvchilar, raqamli vositalar, usullar, ta’lim ilovalari, darsliklar, o‘qitish vositalari, o‘quvchilar, usullar, material, maqola.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение и влияние различных учебных инструментов в современных классах. Внимание уделяется переходу от традиционных материалов к передовым цифровым инструментам, а также оценивается их влияние на повышение образовательных результатов. Данные были собраны в классах от начального до высшего образования с использованием смешанной методологии. Были получены как качественные (отзывы учителей и учеников), так и количественные (успеваемость учащихся) данные. Среди изученных учебных пособий были печатные материалы, цифровые инструменты, приложения и технологии VR/AR.

Ключевые слова: класс, преподаватели, цифровые инструменты, методы, образовательные приложения, учебники, учебные пособия, учащиеся, методы, материалы, статья.

Introduction

Due to technological improvements and a greater awareness of the variety of learning demands, the use of teaching aids in the classroom has changed educational methods in recent years. Teaching aids, from conventional materials to cutting-edge digital tools, are now essential for improving learning's effectiveness, accessibility, and engagement. The impact, workings, and benefits of a variety of instructional tools used in contemporary classrooms are examined in this research. This study identifies optimal practices for educators and policymakers by assessing how these tools improve learning results.

Methods

This article employs mixed methods to assess the efficacy of various educational interventions, utilizing both quantitative (e.g., student performance) and qualitative data (e.g., teacher and student feedback). Data were gathered from classrooms at the primary, secondary, and tertiary levels. Traditional print materials, interactive digital tools, educational software, and immersive technologies like as virtual reality and augmented reality have all been explored. Surveys and interviews were done to learn about teacher and student perceptions, while academic evaluations assessed the influence of each tool on learning outcomes. Students of various ages, grade levels, and learning abilities took part. Teachers with varying subject areas and levels of expertise were also involved to ensure a thorough evaluation of teaching aids in a variety of educational settings. All subjects gave informed consent, and data collection followed ethical criteria.

Analysis.To ascertain the connection between the use of specific teaching aids and student performance metrics, data were assessed using statistical tools. Common themes, including perceived involvement, usability, and flexibility to learning requirements, were identified through the coding and analysis of qualitative data. The relative efficacy of digital and conventional assistance was evaluated.

Discussion

1. The Effect of Printed Materials and Visual Aids on Learning Outcomes: Textbooks, charts, and flashcards are examples of traditional teaching aids that are still crucial for the development of early reading and numeracy. Because printed materials are tangible and simple to use, they improve understanding and memory retention for younger students.

Benefits: Because printed materials are inexpensive and easily customizable and don't require energy or internet access, they can be used in environments with limited resources.

Challenges: Students used to dynamic digital media may become less engaged with static content and little interaction.

2. Interactive Digital Tools and Presentation Software's Effect on Learning Outcomes: Teachers can give visually stimulating lessons using interactive whiteboards and digital presentations, which helps students grasp difficult ideas more deeply. In disciplines like physics and math, where methodical problem-solving can be demonstrated in real time, this is extremely helpful. Benefits: Digital technologies facilitate a variety of learning styles, boost engagement, and provide real-time annotation possibilities. Multimedia components help students who are more visual or auditory learners, while interactive features help kinesthetic learners. Challenges: In underfunded schools, their accessibility may be restricted by technical difficulties and expensive prices. Furthermore, a strong dependence on digital technologies may take away from conventional literacy abilities.

3. Software and Apps for Education.

Impact on Learning Outcomes: Students may learn at their own pace and receive individualized instruction thanks to platforms like Google Classroom, Kahoot, and Duolingo. These resources are especially useful for giving immediate feedback and reinforcing ideas, both of which can greatly improve recall. Benefits: Because apps facilitate differentiation, they are beneficial for children with a range of requirements, including those who have learning difficulties. Additionally, real-time analytics give teachers information about their students' development,

enabling them to make focused interventions. Challenges: Device availability and internet connectivity affect accessibility. Data collecting in educational apps raises privacy and data security issues.

4. The Effect of Augmented and Virtual Reality (VR and AR) on Learning Outcomes: Through immersive learning experiences made possible by VR and AR, students can investigate topics and settings outside of the physical confines of the classroom, such historical sites or natural occurrences. Benefits: By giving students practical learning experiences, these resources help them learn and retain material in subjects like biology and history. By giving abstract ideas more tangible form, virtual reality can assist kids who struggle with learning. Challenges: In many educational environments, VR/AR accessibility is limited by high costs and the requirement for specialist equipment. Some pupils may experience sensory overload as a result of using these technologies excessively.

5. The Effect of Gamified Learning Tools on Learning Outcomes: Gamified platforms, like Quizzes and Quizlet, use game principles to encourage students and reinforce material through rewards and repetition. Benefits: Gasification increases motivation and encourages active engagement, especially for younger pupils or those who find standard assessment techniques difficult. These platforms' competitive aspect makes learning enjoyable and memorable. Challenges: Some students may lose their innate motivation to learn if they get unduly fixated on rewards. Furthermore, gamified learning could be shallow if it isn't combined with more thorough teaching strategies.

In conclusion. In the modern classroom, using instructional aids improves student engagement, meets a range of learning requirements, and improves academic results. Digital tools, applications, and VR/AR greatly enhance learning experiences, especially in areas with a lot of content, even though traditional aids are still useful for fundamental abilities. However, issues like cost, accessibility, and an excessive dependence on digital resources point to the necessity for well-rounded, hybrid strategies that combine digital and conventional teaching tools. Future studies should

look on long-term strategies for incorporating cutting-edge teaching tools, especially in underprivileged classrooms.

REFERENCES:

1. https://www.researchgate.net/publication/372229480_THE_EFFECTIVENESS_OF_USING_TEACHING_AIDS_ON_STUDENT_LEARNING_OUTCOMES_IN_INCREASING_INTERACTION_IN_LEARNING

2. https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1063003.pdf

3. Uchechi Bel-Ann Ordu The Role of Teaching and Learning Aids/Methods in a Changing World.

4. Bo'ronova M., Mirzayeva G. SPECIFY HOW LEXIS IS GROUPED //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 307-308.

5. Sobirjonovna S. M. EXPLAIN EXTENSIVE AND INTENSIVE LISTENING AND PROVIDE EXAMPLES FOR EACH //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 128-133.

6. Ergashovna M. G., Narzulloyevna O. S. Outline the main principles of teaching young learners and teenagers //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 284-287.

7. Qayumova N., Mohinur R. Techniques Used For Reading Skill Development //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 37. – №. 1. – С. 67-69.

PROVERBS WITH THE SOMATIC COMPONENT *MOUTH/OG‘IZ* IN TWO LANGUAGES

Termiz davlat pedagogika instituti
Amaliy ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi
Boboqulova Nilufar Xayrullo qizi
boboqulovanilufar237@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o‘zbek va ingliz maqollarida "og‘iz" somatizmining qo‘llanilishi orqali nutq, xulq-atvor va donolik haqidagi madaniy tasavvurlarni o‘rganadi. Ularni taqqoslash orqali o‘zbek maqollari ko‘pincha so‘zlarda ehtiyotkor bo‘lish va sukut saqlashga urg‘u berishini, ingliz maqollari esa mas'uliyat va so‘zlarni amallar bilan muvofiqlashtirishga e'tibor qaratishini ko‘rsatadi. Maqola ikkala madaniyatning ham "og‘iz" obrazidan odamlarning qanday gapirishi va harakat qilishi kerakligini o‘rgatish uchun qanday foydalanishini tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Somatizm, og‘iz, o‘zbek maqollari, ingliz maqollari, madaniy qadriyatlar, nutq, xulq-atvor, og‘zaki ehtiyotkorlik, mas'uliyat, qiyosiy tahlil.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются культурные представления о речи, поведении и мудрости посредством использования соматизма «рот» в узбекских и английских пословицах. Сравнивая их, можно увидеть, что в узбекских пословицах часто подчеркивается осторожность в словах и молчание, тогда как в английских пословицах подчеркивается ответственность и соответствие слов действиям. Статья помогает понять, как обе культуры используют образ «рта», чтобы научить людей говорить и действовать.

Ключевые слова: соматизм, рот, узбекские пословицы, английские пословицы, культурные ценности, речь, поведение, словесное предостережение, ответственность, сравнительный анализ.

ANNOTATION

This article looks at how the "mouth" is used in Uzbek and English proverbs to show cultural ideas about speech, behavior, and wisdom. By comparing the two, it shows that Uzbek proverbs often focus on being careful with words and staying quiet, while English proverbs stress responsibility and matching actions with words. The paper helps us understand how both cultures use the "mouth" as a symbol to teach lessons about how people should speak and act.

Key words: Somatism, mouth, Uzbek proverbs, English proverbs, cultural values, speech, behavior, verbal restraint, accountability, comparative analysis.

INTRODUCTION

In both Uzbek and English cultures, proverbs serve as valuable reflections of societal wisdom and moral teachings, often utilizing somatic imagery, such as the "mouth," to convey deeper meanings. The mouth, an essential part of the body involved in eating, speaking, and expressing oneself, appears frequently in proverbs from both languages. While in English proverbs, the mouth often symbolizes accountability and the importance of aligning words with actions, Uzbek proverbs emphasize verbal restraint and caution. This contrast highlights not only linguistic nuances but also cultural values regarding speech, behavior, and personal conduct. Through the exploration of proverbs featuring the "mouth," we gain insights into how these two languages use similar somatic imagery to teach lessons on wisdom, restraint, and human interaction[4; p.89].

MAIN PART

The mouth is the cavity between the two jaws, serving the purposes of eating, speaking, or producing sound. The somatism of the mouth is more commonly found in Uzbek proverbs compared to English, and in both languages, this somatism often emphasizes the importance of keeping one’s mouth shut and being cautious. Through the analysis of English proverbs: “Put your money where your mouth is.” This proverb uses the images of "mouth" and "money." It reminds people that they must back up their words with action. In other words, if you're making a claim or supporting something, you should contribute to it with resources or funds. This proverb highlights the necessity of taking responsibility and aligning words with actions. “Out of the mouths of babes come gems.” In this proverb, the images of "babies" (young children) and "gems" represent the idea that wisdom and truth can come from unexpected places. It shows that sometimes the simple words of children or inexperienced people may carry deep wisdom or truth. It suggests that seemingly simple or innocent statements can express great wisdom. “A full purse makes the mouth run over.” This proverb, with the images of a "full purse" and a "talking mouth," conveys the connection between wealth and behavior. It means that as wealth increases, people are more likely to talk more, show off, or boast. It highlights how acquiring wealth can change one's behavior, sometimes leading to excessive speech. “Keep your purse and your mouth closed.”

This proverb uses the images of a "purse" and a "mouth" to symbolize caution, modesty, and the avoidance of excessive talk[1;p.49]. It advises people to be financially and verbally cautious. Instead of spending money or talking unnecessarily, the proverb reminds people to remain modest and attentive in personal matters. “If you keep your mouth shut, you won’t put your foot in it.” In this proverb, the images of "keeping your mouth shut" and "putting your foot in it" represent caution and avoiding saying the wrong thing. The proverb suggests that if a person refrains from speaking unnecessarily or carelessly, they will not find themselves in awkward or embarrassing situations.

Uzbek proverbs with somatic components: **“Yopiq og‘izga pashsha tushmas.”** This proverb advises caution and avoiding unnecessary talk. The "closed mouth" symbolizes a cautious and self-restrained person, while "won't attract flies" indicates that negative consequences, problems, or unpleasant situations will not arise. The proverb emphasizes that those who avoid excessive or unnecessary speech will protect themselves from uncomfortable situations and mistakes. **“Og‘ziga kelganni demak-nodonning ishi, Oldiga kelganni yemak-hayvonning ishi.”** This proverb stresses the importance of verbal caution and speaking thoughtfully. **“Og‘zida kumush qoshiq bilan tu‘g‘ulmoq”,** represents thoughtless speech, or a lack of wisdom, while “eating whatever is placed in front of you” reflects acting based on instinct, like an animal. The proverb encourages people to choose their words carefully and not act on animalistic instincts, reminding us to preserve human intellect and moral values. “Born with a silver spoon in their mouth.” This proverb expresses the idea of being born into wealth or comfortable circumstances. The phrase "born with a silver spoon" describes a person who is surrounded by wealth, luxury, or comfort from birth. The proverb reminds us that some people’s success or opportunities in life are connected to the family and circumstances they were born into. “A fool will lose what’s in their mouth.” This proverb uses the image of a “fool” to describe a person who cannot control themselves and speaks excessively. “Will lose what’s in their mouth” means they will create problems for themselves because of what they say. The proverb warns that those who

speak thoughtlessly may ultimately suffer or find themselves in an unpleasant situation [5;p.71].

CONCLUSION

In conclusion, the use of the "mouth" in Uzbek and English proverbs reflects different cultural perspectives on speech and behavior. Uzbek proverbs emphasize the importance of caution and restraint in communication, while English proverbs highlight the need for accountability and the alignment of words with actions. Despite these differences, both languages use the image of the "mouth" to convey important moral lessons, showing how a simple somatic symbol can carry deep cultural significance.

REFERENCES:

1. Wardhaugh R. Investigating Language. Central Problems in Linguistics. – Oxford: Blackwell, 1994. – 292 p.

2. Yusupov O’. Ingliz tili grammatikasidan universal qo’llanma. – T.: Akademnashr, 2011. – 37 b.

3. Абдуллаев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили (синтаксис). Қўшма гап. – Гулистон, 2008. – 143 b.

4. Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси (Синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 247 б.

5. Юсупов У. Инглиз ва ўзбек тилларининг чоғиштирма лингвистикаси. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 282 б.

6. Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол.фанлари бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2020. – 58 б.

G‘AFUR G‘ULOMNING NASRIY ASARLARIDA KASB–HUNAR VA KIYIM–KECHAK NOMLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Nodira Hamidova,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada G‘afur G‘ulomning nasriy asarlarida kasb–hunar, kiyim–kechak nomlarining leksik xususiyatlari qalamga olingan. Ta’kidlanishicha, G‘afur G‘ulom asarlari tilining obrazli ifoda vositalari tizimida kasb–hunar, kiyim–kechak nomlari alohida e’tiborni tortadi. G‘afur G‘ulom leksikasida turli kasb – hunarga oid so‘zlar va kiyim–kechak nomlari, etnonimlar, dialektal so‘zlar, jargonlar, istemoldan chiqqan, ammo o‘rni bilan uslubiy talablarga ko‘ra qo‘llanuvchi so‘zlar, yangi kashf etilgan narsalar atamasi, arxaik va tarixiy so‘zlar faol qo‘llangan.

Kalit so‘z va iboralar: G‘afur G‘ulom, nasriy asar, kasb–hunar, kiyim–kechak, leksik xususiyat, obrazli ifoda, arxaik, tarixiy so‘zlar.

АННОТАЦИЯ

В государственных описаниях лексические характеристики названий профессионалов и одежды в прозаических произведениях Гафура Гулама. Отмечается, что в системе образных средств выразительности языка произведний Гафура Гулама особое внимание привлекают названия профессий и одежды. В лексиконе Гафура Гуламы используются активные слова, относящиеся к различным профессиям и одам, этнонимы, диалектные слова, жаргонизмы, слова, вышедшие из употребления, не используемые в соответствии с методическими требованиями, термины вновь открытых вещей, архаические и исторические слова.

Ключевые слова и фразы: Гафур Гулам, прозаическое произведение, профессия, одежда, лексический признак, образное выражение, архаика, исторические слова.

ANNOTATION

In the article, the lexical characteristics of the names of professions and clothes in Gafur Ghulam's prose works are written. It is noted that the names of professions and clothes attract special attention in the system of figurative means of expression in the language of Gafur Ghulam's works. In Gafur Ghulam's lexicon, words related to various professions and clothes, ethnonyms, dialectal words, slangs, words that are out of use but are used in accordance with methodological requirements, terms of newly discovered things, archaic and historical words are actively used.

Key words and phrases: Gafur Ghulam, prose work, profession, clothing, lexical feature, figurative expression, archaic, historical words.

Turli davrlarda yaratilgan yetuk ijodkorlar asarlari tilini milliy til manbai sifatida chuqur o‘rganish, unda qo‘llangan har bir so‘zning bosh lug‘aviy va ko‘chma, ya’ni matniy ma’nolarini aniqlash, so‘zning eskirishi, fonetik, grammatik, leksik arxaiklashishi, davrlar o‘tishi bilan ma’noning kengayishi va torayishi, yangi ma’no kasb etishi, asar ruhiyatiga xos ijodkor ichki tuyg‘ularini tushunish kabi til bilimi bilan bog‘liq masalalarni ilmiy asoslash muhim tadqiqotlardan biridir.

O‘zbek adabiy tili o‘tmishi, hozirgi holati, ijodkor yashagan davr tilining umumiy yo‘nalishi va rivojlanish qonuniyatlarini belgilashda, tilda ro‘y berayotgan jarayonlarni o‘zida aks ettirgap mohir so‘z sanatkori G‘afur G‘ulom asarlaridagi o‘ziga xoslik, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor asarlari tili kabi milliy adabiyotimiz uchun kerakli so‘zlarni tanlay bilishda konkret tasvirdan keng umumiy planda foydalanishda namoyon bo‘lgan.

G‘afur G‘ulomning badiiy asarlarida hayotning turli jabhalariga taalluqli bo‘lgan so‘z va atamalar ijodkor uslubiga xos o‘z badiiy ifodasini topgan.

Abdulla Oripov “G‘afur G‘ulom chindan ham ulug‘ zakovat egasi edi. Buning isboti uning jo‘shqin va dono badiiyati, G‘afur G‘ulomning hech bir adibnikiga o‘xshamaydigan chinakam milliy xalqchil prozasi – nasriy asarlaridir”[1], deya adibning serqirra ijodkor ekanligi, jo‘shqinligi va donoligi bilan boshqalardan ajralib turishini ta’kidlaydi.

G‘afur G‘ulom so‘z sanati ustida qunt bilan ishlaganlardan biri. U o‘z asarlarida jozibador manzara yaratish maqsadida so‘zning hissiy kuchini oshirib, kishida his–hayajon uyg‘otib hayratda qoldiradigan real hayotiy va jonli lavhalar tasvirida namoyon etadi.

G‘afur G‘ulomning “Tirilgan murda”, “Netay”, “Shum bola”, “Yodgor” qissalari XX asr voqeligining badiiy talqinlari nuqtai nazaridan yangicha qarashlar asosida o‘rganilgani, yozuvchining ijtimoiy davr va shaxsni badiiy ifoda etishdagi poetik mahorati kashf etilganida namoyon bo‘ladi.

G‘afur G‘ulom asarlari tilida voqea–hodisalarni real tasvirlash maqsadida arabiy, forsiy, qadimgi, eski turkim tillardagi lugaviy birliklar aslidagidek aynan qo‘llangan. Jumladan, hozirgi o‘zbek tilida kam uchraydigan ko‘tarmachi (optom), paxtafurush

(paxta sotuvchi), gaz (uzunlik o‘lchovi metr), xo‘qa (yog‘ idish), bo‘yincha (tepgdosh), qo‘ndoq, yaktak, lila, guppi, mursak, savagich, chirmandachi, kuchala, irvit kabi leksemalarning ba’zilari qadimgi, eski turkiy tillari davrida bosh ma’noda qo‘llangan bo‘lsa, ba’zilari eski o‘zbek tilida ko‘chma ma’noda ishlatilgan[2]. Aslida ham badiiy asar tili mohiyatan tasirchan emotsional – ekspressiv tildir.

G‘afur G‘ulom asarlari tilining obrazli ifoda vositalari tizimida kasb–hunar, kiyim–kechak nomlari alohida e’tiborni tortadi. “Yezuvchi individual nutq sifatlashlarini biror parsa va hodisani obrazli gavdalantirish, bir turdagi predmetlarning o‘ziga xos ayrim belgi, xususiyatlarini yorqinlashtirish maqsadida qo‘llaydi“[3].

G‘afur G‘ulom leksikasida turli kasb – hunarga oid so‘zlar, etnonimlar, dialektal so‘zlar, jargonlar, istemoldan chiqqan, ammo o‘rni bilan uslubiy talablarga ko‘ra qo‘llanuvchi so‘zlar (olovni junashgirib ketmoq, shilingpocha, shirava), yangi kashf etilgan narsalar atamasi, arxaik (yonchiq) va tarixiy so‘zlar (g‘ulom), boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlar faol qo‘llangan.

Shoir asarlarida qo‘llangan turli sohalarga ond so‘zlarni leksik – semantik jnhatdan bir nscha o‘nlab guruxga ajratish mumknn. Bular: kishi ismlari, laqablar, etnonimlar, kosiblikka oid atamalar, qush nomlari, inson a’zolari nomlari, xo‘jaliikka oid atamalar, hayvonot dunyosi va o‘simliklar dunyosiga oid atamalar, ijtinmoiy – siyosiy, harbiy atamalar, marosim nomlari, o‘lchov, ogirlik, masofa, savdo–sotiqqa oid atamalar, kiyim – bosh atamalari, qavm– qarindoshlik atamalari, taom nomlari, msva nomlari, dori–darmon, mato nomlari, fasllarga oid so‘zlar va b.

Kiyim kichik atamalari: olacha yaktak (135), surn yaktak (136), cho‘ntak (135), yeng (135), lipa (135), to‘pi//to‘ppi (136), qalpoqcha (137), qo‘lqop (140), etak (141), poyma–poy sag‘ri kovush (144), ishtonbog‘, ishtonpocha (143), ro‘mol (144), yeng (144), salloti shim (144), quroq (144), saxtiyon maxsi (144), laxtak, ko‘ylak– ishton (145), belbog (147), kiyiz chakmon, namat qalpog‘ (150), ko‘k movut shim (150), jamol (8), bekasam to‘p (9), qiyiq (9), surmarang shohi salla(18), ko‘k movut kamzul (18) kabilar.

– Yuragingnz dov bermayaptimi, yigitcha? ***Do‘ppi, kiyik – savlat.*** deng–chi, bo‘lmasa ?... (“Yodgor”. 5)[4]

Pushaymon ohangi bilan:

–Esiz, esiz yigitlik. Zap odamidan xolis xizmat so‘ragan ekanman –ku; bo‘ldi–yey, esizgina sirlarim. Keling, hali ham bo‘lsa ***paranjnni tunga ayirbosh qilamiz,*** **–** dedi (“Yodgor”. 6) [5].

Ijodkorning turli mavzuga bag‘ishlangan badiiy asarlarida badiiylikni oshirish, shu bilan birga o‘quvchida real tasviriy holatni ishontira bilish, turli sohalarga oid so‘z va atamalarni soha mutaxassisi darajasidan ham ortiq o‘ziga xos uslubda adabiy til normasi sifatida tasvirlay olish so‘z san’atkoridan katta mahorat talab etadi.

G‘afur G‘ulomning badiiy asarlarida hayotning turli jabhalariga taalluqli bo‘lgan so‘z va atamalar, jumladan, kiyim–kechak nomlari ijodkor uslubiga xos o‘z badiiy ifodasini topgan. Bu esa, albatta, so‘z san’atkorining dunyoqarashi bilan bog‘liq kuzatuvchanlnk, turli soxdlarga bo‘lgan qiziquvchanlik, ayniqsa, gumanistik g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan ijtimoiy, tabiiy sohalarga nisbatan chuqur mulohazakorligidan darak beradi.

Xulosa, G‘afur G‘ulom asarlaridagi oddiy xalqning mayda kosiblikdan tortib, bozor muomalasi, savdo–sotiq bilan bog‘liq o‘zaro munosabatlari, shuningdek, turli toifadagi insonlar hayotida ro‘y bergan hodisalar, ijtimoiy–iqtisodiy masalalar tafsiloti ijodkor tafakkurida chuqur joy olganligi kishini hayratga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oripov A. Adolat ko‘zgusi. – Toshkent: Adolat, 2005. 240–bet.

2. Adabiyotimiz sahifalari: Adabiy–uslubiy qo'llanma / U.Qosimov, L.Sindorov, M.Nizomova; – T.: “Iqtisod–Moliya”, 2017.– 160 b.

3. Qozoqboy Yo‘ldosh. So‘z yolqini. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2018. 58–bet.

4. Turkiy adabiyot durdonalari. G‘afur G‘ulom. “O‘zbekiston”. Toshkent, 2022 yil, 5–b.

5. G‘ulom G‘.. Tanlangan asarlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

6. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, *46*(1), 63–66.

7. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. *Proceedings of International Educators Conference*, *2*(1), 648–653.

8. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.

9. Majidova Shahnoza Komilovna, & Normamatova Husnora Shomamat qizi. (2024). XUSUSIYAT BILDIRUVCHI SIFATLARLARNING LEKSIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 153–157.

10. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.

11. Sayfullayev N. H. o‘g‘li. (2023). IJTIMOIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(12), 106–111.

12. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.

13. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Ro‘ziyeva Umida Azamat qizi. (2024). G‘AFUR G‘ULOMNING “SHUM BOLA” ASARIDAGI TARIXIY VA ARXAIK SO‘ZLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *22*(6), 353–356.

14. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.

15. Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi. (2024). OKSYUMORONNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 26–30.

16. Nodira Hamidova. (2024). G‘AFUR G‘ULOM HIKOYALARIDA SO‘Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 139–142.

17. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE’RIYATI VA TILI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, *57*(1), 143–146.

ABDUQAYUM YO‘LDOSHNING “PUANKARE” HIKOYASIDA QO‘LLANILGAN O‘XSHATISHLAR

TerDPI o‘qituvchisi Majidova Shahnoza Komilovna
TerDPI 3-bosqich talabalari
Normamatova Husnora Shomamat qizi
Shodiyeva Maftuna G‘ayrat qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘xshatishlarning bir necha turlari va ularning asarda qo‘llanilish o‘rni hamda vazifasi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. O‘xshatish etalonlari predmetlar, obyektlar va hodisalarning xususiyatini o‘zida namoyon etishi, asarlarda o‘ziga xos o’ringa egaligi va asar mazmuniga o‘zgacha ruh bag‘ishlashi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘xshatish etaloni, erkin o‘xshatish, turg‘un o‘xshatish, o‘xshatish turlari, puankare, badiiy-estetik qiymati, lingvomadaniyat.

Annotation: This article provides information on several types of similes and their role and function in literary works. It discusses how simile standards reflect the qualities of objects, entities, and events, holding a unique place in literature and imparting a distinct mood to the content.

Keywords: simile standard, free simile, fixed simile, types of similes, Poincare, artistic-aesthetic value, linguistic culture.

Аннотация: В данной статье представлена информация о нескольких видах сравнений, их роли и функции в произведении. Считается, что стандарты сравнения отражают характеристики предметов, предметов и событий, занимают особое место в произведениях и придают особый дух содержанию произведения.

Ключевые слова: Стандарт сравнения, свободное сравнение, устойчивое сравнение, виды сравнения, Пуанкаре, художественно-эстетическая ценность, лингвокультура.

Yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” hikoyasi fransiyalik mashhur matematik, fizik, astronom va faylasuf Jyul Anri Puankare (1854-1912) haqida. Puankare Parij Fanlar akademiyasi rahbari, dunyoning o‘ttizdan ortiq akademiyalari a’zosi, besh yuzdan ortiq maqola va kitoblar muallifi.

Yozuvchi ushbu asarida o‘ttizdan ortiq bir-birini takrorlamaydigan turli o‘xshatishlardan foydalangan. O‘xshatish nima?

O‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘lib, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. Turli lingvomadaniyatlarda muayyan bir narsa, hayvon va shaxsning turg‘un o‘xshatish

etaloni sifatida qo'llanishini kuzatish mumkin. O'xshatish etalonlari predmetlar, obyektlar va hodisalarning xususiyatini, sifatini qiyoslaydigan mohiyatdir.

Abduqayum Yo'ldoshning "Puankare" hikoyasida o'xshatishlarning erkin va turg'un turlari uchraydi.

1. Erkin o'xshatishga misollar: "Prezidiumda o'tiribdi *qilichday* bo'lib". "Bir xil joylarikning terisi ko'chgan, *kal boshimni eslatadi"*. "Institutning faxri bo'lgan olimlarga shunchaki ko'z tashlab o'tayotib, nogoh *tok urganday* joyimda qotib qoldim". "Talabalar og'izlariga *suv solib olganday* yana miq etishmadi". "*Naqsh olmaday* lovullab, yuzlari yashnab ketardi".

2. Turg'un o'xshatishga misollar: "Tirkash *kuydirilgan kalladay* tirjaydi". "Mana shu xijolatpazlik asorati bo'lsa kerak, to'y oqshomi *igna ustida o'tirgandek* bezovtalandim". "*Rangi paxtaday* oqarib ketgan".

Durdona Xudoyberganova insonga xos turg'un o'xshatishlarni quyidagicha tasnif qiladi:

1. Inson a'zolari bilan bog'liq o'xshatishlar;
2. Insonning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq o'xshatishlar;
3. Insonning jismoniy xususiyati bilan bog'liq o'xshatish;
4. Insonning ovozi bilan bog'liq o'xshatishlar;
5. Inson nutqi bilan bog'liq o'xshatishlar;
6. Insonning xarakteri bilan bog'liq o'xshatishlar;
7. Insonning holati bilan bog'liq o'xshatishlar;
8. Insonning xatti-harakati bilan bog'liq o'xshatishlar.

"Puankare"dagi o'xshatishlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Insonning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq o'xshatishlar. „Go'yo shuni olsam, ichiga qo'lyozmalarimni solsam, gabaritlari ulkanroq *tumor yanglig'* mahkam bag'rimga bosib yursam bas, barcha ishlarim o'z-o'zidan yurishib ketadigandek". „Joylashganimizga to'rt kun o'tar-o'tmas qovog'ini *to'rvaday osiltirib* qaynonam kirib keldi». „Domla qo'lidagi qog'ozni baland ko'tardi". „ Bir yumalab, *ertaklardagi burni uzun yalmog'iz kampir*ga aylangan qaynonam nafrat bilan qarg'andi". „Bir xil joylarining terisi ko'chgan, *kal boshim*ni eslatadi". "Institutning oilaviy

yotoqxonasidan *katalakday* xona ajratib berishdi". „Qayoqdan xabar topgan, ertasigayoq dog‘uli qaynonam kirib keldi *tuxumidan ayrilgan tovuqday* hurpayib". „Lorsillagan har bir bilagi *keli sopday*, ikki yuzi *shirmoy nonday* holiga bir gapirib o‘n kuladigan hazilkash xotini, to‘rtta *devday-devday* o‘g‘li bor". „Menday oliy ma’lumotli, bo‘yniga *ilonning tiliday* bo‘yinbog‘ taqib olgan bo‘lg‘usi olimman". „Bir asrning uchdan birini o‘tab-o‘tamay *yuzimga o‘xshab* bujmayib, qarimsiq bo‘lib qoldi". "Yana o‘zimcha yuragim *terak bargiday* titradi". "*Rangi paxtaday* oqarib ketgan va bu azobga chiday olmagan asablarim darz ketdi, muzlagan idishga *qaynoq suv quyilganday* chaqnadi: kechada *sochim qorday* oqardi, boshim ora-sira *purjinkasi chiqib ketgan qo’g’irchoqning kallasiday* qiltillaydi".

Insonning jismoniy xususiyati bilan bog‘liq o‘xshatishlar: „Buning samarasi *chala tug‘ilgan bolaga o‘xshab* qolishi haqiqatga yaqinroq".

Inson nutqi bilan bog‘liq o‘xshatishlar: „Aniq esimda bor,- men axir matematikman, *sonlar mening ko‘zir kartam*, -yangi o‘quv yilining birinchi ma’ruzasini ikkinchi kurs talabalariga o‘qidim". „Na gapingni eshitadigan, na izohingga quloq tutadigan, daqiqasiga o‘ttiz uch o‘rniga, qirq besh tezlikda aylanayotgan *plastinkaday* tinmay javrayotgan ayol oldida o‘zimni qanday ham oqlar olardim?". „Bir so‘zni *to‘tiqushday* ikki martadan takrorlab, talabalarga o’zim savol berib, javobini ham o‘zim aytib yuribman". „To‘rt kamazdagi piyozam oqdi, xuddi mening *achchiq ko‘z yoshimga o‘xshab* oqdi" dedi sho‘rqillab.

Xaitova Gulhayo Tovasharovna
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oppozitsiyalarning lingvistik va madaniy ahamiyati o‘rganilgan, “yaqin-uzoq” oppozitisiyasining kengroq metaforik va ijtimoiy qo‘llanilishiga e’tibor qaratadi. O‘zbek tilida “yaqin-uzoq” oppozitsiyasini lingvomadaniy tahlil qilish orqali qarama-qarshilik juftlarining ma’nolari ularning tegishli madaniy kontekstlari bilan qanday shakllanganligini ko‘rsatadi. Kollektiv jamiyat o‘zbek tilida “yaqin” (yaqin) hissiy yaqinlik, ishonch va ijtimoiy majburiyatni, “uzoq” (uzoq) esa begonalashish va ajralishni anglatadi. Bu oila va jamiyatga bo‘lgan madaniy e’tiborni aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: Madaniy kontekst, oppozitsiya, yaqin, uzoq, madaniyat, lingvomadaniyatshunoslik

Abstract: Three article explores the linguistic and cultural significance of oppositions, focusing on the wider metaphorical and social underpinnings of the near-far opposition. Through a linguistic and cultural analysis of the opposition "near-far" in the Uzbek language, it shows how the meanings of pairs of opposites are formed by their qualitative cultural contexts. Collective society in Uzbek language means “near” (close) emotional closeness, trust and social development, and “far” (far) means alienation and separation. reflects cultural attention to family and society.

Key words: Cultural context, opposition, near, far, culture, linguoculturalology

Аннотация: В данной статье рассматривается лингвистическое и культурное значение оппозиции, уделяя особое внимание более широкой метафорической и социальной поддержке ближней оппозиции. Путем лингвокультурологического анализа оппозиции «близкое-далекое» в узбекском языке показано, как значения пар противоположностей формируются их качественным культурным контекстом. Коллективное общество на узбекском языке означает «рядом» (близко) эмоциональную близость, доверие и социальное развитие, а «далеко» (далеко) означает отчуждение и разлуку. отражает культурное внимание к семье и обществу

Ключевые слова: Культурный контекст, оппозиция, ближнее, далекое, культура, лингвокультурология

Tilda universallik xususiyatlari bo‘lishi bilan bir qatorda, tabiiy til etnospesifikni ham o‘z ichiga oladi, ya’ni atrofdagi voqelikni rivojlantirish va bayon qilish jarayonida to‘plangan malum bir xalqning noyob empirik-nazariy bilimlarini qayta ishlaydi, mustahkamlaydi va tarjima qiladi. Shularni hisobga olgan holda, biz milliy yoki etnik,

til tizimining mavjudligi va uning milliy va etnik madaniyat bilan birlashishi haqida gapirishimiz mumkin, buning natijasida madaniy hodisalar dunyoning kontseptual rasmining elementlari sifatida ham shaxsning, ham butun etnik jamoaning lingvistik ongiga kiritiladi.

Shunday qilib, tavsiflangan qonuniyatlar mantiqiy ravishda til – inson – ong – madaniyat konfiguratsiyasiga kiritilgan bo‘lib, bir tomondan sivilizatsiyaning til universallari bilan o‘zaro bog‘liqligini va boshqa tomondan til faoliyatining idioetnik xususiyatlariga ega madaniyatni aks ettiradi[1].

Til birliklarining madaniy ob’ektlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, birinchisini yordamchi yashirin ma’nolar bilan to‘yintirish fundamental xususiyatga ega va madaniyatning barcha mazmunli qatlamlarida yangilanadi; arxetipik, mifologik-diniy, folklor-adabiy, publitsistik. Bu jarayon tilning lug‘aviy tizimida eng yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki so‘z asosiy “yaxlit va alohida shakllangan til birligi, voqelikning bo‘lagi bo‘lib, inson ongidan o‘tib, ma’lum bir millatga xos xususiyatlarni egallaydi”[2]. Madaniy kontekst tilshunoslikning barcha qatlamlarida o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shulardan biri sifatida oppozitsiyalarni misol keltirishimiz mumkin. Oppozitsiyalarning ma’nolar va konnotatsiyalari ular tegishli bo‘lgan madaniy kontekst asosida shakllanadi. Madaniy kontekstni anglab yetish juda muhim chunki tildagi sodda bo‘lib ko‘ringan ko‘plab o‘xshashlik va tafovutlar ko‘pincha chuqurroq madaniy qadriyatlar, meyorlar va ijtimoiy tuzilmalardan iborat bo‘ladi. O‘zbek madaniyatida yaqin uzoq oppozitsiyasiga e’tibor qaratib, uni tahlil qilamiz.

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘langan, tilshunoslar Sepir va Uorf aytganidek, “Til madaniyatsiz bo‘lishi mumkin emas. Til yurak bo‘lsa, madaniyat tana va ularning o‘zaro faoliyati hayot energiyasining davomiyligini vujudga keltiradi”[3]. O‘zbek tilidagi qarama-qarshiliklar jamiyatning dunyoqarashi haqida ko‘p narsalarni ochib berishi mumkin. Lingvomadaniyatshunoslikda oppozitsiya shunchaki ziddiyatni emas, balki madaniyat munosabatlarni, makonni, his-tuyg‘ularni va hatto vaqtni qanday tashkil etishi va izohlashini aks ettiradi. Masalan, yaqin-uzoq qarama-qarshilikni faqatgina masofaviy jihatdan emas, balki emotsional yaqinlikni,

ijtimoiy munosabatlarni va hatto kuch dinamikasini ifodalovchi metaforik va ramziy usullarni ham tahlil qilishi mumkin.

O‘zbek madaniyati kollektiv madaniyat turiga kiradi va oilaga yo‘naltirilgan o‘zbek madaniyatida yaqin-uzoq oppozitsiyasi muhim madaniy ta’sirga ega. Yaqin (yaqin) ko‘pincha hissiy va ijtimoiy yaqinlik bilan bog‘liq. Biror kishiga “yaqin” bo‘lish majburiyat, ishonch va oilaviy burch tuyg‘usini anglatadi. Jismoniy yaqinlik ko‘pincha ijtimoiy umidlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu erda yaqin bo‘lish jamiyat va oilaviy hayotda ishtirok etishni ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, oilaviy va qarindoshlik tuzilmalarida yaqin munosabatlarni saqlash muhimligini aks ettiradi. Uzoq (uzoq) nafaqat jismoniy masofani anglatishi, balki hissiy ajralish yoki ijtimoiy ajralishni ham anglatishi mumkin. “Uzoq” bo‘lgan odamni oilaviy yoki ijtimoiy ma’suliyat doirasidan tashqarida deb hisoblash mumkin. Bu o‘zbek jamiyatining kollektivistik tabiatini aks ettiradi, bu yerda ijtimoiy aloqalar, jamiyat yoki oilaga yaqinlik chuqur qadrlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tilshunoslikda ham, madaniy kontekstda ham, “yaqin-uzoq” oppozitsiyasi so‘zma-so‘z talqin qilishdan uzoqroq ma’nolarga ega, Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bunday qarama-qarshiliklar ular qo‘llaniladigan madaniy freymlar tomonidan chuqur ta’sirga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Демьянков В.З. Языковые техники «трансфера знаний» // Лингвистика и семиотика культурных трансферов: методы, принципы, технологии: коллективная монография. – М.: Культурная революция, 2016. С. 62–63.
2. Кривошлыкова Л.В. Особенности языковой и культурной картины мира билингва В. Набокова // Вестник РУДН. Серия: Лингвистика, № 1, 2013. С. 93.
3. I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2012 – 216 b.
4. Xaitova, G. . (2024). INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA “YAQIN-UZOQ” OPPOZITSIYASINING LINGVOKULTURALOGIK TADQIQI. *Наука и технология в современном мире*, *3*(1), 15–17. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/view/26059
5. Хаитова, Г. (2024). Linguistic opposition as a philosophical category. Актуальные вопросы лингвистики и преподавания иностранных языков: достижения и инновации, 1(1), 56–58. https://doi.org/10.47689/TOPICAL-TILTFL-vol1-iss1-2024-pp56-58 . (20ORD OF T-13
6. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.

"EDUCATION-UPBRINGING" CONCEPT AS A LINGUACULTURAL PHENOMENON: INSIGHTS FROM ENGLISH AND UZBEK

Soatov Ibrohimbek Alisherovich
EAP instructor at Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
ibrohimbeksoatov0808@gmail.com
+998919060808

Abstract: The concept of "education-upbringing" represents a vital intersection of linguistic and cultural values, reflecting societal norms, beliefs, and priorities. This study examines the "education-upbringing" concept as a linguacultural phenomenon in English and Uzbek, utilizing cognitive linguistic and cultural analysis frameworks. Findings suggest that sociocultural factors significantly shape the linguistic representation of education. This research contributes to understanding the interplay of language, culture, and cognition, offering practical implications for educators, translators, and cultural mediators. Future research directions include diachronic studies and broader cross-linguistic comparisons.

Keywords: education-upbringing, linguacultural phenomenon, cognitive linguistics, English, Uzbek, cultural analysis.

Annotatsiya: "Ta'lim-tarbiya" tushunchasi lingvistik va madaniy qadriyatlarning muhim kesishmasini ifodalab, jamiyatning normalari, e'tiqodlari va ustuvorliklarini aks ettiradi. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida "ta'lim-tarbiya" tushunchasini lingvomadaniy hodisa sifatida kognitiv lingvistika va madaniy tahlil doirasida o'rganadi. Natijalar ta'limning lingvistik ifodasi jamoat-madaniy omillar tomonidan sezilarli darajada shakllanishini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot til, madaniyat va kognitsiya o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunishga hissa qo'shib, o'qituvchilar, tarjimonlar va madaniyat vositachilari uchun amaliy ahamiyatga ega. Kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari diaxronik tadqiqotlar va kengroq tillararo solishtirishlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, lingvomadaniy hodisa, kognitiv lingvistika, ingliz tili, o'zbek tili, madaniy tahlil.

Аннотация: Концепция «образование-воспитание» представляет собой важное пересечение лингвистических и культурных ценностей, отражая нормы, убеждения и приоритеты общества. В данном исследовании рассматривается концепция «образование-воспитание» как лингвокультурный феномен в английском и узбекском языках с использованием когнитивно-лингвистических и культурных аналитических подходов. Результаты показывают, что социокультурные факторы значительно влияют на лингвистическое представление образования. Это исследование способствует пониманию взаимосвязи языка, культуры и когниции, предлагая практическое применение для педагогов, переводчиков и культурных посредников. Перспективы будущих

исследований включают диахронические исследования и более широкие межъязыковые сравнения.

Ключевые слова: образование-воспитание, лингвокультурный феномен, когнитивная лингвистика, английский язык, узбекский язык, культурный анализ

The concept of “education-upbringing” plays a crucial role in understanding how language reflects and shapes cultural values. In linguistics, these concept bridges cognitive, social, and cultural domains, offering insights into the societal norms and values embedded in language use (Lakoff & Johnson, 1980). Exploring this concept in diverse linguistic and cultural settings, such as English and Uzbek, unveils its multifaceted nature and highlights the unique cognitive and cultural frameworks that influence its representation. Education and upbringing are often treated as separate yet interconnected dimensions. In Western societies, education typically emphasizes academic achievement and personal development, while upbringing focuses on moral and social guidance (Hofstede, 2001). Conversely, in Uzbek culture, education and upbringing are inseparable, reflecting a collectivist ethos that prioritizes community well-being and respect for tradition (Salomov, 2020). These differences manifest in linguistic expressions, such as metaphors, idioms, and proverbs, which encode cultural priorities.

This study aims to analyze the "education-upbringing" concept as a linguacultural phenomenon in English and Uzbek. Using cognitive linguistic and cultural analysis frameworks, it investigates how cultural norms influence the linguistic representation of this concept. The findings of this research are significant for linguistics, cultural studies, and education.

This study employs a qualitative research methodology, combining cognitive linguistics and linguacultural analysis to examine the "education-upbringing" concept in English and Uzbek. The analysis draws upon linguistic data from dictionaries, corpora, literary texts, and conversational examples, alongside cultural insights from scholarly works and ethnographic observations. Cultural texts of the study are academic and cultural texts providing sociocultural contexts for education-upbringing, including works like Hofstede’s cultural dimensions theory (2001) and Salomov’s research on Uzbek traditions (2020).

This section provides examples of how the "education-upbringing" concept is reflected in English and Uzbek texts and sources, offering comparative insights.

Linguistic Materials: English Idioms and Proverbs

1. "Knowledge is power" - This expression emphasizes the importance of education as a tool for individual empowerment and societal advancement.

Uzbek Idioms and Proverbs:

2. *Suv bilan ekin o'sar, tarbiya bilan — odam.* ("With water, crops grow; with upbringing, a person grows.")

Interpretation: This structural mirroring creates a balance, reinforcing the equivalence between nurturing crops and nurturing individuals. **Water as a metaphor**: Water symbolizes the essential resource for sustenance and growth, reflecting its vital role in agrarian societies like Uzbekistan. **Upbringing as nourishment**: Upbringing (*tarbiya*) is equated to water, suggesting it is as essential for human development as water is for crops. **Implicit Moral Message**
The proverb conveys that upbringing is not merely about physical growth but encompasses moral, ethical, and intellectual development.

English Cultural Texts:

In John Dewey's "Democracy and Education" (1916), education is described as a means of fostering individual independence and preparing for democratic participation. Dewey's philosophy aligns with the English-speaking world's emphasis on critical thinking and self-expression. For example, "the ideal aim of education is the creation of a free mind." This aligns with individualism and the metaphor of education as personal growth.

Uzbek Cultural Texts:

In Alisher Navoi's works, particularly in "Mahbub ul-Qulub", upbringing is linked to moral and ethical instruction. Navoi emphasizes the teacher's and society's role in shaping an individual's character. For instance: "Ilmsiz odam qorong'i uyda chiroqsiz yashaganga o'xshaydi." ("A person without knowledge is like living in a dark house without a lamp.") Education and upbringing are considered inseparable, with knowledge serving as the moral light guiding an individual in life.

The findings illustrate that linguistic expressions of education upbringing are deeply intertwined with cultural norms and values. These results align with Hofstede's (2001) cultural dimensions, where English-speaking cultures exhibit high individualism, reflected in metaphors and idioms promoting personal autonomy. Conversely, Uzbek culture, characterized by collectivism, incorporates linguistic expressions that emphasize shared responsibility and communal well-being.

Comparative analysis of both languages conceptualizes education as a means of guidance and moral development, suggesting universal aspects of the concept. English emphasizes individual achievement and agency, evident in metaphors of personal effort, while Uzbek focuses on collective nurturing and respect for authority, as seen in proverbs. The results validate cognitive linguistics theories, particularly Lakoff and Johnson's (1980) notion that metaphors shape thought and culture.

This study explored the concept of "education-upbringing" as a linguacultural phenomenon in English and Uzbek, emphasizing its role in reflecting societal values and cultural norms. The analysis revealed that while education and upbringing are universally recognized as essential for personal and social development, their linguistic representations vary significantly across cultures. The findings contribute to cross-cultural understanding, offering practical implications for educators, translators, and cultural mediators. Future research could expand this analysis to other languages or examine historical shifts in the conceptualization of education-upbringing, further exploring the intricate relationship between language, culture, and cognition.

References

1. Fillmore, C. J. (1982). "Frame Semantics and the Nature of Language". Annals of the New York Academy of Sciences.
2. Hofstede, G. (2001). "Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations". Sage Publications.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). "Metaphors We Live By". University of Chicago Press.
4. Salomov, M. (2020). "The Role of Traditional Upbringing in Uzbek Culture". Tashkent University Press.
5. Wierzbicka, A. (1997). "Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese". Oxford University Press.

6. Uzbek National Corpus. (n.d.). “Collection of Uzbek Proverbs and Idioms”. Retrieved from [Uzbek Corpus database].
7. Oxford English Dictionary. (n.d.). “Idioms and Proverbs in English Language”. Retrieved from [Oxford English Corpus].
8. Dewey, J. (1916). “Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education”. Macmillan.

A LINGUISTIC ANALYSIS OF OXYMORONS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Muattar Temirova
Teacher, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Denau, Uzbekistan
E-mail: fragrant9898@gmail.com
+998975336568

Annotation: This study examines the linguistic and literary importance of oxymorons in the English language. An oxymoron, defined by its conflicting terms, challenges conventional interpretations of meaning and encourages deeper cognitive involvement. This study highlights the crucial function of oxymorons in enhancing language and literature, demonstrating the complex interaction between conflicting concepts and their ability to express significant thoughts.

Keywords: oxymoron, figure of speech, literary device, linguistic analysis, literary examples, language flexibility, contradictory terms.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi oksimoronlarning lingvistik va adabiy ahamiyatini o‘rganadi. O‘zining qarama-qarshi atamalari bilan ta’riflangan oksimoron ma’noning an’anaviy talqinlariga qarshi chiqadi va chuqurroq kognitiv ishtirokni rag‘batlantiradi. Ushbu tadqiqot til va adabiyotni takomillashtirishda oksimoronlarning muhim vazifasini ta’kidlaydi, qarama-qarshi tushunchalar o'rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni va ularning muhim fikrlarni ifodalash qobiliyatini namoyish etadi.

Kalit so‘zlar: oksimoron, nutq figurasi, adabiy qurilma, lingvistik tahlil, adabiy misollar, til moslashuvchanligi, qarama-qarshi atamalar.

Аннотация: В данном исследовании рассматривается лингвистическое и литературное значение оксюморонов в английском языке. Оксюморон, определяемый через противоречащие друг другу термины, бросает вызов традиционным интерпретациям значений и способствует более глубокому когнитивному вовлечению. Исследование подчеркивает ключевую роль оксюморонов в обогащении языка и литературы, демонстрируя сложное взаимодействие противоположных концепций и их способность выражать важные мысли.

Ключевые слова: оксюморон, троп, литературный приём, лингвистический анализ, литературные примеры, гибкость языка, противоречивые термины.

Linguists and literary scholars have long been fascinated by oxymorons because they challenge our understanding of meaning and force us to think beyond literal

interpretations. As both a tool for writers and an intellectual puzzle for readers, oxymorons reveal the inherent flexibility and complexity of language.

Oxymoron is a phrase statement that seems to say two opposite things, as in “jumbo shrimp” and “agree to disagree”. As Malewitz explains, the term is derived from two Greek words: “oxus” (sharp) and “moros” (dull or foolish), making it a contradictory concept even in its etymology.

An oxymoron is a literary figure of speech in which opposite or contradictory words, terms, phrases or ideas are combined to create a rhetorical effect by paradoxical means. For example, *despairing hope*, *tender cruelty*, *glad mourning* and *sad joy* (Morner and Rausch, 1997; 158). Oxymoron is a proper subset of the expressions called "contradiction in terms". What distinguishes oxymora from other paradoxes and contradictions is that they are used intentionally, for rhetorical effect, and the contradiction is only apparent, as the combination of terms provides a novel expression of some concept (Small, 2008; 2). Oxymora can also be wooden irons in that they are in violation of the principle of contradiction which asserts that nothing can be thought if it contains contradictory characteristics, predicates, attributes, or qualities. (Lederer, 2008; 2) Oxymoron, as it is given in encyclopedia (2008; 2), is a Greek term. It has an interesting etymology. It is derived from *oxy* which means sharp or pointed and *moros* which means dull, stupid, or foolish. So the word *oxymoron* is itself an oxymoron, literally meaning something like a *sharp dullness* or *pointed foolishness*.

An oxymoron, a rhetorical device that compares conflicting terms, significantly influences meaning in language. Originating from the Greek terms for ‘sharp’ and ‘dull,’ the oxymoron compels us to bring together seemingly contradictory concepts.

Oxymorons highlight the fundamental complicated and adaptability of language. By combining incompatible notions, they expand the limits of meaning and demonstrate how language can represent seemingly irreconcilable concepts. This enables linguists and language learners to recognize the depths of word associations and their capacity to accurately express complicated emotions or concepts. Studies indicate that oxymorons stimulate the brain's capacity for profound semantic analysis. Research by

Gibbs and Kearney indicates that oxymorons induce a cognitive "clash" through a combination of incongruent concepts. Comprehending how individuals navigate these inconsistencies can provide insights into the construction and interpretation of meaning in human cognition. In literature, oxymorons serve as effective instruments for expressing irony, paradox, or emotional significance. Writers such as Shakespeare often employed them to convey contradictory emotions, including love and hate. Examining their application in literary texts enhances our comprehension of how authors generate tension, humor, or emotional resonance, proving oxymorons essential for literary analysis. Below are examples of oxymorons accompanied with their definitions in English:

Virtual Reality

Structure: *Adjective + Noun*

The word "*virtual*" implies something not entirely real or existing only in simulation, while "*reality*" refers to the state of things as they exist. It means a simulated experience that mimics aspects of real life, often through technology. This oxymoron highlights the contrast between the artificial (virtual) and the authentic (reality), creating a term that encapsulates a modern concept rooted in technology.

Living Dead

Structure: *Adjective + Noun*

The word "*living*" suggests vitality and life, while "*dead*" is the absolute opposite, referring to lifelessness. It is often used to describe zombies, vampires, or metaphorically to refer to people who are alive but lack emotional or spiritual engagement. The combination emphasizes contradiction, evoking vivid imagery or emotional depth, depending on the context.

Bittersweet

Structure: *Compound Word (Adjective)*

Combines "*bitter*" (unpleasant or harsh) and "*sweet*" (pleasant or sugary). It describes a situation or feeling that is both happy and sad at the same time, such as a nostalgic memory. This oxymoron creates emotional complexity, reflecting human experiences.

Dark Light

Structure: *Adjective + Noun*

The word "*dark*" negates or diminishes light, making their combination inherently contradictory. This could refer to dim light, shadows, or symbolic contrasts (e.g., enlightenment within despair). Its interpretation often depends on poetic or figurative contexts. It is common in literature and metaphoric language, this oxymoron evokes ambiguity and paradoxical imagery.

Original Copy

Structure: *Adjective + Noun*

The term "*original*" refers to the first or authentic version, while "*copy*" implies duplication. It refers to the first version of something that has been reproduced, such as a manuscript or an official document. This oxymoron underscores functional contradictions in legal, historical, or creative contexts. It is a practical oxymoron used in everyday life.

In summary, the findings of this research demonstrate that oxymorons are not only linguistic peculiarities but rather significant instruments that contribute to the enhancement of the English language. As a result of the fact that they present a challenge to our ability to comprehend meaning and encourage a more profound level of cognitive engagement, they are essential in both literary study and ordinary communication.

REFERENCES

1. Gibbs, R. W., Jr. (2000). *Irony in Language and Thought: A Psychological Perspective*. Cambridge University Press.
2. Small, S. (2008). *The Art of Oxymoron: A Guide to Contradictory Language*. Journal of Literary Studies.
3. Lederer, R. (1989). *Crazy English*. Simon & Schuster.
4. Morner, K., & Rausch, R. (2008). *Introduction to Literary Study*. Cengage Learning.
5. Conservapedia. (2008). *Oxymoron*.
6. Purdue OWL. (2020). *Figures of Speech*.

ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA QOSH TASVIRI ORQALI AYOL GO‘ZALLIGINI IFODALOVCHI SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Soatova Yulduz Soatovna
29-umumta’lim maktabi
ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
muslimamuhsinjon1993@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boburning lirik asarlarida go‘zallik tushunchasini aynan qosh tasviri orqali yuzaga keltirgan so‘zlarni leksik-semantik jihatdan tahlilga tortdik.

Kalit so‘zlar: konnotativ ma’no, metafora, ko‘p ma’nolilik, o‘z ma’no, sema, omonim

Аннотация: В данной статье мы проанализировали слова в лирических произведениях Бабура, вызывающие понятие красоты через образ брови.

Ключевые слова: коннотативное значение, метафора, полисемия, собственное значение, сема, омоним

Annotation: In this article, we analyzed the words in Babur's lyrical works that evoke the concept of beauty through the image of the eyebrow.

Key words: connotative meaning, metaphor, polysemy, own meaning, sema, omonym

Bobur tilning ko‘p qirrali qatlamini, lug‘at fondini, uning tabiatini, go‘zalligini, nafisligini, soddaligini, sermazmunligini chuqur bilgan va tushungan, yurakdan his etgan va tilning imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalangan adibdir. Biz ushbu maqolada ijodkorning qosh go‘zalligini tasvirlashda qo‘llangan so‘zlarni leksik semantik jihatdan tahlilga tortdik. Sharq adabiyotida ma‘shuqa qoshi tasviri uchun juda ko‘plab timsollar: *oy, hilol, tus tovuq, hindu bolalari, talashayotgan ikki oshiq, mehrob, yo(yoy), yo, nun(grafemalar), mushk* va boshqa ko‘plab so‘zlardan foydalaniladi. Quyida Navoiy ijodidan olingan misralarda qosh go‘zalligi *tovusga* o‘xshatish orqali tasvirlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

“Lojuvardiy vo‘sma birlan zeb bergan qoshlaring
Jilvagar bo‘lg‘on ikki tovus erur gulzor aro”

(Navoiy, g‘azali)

Ma’shuqa qoshlariga o‘sma qo‘yib zeb bergan va shu tufayli u ko‘k tusga kirgan. Keyingi misrada bu tasvir sharqona bir ko‘rinish bilan qiyoslanadi: zeb bergan qoshlar gulzorda yurgan ikki tovusga o‘xshaydi.Bizga ma’lumki, ajdodlarimiz bog‘ yaratib,

gulzor barpo etarkan, shu gulzorga chiroy bag‘ishlasin uchun tovus asraganlar. Demak, yorning beqiyos husnga ega yuzi *gulzor* bo‘lsa, *qoshlari* shu gulzorga yanada oro berayotgan *tovusdir*.[1-8]*”*. Bobur ijodida ham yor qushlari o‘ziga hos tasvirlangan bo‘lib, unda go‘zallik ta‘kidi uchun *yo,oy (hilol) ,mehrob* kabi so‘zlardan foydalangan. Ijodkorda qosh tasviri uchun eng ko‘p *yo, oy* leksemalardan foydalangan.

“Yo – **I** [a. ى harfi] Arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek yozuvida “i” va “y” tovushlarini ifodalovchi harfning nomi.

II esk. ayn. yoy

III [a. يا – undov]1 und. Xitobni bildiruvchi undalma, so‘zlar oldidan kelib, kuchli his-hayajon bildiradi.2 Qoyil qolish, ajablanish ma‘nolarini bildiradi.

IV [f. يا – bog‘lovchi] bog‘l. 1 ayr. 2 ayr. Gap yoki ayrim gap bo‘laklari oldida takror kelib, ularni sanab ko‘rsatish, umumlashtirish uchun qo‘llanadi.3 zidl. So‘roq gap oldida kelib, uning o‘zidan avvalgi gap ma‘nosiga nisbatan zid ekanligini bildiradi [2-22].

Bobur ijodida yo *undov so‘z, yoy, bog‘lovchi, egilgan* kabi ma‘nolarda qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Qaddimni firoq mehnati yo qildi,
Ko‘nglum g‘amu anduh o‘tig‘a yoqildi.
Holimni sabog‘a aytib erdim, ey gul,
Bilmon, sanga sharh qilmadi yo qildi?!

Yuqorida keltirilgan tuyuqda *yo* so‘zini shakldoshlik ma’nolaridan ustalik bilan foydalanilgan.

Yo - egdi ;

Yo – qofiya vazn talabi bilan yoqmoq so‘zining tarkibi sifatida keltirilgan;

Yo – qildi yo qilmadi (bog‘lovchi).

Hitobni bildiruvchi undalma yonida kelib kuchli his-hayajonni ifodalab kelgan:

***Yo Rab**, ul kun shum tole‘din manga bo‘lg‘aymukim,*
Jonima orom ul oromijondin ko‘rgamen?

(“Ne vafo umrumda…” g‘azali)

Yoy ma’nosida qosh uchun etalon:

Ishqida jonni malomat o‘qig‘a qilmang hadaf,

Qoshining yosini ko‘zlang, tiyri mujgonin ko‘rung!

(*Olida go‘yin ko‘rung…” g‘azali)*

Bog‘lovchi bo‘lib kelishi:

Habib bo‘lsa edi, ***yo*** *raqib o‘lsa edi,*

Raqib o‘lsa edi, ***yo*** *habib bo‘lsa edi.*

(“ Habib bo‘lsa edi…” g‘azali)

Egilgan:

Qadi firoqi meni duto qilur,

Qoshi hajri qomatimni ***yo*** *qilur.*

(Fard)

Oy ijodkor qalamiga mansub lirik asarlarda : *osmon jismi(astronomic nom)* va *vaqt, muddat ma‘nosida, ko‘chma ma‘noda ma‘shuqa ma‘nosida qo‘llangan*.

Ko‘k vusmada ul oy qoshi go‘yo xayoldur,

Yo oy boshida ko‘kta ko‘rungan hiloldur

(“Ko‘k vusmada ul oy…”g‘azali)

Oy leksemasini yuqorida ikki bor qo‘llanib, birinchisida metafora usuli orqali ma‘no ko‘chirilib ma‘shuqani ma‘nosi ifodalanib, istiorani yuzaga chiqargan. Ikkinchisida vaqt , oyning boshi ma‘nosi anglashilgan. Qosh go‘zalligi ma‘nosini ifodalash oy so‘zining poetik sinonimi *hilolga* yuklatilgan. Bobur hilol so‘zining aynan bir: “Hilol - [a. هالل – yangi oy] I kt. Yangi chiqqan oy.[3-201]” ma‘nosidan foydalangan. Oy leksemasi o‘rniga hilolni qo‘llash sababi shundaki, oy so‘ziga nisbatan hilol so‘zida konnotativ ma‘no ustunligidir. Yor qoshlari go‘zalligi uchun *vusma(o‘sma), hilol* so‘zlarini qo‘llab, o‘sma qo‘yilgan yor qoshlari oy boshida chiqqan hilol(yangi oyga) ga o‘xshatilgan. Misralardagi gaplar ritorik so‘roq ohangida berilishi yanada ma‘noni kuchaytirib *tajohuli orif* san‘atini yuzga keltirgan.

“**Mehrob** - a. محراب – ibodatxona; tokcha, taxmon tepasining yarim doira qilib ishlangan qismi[4-367]” Mehrob so‘ining sememalar orasidagi aynan “yarim doira” ma‘nosi qosh so‘zi uchun go‘zallik tasviri bo‘lishga asos bo‘ladi. Bobur ijodda mehrob

so‘zi orqali ikki holat yuzaga kelgan: birinchida yor qoshlari mehroblardan ko‘ra ulug‘rog‘ligi ta‘kidlansa:

Sujud vaqtida mehrob bo‘lmasun hargiz —
Ki, bosh qo‘yarda o‘shal egma qosh kerak bo‘lsa

(“Ko‘zumda muttasil ul…” g‘azali)

Boshqa g‘azallarida mehrobning qoshi yolardan ko‘ra ustunroqligi ta‘kidlangan:

Qoshi yolar ko‘yida umri sharif etguncha sarf,
Qilg‘ay erdim masjidu mehrob aro jo koshki.

(“Ko‘rmagay erdim jamoli olamoro koshki” g‘azali)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://malumot.ru/navoiy-she%CA%BCriyatida-qosh-tasviri/
2. ЎТИЛ. Л ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006-2008. – Б. 22
3. https://www.izohli.uz/words/HILOL%20I
4. https://www.izohli.uz/words/MEHROB

BADIIY MATNDA RANG-TUS SIFATLARINING USLUBIY VOQELANISHI

TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
Xudoyberdiyeva Dinara
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchilari
Hamidova Nodira,
Toshqulova Zebiniso

Annotatsiya: Ushbu maqolada sifat so‘z turkumining badiiy adabiyotdagi tutgan o‘rni, bajaradigan vazifasi, badiiy asarlardagi ishlatilgan rang-tus sifatlarining lingvomadaniyatimiz bilan bog‘liqligi, ular ifodalagan ma’no-mazmunlar o‘rganilib ochib berildi. Rang ifodalovchi sifatlar badiiy matnda, asosan, qahramonlar holati, ruhiy kechinmalari va his-tuyg‘ularini ifoda etish uchun qo‘llanilishi misollar yordamida yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Sifat so‘z turkumi, badiiy asar, rang-tus sifatlari, badiiy adabiyot, lingvomadaniyat, qora leksemasi.

Аннотация: В данной статье изучена и раскрыта роль прилагательных в художественной литературе, их функция, связь цветовых прилагательных, употребляемых в художественной литературе, с нашей лингвокультурой, а также значения, которые они выражают. На примерах поясняется употребление прилагательных, выражающих цвет, в художественном тексте, главным образом, для выражения состояния, душевных переживаний и эмоций героев.

Ключевые слова: группа прилагательных, художественное произведение, цветоцветные прилагательные, художественная литература, лингвокультура, черная лексема.

Annotation: In this article, the role of adjectives in fiction, their function, the connection of color adjectives used in fiction with our linguistic culture, and the meanings they express have been studied and revealed. The use of adjectives expressing color in the artistic text, mainly to express the state, mental experiences and emotions of the characters, was explained with the help of examples.

Key words: Adjective word group, artistic work, color-color adjectives, fiction, linguistic culture, black lexeme.

O‘zbek tilida sifat leksemalarining, xususan, rang-tus bildiruvchi sifat leksemalarining uslubiy vosita sifatida poetik nutqda qo‘llanish imkoniyatlari, turli ma’no nozikliklarini ifodalash uchun xizmat qilishi, qo‘llanish darajasi, semantik strukturasi hozirga qadar tilshunoslikda maxsus o‘rganilgan emas. Uslubiyat bo‘yicha yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ham bu haqda ham aniq ma’lumotlarni uchratmaymiz [Qo’ng’urov R. Sifat sitilistikasi // Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo’ng’urov R., Rustamov H. O’zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O’qtuvchi, 1983, 109-

113-betlar; Qilichbekov E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi (grammatika). – Toshkent: O'qtuvchi, 1992. -160-bet].

Badiiy matnda rang leksemalari turli xil uslubiy vazifani bajarib keladi. Har bir inson undan o'ziga xos ma'no chiqarib oladi. Bu esa insonning dunyoqarashidan kelib chiqqan bo'ladi. Ishimizning mazkur faslida aynan rang-tus sifatlarining (leksemalarining) uslubiy ma'no qirralari haqida so'z boradi. Bunda bir qancha o'zbek va jahon adabiyoti ijodkorlari asarlaridan (ko'proq she'riy asarlardan) misollar keltirib, fikrlarimizni isbotlashga harakat qilmiz.

Bundan tashqari ranglarning shunday uslubiy xususiyatlari mavjudki, she'riyatda rang bilan bo'liq ramziy obrazlar yaratish, ularda hayotimizning barcha talotumlarini, zamondoshlar qalbida, ongida charx urib yurgan nozik hamda ziddiyatli kechinmalarni, o'ylarini aniq, obrazlar sifatida shakllantirib, she'rxonga taqdim etish, deyarli, barcha shoirlarimizga xos xususiyatdir.

She'riyatni ramzsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bu ayni haqiqat. Chunki she'r ramz, majoz va badiiy ko'chimlar bilan jozibali, ular bilan tirik hamda navqirondir. Shu ma'noda o'zbek she'riyatiga nazar tashlasak, har bir ijodkor poeziya maydoniga yangi ramzlar, ko'hlik majozlar va betakror ko'chimlar bilan kirib kelganini ko'rishimiz mumkin.

Nafaqat she'rlarda va badiiy matnda balki tasvirdagi ranglarni ham ramziy ma'nolari his qilishimiz mumkin. Bunga bir misol tariqasida bayroqlarda tasvirlanadigan ranglarga e'tibor qaratishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasidagi bayroq tasviridgi ranglar ham azal-azaldan biz uchun muqaddas sanalgan ranglardan foydalanilgan holda tasvirlangan. Oq rangning muqaddasligi, millatimizning beg'ubor orzulari, pokligi, ezgu amallari namoyon etgan rangdir. Qizil rang xalqimizning tarixi, jo'shqinligi va qon rangi sanalgani sababli tiriklik ramzi sifatida ham kelgan. Yashil tabiat manzarasi, yurtimizning boyligi ramzi sifatida qaraladi. Ko'k rang moviy osmon, tinch hayot tarzi, bu tinchlik ortida jasur xalqimizning mardona kurashgani sababli erishgan yutuqlari ham tasavvur etish mumkin.

E'tibor berilsa, ranglar jilosi juda qadim zamonlardanoq ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, xalqlarning o'ziga xos turmush tarzi, urf –odat va madaniyatini mukammal

darajada aks ettirgan. Eng qadimgi bitiktoshlardan tortib to bugungi kungacha ranglar tasviridagi ajib sirlilikning inson ruhiyatiga ta’siri ijodkorlar tomonidan badiiy tadqiq qilib kelingan mumtoz adabiyotimizning ranglar tasviriga munosabatini bevosita tasavvuf ta’limotiga bog‘lab o‘rganish joiz. Shayx Najmiddin Kubroning yetti xil rangni yetti kun xislati bilan talqin etganligi bizga shunday deyishga to‘la asos beradi. Badiiy adabiyotda ranglarning kitobxonga ta’sir xususiyatidan A.Navoiyga qadar ham bir qancha ijodkorlarning ga’zal, ruboiy, tuyuqlarida kuzatamiz. Har bir rang mutaffakir asarlarida ma’lum bir tuyg‘u, kechinma, fikr ifodalashda goh ochiq, goh ramziy mazmun kasb etgan. Ranglar haqida ular bildirgan ma’no va ularning adabiyotda, hayotimizda tutgan o‘rni haqida ma’lumot berib o‘tamiz.

Ma’lumki, o‘zbek adabiyotida yozuvchi va shoirlar o‘z ijod namunalarini ranglar orqali bo‘yoqdor holatga keltirishadi. O‘zbek tilida *oq, qora, qizil, ko‘k, sariq, zangori* kabi bir qator sifat leksemalari predmetning rang-tusini ifodalaydi. Rang-tus bildiruvchi sifatlarning har biri o‘ziga xos semantik strukturasi va o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning uslubiy imkoniyatlari, okkazional semalarni ifodalash xususiyati nutq jarayonoda yuzaga keladi.

Ushbu fikrimizni isbotlash maqsadida Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasida qisqacha parchani keltirib o‘tmoqchimiz: “Ufq qorayib-qorayib keldi, qop-qora bulutlar ko‘pirib-ko‘pirib toshdi, bulutlar yoyilib-yoyilib keldi” bir qarashda oddiygina tabiat manzarasi berilganday tuyuladi, aslida parchada Qimmat momoning, Oymomoga farzandsizligini butun qishloq ayollari oldida, yuziga solib aytgan gapidan so‘ng, uyiga yugurib ketayotgan qahramonning ruhiy holati bilan butun detalini yonma-yon qo‘yadi, bu yerda bulut detali qahramonning ruhiy kechinmalarini to‘la qonli ochib berishga xizmat qilgan.

O‘z fikrimizni yanada isbotlash maqsadida o‘zbek durdona asarlaridan biri sanalgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar“ romanidagi ushbu parchaga e’tiborimizni qaratsak. Roman nihoyasida (epilogda) bosh qahramonlardan biri Otabekning keyingi taqdiri haqida xabar bergan yozuvchi Yusufbek Xojining Qanoatshohdan xat olganini, xatda Otabekning rus bosqinchilari bilan bo‘lgan muxorabada shahid bo‘lganini qayd etar ekan, romanni bunday yakunlaydi. “Shundan

keyin Yusufbek Xoji buni elga oshkor qilib, elga osh berdi. O‘zbekoyim qora kiyib, aza ochdi.” Bu o‘rindagi rang-tus sifati bo‘lgan “qora” so‘zi otga ko‘chib, muayyan bir musibatni- xalq o‘rtasida biror yaqin kishisi vafot etganidan, a’zani ma’lum etib, qora kiyim kiyishga ishora etyapdi. Bu udum bugungi kunda bir qator hududlarda ham saqlanib qolgan.

Birgina Shekispirning “Otello” drammasida Otelloning Dezdemona bilan bo‘lgan suhbatidagi Otelloning “Men qoramanmi?” jumlasining Dezdemonaga qarata aytilishi va bu jumladagi ishlatilgan rang komponentining ma’no vazifasini har kim o‘z dunyoqarashicha tushunishi mumkin. Bu rang leksemasining oddiy inson tashqi ko‘rinishi sifatida qabul qilish bu badiiy mahoratning torligidir. Bu jumladagi rang leksemasi inson taqdiri, inson xatti-harakatlari yoki inson ichki tuyg‘ularini ifodlab kelayotgan bo‘lishi mumkin. O‘z fikrimizni ham aytib o‘tishni joiz topdik. Otelloning bu gapidagi qora leksemasining semasi Otelloning Dezdemonday go‘zal, nozikkina, tarbiyali va ichki dunyosi beg‘ubor bo‘lgan qizga nisbatan o‘zini teng ko‘rolmay aytgan jumlasidir. Bu rang “o‘zining yomon shaxs, unga o‘zini loyiq ko‘rmayotganlik” ma’nosida kelgandir.

Ko‘p o‘zbek adabiyoti vakillari o‘z she’rlarida ranglarga murojaat qilishgan. Xususan, Xurshid Davron, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbiddin, Mahmud Toir, Iqbol Mirzo kabi ijodkorlarimizning lirikasida ranglar jilosini ko‘rsihsimiz mumkin. Har bir ijodkior ranglardan o‘ziga xos uslubda foydalanadi. She’rlarda “oq orzu”, “qora baxt”, “qora qosh” kabi birikmlaraini qo‘llash an’ana tusiga kirgan. Ranglar hamisha ijodkorlar uchun fikr quroli, asosiy o‘xshtish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Xurshid Davronning she’rlarida beg‘ubor bolalikning oppoq xotiralarini ko‘rishimiz mumkin.

Oppoq edi boshda bu dunyo:
Ko‘cha oppoq, kechalar oppoq,
Qanday yaxshi ekan bolalik,
Oppoq ranglar bilan yashamoq.

Oq rang – poklik, beg‘uborlik ramzi. She’rda bolalikning oppoq orzulari, dunyoni bolalarcha anglash, samimiylik, begunohlik, beg‘uborlik ufurib turibdi. Inson

bolaligida hayotning faqat oq taraflarini, ezgulik, yaxshilik, mehr-muhabbatni ko‘radi. Ulg‘aygach ularning ziddi bilan to‘qnash kelarkan, xuddi shoirdek bolalikka qaytgisi, oppoq orzular bilan yashagisi keladi.

Mahmud Toir ijodida qora rangga juda ko‘p o‘rinlarda murojaat qilingan. Uning she’rlarida qora rang - yoshlik, go‘zallik belgisi sifatida qo‘llanilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Qora-qora qoshlaring

Qaldirg‘och terganmidi?

Gulim, sadaf tishlaring

Marvarid berganmidi?

Bu yerda qoshning qaroligi qaldirg‘ochning qanotiga qiyoslangan va bu orqali yorning go‘zalligi tasvirlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qo’ng’urov R. Sifat sitilistikasi // Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo’ng’urov R., Rustamov H. O’zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O’qtuvchi, 1983, 109-113-betlar;
2. Xurshid Davron. Qadrdon quyosh. –Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti, 1979. 5-bet.
3. Умуркулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари. Филалогия фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим етилган диссертатсия.-Тошкент-2022. -117-б
4. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
5. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, *46*(1), 63–66.
6. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. *Proceedings of International Educators Conference*, *2*(1), 648–653.
7. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
8. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 168-170.
9. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.

TILNING LEKSIK QATLAMIGA UYADOSHLIK (IDEOGRAFIK) JIHATDAN YONDASHUV

Musurmonqulov Adham Abdurashid o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
adhammusurmonqulov76@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada tilshunoslikning so‘zlararo ma’noviy munosabatlari haqida, jumladan, uyadosh so‘zlar (ideografik birliklar) haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, tildagi leksemalarni mazmuniy uyalarga birlashtirib, ideografik aspektda tasniflash tilda ahamiyatga ega hodisa sifatida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Leksikologiya, onomosiologiya, so‘zlararo ma’noviy munnosabat, uyadoshlik, ideografiya, ideografik, tezaurus lug‘atlar.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются семантические отношения между словами в языкознании, в том числе вложенные слова (идеографические единицы). Также важным явлением в языке представляется объединение лексем в языке в смысловые гнезда и классификация их в идеографическом аспекте.

Ключевые слова: Лексикология, ономозиология, семантические отношения между словами, вложенность, идеография, идеографические, тезаурусные словари.

ABSTRACT: This article examines the semantic relationships between words in linguistics, including embedded words (ideographic units). Also an important phenomenon in language is the combination of lexemes in the language into semantic nests and their classification in the ideographic aspect.

Key words: Lexicology, onomosiology, semantic relationships between words, nesting, ideography, ideographic, thesaurus dictionaries.

So‘z lug‘at boyligini tashkil etadigan birliklar orasidagi muayyan aloqadorlik, bunga xos bo‘lgan qonuniyatlar, bu asosda tashkil etiluvchi sistemalilik tilning ichki doiradagi taraqqiyot qonuniyatlariga, leksikaga, shuningdek, tashqi faktorlarning ta’sirida paydo bo‘ladigan muayyan kuchlarga tayanadi. O‘zbek tilshunosligida sistema (uyadoshlik) talqini bilan aloqador bo‘lgan bir qancha yondashuvlar paydo bo‘lmoqda (A.Nurmonov, I.Qo‘chqortoyev, R.Rasulov, H.Ne’matov, E.Begmatov kabilar). Xususan, M.Abdullayev tomonidan maydon nazariyasi birmuncha yoritilgan bo‘lsa-da, u faqatgina sintaktik sathning to‘siqsizlik kategoriyasi yuzasidan tadqiq etilgan. [1: 62-66-b.] T.Mirzaqulov esa funksional-semantik maydonlarning ayrim morfemikaga doir xususiyatlariga to‘xtaladi. [2: 18-b.] Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida uyadoshlik hodisasi bilan bog‘liq hodisalar atroflicha o‘rganilmoqda.

Shu jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham leksik sathni tadqiq etgan olimlardan I.Qo‘chqortoyev, H.Ne’matov, A.Nurmonov, Sh.Rahmatullayev, R.Rasulov, N.Mahmudov, M.Mirtojiyev, O.Bozorov, B.Mengliyev, Sh.Iskandarova, A. Sobirov, R.Safarova, M.Narziyeva, Sh.Orifjonova, N.Nishonova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan leksikaning sistem-struktur xususiyatlari tadqiq etildi va bu tadqiqotlarning keyingi rejalari, istiqboli belgilab berildi. Bu o‘rganish usuli so‘zararo ma’noviy munosabatlar doirasida leksikani o‘rganishda katta ahamiyatga egadir. O‘zbek tili leksikasini makromaydon uyasi sifatida tadqiq etilgani holda, uni kichik maydonlarga ajratish ideografik, tezaurus lug‘atlar tuzishda katta natija beradi. Uyadoshlik hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan til hodisalarni, shuningdek, lug‘at tarkibini keng doirada tahlil asosida o‘rganish bugungi kundagi o‘zbek tilshunosligi oldida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan, biz uyadoshlik bilan aloqador yuqoridagi terminlarning har biriga to‘xtalib o‘tamiz.

“Tildagi leksikani ideografik o‘rganishga qiziqish dastlab Yevropa tilshunosligida ortgan. 60-80-yillarda ideografik lug‘at tuzish tamoyillariga bag‘ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi”. [3: Морковкин В.В. Идеографические словари] Ma’lum bir tildagi leksikalarni ideografik doirada tadqiq etish tilshunoslar uchun butun tilning leksik doiradagi imkoniyatlarini to‘la namoyon qilishni ta’minlab beradi.

Onomasiologiya doimo ideografik lug‘atlarning asosiy tayanchi bo‘lib kelgan. Onomasiologiya semantikani o‘rganishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. unda boshlang‘ich asos qandaydir tushuncha bo‘lib, tahlil predmeti esa bu g‘oya, tushunchalarni ifoda etish vositalari hisoblanadi.

Onomasiologiyani leksikani tasniflashning asosi sifatida, ideografik lug‘atlarni til o‘rganishning qo‘shimcha vositasi deb hisoblagan Sh.Balli shunday deydi: “Agar xususiy tushunchalar o‘zidan yuqoriroq umumiy tushunchalar doirasiga kirib, ular, o‘z navbatida, yanada umumiyroq tushunchalar ichiga kiradi, deb hisoblansa, hech bo‘lmaganda, bunday asosda nazariy jihatdan nutqiy faktlar tasnifini yuzaga keltirish mumkin. Bu tasnif tamoyili (prinsipi) qo‘llanuvchi lug‘atlar ideologik (ideografik – Sh.I.) lug‘atlar deyiladi.” [4: 151-b.] O‘zlarining tushunchaviy sistemalarini tadqiq

etishda onomasiologik tamoyillardan kelib chiqib yondashgan bir qator vakillar, jumladan, Dornzayf, Xallig, Vartburglarni misol sifatida keltirish mumkin. Shu boisdan ideografik lug‘atlarni belgilashda asosiy e’tibor tushunchalarini sistemalashtirishga qaratiladi. Jumladan, “Sh. Balli o‘z tadqiqotlarida ideografik lug‘atlar tahlilini bayon qilishda yig‘ma (sinoptik) sxemalar – mundarijalarni solishtirish asosidagi fikrlarga tayanadi. Leksikani tavsif etish natijalariga ko‘ra, bu lug‘atlar onomasiologiya chegarasidan chiqadi.” [5: 20-b.] Bundan ko‘rinadiki, ideografik asosdagi lug‘atlar leksikografiyada faqat onomasiologik tamoyillarni yuzaga chiqarishga xizmat qilmaydi. Shunga binoan, yuqoridagi chegaralanishlar yetarlicha hisoblanmaydi. “Ideografik lug‘atlar tilning butun leksik sistemasini qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Ideografik lug‘atlar leksik birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni yorituvchi lug‘atlar sanaladi.” [6: 506-b.] Bu o‘rinda yuqorida keltirilgan fikrning qay darajada o‘rinli ekanligini aytib o‘tish joizdir. Sh.Balli nazariy qarashlari tildagi barcha leksik sathning dialektik qonuniyat asosida umumiylik-xususiylik asosida tashkil topishligini asoslaydi. Bu jihatdan onomasiologiyani ideografiyadan ajratish, lug‘atchilik tizimidan farqlash haqidagi fikrlari o‘rinli ekanligini aytib o‘tishimiz lozim. Leksikografiya doirasida uyadoshlik, ideografiya hodisalari onomasiologik tadqiqotlardan tubdan farqlanadi hamda so‘zlarning ma’noviy munosabatlari doirasidagi bu tadqiqot leksikaning mazmuniy uyasiga xosligini taqozo etadi.

“O.S.Axmanova esa ideologik (ideografik) lug‘atlarda so‘zlar mavzu qatorlari asosida joylashishini ta’kidlaydi.” [7: 421-b.] Bu lug‘atlarda har bir so‘z yoki so‘z birikmasining kiritiladigan bosqichlari pog‘onali (ierarxik) holatda aks etadi. Demak, so‘zlarni bir necha bosqichlarda joylash orqali bu so‘zni o‘rganish uchun zarur ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

"The family that prays together stays together" – "Birgalikda ibodat qilgan oilaning aloqasi mustahkam bo'ladi". Oilada birlikni mustahkamlash uchun ibodat qilish juda muhimdir. Bu maqol, oilaviy hayotda ibodatning o'rnini ko'rsatadi. Oila a'zolari birgalikda ibodat qilsa, ular bir-birlariga yanada yaqin bo'ladilar, o'zaro hurmat va mehr-muhabbatni kuchaytiradilar. Ibadat, oilaning ruhiy asosini tashkil etadi va uni birlashtiradi.

Yarim diniy maqollar va ularning ma'nosi. Yarim diniy maqollar odatda diniy masalalarga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilmasa-da, ularning asosida axloqiy va diniy qadriyatlar yotadi. Ular ko'proq hayotiy saboqlarni, ehtiyotkorlik va ongli harakatlarni ta'kidlaydi.

"Praise the Lord and pass the ammunition" – "Xudoni maqtang, lekin amaliy ishni qiling". Bu maqol, faqatgina ibodat qilish bilan cheklanmaslikni, balki muammolarni hal qilishda faol bo'lishni targ'ib qiladi. Xudo va amaliy ishlarni

birgalikda ko‘rish muhimdir. Xudoga ishonchni saqlagan holda, har bir inson o‘z hayotida faollikni namoyish qilishi kerak.

Xulosa. Diniy va yarim diniy maqollar inson hayotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ular faqat diniy masalalar bilan bog‘liq bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy, axloqiy va psixologik jihatlardan ham muhim ahamiyatga ega. Maqollar orqali odamlar o‘zlarini yaxshilash, hayotda to‘g‘ri yo‘lni topish va Xudoga bo‘lgan ishonchni oshirish haqida saboqlar olishadi. Diniy maqollar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham insonlarning xulq-atvorini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Doyle, Charles Clay, Wolfgang MIEDER & Fred SHAPIRO. 2012. A Dictionary of Modern Proverbs. New Haven & London: Yale University Press.
2. Roumyana Petrova. “How religious are the modern anglo-american proverbs: a linguocultural study”. Proceedings of the 12th World Congress of the International Association for Semiotic Studies (IASS/AIS)
3. Sofia 2014 16-20 September New Bulgarian University.
4. Suleymanova Nodira Rustamovna. Xitoy va O‘zbek tillaridagi maqollarning qiyosiy tahlili (semantik va struktur jihatdan). Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2012. 74 b.
5. А. Рыбникова. “Русские пословицы и поговорки”. Издательство академии наук. Ссср. М о с к в а. 1961.

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK - SEMANTIK TAHLILI

Hayitmurodova Laylo Qurbonovna
TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

O‘zbek xalq ertaklarida frazeologizmlar, ularning so‘z va gap o‘rtasidagi muhim farqli tomonlari, leksik va semantikasi. Frazeologizmlarni faqatgina nazariy jihatdan emas, balki amaliy tomonlarini ham chuqur o‘rganish imkonini berish uchun frazeologik lug‘atlar zaruriy manba bo‘lib hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek xalq ertaklari, frazeologizmlar, folklor, somatik, mifonim, teonim va zoonim komponentli frazeologik birliklar.

АННОТАЦИЯ

Фразеологизмы в узбекских народных сказках, их важные различия между словами и предложениями, лексика и семантика. Фразеологические словари являются необходимым ресурсом, позволяющим углубленно изучать фразеологизмы не только теоретически, но и их практические стороны.

Ключевые слова: узбекские народные сказки, фразеология, фольклор, фразеологизмы с соматическими, мифонимическими, теонимическими и зоонимическими компонентами.

ANNOTATION

Phraseologisms in Uzbek folk tales, their important differences between words and sentences, lexical and semantics. Phraseological dictionaries are a necessary resource to allow in-depth study of phraseologisms not only theoretically, but also their practical aspects.

Key words: Uzbek folk tales, phraseology, folklore, phraseological units with somatic, mythonym, theonym and zoonym components.

Barcha ilmiy yo‘nalishlar qatorida tilshunoslikda ham ko‘plab an’anaviy muammolari, xususan, o‘zbek tili frazeologik birliklarida xalqimizning milliy-madaniy dunyoqarashini ifodalovchi mifonimlarning lisoniy, lingvomadaniy xususiyatlarini zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish tilshunosligimiz uchun muayyan nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbek tili tarixan juda boy til hisoblanadi. 1989-yil 21-oktyabr kuni O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi o‘zbek tilining kuch, qudratini yanada mustahkamlashga va rivojlanishiga yordam berdi. Ayniqsa, 1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining e’lon qilinishi o‘zbek tilining tarix

zarvaraqlarida yangi sahifa ochdi. Mustaqillikka erishgan yillarimizda tilimizning mohiyati va uning istiqboli haqida ko‘plab ilmiy ishlar, o‘quv qo‘llanmalar va monografiyalar yaratildi. O‘zbek tilining qo‘llanishida frazeologizmlar yani iboralar ham muhim rol o‘ynaydi. Kishilarning o‘zaro nutq jarayonida turli frazeologik birliklardan foydalanishi uning badiiy kitoblarda ham ko‘p mutolaa qilinishidan dalolat beradi. Ayni vaqtda o‘zbek tilimiz o‘zida ko‘plab iboralarni jam qilganligi bilan o‘zga tillardan ajralib turadi.

A.E.Mamatovning fikricha: “Frazeologizm – bu tuzilishi jihatidan so‘z birikmasiga yoki gapga teng bo‘lgan, umumlashgan ma’no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan turg‘un leksik – semantik birlikdir”. XIX asrgacha iboralar lug‘atshunoslik tarkibida o‘rganilgan bo‘lib , bunda ularning faqat ma’nolari va etimologiyasi bayon etilganligi ma’lum.

“Frazeologiya asosan frazeologik birlashmalarning semantik tabiatini ichki belgilarini o‘rganish bilan shug‘ullanish lozim” deydi. Sharl Balli o‘z asarlarida so‘z birikmalarini sistemalashtirib, anglatgan ma’nolari va sintaktik o‘ziga xosligidan kelib chiqadigan yaxlitligicha qo‘llaniladigan turg‘un birikmalarni frazeologizmlar deb ataydi. Sh.Balli frazeologizmlarni semantik hodisa deb qaraydi va semantik xususiyatni frazeologizmlarning mutloq belgisi deb hisoblaydi. Umuman olganda frazeologiya keyingi yillarda tez sur’atlar bilan taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi.

Asrlar davomida shakllangan frazeologiyalar og‘zaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda publitistikada o‘tkir ta’sirchan tasviriy vosita sifatida keng qo‘llanadi. Yozuvchilar o‘z asarlarida frazemalardan unumli foydalanish bilan bir qatorda mavjud frazemalarni asar muhitiga moslagan holda qisman o‘zgartiradilar, shu yo‘l bilan yangi iboralar yaratadilar. Abdulla Qahhor, Oybek, G‘afur G‘ulom, said Ahmad va boshqalar tomonidan ujod qilingan frazeologizmlar buning yaqqol namunasidir. Turli xususiyatlarga ega bo‘lgan frazemalar majmui tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi. Frazeologiya va folklor bir biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan va bir birini inkor etmaydigan, ta’siri va qo‘llanilish uslubi jihatidan zamonlar osha o‘zgarmaydigan xalqning boy ma’naviy merosidir.

O‘zbek folklorining ikkinchi turi bu - ertaklar haqidagi birinchi yirik tadqiqot M. Afzalovning “O‘zbek xalq ertaklari haqida” kitobidir (1964). Bu monografiya aftorning o‘zbek xalq ertaklari bo‘yicha bir necha yillar davomida olib borgan kuzatishlar natijasi sifatida yuzaga keldi. Olim hayvonlar haqidagi ertaklarni tahlil qilar ekan, boy etnografik adabiyot asosida ularda qadimgi kishilarning tabiat hodisalari va ayrim hayvonlarga nisbatan totemistik hamda animistik qarashlari ifodalanganligini ko‘rsata olgan. Ertak – xalq og‘zaki ijodidagi badiiy prozaning namunasi sifatida. Ularda mehnatkash xalq hayoti, orzu-istaklar, psixologik dunyosining aks etishi. Ertakning o‘ziga xos xususiyatlari: voqelikning epik tasviri va hajm jihatidan dostonga munosabati, hikoya asoslangan ommaviy va umuminsoniy janr ekanligi.

ADABIYOTLAR.

1. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: 1991.
2. Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи. Монография. – Тошкент, 2018.
3. Кунин А.В. Теорея фразеологии Шарля Балли // Иностранные языки в школе, 1966, № 3.
4. Жуманазарова Г., Болтаева Б., Кулбоева Д. Фраземаларнинг нутқда қўлланилиши. Ғ Тошкент: “Turon zamin ziyo” нашриёти, 2017
5. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, *46*(1), 63–66.
6. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. *Proceedings of International Educators Conference*, *2*(1), 648–653.
7. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
8. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
9. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.

SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA DIALEKTIKAL SO‘ZLARNING O‘ZIGA XOS O‘RNI

Termiz davlat pedagogika instituti
I bosqich magistranti
Odilova Sadoqat Abduhamitovna
Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri,
f.f.f.d. dots. **Mardonova Lobar Umaraliyevna**

Annotatsiya: O‘zbek shevalarining taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini izohlashda sheva, dialekt, lahja terminlari qo‘llanildi. Sheva o‘ziga xos leksik, grammatik, fonetik xususiyatlari bilan farqlanadigan milliy xalqning kichik hududiy qismiga oid qismini ifodalasa, dialekt aksariyat til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan bir necha shevalarni birlashtiradi. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev asarlarida qo‘llangan dialektizmlar tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Sheva, shevaga xos so‘zlar, dialekt, leksik dialektizmlar, fonetik dialektizmlar, morfologik dialektizmlar.

Аннотация: Термины “диалект”, “диалект” и “диалект” использовались для объяснения истории и современного развития узбекских диалектов. Если диалект представляет собой небольшую территориальную часть национального народа, отличающуюся своими лексическими, грамматическими, фонетическими особенностями, то диалект объединяет несколько диалектов со сходными языковыми особенностями. В данной статье проанализирована диалектика, использованная в творчестве Шукура Холмирзаева.

Ключевые слова: диалект, диалектные слова, диалект, лексические диалектизмы, фонетические диалектизмы, морфологические диалектизмы.

Abstract: The terms “dialect”, “dialect” and “dialect” were used to explain the history and current development of Uzbek dialects. If the dialect represents a small territorial part of the national people, distinguished by its own lexical, grammatical, phonetic features, the dialect unites several dialects with similar linguistic features. This article analyzed the dialectics used in the works of Shukur Kholmirzayev.

Key words: Dialect, dialect-specific words, dialect, lexical dialectisms, phonetic dialectisms, morphological dialectisms.

Insoniyat yaralibdiki o‘zaro muloqotga kirishish uchun, albatta, tildan foydalanadi. Har qanday til esa bosqichma-bosqich rivojlanib, ichki va tashqi imkoniyat asosida boyib boraveradi. Bugungi kunda, texnika jadal sur’atlarda rivojlanayotgan bir davrda, ijtimoiy muhitga yangi so‘zlarning kirib kelishi va lug’at tarkibidan mustahkam joy olib boraverishi odatiy holga aylandi. Ayniqsa, tashqi imkoniyat negizida fan-texnika yoki biror sohaga oid atamalarning tilning tarkibiga singishini to‘xtatish imkonsiz. Ammo ichki imkoniyat asosida tilning boyishi ham o‘z o‘rnida tilning sofligini saqlab qolish uchun eng muhim manba va omillardan biri hisoblanadi. Bu jarayon umumxalq tili tarkibidagi biron bir

so‘zning ma’nosini maxsuslashtirish yoki shevalardan so‘z olish orqali amalga oshadi.

O‘zbek tilidagi shevalarning ko‘pchiligi o‘zbek xalqining necha mingyillik urf-odatlari, an’analari, qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun ham badiiy asarlarda ba’zan davr nuqtayi nazaridan, ba’zan asarning g’oyasini ochib berish, obrazlarlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish, qolaversa, personajlarni kitobxonni to‘lqinlantira oladigan darajada jonli gavdalantirish uchun dialektizmlarga ya’ni shevalarga murojaat qilinadi.

O‘zbek adabiy tilining asosi, uning boyish manbalaridan biri, yuqorida aytib o‘tilganidek, shevadir. Sheva forscha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, odat, yo‘sin, ravish kabi ma’nolarni bildiradi. Shevalar o‘zbek tilining o‘ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo‘lgan kichik bir qismi bo‘lib, o‘zlarining jug’rofiy o‘rinlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi [3: 30]. Hozirga qadar o‘zbek dialektologiyasi rivoji uchun bir qancha tilshunoslar olimlar salmoqli hissa qo‘shganlar. Dialektal so‘zlarni turli xil usul bilan tasnif qilib chiqqanlar. Ular sirasiga professor olimlar I.I.Zarubin, E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, G’ozi Olim, A.K. Borovkov, V.V. Reshetovlarni kiritish mumkin.

“Biz yoz oqshomlari *allapallagacha gurunglashib* o‘tirardik. Otamning oshnalari kelganda, muk tushib, doston o‘qishar, navbat bilan do‘mbira chertishar, *momom* ham qozon boshidan jilmasdi” (Shukur Xolmirzayev “O‘zbekning soddasi” hikoyasidan). Mazkur jumlada keltirilgan *allapallagacha* so‘zi *allamahalgacha* so‘zi bilan erkin almasha oladi va *gurunglashib* so‘zi esa *suhbatlashmoq* leksikasi bilan sinonim bo‘lib, har ikki so‘z ham matnning o‘ziga xos jihatini ochib berishga xizmat qilgan.

“Esimda: biznikilar ayniqsa, “Alpomish” dostonini sevishar edi. Yusuf degan bir tanishimiz bo‘lardi, uyga keldimi, *lo‘labolish*ni *o‘mrov*iga tortib, shu dostonni o‘qishga boshlar edi” (Shukur Xolmirzayev “O‘zbekning soddasi” hikoyasidan). Mahalliy surxon aholisiga ma’lum bo‘lsa-da, boshqalarga biroz notanish bo‘lgan *lo‘labolish* leksikasi *uzuqroq yostiq, o‘mrov* esa *ko‘krak* ma’nosida kelgan bo‘lib, bunday nimagadir qiyoslash orqali yasalgan so‘zlar

xalq dostonlarida ko‘p uchraydi. Bu esa, o‘z navbatida, adib asarlari xalq o‘g’zaki ijodidan yaxshigina “ozuqa” olganligini anglatadi.

“Men zerikib, karavotimga chiqib yotdim. Bir mahal uyqu aralash payqab qoldim: *supa*da *g‘o‘dir-g‘o‘dir* gap bo‘lyapti. Ayniqsa, *enam*ning ovozi baland-baland chiqardi. Otam bosiq, lekin u ham ba’zan “E! E! ” deb qo‘yardi, men shunda beixtiyor hushyor bo‘lib ketdim” (Shukur Xolmirzayev “O‘zbekning soddasi” hikoyasidan). Asar matnidagi *supa* adabiy tildagi *so‘ri* so‘zi bilan shakldosh bo‘lib, odatda, tepa qismi yopiq, to‘rt yo uch tomoni ochiq joy, *g‘o‘dir-g‘o‘dir gap* esa tinglovchiga yaxshi eshitilmaydigan tarzdagi gap ma’nosida qo‘llanib, salbiy bo‘yoqdorlik orqali gapga uslubiy ma’no yuklangan. Surxondaryo dialektikasida faol qo‘llanuvchi *ena* so‘zi *ona* ekanligi ko‘pchilikka ma’lum.

“Otamning odatlari qiziq-da: meni hech vaqt “To‘raboy, ke!” deb chaqirmaydi, shunchaki, “To‘raboy!” deb qo‘ya qoladi, demak, bu — beri ke, deganlari ham bo‘ladi. “*Ulim!* ” deb qo‘yardilar, vassalom, men yugurib borishim kerak. Otam singillarimni ham “*ulim*” deb chaqirardi...” (Shukur Xolmirzayev “O‘zbekning soddasi” hikoyasidan). Xalq dostonlarida juda ko‘p uchraydigan *ul* so‘zi *o‘g’il* leksikasi bilan erkin almashina oladi. So‘z talaffuzida yengillik berish uchun uchun shu shaklda dialektizmlar tarkibida uchraydi.

“Qovurdoq o‘rtada bo‘lsa, men ham *dildirab*, iljayib borar edim. Otamning oxirgi so‘zi shu bo‘ldi: — E, kampir, boshimni qotirma. Men aytdim *aytgichim*ni unga.” (Shukur Xolmirzayev “O‘zbekning soddasi” hikoyasidan). Mazkur jumla tarkibidagi *dildirab — sovuqda titrab* birligining o‘rnida undanda kuchliroq uslubiy bo‘yoqdorlikni ifodalash uchun qo‘llangan. *Aytgichim*ni esa *aytmoqchi bo‘lgan* yoki *aytadigan gapimni* birligini nutqdagi ixchamlashtirilgan shaklidir. Surxondaryo, Qashqadaryo shevasida sifatdoshning *-adigan* qo‘shimchasi *-gich* shaklida qo‘llanadi.

Shukur Xolmirzayev asarlarini o‘qir ekanmiz, adib har bir qahramon ruhiy holati yoki xususiyatini ochib berish uchun dialektizmlardan naqadar unumli foydalanganligining guvohi bo‘lamiz. Ba’zan esa asar personajlarni faqatgina adabiy tilda so‘zlatib, bu orqali ham ma’lum bir badiiy g’oyani ochib berishga

harakat qiladi. Umuman olganda, adib asarlaridagi shevaga xos so‘zlar asarlarning xalqonaligini ta’minlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S. Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, 2016.
2. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, 1978.
3. N. Rajabov. O‘zbek shevashunosligi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
5. F.Musayeva. O‘zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi. –Toshkent, 2009.
6. Sh. Xolmirzayev. Saylanma, 1-jild. –Toshkent, 2003.
7. Sh. Xolmirzayev. Saylanma, 3-jild. –Toshkent, 2006
8. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, *46*(1), 63–66.
9. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
10. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
11. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.
12. Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi. (2024). OKSYUMORONNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 26–30.

JINOYAT OLAMIDAGI JARGONLARNI O‘RGANISH

Almardanova Jamila Safar qizi
TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti
2-kurs magistranti
almardanovajamila@gmail.com

Annotatsiya: Jargonlar jinoyat olamida keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, mahbuslar nutqidagi jargonlar juda rang-barangdir. Bunday so‘zlar tilimizda doimo ishlatiladi va ularni o‘rganish muhim va kerakli sanaladi.

Kalit so‘zlar: *Jargon, qamoqxona,mahbus.*

Abstract: Jargons are widely used in the criminal world. In particular, the slang used in the speech of prisoners is very colorful. Such words are always used in our language and it is important and necessary to learn them.

Key words: Jargon, prison, prisoner.

Аннотация: В криминальном мире широко используются жаргоны. В частности, очень красочен сленг, используемый в речи заключенных. Такие слова всегда используются в нашем языке и их важно и нужно выучить.

Ключевые слова: Жаргонизм, тюрьма, заключенный

Bugungi tilshunosligimizda so‘zlashuv nutqiga xoslangan ayrim birliklar kishilar o‘rtasidagi aloqa-almashinuvi jarayonida faol qo‘llanmoqda. Xuddi shunday birliklar qatoriga jargonlarni ham kiritishimiz lozim va bunday birliklarni o‘rganish zamonaviy tilshunosligimiz tadqiq etishi zarur bo‘lgan muammolardan biridir.Jargon (fr. jargon-safsata) ishlatilish doirasi cheklangan bo‘lib, biror ijtimoiy guruhning o‘ziga xos muloqotida uchraydigan so‘z va atamalarni ifodalaydigan tushuncha. Xususan, Sh.Shoabdurahmonov va M.Asqarova (1980) va boshqalar jargonni “sinfiy ayirmalikni ko‘rsatib beradigan yuqori tabaqa vakillari uchun tushunarli bo‘lgan so‘z va iboralar. Jargon o‘zbek tilining o‘z so‘zlaridan, ba’zan boshqa (arab va tojik) tillardan olinib ko‘zlangan so‘zlardir” deb ta’rif berganlar.

Dialektlar, terminlar va boshqa ko‘plab jarangli iboralar tilshunoslar va tarjimonlar uchun tanish tushunchalardir. Aslida jargonlar ham xuddi shunday tilimizda ko‘p uchraydigan leksik birliklar sanaladi. Biroq, ularni chuqur o‘rganish va maxsus jargonlar lug‘atini tuzish o‘zbek tilshunosligida hali o‘rganilmagan. Jargonlar umummilliy til doirasida ham faol ishlatilmoqda. Xususan, bu haqida professor Sh. Maxmaraimovaning “Hozirgi o‘zbek tili(leksikologiya)” nomli darsligida ta’kidlaganidek: “Garchi jargonlarga muvaqqat, o‘tkinchi tabiat xos bo‘lsa-da, ulardan

ayrimlari davr o‘tib umummilliy so‘lashuvda muqim o‘rin topishi mumkin: shpargalka, brat, nishtyak,tanka g‘isht va b.q”.

Ayniqsa, jinoyat olami jargonlari juda qiziqarli va rang-barangdir. Aynan, mahbuslar nutqidagi jargonlarni chuqur o‘rganish huquqni muhofaza qilish xodimlari uchun kasbiy foyda keltiradi. Jargonni tushunadigan nazoratchilar mahbuslar oldida alohida hurmatga ega bo‘ladi. Shuning uchun Sobiq ittifoq davrida tegishli xodimlarga faqat xizmat mobaynida foydalanish uchun maxsus “fenya” lug‘atlari bosmadan chiqarilib, undagi so‘zlar ma’lum davr oralig‘ida yangilanib turgan. Jinoyat olamidagi jargonlarni o‘rganish nafaqat qiziqarli shu bilan bir qatorda soha mutaxasislari uchun juda foydalidir. Biror jinoyatchi yoki mahbus nutqida ishlatayotgan jargon so‘zlarni bilish ularning ishini osonlashtiradi. Ba’zi tillarda aynan jinoyat olamiga doir va mahbuslar nutqidagi jargonlar bo‘yicha lug‘atlar tuzilgan.

Qamoqxona – hayot ichidagi kichik hayot hisoblanadi. Ogohlantiruvchi elektroqo‘ng‘iroq big‘illab tovush bergach, temir darvoza va panjaralar sharaq-shuruq ochilib, sizni yangi hayotga o‘tkazadi va ortingizdan mahkam yopiladi. Endi siz mutlaqo boshqa olamdasiz. Endi erkingiz boshqalar qo‘lida. Qachon, qancha va qanday harakat qilishingizni endi boshqalar hal qiladi.

Mahbus- arab. – qamalgan, qamoqqa olingan;

Zindonga solingan, qamoqqa olingan, ozodlikdan maxrum etilgan kishi.

Mahbuslar qamoqxonada boshqalar tushunmaydigan tildan foydalanishadi. Bunday so‘zlar mahbuslar jargonidir.

Dumaloq qilib o‘ralgan ko‘rpa-to‘shakni quchoqlab ko‘targan holda, soqchilar hamrohligida torgina yo‘lak bo‘ylab sekin odim otib borasiz. Oyoqlar istar-istamas yerga bosiladi. Mabodo tergovda yoki izolyatorda qiynoqqa solishgan bo‘lsa, hamon simillab turgan og‘riqlar ham bu paytdagi xavotir hislari oldida o‘tmaslashib, sezilmay qoladi. Sizni kutayotgan noma’lumlikdan uvushgan yuragingiz dunyoga sig‘mas darajada siqiladi. Nega bu yerga keldim, nega aynan men shu ahvolga tushib qoldim, qayerda xato qildim, degan xayoldan miyangiz karaxt bo‘lib, atrofga ma’nosiz alanglaysiz. “Biror teshik bo‘lsa-yu, imkon topib, qochib ketsam, qanotim bo‘lsa-yu, uchib ketsam”, degan befoyda fikrlar xayolingizga keladi.

Biroq soqchining “to‘xta, devorga o‘girilib tur, yuramiz”, degan qisqa, ammo qat’iy buyruqlarini eshitmay qolmaslik uchun qulog‘ingiz ding bo‘ladi. Soqchi sizni kameraga turtib kirgizgach, eshikni yopib chiqib ketadi. Endi ko‘zingizga shu soqchi ham qadrdon ko‘rinib qoladi. “Bo‘sh joyni egallab, joylashib ol” degancha sizni noma’lum dunyo bilan yolg‘iz qoldirib ketayotganidan o‘kinch his qilasiz.

Eng ayanchlisi, qamoqxonada tilingiz ham erkin emas – kimga, nimani va qanday gapirishni boshqalar belgilagan qoidalarga moslashtirasiz.

Bunday paytda eng yaxshisi, shunchaki salom, deya qadam boshlash kerak. “Salom, mujiklar”, “patsanlar” yoki “bratva” deyish ham yaramaydi. Chunki bu kamerada (jargonda “xaza” yoki “xata”) kimlar o‘tirganini hali bilmaysiz. Agar blatnoylar o‘tirgan bo‘lsa, ularni “mujik” deya haqorat qilib, obro‘sini pastga urgan bo‘lasiz. Shuning uchun avvalo bu qanday xata deb so‘rashadi odatda. Sizga nomunosib “petux” yoki “obijenniy”lar xatasi bo‘lsa, ular darrov aytishga majbur. Bunday holda darrov nozirni chaqirib, boshqa kameraga o‘tkazishlarini so‘rashadi.

Agar mahbusni boshqa kamera yoki zonaga o‘tkazishsa, uning “xatadosh”lari bilan xayrlashuv so‘zlari ham jargonda boshqacharoq yangraydi. Zonada hech qachon “do svidaniya” (xayr) deyilmaydi, balki “прощай” alvido, deyiladi. Birinchidan, qamoq o‘g‘rilar uchun “uy” deyilsa-da, “volya”da – ozodlikda yurgan ma’qul. Mazkur xayrlashuv go‘yoki “yana shu yerda uchrashguncha xayr”, deya yomon niyat sifatida salbiy qabul qilinadi. Shuningdek, “svidaniye” – bu xotin yoki qarindoshlar bilan uchrashuvni anglatuvchi "muqaddas" so‘z. Demakki, begona erkakning “do svidaniya” deyishi g‘alati eshitiladi.

Yana bir versiyaga ko‘ra, “do svidaniya” so‘zida go‘yo “sviditel” (guvoh) so‘zi ham mavjud. O‘g‘rilar ponyatkasida boshqalarning jinoyatiga qarshi guvoh bo‘lish noma’qul ish hisoblanadi.

Qolaversa, zonada krujka emas, "xapok"da suv ichasiz, derazaga emas – "reshka"ga (panjaraga) qaraysiz, yerga emas, "pyatak"ka, stol emas, "obshak" qo‘yasiz.

Shu bilan birga, zonada volyadagi kabi ortiqcha mulozamat va xushmuomalalik yaxshi qabul qilinmaydi. Bunday odam shu tariqa o‘zini mahbuslardan yuqori

tutayotgandek yoki oliftalik qilib, o‘zining kimligini ko‘rsatgisi kelayotgan odamdek taassurot qoldiradi.

Ehtimol “qamoqxonada ham ozodlikdagi kabi sidirg‘a gaplashsa nima qilarkin, nega bu yerda odamlar boshqacha tilda gaplashar ekan?” degan savol ham tug‘ilishi mumkin.

Avvalo, ko‘pchilik gaplashadigan tildan tashqarida gaplashish nafaqat jinoyat olamida, balki ijtimoiy hayotning boshqa qatlamlarida ham ishlatiladi. Masalan, turli kasb egalari – shifokorlar, neftchilar va axborot texnologiyalari xodimlari boshqalar tushunmaydigan atama va tushunchalar bilan gaplashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoabdurahmonov.Sh., Asqarova.M. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek aadabiy tili. -T.:O‘qituvchi, 1980.
2. Mirtojiyev.M. M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. O‘quv qo‘llanma.-T.:O‘zMU,2000.
3. https://uz.m.wiktionary.org/wiki/mahbus.
4. platina.uz.
5. B.To‘ychiboyev. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T.:”O‘qituvchi”, 1996.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 jild. – T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2020.
7. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, *46*(1), 63–66.
8. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
9. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. С10. – С. 168-170.
10. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.

O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATLARIDA TEXNIKAVIY TERMINLARNING TARJIMA VA IZOHLASH MASALALARI

Faxriddinova Gulchiroy Nuritdin qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1 - bosqich magistri
gulchiroyfaxriddinova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili izohli lug‘atlarida texnikaviy terminlarning tarjima va izohlash masalalari tahlil qilingan. Texnik atamalarning lug‘atlarda berilishi, tarjima muammolari va ularning yechimlari, shuningdek zamonaviy texnika terminlarining o‘zbek tiliga moslashtirilishi masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida texnik terminlarni izohli lug‘atlarda berish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: texnik terminlar, izohli lug‘at, tarjima masalalari, terminologiya, leksikografiya

Аннотация: В данной статье проанализированы вопросы перевода и толкования технических терминов в толковых словарях узбекского языка. Рассмотрены вопросы приведения технических терминов в словари, проблемы перевода и их решения, а также адаптации терминов современной техники на узбекский язык. В результате исследования разработаны рекомендации по приведению технических терминов в толковых словарях.

Ключевые слова: технические термины, толковый словарь, вопросы перевода, терминология, лексикография

Abstract: This article analyzes the issues of translation and interpretation of technical terms in explanatory dictionaries of the Uzbek language. Issues of assignment of technical terms in dictionaries, problems of translation and their solutions, as well as adaptation of modern technical terms to the Uzbek language were considered. As a result of the study, recommendations for the issuance of technical terms in annotated dictionaries were developed.

Keywords: technical terms, Explanatory Dictionary, translation issues, terminology, lexicography

KIRISH

Bugungi kunda texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida tilimizga ko‘plab yangi atamalar kirib kelmoqda. Bu terminlarni o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima qilish va izohli lug‘atlarda aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnik terminlarning izohli lug‘atlarda to‘g‘ri berilishi nafaqat tilshunoslik, balki texnika sohasidagi mutaxassislar uchun ham dolzarb masaladir [1].

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tili izohli lug‘atlarida texnik terminlarning berilishi va izohlash masalalarini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini taklif etishdan iborat.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-tahliliy, tasviriy va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. O‘zbek tilidagi mavjud izohli lug‘atlar, xususan, "O‘zbek tilining izohli lug‘ati" (2006-2008), "Texnik terminlar lug‘ati" (2003) va boshqa manbalardagi texnik terminlar o‘rganildi.

Tadqiqot davomida Toirova G. ning "O‘zbek tilida texnikaviy terminlarning lingvistik tadqiqi" [2], Madvaliev A. ning "O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari" [3] kabi fundamental tadqiqotlari tahlil qilindi. Shuningdek, rus tilshunoslaridan Гринев С.В. ning "Введение в терминологическую лексикографию" [4] va xorijlik olim Sager J.C. ning "Technical Translation and Lexicography" [5] asarlariga tayanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan tahlillar natijasida o‘zbek tili izohli lug‘atlarida texnik terminlarning tarjima va izohlash masalalarida bir qator muhim jihatlar aniqlandi.

Birinchidan, texnik terminlarning tarjima muammolari alohida e'tiborni talab etadi. Bugungi kunda chet tillaridan, ayniqsa ingliz tilidan o‘zlashayotgan texnik terminlarni o‘zbek tiliga moslashtirish jarayonida qator qiyinchiliklar kuzatilmoqda [6]. Masalan, "software", "hardware", "gadget" kabi terminlarning o‘zbek tilidagi muqobillarini tanlash va ularni izohli lug‘atlarda to‘g‘ri aks ettirish masalasi hanuzgacha munozarali bo‘lib qolmoqda. Kalka usulida tarjima qilingan texnik terminlar ba'zan o‘zbek tili grammatik va fonetik qonuniyatlariga to‘liq mos kelmaydi. Bundan tashqari, bir texnik terminning bir necha ma'noga ega bo‘lishi ham lug‘atlarda ularni izohlashda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

Ikkinchidan, izohli lug‘atlarda terminlarni izohlash masalalarida ham bir qator muammolar mavjud. Texnik terminlarning ta'rifi va izohlanishida aniqlik darajasi turlicha bo‘lib, ba'zi hollarda izohlar juda murakkab, ba'zan esa haddan tashqari soddalashtirilgan ko‘rinishda beriladi [7]. Terminlarning qo‘llanish doirasi va

kontekstual xususiyatlarini ko‘rsatishda ham yagona yondashuv mavjud emas. Zamonaviy texnika rivojlanishi sur'ati yuqori bo‘lgani sababli, yangi texnik terminlarning lug‘atlarga kiritilishi va izohlanishi jarayoni sekin kechmoqda.

Uchinchidan, leksikografik tavsif xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Texnik terminlarning grammatik va uslubiy xususiyatlarini ko‘rsatish, sinonimik qatorlarni berish masalasi [8] hamda terminologik tizimlarni aks ettirish jarayonida ham ayrim kamchiliklar mavjud. Masalan, ba'zi texnik terminlarning uslubiy xususiyatlari to‘liq ochib berilmagan, sinonimik qatorlar to‘liq ko‘rsatilmagan holatlar uchraydi.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim masala - bu texnik terminlarning izohli lug‘atlarda berilishida yagona standartning yo‘qligi. Bu esa o‘z navbatida turli lug‘atlarda bir xil terminning turlicha izohlanishiga olib kelmoqda. Bunday holat lug‘at foydalanuvchilarida chalkashlik va tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Zamonaviy texnik terminlarning izohli lug‘atlarda berilishi masalasini takomillashtirish uchun tizimli yondashuv zarur. Bu jarayonda texnik soha mutaxassislari va tilshunoslarning hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi [9]. Shu bilan birga, xorijiy tajribani o‘rganish va milliy til xususiyatlarini hisobga olgan holda, zamonaviy texnik terminlarni izohli lug‘atlarda berish metodikasini ishlab chiqish talab etiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim aspekt - bu texnik terminlarning etimologik jihatdan tahlili va ularning izohli lug‘atlarda berilishi masalasidir. Ko‘plab texnik terminlar arab, fors, rus va ingliz tillaridan o‘zlashgan bo‘lib, ularning etimologik ma'lumotlarini lug‘atlarda to‘g‘ri aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnik terminlarning o‘zbek tilidagi muqobillarini yaratish jarayonida tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Bu borada quyidagi holatlar kuzatildi:

1. O‘zbek tilidagi mavjud so‘zlarning ma'nosini kengaytirish orqali yangi texnik tushunchalarni ifodalash. Masalan, "sichqoncha" (mouse), "xotira" (memory) kabi.

2. So‘z yasalish modellaridan foydalanish orqali yangi texnik terminlar hosil qilish. Masalan, "yuklagich", "o‘chirgich", "ko‘rsatgich" kabi.

3. Mavjud so‘z birikmalarini transformatsiya qilish orqali yangi texnik atamalar yaratish.

Bundan tashqari, izohli lug‘atlarda texnik terminlarning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini aks ettirish masalasi ham muhim. Bu o‘rinda quyidagi jihatlar alohida e'tiborni talab etadi:

- Terminning qo‘llanish doirasi va chastotasini ko‘rsatish
- Terminning boshqa sohalar bilan aloqadorligini aks ettirish
- Terminning zamonaviy texnologiyalar kontekstidagi o‘rnini belgilash
- Terminning milliy va xalqaro standartlarga mosligini izohlash

XULOSA

Texnik terminlarni izohli lug‘atlarda berish jarayonida multimediali yondashuvdan foydalanish masalasi dolzarb bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy elektron lug‘atlarda texnik terminlarni tasvirlar, animatsiyalar va video materiallar bilan boyitish imkoniyati mavjud. Bu esa terminlarning ma'nosini yanada to‘liqroq ochib berishga yordam beradi.

O‘zbek tili izohli lug‘atlarida texnik terminlarning berilishi masalasini takomillashtirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Texnik terminlarni standartlashtirish bo‘yicha maxsus komissiya tuzish;
2. Elektron lug‘atlar bazasini yaratish va muntazam yangilab boorish;
3. Xalqaro tajribani o‘rganish va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda terminologik tizimni takomillashtirish;
4. Terminlarning zamonaviy ta'riflarini muntazam yangilab borish tizimini joriy etish;
5. Texnik terminlarni izohli lug‘atlarda berish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, texnik terminlarning izohli lug‘atlarda berilishi masalasi dinamik jarayon bo‘lib, u doimiy monitoring va takomillashtirishni talab etadi. Bu jarayonda nafaqat tilshunoslar, balki texnik soha mutaxassislari, tarjimonlar va lug‘atshunoslarning hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madvaliev, A. (2017). O‘zbek tili izohli lug‘ati: muammolar va yechimlar. Toshkent: Fan.
2. Toirova, G. (2019). O‘zbek tilida texnikaviy terminlarning lingvistik tadqiqi. Toshkent: O‘zbekiston.
3. Madvaliev, A. (2020). O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. Toshkent: Fan.
4. Гринев, С.В. (2018). Введение в терминологическую лексикографию. Москва: Наука.
5. Sager, J.C. (2019). Technical Translation and Lexicography. London: Routledge.
6. Абдуллаева, Ч.С. (2018). Техник терминларнинг лисоний хусусиятлари. Тошкент: Фан.
7. Wilson, R. (2020). Modern Approaches to Technical Terminology. Oxford: OUP.
8. Насирова, М.Р. (2019). Техник атамаларни таржима қилиш масалалари. Тошкент.
9. Smith, K. (2021). Technical Terms in Modern Lexicography. Cambridge: CUP.
10. Yo‘ldoshev, B. (2020). O‘zbek terminologiyasi: muammolar va istiqbollar. Toshkent.

HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA URG‘UNING AHAMIYATI

Xamzayeva Farog‘at Abdujabbor qizi
TerDPI 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola urg‘uning hozirgi o‘zbek tilidagi ahamiyati haqidagi ma’lumotlar bilan boyitildi. Nutqimizdagi urg‘uning ikki turiga ko‘ra ya’ni so‘z urg‘usi va gap urg‘usining ichki tuzilishi, uning qo‘shimcha turlari haqida izohlar berib o‘tilidi. Tilshunos olimimizning fikrlaridan foydalanildi.

Аннотация. Данная статья обогащена информацией о значении акцента в современном узбекском языке. По двум видам ударения в нашей речи, т. е. словесному ударению и предложенному ударению, объясняется внутренняя структура и дополнительные ее виды. Было использовано мнение нашего лингвиста.

Annotation. This article is enriched with information about the importance of accent in the modern Uzbek language. According to the two types of stress in our speech, i.e. word stress and sentence stress, the internal structure and its additional types are explained. The opinions of our linguist were used.

Kalit so‘zlar: aksentologiya, potensial urg‘u, akustika, kvantitativ urg‘u, musiqiy urg‘u, dinamik urg‘u, tonik urg‘u, leksik urg‘u, so‘z urg‘usi, gap urg‘usi, supersegment, lug‘aviy urg‘u

Ключевые слова: акцентология, потенциальное ударение, акустика, количественное ударение, музыкальное ударение, динамическое ударение, тоническое ударение, лексическое ударение, словесное ударение, ударение в предложении, суперсегмент, лексическое ударение.

Key words: accentology, potential stress, acoustics, quantitative stress, musical stress, dynamic stress, tonic stress, lexical stress, word stress, sentence stress, supersegment, lexical stress

So‘z tarkibidagi bo‘g‘inlardan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq aytilishi yoki ma’lum bir butun so‘z birikmasining gapda ma’no yadrosi sifatida kuchliroq aytilishi urg‘udir. [3:53] Gapda urg‘u tushgan bog‘in urg‘uli bog‘in hisoblanadi. Urg‘u ikki turga bo‘linadi: *gap urg‘usi va so‘z urg‘usi*. Gap urg‘usiga misol. Masalan, *U har doim kitob o‘qiydi*. Bu gapda har doim so‘zi urg‘uli, chunki odatni ifodalayapdi. So‘z urg‘usi olma (fe’l) olma (ot) bunda urug‘uning tushishiga bog‘liqdir.

1. So‘z urg‘usi fonetik tabiatiga ko‘ra, dinamik urg‘u, kvantitativ urg‘u, tipik urg‘u, tonik urg‘uga bo‘linadi.

1) dinamik urg‘u talaffuzning pasayishi yoki kuchayishi oqibatida hosil qilinadi. Dinamik urg‘u ko‘pgina tillarning fonetikasida keng tarqalgan urg‘udir u rus tiliga

ham, ingliz tiliga ham xos.[3:56] Bu chet el tillarida dinamik urg‘u so‘zlaring cho‘ziq yoki qisqaligiga ko‘ra farqlanadi.

2) kvantitativ urg‘u. Urg‘uning bu turi nutqda so‘zlarni o‘ziga xos ta’riflaydi. Masalan, uning muvaffaqiyati haqiqatan ham hayratlanarli. Bu yerda kvantitativ urg‘u darajani ko‘rsatgan.

3) tipik ottenkali urg‘u yoki sifat urg‘usi. Urg‘uning bu turi esa so‘zlarni talaffuzini o‘zgartirilishi bilan ifodalanadi. Masalan, bu kitobni men o‘qidim. Bu gapda aynan o‘zi ishni amalga oshirganligini ko‘rsatayapti.

4) tonik yoki musiqiy urg‘u. Tonik urg‘uni o‘zbek tilida tog‘ri talaffuz qilish muhim. Chunki so‘zning ma’nosini o‘zgarishiga olib keladi.

2. Gap urg‘usi yoki logik urg‘u. Gap urg‘usi yoki logik urg‘uda gapda ma’no jihatdan muhim so‘zlarga yoki so‘z qismlariga e’tibor qaratishdir. Gap urg‘usiga misol tariqasida: Men kitobni o‘qidim, lekin sen esa gazeta o‘qiding. Bu yerda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan so‘z kitobni so‘zidir. Yana bir misol tariqasida: U bu ishni sen qilganingdan ko‘ra yaxshiroq bajardi. Bu yerda sen so‘ziga urg‘uga berilayapti. O‘zbek tilshunoslaridan professor Abdulazizov urg‘uning fonetik komponentlarini quyidagicha tasniflaydi.[2:59]

a) Nutq organlarining harakatiga ko‘ra. Ya’ni urg‘u bog‘in faoliyati va nafas olish sezilarli darajada kuchaytirilishi va un paychalaring titrashi yuqori darajali chastotada xarakterlanadi. Demak, bu yerda tilshunos olimiz urg‘uni hosil qilishda ishtirok etadigan nutq a’zolarini ham nazarda tutgan.

b) Akustika nuqtayi nazaridan urg‘u olgan bo‘g‘in boshqa urg‘u olmagan bo‘g‘inlarga qaraganda yuqoriroq intensivlikka va yuqori tovush toni davomiylikka ega bo‘ladi. Bu qoidaga ko‘ra kitob so‘zida urg‘u ki ga tushadigan bo‘lsa tob ga qaraganda jarangliroq aytiladi.

c) Anglash doirasida esa urg‘u olgan bo‘g‘in urg‘ulantirilmagan bo‘g‘inlarga qaraganda balandligi, davomiyligi va tovushning yuqori toni bilan belgilanadi. Xuddi yuqorida keltirilgan kitob so‘zidagidek tovushning jarangdorliligiga qarab urug‘u olgan va olmagan bo‘g‘inlar shu tariqa talaffuzda ham urg‘u olgan so‘z yoki bog‘in

gapda muhim ahamiyat kasb etayotganligi bilinib turadi. Lekin urg‘u olmagan bog‘in esa gap ichida muhim ahamiyat kasb etmaydi. U gapda yordamchi rolni o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, bizning nutqimizda urg‘uning o‘rni nihoyatda kattadir. So‘zlashuv jarayonimiz orqali ham urg‘uning juda ahamiyatli ekanliligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, oddiygina og‘zaki nutqimizda ko‘p ishlatadigan olma so‘zini oladigan bo‘lsak uni harakat ma’nosida ham narsa ma’nosida ham ishlatamiz. Gap urg‘usi umumiy bir gapni ma’nosini farqlasa, so‘z urg‘usi esa faqat so‘zning ma’nosini farqlaydi. O‘zbek tilidagidek urg‘uning ma’no farqlashi ingliz va rus tillariga ham xosdir. Faqat ayrim farqli jihatlari bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2003
2. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent. O‘qituvchi, 1981
3. Jalilov S. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (fonetika va fonologiya). – Nukus, 2011.
4. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, *46*(1), 63–66.
5. Majidova Shahnoza. (2023). GIDRONIMLAR LISONIY QIMMATGA EGA BO‘LGAN TIL BIRLIGI SIFATIDA. *Proceedings of International Educators Conference*, *2*(1), 648–653.
6. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
7. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.
8. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE’RIYATI VA TILI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, *57*(1), 143–146.
9. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Ro‘ziyeva Umida Azamat qizi. (2024). G‘AFUR G‘ULOMNING “SHUM BOLA” ASARIDAGI TARIXIY VA ARXAIK SO‘ZLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *22*(6), 353–356.
10. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
11. Sayfullayev N. H. o‘g‘li. (2023). IJTIMOIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(12), 106–111.
12. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO‘Z TURKUMLARINING TATQIQI

TerDPI 2-bosqich talabasi
Bozorova Muxlisa Hamidovna

Annotatsiya: O‘zbek tilshunosligida so‘z turkimlarini tushunish, uni tizimli o‘rganish va mazmunini ochib berish muhim ahamiyatga ega. So‘z turkumlari til birliklarini turli jihatlardan o‘rganish va ularni semantik, morfologik hamda sintaktik nuqtayi nazardan tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur maqolada tilshunoslikning morfologiya bo‘limining asosiy o‘rganish obyekti hisoblangan so‘z turkumlari va ularning turlari hamda tilshunos olimlarning olib borgan tadqiqotlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: So‘z turkumlari, mustaqil so‘z turkumlar, yordamchi so‘zlar, tilshunos olimlar, morfologiya.

Аннотация: В узбекском языкознании важно понимать группы слов,систематически их изучать и раскрывать их значение.Фразы позволяют изучать языковые единицы с разных сторон и анализировать их с семантической, морфологической и синтаксической точки зрения.В данной статье говорится о группах слов и их видах, которые с читаются основным обыктом изучения морфологического факультета языкознании, а также исследований, проводимых лингвистами.

Ключевые слова: Группы слов, самостоятельные группы слов, всромогательные слова, лингвистье, морфология.

Abstract: In Uzbek linguistics, it is important to understand word groups, to study them systematically and to reveal their meaning. Phrases make it possible to study language units from different aspects and analyze them from a semantic, morphological and syntactic point of view. This article talks about word groups and their types, which are considered the main object of study of the morphological department of linguistics, as well as the research conducted by linguists,

Key words: Word groups, independent word, groups, auxiliary words, linguists, morphology.

So‘zlar lug‘aviy ma'nolari,morfologik belgilari va gapda bajaradigan sintaktik vazifalariga ko‘ra o’zaro farqlanuvchi turli guruhlarga bo'linadi. So‘zlarning lug‘aviy va grammatik jihatidan farqlanishiga ko‘ra bunday guruhlarga bo'linishi so‘z turkumlari deyiladi.

So‘zlarni turkumlarga ajratish masalasi eng qadimgi davrlardan olimlar diqqatini tortib keladi. Tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan qadimgi hindlar so‘zlarni otlar, fe'llar, yordamchilarga ajratadilar. Hindlarning g‘oyalari bilan oziqlangan arablar so‘zlarni uchga ismlar, fe'llar, yordamchilarga bo'ladilar.Hind tilshunoslari fikrlari

asosida yunon olimlari, xususan, Arastu so‘zlarni ana shunday uchga ajratadi.Faqat keyinchalik yunonlar ismlar ichidan sifatlarni, sonlarni va olmoshlarni chiqardilar.G‘arb tilshunosligida yunonlarning keyingi tasnifi keng tarqaldi.Rus tilshunoslari ham ana shu an'anaga amal qilib mustaqil so‘zlarni ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'lga ajratadilar. Aslida, dastlabki to'rtta so‘z turkumining barchasi nomlar sanaladi. Narsaning nomi-ot,belgining nomi-sifat,miqdorning nomi-son,nomlar o‘rnida almashinib keluvchi so‘zlar-olmosh.O‘zbek tilida so‘z turkumlari, avvalo, Ot,sifat, son, olmosh, fe'l,ravish kabi asosiy turkumlarga va yordamchi so‘z turkumlariga bo‘linadi.

Har bir tildagi barcha so‘zlar o'zlarining grammatik va semantik xususiyatlariga ko‘ra so‘z turkumlariga ajratiladi.Semantik prinsip so‘zlarni ma'nosiga ko‘ra so‘z turkumlariga ajratadi. Morfologik prinsip so‘z shakllarining o‘zgarishiga ko‘ra so‘z turkumlariga ajratadi.Sintaktik prinsip esa so‘zning sintaktik vazifasiga asoslanadi.Shunga ko‘ra,har bir tilda so‘z turkumlarining soni har xil:rus tilida 10ta,o‘zbek tilida 11ta,ingliz tilida 9ta,uyg‘ur tilida 8ta.Ot eng qadimgi so‘z turkumi.[1:35]

Otlar shaxs, predmet va tushunchalarni ifodalaydi. O‘zbek tilida otlar bir qator grammatik shakllanishlarga ega:ular kelishik, ko'plik,egalik qo‘shimchalari yordamida turli vazifalarda qo‘llaniladi. Masalan: "kitob","o‘quvchi", "daryo" kabi so‘zlar. Sifatlar predmetning xususiyati, belgisi va holatini ifodalab, otlarning aniqlovchisi sifatida ishlaydi. M:"yashil","katta "kabi.Sonlar miqdor va tartibni ifodalab, predmetlarning aniq sonini yoki ularning qatorini bildiradi. O‘zbek tilida sonlar miqdor va tartibni sonlarga bo‘linadi.Olmoshlar Ot,sifat yoki boshqa so‘zlar o‘rnida keladigan so‘z turkumidir.Fe'llar harakat yoki holatni ifodalab,gap tarkibida asosan kesim vazifasida ishlatiladi.Ravishlar harakat va holatning sifatini,turini yoki darajasini ifodalaydi. Ko‘makchilar ("bilan","uchun"), yuklamalar("-mi,-chi") va bog‘lovchi ("va, lekin") mustaqil ma'noga ega bo'lmay, bosha so‘zlar bilan bog‘liq holda ishlatiladi.[2:47]

O‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari quyidagi mezonlarga asoslangan holda aniqlanadi: 1.Leksik-semantik belgi: so‘zlarning lug‘aviy ma'nosi, ya'ni ular nimani

anglatishi va qanday tushunchalarni ifodalashiga asoslanadi.2.Morfologik belgi:So‘zning tuzilishi,qo‘shimchalari va shakl o‘zgarishiga asoslanadi. 3.Sintaktik belgi: So‘zning gap tarkibidagi vazifasiga asoslanadi, ya’ni so‘zning boshqa so‘zlar bilan qanday bog‘lanishi va gapda qanday rol o‘ynashi.[3:123]

Leksik-semantik tatqiq: So‘z turkumlarini leksik-semantik nuqtayi nazardan o‘rganish, ya'ni ular orasidagi ma'no aloqalarini tahlil qilish o‘zbek tilining boyligini ochib beradi. O‘zbek tilshunosligida so‘zlarning ko‘p ma'nolilik, sinonimlik, antonimlik, omonimlik kabi xususiyatlari alohida tatqiq qilinadi.

Morfologik tatqiq: So‘z turkumlari morfologik jihatdan tahlil qilinadi,ya'ni ularning shakllanishi, o‘zgarishi va qo‘shimchalari tatqiq etiladi.Masalan:otlarning kelishik shakllari,fe'llarning zamon va mayl shakllari, sifatlarning darajalanishi kabi jihatlar bu yo‘nalishda o‘rganiladi.

Sintaktik tatqiq: So‘z turkumlarining gap tarkibidagi o‘rni va vazifasi sintaktik tahlil orqali o‘rganiladi. Gapda so‘zlarning qanday vazifani bajarishi,ularning sintaktik vazifalari va o‘zaro bog‘lanish qoidalari tilshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O‘zbek tilida so‘z turkumlari tahlili til birliklarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.Bu tahlillar orqali o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini anglash, tilni rivojlantirish va tushunchalarni mukammal tushunish mumkin. So‘z turkumlarini tatqiq etish natijasida o‘zbek tilining grammatika tizimi,uning tuzilishi va boshqa turkiy tillardan farqli jihatlari oydinlashadi. Shu sababli, bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar tilshunoslik uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonov.N,Yo‘ldoshev.A O‘zbek tili grammatikasi asoslari Toshkent :Fan,1995
2. Sharipova.O‘., Yo‘ldosheva.I.Tilshunoslik asoslari.Toshkent-2006.
3. R.Sayfullayeva. Zamonaviy o‘zbek tili .Toshkent-2008.
4. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, *46*(1), 63–66.
5. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
6. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИКЛАДНОЙ ЛИНГВИСТИКИ

Аликулова Азиза Шухратовна
студентка 2 курса группы 203
факультета «Языков» Термезского
государственного педагогического института

Аннотация: В статье рассматриваются современные проблемы и вызовы, с которыми сталкивается прикладная лингвистика, включая вопросы межкультурной коммуникации, применение технологий в языковом обучении, влияние цифровых медиа на языковую практику, а также исследование языковых вариаций и изменений в условиях глобализации. Подчеркивается важность междисциплинарного подхода для решения этих проблем.

Ключевые слова: прикладная лингвистика, межкультурная коммуникация, технологии обучения, языковые изменения, глобализация.

Annotation: The article examines contemporary issues and challenges faced by applied linguistics, including issues of intercultural communication, the use of technology in language teaching, the impact of digital media on language practice, and the study of language variations and changes in the context of globalization. The importance of an interdisciplinary approach to solving these problems is emphasized.

Key words: applied linguistics, intercultural communication, technological education, language change, globalization.

Annotatsiya: Maqolada amaliy tilshunoslik oldida turgan zamonaviy muammolar va muammolar, jumladan, madaniyatlararo muloqot, til o‘rgatishda texnologiyalardan foydalanish, raqamli axborot vositalarining til amaliyotiga ta’siri, shuningdek, til o‘zgarishlari va kontekstdagi o‘zgarishlarni o‘rganish ko‘rib chiqiladi. globallashuv. Ushbu muammolarni hal qilishda fanlararo yondashuv muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so‘zlar: amaliy tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot, ta'lim texnologiyalari, til o'zgarishlari, globallashuv.

Прикладная лингвистика представляет собой область, охватывающую применение теоретических знаний о языке в различных практических сферах, включая обучение языкам, перевод, социолингвистику и психолингвистику. В условиях быстро меняющегося мира возникают новые вызовы, требующие адаптации методов и подходов в прикладной лингвистике. В данной статье акцентируется внимание на актуальных проблемах, касающихся этой области исследования.

1. Межкультурная коммуникация. С развитием глобализации и увеличением международного взаимодействия межкультурная коммуникация становится одной из ведущих областей прикладной лингвистики. Разные культуры имеют свои собственные языковые нормы и привычки, что может приводить к недопониманию и конфликтам. В. Г. Костомарова «Язык и культура» дается следующее определение: «этим термином называется „адекватное взаимопонимание двух участников коммуникативного акта, принадлежащих к разным национальным культурам“» [1].

При обучении межкультурной коммуникации в процессе изучения иностранного языка необходимо учитывать так называемые скрытые трудности речепроизводства и коммуникации. Они обусловлены неповторимостью лексико-фразеологической сочетаемости каждого слова в рамках конкретного языка. Такая специфика становится очевидной при сопоставлении языков. Поэтому при изучении иностранных языков важно заучивать слова не в отдельности, а в естественных, устойчивых сочетаниях. Еще одной трудностью является конфликт между культурными представлениями разных народов о явлениях и предметах реальности, которые обозначены эквивалентными словами соответствующих языков. [2].

Актуальным является изучение стратегий межкультурного общения, методов разработки программ обучения, направленных на формирование межкультурной грамотности у студентов. Это позволяет смягчить культурные барьеры и способствовать более эффективному взаимодействию в многоязычных и много культурных средах.

*2. Технологии обучения языкам прикладной лингвистики.*Современные технологии существенно изменили подходы к обучению языкам. Использование онлайн-курсов, мобильных приложений, платформ для дистанционного обучения, а также технологий искусственного интеллекта открывает новые горизонты для изучения языка.

Большинство исследователей рассматривают технологи обучения как один из способов реализации на занятиях личностно - деятельностного подхода к

обучению, благодаря которому учащиеся выступают как активные творческие субъекты учебной деятельности.[3]. Однако, с другой стороны, это также ставит перед исследователями вопросы о качестве обучения, эффекте автоматизации на усвоение языка и необходимости адаптации традиционных методов к новым условиям. Особенно создание Интернета открыло поистине неограниченные возможности для наполнения обучения иностранному языку современным аутентичным содержанием. Самые свежие выпуски всемирно известных газет, видеоролики с последними новостями, переписка, онлайновые дискуссии с носителями языка - еще лет десять назад об этом можно было только мечтать.[4]

3. Влияние цифровых медиа на языковую практику. Цифровые медиа оказывают значительное влияние на язык, способствуя появлению новых форм и жанров коммуникации. Язык в социальных сетях, блогах и мессенджерах часто отличается от литературного языка, что приводит к возникновению новых лексических форм и грамматических конструкций. Уже более полувека назад началось использование компьютерных технологий в сфере обучения иностранным языкам. В настоящее время уже немыслимо преподавание иностранных языков без применения новейших технологий [5]. Последствии этого, необходимы новые исследования, направленные на изучение этих изменений и их последствий для языковой практики и образовательных программ.

4. Языковые вариации и изменения в условиях глобализации.

Глобализация приводит к смешению языков и культур, что вызывает интерес к проблемам языковой вариативности. В условиях глобального общения важно изучать, как различные языковые сообщества адаптируют свои языки, как возникают новые диалекты и как они влияют на идентичность носителей. Прикладная лингвистика должна обратить внимание на методы исследования этой динамики, учитывая как социокультурные, так и лингвистические аспекты.

Актуальные проблемы прикладной лингвистики требуют междисциплинарного подхода для их решения. Необходимо интегрировать знания из области лингвистики, культурологии, информационных технологий и

психологии, чтобы более эффективно справляться с вызовами современного мира. Исследования, направленные на изучение межкультурной коммуникации, анализ влияния технологий на обучение, а также изменения языковой практики, помогут адаптировать методы преподавания и эффективно применять лингвистические концепции в различных сферах.

Литература:

1. ТЕР-МИНАСОВА С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М: Издательство. МГУ.2004 год.
2. Химичева С. А. «Межкультурная коммуникация в современном высшем образовании при изучении иностранного языка». Педагогическое образование России. 2012.№ 4. стр.138.
3. Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам: теория и практика. 3-е изд. М., 2007. 186 с.
4. Хуторской, А.В. Интернет в школе // Практикум по дистанционному обучению. М.: ИОСО-РАО, 2000. 122 с.
5. Джонассен Девид Х. Компьютеры как инструменты познания: изучение с помощью технологии, а не из технологии // Информатика и образование, № 4-2004.

IFODALILIK VA IBORALAR

Qurbonova Gavxar Xurramovna
TerDPI o‘qituvchisi
Avazova Dilfuza Xayrullo qizi
TerDPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ifodalilik tushunchasi va ibora o‘rtasidagi farq, iboralarning uslubshunoslikda qo‘llanishilish doirasi, bundan tashqari frazeologizmlarda semantik munosabatlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ifodalilik, ibora, uslublar, semantik munosabat, frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается отличие понятия выразительности от словосочетания, сфера использования словосочетания в стилистике, а также смысловые отношения во фразеологизмах.

Ключевые слова: выразительность, экспрессия, стили, смысловая связь, фразеологическая антонимия, фразеологическая омонимия.

Abstract: This article discusses the difference between the concept of expressiveness and a phrase, the scope of the use of phrases in stylistics, and also the semantic relations in phraseologisms.

Key words: expressiveness, expression, styles, semantic relationship, phraseological antonymy, phraseological omonymy.

Nutq tinglovchi yoki o‘quvchiga jiddiy ta’sir qilishi uchun u ham shaklan, ham mazmunan diqqatni jalb qila oladigan bo‘lishi lozim. Ifodalilik sifatiga ega bo‘lgan nutq bunday vazifalarni osonlikcha bajarishi mumkin. Bu kommunikativ sifat til vositalarini ifoda maqsadiga to‘la muvofiq tarzda tanlash asosida yuzaga keladi. Nutqning turli uslublari bu kommunikativ sifatga turli darajada ehtiyoj sezadi. Masalan, rasmiy ish qog‘ozlarida ifodalilikka nisbatan kamroq e’tibor qilinsa, ilmiy uslubda o‘rni bilan bu kommunikativ sifat kerak bo‘ladi. Ifodalilik, ayniqsa, badiiy nutqning zaruriy sifatlaridandir.

Tilda ifodalilikni ta’minlashga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ko‘p va xilma-xildir. Bunday imkoniyatlar tilning barcha birliklarida mavjud. Tilning tovush qurilishi, so‘z xazinasi, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas tuganmas manbayidir. Nutq tuzuvchi bulardan yetarlicha xabardor bo‘lsa, nutqning ifodalilik sifatini ta’minlashga qiynalmasligi tabiiy holdir. Yuqorida ta’kidlab o‘tdikki, tilning so‘z xazinasi nutqiy

ifodalilikning o‘ziga xos asosiy manbalaridan biridir. Ammo tilning lug‘at boyligidagi so‘zlar bilan frazeologik iboralar solishtirilganda, iboralarning ifodalilik nuqtayi nazaridan imkoniyati sezilarli darajada katta ekanligi yaqqol ko‘rinadi.

Frazeologik iboralarning deyarli barchasi emotsional-ekspressivlikka, obrazlilikka, alohida ifodalilikka egadir. Masalan, “alamli” so‘zi “bag‘ri qon” iborasi bilan ma’nodosh. Ko‘rib turibmizki, ibora ifodalilik jihatidan so‘zdan ancha ustun. Yana qiyoslaydigan bo‘lsak, aralashdi – bosh qo‘shdi; itoat qildi – bosh egdi; behat sevindi – boshi ko‘kka yetdi; albatta – turgan gap; o‘ta ketgan – uchiga chiqqan; hech qachon – ikki dunyoda ham; yaxshi kayfiyat bilan – ochiq yuz bilan; yashirin – yeng ichida. Frazeologik iboralar o‘z ma’nodoshlari bo‘lmish so‘zlarga nisbatan, birinchidan, ma’nosi kuchli ifoda bilan ifodalansa, ikkinchi tarafdan ularda obrazlilik yorqin bir tarzda ifoda etadi.

Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo‘lish, kishilarning xilma-xil bo‘lgan harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalashdir. Barchamizga ma’lumki, so‘z san’ati ustalari tildagi bu vositalardan unumli foydalanadilar.

Iboralar tilning eng muhim tasviriy-uslubiy vositalaridan biridir. Ular nutq uslublarida turli xil vazifalarni bajaradi. Xususan, ilmiy va rasmiy uslublarda ko‘pincha muayyan tushunchalarni nomlash uchun qo‘llanadi. Masalan, qo‘l qo‘ymoq, xulosaga kelmoq, qarshi chiqmoq, ovoz bermoq, qo‘l ko‘tarmoq kabi iboralarni bunga misol qilishimiz mumkin. Iboralarning aksariyati obrazli tafakkur mahsuli bo‘lib, kuchli ko‘chma ma’no ifodasi bilan, yorqin emotsional ekspressivligi bilan tilda yashaydi. Masalan, tomdan tarasha tushganday, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq, yuragi shig` etmoq, aravani quruq olib qochmoq, chumchuq pir etsa, yuragi shir etmoq, qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarmoq kabi. Badiiy va publitsistik, shunigdek, so‘zlashuv uslublarida iboralar xilma-xil tasviriy-uslubiy vazifalarni bajaradi, bunga iboralardagi mavjud rang-barang uslubiy bo‘yoqlar imkoniyat yaratadi.

Leksikada bo‘lgani singari frazeologiyada ham lisoniy semantik munosabatlar mavjuddir:

-frazeologik sinonomiya: ma’nodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham mavjud. Frazeologizmlarning ma’nodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko‘ra farqlanadi, masalan, yaxshi ko‘rmoq – ko‘ngil bermoq, yer bilan yakson qilmoq – kulini ko‘kka sovurmoq, ipidan ignasigacha – miridan sirigacha. Ma’nodosh frazeologizmlarning atash semasi bir xil bo‘ladi. Masalan, ipidan ignasigacha – miridan sirigacha, qilidan quyrug‘igacha kabi iboralarda “butun tafsiloti bilan” atash semasi umumiydir. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo‘yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi;

-frazeologik antonimiya: zid ma’noli antonimlar bir – biriga teskari tushunchani ifodalaydi. Misol uchun, ko‘ngli joyiga tushdi – yuragiga g‘ulg‘ula tushdi, qoni qaynadi – og‘zi qulog‘iga yetdi;

- frazeologik omonimiya: frazeologizmlar omonimik munosabatda ham bo‘lishi mumkin. Masalan, 1) so‘z bermoq – va’da bermoq, 2) so‘z bermoq – gapirishga ruxsat bermoq; 1) boshga ko‘tarmoq – ardoqlamoq, 2) boshga ko‘tarmoq – to‘polon qilmoq.

Frazeologizmdagi darajalanish, giponimiya, funksionimiya, iyerarxionimiya kabi semantik munosabatlar o‘z tadqiqotini kutmoqda. Bu tadqiqotlarni yosh va izlanuvchi olimlarimizdan kutib qolamiz.

Bundan tashqari yuqorida butun tafsilotlari bilan ko‘rib o‘tdikki, ifodali so‘zlar uslubiy bo‘yoqli yoki bo‘yoqsiz bo‘ladi. Iboralar esa har doim bo‘yoqdor. Ibora o‘zi ifodalayotgan tushuncha bilan so‘zga teng, lekin bo‘yoqdorligi sababli bu tenglik buziladi. Iboralarni ko‘p qo‘llash til bilimi va nutqiy salohiyat yuqoriligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev – “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, Toshkent – 2009.
2. Baxtiyor Mengliyev – “Ona tili”, Toshkent – 2009.
3. N. Mahmudov, Y. Odilov, G. Ziyodullayeva – “Ona tili”, Toshkent – 2018.
4 .S. Atoyeva, S. Majidova – “O‘zbek tili uslubiyati”, Toshkent – 2020.
5 .O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati.
6. Qurbonova Gavhar Xurramovna. (2024). O‘ZBEK TILIDA BA’ZI OSMON JISMLARINING O‘ZLASHMA SO‘ZLAR VA TASVIRIY VOSITALAR BILAN IFODALANISHI. *PEDAGOGS*, *56*(2), 31–34.
7. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.

O‘ZBEK TILIDA BO‘G‘INNING SO‘ZLARDA QO‘LLANILISHI, AHAMIYATI, JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

O‘razova Inobat
TerDPI 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bo‘g‘inning jamiyat hayotidagi o‘rni, so‘zlarda bo‘g‘inning qo‘llanilishi, xususiyatlari,olimlarning ilmiy izlanishlarda o‘rganib chiqqan bo‘g‘in tiplari, bo‘g‘inning til va nutqdagi ahamiyati, bo‘g‘inning yana muhim xususiyatlaridan biri so‘zning qaysi bo‘g‘inga urg‘u tushishida katta rol o‘ynashi kabi hodisalar shu maqolada yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘g‘in, ochiq bo‘g‘in, yopiq bo‘g‘in, berkitilgan bo‘g‘in, berkitilmagan bo‘g‘in, sillabika, sillabema, vokalizm, konsonantizm, geminatsiya, ikki balandlikka ega undosh.

Аннотация: Роль слога в жизни общества, употребление слога в словах, его особенности, виды слогов, изучаемые учеными в научных исследованиях, значение слога в языке и речи, один из важнейших В этой статье рассматриваются особенности слога, такие как тот факт, что он играет важную роль в том, на каком слоге слова делается ударение.

Ключевые слова: слог, открытый слог, закрытый слог, закрытый слог, открытый слог, слог, слоговая тема, вокализм, консонантизм, геминация, двусветный согласный.

Abstract: The role of the syllable in the life of society, the use of the syllable in words, its features, the types of syllables studied by scientists in scientific research, the importance of the syllable in language and speech, one of the most important features of the syllable, such as the fact that it plays a major role in which syllable of the word is stressed, are covered in this article.

Key words: syllable, open syllable, closed syllable, closed syllable, open syllable, syllabic, syllabeme, vocalism, consonantism, gemination, double-height consonant.

O‘zbek tilida bo‘g‘in alohida ahamiyatga ega. Chunki biz so‘zlarni satrdan satrga ko‘chirayotganda bo‘g‘inlab yozamiz. Bo‘g‘inning yana muhim xususiyatlaridan biri bu o‘zbek tilidagi so‘zlarda so‘zning qayerida urg‘u olish xususiyatiga ko‘ra turlicha talaffuz qilinadi. Bo‘g‘in ko‘chirishda xatolik yuz bersa, juda katta imloviy xatolik bo‘ladi. Orfografiya qoidalarining bir qismi bo‘g‘in ko‘chirilishiga asoslanganligi isbot bo‘lib qoladi. Bo‘g‘in unlisiz tuzilmaydi. Unli bor bo‘lsa, bo‘g‘in hosil bo‘ladi. Unli (V-Vokalizm), undosh (C-konsonantizm). Biz bo‘g‘inning xususiyatlarini kengroq o‘rganishimiz uchun fonetist olimlarning izlanishlariga tayanamiz.

Bo‘g‘in – bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar birikmasiga aytiladi. Masalan, *daf-tar, a-ka, bo-bo.* Bo‘g‘in nutq oqimining tovushdan katta, so‘zdan kichik (ba’zan bir so‘zga teng - u) segment birligidir. Fonologik nuqtayi nazardan bo‘g‘in sillabema deyiladi, uni o‘rganuvchi soha esa sillabika deb yuritiladi.

Undosh o‘zi bo‘g‘in hosil qila olmaydi. Agar undosh unlidan oldin kelsa, kuchsiz boshlanib, kuchli tugaydi. Gilam so‘zidagi "*gi-*" bo‘g‘ini boshidagi "g" undoshi shunday. Undosh tovush unlidan keyin kelsa, kuchli boshlanib, kuchsiz tugaydi. Gilam so‘zidagi *"-lam"* bo‘g‘inidagi *"m"* undoshi shunday.

Dunyoda so‘zlar ko‘p bo‘lganligi sababli ba'zi so‘zlarda bir ikkita bir xil undoshga duch kelamiz. Bu esa geminatsiya hodisasi sanaladi. Masalan, arra so‘zi. Bu ikkala "rr" bir tovushdan talaffuz etiladi, kuchli boshlanib, kuchli tugaydi, oralig‘ida biroz pasayish kuzatiladi. Bular ikki balandlikka ega undosh sanaladi. Demak, bo‘g‘in tuzilishida undoshning ham o‘rni bor. Undosh kuchsiz boshlanuvchi, kuchli tugovchi va ikki balandlikka ega xarakterda bo‘ladi.

Bo‘g‘in tiplariga quyidagilar kiradi: berkitilgan, berkitilmagan, ochiq va yopiq bo‘g‘inlar.

1. berkitilgan bo‘g‘in, undosh tovush bilan boshlanadi: *bo-bo.*
2. berkitilmagan bo‘g‘in, unli tovush bilan boshlanadi: *ol-ti.*
3. Yopiq bo‘g‘in, undosh bilan tugaydi: *al-la.*
4. Ochiq bo‘g‘in, unli bilan tugaydi. *bo-la*.

Biz ko‘rib chiqqan tasnifning bu turida *a-ka, o-pa* so‘zlaridagi bir unlidan iborat bo‘g‘in, shuningdek, *bor-moq, kel-moq* so‘zlaridagi undosh-unli-undosh (CVC) tipidagi bo‘g‘inlar hozirgi kunda chetda qolgan. Shuning uchun boshqa adabiyotlarda bo‘g‘in tiplarining boshqa ko‘rinishdagi tiplarini o‘rganamiz. Misol sifatida, M.M.Mirtojiyev bo‘g‘in tiplarini o‘zining ilmiy izlanishlardagi quyidagicha tasniflanadi:

1. Ochiq boshlanuvchi ochiq bo‘g‘in: *a-ka, o-pa* kabi so‘zlarining birinchi bo‘g‘ini.
2. Ochiq boshlanuvchi yopiq bo‘g‘in: *Il-miy, iz-lan* kabi so‘zlarning birinchi bo‘g‘ini.
3. Yopiq boshlanuvchi yopiq bo‘g‘in: *daf-tar, boshqird* kabi so‘zlarining birinchi bo‘g‘ini.

4. Yopiq boshlanuvchi ochiq bo‘g‘in: *bo-la, da-la, qo-ra* kabi so‘zlarning birinchi bo‘g‘inlari.

M.M.Mirtojiyev unli va undoshlardagi ovoz va shovqin miqdori har xil bo‘lishini nazarda tutadi, bo‘g‘inning akustik tasnifini ham beradi.

U shunday deydi: "Unli va undosh tovushlar tarkibida, bizga ma’lumki, un va shovqin miqdori turlichadir. Agar ularni ball tizimiga asoslangan shkala bo‘yicha hisoblasak, unlilar 4 ball, sonorlar 3 ball, jaranglilar 2 ball, jarangsizlar esa 1 ball deb qaralishi mumkin. Shunga ko‘ra bo‘g‘in tovushlarini tavsiflasak, bo‘g‘inlar har xil turlarga bo‘linadi. Albatta, bunda bo‘g‘inning boshi va oxiri nazarda tutiladi.

1. Silliq bo‘g‘in 2. Kuchayuvchi bo‘g‘in 3. Pasayuvchi bo‘g‘in 4. Kuchayuvchi - pasayuvchi bo‘g‘in turlariga ajratadi.

Insoniyat qancha bilimga ega bo‘lsa, unda shuncha yuqori bilimlarni qo‘lga kiritadi. Jumladan, shuni ham aytib o‘tish kerakki, *bri-ga-dir* so‘zining birinchi bo‘g‘ini ham kuchayuvchi bo‘g‘inga misol bo‘ladi. Lekin bo‘g‘in boshida 2 ta undosh mavjud degan g‘oya paydo bo‘ladi. Shunga qaramay ular ball shkalasiga ko‘ra har xil, ya’ni 2-3-4 deb olinadi. Unda tovushlar kuchayib borganligi kuzatiladi.

O‘zbek tilida bo‘g‘inning alohida ahamiyatga ega ekanligi yorqin misol tilshunos olim ko‘proq izlanishda bo‘lgan. Shuning uchun ilmiy adabiyotda bo‘g‘in tiplarining boshqa turlarini uchratamiz. Xususan, o‘zining bo‘g‘in tipiga hissasini qo‘shgan taniqli fonetist A.Mahmudov quyidagicha tasnif qiladi.

1. to‘la ochiq bo‘g‘in. U faqat unlidan iborat bo‘ladi *a-na, o-na, o-pa* so‘zlarining 1-bo‘g‘ini.

2. to‘la yopiq bo‘g‘in. Bunday bo‘g‘in undosh bilan boshlanib, undosh bilan tugaydi: *bilmoq, kezmoq* so‘zlaridagi barcha bo‘g‘inlar.

3. boshi yopiq bo‘g‘in. Bunday bo‘g‘in undosh bilan boshlanib, unli bilan tugaydi: *da-da, bo-bo, qo-ra* kabi so‘zlarning barcha bo‘g‘inlari.

4. Oxiri yopiq bo‘g‘in. Bunday bo‘g‘in unli bilan boshlanib, undosh bilan tugaydi: *or-tiq, ol-ti, o‘r- ta* so‘zlarning birinchi bo‘g‘inlari.

Muallif to‘la yopiq bo‘g‘in strukturasi 7 xil bo‘lishini ta’kidlaydi:

1.CVC-bor kel.

2.CCVC-stul,

3.CVCC-fikr, ball

4.CCVCC-sport, kon-gress

5.CVCCC-tekst

6.CCCVC-shtraf.

7.CCVCCC-Dnestr.

So‘zning, xususan, fonetik so‘zning shakllanishida "qurilish materiali" va qoliplovchi vazifalarni bajaradi. Ayrim tillarda bo‘g‘inning distinktiv (tafovutlash, farqlash) funksiyasi ham bor. Masalan, koreys, Vyetnam, Xitoy tillarida bo‘g‘in ohang turiga qarab so‘z ma'nosini farqlaydi, ayni shu xususiyat bo‘lgan tillarda u sillabema hisoblanadi. O‘zbek tilida bo‘g‘inning bu funksiyasi nihoyatda kuchsizdir.

O‘zbek tilidagi bo‘g‘inning pedagogik - metodik ahamiyati ham bor. Birinchi sinf o‘quvchilarini to‘g‘ri o‘qish va to‘g‘ri yozishga o‘rgatishga, ularni to‘g‘ri talaffuz va imlo ko‘nikmalarini shakllantirishda bo‘g‘inlab o‘qitish va yozdirish yaxshi natija beradi. Bo‘g‘inning she'riyatda turoqlarni, ohangdoshlikni va musiqiylikni ta'minlovchi vosita sifatidagi roli ham katta. Tilshunoslarining o‘zbek tilidagi bo‘g‘inni chuqurroq o‘rganish borasidagi olib borgan ilmiy izlanishlarni xulosa qilsak, hozirgi paytda tilimizda 18 ta bo‘g‘in tipi mavjud hamda 15 ta strukturada ifodalangan. Olimlar bo‘g‘in tiplarining bir qancha turlarini o‘rganib chiqqan. Bo‘g‘in bizning hayotimizda yuqori cho‘qqilarga ega. So‘zni to‘g‘ri talaffuz qilishda, to‘g‘ri yozishda, so‘zlarni to‘g‘ri o‘qishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Abdurahmonova "O‘zbek tili bo‘g‘in xususiyatlari va uning o‘zbekcha matnlarni o‘qiydigan dastur uchun ahamiyati". Toshkent. "Akademnashr". 2012
2. H. Jamolxonov "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" Toshkent-"Talqin"-2005.
3. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. *PEDAGOGS*, *46*(1), 63–66.
4. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
5. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).
6. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.

III SHO‘BA. O‘ZBEK ADABIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

SHOIR BO‘LIB EL ICHRA YURAMAN

Dunyo buyuk bir toqqa o‘xshaydi.
Ertaga borib nima deb qichqirsang,
aks-sadosi o‘zingga qaytadi.
J.Rumiy.

TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
dotsenti Parda Alimov
+998994155013

Annotatsiya: Bu she’rda Zulfiyaning ijodiy izlanishlari haqida fikr ketadi. Ko‘plab mashhur ijodkorlarning ijodiy mahoratlari haqida so‘z yuritiladi. Badiiy izlanish, badiiy fantaziyaga boy, badiiy to‘qimalarga asoslangan yangicha qurilgan yozuvchining ijod mahsuli hayot degan xulosaga keladi.

Kalit so‘zlar: ijod, izlanish, ijod mahsuloti, go‘zallik va adabiyoti. Asar va badiiy to‘qima, fantaziya tutqin ilhom.

Аннотатсия: В этом стихотворении отражены творческие поиски Зулфии. Обсуждаются творческие способности многих известных художников. Приходит к выводу, что творческий продукт художественного поиска, богатый художественной фантазией, основанный на художественных фактурах, является творческим продуктом жизни.

Ключевые слова: творчество, исследование, продукт творчества, красота и литература. Работа и художественная фактура, фантазия – это вдохновение.

Annotation: This poem reflects Zulfiya's creative pursuits. The creative skills of many famous artists are discussed. It comes to the conclusion that the creative product of artistic research, rich in artistic fantasy, based on artistic textures, is the creative product of life.

Key words: creativity, research, product of creativity, beauty and literature. The work and the artistic texture, the fantasy is the inspiration.

L.Tolstoyning shunday dohiyona fikri bor: san’atkor kishilarga ta’sir etishi bilan uning o‘zi ham izlangan, asari ham izlanishdan iborat bo‘lishi shart. Agar u hamma narsani topib, bilib olgan bo‘lsa, pand-nasihatga berilsa yoki atayin maynavozlik qilsa, u hech kimga ta’sir qilmaydi. Faqat izlagan taqdirdagina tomoshabin, tinglovchi, o‘quvchi u bilan izlanib, yakdil bo‘lib ketadi. Agar siz menga shu go‘zallikni ko‘rsatganingizda edi, sizdan xuddi mana shu oliy baxtga meni ham sazovor qilingiz deb tiz cho‘kkan bo‘lardim.

Demak, ijod izlanishdir. Izlanish zamirida adabiy tajribalarni, xususan, buyuk yozuvchilar ijodiy merosini o‘rganish yotadi. O‘z adabiy qobig‘iga o‘ralib qolgan

adibdan yaxshi ijodkor chiqmasligi tayin. Adabiyot go‘zallik izlaydi, go‘zallik biz uchun sevikli narsadir. Go‘zal go‘zal emas, suygan go‘zaldir. Biz yosh ijodkorlarga oddiy haqiqatni aytmoqchimiz. Ta’kidlaganidek, ijod mutassil izlanish, doimiy mutolaa, hayotni badiiy idrok etishdir.

Shu o‘rinda biz mashhurlarda ijod jarayoni qanday kechgani haqida fikr yuritmoqchimiz. L.Tolstoy dalada sinib yotgan qariqiz o‘tini ko‘rib qolganidan keyin qalbida chaqmoq chaqdi. Shundan sung Hojimurod haqida asar yozdi. A.Blok fikricha, ohang ilhom chapqinib keladi, qalb ham uning amriga bo‘ysunadi. A.S.Pushkin kuzda sokin bo‘lgani uchun barakali ijod qilgan.

Abdulla Qodiriy o‘z qahramonlarini o‘ldirib qo‘yganda yig‘lagan. Flober Emma Bovarning zahar ichirib o‘ldirish epizodi tasvirlaganda o‘zida zaharlanish alomatlarini sezib, vrachga murojaat qilgan.

F.Dostoevskiy pulga muhtojligi tufayli asarlarini shoshma-shosha va tez yozgan. O.Balzak esa o‘z qahramonlari bilan birga yashagan. A.Chexov yoshligida sershovqin kvartirasining deraza tokchasida asarlarini yozgan. M.Lermontov she’rlarini to‘g‘ri kelgan narsaga yozib ketavergan. A.Tolstoy ma’lum darajada badihago‘y bo‘lgan. G‘ofur G‘ulomda ham ana shunday xususiyat mavjud. Anderson esa o‘rmonda yurib ertak to‘qigan. Mosart fikricha, yagona orzu – ijod.

Yuqoridagi fikrlarimizni L.Tolstoyning quyidagi fikri bilan yakunlamoqchimiz “Yuragimdagi eng og‘ir jarohat bekor o‘tgan bir daqiqamdir”.

Oddiygina ijod manbai hayotdir degan fikrlarga o‘rganib qolganmiz. Badiiy ijod izlanish, badiiy fantaziyaga boy, badiiy to‘qimaga asoslangan, yangicha qurilgan yozuvchining ijod mahsuli bo‘lgan hayotdir.

Ijodni raqib, dard, uyqusiz tunlarni yoritgan nur, chiroq, tandagi zilzila, muqaddas, tanholik habibi, qalbning malhami, she’r dovi, chuldiroq qushlar, fikrlar lashkari, misoli o‘t-daryo, orom qo‘ynida tin olgan ayol deb “O, ijod” she’rida izohlaydi, shoira jo‘shib ijod haqida kuylaydi:

Madorsiz qo‘l bilan yoqaman chirog‘im,
Itqitgan qalamni axtarib topmayin,
Sipqorib yotaman ilhomning bulog‘in.

O, ijod olami!

Tun bo‘yi shu zayil

Sen bilan goh totuv,

Goh raqib,

Yana muk tushaman nozining mashqiga va lekin eng sinchkov munaqqid – erta bor. Shoira istaklarini ro‘yobga chiqaradi, she’r bo‘lib, el ichra yuraman men chanqoq, uyqudan ko‘rk topgan ayoldan o‘ktamroq.

She’rning qaynoq nafasi, shoiraning ichki ruhiyati quyidagi misralarda berilgan.

O, ijod alami,

Sen tushday qolasan tun ichra.

Men esam ijodning sodiqa hamdami

O‘zimni sezaman tongdan ham gulchehra.

Shu asno men she’rman,

Ushbu misralarda shoiraning ko‘ksidagi muddao yuzaga chiqadi:

O, ijod, dardginam!

Iztirob, oromim,

Taqdirim,

Shuhratim,

Toleim va konim!...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Badiiy ijod haqida. — T., O‘zadabiynashr, 1960
2. A. Fitrat. Adabiyot qoidalari. — T., O‘qituvchi, 1995.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. — T., O‘qituvchi, 1980. (1986).
4. Uemek R. Uorren. O. Teoriya literaturI. M ., 1978.

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIYOTIDA KINOYAVIY TASVIR VOSITALARINING YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASIDAGI O‘RNI

(Erkin A’zam ijodi misolida)

N.X.Ashurova *Toshkent farmatsevtika instituti*
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi
A.Sattorov *Toshkent tibbiyot akademiyasi 1 kurs talabasi*

Annotatsiya: Maqolada iste’dodli yozuvchi, dramaturg, ssenarist va publitsist Erkin A’zam asarlarida kinoyaviy tasvir vositalarining yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi o‘rni tahlilga tortilgan. Shuningdek, adib asarlarida milliy qadriyatlar, an’analarga sodiqlik ruhining yetakchiligi va bugungi kunda yoshlarni mana shu ruhda tarbiyalash masalalari yuzasidan so‘z yuritilgan.

Kalit so‘z: dramaturg, ssenarist, kinoya, ta’lim-tarbiya, qadriyat, an’ana, ma’naviyat, iste’dod, yuksalish.

Аннотатция: В статье анализируется роль средств сатирического образа в воспитании молодежи в творчестве талантливого писателя, драматурга, сценариста и публициста Эркина Азама. Также в произведениях писателя говорится о духовном лидерстве национальных ценностей, верности традициям, проблемах воспитания современной молодежи в этом духе.

Ключевые слова: драматург, сценарист, ирония, образование, ценности, традиции, духовность, талант, продвижение.

Abstract: The article analyzes the role of satirical imagery in educating young people in the works of a talented writer, playwright, screenwriter and publicist Erkin Azam. The writer's works also talk about the spiritual leadership of national values, loyalty to traditions, and the problems of educating modern youth in this spirit.

Keywords: playwright, screenwriter, irony, education, values, traditions, spirituality, talent, promotion.

Yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularning o‘zligini anglashida badiiy asarlar muhim ahamiyatga ega. Erkin A’zam hikoya va qissalari hayotiyligi, tasvir usuli va voqealari bilan kishini o‘ziga jalb etadi. Ma’lumki, badiiy asarda voqelik turli usullarda chizib beriladi. Shunday usullardan biri kinoyadir.

Kinoya insonni o‘z kamchiliklarini anglab, o‘z-o‘zini taftish qilishga undaydi. Adabiyotshunoslik ilmida ham bu tushuncha inkor etish bilan bog‘liq usullardan biri sanaladi. Badiiy asarlarda biror shaxs, narsa yoxud hodisa ustidan yashirin kulish kinoya sanaladi. O‘zbek adabiyoti xazinasiga xalq og‘zaki ijodi orqali kirib kelgan kinoya uslubi XX asrda Abdulla Qodiriy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza, G‘ofur G‘ulom, Abdulla Qahhor asarlarida yangicha ko‘rinish kasb etgan. Iste’dodli

yozuvchi, dramaturg, ssenarist va publitsist Erkin A'zam asarlarining o'qimishli bo'lishida ulardagi kinoya muayyan o'rin tutadi. Kinoya hajviy asarlarga xos xususiyat sanalsa-da, 80-90 yillar nasrida u ijtimoiy-psixologik unsur sifatida namoyon bo'ldi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "kinoya" so'zi: "Mas'haralash, kulish uchun aytilgan pardali gap, qochirim, iztehzo, piching, kesatiq..." deb tavsiflanadi [6].

Bundan ayon bo'ladiki, kinoya ma'qullab yoki rozi bo'lib rad etish, istehzoli kulishdir. Kinoyada so'z teskari, hatto, salbiy mazmun kasb etishi mumkin. Kinoya hosil qilishda intonatsiyaning roli muhimdir.

Yozuvchining badiiy mahorati eng avvalo, uning asarlarida tez-tez va o'rnida ko'zga tashlanadigan yengil kinoya, hajv bilan xarakterlanadi. Kinoya asarga hayotbaxsh ruh berishga, kitobxonga badiiy-estetik zavq bag'ishlashga ayni paytda uni tarbiyalashga, shuningdek, hayot qusurlari haqida ob'ektiv so'zlashishga imkon beradigan asarga milliy ruh bag'ishlaydigan usullardandir. Erkin A'zam ijodida kinoya turli ko'rinishlarda namoyon bo'lgan ba'zida muallifning o'z tilidan keltirilgan so'z ibora hamda maqol va matallarda, boshqa paytlarda esa persanajlarning o'zaro muomila – munosabatlarida, yana ba'zan ularning turq tarovati, hatti-harakatlarida, yana ayrim paytlarda esa qahramonlarning atroflaridagi boshqa kimsalarga bergan baholarida zohir bo'ladi. Adib ijodida yorqin nomoyon bo'luvchi badiiy kinoyaviy uslubning ayrim qirralariga to'xtalish orqali fikrlarimizni dalillasak.

Dastlab kinoyani adib asarlaridagi poetik manzara, tasvirlarida ko'rish mumkin. Masalan, "Avtobusda odam tirband chiqish ham tushish ham bir necha tugmadan ajralish degan gap. Yuz-qo'llardagi ter yig'ilsa, bir jom bemalol to'ladi" [3:218].

Ikkinchidan adib realistik xaraker yaratishda ushbu usul imkoniyatlaridan mohirona foydalanadi. Masalan, "Otoyining tug'ilgan yili" asari bosh qahramoni Asqar Shodibek o'g'li tilidan hikoya qilinganligi bois, kinoyali nutq tarzi uning shartaki xarakteriga mos tushgan. U jamiyatdagi qusurlar yoki atrofdagilarning tashqi va ichki dunyosidagi murakkabliklar, ochiqrog'i xudbinliklar ustidan ochiq kuladi ammo uning kulgisi o'ta o'tkir satirik emas, balki yosh talaba xarakteriga mos ravish yengil yumaristik mohiyat kasb etadi, masalan, u qizlar haqida gapirar ekan, shunday deydi: "Ota-onalari hisobiga yashaydigan boqibeg'am, sip-silliq, olifta yigitchalarni

yoqtiradigan qizginalar! Bir karashdayoq narxingizni bexato bichib beradi: “Yursa arziydimi? Tuflisining tagcharmi baland – importniy, nichevo; ko‘ylagi – chidasa bo‘ladi; fu, shuyam shim ekanmi, besh so‘m ham turmasa kerak!” [4:16].

Erkin A’zam qaysar va tanti, samimiy va andishali odamlar obrazini ularning o‘z so‘zi orqali gavdalantiradi. “Tovushini ne maqomga solmasin, natija o‘sha-o‘sha baayni chala puflangan surnay” yoki “Har qadamda. Bozor bu. Pakana ana shunday bozorning molu xaridorini ko‘p ko‘rgan”, “... aspirantlar tipirchilab xizmatda edi. Mehmondan mezbon ko‘p” singari jumla va iboralar aynan shunday kishilar tilida qo‘llanishiga o‘quvchi ishonadi.

Aslida asar sarlavhasining o‘zidayoq kinoya bormasmi?. “Pakananing oshiq ko‘ngli”... Inson tashqi jihatdan qanday yaratilishidan qat’iy nazar uning ko‘ngli bor. Bu ko‘ngilda xayrat, muhabbat, cheksiz tuyg‘ular bor. Aslida mana shular emasmi insonning baxti, boyligi. Biroq yozuvchi “E, bu bir boshqa dunyo ekan. Ko‘ngil – podsho. Ko‘ngil – xazina. Ko‘ngil – balo... Ko‘ngilni ko‘rgazmaga qo‘yib bo‘lmasa. Qo‘yganda ham ko‘rgan xaridor avval, egasiga nazar soladi: bo‘y-basti qanday, aft-angori? ”, - deb kinoya qiladi [5:4].

Bu bilan u qahramonni yerga urmoqchi emas, aslida gap bo‘yda ham emas, mo‘yda ham emas, gap ko‘ngilda ekanligini uqtirmoqchi, ta’kidlamoqchi. Biroq asar qahramoni ayni mana shu haqiqatni tushunguncha boshidan ko‘p sarguzashtlarni kechiradi. Bo‘yini, sochini o‘stirishga harakat qiladi. Bu harakatlar asarda shunday tasvirlanadiki, hayotimizda “pakanaga” o‘xshagan, qanchadan-qancha taqdirlar borligini, biz ularni ba’zan anglab, ba’zan e’tibordan chetda qoldirishimizni his etamiz.

Adibning “Yozuvchi”, “Aralashqo‘rg‘on” hikoyalarida ham kinoyaviy uslub vositalaridan mahorat bilan foydalanadi. “Yozuvchi” hikoyasida kiritilgan qahramonlarning qismati, dardi-dunyosi, turmush muammolari ustida bahs etadi. Asar zamondoshlarimiz e’tiboriga tushgan, ijobiy ma’noda shov-shuvlarga sabab bo‘lgan asarlar sarasiga kiradi. Hikoyada voqea-hodisalarni yoritishda kinoya asosiy vosita sanaladi. “Yozuvchi” hikoyasini o‘qir ekansiz, unda hayotimiz davomida ro‘y bergan va berayotgan voqea – hodisalar shunday chiziladiki, uni rad etish mumkin emas. Ularning barchasi ko‘z-o‘ngimizda, atrofimizda bo‘layotgan voqealardir. Adib ularga

badiiy bezak berib, qahramonlarning o‘y-kechinmalarini zo‘r mahorat bilan chizadi hamda xalqona ohangda yo‘g‘rilgan holda tasvirlaydi. Shu bilan bir qatorda adibning dilbar lirik talqinlari, latif yumori, kinoya-kesatiqlari esa avvalgilariga ko‘ra kengroq, teronroq badiiy, ijtimoiy-falsafiy ko‘lam kasb etadi.

Hikoyadagi “Yozuvchi” qahramoni o‘rtamiyona qalamkash bo‘lsa-da, adabiyot olamining sodiq, jafokash, halol, andishali fuqarosi edi. Asar qahramoni Domla “o‘lgudek tortinchoq, xokisorligi tufayli ko‘zga ko‘rinmaydi. Butun umri o‘z asarlarini, o‘zligini namoyon etolmay, o‘zgalar xizmati, o‘zgalarni yuzaga chiqarish bilan o‘tadi...” deya ta’riflanadi [2:17-18].

Mana shunday adabiyotning jafokash, mehnatsevar insonlari mehnati evaziga nom taratgan, o‘zi yozuvchi yoki shoir maqomiga ega bo‘lsada adabiyotning sir-asrorlari, olamidan umuman begona, hatto yetarlicha tushunib yetmagan mansabparast, shuhratparast kimsalar ustidan ochiq kinoya qilinadi.

“Yopiray, yozuvchiligu kitob chiqarib nom taratishga ishqibozlik buncha ko‘p ekan! Lekin, ayonki, adib atalmoq uchun avvalo kitob bitmoq, kitob chiqarmoq uchun eng avvalo uni yozmoq lozim bo‘ladi. Masalaning shu tomoni ishkal edi. Talabgorlar orasida hali yozilmagan kitobini ko‘rish orzusida yurganlari ham topilardi. Rais rahmatli baharnav insofliroq ekan – o‘z qo‘li bilan ul-bul qoralardi. Bularga endi boshdan-adoq yozib berish kerak. Ajab zamon bo‘ldi-da: olimi chetda qolib, zolimlari olimlik da’vosi bilan chiqa boshladi... bundaylarning ba’zisi daftar-qalamini momosidan qolgan sandiqqa tashlab, tirikchilik izmiga tushub ketadi. Ammo shu orada bir toifaga – uquvi haminqadar bo‘lsa-da, qo‘li qichib, yozolmasdan turolmaydigan chaqqonlarga xudo berdi. Ular “ob-havoga mos”, bozorbop asarlarini qatorlashtirib tashlayveradi – haligi qo‘lidan ish keladiganlar turli sabab bilan chetga chiqib ketgan-da; bos, davring keldi, bosib qol” [2:17-18].

Mustaqillik yozuvchi va shoirlarga umuman, ijod ahliga erkinlik, davrni to‘g‘ri talqin qilish imkonini berdi. “Yozuvchi” hikoyasidagi “... olimi chetda qolib, zolimlari olimlik da’vosi bilan chiqa boshladi... Bundaylarning ba’zisi daftar-qalamini momosidan qolgan sandiqqa tashlab, tirikchilik izmiga tushub ketadi” yoki “ob-havoga mos”, bozorbop asarlarini qatorlashtirib tashlayveradi”, “bos, davring keldi,

bosib qol” kabi o‘rinlarda o‘zi asar yozolmasa-da, yozuvchilikni da’vo qiluvchilarga kinoya qiladi. Asarning voqealar tizimida shunga amin bo‘lasizki, o‘zgalar mehnati evaziga qurilgan, barpo etilgan umuman yaratilgan sohta obro‘-e’tibor, martaba, mansab oxir oqibat sarobga aylanishi, hammasi bekor ekanligi ta’kidlanib o‘tiladi. Shuningdek, o‘z mehnati evaziga barpo etilgan har qanday ijod mahsuli umrboqiy bo‘lishiga ishora etiladi. Bu kabi asarlardan ko‘rish mumkinki yoshlar o‘rtasida o‘z iste’dodiga suyangan holda o‘zi sevib bajaradigan kasb-xunar egallashlari, har bir ishni o‘z mehnati evaziga qurish lozimligi va bu insonga baxt, hurramlik olib kelishiga ishonch bildiradi. Aslida ham xuddi shunday. Zero, har bir qilingan mehnat zamirida baxt, yuksaklik, insonda o‘zgacha ishonch paydo bo‘ladi. Yozuvchi bu asari orqali keyingi paytlarda hatto ijod olamida ham o‘zgalar mehnati evaziga yozuvchilik, shoirlik umuman san’at olamiga daxldorlik xissi yuqorilab ketayotganiga qayg‘urib, achinib bayon etadi. Har bir zamon va makonda inson iste’dodi va o‘z mehnati evaziga yaratilgan san’at asarlari umrboqiylikka daxl eta olishini isbotlab beradi. Bundan esa yoshlarni ogoh etadi, o‘ziga ishonchni yo‘qotmaslikka chaqiradi.

Adib yozuvchi (domla)obrazini yaratish asnosida turli toifa insonlar xarakterlarini aks ettirishga ham intiladi. “Aralashqo‘rg‘on” hikoyasida mana shunday qahramonlar talaygina. Hikoyada badavlat boy, do‘kondor, fan nomzodi, dotsent, muxbir, oqsoqol, shofyor hamda musofir obrazi chiziladi. Ma’lumki, yozuvchi qanday obraz yaratishidan qat’i nazar, ularning hayoti bilan yashashi, nafas olishi, xarakterini chuqur bilishi va o‘y-xayollari bilan tanish bo‘lishi lozim. Mana shu jihatni yaxshi anglagan Erkin A’zam hikoyasi zo‘r mahorat bilan yozilganligiga va asar qahramonlarining xarakterini chuqur o‘rganilganligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Asarning nomidan ham bilish mumkinki, turli obrazlarni tasvirlanganligi bois ham “Aralashqo‘rg‘on” deb nom beradi. Asarda nafaqat turli insonlarni yoritish asnosida balki voqea-hodisalarni chizishda kinoyaviy uslub vositalaridan keng foydalanilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Asarda ibora va kinoyaviy uslub vositalarini o‘z o‘rnida qo‘llay olishi, keltirishi orqali o‘quvchida kulguli holatlarni yuzaga chiqarishi bilan bir qatorda

qahramonlarning xarakterlari orqali yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan g‘oyalar o‘z ifodasini topgan.

“... Ha-a, nimasini aytasiz, zo‘r odam, oliyjanob! Faqat shu kuchugi bezor qildi-da, it egasiga o‘xshamas ekan. Iya, oshini yeganingizdan keyin o‘chog‘ining tutiniga chidaysiz-da, bratan! Chidaymiz, chidaymiz, quloqlar ham o‘rganib qoldi o‘zi. Shugina bir zum akillashdan to‘xtasa, nimasinidir yo‘qotganga o‘xshaydi odam. Bu ham mahallaning fayzi-da” [1:36-37].

Yozuvchi ta’biri bilan aytganda asar voqealari osmondan olib yozilmagan, ul-bul turtki bo‘lgan. Adib ijodida kinoyaning o‘z o‘rni borligi asarni o‘qish davomida yanada teronroq anglashiladi. Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, adib o‘zini azoblagan bugungi kun muammolariga munosabatini achchiq kinoya, piching, qochirimlarga o‘rab ifodalaydi. Bu esa yozuvchining hayotimizdagi voqea-hodisalarga befarq emasligidan dalolatdir. “Jannat o‘zi qaydadir?”, “Suv yoqalab”, “Zabarjad” asarlarida ham adibning hayotimizdagi nohaqliklardan, kishilarning qon-qoniga singib ketgan illatlardan noroziligi, bezovtaligi sezilib turadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, kinoyaviy uslub vositasida inson o‘z kamchiliklarini to‘g‘irlash, bildirilgan fikrlarga to‘g‘ri yondoshgan holda xulosa chiqarish hamda kulguli vaziyatlarni yuzaga chiqarish asosiy omillardan biri sanaladi. Adib asarlarida kinoyaviy tasvir vositalari orqali yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ularni milliy ruhda tarbiyalash masalalari yetakchilik qilishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, yoshlarni milliy qadriyatlarimiz, an’analarimiz ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada shakllantirish masalalari yetakchilik qiladi. Har bir millatning ertasi milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalanib, kamolga yetar ekan shu millat taraqqiyotiga zamin yaratilishi muqarrardir. Shunday ekan, yoshlarda badiiy adabiyot orqali ularni ma’nan kamolga yetkazish, shu yurt o‘g‘loni, farzandi bo‘lishligidan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirilar ekan bu millatning ertasiga bo‘lgan inonchi yanada ortadi. Bunda esa adib Erkin A’zam asarlarining o‘z o‘rni bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аъзам Э. Аралашқўрғон. “Жаннат ўзи қайдадир”., “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси.– Тошкент. 2007, 36-37 бетлар.

2. Аъзам Э. Ёзувчи. “Жаннат ўзи қайдадир”., “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси.– Тошкент. 2007, 17-18 бетлар.

3. Аъзам Э.Жиян. “Байрамдан бошқа кунлар”. Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти., – Тошкент. 1988., 218-бет

4. Аъзам Э.Отойининг туғилган йили. “Кечикаётган одам”., “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси.– Тошкент. 2002.,16-бет

5. Аъзам Э. Пакананинг ошиқ кўнгли. “Пакананинг ошиқ кўнгли”. – Тошкент “Маънавият”. 2001., 4-бет)

6. Маъруфов З.М. таҳрири остида, Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 том. – Москва. 1981.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ СТИЛЯ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Ибрагимова Мохира Муратовна
Докторант 1 курса Ферганского Государственного Университета

Термин стиль используется в разных науках – лингвистике, искусствознании, эстетике, литературоведении – в разных значениях, которые, к тому же, исторически изменчивы. В течение XX века, вплоть до современности, термин приобретал разные оттенки значений, сохраняя неизменным лишь признак своеобразия, непохожести, отличительной черты. Так сформировалось чисто лингвистическое понимание стиля как функциональной разновидности речи. Еще раньше была попытка совместить литературоведческое и лингвистическое понимание стиля применительно к литературе как искусству слова. Наконец, в работах отечественных литературоведов – В. В. Виноградова, А. Н. Соколова, Г. Н. Поспелова в настоящее время сложилось более точное литературоведческое понимание стиля как эстетического единства всех сторон и элементов художественной формы, обладающее определённой оригинальностью и выражающее содержание [1]

В литературно-художественных произведениях писатели используют многообразие языковых средств, а их речь лишена стилистической однородности. В. В. Виноградов характеризовал литературный стиль как особенный, включающий в себя все существующие стили речи: “Понятие стиля в применении к языку художественной литературы наполняется иным содержанием, чем, например, в отношении стилей делового или канцелярского и даже стилей публицистического и научного. Язык национальной художественной литературы не вполне соотносителен с другими стилями, типами или разновидностями книжно-литературной и народно-разговорной речи. Он использует их, включает их в себя, но в своеобразных комбинациях и в функционально преобразованном виде” [1, с. 22]. Таким образом, художественный стиль выражается через эстетическое единство произведения. Стиль несёт в себе картину мира писателя – печать целого, поскольку содержательная целостность стиля и все элементы формы произведения

подчинены художественной закономерности: заглавие, композиция, предметы изображения, психологизм образности, речь героев и повествователя и т. д.

Можно дать следующее самое общее ***определение стиля***: это эстетическое единство всех сторон и элементов художественной формы, обладающее определенной оригинальностью и выражающее некое содержание. Стиль в таком понимании противопоставлен бесстильности (эстетической невыразительности), а с другой – эпигонской стилизации или эклектике (неумению найти свой стиль), то есть простому и не открывающему нового содержания использованию уже найденных приемов.

Важное свойство стиля состоит в его способности раствориться (или рассредоточится) в каждом фрагменте текста и с наибольшей отчётливостью проявиться в стилевой доминанте писателя. А. Н. Соколов к числу качественных характеристик стиля писателя причисляет субъективность и объективность, изобразительность и выразительность (экспрессивность), соотношение общего и единичного в изображении объекта, тип художественной условности, монументальность и камерность. В теории литературы данная типология категорий представляет собою эмоционально насыщенные точки произведения, по которым можно исследовать аспекты художественной закономерности, неповторимость авторской исполнительной манеры письма как эстетического явления в литературе. “Подобно другим эстетическим категориям, как и категориям науки, философии, стилевые категории объективны. Они основываются на свойствах самого искусства, на тех его особенностях, которые складываются в самом художественном творчестве, в процессе исторического развития искусства. Эти свойства и особенности объективно существующего стиля, осмысляемые обобщающей деятельностью человеческого ума, и отражаются в стилевых категориях”[6, с. 100].

Так, в “Войне и мире” Л. Толстого главным стилевым принципом, закономерностью стиля становится контраст, отчетливое и резкое противопоставление, которое реализуется в каждой “клеточке” произведения. Заявленный уже в заглавии, контраст затем выступает организующим

принципом композиции изображенного мира и речевой формы. Композиционно этот принцип воплощается в постоянной парности образов: в противопоставлении войны и мира, русских и французов, Наташи и Сони, Наташи и Элен, Платона Каратаева и Тихона Щербатого, Кутузова и Наполеона, Пьера и Андрея, Москвы и Петербурга, естественного и искусственного, внешнего и внутреннего и т.п.

Поскольку стиль является не элементом, а свойством художественной формы, он не локализован, а как бы разлит во всей структуре формы. Поэтому организующий принцип стиля обнаруживается практически в любом фрагменте текста, каждая текстовая “точка” несет на себе отпечаток целого. Благодаря этому стиль опознаваем по отдельному фрагменту: искушенному читателю достаточно прочитать небольшой отрывок, чтобы с уверенностью назвать автора.

В современном литературоведении высказывается мысль, что в особом стиле может быть выдержана часть произведения. В XX в. возник новый стиль стилистической общности – *стиль элемента произведения.* Некоторые произведения строятся по принципу коллажа (мозаики). Но, даже если произведение представляет собой коллаж, его части входят в новое художественное единство, подчиняясь, таким образом, новым, характерным именно для данного произведения содержательно-стилевым закономерностям.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Виноградов В. В. Избранные труды. О языке художественной прозы. – Москва, 1980; Соколов А. Н. Теория стилей. – Москва, 1968; Поспелов Г. Н. Проблемы литературного стиля. − Москва, 1970; Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А. Н. Николюкина; Институт научной информации по общественным наукам РАН. – Москва: НПК Интелвак, 2001 и др.
2. Корман Б. О. Изучение текста художественного произведения. – Ижевск, 1972. – 113 с.
3. Литературная энциклопедия терминов и понятий. – М., 2001.
4. Литературный энциклопедический словарь. – М., 1987.
5. Поспелов, Г.Н. Теория литературы: учебник для ун-тов / Г.Н. Поспелов. – М., 1978.
6. Соколов А. Н. Теория стиля / А. Н. Соколов. – Москва, 1968. – 223 с.

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ADABIY PARALLEL JANRINING AHAMIYATI

Teshayeva Gulnoza
Buxoro davlat universiteti
1-boosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. O‘zbek adabiy tanqidchiligi janrlar tizimida mustaqil janr hisoblangan adabiy parallelning o‘ziga xos xususiyatlarini ochish, janr tabiatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, uning genezisini aniqlash, badiiyati va kompozitsion xususiyatlarini ilmiy asosda yoritib berish bugungi kunda tanqidchilik oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida yaratilgan adabiy parallellar tahlil qilingan, ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: adabiy parallel, janriy xususiyatlar, qiyosiy-tipologik metod, bolalar adabiyoti, tipologiya, mushtarakliklar.

Аннотация. Раскрытие специфики литературной параллели, являющейся самостоятельным жанром в системе жанров узбекской литературной критики, научно-теоретическое исследование природы жанра, выявление его генезиса, научное осветление художественных и композиционных особенностей является одной из актуальных задач, стоящих сегодня перед критикой. В данной статье анализируются литературные параллели, созданные в узбекском литературоведении, раскрываются их особенности.

Ключевые слова: литературная параллель, жанровые особенности, сравнительно-типологический метод, детская литература, типология, общность.

Annotation. Revealing the specifics of the literary parallel, which is an independent genre in the system of genres of Uzbek literary criticism, scientific and theoretical study of the genre’s nature, identification of its genesis, and scientific clarification of artistic and compositional features is one of the urgent tasks facing criticism today. This article analyzes the literary parallels created in Uzbek literary studies and reveals their features.

Keywords: literary parallel, genre features, comparative typological method, children’s literature, typology, similarities.

Adabiy parallel adabiyotshunoslik va tanqidchilikning alohida va o‘z o‘rniga ega janri bo‘lib, uning maqsadi adabiyot maydonidagi ikki yoki undan ortiq asar, adib hayoti va ijodi, adabiyotshunoslikning nazariy muammolari bilan bog‘liq masalalarni qiyosan tahlil qilishdan iborat. Mazkur janr o‘rganilayotgan obyektlarning mushtarakligini ko‘rsatish, tafovutli jihatlarini qiyoslash yoki mohiyatiga ko‘ra bir-birini to‘ldiradigan hodisalarni yonma-yon tahlil qilish kabi vazifalarni bajaradi.

O‘zbek adabiyotshunosligida turli mavzularda juda ko‘p adabiy parallelar yaratilgan. Marhabo Qo‘chqorovaning “Sudxo‘rning o‘limi” va “Gobsek” qissalarida tipologik mushtarakliklar” [2] maqolasida fransuz yozuvchisi Onore de Balzak va Sadriddin Ayniyning asarlari o‘rtasidagi adabiy parallel tahlil qilinadi. Maqolada muallif “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi bilan “Gobsek” qissalarini qiyosiy-tipologik talqin va tadqiq etigan, natijada bir qator qiziqarli kuzatish va ilmiy xulosalarga kelgan. Adabiy parallelning kirish qismida S.Ayniy va O. de Balzak asarlarda tasvirlangan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, tarixiy-siyosiy muammolar tabiatiga ko‘ra bir-biriga yaqinligi aytiladi. Bundan tashqari muallif qiyoslanayotgan qissalar haqida M. Qo‘shjonov, N.Karimov kabi olimlarning fikrlarini keltirib o‘tadi. M.Qo‘chqorova qissalardagi qiyosan tahlil qilar ekan, ular o‘rtasida bir nechta o‘xshashliklarni topadi. Xususan, mazkur mushtarakliklar turli bo‘limlarga bo‘lingan holda tahlil qilinadi:

1. Qissalardagi bosh qahramonlar ismlarining o‘zaro yaqin ma’noni anglatishi: “Gobsek” – fransuzcha “Ochofat” ma’nosini beradi. “Ishkamba” “hayvonlarning qorni” ma’nosini bildiradi. Boshqacha aytganda, bu so‘z “yutish, yeyish, ichish, hazm qilish” degan ma’nolarga ega. Demak, bu nomlardan har ikki obraz xarakteridagi “ochko‘zlik, to‘ymaslik” kabi salbiy mushtarak jihatlarni yanada bo‘rttirish vositasi sifatida foydalanilgan.
2. Har ikkala qahramon ham mol-dunyo, davlat to‘plashga mukkasidan ketgan isnonlardir.
3. Har ikki qahramonlarning ham bolaligi qiyinchilikda, yo‘qsillikda o‘tgan.

Yuqoridagi mushtarakliklarga tadqiqotchi quyidagilarni ham qo‘shimcha qiladi : “Har ikki qissaning badiiy kompozitsiyasida qator mushtarakliklar ko‘zga tashlanadi. Har ikki asarda voqealar hikoyachi-qahramon tilidan bayon etiladi; Gobsek va Qori Ishkambaning kasbi bir – sudxo‘rligida mushtarakliklar kuzatiladi. Har ikkisi ochko‘z, har ikkisi baxtsiz va muhtojlarni ajdarho kabi yutib yuborishga tayyor. Gobsek ham, Qori Ishkamba ham to‘plagan mol-dunyosini hech kimga ishonmaydi. Har ikkovi tinmay veksellar sotib oladi. Qissalarda sudxo‘r bilan muhtojlar, foizga qarz oluvchilar

o‘rtasida turfa intrigali voqealar keskin dramatizm bilan hikoya etiladi.. Bu ikki qissa o‘rtasidagi qator o‘xshashliklar kishini hayratlantiradi. Demak, tahlillarimiz buyuk, iste’dodli ijodkorlarning dunyoni va voqelikni badiiy taftish etishdagi mushtarak didlari, ijodiy fantaziyasi, badiiy tafakkur darajasi bir xilda harakatga kelgan degan xulosaga olib keladi”[1]. Xulosa qilib aytganda, Marhabo Qo‘chqorovaning ushbu tadqiqoti adabiy parallelning barcha janriy talablariga javob beradi. Tadqiqotchi fikrlarini ilmiy asosda, izchil va lo‘nda holda bayon etgan, bu esa tadqiqotning ilmiy qimmati va qiziqarliligini oshirishga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyoti o‘z mavzusi, mazmun va shakl rang-barangligiga ega bo‘lgan adabiyot hisoblanadi. Bolalarga bag‘ishlangan asarlar yaratish bir qadar qiyinchiliklarga ega. Chunki bola dunyosi, uning o‘y-fikrlari, dunyoqarashiga mos asar yaratish uchun yozuvchidan bola kabi o‘ylashni talab etadi. Bolalarga bag‘ishlangan asarlarda uning fikrlash tarzi, ichki dunyosi, ruhiyat tasviridan tortib bola xayolotining mahsuli bo‘lgan turli sehrli va fantastik voqealar tafsilotigacha beriladi. Jahon va o‘zbek adabiyotida mana shunday ko‘plab asarlar yaratilgan. Tadqiqotchi Ruxsora To‘laboyevaning “Uchqur xayol mevalari” [2] deb nomlangan maqolasida ingliz adibasi Joan Roulingning “Garri Potter” turkumidagi romanlar va o‘zbek bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sehrli qalpoqcha” romanlaridagi o‘xshash va farqli jihatlarni tahlil qilib, pirovardida fantastik-detektiv romanning janriy xususiyatini ochib beradi. Maqolani shartli ravishda 4 qismga bo‘lish mumkin. Kirish qismida tadqiqotchi bolalar adabiyoti, xususan, fantastik romanlarga xos xususiyatlarni sanab o‘tadi. Maqolaning asosiy qismida ikki romanning qiyosiy tahlili keltiriladi. Fantastik romanlarga xos bo‘lgan boyqush, sehrli qalpoq, sehrli chakmon, sehrli tayoq singari detallar, bayahbat odamlar, turli sehrli hayvonlar mavjudki, ularning ildizi xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Ikkala romanda ham shunday detallardan unumli foydalanilgan. Ammo romanlarning o‘ziga xos, tafovutli jihatlari ham borki, bu yozuvchilarning original uslubi, milliylik bilan bog‘liq. Romanlarning uslubi ham bir-biridan farq qiladi. X.To‘xtaboyev fantastik detallardan faqat badiiy vosita sifatida foydalansa, J.Roulingda fantastik o‘rinlar sehr-jodu, afsun va g‘ayritabiiylikni bo‘rttirishga qaratilgan. O‘zbek yozuvchisi romanida hayot haqiqati sehrli hodisalarga

uyg‘un holda tasvirlanadi. Bu esa mazkur janrning realizmni inkor qilmasligini ko‘rsatadi. Xulosadan oldingi qismda jahonning boshqa yozuvchilari romanlarining xususiyatlari keltiriladi. Demak, adabiy parallel janrida nafaqat kattalar adabiyoti haqida, balki bolalarga bag‘ishlangan asarlar haqida ham tadqiqotlar yaratish mumkin ekan. Bu ham janrning imkoniyatlaridan biridir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek adabiyotshunosligida juda ko‘p adabiy parallelar yaratilgan. Adabiy parallelda farqli va o‘xshash xususiyatlarni tadqiq qilish, xulosa chiqarish, umumlashtirish, nuqtayi nazarni aniq va ishonchli dalillar asosida yoritib berish muhim ahamiyatga ega. Yaratilayotgan har bir adabiy parallelda qiyoslanuvchi obyektlardagi qiyoslash mantiqiy jihatdan asosga ega bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, asosli, mulohaza va muhokamalari ilmiy-nazariy jihatdan pishiq bo‘lishi adabiy parallelning ilmiy-tanqidiy qiymatini oshiradi. Demak, parallel ham adabiyot rivojida boshqa janrlar singari muhim o‘rin tutadi, uni keng tadqiq etish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. To‘laboyeva R. Uchqur xayol mevalari// Jahon adabiyoti, 2011, 6-son.
2. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/urta-osiyo-xalqlarining-balzagi/
3. Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқидчилиги жанрлари. – Тошкент: Фан, 2008.
4. Егоров Б. О мастерстве литературной критики: жанры, композиция, стиль. – Ленинград : Сов. Писатель, Ленинградское отд-ние, 1980.

OKSYUMARONNING BADIIY ADABIYOTDAGI O‘RNI

TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchilari
Toshpo‘latov Zayniddin, Toshqulova Zebiniso
TerDPI Tillar fakulteti talabasi
Qudratova Xosila

Annotatsiya. Ushbu maqolada oksyumaron haqida ma’lumot beriladi. Uning adabiyotdagi o‘rni va nasr va nazmda foydalanish, uning boshqa tasviriy ifodalardan farqi ochib berilgan. Oksumaronning jahon hamda o‘zbek she’riyatida ishlatilishi, badiiy asar qiymatini oshirishdagi o‘rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Oksyumaron, tasviriy ifoda, nasr va nazm, adabiyot, zid ma’noli so‘zlar.

Аннотатсия: В этой статье представлена информация об оксюмороне. Выявляются его место в литературе и употребление в прозе и поэзии, его отличие от других образных выражений. Освещено использование оксумарона в мировой и узбекской поэзии, его роль в повышении ценности художественного произведения.

Ключевые слова: оксюморон, образное выражение, проза и поэзия, литература, слова с противоположным значением.

Abstract: This article provides information about oxymoron. Its place in literature and its use in prose and poetry, its difference from other figurative expressions are revealed. The use of oksumaron in world and Uzbek poetry, its role in increasing the value of an artistic work is highlighted.

Key words: oxymoron, figurative expression, prose and poetry, literature, words with opposite meanings.

She’riyatdagi eng kam uchrovchi, lekin o‘quvchini o‘yga toldirivchi, uni fikrlashga majbur qiluvchi, asarning badiiy qiymatiga husn bag‘ishlovchi oksyumorondir. Oksyumoron antitezaning ko‘rinishiga o‘xshaydi. Bularni farqlash lozim. Antitezaning o‘ziga xos shunday bir ko‘rinishi borki, unda “ikkita so‘z birikma holida bo‘ladi va zid ma’noli so‘zlardan ularning har birining ma’nosi saqlab qolingan yangi bir kontekstual ma’no kelib chiqadi” [Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. –Samarqand. 1994.47-bet.].

Turli so‘z turkumlaridan yuzaga keluvchi bu stilistik figura tilshunoslikda oksyumoron deb nomlanadi. Bugungi kunda tilshunoslik ilmida ziddiyat hodisasiga nisbatan “kontrast”, “antonimiya”, “antiteza”, “antonim” singari atamalar keng qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, ularda harakat, holat va belgilar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish mumkin. Tilshunoslik nuqtai nazaridan mazkur hodisaning turli lingvistik

sathlarga oid birliklar vositasida namoyon bo‘lishi tadqiq etilsa, adabiyotda keng ma’noda kontrastga oid tushunchalarni umumlashtirgan hodisa sifatida tushiniladi. U “Adabiyotda inson harakterini, narsa va hodisalarning sifat va xususiyatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib tasvirlash usuli” sifatida talqin etilsa [Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 165-226 б.] uslubiyatda, ifodada so‘zlarning uslubiy bo‘yoqlari o‘zaro mos kelmay qolishiga asoslangan, umumiy qonuniyatlarga ko‘ra o‘zaro bog‘liq bo‘lgan muhim birliklar sifatida qaraladi. [Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 165-226 б.]

Kontrast doirasida qaraluvchi oksyumoron yunoncha so‘z bo‘lib, zakiy, nodon degan ma’noni bildiradi. U leksik birliklarning ma’nosiga ko‘ra zid birikishini ifodalaydi va natijada yangi ma’noli tushuncha hosil bo‘ladi. Oksyumoronning asosiy vazifasi muallifning tasvirlanayotgan hodisaga bo‘lgan shaxsiy munosabatini ifodalashdir [Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – Л.: Просвещение, 1979. – 123 с].

Oksyumoron kontrast doirasida qaraluvchi boshqa hodisalardan farqli ravishda mazmunan zid bo‘lgan komponentlarni biriktirgan holda yangi ma’no ifodalaydi. Ana shu xususiyatidan kelib chiqib u adabiyotshunoslikda “badiiy ko‘chim turlaridan biri bo‘lib, tarkibidagi qarama-qarshi ma’noli tushunchalar yangi bir kutilmagan ma’noni keltirib chiqaradi”. Oksyumorondagi mana shu xususiyat kuchli obrazlilik kasb etadi.

Bundan tashqari oksyumaron badiiy adabiyot yoki jurnalistikada kutilmagan va yorqin effekt yaratishga imkon beradi. Ko‘pincha oksyumoon komik yoki satirik muhit yaratish uchun ishlatiladi. Badiiy adabiyotdan olingan misollar bu uslubiy qurilmaning naqadar buyuk ekanligini ifodalaydi.

Oksyumaron jahon adabiyotida ham o‘z o‘rnini topgan va ularga biz ko‘p duch kelishimiz mumkin. Bularni asosan asarlaning sarlavhasidayoq ko‘rishingiz mumkin bo‘ladi.

“Issiq qor” (Yu Bondarev)

“Tirik murda” (A. Yashil)

“O‘lik jonlar” (N. Gogol)

J.Oruellning mashhur “1984” romanidan iqtibos keltirib, oksyumaronning namunasini keltirib o‘tamiz: “Urush-tinchlik. Ozodlik qullikdir” bu yerda disoptik holat shoirning bir-biriga qarama-qarshi so‘zlarni birgalikga qo‘llashi bilan, yozuvchining g‘oyasi to‘g‘ri va esda qolarli tarzda ochish imkonini bergan. Shuningdek, bunday badiiy texnikaning namunasi mashhur lotin maqolida xizmat qilishi mumkin: “Tinchlikni xohlasangiz, urushga tayyorgarlik ko‘ring”.

J.Lapasovning ta’rifiga ko‘ra: “Oksyumaron grekcha o‘tkir ma’noli bema’nilik so‘zidan olingan bo‘lib, u antitezaning bir ko‘rinishi hisoblanadi va bir-biriga tamoman zid bo‘lgan so‘zlar birlashtirilib, yangi bir ma’no keltirib chiqaradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, oksyumaron xuddi antitezadek zid ma’noli so‘zlarning bir matnda birga kelishi, faqat oksyumaronning antitezdan farqi, oksyumarondagi ikki qarama qarshi so‘z birga kelsa, antitezadagi so‘zlar bog‘langan yoki bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tarkibida alohida bo‘lib qiyos vazifasini ham o‘tab keladi. [Ж. Лапасов. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқтувчи, 1995. 42-б]

O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaning “Balki” deb nomlanmish she’riga ham e’tibor qaratsak, shoiraning ham oksyumaronga murojaatini va bu oksyumaronni shakllantirishda sifat so‘z turkumining ahamiyati katta ekanligini ko‘ramiz.

Ko‘zingdan chiqmoqqa o‘xshash *o‘tli nam*,

Ranging siniqishi, lab titrashi sir.

Shoiraning ko‘z yoshlarida ham alam borligini uning *o‘tli* so’zini ishlatishidan ham bilsak bo‘ladi, shoira turmush o‘rtog‘idan erta ajralgan va hayot zahmatlarini yolg‘iz yenggan, uning ko‘z yoshlari oddiygina nam emas, Zulfiya xijron azobida yonganini ham shu so‘z orqali bergan bo‘lishi mumkin.

Sekin shoshish, shoshgan astalik,

nozik kelish, nafis ketish, or,

xasta sog‘lik, sog‘lom xastalik,

Men va sendan boshqa kimda bor? (Salim Ashur)

Bu she’rning bandidan ko‘rinib turibdiki, oksyumoronlarning stilistik, leksik xususuiyatini ochishda, emotsional-ekspressivligini oshirishda, bundan tashqari

lisoniy olam manzarasini badiiy matnda aks ettirishda ziddiyat voqelikning muhim o‘rinlariga kitobxon e’tiborini qaratish bilan badiiy-estetik ta’sirchanlikni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi adabiyotda oksyumaron tasviriylikni oshirishda muhim o‘rin tutadi. Hamma ijodkor ham bunday mukammal stilistik vositadan foydalana olmaydi. Bu ijodkorning naqadar so‘zmol ekanligini aniqlab beradi. Oksyumaron orqali ijodkor yetkazishi kerak bo‘lgan ma’lumotini ekspressiv jihatdan yetuk darajaga yetkazgan holda o‘quvchiga yetkazib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yandashova Tursunoy. “Badiiy matnda sifatlarning uslubiy qo’llanilishi. dissertattsiya–Toshkent. 2014. 28-bet.
2. Ж. Лапасов. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. Тошкент: Ўқтувчи, 1995. 42-б
3. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
4. Мадрахимов О. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир//ЎзФА ахбороти, ижтимоий фанларсерияси , Тошкент, 1957, 41-47-бетлар.
5. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari . –Samarqand. 1994.47-bet.
6. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 165-226 б.
7. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 165-226 б.
8. Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – Л.: Просвещение, 1979. – 123 с
9. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).
10. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.
11. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE’RIYATI VA TILI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, *57*(1), 143–146.
12. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
13. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.
14. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 168-170.

BADIIY ASARLARDA TA'SIRCHANLIK VA BO'YOQDORLIKNI OSHIRISHDA ANTITEZANING O'RNI

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi Toshqulova Zebiniso
TerDPI 201-guruh talabasi Bozorova Muxlisa Hamidovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarlarda ta'sirchanlik va bo'yoqdorlikni oshirishda antitezaning o'rni va ahamiyati haqida yoritib berilgan. Antiteza zid ma'noli so'zlarning ilmiy adabiyotdagi nomlanishi bo'lib, bir biriga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Maqolada namuna tariqasida berilgan misollar jahon va o'zbek adabiyotidagi she'riy hamda nasriy asarlardan, o'zbek xalq maqollaridan olingan.

Kalit so'zlar: Antiteza, bo'yoqdorlik, contrast, ekspressivlik, antitetik tushunchalar, stilistik figuralar, tazod san'ati.

Аннотация: В данной статье объясняется роль и значение антитезы в повышении выразительности и колорита в художественных произведениях. Антитеза – это наименование слов с противоположным значением в научной литературе, служащее для выражения противоположных друг другу понятий. Примеры, приведенные в статье, взяты из поэтических и прозаических произведений мировой и узбекской литературы, а также узбекских народных пословиц.

Ключевые слова: Антитеза, колорит, контраст, выразительность, антитетические понятия, стилистические фигуры, контрастное искусство.

Abstract: In this article, the role and importance of antithesis in increasing expressiveness and color in artistic works is explained. Antithesis is the naming of words with opposite meanings in scientific literature, and serves to express concepts that are opposite to each other. The examples given in the article are taken from poetic and prose works of world and Uzbek literature, and Uzbek folk proverbs.

Key words: Antithesis, coloring, contrast, expressiveness, antithetic concepts, stylistic figures, contrast art.

Badiiy tasvir vositalari asarning ta'sirchanligini, bo'yoqdorligini ekspressivligi hamda ifodaliligini ta'minlaydi. Har qanday ijod mahsuli borki, unda, albatta, badiiy tasvir vositalari ishtirok etmay qolmaydi. Busiz badiiy asar asar bo'lmaydi. Badiiy tasvir vositalari ilmiy adabiyotlarda stilistik figuralar deb yurutiladi. Malumki, stilistik figuralar yordamida badiiy so'zning ifodaviyligi kuchayadi, ranginlashadi, ta'sirchanligi oshadi. Muallif tomonidan aytilayotgan fikrning tag maqsadi, ma'nosi ochiladi. Xuddi shunday tasviriy vositalaridan biri antiteza sanaladi.

Antiteza "antithesis" – "qarama-qarshi qo'yish, zidlash" degan ma'nolarni

anglatadi. Shuningdek, mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchifikr, tushuncha sezgi va timsollarni bir biriga nisbatan qarama-qarshi zidlantirish hodisasiga aytiladi. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun, asosan, badiiy nutqda zid ma'noli qo'shimchalar, zidlov bog'lovchilari, zid ma'noli so'z va iboralardan foydalaniladi.

Antiteza tilshunosh va adabiyotshunos olima G.Keldiyarova tomonidan "O'zbek tili stilistikasi"da alohida tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilingan. Ayniqsa, bu holat badiiy asarlarda juda ko'p uchraydi. Badiiy asarlarning ta'sirchanligi, bo'yoqdorligini oshirishda qntitezaning o'rni ahamiyatlidir. Chunki antiteza orqali qahramon ruhiyatidagi kontrastlik, muallif his-tuyg'ulari bo'rtirib tasvirlanadi. Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli mumtoz adabiyotda tazod deb yurutiladi.

Misol uchun:

Menga nomehribon yor o'zgalarga mehribon emish,

Mening jonim olib, ag'yorga oromijon emish. (A.Navoiy)

Antitezalar badiiy asar nomlarida ham keltirilishi mumkin. Buni quyidagi misollar asosida yoritib beramiz: rus adabiyotining yozuvchisi Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik", "Jinoyat va Jazo" kabi asarlari ham antitezaga misol bo'la oladi. Badiiy asarlardagi ekspressivlikni oshirish vositasi sifatida antiteza quyidagi asosiy holatlarda qo'llaniladi:

Birinchidan, bir biriga qarama-qarshi bo'lgan tasvirlar yoki tushunchalarni solishtirish orqali asardagi bo'yoqdorlikni yuzaga keltiradi. "Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonida keltirilgan ushbu jumlaga e'tibor bering!

Tun bila kun,

O't bila suv

Bir biriga zolimdir.

Koinotda

Azal

Mangu

Isyon ruhi hokimdir.

Burjlar aro

Gohi oshkor, gohi pinhon

Ibtidodan to intiho.

Hukm surar g‘alayon. [E.Vohidov “Ruhlar isyoni” doston. “Nodirabegim nashriyoti”.Toshkent-2020]

Ikkinchidan, antitetik tushunchalar yoki tasvirlar bo‘lishi mumkin bo‘lgan ifodalar qo‘llaniladi. Bunday holda antiteza, odatda, ifodalanayotgan obyektning mazmunidan iborat bo‘lgan kontrastni yoki uning kattaligini ifodalaydi. Inson so‘zi tabiatan qarama-qarshi antitetik tushuncha hisoblanadi. Masalan, “Men podshohman - qulman, men qurtman – men Xudo” kabi misralar badiiy asarlarda uchraydi.

Antiteza nafaqat badiiy asarlarda, balki she’riy asarlarda ham uchratamiz. Misol uchun Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Dardiga darmon istamas” she’rida antitezaning juda aniq namoyon bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zga millat uchsalar hikmat topib suyi samo,
Bizni ellar loaqal yer uzra davron istamas,
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

So‘yi samo va yer uzra kabi so‘zlar o‘zaro zid holarda bo‘lgan.

Antiteza nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotidagi namunalarda uchraydi. Jahon adabiyoti asarlarida bu nafaqat ikki qarama-qarshi so‘z bilan chegaralib qolmasligi, balki ko‘p nomli bo‘lishi mumkin. Jahon adabiyoti namoyondalaridan biri Pushkinning “Yo‘l harakati shikoyatlari”da biz polinom antitezani uchratamiz.

Dunyoda yurishimga qancha vaqt kerak,
Endi aravada, endi otda.
Endi vagonda, keyin vagonda,
Aravadami yoki piyodami?

Antiteza holatlari uchragan namunalarni o‘zbek xalq maqollarida ham mavjud.

Do‘st achitib gapirar, dushman – kuldirib.

Yoshning qarisi bolguncha, qarining Yoshi bo‘l.

Bir ochlikning bir to‘qligi bor.

Kishi yerida sulton bo‘lguncha, o‘z elingda cho‘pon bo‘l.

Yaxshiga ipak ilashur, yomonga tikan ilashur.

Yozuvchi Tog‘ay Murod qalamiga mansub “Ot kishnagan oqshom” qissasida qo‘llanilgan maqollar tarkibida ham antitezaga misol bo‘la oladigan maqollarni uchratishimiz mumkin.

Jahl kelganda aql ketadi.

Bor bo‘lsa ko‘rolmaydi, yo‘q bo‘lsa berolmaydi.

O‘zing yaxshi - olam yaxshi.

O‘zing yomon - olam yomon. [Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom”. “Sharq” nashriyoti .Toshkent-1994.]

Xulosa sifatida shumi aytish mumkinki, stilistik figuralar sirasiga kiruvchi antiteza (zid ma’noli so‘zlar) ham badiiy asarlarda o‘quvchiga kommunikativ vazifa bajarishi bilan birga emotsional-ekspressiv vazifani ham bajarish vazifasini o‘taydi. Antitezik tushunchalar borliqni ifoda etish bilan tilda stilistik vosita sifatida qo‘llaniladi hamda badiiy ta’sirchanlikni oshirish vazifasini bajaradi va badiiy nutq uslubining ravonligini ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Qurbonova, M.Yo‘ldoshev “Matn tilshunosligi” - Toshkent: Universitet.2014
2.E.Vohidov “Ruhlar isyoni” doston. “Nodirabegim nashriyoti”. Toshkent-2020
3.Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom”. “Sharq” nashriyoti. Toshkent-1994.
4.Saodat Sultonsaidova, O‘lmas Sharipova .O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent
5.Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
6. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.
7. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Ro‘ziyeva Umida Azamat qizi. (2024). G‘AFUR G‘ULOMNING “SHUM BOLA” ASARIDAGI TARIXIY VA ARXAIK SO‘ZLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *22*(6), 353–356.
8. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
9. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.

THE INFLUENCE OF WORLD LITERATUREON UZBEK LITERATURE

Farida Xakimova
Teacher of Termiz state pedagogical institute
Fahriddinova Muhlisa
Student of Termiz state pedagogical institute

ANNOTATION. This study examines the profound impact of world literature on Uzbek literature, tracing how global literary movements, genres, and themes have shaped the evolution of Uzbek literary traditions. It explores the introduction of Western literary forms such as realism, romanticism, and modernism to Uzbek writers, highlighting their adaptation and transformation within the cultural and historical context of Uzbekistan. The analysis includes the influence of Russian literature during the imperial and Soviet periods, as well as the role of Eastern literary traditions, such as Persian and Arabic poetry, in the development of Uzbek literary identity. Additionally, the study discusses the cross-cultural exchange that occurred through translations, international literary figures, and the global circulation of ideas, emphasizing the dynamic interaction between local and global literary worlds.

Keywords: World literature, Uzbek literature, Literary influence, cultural exchange, Global literary movements, Russian literature, Eastern literary traditions, realism, romanticism, modernism, literary adaptation, translation, Uzbek literary identity, Persian poetry, Arabic literature, Soviet influence, Literature evolution, Universal themes, Literary history, globalization of literature.

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola jahon adabiyotining o‘zbek adabiyotiga chuqur ta’sirini bayon qiladi, jahon adabiy oqimlari, janrlari va mavzulari o‘zbek adabiy an’analari evolyutsiyasini qanday shakllantirganini izlaydi. Unda realizm, romantizm va modernizm kabi g‘arb adabiy shakllarining o‘zbek yozuvchilariga tanitish yo‘llari o‘rganilib, ularning O‘zbekiston madaniy-tarixiy kontekstida moslashuvi va o‘zgarishi yoritilgan. Tahlilda imperiya va sho‘rolar davridagi rus adabiyotining ta’siri, shuningdek, fors va arab she’riyati kabi Sharq adabiy an’analarining o‘zbek adabiy o‘ziga xosligi rivojida tutgan o‘rni ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, maqola mahalliy va global adabiy dunyolar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta’sirni ta’kidlab, tarjimalar, xalqaro adabiy arboblar va g‘oyalarning global aylanishi orqali sodir bo‘lgan madaniyatlararo almashinuvni muhokama qiladi.

Kalit so‘zlar: Jahon adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, adabiy ta’sir, madaniy almashinuv, jahon adabiy harakatlari, rus adabiyoti, Sharq adabiy an’analari, realizm, romantizm, modernizm, adabiy moslashuv, tarjima, o‘zbek adabiy o‘zligi, fors she’riyati, arab adabiyoti, sovet ta’siri, adabiyot evolyutsiya, umuminsoniy mavzular, adabiyot tarixi, adabiyotning globallashuvi.

АННОТАЦИЯ. Данная статья рассматривает глубокое влияние мировой литературы на узбекскую литературу, исследуя, как мировые литературные

течения, жанры и темы формировали эволюцию узбекских литературных традиций. В статье рассматриваются пути знакомства узбекских писателей с западными литературными формами, такими как реализм, романтизм и модернизм, а также их адаптация и изменения в культурно-историческом контексте Узбекистана. Анализируется влияние русской литературы в эпоху империи и советского периода, а также роль восточных литературных традиций, таких как персидская и арабская поэзия, в развитии уникальности узбекской литературы. Кроме того, статья подчеркивает динамичное взаимодействие между местным и глобальным литературными мирами, обсуждая культурный обмен через переводы, международных литературных деятелей и распространение идей в глобальном масштабе.

Ключевые слова: мировая литература, узбекская литература, литературное влияние, культурный обмен, мировые литературные движения, русская литература, восточные литературные традиции, реализм, романтизм, модернизм, литературная адаптация, перевод, узбекская литературная идентичность, персидская поэзия, арабская литература, советское влияние, эволюция литературы, универсальные темы, история литературы, глобализация литературы.

The development of Uzbek literature, shaped by centuries of cultural exchange, has been profoundly influenced by world literature. From its early roots in classical Persian, Arabic, and Turkic traditions to the transformative encounters with Russian and Western literary movements, Uzbek literature has continuously absorbed and integrated global literary forms, genres, and ideas. This paper explores the impact of world literature on Uzbek literary traditions, with a particular focus on the historical, political, and cultural exchanges that facilitated these influences. In doing so, it examines the ways in which Uzbek writers have interacted with global literary movements, adapted foreign ideas to local contexts, and contributed to the broader literary world. The dynamic relationship between local and global literary traditions has played a pivotal role in the shaping of Uzbek literature's distinctive voice, reflecting both universal human experiences and unique Central Asian perspectives.

Uzbek literature's earliest foundations were deeply rooted in the literary traditions of the broader Eastern world, particularly those of Persian, Arabic, and Turkic-speaking cultures. From the 9th century onwards, the works of Persian poets like Hafez, Omar Khayyam, and Rumi, along with classical Arabic works, greatly

influenced the literary development of Central Asia. These literary traditions were interconnected through a shared cultural space that stretched from Iran to the Indian subcontinent, and the Uzbek region played a central role in this exchange. The Persian language, with its rich poetic and philosophical heritage, became an essential medium for Uzbek writers. For example, the 15th-century poet Ali-ShirNava'i, often regarded as the father of Uzbek literature, wrote in both Persian and Chagatai (a Turkic language) and blended elements of Persian literary aesthetics with Turkic traditions. His works reflect the intellectual and cultural connections between the Central Asian region and the wider Persianate world. Thus, the classical Eastern literary traditions laid the groundwork for the development of Uzbek poetry and prose, which would later interact with European and Russian literary influences [2].

Russian Imperial and Soviet Influence. The most significant turning point in Uzbek literature's engagement with world literature occurred during the Russian Empire's expansion into Central Asia and the subsequent Soviet period. As Uzbekistan became part of the Russian Empire in the late 19th century and later a Soviet Republic, Uzbek writers were exposed to Russian literature, which had a profound effect on the development of their literary styles and themes. Russian literary classics, particularly the works of Pushkin, Dostoevsky, Tolstoy, and Chekhov, were widely translated into Uzbek [1]. These authors' exploration of human psychology, social issues, and philosophical themes inspired Uzbek writers to experiment with new narrative techniques and tackle more complex societal questions. The Soviet influence brought a new dimension to this engagement, with Marxist ideologies shaping themes of social justice, class struggle, and the role of the individual in society. Prominent Uzbek writers such as Chulpon, Abdulla Qodiriy, and Zulfiya engaged with these literary movements, incorporating elements of realism and romanticism in their works while critiquing the social and political realities of their time. For instance, Qodiriy's novel "O'tkan Kunlar" (Days Gone By) is considered one of the first Uzbek novels [3]. influenced by Russian literary realism, exploring themes of social change and personal identity. Moreover, the Soviet period led to the emergence of the "Soviet Uzbek novel" which often dealt with themes of revolution, collective labor, and the building of a

socialist future. This period also witnessed the rise of the Uzbek short story, influenced by Russian authors like Chekhov, who emphasized psychological depth and character development.

Western Literary Movements. Romanticism, Realism, and Modernism. In the early 20th century, as Uzbek writers continued to engage with Russian literature, they also began to explore Western literary movements, such as romanticism, realism, and modernism. These global movements had a particularly strong influence on Uzbek literature during the period of modernization in the early Soviet years [2]. Romanticism, with its emphasis on individualism, nature, and emotional expression, resonated with many Uzbek writers seeking to explore the personal and spiritual aspects of life. Similarly, the realist tradition, which focuses on the depiction of everyday life and social issues, provided a framework for Uzbek writers to engage with the complex realities of their own society. By the mid-20th century, modernism, with its focus on experimentation in form and content, began to influence the works of younger Uzbek writers. Writers like Abdurauf Fitrat and Chulpon, who were exposed to European modernist movements, introduced new literary techniques, such as fragmented narratives and a focus on subjective experience. The influence of modernism, especially in poetry and prose, challenged traditional Uzbek literary forms and inspired a wave of literary innovation.

Globalization and Contemporary Uzbek. Literature The late 20th and 21st centuries have marked an era of globalization, which has brought new challenges and opportunities for Uzbek literature. The increasing availability of translations, the rise of digital media, and the greater international exchange of literary ideas have all contributed to the global reach of Uzbek writers. Contemporary Uzbek literature is characterized by a blending of local and global influences. Writers now engage with not only Russian and Western literary traditions but also broader global movements, such as postmodernism, existentialism, and feminist literature. At the same time, they continue to draw on the rich cultural and historical heritage of Uzbekistan, exploring themes related to national identity, tradition, and the complexities of life in post-Soviet Central Asia. Furthermore, the global circulation of literature has allowed Uzbek

authors to participate in international literary conversations, contributing their perspectives on universal themes such as migration, conflict, and social change. As such, contemporary Uzbek literature is both a product of its local history and a part of the larger global literary community.

The Role of Translation in Literary Exchange. Translation has played a crucial role in the exchange between Uzbek literature and world literature. Many of the great works of world literature have been translated into Uzbek, and similarly, Uzbek literary works have been translated into other languages. This process has facilitated a dynamic dialogue between Uzbek writers and global literary movements, allowing them to engage with international ideas while also sharing their own unique literary voice with the world. The translation of literary works has also allowed Uzbek literature to influence global readers, with Uzbek poets and novelists gaining recognition in international literary circles. In this way, translation has been a key factor in both the dissemination of world literature in Uzbekistan and the global reach of Uzbek literature.

The interplay between world literature and Uzbek literature reveals a rich history of cultural exchange, intellectual cross-pollination, and artistic evolution. From its early foundations in the classical Persian, Arabic, and Turkic literary traditions, Uzbek literature has continually absorbed and adapted ideas from diverse global literary movements. The significant influence of Russian literature during the imperial and Soviet periods, coupled with the later engagement with Western literary movements such as romanticism, realism, and modernism, has broadened the thematic and formal scope of Uzbek writing. In the Soviet era, Uzbek writers were not only exposed to Marxist ideologies but also to the innovative narrative techniques of Russian and European writers, leading to a literary renaissance that synthesized local traditions with broader global trends. This legacy of adaptation, however, was not without its challenges. The tension between Soviet ideologies and the preservation of national identity marked an era of both creative flourishing and ideological constraint. The impact of globalization in the late 20th and early 21st centuries has further expanded the horizons of Uzbek literature. Through translation and the increasing

internationalization of literary markets, Uzbek writers are now participating in global literary dialogues, contributing their unique perspectives on themes such as identity, migration, social change, and post-Soviet transition. As Uzbek literature continues to evolve, it maintains its dual role of reflecting local realities while engaging with global narratives and ideas.

Ultimately, the influence of world literature on Uzbek literature has not only shaped its development but has also helped forge a distinct literary voice that resonates with universal human experiences. The dynamic exchange between Uzbek literature and world literary traditions demonstrates the fluid and interconnected nature of global culture, ensuring that Uzbek writers remain integral to the broader international literary landscape while staying rooted in their own rich cultural heritage. This ongoing dialogue between the local and global highlights the resilience and adaptability of Uzbek literature, as it continues to evolve in response to both internal and external forces.

REFERENCES:

1. Qodirov, A. (2001). World Literature and Its Influence on Uzbek Literature. Tashkent: Uzbekistan National Publishing House.
2. Muminov, S. (1997). The Historical Phases of the Development of Uzbek Literature. Tashkent: Sharq Publishing.
3. Abduqodirov, M. (2005). World Literature and Uzbek Literature: Historical and Literary Relations. Tashkent: Yangi O‘zbekiston.
4. Sayfullayev N. H. o‘g‘li. (2023). IJTIMOIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(12), 106–111.
5. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
6. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
7. Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi. (2024). OKSYUMORONNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 26–30.
8. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.

BADIIY ASARLARDA SIFAT ASOSLI ANTITEZALAR

TerDPI o‘qituvchisi Toshqulova Zebiniso
TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalari
Boymamatova Farida va Mengboyeva Feruza,

Anotatsiya: Ushbu maqolada she’riyatning turli qirallarini hamda u orqali insonga yetkazilatigan kommunikativ va ekspressiv xususiyati haqida tushuntirib o‘tiladi. Har bir she’r borki, unda she’riy san’at va tasviriy ifodalar bilan to‘yingan bo‘ladi. Xuddi shu tasviriy ifodalardan biri sanalgan antitezalar va ularning she’riyatdagi o‘rni, hamda lirik janrlardagi uning ahamiyati haqida tushuntiriladi. Maqolada sifat asosli antitezalar va ularning ma’noviy jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Antiteza, she’riyat, she’riy san’at, tasviriy ifodalar, lirik janrlar, sifat asosli antiteza

Аннотация: В данной статье раскрываются различные аспекты поэзии, ее коммуникативно-экспрессивная природа. Каждое стихотворение насыщено поэтическим искусством и образными выражениями. В одном из таких же образных выражений объясняется антитезы и их место в поэзии, а также их значение в лирических жанрах. В статье рассматриваются качественные антитезы и их духовные аспекты.

Ключевые слова: Антитеза, поэзия, поэтическое искусство, изобразительная выразительность, лирические жанры, качественная антитеза.

Annotation: This article explains the different aspects of poetry and the communicative and expressive nature of it. Each poem is saturated with poetic art and figurative expressions. One of the same figurative expressions is explained about antitheses and their place in poetry, as well as its importance in lyrical genres. Qualitative antitheses and their spiritual aspects are covered in the article.

Key words: Antithesis, poetry, poetic art, visual expressions, lyrical genres, quality-based antithesis

Sifatlarni fanda faqat grammatik jihatdan emas, uslubiy jihatdan ham o‘rganilgan. O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari borasida qilingan eng yaxshi tadqiqotlardan biri tilshunos olim Zafar Pardayevning “O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari” nomli ilmiy morografiyasidir. Mazkur monografiyada o‘zbek tilshunosligida sifat leksemalarining semantik strukturasi va ularning funksional-uslubiy xususiyatlari keng yoritilgan.

Grekcha – antithesis so‘zidan olingan antiteza, qarama-qarshi qo‘yish degan ma’noni bildiradi. Antiteza poetik sintaksisning bir ko‘rinishi hisoblanadi. U nutqda ifodalilikni kuchaytirish uchun logik jihatdan qarama-qarshi tushunchalarni, fikr,

obraz, predmetlarni va shaxslar xarakterlarini qiyoslash yoki birgina predmet, hodisalarning daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlashdir. Umuman olganda, antiteza mohiyatan qarama-qarshi bo‘lgan, lekin bir-biriga umumiy ichki mexanizm yoki ma’no bilan bog‘langan tasvirlar yoki hukmlarning kaskin qarama-qarshiligini anglatadi. [1].

Bu ikki qarama-qarshi tushuncha badiiy matnda faqatgina qiyoslashga asoslangandagina antitezani yuzga keltiradi. Tilimizda deyarli bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlar sifatlarda uchraydi.[2].

Lekin antitezadagi qiyoslashni yuzga keltiradigan so‘zlarning barchasini sifatlardan iborat deb tushunish notog‘ri.

Tiriklar mudroqda,

O‘liklar uyg‘oq,

Lola, lolajonim,

Lolaqizg‘aldoq!

Buyuk shoir Muhammad Yusufning ushbu she’ridagi qiyoslash antitezaning ajoyib namunasini va uni yana bo‘yoqdorligini oshirib berishda xizmat qilagan sifatni sezib turibsiz, faqatki bu yerda sifatlar ot kesim vazifasida kelgan. Ikki misraning har bir qatoridagi so‘zlar bir-biriga qarama-qarshi holda turibdi. Buni o‘quvchi bir qarashda oksyumronga o‘xshatishi mumkin. Ammo shoir shunday mahorat bilan so‘z ishlatganki, buning antiteza ekanligi she’rning butun vujudi bilan o‘qigan she’rxongina tushunadi. Tiriklarning mudroqliguyu, o‘liklarning uyg‘oqligidagi ot va sifatlar antitezaning go‘zal namunasini yaratib bergan.

O‘zbekistin xalq shoiri Erkin Vohidovning “Hadya” she’rining ushbu bandiga ham e’tibor qarating.

Senga bo‘lsin *nurli Kunduz,*

Menga bo‘lsin *qora tun.*

Barcha gulshan senga bo‘lsin,

Bor tikonzorlik menga..

She’rning *nurli kunduz* va *qora tun* birliklarining antitezani yaratishda rang-tus sifati va xususiyat sifati ishtirok etgan. Bu bandda antitezaning sifat ko‘rinishidan tashqari otli ko‘rinishini ham ko‘rishingiz mumkin, aslida.

Antiteza stilistik qurilma, bu tog‘ridan to‘g‘ri qarshi turishdan iborat qarama-qarshi tasvirlar, xususiyatlar yoki harakatlardir. Nutning ifodaliligini oshirish va fikr, his-tuyg‘ularni yanada aniqroq yetkazish uchun xizmat qiladigan badiiy vosita.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotiga ham bu - antiteza, epitet, oksyumaron, allegoriya, polisenditon kabi stilishtik figuralar, troplarni uchratish mumkin va ularning ijodida o‘xshatish, qiyoslash kabi tasviriy vositalarning eng go‘zal namunalariga duch kelishimiz mumkin desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jahon adabiyoti durdonasi sanalmish “Otello” romanida han antitezaning va boshqa sitilistik figuralarning ko‘plab go‘zal namunalarini o‘qishingiz mumkin. Rashk o‘tida yongan Otelloning Dezdemona o‘limiga sabab bo‘lishini ko‘rgan Emiliyaning g‘azabdan Otelloga aytgan so‘zlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Otello: U yolg‘onchi jahannamning qariga ketdi,

Men o‘ldirdim!

Emiliya: Shunday esa, u bir malak, siz qora shayton.

Bu yerda antitezani ot so‘z turkumi vujudga keltirgan ammo, bir o‘rinda qora sifat so‘z turkumi aniqlab kelayotgan predmetning sifatini ifodalagan. Ya’ni shaytonning ishi hamisha yomonlikdan iborat bo‘lgani uchun unga eng ko‘p qora leksemasini ishlatish to‘g‘ri bo‘ladi. Yozuvchu ijod mobaynida bunday o‘xshatishlar va tasvirlashlardan unumli foydalangan.

Xulosa o‘rnida shumi ayta olamizki, adabiyot inson kechinmalarini, ichki dunyosini, yozuvchi dardi, dunyoqarashini so‘z bilan ifoda etadigan san’at turidir. Bunda esa shoir va yozuvchilar adabiyotning turli qirralaridan, uning vositalaridan unumli foydalana oladilar. Biz o‘z maqolamiz orqali adabiyotning kichik bir tasviriy vositasi bo‘lgan antitezani yosh kitobxon va ilm izlanuvchilariga yetkazmoqchi bo‘ldik. Antiteza adabiyotning ekspressiv bir qismi sanaladi, ya’niki har bir ijodkor bundan o‘z xohishicha foydalana oladi. Bu tasviriy vosita esa yaratilgan asar mazmuniga o‘zning uslubiy bo‘yog‘ini bermay qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Умуркулов Б. Бадиий матнда қийос ва унинг лингвопоетик қиммати . – филалогия фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш тайёрлаган диссуртатсия. –Қарши-2020. -115
2. Умуркулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари. Филалогия фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим етилган диссертатсия.-Тошкент-2022. -117-б
3. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
4. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.
5. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE’RIYATI VA TILI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, *57*(1), 143–146.
6. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.
7. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 168-170.
8. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
9. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.
10. Мадрахимов О. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир//ЎзФА ахбороти, ижтимоий фанларсерияси , Тошкент, 1957, 41-47-бетлар.
11. Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi. (2024). OKSYUMORONNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 26–30.

NAVOIY HAYOTIGA BIR NAZAR

Termiz davlat pedagogika instituti katta
o'qituvchisi Rasulova Zulfiya Rasul qizi
rasulovazulfiya281@gmail.com
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi
Norqobilova Sumbula Nuriddin qizi

ANNOTOTSIYA: Ushbu maqolada so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning oila haqidagi qarashlari haqida so'z boradi. Ta'lim-tarbiya va odob-axloq masalalarida xalqimizning boy tarixiy, madaniy-ma'rifiy merosi, urf-odati va qadriyatlari, buyuk mutafakkirimiz ta'limotlariga tayangan holda har tamonlama yetuk mukammal inson bo'lib yetishish uchun zarur bo'lgan oilaviy munosabatlarning eng muhim masalalariga, ota-onaning oiladagi burchi va bu borada masuliyatli yondashishiga e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: Oila, farzand, axloq, tarbiya, ma'naviyat, madaniyat, manba.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются взгляды Алишера Навои на семью, султана слова сословия. В вопросах воспитания и нравственности, богатого исторического, культурного и образовательного наследия, традиций и ценностей нашего народа, важнейших вопросов семейных отношений необходимо вырастить зрелого и совершенного человека, опираясь на учение нашего великого мыслитель, уделялось внимание долгу родителей в семье и ответственному подходу в этом отношении.

Ключевые слова: семья, ребенок, нравственность, воспитание, духовность, культура, источник.

ANNOTATION: This article discusses Alisher Navoi's views on family, the sultan of the word estate. In matters of education and morals, the rich historical, cultural and educational heritage, traditions and values of our nation, the most important issues of family relations necessary to grow into a mature and perfect human being, relying on the teachings of our great thinker, the duty of parents in the family and attention was paid to a responsible approach in this regard.

Key words: family, child, morality, upbringing, spirituality, culture, source.

Alisher Navoiy shoir bo'lish bilan birga o'z davrining ulug' olimi, mutafakkiri ham edi. Navoiysiz bu davr fani va madaniyati taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Alisher Navoiy ilmiy tadqiqotlari va izlanishlarining katta qismi, tabiiyki, til va adabiyot masalalari bilan bog'langan. Shu ma'noda «Majolis un-nafois» tazkirasini yaratish bilan Alisher Navoiy o'z davri adabiyotiga, uning ijodkorlariga o'ziga xos haykal o'rnatdi. Unda o'zbek va forsiy tillarda ijod qilgan shoirning hayoti va yozgan asarlari haqida noyob ma'lumotlar berilgan, bu ijodkorlarning yutuklari va

kamchiliklari, o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatilgan. Alisher Navoiyning katta adabiy va tarixiy ahamiyatga ega «Munshaot» asari uning turkiy tilda o‘z zamondoshlari — podshohlar va shahzodalar, ilm va adabiyot axdlari bilan olib borgan yozishmalari majmuidan iborat, maktub janrining mukammal namunalari sanaladi. Maktublarning miqdori turli qo‘lyozmalarda turlicha, bir-birini to‘ldiradi. Alisher Navoiy o‘zining forsiy maktublarini ham yig‘ib, «Munshaot» tuzgan. Biroq u bizgacha yetib kelmagan. Alisher Navoiyning eng muhim asarlaridan biri «Vaqfiya» bo‘lib, bir qarashda, shoir va buyuk davlat arbobining o‘zi qurgan imoratlariga vaqfi, ya’ni rasmiy hujjatidek ko‘rinsa ham, aslida unda Sulton Husayn Boyqaro davri davlat tizimi, Alisher Navoiyning bu davlatni boshqarishdagi o‘rni, uning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari katta bilimdonlik va aniqlik bilan yoritilgan. Shuning uchun ham navoiyshunoslikda bu asarga Alisher Navoiy nasrining ajoyib namunasi sifatida qaraladi. Muallif fikrlarining ba’zilarini she’r bilan, xususan ruboiy shaklida bayon qilishi uning qaysi masalaga qo‘l urmasin, o‘zini she’riyatdan hech uzoq turmaganini, doim she’riyat bilan nafas olganini namoyon etadi.

Alisher Navoiyning adabiyot nazariyasiga oid «Mufradot» («Risolai muammo») asari forsiy tilda yozilgan, muammo yozish va yechish qoidalarini ilmiy izohlashga bag‘ishlangan. Navoiy davrida bu she’r turi nihoyatda keng iste’molda bo‘lgan. Aftidan, bu janr nazariyasi va amaliyoti shu davr kitobxonlarining adabiy didi, tarbiyasi bilan ham bog‘langan edi. Alisher Navoiy ba’zan maxsus muammo yechish majlislari tashkil etgan.

Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o‘lchovi») va «Muhokamat ul-lug‘atayn» («Ikki til muhokamasi» yoki «Ikki til tadqiqi») asarlari boshqa ilmiy tadqiqotlaridan farqli o‘laroq umumturkiy ahamiyatga ega va boshqa turkiy xalqlarning she’riyati va tillarini o‘rganishga ham xizmat qilib kelmoqda. Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon»ni aruzning birinchi tadqiqotchisi Xalil ibn Ahmad, keyingi davr olimlaridan Shams Qays, Xoja Nasriddin Tusiy, zamonaviy tadqiqotchilardan Jomiy tajribalaridan ijodiy istifoda etib yaratgan. Aruz vazni bo‘yicha o‘zbek tilidagi bu birinchi ilmiy qo‘llanmada uning asosiy ruknlari va boshqa unsurlari, 19 bahrining tuzilishi, ruboiy vaznlarini aniq ta’riflab, turkiy she’riy misollar opqali asoslab, izohlab

berilgan. Asarda aruz vazniga tushmaydigan she'riy vaznlar — tuyuq, chinga, mustazod, aruzvoriy, budi-budoyi va boshqa turkiy she'riy vaznlarga ham izoh va talqinlar berilgan. Bu asar aruz bo‘yicha bugungi kunda ham o‘z ilmiy qimmati va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. «Muhokamat ul-lug‘atayn»da turkiy tilning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi o‘rni, uning grammatik mukammalligi, so‘zlarga boyligi forsiy til qoidalari va hodisalariga qiyoslangan holda chuqur va aniq misollar orqali tahlil etilgan. Alisher Navoiy o‘zining bu tilni, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini, so‘z va iboralarga boyligini shoir sifatida chuqur egallagani uchun, uning boshqa tillardan kamlik joyi yo‘qligini, aksincha, ularga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini vatanparvar olim sifatida ehtiros bilan ko‘rsatib, isbotlab bergan. Uning muqoyasa uchun keltirgan 100 ta turkiy fe'lining aksari o‘zbek tilida hozirgacha iste'molda. Shu bilan birga «Muhokamat ul-lug‘atayn»da o‘zbek adabiyoti tarixi, uning boshqa adabiyotlar, xususan forsiy adabiyot bilan yaqindan bog‘langanligi, Navoiy ijodining rivojlanish yullari, ayrim asarlarining yuzaga kelishi sabablari haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. Alisher Navoiy hayotining oxirlarida «Mahbub ul-qulub» nasriy asarini yezdi. Asar 3 qismdan iborat. Uning birinchi qismi 40 fasl. Har bir faslida muallif o‘zi yashagan davrdagi bir tabaqa hayoti, axloqi va vazifalari haqida suhbat yuritadi. U ushbu tabaqa vakillarining yaxshi ishlari haqida ham, ayb va nuqsonlari haqida ham goh halimlik bilan, goh g‘azab-nafrat bilan mulohaza yuritib, ularni insofga chaqirmoqchi, tarbiyalamoqchi bo‘ladi. «Tarixi muluki Ajam» va «Tarixi anbiyo va hukamo» Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro davri ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag‘ishlab yozmoqchi bo‘lgan asarining boshlang‘ich bo‘laklaridir.

Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» asari esa islom dini tarixi bilan bog‘liq rivoyatlar va adabiy asarlarni, xususan bir qator payg‘ambarlar hayotini Buqrot (Gippokrat), Aflotun (Platon), Batlimus (Ptolemey) kabi donishmandlarni bilib olish uchun muhim manbadir. Ayni vaqtda Alisher Navoiyning bu asarlari o‘zbek badiiy nasrining qadimiy va go‘zal namunalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мусурмонова О. Оила маънавияти–миллий ғурур.–Т,:Ўқитувчи1999й.200 б.

2. Иномова Н. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси.–Т.: Фан,1999. 151б.
3.Камолова Н.Қ. Ўқувчи-ёшларни иқтисодий-инновацион тарбия беришнинг миллий-маънавий асослари.-Т.: 2004 й.
4. Обидов М. Одоб-ахлоқ-маънавият булоғи.–Тошкент,: Фан, 1999 й. -200 б.
5. Алишер Навоий «Маҳбуб ул-қулуб»

MIFOLOGIK ARXETIPLAR VA ULARNING ZAMONAVIY ADABIYOTDA ISHLATILISHI

Muzaffarov Javlon Kodirjonovich
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat
Chet tillar instituti stajyor o'qituvchisi
Tel: +998 93 266 75 75
*Email: **jamasmrj@gmail.com***

Annotatsiya: Mifologik arxetiplar - qadimiy afsona va afsonalardan olingan universal ramzlar, personajlar va mavzular adabiyotda markaziy o'rinni egallab, hikoya qilish uchun abadiy rejalar bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy adabiyotda bu arxetiplar hikoyalarni shakllantirishda va kitobxonlar bilan rezonanslashishda davom etmoqda, chunki ular chuqur insoniy his-tuyg'ularni va ekzistensial mavzularni uyg'otadi. Ushbu maqola qahramon, murabbiy, sayohat va fojiali nuqson kabi mifologik arxetiplarning doimiy ta'sirini va ular zamonaviy mualliflar tomonidan murakkab zamonaviy muammolarni hal qilish uchun qanday moslashtirilganligini o'rganadi. Mifologik figuralar va motivlarni qayta tasavvur qilish orqali zamonaviy adabiyot ko'pincha psixologik to'qnashuvlar, madaniy o'ziga xoslik va ijtimoiy o'zgarishlar haqida yangi ob'ektiv taqdim etadi, shu bilan birga umuminsoniy haqiqatlarni yoritish uchun an'anaviy tuzilmalar bilan shug'ullanadi. Ushbu tadqiqot, shuningdek, zamonaviy jamiyatni tanqid qilish, psixologik chuqurlikni o'rganish va adabiy mavzularni yaxshilash uchun ushbu arxetiplardan foydalanadigan 20 va 21-asr asarlaridan aniq misollarni ko'rib chiqadi. Qadimgi afsonani zamonaviy kontekstlar bilan bog'lab, mualliflar nafaqat bu arxetip shaxslarga hurmat ko'rsatadilar, balki inson tajribasini aks ettirishda mifologiyaning doimiy ahamiyatini ham ochib beradilar.

Kalit so'zlar: Arxetiplar, ramzlar, rezonanslashish, mifologik, motivlar, afsona, ekzistensial, mualliflar, sehr.

Аннотация: Мифологические архетипы – это универсальные символы, персонажи и темы древних мифов и легенд, занимающие центральное место в литературе и служащие вечными образцами повествования. В современной литературе эти архетипы продолжают формировать истории и находить отклик у читателей, поскольку они вызывают глубокие человеческие эмоции и экзистенциальные темы. В этой статье рассматривается устойчивое влияние мифологических архетипов, таких как герой, наставник, путешествие и трагический недостаток, а также то, как они были адаптированы современными авторами для решения сложных современных проблем. Переосмысливая мифологические образы и мотивы, современная литература часто предлагает новый взгляд на психологические конфликты, культурную идентичность и социальные изменения, одновременно взаимодействуя с традиционными структурами для освещения отравленных универсальных истин. В этом

исследовании также рассматриваются конкретные примеры из произведений 20-го и 21-го веков, в которых эти архетипы используются для критики современного общества, исследования психологической глубины и раскрытия литературных тем. Соединяя древний миф с современным контекстом, авторы не только отдают дань уважения этим архетипическим фигурам, но и раскрывают непреходящую важность мифологии в отражении человеческого опыта.

Ключевые слова: Архетипы, символы, резонанс, мифологические, мотивы, миф, экзистенциал, авторы, магия.

Abstract: Mythological archetypes are universal symbols, characters, and themes from ancient myths and legends that occupy a central place in literature and serve as eternal blueprints for storytelling. In contemporary literature, these archetypes continue to shape stories and resonate with readers because they evoke deep human emotions and existential themes. This article explores the enduring influence of mythological archetypes such as the hero, the mentor, the journey, and the tragic flaw, and how they have been adapted by contemporary authors to address complex contemporary issues. By reimagining mythological figures and motifs, contemporary literature often provides a new lens on psychological conflict, cultural identity, and social change, while engaging with traditional structures to illuminate universal truths. poisoned. This study also examines specific examples from 20th and 21st century works that use these archetypes to critique modern society, explore psychological depth, and enhance literary themes. By connecting ancient myth to modern contexts, the authors not only pay homage to these archetypal figures, but also reveal the enduring importance of mythology in reflecting the human experience.

Key words: Archetypes, symbols, resonance, mythological, motifs, myth, existential, authors, magic.

KIRISH

“Mifologik arxetiplar va ularning zamonaviy adabiyotda qo‘llanilishi” asari zamonaviy adabiy asarlarda qadimiy miflardagi universal belgilar, personajlar va hikoya tuzilmalarining doimiy mavjudligini o‘rganadi. Qahramon, Murabbiy, Soya va Kvest kabi bu arxetiplar butun dunyo bo‘ylab mifologik an’analardan kelib chiqqan bo‘lib, madaniyatlar va davrlarda aks-sado beradigan hikoyalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi[1, 146]. Zamonaviy mualliflar o‘zlik, axloq, ziddiyat va o‘zgarish mavzularini o‘rganish uchun ushbu arxetipik naqshlardan foydalanadilar, o‘quvchilarni fundamental insoniy tajribalar bilan bog‘laydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Mifologik arxetiplar adabiyotda kuchli vosita bo‘lib, madaniyatlar va avlodlar o‘rtasida aks sado beruvchi umuminsoniy tajriba va hissiyotlarni ifodalaydi [2, 55]. Zamonaviy adabiyot ko‘pincha bu arxetiplarni jonlantiradi, ularni ham abadiy, ham yangi mavzularni o‘rganish uchun zamonaviy kontekstlarga kiritadi. Bu erda mifologik arxetiplarning zamonaviy adabiyotda qanday qo‘llanilishi tahlili, bir nechta asosiy misollarga to‘xtalib o‘tamiz:

Arxetip: Ko‘pincha o'zgaruvchan sayohat bilan tavsiflangan qahramon adabiyotdagi eng universal arxetiplardan biridir [3, 74]. Mifologiyada Gerkules, Odissey va Gilgamish kabi figuralardan kelib chiqqan Qahramon arxetipi odatda o‘z-o‘zini kashf qilish yoki shaxsiy o‘sishga olib keladigan sayohatni boshdan kechiradi [4, 92].

Zamonaviy foydalanish: Jozef Kempbell ta’kidlaganidek, qahramonning sayohati zamonaviy adabiyotda mashhur hikoya tuzilishi bo‘lib qolmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Natija: Asosiy arxetiplarni identifikatsiyalash: Zamonaviy adabiyotda mualliflar mifologiyadan olingan arxetiplardan o‘zlarining xarakterlari va mavzulariga chuqurlik va o‘zaro bog'liqlikni ta'minlash uchun tez-tez foydalanadilar [5, 25]. Qahramon, Mentor, Soya va Trickster kabi asosiy mifologik arxetiplar keng tarqalgan. Ushbu arxetiplar jamoaviy madaniy ongda chuqur ildiz otganligi sababli tomoshabinlar bilan bog‘lanadi, buni Karl Jung o‘zining kollektiv ongsizlik nazariyasida muhokama qilgan. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hatto turli janrlarda - fantaziyadan ilmiy fantastika va realistik fantastikagacha - bu arxetiplar sezilarli darajada namoyon bo‘ladi.

Muhokama: Mifologik arxetiplarning doimiy e’tirozi: Zamonaviy adabiyotda arxetiplarning takroriy qo‘llanilishi insonning universal mavzular va mavjudlik, axloq va maqsad haqidagi abadiy savollar bilan bog‘lanish ehtiyojini aks ettiradi [7, 102]. Ushbu arxetiplar inson psixikasining asosiy jihatlariga ta’sir qilganda aks sado beradi va murakkab mavzularni yanada qulayroq qiladigan hikoya qilishda tanish naqshlarni taqdim etadi [8, 36].

XULOSA.

Zamonaviy adabiyotda arxetip figuralar ko‘pincha mifologik mohiyatini saqlab qolgan holda, dolzarb muammolar va ijtimoiy dinamikalarga murojaat qilib, zamonaviy kontekstga mos ravishda qayta ishlangan. Misol uchun, arxetipik qahramon zamonaviy hikoyalarda nafaqat tashqi dushmanlar, balki ichki kurashlar va axloqiy noaniqliklarga duch kelgan qahramon sifatida namoyon bo'lishi mumkin [9, 63]. Ushbu arxetiplardan foydalangan holda, mualliflar jamoaviy tajriba va psixologik chuqurliklarga kirishadilar, o‘quvchilarga o'zlarining hayotiy sayohatlari va ekzistensial savollariga javob beradigan hikoyalar bilan ta’minlaydilar. Pirovardida, mifologik arxetiplar zamonaviy adabiyotni ramzi aks sado va o‘tmish bilan uzviylik tuyg‘usi bilan sug‘oradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Kempbell, Jozef. Ming yuzli qahramon. Prinston universiteti matbuoti, 1949 yil.
2. Jung, Karl G. Arxetiplar va kollektiv ongsizlik. Prinston universiteti matbuoti, 1959 yil.
3. Fry, Northrop. Tanqid anatomiyasi. Prinston universiteti matbuoti, 1957 yil.
4. Doty, Uilyam G. Mifografiya: Miflar va marosimlarni o'rganish. Alabama universiteti matbuoti, 1986 yil.
5. Kempbell, Jozef va Bill Moyers. Afsonaning kuchi. Anchor Books, 1988 yil.
6. Segal, Robert A. Afsona: juda qisqa kirish. Oksford universiteti nashriyoti, 2004 yil.
7. Hamilton, Edit. Mifologiya: Xudolar va qahramonlarning abadiy ertaklari. Little, Braun va Kompaniya, 1942 yil.
8. Blamirs, Garri. Ingliz adabiyotining qisqacha tarixi. Routledge, 1984 yil.
9. Stein, Myurrey. Jungning ruh xaritasi: kirish. Ochiq sud, 1998 yil.

ISTEHZO USULINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI.

Aliyeva Orzigul
Termiz davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA: Badiiy san’atlar she’riy asarlarda ifodalangan g‘oyning hayotiy, ta’sirchan chiqishiga, epik, lirik va dramatik asarlarda obrazlarning yorqinroq gavdalantirilishiga, she’rda misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Badiiy san’atlar, lirika, epika, drama, istehzo,kinoya, pafos, obraz, misra, band.

АННОТАЦИЯ: Изобразительное искусство служит для того, чтобы сделать идею, выраженную в поэтических произведениях, яркой и эффектной, воплотить образы в эпических, лирических и драматических произведениях, обеспечить словесную изысканность, музыкальность, привлекательность стихов, строф, предложений в поэзии.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, лирика, эпос, драма, ирония, ирония, пафос, образ, стих, статья.

ANNOTATION: Fine arts serve to make the idea expressed in poetic works vivid and effective, to embody images in epic, lyrical and dramatic works, to ensure the verbal delicacy, musicality, and attractiveness of verses, stanzas, and clauses in poetry.

Key words: Fine arts, lyric, epic, drama, irony, irony, pathos, image, verse, clause.

O‘zbek adabiyotshunosligida “kinoya” istilohini rus va boshqa xalqlar adabiyotshunosligidagi “ironiya” terminining muqobili – sinonimi sifatida qo‘llash odatga aylangan. Holbuki, uning ma’no ko‘lami “ironiya” terminining ma’no ko‘lamiga nisbatan birmuncha torroq. O‘zbek tilidagi adabiyotshunoslikka oid darslik, qo‘llanma va lug‘atlarda bu holga izoh berilmagan. Natijada rus tilidagi adabiyotshunoslikka oid ishlar, jumladan, G‘arb olimlarining tadqiqotlarida “ironiya” termini bilan ifodalanayotgan, “kinoya”dan farqli ma’nolarga duch kelganimizda, tabiiy ravishda savollar tug‘iladi: Kinoya va ironiya terminlarini sinonim sifatida qo‘llash mumkinmi? Nima asosda va qachondan boshlab bu ikki istiloh sinonim bo‘lib qolgan? Bunday savollarni yuzaga keltirgan sabablar haqida gap ketganda, eng avval mumtoz poetika va hozirgi zamon o‘zbek adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan “kinoya” istilohi umuman boshqa- boshqa ma’nolarni anglatishini aytish kerak.

Atoulloh Husayniyning kinoyaga bergan ta’rifi hozirda qo‘llanayotgan kinoya-ironiyaning ma’nosidan farqlanadi: “Kinoya. Ani ba’zilar irdof ham derlar va ul andin iboratturkim, bir ma’noni anga lozimu тоби' ma’no uchun yasalg‘an lafz ila ul tarzda ta’bir qilurlarkim, agar ul lafzning o‘z yasog‘in iroda qilsalar ham ravo bo‘lur…” Ya’ni Atoulloh Husayniy “kinoya”ga ta’rif berganida so‘zni ko‘chma ma’noda qo‘llashni nazarda tutadiki, u hozirgi tushunchadagi metonimiya – aloqadorlik asosidagi (“lozimu тоби' ma’no uchun yasalg‘an lafz ila”) ko‘chimga to‘g‘ri keladi.

So‘zning lug‘aviy ma’nosi esa, Husayniyga ko‘ra, umuman ko‘chim (trop) ma’nosiga to‘g‘ri keladi: “Kinoyat lug‘atta uldurkim, bir nimani derlar, lekin undan o‘zga nimani iroda qilurlar” . Demak, istiloh sifatida istifoda etilganda so‘zning lug‘aviy ma’nosi toraytiriladi. Mumtoz poetikaning istilohiy an’analarini davom ettirgan holda T.Boboyev: “Metonimiya (yun. Metonimia qayta nomlash) – majoz-kinoya – ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslanadigan ko‘chimlardan” deb yozadi. Agar “majoz-kinoya” juft so‘zini (uni biz qoraytirdik) muallif tire bilan ajratgani va birinchi tirening ikki so‘zni o‘zaro tenglash vazifasini bajarayotganini hisobga olsak, muallif ushbu so‘zni “ko‘chim sifatidagi kinoya” ma’nosida ishlatgan deyish mumkin. Bizningcha, buni olimning terminologik aniqlikka intilishi natijasi deb tushunish to‘g‘ri bo‘ladi.

Chunki keyinroq “kinoya” istilohiga mumtoz poetika an’anasidan farqli ta’rif beriladi: “Kinoya (yunon. Eironeia – bilib bilmaslikka olish) – inkorning bir ko‘rinishi bo‘lib, tasvir ob’ekti ustidan kesatish, qochiriq yo‘li bilan yashirin kulish, piching” . Bu yerda “kinoya” istilohiga hech bir izohsiz “eironeia” so‘zining etimologik ma’nosi berilgani, albatta, xato. Biroq o‘ylab qaralsa, buning sababi adabiyotshunosligimizda “kinoya” istilohini “ironiya”ning sinonimi sifatida qo‘llashga o‘rganib ketilgani, ya’ni bu avtomatizm darajasiga yetgani bilan izohlanishi mumkin.Professor B.Sarimsoqov va N.Hotamovlar tomonidan tayyorlangan “Adabiyoshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da ironiyaga quyidagicha ta’rif beriladi: “Ironiya (gr. eironeia – bilib bilmaganga olish so‘zidan) – kinoya, qochirim, kesatish, piching. Badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo‘lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatish,

qochiriq vositasida yashirin kulinadi. Shuning uchun ham kinoyaning muhim belgisi so‘z yoki gapning hamma vaqt ikki ma’nosi bo‘lishida, haqiqiy ma’no aytilgan so‘z yoki gapning teskari ma’nosi orqali anglashilishida namoyon bo‘ladi” .Mualliflarning ironiyaga o‘zbekcha ekvivalent sifatida sanalgan “kinoya, qochirim, kesatish, piching” kabi tushunchalar sirasida “kinoya”ga ko‘proq urg‘u berayotganlari bejiz emas. Chunki mazkur sirada “kinoya” so‘zi dominanta bo‘lib, uning ma’no diapazoni keng va universalroq. Ikkinchidan, lug‘aviy ma’nosi istiloh anglatayotgan tushuncha mohiyatiga mos: nutq jarayonida so‘z ko‘chma ma’noda qo‘llanganida ham, narsa-ustidan “yashirin kulinganda” ham bir xil yo‘l tutiladi – “bir nimani derlar, lekin undan o‘zga nimani iroda qilurlar” (Atoulloh Husayniy).

Yuqoridagilardan ayon bo‘lyaptiki, hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligida “kinoya” atamasini ironiyaning o‘zbekcha ekvivalenti sifatida qo‘llash odati qaror topib bo‘lgan. Bundan tashqari, tilshunos olima E.Ibragimovaning kinoyaga doir tadqiqotida ham bu istilohlar sinonim holda qo‘llangan . Yana 80-yillar o‘zbek she’riyati va nasrida ko‘ringan, jahon adabiyotida ironiya deb yuritiluvchi hodisani ham adabiy tanqid kinoya deb atadi. Shularni nazarda tutgan holda “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da “IRONIYA (yun. eironeia – aynan, o‘zini go‘llikka solish) – qarang: kinoya” tarzidagi qayd bilan cheklanib, unga alohida izoh berilmagan, ya’ni bu bilan ikkala terminning sinonim ekanligi e’tirof etilgan. “Kinoya”ga berilgan izohda esa “1) mumtoz adabiyotshunoslikda majoz (ko‘chim)ning bir turi... 2) hozirgi adabiyotshunoslikda ironiya terminining muqobili sifatida faol qo‘llanadi” deyilgan. Shu bilan birga, lug‘atda xorij adabiyotshunosligida “ironiya” termini anglatayotgan ma’nolarni qamrab olish uchun yana “kinoyaviylik” istilohi izohlanib, uning “1) komiklik ko‘rinishlaridan biri, voqelikka g‘oyaviy-hissiy munosabat turi... 2) badiiylik modusi” ekani qayd etilgan . [4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.]

Ko‘rib turganimizdek, bu yerda murosa yo‘li tutilgan: “kinoya” va “ironiya” terminlarining sinonim sifatida qo‘llanishi e’tirof etilgani holda, keyingisi anglatadigan ma’nolarning bir qismi “kinoyaviylik” istilohiga yuklangan. Terminni qo‘llashdagi yuqorida tavsiflangan holatni hisobga olib biz ushbu tadqiqot doirasida “kinoya”

istilohini “ironiya”ga to‘la sinonim sifatida istifoda etamiz. Mutaxassislarning qayd etishicha, ironiya ilk bor Platon asarlarida falsafiy-estetik mazmun kasb etgan. Bu o‘rinda antik olimlar kinoyani etika, estetika, ritorika nuqtai nazaridan talqin qilganlarini, bu talqinlar bir-biriga uzviy bog‘liq ekanini ham qayd etish kerak. Antik dunyoda kinoyachi sifatida mashhur Suqrotning boshqa faylasuflar yozib qoldirgan dialoglari antik donishmandning kinoyaviy pozitsiyasini yaqqol ifoda etadi. Uning barchaga ma’lum “Men hech narsa bilmasligimni bilaman, xolos” degan iborasida faylasufning kinoyaviy nuqtai nazari bilib bilmaslikka olish usulida ifodalanadi. Suhbat davomida o‘z-o‘zini kamsitish orqali suhbatdosh nuqtai nazaridagi zaif jihatlarni fosh etishga odatlangan Suqrot aytmoqchiki, “Boshqalar hatto shuni ham bilishmaydi”. Masihiylik asosidagi diniy-didaktik tafakkur ustuvor bo‘lgan G‘arbda o‘rta asrlar sharoitida kinoya masalasi e’tibordan chetda qoldi.Chunki jiddiyat hukm surgan sharoitda har qanday kulgi, jumladan, kinoyaga ham axloqqa zid deb qaraldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Shirinova A. Shavkat Rahmon she’r va shoirlik haqida // “Yangi O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim” jurnali, 2021-yil 20-may. №3-son. – B.120-124.
3.8. Shavkat Rahmon. Uyg‘oq tog‘lar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1986. – B. 47.

2.Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 b.

3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA RAMZIYLIK

Jo‘raboyeva Yulduzxon Shuxratjon qizi
NamDU Filologiya fakulteti
Adabiyotshunoslik yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam”, “Tobut shahar” hikoyalari tahlil qilinib tuzumning insonlarga ko‘rsatgan salbiy ta’siri ochib beriladi. Maqolada Nazar Eshonqul asarlari qahramonlari taqdiriga ijtimoiy muammolarning qay darajada ta’sir etganligini batafsil ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Hikoya, ramz, ramziylik, tasvir, chirkinlik, psixologimuammolar.

Nazar Eshonqul adabiyotimizga murakkab bir davrda kirib keldi. Ya’ni sobiq sho‘ro saltanati yemirilayotgan bir paytda xalqimiz jahonga yuzlangan, o‘zlikni anglashga bo‘lgan kuchli ishtiyoq avvallari ta’qiqlangan milliy merosimizni ham, jahon adabiyoti durdonalarini ham shitob bilan o‘zlashtira boshlagan paytda. Nazar Eshonqul ijodiga munaqqidlar ham befarq bo‘lmadi.

Umarali Normatov adibning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasini baholar ekan, “…ramziy-simvolik timsollar tashiydigan ma’noning teran va ko‘lamdorligi, qahramon hayot yo‘lining chuqur tahlili – bu asarni jahon novelistikasining eng yaxshi namunalari qatoriga qo‘yish uchun izn bergan edi”, deb yozadi.

Yozuvchining “Maymun yetaklagan odam” asari to‘liq ramziylikka ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, asardagi hashamatli uy tasviri, qo‘llansa hid, ufunat kabi ramzlar inson umriga, jamiyatning illatlarini ochib berishga qaratilgan. Asar davomida bir umr ishongan narsalari yolg‘on, sarob ekanligini anglagan, butun umr sig‘ingan e’tiqodining barchasi puch bir narsa ekanligini anglab yetgan insonning psixologik holati mahoratli tarzda ochib berilgan. Bundan tashqari, rassom chol chizgan suratlar va eskizlarning “1957”, “1947”, “1926”, “1928” tarzida nomlanishining o‘zida ham ma’lum bir ramziylikni ko‘rish mumkin. Ayni, mana shu yillarda, turli qatag‘on, “xalq dushmani” degan ayblovlar bilan millat ziyolilarini qirib yuborish avj olgan edi. Millatning eng sara, hurfikrli kishilarini yoppasiga qatag‘on qilish ommaviy tus olgan davrlarni ko‘rsarib turuvchi rasmlarda qora rang quyuqlashib boradi. Qora rang o‘z ramziy mohiyatini bajaradi.

Rassom chol chizgan suratlarning yillar bilan nomlanishida ham ramziylik bor. “1957”, “1947”, “1937”, “1928”, “1926”,”1921” yillar sanasi Turkiston tarixidagi qizg‘aldoq rangiga bezatilgan sanalar. Millat tarixining alamli kunlarini qisqa va lo‘nda tarzda ayta olish, tasvir va talqindagi o‘ziga xoslik, yozuvchining mahoratidan xabar beradi. Har bir surat va raqam ostidagi yozuvda muallif qalbidagi alamli yaralarning izi aks etgan. Bu kabi xususiyatlar millat chinakam fidoyisi, ma’rifatli ziyolisining ijodiy qiyofasini ko‘rsatadi.

“1921” sanasi qo‘yilgan suratda qora rang boshqalariga qaraganda kamroq, unda o‘rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan kuchli va alpqomat yigit tasvirlangan, suratlarni ko‘zdan kechirgan kishining qalbida allaqanday anglab bo‘lmas va tushunarsiz g‘ashlik paydo bo‘ladi, diliga noxushlik yopirilib kiradi. Agar “1926” yilga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Abdulla Qodiriyning “Yig‘indi gaplar” asari uchun qamoqqa olinganligiga ishora, ehtimol. Maymun yetaklagan yigit suratida “Yigitning ko‘zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo‘yniga solingan kishan tarang tortilgan edi”.

Bu suratlarda nafaqat cholning, balki butun boshli davrning fojiasi aks etgan edi. Maymun tabiat ramzi bo‘lib, yigit jamiyatning timsoli. Ma’lumki, sho‘rolar davrida tabiatni bo‘ysundirish, insoniyat manfaatlariga xizmat qildirish uchun xizmat qilingan edi. Ikki o‘rtadagi ayovsiz kurashlar har ikki tomonga ham ko‘p yo‘qotishlar keltirgan edi. Birgina Orol fojiasining o‘zi ham muammoning nechog‘liq keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi. Tabiatning o‘ziga qilingan zo‘ravonlik uchun o‘ch olishi, munosib javob qaytarishini bugungi kunning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Inson tabiatga qo‘shib, o‘zini, o‘zligini ham xarob qiladi.

Agar yozuvchi Nazar Eshonqul asarlariga jiddiyroq nazar solsak, ularda “qora bo‘yoqlar”, ya’ni, badbo‘y hid, chirkin joy o‘ziga xos ramziy ma’noga egaligini anglaymiz. Bu hikoyada ham shu tasvirlarni uchratamiz. “Cholning uyi hashamatli, keng, lekin tashlab ketilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlar chirigan, umuman hovlidan badbo‘y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog‘ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat

solinadigan unduqadan kelardi. Xayoliga birdan unduqadagi axlatlarni chol umri bo‘yi saqlab kelgan bo‘lsa kerak, degan fikrga kelib qoldim”. Yozuvchi nima uchundir bu makonni o‘ta chirkin tasvirlashga intiladi. Yoki bunda ramziy ma’nolar o‘z ifodasini topganiga e’tibor qaratsak, jamiyatdagi, ya’ni sovuq sho‘rolar hayoti tasvirini o‘ziga xos uslubda taqdim etganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Axir chol ham bekorga chirkin, shaltoq hid keluvchi narsalarni umr bo‘yi yig‘maganligiga, yig‘sa-da, unda o‘zgacha ma’no borligiga ishonamiz.

Rassom chol mustabid tuzumning, hukmron mafkuraning qilich va qalqoni, tuzum yetishtirgan “siyosiy hushyorlik”, yovuzlik, shavqatsizlik timsoli.

Adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdamov “Turfa ranglar uyg‘unligi” nomli maqolasida yozadi: “Agar qahramon hayoti tanlab olingan rang orqaligina olishar ekan, unda shu rangga alohida e’tibor qaratilgani holda qolganlarga ham yo‘l berishga to‘g‘ri keladi. Toki o‘quvchi ko‘rsinki, asar qahramoni atrofida turfa xil ranglar bir edi, biroq taqdir uni shunday girdoblarga otdiki, oqibat uning ko‘zlari, masalan, qoradan o‘zgasini anglamay qoldi. Qolaversa, insonning hayoti boshdan oxir zulmatning ichida kechsa-da, uning orzulari ko‘pincha yorug‘ bo‘ladi”.

Ko‘rinyaptiki, ramz orqali yoki yanada aniqroq aytsak, hikoyadagi “qora ranglar”da ham o‘ziga xos falsafiy mulohazalar yotganligi bu fikrlar orqali ham isbotlash mumkin. Chunki hikoya qahramoni rassom cholning ilk satrlarida ranglar o‘ziga xos tarzda ifodalansa-da, so‘nggi rasmlarda qora rangning ortib borishidan asardagi hikoyaning o‘zi ham lol qoladi va undan qandaydir ma’no izlashga intiladi.

Adabiyotshunos olim Umarali Normatov asar haqida yozadi: “Maymun yetaklagan odam” qahramoni o‘z umrini, hayotini, bor zakovatini, asrimizning “ulug‘ ishlariga“ tikkan, bu borada o‘zini ham ayamagan, qolaversa, jamiyat ham uni siylagan, pensiyaga chiqqunga qadar turli lavozimlarda ishlagan. Uni faqat ilohiy qismat jazolagan. Xotini o‘lib farzandlari nobop chiqib qariganida tanho, qarovsiz, ayanchli ahvolga tushib qolgan. U ish, prinsip deb qarindosh urug’laridan judo bo‘lgan, unda do‘st- birodarlar ham yo‘q eng yomoni, uning qalbida qarigan chog’ida, bu foniy dunyodan boqiy dunyoga rihlat qilish yaqinlashgan damda ruhan taskin topib ovunadigan ilohiy e’tiqod yo‘q.

U.Normatov asosli fikrlarni bayon etib, asar qahramoni haqidagi haqqoniy xulosani bera olgan: “Maymun yetaklagan odam” qahramonining qisman omadi bor ekan, garchi kechikib bo‘lsa-da, u o‘zligini anglab yetganday bo‘ldi”.

Yozuvchining birgina “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi achchiq qismat egasiga aylangan shaxs hayoti orqali tanazzulga yuz tutayotgan jamiyat illatlarini haqqoniy ko‘rsatib berdi.

Nazar Eshonqulning “Tobut shahar” hikoyasida tasvirlangan voqea shaharda bo‘lib o‘tadi, hikoya qahramonlari va bosh hamrohlari birgalikda o‘lat shaharga borishadi. Asar me’mor tilidan hikoya qilinadi. Hikoya tobut shaklida qurilgan shahar – ya’ni, sovet tuzumi haqida. Odamlarning hissiz va loqaydligi, me’morning aqldan ozishi, shahardagi qo‘llansa hid, borgan sari og‘irlashib borayotgan ahvol, o‘zini-o‘zi yemirib borayotgan shahar, mustabid tuzumning belgilarini ko‘rsatuvchi ramzlar. O‘zi umuman asar ramziylikka asoslangan. Xalqlarni manqurtga, tirik qullar, tekin ishchi kuchiga aylantirmoqchi bo‘lgan tuzum tobutga o‘xshatilgan. Bu odamzot hali xayoliga keltirmagan shahar – ilmiy kommunizm degan niqob ostidagi qonli siyosatning aksi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Nazar Eshonqul asarlarida jamiyat, jamiyat kishilari, davr fojeasi, shaxs muammosi, hukrom mafkura siyosati ostida ezilgan xalq, tuzumning insonlar ruhiyatiga ko‘rsatgan salbiy ta’sirlari, psixologik muammolar, insonlar taqdirini tubdan o‘zgartirib yuborgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat belgilar, ramzlar orqali ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1978.
2. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1979.
3. Эшонқул Н. Ялпиз ҳиди. – Тошкент: Шарқ.
4. Эшонқул Н. Тасаввурга дош берсанг бўлди... // Ёшлик. – Тошкент, 2003, -№
5.Internet saytlari : http:// ziyoNet.uz
http: // kitob.uz http: // arxiv.uz

O‘ZBEK FOLKLORI VA UNING ADABIYOTDAGI O‘RNI

TerDPI Tillar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
4-bosqich 406-guruh talabasi
Qudratova Manija Shohmansur qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek folklori va uning adabiyotdagi o‘rni tahlil qilingan. Folklor, xalqning qadimiy madaniy merosi sifatida, o‘zbek adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Maqolada folklorning asosi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zbek xalq adabiyotiga qanday ta’sir qilganligi, xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot o‘rtasidagi bog‘liqliklar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek folklori, xalq ijodi, adabiyot, og‘zaki ijod, doston, she’riyat, adabiy janrlar, xalq qo‘shiqlari, folklor va adabiyot, xalq ma’naviyati, folklor merosi, xalq an’analari, milliy madaniyat, o‘zbek xalqi.

Annotation: In this article, the Uzbek Folklore and its place in literature is analyzed. Folklore played an important role in the formation and development of Uzbek literature as the ancient cultural heritage of the people. The article explored the basis of folklore, its unique features and how the Uzbek peoples influenced, folklore and written literature.

Keywords: Uzbek folklori, folk creation, literature, oral creation, literature, folklore and literature, folk spirituality, folklore heritage, folk traditions, national culture, Uzbek people.

Аннотация: В данной статье анализируется узбекский фольклор и его место в литературе. Фольклор, как древнее культурное наследие народа, сыграл важную роль в становлении и развитии узбекской литературы. В статье рассматриваются основы фольклора, его специфика и влияние на узбекскую народную литературу, связи народного устного творчества и письменной литературы.

Ключевые слова: узбекский фольклор, народное искусство, литература, устное творчество, эпос, поэзия, литературные жанры, народные песни, фольклор и литература, народная духовность, фольклорное наследие, народные традиции, национальная культура, узбекский народ.

O‘zbek folklori – xalqning eng qadimiy, boy va rang-barang madaniy meroslaridan biri bo‘lib, u nafaqat xalqning turmush tarzini, e’tiqodlarini, urf-odatlarini aks ettiradi, balki adabiyotning rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Folklor asosan og‘zaki mahsul bo‘lib, uni xalq o‘rtasida turli shakllarda – ertaklar, dostonlar, maqollar, iymlar, qo‘shiqlar va boshqa janrlarda yaratib, avloddan-avlodga yetkazib kelgan. O‘zbek adabiyoti esa, o‘zining shakllanishi va rivojlanish jarayonida,

ko‘plab folklor elementlarini o‘ziga singdirgan, bu ikki sohaga o‘xshashlik va uyg‘unlikni olib kelgan. [O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000]

Folklor va adabiyot o‘rtasidagi aloqani tushunishda, avvalo, ularning bir-birini boyitishdagi o‘rniga e’tibor qaratish kerak. Folklor, xalqning tilda ifodalanadigan dunyoqarashidir, u adabiyotning boy manbai sifatida xizmat qiladi. Adabiyotda folklor elementlari orqali milliy ruh, qadriyatlar, tarixiy xotira va hayotiy tajribalar aks etadi. O‘zbek adabiyotining ko‘plab asarlari, ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi mahsulidan ilhomlangan va uni o‘z vaqtida yangi adabiy shakllarga aylantirgan. Masalan, Alisher Navoiyning “Xamsa”si – bu nafaqat adabiy yodgorlik, balki o‘zbek xalqining qadimiy dostonlaridan va afsonalaridan olingan g‘oyalar va obrazlarni zamonaviy badiiy shaklda ifodalagan asar. Navoiy o‘zining dostonlarida, afsonalarida, xususan, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi asarlarda, xalqning sevimli qahramonlarini va ularning kurashlarini tasvirlagan.

O‘zbek folklori adabiyotga ta’sir ko‘rsatish bilan birga, uning rivojlanishiga ham turtki bo‘lgan. O‘zbek adabiyoti o‘z boshlang‘ich shaklida folklor an’analariga tayanadi. Ular xalq hikoyalari va she’riyatiga asoslanib, keyinchalik yozma adabiyot shaklida rivojlanib borgan. Masalan, klassik o‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri bo‘lgan Alisher Navoiy, o‘z asarlarida folklor motivlari va timsollarini keng qo‘llagan. Navoiy tomonidan ishlatilgan xalq she’riyatiga xos bo‘lgan uslublar va obrazlar, o‘zbek xalqining folklor an’analariga asoslangan.

O‘zbek adabiyotidagi ko‘plab asarlar folklorning asosi bo‘lgan qahramonlar, hodisalar, ma’naviy qadriyatlar va an’analar bilan boyitilgan. Masalan, “Alpomish” dostonining adabiy shakllanishi, uning yozma adabiyotda qanday shakllanganligi o‘zbek xalqining og‘zaki ijodidan ta’sirlanganligini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotining taraqqiyotida Usmon Azim, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Erkin Vohidov kabi yozuvchilar folklor va an’analarni o‘z asarlarida to‘g‘ri aks ettirishga harakat qilgan. Ushbu adiblar, xalqning ma’naviy xazinasini zamonaviy adabiyotning ajralmas qismi sifatida tan olganlar va folklor bilan bog‘liq uslublarni o‘z asarlarida qo‘llaganlar.

O‘zbek folklori turli shakllarda mavjud bo‘lib, uning har bir turi adabiyotda o‘z izini qoldirgan. Ularning ayrimlarini alohida ko‘rib chiqish lozim:

1. Ertaklar – Xalq og‘zaki ijodining eng mashhur janrlaridan biri. Ertaklar, odatda, qadimgi xalq e’tiqodlarini, yovuzlik va yaxshilik kurashini, qahramonlik va adolatni tasvirlaydi. O‘zbek adabiyotida ertaklar ko‘p holatlarda doston va hikoyalarga asos bo‘lgan. Erkin Vohidovning “Olovli qo‘shin asari, masalan, xalq ertaklaridagi qahramonlik motivlarini zamonaviy shaklda yangilagan.

2. Dostonlar – Dostonlar xalqning tarixiy xotirasini saqlashda, shuningdek, milliy qahramonlarning jasorati va kurashlarini tasvirlashda katta rol o‘ynaydi. O‘zbek dostonlarida xalqqa mansub qahramonlarning jasoratlari, urushlar va sarguzashtlar o‘rganiladi. Misol uchun, “Alpomish” dostonida xalq qahramoni Alpomishning kurashlari va sadoqatining tasviri milliy g‘urur va jasoratning ifodasi bo‘ladi. Bu doston o‘zbek adabiyotining eng qadimiy asarlaridan bo‘lib, ko‘plab yozuvchilarga ilhom manbai bo‘lgan.

3. Maqollar va iymlar – O‘zbek xalqining donoligini va tajribasini aks ettiruvchi qisqa va ma’noli ifodalar. Ular xalqning jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarini, hayotiy prinsiplarini ifodalaydi. Ko‘plab o‘zbek yozuvchilari, ayniqsa, Abdulla Qodiriy, Chingiz Aytmatov kabi adiblar, maqollar va iymlarni asarlarida faol qo‘llagan, ularni adabiy ifodalariga uyg‘unlashtirgan.

4. Maqollar va naqllar – xalqning donoliklarini va hayotiy tajribalarini qisqacha, soddaroq va ta’sirchan shaklda ifodalovchi iboralar.

5. Folk-musiqa va qo‘shiqlar – O‘zbek folklorining ajralmas qismi bo‘lgan musiqiy ijod ham adabiyot bilan uyg‘unlashgan. Musiqa va qo‘shiqlar xalq hayotining turli jihatlarini tasvirlaydi va ko‘pincha adabiyotda tasvirlanadigan voqealarning ritmik va hissiy ifodasini o‘zgacha shaklda beradi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida folklor elementlari hali ham kuchli aks etadi. Bugungi kunda yozuvchilar xalq og‘zaki ijodini yangilab, uni o‘z asarlariga qo‘shib, zamonaviy ijtimoiy va psixologik masalalarni yoritishda foydalanmoqdalar. Erkin Vohidov, Muhammad Ali, Husayn Sodiq kabi yozuvchilar folklor motivlarini modernistik yo‘llar bilan birlashtirib, yangi shakllar yaratganlar. Misol uchun, Muhammad Alining “Yulduzlar ostida” romani o‘zida xalq dostonlaridan olingan obrazlar va motivlarni o‘zida aks ettirgan. Yozuvchi, adabiyotga xalqning boy madaniy

merosini olib kirib, uni yangi voqea va obrazlar bilan to‘ldirgan. Shu tarzda, o‘zbek folklori adabiyotda doimiy ravishda yangilanish va rivojlanishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek folklori va uning adabiyotdagi o‘rni ulkan va muhimdir, shuningdek, xalq ijodining bir qismi bo‘lib, u o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. O‘zbek adabiyotining folklor bilan chambarchas bog‘liqligi uning badiiy jihatdan boyishiga, milliy ruhni saqlashga va zamonaviy o‘quvchilarni o‘ziga jalb etishga xizmat qiladi. Folklor va adabiyotning o‘zaro aloqasi, o‘zbek xalqining madaniy merosini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazib berish uchun zarurdir. Xususan, o‘zbek folklorining boyligi, rang-barangligi o‘zbek adabiyotining rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, o‘zbek folklori va adabiyoti o‘rtasidagi aloqalar nafaqat badiiy, balki madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000
2. Mahmudova, N. (2009). O‘zbek folklori va adabiy merosi. Toshkent: Fan.
3. Raxmonov, I. (2005). O‘zbek xalq adabiyoti: Folklor va doston.
4. Yuldashev, B. (2012). O‘zbek folklorining adabiyotdagi o‘rni.

NAVOIYNING HAYOT YO‘LI VA U YOZGAN ASARLARNING DUNYO TAMADDUNIGA QO‘SHGAN HISSASI

Termiz davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi
Muhammadiyeva Mehriniso
mehrinisomuhammadiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiyning hayoti va ijodi, uning qilgan ishlari, davlat boshqaruvi va ijodiy faoliyati, bu namoyondaning davlat boshqaruvi va ijodiy faoliyatini hamohang tarzda olib borgani, u haqidagi zamondoshlari va buyuk namoyondalarning fikrlari, zamondoshlarining bu buyuk shaxs haqida ma'lumot beruvchi asarlari hamda uning o‘zi yozgan asarlar to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek Navoiy yozgan asarlarning har tomomlama tahlili, asarlar hozirgi XXI asr zamonida qanday qabul qilinishi, hozirgi zamon yoshlarining tarbiyasida bu asarlarning ahamiyati xususan shoir asarlarining tasavvufiy va falsafiy tahlili hamda bu asarlarning jahon tamadduniga qo‘shgan hissasi haqida fikrlar jamlanib xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Navoiy, So‘z san’atkori, Renessans, Asarlar, Jahon,Sharq, She’riyat,Yoshlar tarbiyasi,Falsafa

Аннотация: О жизни и деятелности Навои, его дастижениях государственном управлении итворческая деятельность, его проявление государственной информации, мнение о нем современников и великих деятелей произведения современников, сообщаюшие об етом великом человеке и произведения написанные им. Также проводится полный анализ произвидений, написанных Навои того, как произведения принимаются в XXI веке значение етих произведений в воспитании современной молодёжи, в частности, мистикофилософский анализ творчества поета и вклад етих произвидений в мировую культуру.

Annotation: The jeveler of the world, agreat poet, a statesmen with a great position in the formation of the uzbek language malik ul kalam, Nizamiddin Mir Alisher Navoi, is written in this article about Navoi's life and work, his achievements, state management and creative activite, this manifestation of the state information about his management and creative activities, the opinions of his contemporaries and great figures about him, the work his contemporaries that inform about this great person, and the works written by him. Also there is a complete an analisis of the works written by Navoi, how the works a accepted in the XXI sentury,the significance of these works in the adulation of today’s youth, in particular, a mystical and philosophical analysis of the poet's works and the contributions of these works to the world culture.

Sharq buyuk mutafakkiru adiblar, olimu ulamolar, shoiru shuarolar, vali-yu avliyolar yetishib chiqqan muqaddas makon bo‘lib, bu zaminning namoyondalari

haligacha butun dunyo hurmati, e'tiboriyu e'tirofida. O'zlari bu olamda bo'lmasalarda nomlari tillarda barhayot. Aynan sharq renessansi butun dunyoga buyuklarni yetishib chiqishida eng katta omil bo'lgan.

Shunday bir Markaziy Osiyidan yetishib chiqqan so'z gavharining zargari borki, uni misol qilib keltirmaslik mumkin emas. Biron o'zbekistonlik yo o'zbekistonda yashaydigan inson yo'qki bu shoirni tanimasa. Bu zot bir O'rta Osiyo emas balki butun sharqda yuksak ehtirom bilan tilga olinadi. Buyuk mutafakkir, shoir, adib, davlat arbobi, o'zbek tilining hozirgi ko'rinishiga kelishida yaratgan minglab asarlari bilan ulkan hissasini qo'shgan, so'zlar chizmasidan naqshlar chizgan so'z naqqoshi Alisher Navoiy haqida so'z yuritarkanmiz, Aisher Navkoiy nainki yozgan asarlari bilan balki, har bir ishi bilan o'rnak bo'ladigan inson edi deya olamiz. Yozgan asarlari va o'z davridagi qilgan ishlari, faoliyati bilan sharq renessansiga o'z hissasini qo'shgan bu buyuk zot haqidagi ta'riflar juda go'zal darajada baland saviyada bo'lib, har bir badiiyat va adabiyot ixlosmandi, O'zbek tilida faoliyat olib boradiga har bir shaxs Navoiyni qayta kashf qiladi. O'zbek tili mavjud ekan Navoiyni ta'riflash va u haqidagi ta'rifning yangicha sayqallangan ko'rinishlari paydo bo'laveradi. Chunki bu buyuk mutafakkirning hayoti, ijodi, faoliyati asarlari haqida o'rganish, bilish biz kabi asosiy faoliyati so'z bilan amalga oshadigan talabalarning burchi, kerak bo'lsa majburiyatihamdir

Ammo avval Navoiyning o'zi haqida qisqacha ma'lumot va tushunchalar berib o'tish lozim. Lekin bundan ham avval bu ma'lumotlar manbalariga to'xtalib o'tmaslik ayrim tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Alisher Navoiy haqidagi ma'lumot beradigan manbalarni uch guruhga bo'lamiz;
Alisher Navoiy haqidagi ma'lumot beradigan manbalarni uch guruhga bo'lamiz;

Navoiyning o'z asarlaridan keltirilgan ma'lumotlar. Navoiy o'zining hayoti va tarjimayi holini maxsus shaklda yozib qoldirmagan bo'lsada, uning deyarli barcha asarlarida o'zi, faoliyati, o'zi yashab ijod etgan davr muhiti, qarashlari, yaqin do'stlari haqida muayyan ma'lumotlar keltirilgan. Xususan "Vaqfiya", "Munshaot" asarlarida o'zining ijtimoiy faoliyati aks etgan joylari bo'lsa, "Majolis un nafois", "Xamsa", "Munojot", "Xazoyin ul maoniy" asarlarida shaxsiy xayoti "Muhokamat ul-

lug‘atayn”, “Xamsat ul mutaxayyirin”, “Xoloti Hasan Ardasher” kabi asarlarida o‘zi yozgan ba’zi asarlarning kelib chiqish ta’rixi haqida ma’lumotlarni uchratamiz.

Husayn Boyqaroning “Risolasida” do‘sti Navoiyning “Xamsa” asari va she'riyatiga yuksak baho berib shoirni “so‘z mulkining kishvaristoni, sohibqironi deb ta’riflaydi. G‘iyosiddin Humomiddin Xondamirning “Xulosat ul axbor”, “Habibus – siyar” asarlarida ham Husayn Boyqaroning taxtga o‘tirishidan to Hazrat Navoiyning vafotiga qadar bo‘lgan voqealar bayon etilgan. Ta’rixchining “Makorim ul-axloq” asari esa shoirning yuksak saviyasi va axloqiga bag‘ishlangan bo‘lib, asarda Navoiy tarjimai holi to‘g‘risida muhim faktlar keltirilgan. Shuningdek Atoulloh Asiliyning “Ravzat ul ahbob”, Husayn Voiz Koshifiyning “Javohit ut – tafsir” kabi asarlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

3. XVI-XIX asrdagi tazkira lug‘at tarixiy va badiiy asarlar; Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkari Ahbob” tazkirasi, Faxriy Hirotiyning “Latoifnoma” asari, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari, Mirzo Haydar Dug‘lotning “Ta'rixi Rashidiy” asari, Lutf Alibek Ozarning “Otashqadai Ozariy”, Som Mirzo Safaviyning “Tuxfai somiy”, Rizoqulixon Xidoyatning “Majmua ul fusaxo” asarlarida Navoiy hayoti va faoliyati bilan bog‘liq fikr va ma'lumotlar qisman keltirilgan.

Bunyodkorlik ishlari davrida “Vaqfiya” asarini, do‘sti Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi va ramazon hayiti munosabati bilan do‘sti sharafiga “Hiloliya” nomli qasidasini unga taqdim etadi.

Shuningdek ma’naviy do‘stlari, ustozlari vafotidan keyin ularning xotirasiga bag‘ishlab Abdurahmon Jomiy hayoti haqida “Xamsat al-mutaxayyiriyn”, Hasan Ardasher va pahlavon Muhammadga bag‘ishlab “Holati Sayyid Hasan Ardasher” va “Holati Pahlavon Muhammad” asarlarini yozgan.

Alisher Navoiyning bu darajada ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchayishi saroy ahlining g‘ashiga tegadi. Saroyda turli xil fitnalar kuchayib ikki do‘stning orasi buziladi va Hukmdor Navoiyni Astrobodga hokim qilib, aslida esa surgun qilib yuboradi. Lekin bu xayrli bo‘lmaydi, davlatda oqil va donolarning kamayishi davlatni tanazzulga uchratadi. Buni Husayn Boyqaroning o‘g‘li shahzoda Badiuzzamonning o‘limini eslash kifoya. Lekin Badiuzzamon bilan Astroboddaligida yozishgan

maktublari davlat ishlarini yuritishda eng yaxshi qo‘llanma hisoblanadi. Yurt tanazzulga uchrab shoh barcha fitna va yolg‘onlarni bilgani, ko‘zi ochilganidan keyin do‘stini chaqirtirib o‘z lavozimia qaytarishga urinadi ammo Navoiy qabul qilmaydi. Ammo do‘stining iltimosi bilan “Muqarrabi hazrati sultoni” unvoniga ega bo‘ladi. Bu esa deyarli hukmdorning o‘rinbosari degani edi.

Hazrat Alisher Navoiyning badiiy merosi juda katta hajmni tashkil qiladi.

Uni tahlil qilish uning adabiy merosini o‘rganish mana necha asrdirki yakunlangani yo‘q. Yakunlayolmayapmiz. Bu faoliyat bir mamlakatimizda emas jahonda ham amalga oshmoqda, ammo haligacha to‘liq o‘rganilmagan.

So‘nggi tadqiqotlarga qaraganda Navoiy 31 ta janrda ijod qilgan.

Shoirning o‘zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan “Xazoyin ul-maoniy” devoniga jamlangan. Fors tilida 12000dan ortiq she’rlari mavjud. Muammo janri haqida “Mufradot” risolasi, “Sittayi zururiya”, “Fusuli arbaa” turkum qissalarini yaratgan. “Devonini foniyni” yozgan. “Navodir un-nihoya”, “Badoye ul-bidoya” asarlari maydonga keldi.

Buni Oqquyunlilar sulolasi hukmronligi hududidagi muxlislari, ixlosmand shogirdlari tomonidan Navoiyning o‘zi yozgan devonlarini jamlab devon tuzishgan. Lekin uni fanda shartli ravishda “Oqquyunlilar devoni” deb nomlashadi. Navoiyning lirik sherlari hajmi 50000 misrani tashkil etadigan “Hazoyin ul-maoniy” nomli to‘rt devonida jamlangan.

Navoiyning ilmiy va badiiy merosi ulkan bo‘lib, ularning ko‘p qismi adabiyotshunoslik va tilshunoslikga oid va Navoiyning turk tilining rivojlanishiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir.

Uning “Mufradot” va “Risolayi muammo” asarlari fors tojik tilida yozilgan bo‘lib muammo janrini yechish qonun qoidalariga bag‘ishlangan. Navoiyning yana bir adabiyotshunoslikga bag‘ishlangan asari “Majolis un-nafois” asaridir. Bulardan tashqari “Mezon ul-afzon”, “Muhokat ul-lug‘atayn” asarlari ham mavjud. Lekin shoirning “Sab’at ul-abhur” asari arab tili leksikografiyasi sohasida yaratilgan yirik asari bo‘lsada bu asar kam tadqiq etilgan.

Navoiyning diniy va tasavvufiy asarllari “Vaqfiya”, “Siroj ul-muslimin”,

“Munojot”, “Arbain”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Nazm ul Javohir” asarlaridir

Ta'rixiy asarlar: “Ta’rixi anbiyo va hukamo”, “Ta’rixi mulki ajam” asarlari ham ta’rixiy jihatdan mufassal yoritilgan.

Navoiyning asarlarini, uning merosini o‘rganish uchun mamlakatimizda qator ishlar qilindi va qilinmoqda. 2000-yil Alisher Navoiyning 580 yilligini nishonlash to‘g‘risida qaror imzolangan. Qarorda, shuningdek, Alisher Navoiyning xorij davlatlarida saqlanayotgan asarlar qo‘lyozmalarining faks email nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish, ularni o‘rganish va taqdim etish vazifasi belgilangan edi ayni paytda bu yo‘nalishda ilmiy amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Samarqandda Navoiyshunioslik maktabi ochildi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda “Alisher Navoiy” xalqaro jurnali mavjud. 2022-yil jurnalning birinchi sonida professor Astondil Erkinov Navoiy asarlari dunyo katalogini tashkil qilish taklifini beradi. Bularni sanasak sanog‘iga yetolmaymiz. Lekin Navoiy asarlari butun dunyoda o‘rganilashi keng miqyosdagi jarayon. Bu xalqlar do‘stligi va madaniyatlar birlashuvida katta ahamiyatga ega. Bu jarayon mamlakatlarni madaniy, ilmiy, siyosiy jihatdan bir- biriga bog‘lashda ahamiyatga molik jarayonligi hozirda eng ko‘zga korinadigan jarayondir. 2007-yilning aprelida Vashingtonda “Alisher Navoiy va uning markaziy Osiyo xalqlari madaniy taraqqiyotiga ta’siri” mavzuida konferensiya o‘tkazildi. 2009-yildan boshlab Astraxanda Navoiyga bag‘ishlab madaniy tadbir o‘tkazib kelinadi. Jahon Navoiyshunosligi ham jadallik bilan rivojlanmoq. Fransuz olimi Aleksandr Papas Navoiyning ilmiy me’rosidan bir asari “Muhokamat ul- lug‘atayn”ni o‘rganyapti, AQSH tadqiqotchisi Nikolas Vomsli esa “Nasoyim ul- muhabbat” tazkirasiga oid qiziqarli faktlar topgan. Vomslining fikricha, “Nasoyim ul-muhabbat” O‘rta Osiyoda eski o‘zbek tilida bitilgan ilk biografik lug‘at. Yaponiyalik professor Kazauki Kubo “Navoiyning homiylik faoliyati”ni o‘rgangan. G‘arb universitetlarining O‘rta Osiyoni o‘rganish bo‘limida tahsil olayotgan talabalar “Yosh Navoiyshunoslar” to‘garagini tashkil etgan.

Navoiy asarlari deyarli barcha mamlakat kutubxona, muzey va fondlarida saqlanadi. Germaniya 88 nusxada, Fransiya 42 nusxa, Finlandiya 27 nusxa, Chexiya 11, Shvetsariya 13 nusxa, Estoniya 8 nusxada, Rossiya 94 nusxada Navoiy asarlari

saqlanadi.

Navoiy shunchalik o‘zbek xalqi ruhiga singib ketgangi O‘zbekistonni Navoiysiz tasavvur qilib bo‘lmaydi uning g‘oyalari asarlari o‘rganilishi har qadam har joyda Navoiy mavjud. O‘zbek xalqi uchun Navoiy bu milliylik, til va adabiyot klassikasi. Bir o‘ylab ko‘raylik o‘zbek xalqida Navoiy bo‘lmaganida, u haqidagi qarashlar, uning asarlari bo‘lmaganini ko‘z oldimizga keltiraylik.

O‘zbek bolalarining rus maktabida o‘qishlari ularni Navoiydan uzoqlashtirmoqda. Yoshlarimiz Pushkinni o‘qib katta bo‘lishmoqda. Birinchi, ikkinchi sinf bola hijjalab Navoiyni o‘qirdi. Hozir Navoiydan uzoqlashyapmiz chunki kitobdan uzoqlashyapmiz, faktlarni shunchaki berish emas balki uni mohiyatini anglatgan holda hayotiy misollar bilan o‘zligimiz e’tiqodimizni e'tibordan qochirmagan holda to‘g‘ri anglata olishimiz kerak.

Navoiyga bo‘lgan yoshlar e'tibori bugun so‘nmadi. Bu bizning ta’lim berish jarayonidagi e’tiborsizlik va sustkashliklarimiz natijasi bo‘lib, buni bir kunni ichida yoshlarimiz ongiga ruhiga singdirolmaymiz sekinlik bilan jadallashtiramiz. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganidek, uchinchi renessansni boshlab beramiz va boshlab beradigan kelajak avlodni, minglab Navoiy singari buyuk dohiylarini tarbiyalaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot darslarida Alisher Navoiy ijodini o‘rganish muammolari. O.A.To‘rakulova. Toshkent – 2019.
2. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy me'rosini o‘rganish masalalari. Xalqaro anjuman materiallari. Toshkent – 2023.
3. Alisher Navoiy va XXI asr Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag‘ishlanga xalqaro ilmiy - amaliy anjuman materiallari.
4. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. https//tafakkur.net
5. Alisher Navoiy. https//arboblar.uz
6. Alisher Navoiy asarlarining qo‘lyozmalari Berlin davlat kutubxonasida. https//society.uz
7. Alisher Navoiy dunyo sharqshunoslar nigohida. http.yuz.uz
8. Alisher Navoiy. "Yangi avlod" Toshkent - 2000
9. Alisher Navoiy haqida qiziqarli ma'lumotlar. https://uzbaza.uz
10. Alisher Navoiy haqida.Http://erkak.uz
11. Jahonga sochilgan durdonalar. "Yangi o‘zbekiston" jurnali. https://yuz.uz

12. Navoiyshunoslik. O‘quv - uslubiy majmua. Guliston davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi. Guliston – 2021.
13. Navoiyshunoslik. Shuhrat sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova,Olimjon Davlatov. Toshkent - 2019Layli va Majnun. Dostonning ixcham badiiy nashri.
14. Ona tili va adabiyot (ko‘ngillilar guruhi). https://m.ok.ru
15. Zulxumor Mirzayeva. Jahon navoiyshunosligi: Kecha va bugun. https//ziyo.uz

YANGI O‘ZBEK ADABIYOTINI DAVRLASHTIRISH

Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich talabasi To‘raxonov Oybek

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi o‘zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari, uning rivojida xos muhim xususiyatlarini, davrlashish bosqichlari, XX asrda adabiyotimizda paydo bo‘lgan adabiy janrlar,XX asr adabiyotining ilk davri, XX asr 20-yillar adabiyotining asosiy yutug‘i, 30-50-yillar adabiyotining asosiy yutug‘i haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar:Yangi o‘zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari, XX asr adabiyoti

Abstract: In this article, the stages of development of the new Uzbek literature, the important features of its development, periodization, literary genres that appeared in our literature in the 20th century, the first period of the 20th century literature, the main achievement of the literature of the 20s of the 20th century, the main achievement of the literature of the 30s-50s.

Key words: stages of development of new Uzbek literature, 20th century literature

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы развития новой узбекской литературы, важные особенности ее развития, периодизация, литературные жанры, появившиеся в нашей литературе в XX веке, первом периоде литературы XX века, основные достижения литература 20-х годов 20 века, главное достижение литературы 30-50-х годов

Ключевые слова: этапы развития новой узбекской литературы, литература XX века.

“Biz shoir deganda, avvalo, Alisher Navoiydek benazir zotlarni, yozuvchi deganda Abdulla Qodiriy, Oybek singari o‘z xalqi uchun nafaqat noyob iste’dodini, ayni paytda butun hayotini bag‘ishlagan buyuk va mo‘tabar insonlarni tasavvur etamiz. Xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug‘ bir dargoh deb biladi. Milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy meros deganda talay ma’nolarni anglash mumkin. Shulardan eng muhimi, shubhasiz, o‘zbek adabiyoti bo‘lib chiqadi. Zero, har bir xalqning adabiyoti dastlab o‘z milliy tarixi, an’analari, madaniyati va milliy ma’naviyatini ifodalash bilan qimmatlidir. Chunki adabiyot - ma’naviyat sarchashmasi. U yosh avlodni tarbiyalashda, ular ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

XX asr o‘zbek adabiyoti ko‘p asrlik milliy adabiyotimiz tarixida alohida o‘rin egallaydi. Garchand bu davr adabiyotining aksar namoyandalari sobiq sovet davrida yashab ijod etgan va ularning asarlari shu davr mafkurasi ta’siridan xoli bo‘lmagan bo‘lsa-da, milliy adabiyotimiz shu davrda jahon adabiyotining badiiy yutuqlaridan, mumtoz va zamonaviy ijodkorlarning tajribalaridan bahramand bo‘ldi. XX asr o‘zbek adabiyoti yaxlit holda har jihatdan yangi o‘zbek adabiyoti deb atalishga loyiqdir. XX asr boshlariga kelib “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Samarqand”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg'ona”, “Hurriyat” gazetalari, “Oyna”, “Al-isloh” jurnallari qalam ahlining bosh minbariga aylandi. “Ishtirokiyun”, “Qizil O‘zbekiston”, “Mushtum”, “Bilim o‘chog‘i”, “Maorif va o‘qituvchi”, “Yer yuzi”, “Alanga” kabi gazeta-jurnallar o‘sha davr adabiyotining ko‘zgusi edi. Hozirgi adabiy jarayon, ya’ni istiqlol davri o‘zbek adabiyoti bir qator o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lgan alohida badiiy-estetik hodisadir. Bu davr adabiyoti hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, olam va odam nihiyatiga mansub hodisalarga xilma-xil qarashlarning mahsuli bo‘lgan adabiyotdir. Adabiyot ijodkoming ko‘ngil ishiga aylandi va aylanmoqda.

Yangi o‘zbek adabiyoti mamlakat, xalq hayoti, davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan mustahkam aloqadorlikda tug‘ildi, shakllandi, rivojlandi. Bu adabiyotni quyidagicha davrlashtirish mumkin:

1. XX asr boshida o‘zbek adabiyoti
2. XX asr 20-yillar adabiyoti
3. XX asr 30-40-yillar adabiyoti.
4. XX asr 60-90-yillar adabiyoti
5. Hozirgi adabiy jarayon (90-yillardan boshlab).

20-yillar o‘zbek adabiyotining asosiy yutug‘i yetuk realistik hikoya, qissa, mian, drama namunalari va yangicha she’riy shakllarning paydo bo‘lishi bilan elgilanadi. Cho‘lponning “Oydin kechalarda”, “Qor qo‘ynida lola”, “Novvoy qiz”, Abdulla Qodiriyning “Uloqda” va “Jinlar bazmi”, Abdulla Qahhorning “Boshsiz odam” hikoya XX asrning 30-yillarida maktab-maorif, ilm-fan, adabiyot va san’at sohasida muayyan yangiliklar paydo bo‘ldi

XX asr o‘zbek adabiyoti yaxlit holda har jihatdan yangi o‘zbek adabiyoti deb atalishga loyiqdir. Atoqli munaqqid Ozod Sharafiddinov: “XX asrda bizda jahonning hay qanday yuksak talablariga javob bera oladigan yuksak adabiyot yaratildi, deb baralla aytishimiz mumkin. Hikoyachilik, romannavislikda ham, she’riyatda ham, dramaturgiyada ham buning isbotini o‘nlab uchratish mumkin, - deb yozgan edi.

Bu adabiyotning rivojiga xos bosh xususiyat tinimsiz yangilanib borishi va shu Yo‘ldagi qiyinchiliklar, kurashlar, bahs-munozaralar, kashfiyot va yo‘qotishlar tarixidan iborat. Yangi o‘zbek adabiyotining tug‘ilishi, shakllanishi, rivoji bir asr davomida uch xil ijtimoiy tuzu,-rus chorizini istibdodi, sho‘ro hokimiyati va istiqlol davrida xilma-xil siyosiy, mafkuraviy oqimlar - jadidchilik, bolshevizm va milliy istiqlol mafkurasi ta’sirida taraqqiy etdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida she’riyat, nasr va dramaturgiya turlarida yaratilgan aksar asarlar safarbarlik ruhiga ega. Oybekning “O‘lim yovga”, Hamid Olimjonning “Qo‘lingga qurol ol’’, “Yigitlami frontga jo‘natish”, G‘afur G‘ulomning “Sen yetim emassan”, “Sog‘inish”, “Kuzatish”, M.Shayxzodaning “Kurash nechun?”, “Kapitan Gastello”, Uyg‘unning “Vatan haqida qo‘shiq”, Mirtemirning “Oleg va o‘rtoqlari”, Zulfiyaning “Uni Farhod der edilar” singari she’rlari shu davrda e’lon qilingan publitsistik maqolalar, front qahramonlari haqidagi ocherklar bilan birga, xalqni qahramonona kurash va mehnatga safarbar etdi. Uyg‘unning “Vatan haqida qo‘shiq” she’rida Vatan onaga qiyoslanadi. Shoir Vatan uchun jonini ham kechishga tayyor qahramonlar nomidan shunday deydi:

Vatan - ona so‘zi naqadar laziz,
Sensan har narsadan mo‘tabar, aziz,
Hurmatingni saqlar har bir o‘g‘il-qiz,
Muqaddas, mo‘tabar ulug‘ Vatanim,
Sharaflar, shonlarga to‘lig‘ Vatanim,
O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.

Hozirgi adabiy jarayon, ya’ni istiqlol davri o‘zbek adabiyoti bir qator o‘ziga xos jihatlarga ega. Bugungi kunda ta’limning barcha sohalari singari Yangi o‘zbek adabiyoti fanining o‘qitilishi tubdan yaxshilanib bormoqda. Yangi o‘quv olam va odam

mohiyatiga mansub hodisalarga xilma-xil qarashlaming mahsuli bo‘lgan adabiyotdir. Adabiyot ijodkorning ko‘ngil ishiga aylandi va aylanmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XX asr o‘zbek adabiyoti ko‘p asrlik milliy adabiyotimiz tarixida alohida o‘rin egallaydi. XX asr o‘zbek adabiyoti jahon adabiyotining tarkibiy qismi sifatida rivojlana boshladi. Bugungi kunda ta’limning barcha sohalari singari Yangi o‘zbek adabiyoti fanining o‘qitilishi tubdan yaxshilanib bormoqda. Yangi o‘quv reja va dasturlar, ko‘plab o‘quv-uslubiy qo‘llanma va elektron darsliklar yaratildi, yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Normatov, O.Sharafiddinov. 20-asr o‘zbek adabiyoti. Universitetlar va pedagogika insitutlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darslik. Toshkent “O‘qituvchi” 1999
2. S.Mirzayev 20-asr o‘zbek adabiyoti. O‘zbek adabiyot bakalavriat ta’lim yo`nalishi uchun darslik. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2005.
3. Sanjar Sodiq. Yangi O‘zbek adabiyoti tarixi. Darslik. Toshkent “Universitet” 2005
4. B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, S.Ahmedova. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent “ Ma’naviyat” 2004
5. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent: Akademnashr, 2010. 400-b.

IV SHO‘BA. BADIIY ASAR TAHLILIDA FALSAFIY VA MILLIY ASOSNING O‘RNI

SAROY XONIMLARI OBRAZLARI VA TEMURIYLAR SALTANATIDA AYOLGA MUNOSABATNING BADIIY IN’IKOSI

Mardonova Lobar Umaraliyevna
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri,
e-mail:lobarmardonova40@gmail.com

Annotatasiya: “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining Amir Temur haqida yozilgan boshqa ko‘pgina asarlardan farqli bir tomoni bor: asarda sohibqiron oilasi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Adibga bu ish oson bo‘lmagani aniq, negaki, o‘sha paytdagi urf-odat, qolaversa, islomiy aqidaga ko‘ra birovning oilasi, ahli ayoli to‘g‘risida yozish odob qoidalarigi tamoman zid sanalgan. Shunday bo‘lsa-da, faqat shu xonadonga yaqin bo‘lgan, bevosita Amir Temur yoki temuriylarning xohishiga ko‘ra tanlangan muarrixlarning asarlarida oz bo‘lsa-da, ma’lumotlar mavjud. G‘arb tarixchilari asarlarida ma’lumotlarning ko‘pligiga sabab ular temuriy malikalarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishgan yoki ma’lum muddat Amir Temur istagiga ko‘ra saroyda xizmat qilishgan. Tetralogiya adabiyotimizdagi mana shu bo‘shliqni to‘ldirganligi bilan alohida qadr-qimmatga ega.

Kalit so‘zlar: qalbi pok, mushtipar, mehribon, aqlli, go‘zal, oqila ayol, ruhiy yaqinlik.

Abstract: The tetralogy "The Great Empire" has one thing that is different from many other works written about Amir Temur: the work provides detailed information about the family of the ruler. It is clear that this was not an easy task for the writer, because according to the customs of that time, and in addition, according to Islamic beliefs, writing about someone's family and family members was considered completely contrary to the rules of etiquette. However, only in the works of historians who were close to this family, who were directly selected at the request of Amir Temur or the Temurids, there is information, although small. The abundance of information in the works of Western historians is due to the fact that they saw the Temurid queens with their own eyes or served in the palace for a certain period at the request of Amir Temur. The tetralogy has a special value in that it fills this gap in our literature.

Keywords: pure heart, quarrelsome, kind, intelligent, beautiful, wise woman, spiritual closeness.

Аннотация: Тетралогия «Великое Царство» имеет один аспект, отличающийся от многих других произведений, написанных об Амире Темуре: произведение содержит подробные сведения о семье владельца. Понятно, что эта работа давалась писателю нелегко, поскольку по обычаям того времени, а также

по исламским верованиям писать о своей семье и родственницах-женщинах было совершенно против правил этикета. Тем не менее информации мало, только в трудах историков, близких к этому дому, непосредственно Амира Темура или тех, кто был выбран по желанию Тимуридов. Причина обилия информации в трудах западных историков заключается в том, что они видели тимуридских принцесс своими глазами или служили во дворце по просьбе Амира Темура в течение определенного периода времени. Тетралогия имеет особую ценность, поскольку заполняет этот пробел в нашей литературе.

Ключевые слова: чистосердечная, веселая, добрая, умная, красивая, интеллигентная женщина, духовная близость.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning tug‘ishgan opasi Qutlug‘ Turkon oqa to‘g‘risida ma’lumotlar oz. Qutlug‘ Turkon oqa nufuzli dug‘lat amirining o‘g‘li amir Dovudning zavjasi bo‘lib, Samarqandda yashagan. “Tuzuklar”da Amir Temur saltanatni qo‘lga kiritishdan oldin, hali ishonchli hamkor, maslakdoshlar izlab yurgan paytlarda, o‘ziga tarafdorlar to‘plash niyatida yurgan damlarda opasi Qutlug‘ Turkon oqa uyida qirq sakkiz kun yashagani to‘g‘risida bayon qilingan. Oradan ma’lum bir vaqt o‘tgach, Qutlug‘ Turkon oqaning o‘g‘li amir Sulaymonshoh Amir Temurning sadoqatli lashkarboshilaridan biriga aylanadi va Amir Temur tul qolgan qizi Sulton Baxt begimni unga nikohlab beradi.

Qutlug‘ Turkon oqa siymosi “Ulug‘ saltanat” epopeyasida alohida bir ehtirom, yuksak muhabbat bilan chizilgan. Shu toza ehtirom va mehr kitobxonni tezda o‘ziga jalb qiladi, ruhiy bir yaqinlik his etadi. Tama va manfaatdan yuqori turadigan tuyg‘uning inson qalbiga tez yo‘l topishi tabiiy. “Shu palla Qutlug‘ Turkon oqa ohista Amir Temurning yoniga kelib peshonasidan beozorgina o‘pdi. O‘zini ona o‘rnida onadek tuygan bodomqovoqegachining odati doim shunday: Amir Temur biror safardan qaytganda, uzoq ayriliqdan so‘ng ko‘rishganlarida yoki haddan ziyod quvonib ketganda, egachi kelib inisini xuddi yosh bolani erkalaganday suyub manglayidan o‘pib qo‘yardi. Boshqa hech narsa demasdi, ana shu suyub ko‘nglidagi bor gapi, g‘ururlari, orzulari, mehri, xavotirlari... - bari-barini joylashga intilardi...”. [Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Жаҳонгир Мирзо. 1- китоб.-Т.: Наврўз. 2019.-Б. 277.]

Amir Temurning qalbi pok, mushtipar va mehribon opasi siymosida haqiqiy o‘zbek opalariga xos ezgu fazilatlar umumlashtirilgan.

Olamni zir titratgan, hatto farzandlari ham qarshisida bosh ko‘tarib qarolmagan zot og‘ir damlarda shu ayol bilan dardlashadi va bu tabiiy hol. Biroq sohibqiron tabiatida dardini birovga hasrat qilish odati yo‘q, lekin qachondir kimgadir ko‘ngil yorish ham kerak. Bu oddiy insoniy ehtiyoj, buni inkor etib bo‘lmaydi. Sohibqiron faqat ikki inson bilan shaxsiy masalada dardlashishi mumkin, aniqrog‘i mana, shu ikki insongina unga yurak yutib gapira olishi mumkin. Ulardan biri sohibqironning opasi. Amir Temur o‘z mehribon egachisi Qutlug‘ Turkon oqa bilan suhbatlashayotganda egachi shunday deydi: “ Ha, biri kam dunyo... O‘sha siz egallab turgon dunyoning biri kam, ukajonim! Har to‘kisda bir ayb ekan. Saroymulkxonim, gulday kelinim, bunday aqlli, go‘zal va oqila ayol zoti kamdan kam dunyoga keladi. Hamma “maxdi ulyo”-Ulug‘ beshik sohibasi, deb maqtov so‘zlarini aytadi. Ammo bechora kelinim bir tirnoqqa zor, qani endi, o‘sha beshikni tebratish unga nasib etsa!.. Inshoolloh nasib etar ham. Parvardigori egamning irodasi shundoq ersa, bandasi ne qilsun?...”. [Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Мироншоҳ Мирзо. 3- китоб.-Т.: Наврўз. 2019.-Б.

Qutlug‘ Turkon oqa va Saroymulkxonim o‘rtasidagi munosabatlar nihoyatda samimiy, hatto ular bir-birlarini juda avaylashadi, ko‘ngillari og‘rib qolmasligi uchun har bir so‘zlarini o‘ylab, yetti o‘lchab, bir kesib, gapirishadi. Sohibqironning yuragi tubidagi dardini yangilayotgan opa, aslida o‘z ukasi tilga chiqarolmaydigan hasratni yengillatmoqchi. Erkaklar jins psixologiyasiga ko‘ra, odatda alamini ichga yutadi. Shuni yaxshi tushungan g‘amxo‘r opa sermulohaza, kamgap ukaning qalb tubida cho‘kib yotgan og‘riqni tarqatib yubormoqchi bo‘ladi. Birgina epizodda ko‘rish mumkinki, opa-uka o‘rtasida ruhiy yaqinlik, bir-biriga ishonch, hamdardlik tuyg‘usi qaysi darajada baland va ular bir-birlariga qanchalar suyanishadi.

Romanning muvaffaqiyatli chiqishiga omil bo‘lgan sabablardan biri yozuvchining tarixiy faktlarga mute bo‘lib qolmaganligida, faktik materiallardan ilhomlangan holda, tarixiy dalillarga putur yetkazmay, ularga o‘z badiiy to‘qimasini mahorat bilan singdira olganligidadir. Romanlardagi badiiy to‘qima ham, tarixiy dalillar ham bir niyatda – o‘sha davr muhitini to‘laqonli ko‘rsatish va tarixiy shaxs timsolini rangsizlantirilmagan holda aks ettirishga qaratilgan. Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. - Т.: «Ўқитувчи».2020. –Б. 241.]

Adabiyotshunos A.Alimbekovning fikriga ko‘ra, yozuvchining o‘z romanlarida fakt bilan to‘qimani uyg‘unlashtirib, bir-biriga yedirib yuborishning uddasidan chiqa olishi bu uning mahoratini ko‘rsatuvchi yana bir yutug‘idir.

“*Mushkin xatlik ohu ko‘z go‘zallar”, “larzon o‘smalardan ofatijon chehralarning husni malohati ortgandan ortgan”, “chaman-chotir gullagan bodom”, “oqbilak oyimlar”, “xonimoyim hazrati oliylari”, “gilamga kuyib qolmasin deb oyoq qo‘yishga qo‘rqadi kishi”, “chiroyli ko‘zlari lim-lim nurga to‘lib turadi”, “rizvon bog‘lariday diltortar Qorabog‘ mavzei”* kabi ona tilimizning fasohatiyu malohati, jozibasiyu ma’no tovlanishlari asar ibtidosidan intihosigacha davom etadi, kitobxonni o‘sha davr ruhi bilan yashatadi, ana shu kayfiyat o‘quvchi qalbida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Sanab o‘tilganlarning barchasi tetralogiyaining o‘ziga xos jihatlari.

Xonzoda xonim (Sevin bika). Amir Temurning eng suyukli farzandi, taxt vorisi Jahongir Mirzoning rafiqasi, eng sevimli nabirasi valiahd Muhammad Sultonning onasi Xonzoda xonim (Sevin bika) obrazida Sharq ayoliga xos sabr-bardosh, hayo, imon-e’tiqod, qadriyat va an’analarga sadoqat mujassam. U Xorazm voliysining ukasi Oq So‘fining qizi, asl ismi Sevin bika, Sulton Muhammad O‘zbekxonning nabirasi. Yozuvchi boshqalar tilidan uning oqila va donishmandligi, “olamda tanho parichehra”ligini ta’riflaydi.

Kecha ham, bugun ham, ertaga ham har bir oilada o‘zbek onasi o‘z qiziga aytishi lozim bo‘lgan pand-o‘gitlarni, Xonzodaxonimga ham onasi Shakar bika uqtiradi: “Nuridiydam, bu Olloh taoloning biz ayollarga buyurgan nasibasi. Momo Havvo onamizdan meros... Gapimni uqib ol. Sen notanish bir xonadonga kelin bo‘lib tushayotirsan, bilmagan kishingga yo‘ldosh bo‘layotirsan. Yo‘ldoshing sen uchun osmon bo‘lsa, sen yer bo‘lmog‘ing lozim. Yerday bo‘l, ardoqli to‘shak bo‘l! So‘zingni shirin qil, achchiq so‘zlarni aslo tilingga olma! Ochiq chehrali yur, qiyofangni marg‘ub et! Zinhor siniqqan chehrada-yu uringan libosda unga ko‘rinma!..”

Hayot hech kimni ayamagani kabi Xonzoda xonim o‘n yetti yoshida, bag‘rida chaqalog‘i bilan beva qoladi. Kutilmagan fojiadan o‘ziga kelolmayotgan keliniga Sohibqiron Amir Temur shunday tasalli beradi: “Sizni kelinim emas, qizim degandim... Endi... qizim emas, o‘g‘lim deymen! O‘g‘lim o‘rnida o‘g‘lim!.. Jondan

aziz o‘g‘lim!”. [Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. Жаҳонгир Мирзо. 1- китоб.-Т.: Наврўз. 2019.-Б. 148]

Xonzoda xonim qismatida avval taxt vorisiga umr yo‘ldoshi bo‘lish nasib etgan bo‘lsa, Jahongir Mirzoning vafotidan keyin tayinlangan taxt vorisiga onalikdek sharafli rutba nasib etdi. Ammo avval erining bevaqt o‘limidan g‘amga botgan ayolga o‘g‘lining kamolini ko‘rish ham nasib etmadi. Mironshoh bilan bo‘lgan sovuq munosabat, uning haddan oshib tushadigan yaramasliklariga chidash Xonzodaxonimni ruhan charchatgandi. Saroymulkxonim va Xonzodaxonim orasida kechgan suhbatda bu ikki ayolning ichki dunyosi juda chuqur ochib berilgan. Boshqalar nazarida baxtlilarning baxtlisi ko‘ringan Bibixonimning “Ammo befarzand o‘tayotirmen-ku? Bir tirnoq bilan xudoyimni mulki kamayib qoladurmu? Zorim bor-u zo‘rim yo‘q, yashayotirmen bu dunyoda”, degan so‘zlarida uning ich-ichdan ezilib yashagani ko‘rsatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ali, Muhammad. O‘z-o‘zingni anglab yet. Toshkent:.Sharq, 2013. 381 b
2. Alimbekov A. Tarixiy romanchiligimizga bir nazar. Ozod Vatan saodati. Adabiy tanqid. –Toshkent: Adib, 2013. –313 b.
3. Alimbekov A. Yulduzning besh qirrasi.Toshkent, “O‘qituvchi” NMIU. 2020. 390 b.
4. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1 tom. –Toshkent: Fan, 1979. –416 b.
5. Ali, Muhammad. “Ulug‘ saltanat” –(Jahongir Mirzo) 1- kitob. “Navro‘z” Toshkent: 2019. – 414 b
6. Ali, Muhammad. “Ulug‘ saltanat” –(Mironshoh Mirzo) 2- kitob. “Navro‘z” Toshkent: 2019. – 396 b
7. Ali, Muhammad. “Ulug‘ saltanat” –(Umarshayx Mirzo) 3- kitob. “Navro‘z” Toshkent: 2019. – 462 b
8. Ali, Muhammad. “Ulug‘ saltanat” –(Shohruh Mirzo) 4- kitob. “Navro‘z” Toshkent: 2019. – 509 b
9. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
9. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
10. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 5.

11. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
12. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).
13. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.
14. Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi. (2024). OKSYUMORONNING EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 26–30.
14. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.
15. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
16. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE’RIYATI VA TILI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, *57*(1), 143–146.

YANA BUGUN BAHORGA ZORMAN

Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
dotsenti Parda Alimov
+998994155013

Annotatsiya: bu maqolada Zulfiyaning bahor haqidagi she’rlarining g‘oyaviy xususiyatlari haqida fikr yuritadi. Ayrim she’rlarining parchalaridan izohlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: she’riyat va Zulfiya, bahor, faslning o‘ziga xosligi, g‘oya va mavzu, she’rdagi ruhiyat

Аннотatsiя: в этой статье стихи Зульфии о весне. думает об идеологических особенностях. Приведены отрывки из фрагментов некоторых его стихотворений.

Ключевые слова: поэзия и Зульфия, весна, своеобразие времени года, идея и тема, дух в стихотворении.

Abstract: in this article Zulfia’s poems about spring thinks about ideological features. Excerpts from fragments of some of his poems are given.

Key words: poetry and Zulfiya, spring, uniqueness of the season, idea and theme, spirit in the poem

Chiroyli yozishning o‘zi hech qachon she’riyat bo‘lgan emas, hozir ham shunday. Badiiy adabiyotda mavzular doirasi cheksiz bo‘lsa-da, muhabbat, bahor, vatan, ona va ayol, urush haqidagi asarlar nisbatan ko‘p uchraydi. Zulfiyaxonim ijodida ham bahor yetakchi o‘rinlardan birida turadi. To‘g‘ri, tabiatda to‘rt fasl bor. Muqaddas kitoblarda to‘rt raqamiga alohida e’tibor beriladi. Harom oylar to‘rtta – zulqa’da, zulhijja, muharram va rajab. Malaklarning eng ulug‘lari to‘rtta – Jabroil, Azroil, Mikoil, Isrofildir. Tahoratda yuvish lozim bo‘lgan a’zolar to‘rtta. Allohim tasbeh va taqdis etuvchi eng fazilatli so‘zlar to‘rtta – “Subhanalloh”, “Alhamdulilloh”, “La illaha illalloh” va “Allohu akbar”. Hisob ilmining asosiy birliklari to‘rtta – birlar, o‘ylar, yuzlar, minglar. Zamon birliklari to‘rtta – soat, kun, oy va yil. Yil fasllari ham to‘rtta: bahor, yoz, kuz va qish. Tabiatdagi holatlar ham to‘rtta – issiqlik, sovuqlik, quruqlik va namlik. Xulafon roshidin to‘rt kishi – Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali (roziyallohu anhu).

Ibn Ma’sud deydiki, to‘rt kishi jannatga kiruvchi oldingi safida turadi. Ulug‘langan kunlardan yana biri jumadir. Ikkinchisi arafa kunidir. Uchinchisi Qurbon

hayitining birinchi kunidir. Mumtoz kunlarning to‘rtinchisi esa fitr berilib, muhtoj va yo‘qsillar sevintiralidigan kundir.

Mumtoz xotinlar ham Imron qizi Maryam, Xadicha onamiz, Muzohim qizi Osiyo, Muhammad alayhissalom Fotima qizlari ham to‘rttadir.

Jannatga kiruvchilarning eng old qatori to‘rttadir. Payg‘ambarimiz (sallallohu alayhi va sallam) Salman Forsiy, Suhayb, Bilol (Roziyallohu anhu).

Jannatga mushtoq zotlar ham to‘rtta: Hazrat Ali, Salmon Forsiy, Attor ibn Yosir, Miqdod ibn Asvad (Roziyallohu anhu).

Ha, bahorning o‘ziga yashirin olami mavjud. Ayrim adiblar aslida to‘rt fasl yo‘q, bitta fasl bor deyishadi. Ya’ni, bahorda qishning, yozning, kuzning latofati, jilvasi, qahri, ko‘rki, gullashi va xazonligi mujassamlashgan. Fasllar gultojisi bahordir.

Xo‘sh, Zulfiyaxonim bahor tasvirida nimalar topa olgan?

Bahorga zorman, bahor kabi shoshqaloqman, kutib dilim bo‘ldi qadoq.

Bahorga xitob yangaydi: tuproqni muz qobig‘iga olgan qishni bir go‘rga hayda!

Bahorni kelishini ajoyib ifodalagan: kuymi, g‘ammi, orommi, azob, to‘lg‘og‘i og‘ir, qalbdan, tandan yulib bot-bot tug‘adi oxir.

Zulfiyaxonim jo‘shib ketadi: bahor, qo‘shiq tavallud fasli, hamma unga zor, eng beozor tuyg‘ular nasli she’rlarimga bir doya.

Shoira dardini yuzaga chiqaradi:

Kel, dildiroq qalbimni jo‘shib,
Bo‘g‘in, bo‘g‘inimga olayin,
Faqat o‘tinch:
Nur, Shodlik qo‘shib,
Yo‘rgaklab ol, mung bo‘lsa nayim.

Shu o‘rinda diqqatni tortadigan bir detalga e’tiborni qaratgimiz keldi: mung bo‘lsa nayim. Bundan sovetlar tuzumini shoira jo‘shib kuyladi, dunyoni kezdi degan xulosaga kelmaslik lozim. Mungga to‘lgan nayim ifodasi shoiraning mavjud tuzumga nisbatan iqrorini yuzaga chiqaradi. Mavjud mafkura Zulfiyaning bahor haqidagi dardlarini keng yuzaga chiqarishga imkon bermaydi.

Zulfiyaning “Bahor” she’rida esa bahorga nisbatan shoiraning o‘zgacha poetik xulosalarini ko‘ramiz: inson ko‘zlaridan jon olar bahor, barcha tomirida uning to‘lqini. O‘xshatishga e’tibor bering: O‘tmishning behuda oni kabi qor, beiz, bedard erib ketar edi uchquni.

Ha, o‘tmishda behuda onlari, zamonlari ko‘p bo‘lgan. Podshoh va amirlar umr bo‘yicha taxt talashgan, boylik izidan quvishgan. Rus adiblaridan birining bir gapi bor: O‘tmish tarixi – urushlar tarixidir. Moziyda o‘q uzilmagan xalq qoni to‘kilmagan “damlar” juda ozdir. Shu o‘rinda Zulfiya xonim tarixni qon bilan bitilgan qora kunlariga ishora qilgan. Shoira ijodining diqqat markazida doimo tinchlik turadi. Shoira turli poetik ko‘chimlardan o‘rinli foydalana olgan. O‘yinqaroq go‘dak singari bulut, ko‘k qovog‘i uyuq, bahorning sehrgar boqiy chiroyi, har kishining yoshi bu fasl dildak, har nurga, har qushga, har kurtakka shod, benihoya yaqin bo‘ladi yiroq.

She’rda nursiz, shiorbop misralar ham uchraydi:

Go‘yo sensiz hosil bo‘ladi barbod,

Har tikilgan chigit ko‘ksing etar tog‘.

Zulfiyaxonimning bu she’ri ajoyib badiiy niyat bilan yakun topgan:

Bahor bo‘lmasaydi, odamzod albat,

O‘zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.
2. Qosimov B. Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
3. Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi.- Toshkent: “Nuravshon business”, 2021.
4. Solijonov Y. Nutq va uslub. – T.: Cho‘lpon, 2002.
5. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
6. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.
7. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.
8. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.

ERKIN A'ZAMNING "SHOVQIN'' ROMANI BADIIY TALQINI

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti
Choriyev Zufarbek Erkinovich,
TerDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri,
Mardonova Lobar Umaraliyevna

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin a'zamning "Shovqin'' romani bir qarashda murakkab, ammo jiddiy siyosiy-ijtimoiy ramzlarga ishora beruvchi asar sanaladi. Roman qahramonlari kino olamining odamlari, ya'ni, kinoyulduzlar, kinodramaturglar, kinorejissyorlar, kinotanqidchilar, kinoijodkorlarning xulqi, fe'li, betartib, yengil-yelpi hayoti haqida yozilgandek taassurot qoldiradi.

Kalit so'zlar: Erkin a'zam asarining badiiy talqini, Shovqin – ramziy obraz, asarning yetakchi qahramoni Farhod, "Etiklilar" va "Ko'zoynaklilar" Romanda ramziylik, majoziylik, mistifikatsiya, ong oqimi tasviri, xotira-xayol elementlari, maktub, kinoyaviy modus, yengil yumor, badiiy psixologizmning turli xil vosita va usullari mujassamlashgan.

Abstract: This article considers Erkin A'zam's novel "Shavqin" as a work that is complex at first glance, but hints at serious political and social symbols. The novel's characters are people from the world of cinema, that is, movie stars, screenwriters, film directors, film critics, and filmmakers. It leaves the impression that it is written about the behavior, character, and chaotic, frivolous life of them

Key words: Artistic interpretation of Erkin A'zam's work, Shovqin - a symbolic image, the leading character of the work Farhod, "Etiklilar" and "Ko'zoynaklilar" The novel embodies symbolism, metaphor, mystification, stream-of-consciousness depiction, elements of memory and imagination, letter, ironic mode, light humor, various means and methods of artistic psychologism

Erkin A'zam – o'zbek adabiyotining muhim namoyandalaridan biri bo'lib, uning asarlarida davr va qahramon taqdiri ko'plab badiiy talqinlar orqali ifodalanadi. Uning nasrida jamiyat, inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlar, shuningdek, tarixiy voqealarning qahramonlar hayotiga ta'siri chuqur tahlil etiladi.

Qahramonlarning ichki olami, hissiyotlari va qaror qabul qilish jarayonlari orqali O'zbekistonning zamonaviy tarixidagi muammolarni badiiy talqin qilish imkoniyatini beradi.

Erkin a'zam asarlarining aksryatida davrimiz insonlari ijtimoiy muhit bilan konflikda, davriy muammolar girdobida tasvirlangan. adib yaratgan hikoyalarni, publitsistik asarlarini olamizmi barida yuqorida aytganimizdek holatlar tasvirlangan. ''Shovqin'' romanida ham katta ijtimoiy voqelik, siyosiy va ma'naviy inqirozlar

qalamga olingan. Erkin a'zam asarlarining ham aksaryati davr va inson muammolarini aks ettirgan. Romanda ramziylik, majoziylik, mistifikatsiya, ong oqimi tasviri, xotira-xayol elementlari, maktub, kinoyaviy modus, yengil yumor, badiiy psixologizmning turli xil vosita va usullari mujassamlashgan. asar o'zbek romanchiligida sinalmagan, aytilmagan yangi uslubda yaratilgan.

Erkin A'zamning "Shovqin" romani bir qarashda murakkab, ammo jiddiy siyosiy-ijtimoiy ramzlarga ishora beruvchi, kuchli adabiy parodiyaga to'liq asar sanaladi. Demak, qahramon ochiq-oshkor e'tirof etganidek, bu asar nafaqat ikki quloqdosh do'stning jismi, quloq a'zosidagi shovqin, balki jamiyatdagi olatasir, shovqin-suronli, qaltis bir davr, zamon haqida hikoya qiladi. Shovqin – ramziy obrazini, umuman tiriklik, jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar, inson botinida kechayotgan yangilanishlar, dunyoqarashdagi silkinishlarga ishora deya izohlasak mohiyat anchayin oydinlashadi. Yanada aniqrog'i, adib romanda ilgari surgan badiiy-falsafalardan biri inson yashar ekan, tiriklik ramzi sanalgan shovqinlar, tovushlar orasidan o'ziga uyg'un ohangni tanlay bilishi kerak. Bu ohang aslida insonning hayot mazmuni, e'tiqodi, a'molini tashkil etadi. Romanda tilga olingan asosiy voqealar zamon va makon jihatdan sobiq SSSRning parchalanib ketishi arafasidagi bir tizimdan ikkinchi yangi davrga o'tish arafasini qamrab olgan. asarda san'at, adabiyot, tarix, hatto folklor ijoddagi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mashhur shaxslar nomi tez-tez tilga olinadi.

Xususan, asarning yetakchi qahramonlaridan biri kinodramaturg Farhodning asl ismi – Fidel. Bu ismni unga otasi qo'ygan. Sabab – o'z davrining mashhur qahramoni milliy ozodlik harakatining boshchisi Fidel Kastroning faoliyati, otashin inqilobiy nutqlari otani to'lqinlantirgan. Shu bois u o'g'liga mashhur siyosiy arbobning ismini beradi. ammo qahramon yillar davomida o'z ismidan uyalib yuradi. Romanda adib ayovsiz ravishda zamonaparastlik, soxta qahramonlik, baynalminallik, millati noma'lum duragaylik, milliy genning buzilishi, ma'naviy buzuqlik, qarsakbozlik, balandparvozlik kabi ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy illatlarni shafqatsiz realist bo'lib tasvirlaydi. Asar voqealari aslida Toshkentdan Moskvaga uchish vaqtiga teng muddatda bo'lib o'tadi. asarning bosh qahramoni – kinodramaturg Farhod Ramazon

kutilmagan ikki maktub tufayli Moskvaga yo‘lga tushadi. Shu vaqt ichida “bepoyon yurt”da o‘tgan yigitlik paytlarini sarhisob qiladi. asarning sujeti retrospeksiya asosida shakllantirilgan. asarni o‘qishni boshlaganingizda sizda ko‘plab tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Buning asosiy sababi shundaki, asarning asosiy qahramoni Farhod Ramazon samolyotda hayotini sarhisob qilayotganda bir voqeani esladimi, o‘sha voqea ichidagi biror shaxs yoki holat bilan bog‘liq ikkinchi bir voqeaga o‘tib ketaveradi. O‘quvchi beixtiyor kitobning o‘tgan qismiga qaytishga majbur bo‘ladi. Bu muallifning hech kimga o‘xshamaydigan o‘ziga xos uslublaridan biri hisoblanadi.

Asarda Sobirjon Mansurovich degan obrazga ham duch kelamiz. Cholning fojiasi shundaki, u mustaqil fikrlashdan mahrum, yod olingan soxta nazariyalar, mafkuralar qurboniga aylangan, to‘tiqushga aylangan bir odam. U o‘z hayotini barbod qilgani yetmagandek yosh avlodni miyasini ham zaharlashdan tap tortmaydi. Bir qarashda u o‘ta ma’naviyatli ko‘rinadi, lekin keyinroq chetdan kuzatadigan bo‘lsangiz soxta mafkuraga mukkasidan ketganligi anglashiladi. Farhod Ramazon bu choldan nihoyatda nafratlanadi va buni o‘ziga ham aytishdan hech iymanmaydi. Romanning nomlanishi ramziy xarakterga ega. Yozuvchining fikricha, barchamiz yashayotgan hayot to‘laligicha shovqindan iborat. Har bir inson ana shu shovqinlar ichidan o‘ziga mos ohang topa olishi yoki topa olmasligi o‘ziga bog‘liq.

Romanda ramziylik, majoziylik, mistifikatsiya, ong oqimi tasviri, xotira-xayol elementlari, maktub, kinoyaviy modus, yengil yumor, badiiy psixologizmning turli xil vosita va usullari mujassamlashgan. Asar o‘zbek romanchiligida sinalmagan, aytilmagan yangi uslubda yaratilgan. Mafkuraviy kurashlar maydonida ikkiga ajralgan “Etiklilar” va “Ko‘zoynaklilar” romanda ramziy ijtimoiy-siyosiy guruhlarga ishora etib turibdi.

Erkin A’zam bu guruhbozlar nomini oddiygina so‘zlar bilan atab qo‘ya qolgan. Uning mag‘zini chaqish, kosa tagidagi nimkosani topish esa kitobxon zimmasiga yuklatiladi. Etiklilar asarda shunday ta’riflanadi: “Etiklilar kolxoz turmushidan olingan, g‘ira-shira oqshom tasvirlariyu quvnoq “chastushka”larga boy, ichakdek cho‘zma-saqich kinoromanlari bilan shuhrat qozongan edi. Ko‘zoynaklilar esa – daf’atan tushunilishi qiyin, diqqinafas holatlaru mavhumotga to‘la jumboqnamo

asarlar yaratib, olislarga talpingani talpingan". Ramziy ma'nodagi etiklilar va ko'zoynaklilar nafaqat siyosiy maydonda, umuman san'at va adabiyotdagi ikki guruhni anglatadi. "Shovqin"da sobiq sho'ro mafkurasi bilan qurollangan keksa avlod bilan bu tuzumning chiriganligini tushunib yetgan yosh avlod qarama-qarshi qo'yiladi. Shu ma'noda Erkina'zamning "Shovqin" romani hozirgi o'zbek romanchiligida yangicha tasvir uslubi bilan shov-shuvlarga sababchi bo'ladi. asar ommaviy ravishda qabul etilishi biroz mushkul. Intellektual jihatdan yuqori saviyali kitobxonlar uchun tushunarli, kuchli ijtimoiy-siyosiy ramzlarga burkangan yangicha asar sifatida e'tibor qozonishiga shubhamiz yo'q. albatta, Erkin a'zamda "Shovqin" romaniga asos bo'lgan voqealar, tilsimli ramzlar yillar davomida shakllanib, dunyoga kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Yoshlik", jurnali Toshkent 2013 yil, 1-son
2. www.ziyouz.uz
3. @e_kutubxona
4. Eektron kutubxona
5. www. library.uz
6. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG'LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
7. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
8. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
9. Sayfullayev N. H. o'g'li. (2023). IJTIMOIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(12), 106–111.
10. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
11. Avriddinov Jobir Musulmon o'g'li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO'DAKIYNING SHE'RIYATI VA TILI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, *57*(1), 143–146.

THE ORIGIN AND DEVELOPMENT OF ENGLISH NOVEL: A DESCRIPTIVE LITERATURE REVIEW.

Atamurodova Feruza Tashmurotovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti.
feruza.atamurodova77@gmail.com
998990652909

Abstract. Novel as a literary genre enjoyed the highest level of glory in the 18th century. The authors namely Defoe, Richardson, Fielding and Sterne contributed significantly to the development of English novel. They influenced the writers who came after them. The 18th century coincided with the industrial revolution which significantly contributed to the rise of the novel (with the invention of printing machine). The chain effects of industrial revolution improved people's life and living standard. The rise of the educated middle class people further increased the reading public which correspondingly led to demand of novels for reading.

Keywords. Bunyan, Defoe, Epistolary novel, Fielding, Origin of the novel, Picaresque tradition, Rise of the middle class, Sterne.

Аннотация. Роман как литературный жанр достиг высшей точки своей славы в XVIII веке. Такие авторы, как Дефо, Ричардсон, Филдинг и Стерн, внесли значительный вклад в развитие английского романа, оказав влияние на писателей последующих поколений. XVIII век совпал с промышленной революцией, которая существенно способствовала становлению романа благодаря изобретению печатного станка. Цепные эффекты промышленной революции улучшили жизнь и уровень жизни людей. Рост образованного среднего класса увеличил читательскую аудиторию, что, в свою очередь, привело к повышенному спросу на романы.

Annotatsiya. Roman adabiy janr sifatida eng yuqori cho‘qqisiga 18-asrda yetdi. Defo, Richardson, Fielding va Sterne kabi mualliflar ingliz romani rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar va o‘zlaridan keyingi yozuvchilarga ta'sir ko‘rsatdilar. 18-asr sanoat inqilobi davriga to‘g‘ri kelib, u romanning yuksalishiga sezilarli hissa qo‘shdi (matbaa mashinasining ixtiro qilinishi bilan). Sanoat inqilobining zanjirli ta’sirlari odamlar hayoti va turmush darajasini yaxshiladi. O‘qimishli o‘rta sinfning ko‘payishi o‘quvchilar ommasini oshirib, romanlarga bo‘lgan talabni orttirdi.

Kalit so‘zlar: Bunyanning asarlari, Defo, Epistolyar roman, Fielding, Roman kelib chiqishi, Pikaro an’anasi, O‘rta sinfning yuksalishi, Sterne.

Though English novel as a literary genre gained popularity in the eighteenth century, its beginning can be traced back to 612 BC when world's oldest literature Epic of Gilgamesh was written. Homer, who lived in 700 or 800 BC, was the first notable

poet or a literary pioneer who wrote the famous Greek epics, The Iliad and The Odyssey. He established the tradition of epic which had particular structure and subject matter.

In 900 BC Roman poet Virgil produced epic poems Beowulf and Aeneid with the latter becoming a model for John Milton (1608-74) to write his Paradise Lost. The epics were narrative verses telling stories of human encounters with monsters and accounts of accomplishments of heroic deeds in battles. After the epics came a new form of literature called the romances originating in France in the 12th century. It was also popularly known as chivalric romance or medieval romance (having flourished in the medieval times or medieval age between1000 AD to 1450 AD). The scholars deviated from the tradition of epic by choosing subjects such as bravery, honour, adventure and courtly love with unique features of using magic, spells and enchantments in the romances to arouse curiosities and interests in the readers.

According to Abrams, (1995) “Romances were first written in verse, but later in prose as well” (p.22). One of the notable English romance is Malory’s Morte d’Arthur written in prose (in about 1470) which accounted the legend of King Arthur and his Knights of the Round Table. Geoffrey Chaucer (1343-4000) used both verse as well as prose in The Canterbury Tales. Among the 24 stories included in The Canterbury Tales, two stories, the ‘Tale of the Melibeus’ and the ‘Parson’s Tale’ were written in prose. He had also included a romance, The Knight’s Tale. However, it was Chaucer’s long poem Troilus and Criseyde (written in about 1380) which introduced new characteristics of literary tradition with the use of plot and conversations in the poem. Chaucer gave “a new turn to fiction” (Roy, who undertakes a pilgrimage from his home in the city of destruction (world) to the celestial city (heaven). Coincidentally the elements of modern day novel such as settings, characters, and conflicts were used well to present the journey of Christian. “The ideas of repentance, of faith, of resisting temptation, and of perseverance” (Kuiper, 2012, p.4) that Christian goes through in the story are the elements of the modern novels such as beginning, conflict, the rise in action, fall in action and resolution.

According to Bora (n.d) Bunyan's Pilgrim's Progress "provided an important model for story-telling, with vivid characterization and recording of dialogue which influenced a lot of later novelists" (p.4).Thus at the dawn of the eighteenth century, the foundation for the development of novel as a new genre of literature was well established paving way for the rise of the novel. Besides exploring the forerunners of the novel such as epics, poetry and romances to gather overview of how development of novel progressed until the 18th century, it is necessary to understand the origin of the word 'novel' itself.

According to The Shorter Oxford Dictionary, novel is "a fictitious prose narrative of considerable length in which characters and actions representative of real life are portrayed in a plot of more or less complexity" (cited in Rees, 1973, p.106). Another definition by an anonymous author states that a novel is "a piece of prose fiction of a reasonable length". Both the definitions highlight the word 'prose' meaning the common or ordinary spoken form of language without the presence of poetic rhythmic structure. However, there are a few novels written in verse as well, such as Vikram Seth's The Golden Gate and Alexander Pushkin's Eugene Onegin.

The other aspect of the definition is related to the length. The first definition points out 'considerable length' and second definition states 'reasonable length' to distinguish the novel's unique feature as a genre vis a vis genre of short story. The lengths of some novels are similar to the length of short stories and hence a term such as 'novella' is often used for shorter novels. The word novel is considered to have been derived from the latin word novellus, Italian word novella (which meant a little new thing) and French word novelle.

It was Boccaccio who first used the term novella storia (short tale in prose) when he first experimented writing prose. Boccaccio popularized the vogue of collections of novella with his collection of ten short stories titled Decameron in fourteenth century. However, the meaning of the word novel meant the kind of short stories written and collected by Boccaccio until the 17th century. With the rise in the development of novels in the 18th century the meaning of the word novel underwent change from short tale in prose to 'prose narrative of considerable length' as stated by The Shorter Oxford

Dictionary. Thus with understanding of the definition of novel, it is relevant to discuss what factors or situations provided opportunities for the rise of the novel in the 18th century.

Majority of the literary critics attribute 18th century as the time period in which novel took its birth, subsequent growth and development. With adequate literary predecessors such as Bunyan, Behn, Chaucer, Malory, Cervantes, Boccaccio and numerous other writers of the 17th century, the 18thcentury writers availed opportunities to further experiment and produce novel as a literary genre. Further the increase in literacy rate, industrial revolution, rise in the middle class and coming up of libraries created favourable situations for the rise of the novel.

Since romances were mainly suitable to be read by elite, aristocratic or noble families, it could not sustain the readership. The common people got bored with romances for they had no relevance of any sort to them. In addition, the stories themselves being centuries old were no longer of interest to the people. The settings in which the stories in the romances took place were also unrealistic. Therefore, romances as a literary genre started to decline. People started to take interest in the contemporary issues. Unlike romances, the novels were written in first person (making it appear 'more personal and recent') with ordinary characters that the readers could relate with. Decline of drama was also one factor that promoted the rise of the novel. In the 17th century, during the rule of Cromwell, theatres (which were so popular during the Elizabethan times) were banned (Shah, n.d).

REFERENCES.

1.Abrams, M.H. (1978). A glossary of literary terms. Madras: Macmillan India Limited.

2. Albert, E. (1979). History of English literature (5th ed. New Delhi: Oxford University Press.

3. Amin, M.A. (2012). The English romantic movement "as return to nature. Or, the main features of romanticism.

4. Bora, M. Back ground to the rise of the novel.

5. Compton-Rickett, A. (1995). A history of English literature. New Delhi:

IQBOL MIRZO SHE'RLARIDA OKSYUMARON HODISASI TALQINI

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Raimnazarova Nasiba Xaliyarona,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti
Abdullayeva Sitora Xayrulla qizi

Annotatsiya: Bugungi kunda fanda badiiy asarni ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan tahlil qilishga ixtisoslashgan yangi yo'nalishlar ham paydo bo'ldi. Ana shunday yo'nalishlardan bittasi lingvopoetikadir. Ushbu maqolada mashhur shoir Iqbol Mirzo she'rlarining lingvopoetikasi, xususan, shoir she'rlaridagi oksyumaron hodisasi talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, oksyumaron, antiteza, antonim,kontrast.

Аннотация: Сегодня в науке появились новые направления, специализирующиеся на анализе художественных произведений как по форме, так и по содержанию. Одним из таких направлений является лингвопоэтика. В данной статье трактуется лингвопоэтика стихов известного поэта Икбала Мирзы, в частности феномен оксюморона в стихах поэта.

Ключевые слова: лингвопоэтика, оксюморон, антитеза, антоним, контраст.

Annotation: Today's specializing in the analysis of art works in terms of both form and content has been created in science directions also appeared. On of such directions is linguopoetics. This article interprets the linguopoetics of the poems of the famous poet Iqbol Mirzo, in particular, the phenomen of oxymoron in the poet's poems.

Key words: linguopoetics, oxymoron, antithesis, antonym, contrast.

Lingvopoetika - bu tilning poetik maqsadlarda qo'llanishini o'rganuvchi soha bo'lib, unda tilning estetik xususiyatlari, uning san'at va madaniyatdagi roli tadqiq qilinadi. She'r va adabiyot tilning lingvistik jihatlari, poetik maqsadlar asosida tahlil qilinadi. Umuman olganda tilshunoslikning lingvopoetika bo'limida har qanday she'riy yoki nasriy asar har tomonlama o'rganiladi. Endi esa lingvopoeikaning kichik bir qismini tashkil qilgan oksyumaron hodisasi haqida to'xtalib o'tamiz.

Bugungi kunda tilshunoslik ilmida ziddiyat hodisasiga nisbatan "kontrast", "antonimiya", "antiteza", "antonim" va "oksyumaron" singari atamalar ostida o'rganiladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan mazkur hodisa ya'ni zidlanish hodisasi turli lingvistik sathlarga oid birliklar vositasida namoyon bo'ladi deb qaralsa, adabiyotshunoslik ilmida esa keng ma'noda kontrast(zid ma'nolilik)ga oid tushunchalarni birlashtirilgan holatda qaraladi. Shu bilan birga, u "Adabiyotda inson xarakterini narsa, hodisalarning sifat va xususiyatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yib

tasvirlash usuli’’[1:165,226] sifatida talqin etilsa, Uslubshunoslikda esa “Ifodada so‘zlarning uslubiy bo‘yoqlari o‘zaro mos kelmay qolishiga asoslangan, umumiy qonuniyatlariga ko‘ra o‘zaro bog‘liq bo‘lgan muhim birliklar”[2:483] sifatida o‘rganiladi.

Oksyumaron (yoki oksimoron)-adabiyot ilmida bu hodisa mantiqanbir-biriga zid ma’noli ikki tushunchani ta’sirchanlik va ifodaviylikni oshirish maqsadida qo‘llashga aytiladi. “Oksyumaron’’ so‘zi grekcha bo ‘lib, “o‘tkir, lekin bema’ni’’ degan ma’noni bildiradi.[3:73] Shu bilan bir qatorda u ayrim adabiyotlarda “okkozional birikmalar’’, “noodatiy birikmalar’’ yoki “g‘ayriodatiy birikmalar“[4:38]deb ham yuritiladi. Darhaqiqat, oksyumaron hodisasi har bir ijodkorning o‘z ijod mahsuli bo‘lib, o‘zining individualligi, yangiligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Bu hodisaga ongli ravishda yondashadigan bo‘lsak, u oddiy grammatika va qoidalarga ziddir, lekin she’r va adabiyotda ma’no obrazlarning boyishiga xizmat qiluvchi poetik vosita bo‘lib, ikki qarama-qarshi tushunchaning birlashtirilishidan iboratdir. Masalan, “yengil og‘irlik”, “qorong‘u nur’’ kabi birliklar she’riyatda oksyumaron sifatida qaraladi. Bu kabi birliklarni qo‘llashdan asosiy maqsad, she’rning estetik va falsafiy ta’sir doirasini oshirishdan iboratdir.

O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa, o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan shoirlardan biri Iqbol Mirzodir. Shoir she’rlarida nafaqat tilning estetik imkoniyatlari, balki lingvistik va poetik usullaridan mohirona foydalanishi uning she’rlarida namoyon bo‘ladi. She’rlaridagi oksyumaron hodisasi esa tabiat, inson ruhiyati va jamiyatda yuz berayotgan chuqur o‘zgarishlarni ifodalash va o‘zining shaxsiy dunyoqarashi va estetikasini aks ettirishi bilan birga hayot va o‘lim, sevgi va dard, baxt va baxtsizlik kabi qarama-qarshi tushunchalarni birlashtirgan holda aks ettiradi. Masalan:

Necha oy xufton dilim,
Tundek qorong‘u kunduzim,
Ko‘nglima yog‘du sochar
Mohitobonim qaydadir? [5:27]

Ushbu to‘rtlikda “noodatiy birikma’’ mavjud. Bu “qorong‘u kunduz’’ birikmasidir. Ko‘rinib turibdiki, aslini olganda “qorong‘u kunduz’’ bo‘lmaydi, lekin shoir ma’noni kuchaytirish va o‘ziga xos o‘xshatish yaratish maqsadida ushbu birikmalardan foydalangan. Bundan tashqari Iqbol Mizoning “O‘zbek chiroqlari” deb nomlangan she’rida ham shoir o‘z ichki kechinmalarini ifodalash va his-tuyg‘ularini o‘quvchi diliga yetkazish maqsadida ushbu oksyumaronni qo‘llaydi:

Tortilgan simlardek tutashgan tomir,
Mening ham benavo navolarim bor.
Meni ham kechalar bosar havotir,
Unda makon topgan bobolarim bor. [5:5]

Haqiqatdan ham, ushbu misralar orqali ko‘rinib turibdiki, she’rga betakror o‘xshatishlar va individual oksyumaron orqali yanada jozibali tus berilgan. Iqbol Mirzo “g‘amgin quvonch”, “yorug‘likda qorong‘ulik”, “hayotni o‘ldirish”, “quvonchli qayg‘u” kabi oksyumaronlari bilan inson qalbi, uning hislari va ichki olamini keng ochib bergan deyish mumkin.

Fan nuqtayi nazaridan ta’kidlash kerakki, bunday g‘ayriodatiy birikmalar antitezaning bir ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi. Lekin, istalgan ikki so‘zni biriktirish bilan oksyumaron yuzaga kelavermaydi.Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi.Shuning uchun g‘ayriodatiy birikmalarni mantiqsizlik bilan bog‘lash mumkin emas. Ularga estetik hodisa sifatida yondashish zarur.

Oksyumaronda muallifning voqelik faktlariga, turli hodisalarga munosabati, ularni ma’lum pozitsiyada turib baholashi badiiy tarzda aks etadi. Tilshunoslik bo‘yicha yaratilgan lug‘atlarda ham uni izohlashda funksional uslubiy xususiyatlari e’tiborga olinadi: “Mantiqan biri-birini inkor etadigan ikki tushunchani o‘zaro birikishidan iborat bo‘lgan uslubiy figura hisoblansa, badiiy adabiyotda obrazlilik , ifodalilik kabi maqsadlarda keng qo‘llaniladi”.

Umuman, qarama-qarshi ma’nolarni ifodalash xususiyati jihatidan antiteza (o‘zaro zidlik) va oksyumaron bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, lekin ba’zi farqli jihatlari ham bor. Antitezaning o‘ziga xos jihati shuki, unda muallif ifodalanayotgan narsa, voqea-hodisaning ma’lum tomoniga o‘quvchi e’tiborini qaratish, ana shu xususiyatni

ta’kidlashda uni boshqa narsa, voqea-hodisaning xuddi shunday jihati bilan taqqoslaydi. “Oksyumaronda esa ko’rganimizdek, ikki bir-biriga qarama-qarshi ma’noli so‘zlar bir-biriga birlashtiriladi, biri ikkinchisiga nisbatan aniqlovchi vazifasida qo‘llaniladi. Ammo unda ushbu birikishdan kelib chiqqan ko‘chma ma’noga ahamiyat beriladi.”[6:114] Ya’ni antitezada ikki so‘z zidlanish asosida qiyoslansa, oksyumaronda bu zidlanish hosil qilayotgan yangi birlikka ko‘proq e’tibor qaratiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Iqbol Miroz she’rlarida oksyumaronlar orqali yangi ma’nolar yaratiladi, o‘quvchini yanada kengroq mushohada qilishga undaydi.Bunday usul shoirning poetik uslubini boyitadi va uning asarlarini estetik jihatdan yanada mukammalroq qiladi. Oksyumaronlar orqali Iqbol Mirzo, insoniyat ichki dunyosi va uning murakkabligi hamda serqirraligini to‘kis yorita olgani tufayli bugungi kungacha xalqimizning sevimli shoirlari safidan muntazam joy olib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xotamov.N, Sarimsoqov.B. “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” T.:1979-y.
2. “Стилический энсиклопедический словарь русского языка” М.Флинта. Наука, 2003
3. M.Yo’ldoshev “Badiiy matn va uning lingvopoetik asoslari’’ T. Fan 2007
4. Abdurahmonov.H, Mahmudov.N. “So‘z estetikasi” T.Fan 1981
5. I.Mirzo “Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?!” T.2014
6. Qo‘ng‘urov.R. “O‘zbek tilining tasviriy vositalari” T.1977-y
7. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
8. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
9. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
10. Sayfullayev N. H. o‘g‘li. (2023). IJTIMOIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(12), 106–111.
11. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “BESH BOLALI YIGITCHA” ASARIDAGI ORIF OBRAZINING O‘ZIGA XOS XARAKTER XUSUSIYATLARI

Saidmuradova Saxiba Jalmuradovna,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,
Jo‘rayeva Muhayyo Botirovna
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘zbek bolalar adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan ijodkordir. Uning bolalar dunyosi, ularning ruhiyati, kichkintoylarning orzu - istaklari go‘zal pardalarda tasvirlangan bir qancha asarlari mavjud. Shu jumladan, “Besh bolali yigitcha” asarida ham aynan ruhiy dunyosi pok bo‘lgan bolalarning sarguzashtlari, urush oqibatida chekkan zahmatlari, yetimlikda boshdan kechirgan kechinmalari aks ettiriladi.

Kalit so‘zlar: Xudayberdi To‘xtaboyev, asar, xarakter, badiiy obraz, qahramon, ruhiy dunyo, intim tuyg‘u.

Abstract: Khudoiberdi Tokhtabayev is an author who has a special place in Uzbek children's literature. There are several of his works depicting the children’s world, their psyche, and the dreams of the little ones in beautiful curtains. In particular, the work “Five-born boy” shows the adventures of children with a pure spiritual world, their experiences as a toiler and orphan due to the war.

Key words: Khudaiberdi Tokhtabayev, work, character, artistic image, hero.

Аннотация: Худойберди Тохтабаев – писатель, занимающий особое место в детской литературе Узбекистана. Есть несколько его работ, изображающих детский мир, их психику и мечты малышей в красивых шторах. В частности, в произведении «Пятирожденный мальчик» показаны приключения детей с чистым духовным миром, их переживания труженика и сироты из-за войны.

Ключевые слова: Худайберди Тохтабаев, произведение, персонаж, художественный образ, герой, духовный мир.

O‘zbek bolalar adabiyoti, xususan, bolalarga bag‘ishlangan nasriy asarlar haqida gap ketganda ko‘z oldimizda Xudoyberdi Toxtaboyev gavdalanadi. Hozirgi davr kitobxoni borki, ijodkorning hech bo‘lmasa birgina asarini mutolaa qilib ko‘rmagan bo‘lsa. Ayniqsa, adibning “Sariq devni minib” romani qahramoni Hoshimjonni tanimaydigan inson bo‘lmasa kerak. Hech bo‘lmaganda uni oinai jahon orqali taniganlar bor. Ana shunday ajoyib bolalarning g‘aroyib sarguzashtlarini mahorat bilan kitibxonga hikoya qilib beruvchi sevimli bolalar yozuvchisi Xudoyberdi

Toxtaboyevning “Besh bolali yigitcha” asari ham o‘quvchini beixtiyor bolalar olamiga sayir qildiradi.

Asarni o‘qir ekanmiz, o‘zi o‘n uch yoshda bo‘lsa-da ukalari uchun ham ota, ham onalik qilish mas’uliyatini zimmasiga olgan Orifjon, ozgina fe’ldor, jahli burnining uchida turuvchi, kezi kelganda hammadan mehribon Sulton, hamma qizlar singari nozik, nimjongina Zulayho, tun-u kun xayol surib qog‘ozga turli suratlar chizadigan Usmon, yozuvchi ta’riflagandek, chumchuq bolaga o‘xshab chirqillab, ovqat so‘rashdan bo‘shamaydigan Omon va jajjigina, hali hech nimani anglamaydigan Robiya singari qahramonlar bilan hayotning turfa yo‘llarida birga bo‘lasiz.

Yuqorida tilga olingan roman qahramonlarining oziga xos xarakter xususiyatlari va ruhiy kechinmalari mavjud. Badiiy asardagi qahramon xarakteri, uning his-tuyg‘u va kechinmalari, ruhiyati har bir o‘quvchini o‘sha qahramon holatiga tushishga majbur qiladi. Faqatgina ijodkor yaratgan xarakter kitobxon hissiyotlarini junbushga keltira olsagina, u haqiqiy badiiy xarakter yarata olgan bo‘ladi. Xarakter yaratish badiiylikning o‘zak masalasi deb qarashimizning boisi shundaki, xarakter badiiy ijodning juda ko‘p unsurlari (syujet, kompozitsiya, til kabi) ni o‘zida jamlaydi, tog‘risi o‘ziga “ishlash”ga majbur qiladi. Ya’ni xarakter asar mazmuniga nisbatan syujet, kompozitsiya, til (uslubining butun hiyla-nayrang shaklidir).[Umirov, 2004: 48]

Darvoqe, “Besh bolali yigitcha” qahramon xarakteri ham insonning intim tuyg‘ulariga ta’sir etib, chuqur o‘yga toldiradi. Chunki X. To‘xtaboyev bu qahramonlar holatini haqiqiy, jonli va to‘laqonli tasvirlagan. Roman qahramonlari ijtimoiy sharoit, urush yillarining keltirgan musibatlari tufayli irodali, kuchli va taslim bo‘lmaydigan jasur insonga aylandilar. Faqat ijtimoiy sharoit asarda yuzaga chiqqan shaxs irodasi xarakterining asarda badiiy va g‘oyaviy negizni ta’min qiladi. Busiz yozuvchi yaratgan xarakter badiiy va estetik qiymatga ega bo‘lmaydi. [Umirov, 2004: 48]

Asarga yuzlanadigan bo‘lsak, romandagi voqelar Orifjon tilidan hikoya qilinadi. Uning hikoyasini tinglar ekansiz, ba’zan shodlikdan yuzingizga quvonch yuguradi, ba’zan xandon otib kulasiz, ba’zan esa urush yillarida insonlar chekkan zahmatlarini ko‘rib bugungi tinch zamonda yashayotganingizga shukrona aytasiz. Ayniqsa, bosh qahramon Orifning ukalari uchun jon kuydirishi, ularni baxtli kunlarga yetkazish

uchun qilgan intilishlari har bir insonga tasir etadi. O‘zi og‘ir ahvolda bo‘lsa-da doim jigarlari uchun qayg‘uradi. Hatto, o‘zi och bo‘la turib singlisii kasal bo‘lib qolganda oyoq kiyimini sotib bo‘lsada singlisiga bir shingil uzum olib kelishga qaror qilishi hamma insonning ham qo‘lidan kelavermaydi:

“...Faqat jajji singlim o‘ksinmay uzum-u qovunlarni yeb tuzalib ketsa bo‘lgani. Yooog‘-e... ko‘ylakni sotsam ichimda mayka yo‘q, qip yalang‘och bo‘lib qolaman-ku, shimni ham sotib bo‘lmaydi, bitta trusikda ko‘chada yurish uyat. Tuflimni sotganim ma'qul. Umuman tuflining menga keragi ham yo‘q, qishliqda yurganimizda yoz kirishi bilan yalang oyoq bo‘lib olardim... yozda ham tufli kiyib yurishni shu yerda ko‘rdim.” [To‘xtaboyev, 2009: 186]

Bunaqa jasoratni, akaning singilga bo‘lgan muhabbatini ba’zan bu hayotda kattalar ham ko‘rsata olmaydi. Ammo bizning jajji qahramonimiz ota-onasiga bergan va’dasiga sodiq turishga,o‘z oldidagi mas’uliyati uchun doim kuchli bo‘lishga intiladi va buning uddasidan chiqadi.

Hayotda shunday damlar bo‘ladiki, qorin to‘yg‘azish uchun hamma narsaga rozi bo‘ladi kishi, ammo inson ichidagi nimadir- g‘ururmi, iymonmi bu ishni qilishlikdan bosh tortadi. Ana shunday vaziyatda odam o‘zini kuchsiz va ojiz his qiladi. Xuddi Orifjon kabi:

− Ramazon aytib keldik eshigingizga,

Xudoyim o‘g‘il bersin beshigingizga, - desamchi? Demayman, hecham demayman. Qurib ketsin shu tilanchilik. Mayli, ochimizdan o‘la qolaylik!... Nazarimda atrofimni bolalar o‘rab, tillarini chiqarib “tilanchi, tilanchi!” - deb mazax qilayotgandek tuyuldi... Xo‘rlugim kelib ko‘zimdan tirqirab yosh chiqib ketdi... Yo‘q, yo‘q! Kerakmas, kerakmas! Yugurib ketdim, qayoqqa, bilmayman...

Hatto kattalar ham bunday vaziyatda yomon yo‘lni tanlab, osonlik bilan kun o‘tkazishni o’ylashadi. Lekin tabiatan halol, mehnatsevar Orif uchun bu isnod edi. U o‘zini bunday pastkash ishlarga loyiq ko‘rmadi. Chunki u doimo yaxshilikni ko‘zlab yashaydigan oqil bola edi-da. Shunday o‘ylash va oqilona yo‘l tutish unga xos, albatta. U doim yo‘lini topadi, yaqinlarini qiyin vaziyatda qoldirmaydi. Hech bo‘lmasa ajoyib afandilar aytib qaltis vaziyatlardan qutilib qoladi. Hayotning shafqatsiz sinovlari bola

Orifni metin-bardoshli insonga aylantirdi. Kuchikligiga qaramasdan kolxozga brigadir qilib ishga olindi. Nima uchun deysizmi, odamlar ulg‘ayib uddalaydigan vazifani u shu yoshida uddaladi. Qiyinchilik insonni nimalarga majbur qilmaydi. Shunday bo‘lishiga qaramay, Orifjon hammasini uddaladi. U kitobxon uchun sabr-matonat ramziga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, Xudoyberdi To‘xtaboyev asarini yakunlarkan Orifjon bir kun kelib katta-yu kichik kitobxonlarning sevimli qahramoniga aylanishiga ishonardi. Asar so‘ngida u zafar quchdi. Urush keltirgan dardlar-u, yetimlik azob -uqubatlarini yengib o‘tdi. Kitobning so‘z boshisida Albert Lixanov aytganidek: “Hayotda yaxshilik, xotirjamlik, ravon yo‘l emas, aksincha sinovlar insonni inson darajasiga ko‘taradi. Bu sinovlar achchiq bo‘lmasa qani edi! Modomiki, davr shuni taqazo etgan ekan, nachora!

Besh bolali Orif ko‘plab sinovlarni boshdan kechirdi. U g‘olib bo‘ldi.

Aytish mumkinki, u zafar quchgan Orifdir!”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Kiyikbayev F. Bolalar adabiyoti. – Andijon, 2020.
3. Toxtaboboyev X. Besh bolalali yigitcha. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
4. Umirov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004

IBRATNING „SHIKOYATI ZAMONA“ ASARI BADIIY TALQINI

Normengliyeva Dilnoza Baxtiyor qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti,
Saidmuradova Saxiba Jalmuradovna
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Is’hoqxon Ibratning ma’rifatparvarlikka oid qarashlari, o‘z zamonasi va zamondoshlaridan shikoyat tarzida yozilgan “Shikoyati zamona” asari tahlili berilgan.Tahlil jarayonida ijodkor falak kishilarning boshiga turfa savdolarni solayotgani, zamona kimsalari ma’siyat tomon yurayotganligi, shu taxlit davom etadigan bo‘lsa, musulmonchilikdan ham mahrum bo‘lishi bayon etiladi. Baytlarda nido, tazod, tanosub san’atlaridan ustalik bilan foydalanilgani tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Is’hoqxon Ibrat, she’riyat, badiiy talqin, „Shikoyati zamona“ asari, she’riy san’atlar, aknun, ma’siyat.

Аннотация: В данной статье дан анализ взглядов Исхакхана Ибрата на просветительство, в „Шикояти замона“, написанной в форме жалобы на свое время и современников, утверждается, что если он это сделает, то он также потеряет свой мусульманский статус. Анализируется, что в стихах умело используются искусства восклицания, тазада, пропорции.

Ключевые слова: Исхакхан Ибрат, лирика, художественная интерпретация, Работа „Шикояти замона“, поэтическое искусство, сейчас, грех.

Annotation: This article provides an analysis of Ishaqkhan Ibrat’s views on enlightenment, „Shikoyati zamona“ written in the form of a complaint against his time and contemporaries. it is stated that if he does, he will also lose his Muslim status. It is analyzed that the arts of exclamation, tazad, and proportion are skillfully used in the verses.

Key words: Ishaqkhan Ibrat, lyrics, artistic interpretation, The work “Shikoyati Zamona”, poetic arts, now, sin.

Adabiyotimiz tarixida jadidchilik davri o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Bu davrda jadid namoyandalarining barchasi xalqni ma’rifatli, ilmli qilish uchun bir qator ishlarni amalga oshirdilar.

Xususan, adibning “Shikoyati zamona” asari xuddi shu mavzuda yozilgan. Biroq mazkur asar boshqa ijodkorlar singari ilm o‘rganish, yangiliklar bilan tanishish, bolalarini maktabga berib savodli qilishdan ko‘ra o‘tkinchi hoy-u havvaslar, bekorchi narsalar uchun vaqt ajratayotgan kimsalardan emas, balki keraksiz va ortiqcha mashg‘ulotlarni deb Haq yo‘lidan chiqayotgan, Olloh buyurgan ishlarni bajarmayotgan insonlardan shikoyat tarzida yaratilgan. To‘g‘ri, Ibrat hayoti va ijodiyotiga oid

ma’lumotlar bilan tanishish jarayonida unga nisbatan „din va jamiyat arbobi“ deya ta’rif berilganligining ham guvohi bo‘lamiz, qolaversa, adib o‘n yil davomida qozi lavozimida ham faoliyat yuritgan, bundan ko‘rinadiki, shoir diniy ilmi yuqori qorilardan bo‘lgan. Shu sababli ham zamondoshlaridan shikoyat ayni shu yo‘sinda yozilgan bo‘lsa ajab emas.

Ey qalam, ayla bir hikoyat,
Bu zamona ahlidin shikoyat.
Qandog‘ falak kajrav o‘ldi aknun,
Ko‘p turfa jafoni soldi gardun.
Yurdi rahi ma’siyatga mardum,
Oyini musulmonlig‘ ayladi gum. [5:46].

Mazkur parchada izohlanishi lozim bo‘lgan so‘zlar: **aknun** – *endi, shu vaqt, shu lahza*; **ma’siyat** – *gunoh*; **gum** – *yo‘qolish, yo‘ldan olish* [2:48]. Birinchi baytda shoir qalamga murojaat etib, „bu zamon ahlidan shikoyat“ etishini so‘raydi. Chunki adib o‘zining „Mezon uz-zamon“ asarida: *„Savt ila aytilsa, bir samo‘ eshitub tamom bo‘lur, har bir ahli savod ko‘rub o‘qusa, amri ma’ruf bo‘ladur. Biz qilib turg‘an xizmat keyingi asrlarga ham xizmat etar umidinda bo‘lub qalam yurguzduk…“* [3:160-161] deydi, ya’ni biror ma’lumot og‘izda aytilsa, tez unutiladi, yozib qoldirilsa, asrlarga xizmat qilishi mumkinligini ta’riflaydi. Shu sababli ham muallif qalamga murojaat etadi.

Keyingi baytda go‘yoki falakning teskari aylanishi natijasida dunyo „turfa jafolarni“ kishilarning boshiga solayotganini, zamona kimsalari ma’siyat tomon yurayotganligi, ya’ni tobora yomon ishlarga qo‘l urib, gunohga botayotganligini, shu taxlit davom etadigan bo‘lsa, musulmonchilikdan ham mahrum bo‘lishini bayon etadi. Baytlarda nido, tazod, tanosub [4:17-18] san’atlaridan ustalik bilan foydalanadi.

Jon erdi amonat ushbu tanda,
Erduk Xudog‘a bovujud banda.
Jon vahmini qilmayin hamisha,
Qilduk mudom gunohi pesha. [5:46].

Ushbu baytlarda jonning bu tanada omonat ekanligini, inson ich-u tashi ila Ollohga banda (qul) ekanligini, insonlarning, xuddiki, o‘limni unutgandek mudom gunohga qo‘l urayotganligini, Haqning deganlariga rioya etmasdan, shariat ahkomlarini-da poymol etayotganligini uqtirib, bu kunda kimning puli ko‘p, obro‘yi yuksak bo‘lsa, har joyda ishi hal ekanligini ta’kidlab, tanosub, iyhom, tashxis [4:8-17] san’atlari mahorat bilan qo‘llaydi. Keyingi baytlarda ulamoning xalq orasida mavqeyi baland emasligi, to‘y-u bazm, azada boyning yuqorida, izzat-ikromda o‘tirishini, amaldor-u bayonlarning barchasi dimog‘i ko‘tarilib, kibrlanib ketganligini, qayerga borsa-da, ularning istaklariga qarashlari, hurmatlarini joyiga qo‘yishlari, „doim nasibasi chopon“ ekanligini ta’riflaydi:

Ulamoni yo‘qtur e’tibori,
To‘y-u azoda boy yuqori.
Borganda qayong‘a shodmondur,
Doim ani nasibasi chofondur [5:46-47].

Mazkur baytda shoir tazod, tamsil, tashxis, tanosub [4:7,8,17,18] san’atlaridan o‘rinli foydalangan. Shundan so‘ng insonning amali, ilmiga qarab emas, mansabi, puliga qarab muomala qilayotganlar va puliga, lavozimiga ishonib „burnidan pastini ko‘ra olma“yotlarning „mahsharda nima deb javob“ berishlarini, ya’ni adolatsizligining javobini qanday berishlarini, do‘kondor-u amaldorlarning o‘z foydalari uchun fuqaroni ko‘p azoblab, ularga kuchi yetmagan kambag‘al, bechoralarning „vaqti bemahallar“ yig‘lashlarini ifodalarkan, tashxis, takrir, tazod, tavze’ [4:8,18,20] san’atlaridan o‘rinli foydalanadi:

Bergay anga nim movut durobin,
Mahsharda na degay javobin.
Yetmay kuchi necha kambag‘allar,
Yig‘lar edi vaqti bemahallar [5:47].

Keyingi baytlarda azob-uqubatlardan charchagan, zamon nohaqliklaridan aziyat chekkan kambag‘allarning Ollohga oh-u nolasi aks etgan bo‘lib, ularni „nega g‘inolardan qilma“ganligini, „xilqat (yaratilish)da bemahal“ qilganligini, „nega … kambag‘al qil“ib yaratganini so‘rab, Yaratganga isyon etarkan, bu so‘zlarni ochiq-

oshkor aytib, „nechasi … kofir o‘ldi“ deya ta’riflaydi. Kundan kunga umri tugab borayotgan bo‘lsa ham insonlarning ko‘ngil ko‘zi hamon ochilmaganini, „go‘r“ga yaqinda kiraman deb emas, boqiy umr ko‘radigandek maishatga berilib yurishlarini, „o‘limni vaqti“ yetganda biror kimsaning „sim-u zar“ini hamroh qila olmaganini, ya’ni har kim qazosi kelgan vaqtda vafot etishini, uni hech narsa qutqara olmasligini, ustida kafandan boshqa narsa bo‘lmasligini, bu olamda qilgan yaxshilig-u yomonligining jazosi va mukofotini „hashr (yig‘ilish, to‘planish) kunda“ ko‘rishini, ajalning qachon kelishini hech kimsa bilmasligini, yomon inson vafot etsa, „munga har kishi rizolig‘ bermas“ligini ta’kidlaydi.

Asarning so‘nggi baytlarida shoir zamondoshlarining „benamoz“, „beajz“, „beniyoz“ yurishidan, tobora dinning zaiflashishidan xavotirlanayotganini yozarkan, she’rni quyidagi misralar bilan yakunlaydi:

So‘z ko‘p desam man, ey dilogoh,
Qildim oxir qissani ko‘tah [5:49].

Umuman, adib lirikasi mavzusi va mohiyati jihatidan rang-barang, zotan uning ayrim she’rlarida ishq-muhabbat kuylangan bo‘lsa, ayrimlarida fan-texnika, yana boshqa birida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy masalalari, yuqorida tanishib chiqqan asarimizda esa ilm-u hunardan ham, din-u e’tidoqdan ham mahrum, har ikkisini ham yaxshi anglab yetmagan insonlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, „Ibrat lirikasida til, badiiy tasvir vositalari e’tiborga sazovordir. Shoirning istioralari, sifatlash va o‘xshatishlari sodda va samimiydir“. [1:147]. Is’hoqxon ijodining barcha janrlarida o‘z davrida ro‘y berayotgan u yoki bu voqea-hodisalarni qalamga oladi, mavjud muammolarga yechim berishga harakat qiladi. „Shikoyati zamona“ asarida ham zamondoshlarining ilm-u ma’rifatdan, zamonaviy texnikalarning hayotga olib kiradigan yengilliklaridan qochishi – Olloh buyurganlaridan qochish ekanligini, ya’ni „Mezon uz-zamon“da keltirilganidek: *„Olloh taolo bizga yusr(osonlik)ni xohlagon, usr(qiyinlik)ni xohlagon emas. „Yuridullohu bikum ul-yusro va la yuridu bikum ul-usro“ desa, biz o‘zumizni o‘zumiz qiyinlikka solgan“* [3:163], deya ta’riflaydi.

Is’hoqxon ijodining barcha janrlarida o‘z davrida ro‘y berayotgan u yoki bu voqea-hodisalarni qalamga oladi, mavjud muammolarga yechim berishga harakat

qiladi. Ammo odamlar tag zamirini, asl mohiyatini anglamay, o‘zlariga oson deb bilgan taraflarigagina amal qilib yurganligini, shariat ahkomlarini ham bajarmay, bajarsa-da amal qilmayotganlarini ko‘rsatib bergan. Mazkur she’r orqali shoir xalqni ilm olishga chorlash bilan bir qatorda u dunyo, oxirat, ezgu amallar qilish darkorligini, mazlumni xo‘rlash emas, qo‘llash kerakligini, zamon zayli bilan kimdir boyigan bo‘lsa, u ham Yaratganning xohishi ekanligini hamda bu boyliklarni xayr-u ehson yo‘lida, muhtoj kimsalarning hojatini chiqarish uchun sarf etish lozimligini uqtiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Dolimov U. Jadidlar. Is’hoqxon to‘ra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Dolimov. U., Jabborov N. Is’hoqxon Ibrat. – Toshkent: Zabarjad media, 2022.
3. Долимов У., Жабборов Н. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2020.
4. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа аксиядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001.
5. Исҳоқхон Ибрат. Ислоҳи Миллат. – Тошкент: Маънавият, 2022.

“CHOL VA DENGIZ” ASARINING BADIIY MOHIYATI

Saidmuradova Saxiba Jolmuradovna
TerDPI o‘qituvchisi,
Normamatova Husnora Shomamat qizi
TerDPI talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Chol va dengiz” asarining badiiy mohiyati, asarning syujetlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Asarda Santyago ismli cholning hayotga bo‘lgan muhabbati, doimo ozru-umidlar girdobida yashab, sinovlarga taslim bo’lmagani hamda mashaqqatli taqdir yo‘li haqida hikoya qilinadi.

Kalit so‘zlar: Santyago chol, Manolin, tunets balig’i, dengiz hayoti, bola tili, beysbol ustasi, Kuba shahri, dovul hamlasi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о художественной сути произведения «Старик и море» и сюжете произведения. Произведение рассказывает о жизнелюбии старика по имени Сантьяго, о том, как он всегда живет в водовороте желаний и надежд, не пасует перед испытаниями и трудным путем судьбы.

Ключевые слова: старик Сантьяго, Манолин, тунец, морская жизнь, детский язык, мастер бейсбола, кубинский город, ураган.

Annotation: This article provides information about the artistic essence of the work “The Old Man and the Sea” and the plot of the work. The work tells about the love of life of an old man named Santiago, how he always lives in the vortex of desires and hopes, does not give in to trials, and the difficult path of fate.

Keywords: old man Santiago, Manolin, tuna fish, sea life, children’s language, baseball master, Cuban city, hurricane attack.

“Chol va dengiz” asari buyuk amerikalik yozuvchi Ernest Heminguey qalamiga mansub.Yozuvchi «Chol va dengiz» asarini 51 yoshida, ikki oy davomida yozgan. Demak, u bu paytda qirchillama yoshlik davridan o‘tib, keksalik bilan yuzlashayotgan bo‘ladi. Ko‘ngil to‘la orzu-umidlar saragi sarakka, puchagi puchakka ajralayotgan palla adib bor mahoratini ishga solgan holda o‘ziga ikki oy davomida «dalda» yaratadi. Asar voqea va qahramonlari juda ham oddiy. Ammo shu bilan birga hayotning azaliy haqiqatlarini o‘zida jamlagan. Insonga o‘zgacha ruh, olg‘a borishga chorlovchi, imkon beruvchi durdona qissa.

Asarda “Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo‘lmaydi,”-degan mashhur va tagzamirida olam-olam ma’nolarni jamlagan jumlaga duch kelamiz. Odamni yanchib tashlash deganda, uning jismi nazarda tutilgan. Uni bir lahzada

yanchish, tilka-pora qilish mumkin, ammo ruhini, irodasini yengish oson emas, deyarli imkonsiz. Chunki inson zoti yengilishni qabul qilolmaydi. Harakatdan, yengish sari odimlashdan to‘xtamaydi? To‘xtolmaydi.

Asarning syujetiga biroz to‘xtalsak. Santyago ismli chol Kubadagi kichik qishloqda yashaydi. U baliqchilik bilan shug‘ullanardi. Cholning to‘riga 84 kundan buyon baliq ilinmaydi. Ammo u bundan sira ham umidsizlikka tushmaydi.Asarda chol Manolin ismli bolani o‘ziga hamroh qilib oladi. Manolin – chol bilan birga anchagacha baliq ovlaydi. Keyinchalik Manolinning ota-onasi cholni omadsiz sanagani uchun unga boshqa qayiqqa chiqishini buyurgan edi. Ammo bola Santyagoni juda yaxshi ko‘radi. O‘zi uchun ideal ustoz deb biladi cholni. Xullas, bu gal chol omadiga ishonib dengizga yo‘l oladi. Dastlab, qahramonimiz kichkina tunets balig‘ini ushlaydi. So‘ng esa juda katta baliq qarmoqqa ilinadi. Ulkan baliq qayiqni uzoqqa tortib keta boshlaydi. Chol uning yonida Manolin yo‘qligidan xafa bo‘ladi, bunday paytlarda bolaning yordami juda asqatardi. Shunday qilib, chol baliq bilan uzoq «jang» qiladi. Umid va ishonch uni bir zumga bo‘lsa-da tark etmaydi. Santyagoga tashqi muvaffaqiyat yetishmasa ham, uning ishonch, umidi uni oldinga boshlayveradi.Misli ko‘rilmagan kattalikdagi baliqni o‘ldirishga muvaffaq bo‘ladi. O‘lgan baliqni qayig‘iga mahkamlab, ortga qaytadi. Ammo u ancha olislab ketgan edi. Baliqdan oqayotgan qon akulalarni boshlab keladi. Chol bir necha bor akulalar bilan kurashib, anchasini yer tishlatadi. So‘nggi kuchi qolguncha kurashib, baliqni himoya qildi. Lekin uyiga yetib kelgunga qadar baliqning faqat bosh qismi va suyaklari qolgandi xolos.

Chol shunchalar katta baliq tutgandiki, ilgari unga ishonchsizlik bilan qaragan ko‘zlar, endi hayrat bilan boqardi. Garchi chol butun baliq bilan qaytmagan bo‘lsa-da, hammasini uddalagandi. Bu muvaffaqiyatiga esa uning umidi, sinmas irodasi sabab bo‘ldi.

Asarda chol va bola tili orqali beysbol chempioni Di Majo haqida gap boradi. Bu chempionga chol o‘zini ko‘p taqqoslaydi. Di Majo minglab insonlar qarshisida o‘zining nimalarga qodir ekanini isbotlay olgandi. Bizning Santyago esa yolg‘iz o‘zi, dengizda, atrofida baliqlar va qushlardan boshqa jonzot yo‘q.

Bu holatda chol o‘ziga o‘zini isbotlashi kerak. Hayotda eng muhimi ham, eng qiyini ham aslida shudir. Chunki inson biladi o‘zining nimalarga qodir ekanini, nimalar qilishini, nimalar qila olishini, qachon va qay tarzda amalga oshira olishi o‘ziga yaxshi ayon bo‘ladi. Shunday ekan, odam o‘ziga o‘zini isbotlab, katta narsalarga qodir ekanini ko‘rsatolsa, undagi o‘ziga ishonch yuksaladi. Bu esa irodani mustahkamlab, orzularni kattalashtiradi. Santyago buni uddaladi. O‘zining kuchliligini o‘ziga amalda isbotladi.

Asarda har bir buyum, har bir narsa ramziydir. Dengiz bu – hayot, qayiq – umr, baliq – orzu, akulalar – dushmanlarimiz. Dengiz qayiqni chayqatganidek, ba’zan dovul bilan hamla qilsa, ba’zan sokin bo‘lganidek, umrimiz davomida hayot bizga turli sinovlar, og‘irlig-u yengillik, xursandchiliklar beradi. Chol baliqni tutgach uni asrab qolish uchun jon olib, jon berganidek biz ham yetishgan orzularimizni akula bo‘lmish dushmanlarimizdan himoya qilishga tirishamiz. Orzularimizga chang soluvchi akulalar esa har doim topiladi.

Ushbu asarni mutolaa qilgan kitobxon qalbida hayotga bo‘lgan muhabbat ruhi uyg‘onadi. Kutilmagan tenglikning shunga o‘xshash turi, Xeminguey quruqlikda marlin va akulalar bilan ishlashning turli usullarini tasvirlab berganida paydo bo‘ladi. Garchi bu Santyago, marlin va akula o‘rtasidagi jangni namoyish qilsa-da, u ishtirokchilarga mos keladi. Dengiz janglariga qaramay, marlin va akulalar qirg‘in qilinadi va odamlar ulardan quruqlikda foydalanadilar, ularning dushmanliklari faqatgina dengizda aktual xolos, sohilda esa bu hech narsani anglatmaydi. Santyago va Manolin misolida bo‘lgani kabi, ushbu uyg‘unlik romanda tabiatning uyg‘unligi, katta fojiada qahramonning o‘z qurboniga yordam beradigan birlik singari tematik tashvishni namoyish etadi.

Xemingueyning asarlari inson va tabiat, kurash va qahramonlik, axloqiy kuch va yolg‘izlik, yo‘qotish va muvaffaqiyatsizlikning buyukligi bilan bog‘liq. “Chol va dengiz” ehtimol yozuvchining bu mavzular cho‘qqisidagi eng yuqori nuqtasidir. Shuning uchun ham biz har birimiz o‘zimizni uning asarlarida topa olamiz. Asarda markaziy mavzu mag‘lubiyat bo‘lsa-da, u muvaffaqiyatsiz bo‘lishini his qilganiga qaramay, oxirigacha kurashishni davom ettiradi. Bu esa, o‘z navbatida, insonga yanada ulug‘vorlik bag‘ishlaydi.

Aslida bu hikoyada ko‘p narsa sodir bo‘lmaydi, lekin sizni birinchi sahifadan oxirgi sahifaga qadar butun diqqatingizni tortib oladi. Bu yerda men uchun eng kutilmagan narsa bu asarning yakuni bo‘lgan. Nazarimda, hamma narsa juda qayg‘uli tugashi kerak edi. Biroq bu ham yomon emas. Bunday yakun cholni qahramonga aylantirmaydi, lekin u eng qimmatli narsasini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgani sababli u yutqazmaydi. Bu yerda chol oddiy odam va bu hikoyaning go‘zalligi shunda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Chol va dengiz” Ernest Heminguey, 1952.
2. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
3. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
4. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 5

GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI

Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi
Sattorov Shokir Jabborovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilariga xalq og‘zaki ijodining nodir namunalari sanalmish “Go‘ro‘g‘li” va “Rustamxon” dostonining o‘qitilishi bilan bog‘liq metodikalar yoritilgan. Dasr jarayonlarining olib borilishidagi tartib va ketma-ketlik, innovatsion texnalogiyalarining dars jarayonidagi samaralari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Xalq og‘zaki ijodi, maktab, yuqori sinf, doston, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon”, innovatsion, samaradorlik, texnologiya.

Аннотация: В данной статье освещаются методы, связанные с преподаванием эпосам “Гёроглы” и “Рустамхан”, которые считаются редкими образцами народного творчества, старшеклассникам общеобразовательных школ. Информация о порядке и последовательности процессов урока, влиянии инновационных технологий в процесс урока.

Ключевые слова: Народное искусство, школа, высший класс, эпос, “Гёроглы”, “Рустамхан”, инновационный, эффективность, технология.

Abstract: This article discusses the methods of teaching the epics “Gorogly” and “Rustamkhan” to senior students of secondary schools, which are considered rare examples of folk oral art. Information is provided about the order and sequence of lesson processes, the effects of innovative technologies in the lesson process.

Keywords: Folk oral art, school, senior class, epic, “Gorogly”, “Rustamkhan”, innovative, efficiency, technology.

Yangilanayotgan pedagogik tafakkur qaror topayotgan yangi bir sharoitda adabiy ta’limga bo‘lgan e’tibor va talab jiddiy hamda shu bilan birga salmoqli vazifalar qo‘yishi tabiiy hol albatta. Taniqli adabiyotshunos va metodist olim Qozoqboy Yuldoshev so‘zlari bilan aytganda: “Adabiyot o‘qitishning vazifasi har bir xalqni o‘zigagina xos ma’naviy qadriyatlar majmuida idrok etish mumkin ekanligini o‘quvchilarga singdirishdir.

Umum o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida adabiyot darslarini o‘tishda interfaol metodlarni qo‘llashimizdan maqsad, ta’lim samaradorligi oshirishdan iborat. Bu jarayonda o‘qituvchining vazifa va maqomi bir qadar o‘zgaradi. Innnovatsion metodlardan foydalanilganda o‘qituvchi oddiy dars beruvchi emas, balki o‘quvchi

uchun uning maslahatchisi, darsning tashkilotchisi, boshqaruvchisi va muvofiqlashtiruvchi bo‘lib qolishidir.

Maqsad, vazifa va **mazmun** tushunchalari adabiyot o‘qitishning **asoslarini** tashkil etuvchi kategoriyalar hisoblanadi. Adabiy ta’limda belgilangan maqsadni amalga oshirish borasidagi faoliyat va jarayonlar adabiy ta’limning vazifani ifodalaydi va keltirib chiqaradi. Professor Q.Yuldoshev **“Adabiy ta’lim oldidagi maksad istiqbolni belgilasa, vazifa joriy faoliyatni kursatadi” – deb ta’kidlaydilar.**

Umumta’lim maktabining yuqori 11-sinfida, “Adabiyot” darsligida xalq og‘zaki ijod mahsuli bo‘lgan dostondan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” berilgan bo‘lib, o‘quv rejada ushbu dostonni o‘qitish uchun jami 4 soat ajratilgan. Taqsimotga ko‘ra;

1. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni.
2. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni syujetining o‘zga xosligi.
3. Dostondagi asosiy qahramonlar tavsifi
4. Dostonining badiiy xususiyatlari. Dostonning badiiy-estetik hamda tarbiyaviy ahamiyati deb belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Dostonni o‘tishda, avvalo, uni rejalashtirish muhimligini biz yuqorida qayd etdik, shunday ekan har bir darsning texnologik xaritasini tuzib olish rejalashtirishning muhim omili sanaladi. Umuman, har bir mavzuni ko‘rgazmaliligi, taqdimot (slayd)lar, qo‘shimcha ma’lumotlar audio (eshitish) va video (ko‘rish) tasmalar asosida o‘tilishi darsninig samaradorligini oshiradi.

Ma’lumki, 10-sinfda o‘quvchilar xalq dostonlaridan “Rustamxon” dostoni bilan tanishganlar. O‘qituvchi shu asnoda o‘quvchilar bilan savol-javoblar o‘tkazib, doston janri va undagi badiiy-g‘oyaviy mavzularni ham takrorlab oladi. (1.1-rasm)



Savollarga javoblar olingandan so‘ng, yangi mavzuning bayoniga o‘tiladi. Dars rejasi e’lon qilinadi.



Doskada “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni kitobining tasviri namoyish qilinadi va bir vaqtning o‘zida baxshi ijrosidagi 5 daqiqalik doston ijrosi ham eshittiriladi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoniga ajratilgan birinchi soatni “Intellekt karta” (Aql kartasi, aqilli fikrlash) metodi orqali o‘tish maqsadga muvofiq deb bildik. “Intellekt karta” o‘quvchining umumiy fikrlash qobiliyatini oshirishga, vaziyat yoki muammoga turli yondashuvlar bilan qarashga yordam beradi. Mazkur metod muallifi amerikalik olim Toni Byuzendir. Inglizchada “Mind Mapping” deb nomlangan metodning ma’nosi “aql kartasi yoki aqilli fikrlash” - demakdir. Ushbu metodning maqsadi, miyada asosiy mavzuni tutib turgan holda, unga bog‘liq bo‘lgan barcha ma’lumotlarni o‘rganib chiqish va xotiraga muhrlashdan iborat.

Darsda “aqilli, fikrlovchi karta” metodini qo‘llagan o‘qituvchilar navzuni har bir bolaga tushunarli ravishda yanada qulay va sodda shaklda tushuntira oladi. “Fikrlovchi karta”lar yordamida;

- ishtirokchilarning ijodiy va analitik qobiliyatini rivojlantiriladi;
- ta’lim jarayonida ma’lumot beruvchi motivatsiyani shakllantiradi;
- ma’lumot beruvchi jarayonni mustaqil tashkil etish ko‘nikmasini yuzaga keltiradi;
- o‘quvchlarda kitoblar, lug‘atlar hamda internet orqali ma’lumot va axborotlar izlash mahoratini oshirishda;

- fikrlash, xulosa qilish, qaror qabul qilish ko‘nikmalarini oshirishda.

Umumta’lim maktablarining 11-sinfida “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni bo‘yicha 4 soatga mo‘ljallangan parchani biz yuqorida keltirgan “Intellekt karta” *(Aql kartasi, aqilli fikrlash)* metodi, Venn diagrammasi, Klaster va BBB grafikli chizmalar, Keys metodi va FSMU texnologiyalar asosida o‘tish bilan bog‘liq barcha metod va usullar tavsiyasini berdik. Shu bilan birga, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonini umumta’lim maktablarida o‘qitish, o‘rganish bo‘yicha yangi innovatsion klaster platformasini taklif etmoqdamiz. Ushbu innovatsion versiya *https://innovatsiya-epos.uz* – deb nomlangan bo‘lib, istalgan internet brauzeri orqali ushbu platformaga kirish imkoniyati yaratilgan. Avval aytganimizdek, platformaga kirish bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, o‘qituvchi avvalo, “Yuqori sinflarda xalq dostonlarini innovatsiya asosida o‘rganish” –deb nomlangan sahifadan 11-sinf bo‘limi tanlanib, “mashg‘ulotlarga o‘tish” *(1.1 rasm)* tugmasi bosiladi. Keyingi bosqich “kod olish” bo‘lib, ushbu tugma bosilganda tizim o‘z-o‘zidan “Xalq dostonlari” deb nomlangan telegram kanali o‘tadi. O‘qituvchining o‘zi sinfdagi barcha o‘quvchilarga “kod olish” tugmani bosish orqali barcha o‘quvchilarga kod oladi va raqamlarni tarqatadi. *(1.2 rasm)* O‘quvchilar o‘zlariga tegishli kodlarini olib kiritish barobarida, tegishli ma’lumotlarini; ismi sharifini yozib, yashash manzili hamda maktab va sinf raqamlarini tanlab belgilaydilar. Shundan so‘ng, “kirish” tugmasi orqali platformaga, ya’ni dostonni o‘rganish bo‘yicha klaster jadvaliga kirib boriladi. Unda, dostonni o‘rganish bo‘yicha jami 12 qismdan iborat bo‘lgan, ma’lumot va topshiriqlar “sandig‘i” joylashgan. Masalan; 1) Ko‘p varianli test savollari 2) Lug‘at so‘zlar va ularni izohi 3) Mantiqiy, konseptual, savollar 4) Dostondagi obrazlar tahlili 5) Maqollar izohi 6) Mutolaa zavqi 7) Baxshi ijrosi 8) Dostondan parcha yod oilsh 9) Uyga vazifa 10) Doston kuylagan baxshi haqida 11) Doston tarixi xususida 12) Dostonni to‘la matni va qo‘shimcha ma’lumotlar (OAV va ijt.tarmoqlarda) kabi bo‘limlardan iborat. Umuman olganda, bu platforma o‘qituvchi va o‘quvchiga ham o‘ziga xos imkoniyatlar beradi. Qulayligi;

- Mavzu bo‘yicha ko‘p variantlilik asosida barcha testlar bazasini vaqt (generatori) me’yori asosida tuzilganligi;

- Dostonda tushunilishi qiyin bo‘lgan, shevaga xos so‘zlarning izohi berilishi;
- Doston matni bo‘yicha faktologik (raqamli) savollardan chekinib, mantiqiy (Konseptual) savollarni qo‘yilishi;
- Dostonda uchraydiga maqollar va ularning hozirgi kundagi sharhi, izohi;
- Dostonni ko‘ylagan baxshi va oqinlar hamda ularning repertuari to‘g‘risida ma’lumotlar;
- Doston tarixi hamda qo‘shimcha qimmatli ma’lumotlar olishga;
- O‘quvchilarga uyga vazifa berib yuborilishida;
- O‘qituvchidan kam vaqt va kuch sarflab, ko‘proq natijadorlikka erishish imkoniyatlarini berishi bilan qimmarlidir.

(1.1 rasm)

(1.2 rasm)



Dunyoda innovatsion va integratsiyaga asoslangan ta’lim muhitini qaror

toptirish, ta’limga rivojlangan mamlakatlar ta’lim standartlarini joriy qilish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bunday ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning shaxsga yo‘naltirilgan kompetentligini rivojlantirishning modernizatsion-didaktik tizimini takomillashtirish, akmedidaktik tamoyillar asosida ta’lim natijalari sifati va samaradorligini kafolatlash, ta’limning izlanishli, ijodiy, o‘qitish platformasi kabi shakllarini takomillashtirish, ta’lim oluvchilarning pragmatik, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo‘lmoqda. Shu jihatdan dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan yoshlarning autopsixologik kompetentliligi va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini, shaxs sifatidagi fazilatlarini tarkib toptirishda komil inson tarbiyasini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Go‘ro‘g‘li. O‘zbek xalq dostonlari. T. Mirzayev yozgan so‘zboshi, —SHARQ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2006. Toshkent, B. – 3.
2. Khaldarkhan. Narrator: Ergash Jumanbulbul oglu, Written by: Hody Zarif and Ergash Jumanbulbul oglu, T., Publishing house of literature and art named after Gafur Gulyam, P. – 55
3. Metin Ekici: Türk dünyası incelemeleri dergisi. Savı İL İzmir. 1997. S. - 239.
4. Zhirmunsky V.M., Khadi Zarif. T. Uzbek folk heroic epic. - Moscow: GIHL, 1947. - pp. 165–279; [Жирмунский В. М., Зарифов Х Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: ГИХЛ, 1947. – С. 165–279];
5. Раззоқов Ҳ. ва бошқ., Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди, Тошкент, 1980. —ЎҚИТУВЧИ нашриёти, Б. – 229 -230. Razzakov and others. Uzbek folk oral poetry literature, Tashkent, 1980. Publishing house "O’QITUVCHI", P. - 229-230.
6. Ҳоди Зариф, —Равшан достони ҳақида, Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни, тадқиқотлар, 2 китоб, Тошкент, —ФАН нашриёти, 1971, Б. – 60 – 61.

G‘AFUR G‘ULOM SHE’RIYATI MISOLIDA OTA OBRAZIGA TAVSIF BERISHNING USLUBIY JIHATLARI

Termiz davlat pedogogika instituti talabasi
Salimova Surayyo Ibragim qizi,
Termiz davlat pedogogika instituti o‘qituvchilari
Toshpo‘latov Zayniddin, Toshqulova Zebiniso

Annotatsiya: ushbu maqolada she’riyat va uning qirralari, she’riyatdagi ko‘chimlar, badiiy va tasviriy ifodalar, haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Bundan tashqari o‘zbek she’riyatida yorqin iz qoldirgan buyuk shoir va yozuvchi G‘ofur G‘ulom hayoti va ijodiga bir to‘xtalib o‘tiladi. G‘afur G‘ulom she’riyatida ota obrazining tasvirlanishi, o‘zbek mentalitetida otaning farzandiga bo‘lgan mehri, muhabbati yoritib, tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: Obraz, she’riyat, uslubiy jihatlar, G‘ofur G‘ulom she’riyati, ota obrazi, o‘zbek oilasida otaning o‘rni.

Abstract: this article provides brief information about poetry and its aspects, movements in poetry, artistic and pictorial expressions. In addition, the life and work of the great poet and writer Gafur Ghulam, who left a bright mark in Uzbek poetry, will be briefly discussed. Gafur Ghulam’s poetry describes the portrayal of the image of the father, the affection and love of the father to his child in the Uzbek mentality.

Key words: Image, poetry, methodological aspects, Gafur Ghulam’s poetry, image of the father, father’s role in the Uzbek family.

Аннотация: в статье представлены краткие сведения о поэзии и ее аспектах, направлениях в поэзии, художественном и изобразительном самовыражении. Кроме того, будет кратко рассмотрена жизнь и творчество великого поэта и писателя Гафура Гулама, оставившего яркий след в узбекской поэзии. Поэзия Гафура Гулама описывает изображение образа отца, привязанности и любви отца к своему ребенку в узбекском менталитете.

Ключевые слова: Образ, поэзия, методические аспекты, поэзия Гафура Гулама, образ отца, роль отца в узбекской семье.

Avvalo, G‘afur G‘ulom haqida gapirar ekanmiz ko‘z oldimizga “Mening o‘g‘rigina bolam” asari ko‘z oldimizga keladi.G‘ofur G‘ulom — O‘zbekistonning taniqli yozuvchisi. G‘ofur G‘ulomning she’riyati va nasrida o‘zbek xalqi tarixi o‘zining badiiy timsolini topgan. Yozuvchining ijodi rang-barang — she’rlar, qo‘shiqlar, dostonlar, qasidalar, hikoyalar, qissalardan iboratdir. G‘ofur G‘ulomning urushdan keyingi davrdagi ijodi o‘zbek adabiyoti rivojida beqiyos o‘rin tutgan.

G‘afur G‘ulom 1903-yilning 10-may kuni Toshkentda, deqhonlar oilasida tug‘ilgan. Uning otasi savodxon bo‘lgan. U o‘zbek va tojik mumtoz adabiyotini

o‘qigan, rus tilini bilgan, o‘zi ham she’rlar yozgan. Uning uyiga Muqimiy, Furqat, Asiriy, Xislat va boshqa shoirlar kelib turgan. 1916-yilning kuzida G‘ofur o‘qishga kiradi. Onasining vafotidan so‘ng (otasi avvalroq vafot etgan) u ishlashga majbur bo‘lgan. Ko‘plab kasblarda o‘zini sinab ko‘rgach, u nihoyat, matbaaga harf teruvchi bo‘lib ishga kiradi, so‘ngra, pedagogik kurslarda tahsil oladi. 1919-yildan 1927-yilgacha u o‘qituvchi, maktab direktori, Ma’naviyat uyushmasi ishchilari raisi bo‘lib ishlaydi, bolalar uyini tashkil etishda faol ishtirok etadi. 1923-yildan G‘.G‘ulomning adabiy faoliyati boshlanadi.

G‘ofur G‘ulom ijodida ota timsoli katta rol o‘ynagan. Uning bolalik davri urush va qiyinchilik davriga to‘g‘ri kelganligi sababli juda ko‘p qiyinchiliklarga uchragan. U kichikligidan yetimlik azobini tortgan. Uning ota-onasi yoshligidan vafot etgan.U endigina otaning qaynoq mehrini his qiladigan davrida yetim qolgan. U ham yetmaganiga uning onasi ham erta bu dunyoni tark etgan. O‘zi ota mehrini yaxshi his qilmagan bo‘lsada farzandlariga juda mehribon bo‘lgan ularga bo‘lgan mehri barcha otalarniki kabi samimiy edi.

Adabiy asardagi qahramonlar portreti ularni bir-biridan farqlash imkonini beradi. Portret – fransuzcha “portaire” so‘z bo‘lib, “tasvirlamoq” demakdir. Portret qahramonlarning tashqi jihatlari haqidagina emas, uning ichki olami-ma’naviy qiyofasi, fe’l-atvori haqida ham muayyan tasavvur beradi. [“Adabiyotshunoslik nazariyasi”, A.Ulug‘ov, G‘.G‘ulom NMIU, T – 2018, 62-63-b].

Keltirilgan fikrdan ma’lumki, ota obrazining nafaqat tashqi ko‘rinishini, balkim uning ichki olamine, otalik mehrini, hissiyotlarini ochib berishday mukammal ishni o‘zbek adabiyotida G‘afur G‘ulom mohirona tarzda udallagan.

Ota… O‘zbek oilasi borki, oilada ota O‘rni juda beqiyos. Ota-kim? Sening kelajaging uchun sog‘ligidan, umridan, dunyoning lazzatlaridan voz kechgan ulug‘ inson. G‘ofur G‘ulom ham shunday ota edi. Uning “Sog‘inish” she’riga bir nazar solaylik:

Sog‘inish

Zo‘r karvon yo‘lida yetim bo‘tadek,
Intizor ko‘zlarda halqa-halqa yosh.

Eng kichik zarradan Yupitergacha
O‘zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh,
Uzilgan bir kiprik abad yo‘qolmas,
Shunchalar mustahkam xonai xurshid.
Bugun sabza bo‘ldi qishdagi nafas,
Hozir qonda kezar ertagi umid.
Xoki anjir tugab, qovun g‘arq pishgan,
Baxtli tong otar chog‘ uni kuzatdim.

Bu yerda ota uchun eng og‘ir azob o‘g‘lini jahannam olovi bo‘lmish jangga kuzatadi. U jangga ketganidan so‘ng kun-u tun hayoli faqat o‘g‘lida bo‘ladi. U tun-u kun tinmay faqat o‘g‘lini o‘ylaydi. Hattoki yegan ichkanida ham halovat bo‘lmaydi. Kechgi ovqat suzilganda ko‘z o‘ngiga faqat o‘g‘li kelaveradi. Darhaqiqat urush ko‘p oilalarni zor qaqshatdi. Farzandlarni otadan, otalarni farzanddan ajratdi. G‘ofur G‘ulomning she’rlarida sog‘inch hissi ustunlik qiladi. Uning she‘rlarini o‘qir ekanmiz beihtiyor ko‘zimiz namlanadi.

Tahlil sifatida shuni aytishimiz mumkinki, G‘ofur G‘ulomning she’rlari ma’no va mazmunga juda boy. Uning birgina “Sog‘inish” she’ridan ko‘p ma’nolarni anglab olishimiz qiyin emas. Haqiqiy qiyinchilik va kuchli sog‘inchda yashagan G‘ofur G‘ulom ijodni ham o‘z o‘rnida davom ettirgan. O‘zbek she’riyatida otaning asl mehrini, hissiyotlarini, dardlarini, orzularini va ruhiyatini aks ettirgan she’r “Sog‘inish” she’ri hisoblanadi. Unda ota obrazi juda ta’sirli keltirilgan.

Iblisning g’arazi bo‘lgan bu urush
Albatta yetadi o‘zin boshiga.
O‘g’lim omon keladi, g’olib, muzaffar,
Gard ham qo‘ndirmasdan qora qoshiga.
Ne qilsa otamen, meros hissiyot…
Jondan sog’inishga uning haqqi bor.
Kutaman, uzoqdan ko‘rinsa bir ot,
Kelayapti, deyman ko‘rinsa g’ubor.

G‘afur G‘ulom ushbu satrlari orqali o‘zbek otasi timsolini yanada yorqinroq yoritib bergan. O‘sha davrlarda bo‘lgan urushning ham “Iblisning g‘arazi” deb ham nomlashi ijodkorning naqadar so‘z ustasi ekanligini namoyon etadi. Otaning o‘z o‘g‘liga bo‘lgan ishonchi, kelajakka bo‘lgan ishonchi, yaxshi kunlardan umid uzmasligi, butun bir dunyoni qon qaqshatgan urushning ustidan uning o‘smir dovyurak o‘g‘li g‘olib kelishiga ishonchi ustun turishi ham bizning otalarimizga xos fazilatlardir. Farzandini sog‘inish o‘zbek otasiga bo‘lgan doimiy meros xislat ekanligini ham shoir o‘z she’ri orqali yana bir bor o‘quvchiga eslatib o‘tadi.

Sen yetim emassan,
Tinchlan, jigarim.
Quyoshday mehribon
Vataning-onang,
Zaminday vazminu
Mehnatkash, mushfiq
Istagan narsangni tayyorlaguvchi
Xalq bor- otang bor

“Sen yetim emassan” she’ri orqali ham shoir o‘zbek halqiga xos bo‘lgan mehribonlik, rahmdillik, yelkadoshlik hislatlari yorqin ifodalab berilgan. Shoir bu she’ri orqali urush davrlaridagi yetim qolgan bolalarni o‘z bag‘riga olgan xalqimizga ham ishora qilgan. Ota shunday zotki, o‘z farzandiga loyiq ko‘rgan barcha ezguliklarni kurrai zaminning barcha o‘g‘il-qizlariga ravo ko‘radi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida ham ota obrazining yorqin namunasi ochib berilgan. Bu romanni bilmagan, o‘qimagan o‘zbek kitobxoni yo‘q desak, mubolag‘a bo`lmas. Asarda, o‘zbekona urf-odatlar, milliy qadriyatlar, ota-ona va farzand munosabatlari juda ajoyib tarzda o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, Otabek va Yusufbek hoji obrazlari orqali haqiqiy o‘zbek otasi obrazi ochib berilgan. Bundan tashqari Otabek va Hasanali o‘rtasidagi munosabatda Otabekning nechog‘liq tarbiya sohibi ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

-O‘g‘lim, Otabek.

-So‘zlangiz.

-Ayting-chi, men sizning kimingiz? Otabek, Hasanalining maqsadiga tushunolmay majhul unga nazar tashladi:

-Sizmi?-deb kulimsiradi.

–Otam bo‘lmasangiz ham, meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz, ya’ni ma’naviy otam.[A.Qodiriy “O`tkan kunlar” romani, “Navro`z” Toshkent – 2019-yil,25-bet.]

Xulosa qilib ayta olamizki, shoir o‘z she’rlarida ota obrazini mukkamal tarzda tasvirlab bera qolgan, uning his-tuyg‘ulari, kechinmalarini o‘quvchiga mayorida yetkazib berilgan. O‘z she’rlari orqali o‘zbek xalqining azaliy qadrlaytalrini ham tasvirlab bergan desak also mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: O‘zbekiston, 2017,-48b
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. -401-b
3. Zebiniso T. SIFAT SOZ TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 34-37.
4. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand. 1994. 47-bet
5. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
6. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 5.
7. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
8. Sayfullayev N. H. o‘g‘li. (2023). IJTIMOIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(12), 106–111.
9. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.

ZAMONAVIY ADABIY JARAYONLAR, INSTITUT (UNIVERSITET) TALABALARINING TIL KURSLARINI O‘RGANISHIDAGI YANGI YONDASHUVLARI

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Nodirov Chorshanbi Elmurodovich
E-mail: 20mlitti.nordirov.c@pdu.by 998903791707.

Annotatsiya: Maqola doirasida biz faqat zamonaviy adabiyotning ba’zi bir muhim tendensiyalariga murojaat qildik. Zamonaviy adabiyot o‘zining mavjudligini maktabda aks ettirishi kerak, bu aksioma. Hozirgi va zamonaviy rus adabiyotining universitet kurslarining vazifasi bizning fikrimizcha, birinchi navbatda talabalarni sodir bo‘layotgan jarayonlarning xilma-xilligi bilan tanishtirish, ko‘plab hodisalarning noaniqligini ko‘rsatish, ammo ularga hech bir holatda kriteriyali baho bermaslik ya’ni “yorliq ilmaslik”. O‘nlab yillar o‘tishi bilan, qarashlar va o‘sha baholarda tuslanish paydo bo‘ladi, vaqt hamma narsani o‘z o‘rniga qo‘yadi.

Аннотация: В рамках статьи мы затронули лишь некоторые важные тенденции современной литературы. Современная литература должна отражать свое существование в школе, это аксиома. На наш взгляд, задача университетских курсов актуальной и современной русской литературы состоит, прежде всего, в том, чтобы познакомить студентов с многообразием происходящих процессов, показать неопределенность многих событий, но ни в коем случае не дать им критериальную оценку. то есть «не маркировать». Проходят десятилетия, взгляды и эти суждения затуманиваются, а время расставляет все на свои места.

Abstract: In the framework of the article, we only addressed some important trends of modern literature. Modern literature should reflect its existence in school, this is an axiom. In our opinion, the task of university courses of current and modern Russian literature is, first of all, to acquaint students with the variety of ongoing processes, to show the uncertainty of many events, but in no case to give them a criterion assessment, i.e. "not to label". As the decades pass, views and those judgments become clouded, and time puts everything in its place.

Kalit so‘zlar: zamonaviy adabiyot tendensiyalari, zamonaviy adabiyotning tahliliga tizimli yondashuv.

Ключевые слова: тенденции современной литературы, системный подход к анализу современной литературы.

Keywords: trends in modern literature, systematic approach to the analysis of modern literature.

Bakalavrlarning zamonaviy adabiy jarayondagi muammolarini o‘rganish va maktab kursida zamonaviy adabiyotni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, bu filologik yo‘nalishdagi o‘quv jarayonining mutlaqo mos keladigan ikki jihati hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalaridagi “Rus adabiyoti tarixi” amaliy kursidagi xronologik uzunlik va soatlar yetarli bo‘lmaganligi sababli talabalar eng so‘nggi rus adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari bilan chuqur tanishishga, zamonaviy mualliflarning janr va badiiy strategiyalarini tushunishga, ko‘p bosqichli matnlarni tahlil qilishga, ularga filologik va uslubiy ma’lumot berishga baholashga vaqtlari yetmaydi. Shu bilan birga, zamonaviy adabiyot yo‘nalishlarini o‘rganish zarurati aniq: buni amaliy darslarning o‘qituvchilari ham, maktablarda ishlashga qaratilgan bakalavrlar ham boshdan kechirmoqda. Bu muammo nafaqat uslubiy, balki “umumiy”, jurnallar sahifalarida muhokama qilish uchun ham sabab bo‘ladi. Misol tariqasida D. Dmitrievning qiziqarli maqolalarini “Yangi dunyo” va “Znamya” jurnallaridagi N.Popovalarning[1] shuningdek, “Literatura” haftaligi bosh muharriri o‘rinbosari M.Setyukova-Kuznetsova[2] va "Yangi dunyo" sharhlovchisi A.Vasilevskiy[3] o‘rtasidagi mavzuga doir muammolar yuzasidan fikr almashishlari. D.Dmitrievning yozishicha, “ilk bor maktab va zamonaviy adabiyot ajralish yoqasida” va “ba’zi bitiruvchilar hozir ham buyuk adabiyotni davom ettiruvchi romanlar, hikoyalar, she’rlar paydo bo‘layotganini tasavvur ham qilolmaydilar. 11-sinf dasturi (uning katta qismi, mashg‘ulotlarga juda oz vaqt sarflaydi), qoida tariqasida, XX asr rus adabiyotini o‘rganish rus she’riyatining oltin davri yoki ulug‘ vatan urushi haqidagi asarlar bilan yakunlanishiga olib keladi”[1, 154-bet]. Biz bu hodisaning hamma joyda mavjudligini tan olamiz. Ob’yektiv sharoitlar tufayli o‘qituvchilar nafaqat XXI asr

asarlariga, balki XX asrning ikkinchi yarmidagi rus sovet adabiyoti durdonalariga - xususan, qishloq, harbiy nasr va she'riyatga ham etarlicha e'tibor bermaydilar. N.Popova hamkasbining fikriga qo'shiladi, uning fikricha, bugungi zamon o'qituvchisi so'nggi adabiyotlardan deyarli bexabar. Shunga qaramay, "talabalarni hozirgi adabiy jarayon bilan tanishtirish zarur: aks holda bitiruvchilar hayotga "rus mumtoz adabiyoti, albatta yomon emas biroq, ko'pchilik bu fikrdan chekinishmoqda", degan qat'iy ishonch bilan fikr bildirib, yozuvchi ular uchun zamonaviy detektiv va romantik romanlarning rang-barang muqovalariga qarab, muvaffaqiyatli "pul" ishlab topayotgan yuzsiz mualliflar bilan bog'laydi"[4]. Zamonaviy adabiyot maktabda borligini bildirishi kerak, bu aksioma. Biz, institut(universitet) o'qituvchilari, bakalavrlarimizga mualliflarni to'g'ri tanlash, ularning asarlarini tushunish va tahlil qilishni o'rgatishimiz kerak. Rus adabiyoti va zamonaviy adabiyot bo'yicha universitet kursining vazifasi, bizning fikrimizcha, birinchi navbatda talabalarni davom etayotgan jarayonlarning xilma-xilligi bilan tanishtirish, ko'plab hodisalarning noaniqligini ko'rsatish, lekin hech qanday holatda kriteriyali baho bermaslikdir. O'nlab yillar o'tishi bilan, qarashlar va o'sha baholarda tuslanish paydo bo'ladi, vaqt hamma narsani o'z o'rniga qo'yadi. Shu bilan birga XX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi adabiy jarayon g'ayrioddiy va o'ziga xosdir. Har qanday hayotiy voqealik singari, u ham yildan yilga ba'zi – ba'zida sezilarli o'zgarishlarga uchraydi. Filologiya talabalari, bo'lajak o'qituvchilarga hozirgi adabiy jarayonning o'ziga xosligini idrok etishga yo'naltirish uchun ushbu hodisaning uzluksizligi va o'ziga xosligiga ishonch hosil qilishda yordam beradigan ba'zi tarixiy va madaniy eslatmalar mavjud. 21-ming yillik birinchi o'n yilliklaridagi va XX asrning ikkinchi yarmidagi adabiy jarayoni, adabiy jarayondagi ko'plab umumiy tendensiyalar bilan genetik jihatdan bog'liq. Talabalar V.Pomerantsevaning "Adabiyotdagi samimiylik haqida"[5], 1953-yilda "katta umidlar davri"ni boshlab bergan maqolasi nashr etilganini eslashlari zarur. Bir necha o'n yillik o'tib, bu so'zlar kutilgan global natijalarni bermagani aniq bo'ldi. Ammo "adabiy jarayondagi erishilmagan yutuqlar"dan so'ng ko'p narsa mumkin bo'lib qoldi, ba'zan hatto axloqiy jihatdan, ham majburiy jihatdan va keyingi "sovuq"larni ham,

haqiqiy yozuvchilarni ham, haqiqiy o‘quvchilarni ham voqelikni tanqidiy idrok etishdan, madaniyatga bo‘lgan bir matoh, narsa sifatida qarashdan chalg‘itadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dmitriev D. “...Biror narsa va qandaydir” O‘rta maktablarda zamonaviy rus adabiyoti // Yangi dunyo. 2002. No 2. 102-b; Popova N. Aleksandr Griboedov Mariya Vatutinaga qarshi yoki maktab o‘qituvchilariga zamonaviy adabiyotni o‘rgatish kerakmi // Znamya. 2011. No 5. 82-bet.
2. M. Setyukova-Kuznetsova, savol beradi: qiziqqan ziyoli o‘qituvchi Pelevin va Sorokin yo‘q deb ko‘rsatishi kerak va maktab o‘qituvchilarini zamonaviy ishlarga e’tibor berishga chaqiradi.
3. Qarang, va mening nuqtai nazarim mavjud bo‘lishga haqli" // Yangi dunyo. 2001 yil. № 8. 94-bet.
4. Popova N. Griboedov Aleksandr qarshi…79-bet. Shuningdek masalan, siz Sarskoye Selo litseyida “Zamonaviy adabiyot” mavzusi yo‘qligini eslashingiz mumkin, lekin uning o‘quvchilari yangi mahsulotlarni kuzatib, jurnallarda nashr etilgan asarlarni o‘qib chiqdilar va muhokama qildilar.
5. Pomerantsev V. Adabiyotdagi samimiylik haqida // Yangi dunyo. 1953. No 12. 7-24-betlar.

AHMAD LUTFIY QOZONCHINING “O‘GAY ONA” ASARIDAGI FOTIMA OBRAZINING O‘ZBEK AYOLLARIGA XOS BO‘LGAN FAZILATLARI

TerDPI o‘qituvchisi Hakimova Farida Ilhom qizi
TerDPI talabalari Ochildiyeva Dilrabo, Bozorova Muxlisa

Annotasiya: Ahmad Lutfiy Qozonchining “O‘gay ona” asari o‘zbek adabiyotining eng ta’sirli va mazmunli asarlaridan biri bo‘lib, unda o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan yuksak axloqiy fazilatlar, sabr-toqat, oila mustahkamligiga bo‘lgan mehr va fidoiylik timsoli sifatda Fotima obraziga alohida e’tibor qaratilgan. Bu obraz orqali yozuvchi nafaqat o‘zbek ayoling o‘ziga xos hislatlarini aks ettiradi, balki ayolning jamiyat va oila uchun naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ham ko‘rsatadi.Mazkur maqolada farzandlari baxt-u kamoli uchun jon fido etgan Fotima obrazida olgan taassurotlarimiz bayon etilgan.

Kalit sozlar: Fotima, Ismoil, Odil, Xusayin, Odila, Samiha

Abstract: Ahmad Lutfiy Kazanchi’s work “Stepmother” is one of the most influential and meaningful works of Uzbek literature, in which special attention is paid to the image of Fatima as a symbol of high moral qualities, patience, love and devotion to family strength, characteristic of Uzbek women. Through this image, the writer not only It reflects the unique characteristics of an Uzbek woman, perhaps it also shows how important a woman is for society and family. This article describes our impressions of the image of Fatima, who sacrificed her life for the happiness and perfection of her children.

Keywords: Fatima, Ismail, Adil, Husain, Odila, Samiha

Абстрактный: Произведение Ахмада Лютфия Казанчи «Мачеха» — одно из самых влиятельных и значимых произведений узбекской литературы, в котором особое внимание уделено образу Фатимы как символу высоких моральных качеств, терпения, любви и преданности семейным силам, свойственным Узбекские женщины Через этот образ писательница не только отражает уникальные чувства узбекской женщины, возможно, насколько важна женщина для общества и семьи. В данной статье описаны наши впечатления от образа Фатимы, пожертвовавшей своей жизнью ради счастья и совершенства своих детей.

Ключевые слова: Фатима, Исмаил, Адиль, Хусейн, Одила, Самиха.

Asarimiz qahramoni qalbi mehrga limmo-lim bo‘lgan Fotima, yoshligidanoq o‘zining mehribon va bag‘rikengligi bilan ajralib turardi. Buning isbotini esa o‘gay ona zulmidan aziyat chekkan olti yoshli Ismoilga ko‘rsatgan mehribonchiligi va kelajagi to‘g‘risida qayg‘urishidan ham ko‘rishimiz mumkin. “Otasiz yetim - gul yetim, onasiz

yetim - sho‘r yetim” deganlaridek Ismoilning ham butkul yo‘qotilgan beg‘ubor bolaligi, bir bola ko‘tara olishi mushkul bo‘lgan qahr- u qiyinchiliklarini, hayot achchilliklari bilan to‘ldi. Ko‘rgan - kechirganlari ichida tamoman unutgani, ona mehri, ona shafqati ...

Bu muruvvat va muhabbatni Fotimadan ko‘roldi xalos. Farishtadek beg‘ubor bolalarning eshitishi lozim bo‘lgan so‘zi “jon bolam” ammo u uchun begona. Bu holat Fotimani tashvishga solardi va Ismoilning ertasi uchun kuyunardi. Bu tuyg‘u faqat Ismoil qo‘shnisi bo‘lgani uchungina emas, balki, ko‘ngli yarim bo‘lgan murg‘ak go‘daklar taqdiridan ham tashvishda edi. Voyaga yetgan Fotimaning hayot yo‘li ham shu bilan bog‘landi. Ota- onasi, yaqinlari qarshiligiga qaramasdan, o‘z maqsadlari yo‘lida ikki farzandi bo‘lgan Odilbekka turmushga chiqadi.

Vaholanki, Fotima chiroyli, aqlda tengsiz va har qanday yigitning orzusidagi qiz edi. Bu yo‘lni tanlashiga yagona sabab Ismoilning qismati edi. O‘sha vaqtda Fotimani so‘rab kelguvchilar ham oz emasdi, biroq bu tanlovlar ichidan Odilni afzal ko‘rdi.Buning yana bir sababi, uning dindan ham oz-moz habari bor edi. Diniy bilimlarni egallagan Fotima borgan xonadonining chirog‘iga aylandi. U o‘gay ona bo‘lishiga qaramay, ikki nafar go‘dakka chin dildan mehr ko‘rsatishni boshladi. Ularni o‘z farzandi misolida ko‘rdi va ularning baxt- saodati, kelajagini hayotining oliy maqsadi deb bildi. Bu jihat, o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan mehr- muruvvatlilik, oilaga sadoqat va fidoyilik fazilatlarining yorqin ifodasidir. Yon atrofda ham Fotimaning mehr-muhabbati yuzaki ekanligini aytguchilar ham oz emasdi. Fotimaning hayoti murakkab va mashaqqatli bo‘lsa-da, tushkunlikka tushmaydigan matonatli ayoldir. Yozuvchi bu asari orqali nafaqat Fotimani balki jamiki o‘zbek ayollarining mushkul vaziyatlarda sabr- toqat, metindek iroda ila yondashishini aks ettirdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Fotima o‘z oilasini mustahkamlash uchun jonbozlik ko‘rsatdi. U turmush o‘rtog‘i Odilbek uchun risoladagidek jufti halol, farzandlari Xusayn va Odila uchun mehribon ona timsolida gavdalandi. Deyarli umuman uchramaydigan holat, ya’ni Odilbekka qazob qilgan ayoli Xayriya haqqiga Qur’on tilovat qilishga da’vat etishi, hattoki ayollarni o‘z xonadoniga to‘plab, unut bo‘lgan insonni yaqinlari yodiga soldi.

Har kimning ham qo‘lidan kelavermaydigan ma’suliyatli yumishdir. Ko‘p vaqt o‘tmasdan oilaga yana bir mehmon tashrif buyurdi. Bu Odilbek va Fotimaning qizi, Samiha edi. Fotima doimo bu uchala farzandi birdek yaxshi ko‘rardi. “O‘g‘ay ona” insonlar tasavvurida o‘z nomi bilan zulmkor, tajavvuskor deya anglaniladi. Buni: Ismoilning o‘gay onasi Samiha xonim, Xusaynning maktabdosh do‘sti Yılmazning o‘gay onasi Sodiyaxonim misolida ko‘rishimiz mumkin. Ammo bularning teskarisi bo‘lgan Fotimaxonim barcha o‘gay onalar ham birdek emasligini yana bir karra isbotladi. U qizlarinig tarbiyasiga ham alohida e’tibor qaratdi, ularga bir ko‘z bilan qaradi. Vaqt o‘z hukmini o‘tkazmasdan qolmadi va bu orada farzandlari voyaga yetib, Odilani Ismoilga turmushga berar ekan, Samihani ham xuddi shunday bir ko‘ngli yarimga uzatishni ko‘nglidan o‘tkazdi. Negaki, u farzandlarini ajratishdan qo‘rqar edi. Va o‘z duolarida Samihaga ham Ismoildek yigit uchrashini so‘rardi.

O‘z tengqurlari yaxshi hayot, oq otdagi shahzodasini kutayotgan bir vaqtda, Fotimaning bu hayotni tanlagani nafaqat ikki nafar go‘dakning qolaversa Odilbekning ham hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi.

Xulosa o‘rnida shuni aytamizki, Ahmad Lutfiy Qozonchining Fotima obrazi orqali o‘zbek ayollarining betakror fazilatlari jumladan, g‘amxo‘rligi, sadoqati, oilaparvarligi yuksak darajada ifoda etdi.Asarni nafaqat o‘z davri balki bugungi kun uchun ham dolzarb va o‘rnak bo‘larli desak ham adashmagan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad Lutfiy qozonchi “O‘gay ona”
2. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
3. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
4. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
5. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.
6. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ РУССКОЯЗЫЧНЫХ ПИСАТЕЛЕЙ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА А.П.ЧЕХОВА «ДАМА С СОБАЧКОЙ» И ПОВЕСТИ Ч. АЙТМАТОВА «ДЖАМИЛЯ»)

Умарова Фарангиз Фуркатжон кизи,
студентка 2 курса русской филологии, UBS, Наманган.
Юсупов Муратбек Рахимович,
преподаватель, UBS, Наманган.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы влияния общественного мнения на судьбу человека, право женщины на любовь и личное счастье, а также проводится сравнение характеров и поступков героинь произведений «Дама с собачкой» и «Джамиля».

Ключевые слова: Дама с собачкой, слабовольная, Джамиля, сильный характер, право на счастье, несчастье.

Annotation: The article examines the influence of public opinion on a person's fate, a woman's right to love and personal happiness, and compares the characters and actions of the heroines of the works «The Lady with a Dog» and «Jamila».

Key words: Lady with a dog, weak-willed, Jamilya, strong character, right to happiness, unhappiness.

Annotatsiya: Maqolada jamoatchilik fikrining inson taqdiriga ta’siri, ayolning muhabbat va shaxsiy baxtga bo‘lgan huquqi ko‘rib chiqiladi, shuningdek, “Laycha yetaklagan xonim” va “Jamila” asarlari qahramonlarining xarakteri va harakatlari qiyoslanadi.

Kalit so‘zlar: Laycha yetaklagan xonim, irodasi zaif, Jamila, kuchli xarakter, baxtli bo’lish huquqi, baxtsizlik.

В русскоязычной литературе по-разному передаётся образ женщины – матери, жены, хранительницы семейного очага. Но во всех произведениях подчёркивается – женщина имеет право на бережное к себе отношение, на любовь, на своё маленькое счастье.

Великие писатели А.П. Чехов и Ч.Т. Айтматов также почти в каждом своём произведении поднимали данную тему.

Рассказ А.П. Чехова «Дама с собачкой» – это рассказ о несчастной любви.

Героиня рассказа Анна Сергеевна – молодая женщина, стеснительная, образованная, из порядочного общества, родилась в Петербурге, замужем. Мужа Анна Сергеевна не любила. Потому что он всё время был занят своими делами,

не обращал внимания на жену. Выходя замуж, она надеялась на лучшую жизнь, но надежды не оправдались. Повседневная рутина мучила её, угнетала.

Анна Сергеевна приехала в Ялту отдыхать. Там она познакомилась с мужчиной (Гуровым) и полюбила его. В Гурове Анна Сергеевна нашла внимание, любовь и была счастлива с ним. Готова была ко всему ради него, даже бежать с ним хоть на край света. Гуров тоже полюбил её, потому что она была молодая, красивая, образованная и богобоязненная.

Влюблённые виделись только тайно, скрываясь от людей, как воры. Они хотели жить как муж и жена, но не могли: потому что у одного есть семья, дети, а у другой – муж. Богобоязненная Анна Сергеевна не хотела жить такой жизнью.

Однако даже встречи в Москве не давали ответа главному вопросу: будут ли они когда-нибудь вместе. Они не могли ничего придумать. Одним из препятствий на пути их счастья было то, что у Гурова была своя семья также, как и у Анны Сергеевны. Как пишет автор: «И казалось, что ещё немного — и решение будет найдено, и тогда начнётся новая, прекрасная жизнь; и обоим было ясно, что до конца ещё далеко-далеко и что самое сложное и трудное только ещё начинается» [2].

Ещё одним препятствием был страх Гурова и Анны Сергеевны перед мнением обществом: «Что люди скажут!?». Именно это стало идеей рассказа – показать, как боязнь общественного осуждения может сковывать человеческие чувства, становиться преградой на пути к счастью.

На наш взгляд, главным препятствием являлось то, что у Гурова была дочка, ни в чём неповинный ребёнок. Возможно, не будь её Анна Сергеевна смогла бы уговорить Гурова уйти от жены, и тот решился бы бросить семью ради личного счастья. Но добрая, порядочная Анна Сергеевна не могла сделать несчастной маленькую невинную душу. Да и сам Гуров, можно с уверенностью сказать, не смог бы бросить любимую дочурку. Герои прекрасно понимали, что на чужом несчастье счастья не построишь.

Писатель ясно даёт понять: принимая решение, человек должен подумать, что для него важнее, одобрение/осуждение окружающих или личное счастье.

В повести Чингиза Айтматова «Джамиля» очень красиво и просто описана жизнь обычных людей – колхозников – их труд, природа Киргизии.

Это – книга о любви, чистой и не знающей преград в сложных жизненных обстоятельствах; это повесть о справедливости жизни, правильном выборе, силе, смелости.

Главная героиня повести Джамиля: стройная молодая женщина с упрямым почти мужским характером, правдивая и дерзкая, трудолюбивая, сноровистая, не боялась никакой работы. Ей пришлось выбирать между тем, что «правильно» и тем, что подсказывало сердце.

Её муж ушёл на фронт. Она осталась одна, и чувствовала себя одинокой. Ей не хватало счастья, внимания. Даже редкие письма мужа с фронта служили свидетельством её одиночества.

Джамиля полюбила Данияра, гордого, с очень сильным характером, мечтательного, с израненной душой, нуждающейся в соучастии, любви, как и душа Джамили.

У Джамили было всё, что могло сделать счастливой обычную женщину: достаток, дом, семья. Но Джамиля не обычная женщина: в её понимании для счастья прежде всего нужны внимание, любовь. Именно это и нашла она у Данияра, за это и полюбила его.

Трудно не согласиться со словами М.Р. Юсупова: «Могла ли не полюбить Данияра Джамиля? Наверно, нет. Не могла она не полюбить человека, чья душа так же, как её, была не понята, изранена. Их души нуждались друг в друге, чтобы жить, любить, чтобы ценить и оберегать друг друга» [3].

Их соединила судьба. Они решили покинуть эти места и начать новую, совместную жизнь, где-нибудь, подальше от этих мест. Как и писателю, нам не известно, будут ли счастливы наши герои, смогут ли до конца сохранить

сложившиеся отношения, не сломаются ли под ударами судьбы. Этого мы не знаем. Но Джамиля и Данияр сами сделали свой выбор.

Каждая женщина надеется и верит, что найдёт мужчину всей своей жизни, который будет любить её, ценить, поддерживать в трудные минуты.

А.П. Чехов и Ч. Айтматов поведали правдивые жизненные истории. Герои произведений – живые люди. Кажется, что героев мы встречали в повседневной жизни. Это люди, умеющие любить и ценить эти чувства в другом, со своими достоинствами и недостатками.

Только на первый взгляд кажется, что героини этих произведений очень близки по жизненной ситуации. На самом же деле – это совершенно разные и по характеру, и по взглядам на жизнь женщины. Анна Сергеевна – безвольная, слабая женщина, полностью зависимая от воли любимого мужчины, не приспособленная к жизненным трудностям. Даже если на минуту представить, что они начали совместную жизнь с Гуровым, первые бытовые неурядицы заставили бы её пожалеть о своём поступке.

Джамиля – женщина с сильным характером. Она закалена в тяжёлых жизненных обстоятельствах, не боится и не чурается никакой работы. Джамиля точно знает, чего хочет от жизни и не страшится ударов судьбы, осуждения общества. С любимым человеком готова перенести любые невзгоды.

Таким образом, мнение общества играет большую роль в жизни многих людей, на чужом несчастье счастья не построишь. Однако, каждый человек имеет право на это самое счастье; он сам должен строить своё будущее. И не «обществу» решать чью бы то ни было судьбу.

Использованная литература

1. Айтматов Ч.Т. Джамиля. http://loveread.me/read_book.php?id=194&p=1
2. Чехов А.П. Дама с собачкой. https://ilibrary.ru/text/976/p.1/index.html
3. Юсупов М.Р. Тернистый путь к зыбкому счастью. ПРО ЛЮБОВЬ, ПАМЯТЬ И БУДУЩЕЕ. Международный сборник, посвящённый 95-летию со дня рождения Чингиза Айтматова. Наманган, 2024.

AHMAD LUTFIY QOZONCHINING “O‘GAY ONA” ASARIDA ONA OBRAZI

Xakimova Farida Ilhom qizi,TerDPI o‘qituvchisi
O‘razova Inobad Normurod qizi, TerDPI talabasi

ANNOTATSIYA. Ota-onasiz o‘sayotgan farzandlarning tarbiyasi, hayot falsafasi, hayoti haqidagi beomon otalar, bevafo onalar haqidagi tushunchalar hamda aqli, husni, odobi va ilmi hammani hayratga soladigan Fotima, dard -u g‘ami hammani yig‘latadigan, ona mehri bilan yiroqda yashagan Ismoil va qahri qattiq va yomonlik zulmatida bo‘lgan o‘gay ona - Sanixaxonim kabi kaltabin insonlar yoritib o‘tilgan. Bu asarda farzandlarning tarbiyasi, odob-axloqi, iymonli, e’tiqodli bo‘lib kamol topishiga, kelajagiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: o‘gay ona, ona mehri, ko‘z yosh, Imom Xatib, Qur’on, yetim farzand, tarbiya, payg‘ambar, hadislar, mavlud.

АННОТАЦИЯ. Воспитание детей, растущих без родителей, жизненная философия, представления о неверных отцах, неверных матерях и Фатиме, чей ум, нравы, манеры и знания поражают всех, боль и печаль заставляют всех плакать, с материнской любовью Лжелюди, подобные Исмаилу просветились жившая далеко и мачеха Санихахоним, имевшая сильный гнев и находившаяся во тьме зла. Эта работа посвящена воспитанию детей, манерам, вере и их будущему.

Ключевые слова: мачеха, материнская любовь, слезы, Имам Хатиб, Коран, сирота, воспитание, пророк, хадисы, рождение.

ANNOTATION. Education of children growing up without parents, philosophy of life, ideas about faithless fathers, unfaithful mothers, and Fatima, whose intelligence, morals, manners and knowledge amaze everyone, pain and sorrow make everyone cry, with motherly love False people like Ismail who lived far away and stepmother Sanikhakhonim, who had a strong anger and was in the darkness of evil, were illuminated. This work focuses on children's upbringing, manners, faith, and their future.

Key words: stepmother, mother’s love, tears, Imam Khatib, Koran, orphan, upbringing, prophet, hadiths, birth.

Hech kim bu dunyoda yetim bo‘laman deb dunyoga kelmaydi, hech qaysi ota-ona farzandlarini yetim qilaman deb oila qurmaydi. Bu fikrlar borasida yozilgan Ahmad Lutfiy Qozonchining asari “O‘gay ona” romani hayot mashaqqatlariga sabrli, mehri quyosh nuri kabi issiq, zulmatda esa shamchiroq kabi nurli insonlar - onalar uchun dunyoga keldi. Har bir inson hayot yo‘lini Alloh qalbiga solgan ajib hislar

ortidan kulib boqqan quyosh misoli. Hamma o‘zining hayotini porloq kelajak umidida tanlaydi. Bu asarda yetim qolgan bolalar hayoti tasvirlanadi. Uch yoshlarda yetim qolib, o‘gay ona qo‘lida o‘sgan Ismoilning hayoti shunday tasvirlanadi: “Bir bola ko‘tara olishi mushkul bo‘lgan qahr qiyinchiliklarni, hayot achchiqlarini totdi, tayoq yedi. Ko‘rgan-kechirganlari ichida tamoman unutgani ona mehri, ona shafqati...”. [O‘gay ona:roman. Ahmad Lutfiy Qozonchi/Tarjimon Yo‘ldosh Eshbek.- Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023.- 176b.]

Ismoil, bundan tashqari, singlisining beshigini tebratishi, uni ovutish, o‘ynatishi va qahri qattiq, hech qachon yaxshilik qilishni xohlamaydigan “o‘gay ona” qilib tasvirlangan Sanixaxonim aytgan, ko‘rsatgan ishlarni bajarishdan iborat edi. Agar Ismoil Sanixaxonim aytgan yumushlarni bajarmasa, uning kechqurungi yashash holati zulmat ichra kechardi. Sanixaxonim g‘azabi bosilguncha urardi. Ismoil singlisiga sal yomonroq munosabatda bo‘lsa yoki uni yiqitib, yig‘latib qo‘ysa, shu bugun kechasi tayoqdan boshi chiqmaydi. Shunday kunlari u ona mehri hamda onasining “jon bolam” deyishlarini osmon-u falakdan najot izlab ko‘z yoshlarini to‘kardi. Ba’zi paytlari uyiga ham bormasdi. Uning faqatgina hayot ummonlarini qo‘shnisi Fotima opa tushunardi. Oldiga Ismoil borganida shirin so‘z bilan kutib olardi. Ismoil onasidan ko‘rmagan mehrlarini Fotima opadan topardi. Ismoil Fotima opa oldiga borganida qorni to‘q bo‘lib qaytardi. Har bir narsaning uvoli bor deganlaridek, Sanixaxonim murg‘ak hamda faqat shirin so‘z eshitishni xohlaydigan Ismoilning hayotini faqat qop-qora zulmat ichra o‘tkazdi. Agar shu o‘gay ona Ismoilni o‘z farzandidek mehr berib qaraganida edi, Ismoil bunchalik azob chekmasdi, qiyinchiliklar ko‘rmagan bo‘lardi.

Yetim bolalarning haqi, yetimlarning ko‘nglini og‘ritmaslik, ularga ko‘mak berish haqida bir nechta hadis keltirilgan bo‘lib, quyidagi hadisda ham yetimlar haqida shunday deyilgan: “Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “Men jannat eshigini birinchi bo‘lib ochuvchi shaxsman. Faqat bir ayol mendan ildamroq ekanini ko‘raman. Undan: “Sen kimsan?” – deb so‘rayman. U: “Men yetimlarimga qarab o‘tirgan ayolman”, – deydi”. (Abu Ya’lo rivoyati).”[Al- jomi as-sahih 1-jild. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil

al-Buxoriy/ arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi.- Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991.- 403b.]

Bir yetimning ko‘nglini olish uchun payg‘ambarimiz tuya bo‘lib cho‘kib ustiga mindiradilar. Shu yetim bir lahza otasizligini unutsin, xursand bo‘lsin deb payg‘ambardek zot tiz cho‘kadi. Yuqoridagi hadisda ham payg‘ambarimizning yetimni boqqan ayoldan keyin jannatga kirishi haqidagi fikrlari naqadar ta’sirli ifodalangan. Agar Sanixaxonim ham hadisdagidek ayol bo‘lganda edi, Ismoil bunchalar qora zulmatda yashamagan bo‘lardi. Endi roman davomida Ismoilning yetim bo‘lib o‘sganiga tamoman teskari bo‘lgan Husayn va Odila tasvirlanadi. Odilbek ikki farzandining onasidan ajralib qoladi. U xayolida ming xil fikrlar bilan yashaydi. Lekin ikki farzandning ona mehrisiz yashayotganligi bilan qiynalganini ko‘rib chiday olmaydi. Lekin men farzandlarimga o‘gay ona olib kelsam, farzandlarimga qanday munosabatda bo‘ladi, ular shovqin qilganida ursa, ovqat so‘rasa bermasa deb ming xayollar og‘ushida o‘ylaydi. Bu murg‘ak farzandlarga o‘z ona mehrini beraman deb Fotima buyuk jasorati bilan hamda onasi hatto boshqalarning qarshiligiga qaramasdan Odilbekka turmushga chiqadi. Bu oson ish emasligi hammaga ma’lum. Fotima Odilbekning uyiga kelganda ikki yetim farzandini bag‘riga oladi. Fotima bu hayotni tanlashga o‘zi sababchi bo‘ladi. Sababi yuqorida aytib o‘tilgan Ismoilning azoblanganini ko‘rgan Fotima bu ikki yetim ham Ismoilga o‘xshab qiynalishini xohlamaslik maqsadda shu turmushni tanlaydi. Fotimaga ham oson bo‘lmaydi. U farzandlarga tarbiya berishda, ularni o‘ziga yaqin bo‘lishini o‘rgatishda kunduzi qorong‘u, kechalari esa zulmat bo‘lib o‘tadi. Fotima yaxshi o‘gay ona bo‘lganligi sababli ikki yetim farzand tez orada o‘z onasidek qabul qiladi. Oradan biroz vaqtlar o‘tgandan keyin ikki farzand ham onasiga rahmat aytadi. Odilbek bu holatlarni ko‘rgandan so‘ng ko‘ngli ancha yorishadi. Odilbek bundan bir yil oldin chekishni o‘rganadi. Bu yo‘ldan qaytishiga Fotimaning birgina so‘zi sabab bo‘ladi. Hattoki hech kim aqliga sig‘dira olmaydigan bir ish qilganligi hammani hayratga soladi. Odilbekning birinchi turmush o‘rtog‘i bo‘lgan Xayriya haqqiga tilovat o‘qib duo qilishi, uyiga tanish odamlarni chaqirib mavlud o‘tkazishi, Odilbekka Qur’onni

o‘rgatib xotini haqqiga duo qilishlarni hech kim tasavvur qila olmaydi. Biroz vaqtlar o‘tgandan keyin farzandlarini ham shunga o‘rgatadi. Bunday fikrlardan kelib chiqqan holda yetim bolalarning o‘z onalarini unutishlarini xohlamaydi. Fotima obraziga o‘xshash qahramon Feruza Salxodjayevaning “Oppoq tong” hikoyasida ham uchraydi. Bu hikoyada Fotima ayolga o‘xshash Mo‘mina opa obrazi qatnashgan. Mo‘mina opa ham ikki yetim qizaloqqa o‘gay ona obrazida bo‘ladi. Odila va Husayin kabi ikki yetim qizaloq o‘gay onasini o‘z onasidek qabul qiladi. Lekin bir jihatdan farq qiladigan holati ham bor. Ikki qizaloq o‘gay onasini “opa” deb chaqiradi. Mo‘mina opaning Fotima ayolga o‘xshash eng ta’sirli jihati u ham bo‘lsa eriga “Qur’on”ni o‘rgatishdir. Hikoyada shunday keltirilgan: “Biz kutgan Ramazon ham keldi. Hammamiz ro‘za tutdik. Dadam ishidan ta’tilga chiqdi. Opam bilan iftor, saharlik dasturxonlarini birga hozirlaymiz. Totli taomlar tayyorlaymiz, ammo hammasidan totlisi “Qur’on” o‘qishni o‘rganyapmiz. Opa ustozimiz. Kechalari taroveh namozlarini o‘qiymiz. Ramazonning oxirgi o‘n kuni qolganida opam singlim ikkimizga bir gap aytib qoldilar. “Laytul Qadr” belgilash kechasi degan ma’noni beradi. Yil davomida qilinadigan turli amallar, hukm, topiladigan rizq, bir so‘z bilan aytganda, taqdir belgilanadigan kechadir. Bu kechani Alloh taolo Ming oydan yaxshiroqdir deb marhamat qilgan. Ramazon 27-kuni tongga qadar duo qildik. Biz o‘g‘il farzand so‘radik. O‘sha kuni tong oppoq bo‘lib otdi. Sutdek oppoq edi bu tong. Qishning qahraton kunlarining birida Alloh bizni o‘g‘il farzand bilan siyladi”

Biz bu ikki asarda juda ko‘p o‘xshashliklarni uchratdik. “Oppoq tong” hikoyasida ham bir hadis keltirilgan. Payg‘ambar s.a.v. aytdilar: “Musulmonlarning yaxshi uyi yetim uy bor bo‘lib, unda yetimga yaxshilik qilinadigandir. Musulmonlarning yomon uyi yetim bo‘lib, yomonlik qilingan uydir”. Bu ikki asarni o‘qigan inson juda ta’sirli ibratlar oladi. Fotima opa hamda Mo‘mina opa obrazlarga bir hadis keltirilgan. Imom Buxoriy “Al-jome as-sahih” kitobining “Yetim boqqan odamning fazilati” deb nomlangan hadisida shunday deyilgan: “Sahl ibn Sa'd rivoyat qiladi: Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Men va yetimning kafilini olgan odam ikkimiz jannatda yonma-yon yashaymiz”, - deb ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarini juft

qilib ko‘rsatdilar” [Al- jomi as-sahih 1-jild. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy/ arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi.- Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991.- 403b].

Asar davomida Fotima yana bir buyuk jasorat ko‘rsatadi. Fotima Odilbekdan bir qiz farzandli bo‘ladi. Lekin Fotima ikki yetim farzandi va o‘zining qiz farzandiga birdek munosabatda bo‘ladi. Ularga ayro munosabatda bo‘lmaydi. Bir kuni Odila no‘xat yeb o‘tirganida Samixaga ham beradi. U no‘xat Samixaning tomoq yo‘liga tiqilishiga oz qoladi. Buni ko‘rgan Fotima ilohiy bir kuch bilan o‘zini to‘xtatishga harakat qiladi. Agar Fotimaning o‘rnida boshqa bo‘lganida, aniq Odilani do‘pposlagan bo‘lardi. Fotimada bilim yetarli bo‘lganligi sababli farzandlarning yetimligini bilintirmay o‘stirdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yetim bolalar ham ota-onasidan yaxshi so‘zlar eshitgisi, ota-ona mehridan bahramand bo‘lishi, ularni hammaga maqtagisi keladi, ulardan esa aziyat chekishni xohlamaydi. Ota-onalarning bir farzand tarbiyalab voyaga yetkazish qanchalik mashaqqatli ish ekanligi barchamizga ma’lum. Bolalarning tarbiya borasida atrof-muhitning, jamiyatning ham alohida o‘rni bor. Yetim qolgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ularning taqdiriga befarq bo‘lmaslikka barchamiz mas’ulmiz. Farzand tarbiyasida onada ham aqli va bilimi yetarli darajada bo‘lishi kerak. Fotima hamda Mo‘minada farzand tarbiyasi borasida bilimi yetarli bo‘lganligi sababli farzandlarining yetimligini bilintirmay o‘stirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘gay ona: roman. Ahmad Lutfiy Qozonchi/Tarjimon Yo‘ldosh Eshbek.- Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023.- 176b.
2. Al- jomi as-sahih 1-jild. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy/ arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi.- Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991.- 403b.
3. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
4. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
5. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 5.

INTERPRETATION OF PROVERBS IN THE WORKS OF SAID AHMED

Kurbonova Gavkhar Xurramovna
Teacher of Termiz State Pedagogical Institute
Kholiyorova Zulfiya
Student of Termiz State Pedagogical Institute

Anotatsiya. Ushbu maqolada Said Ahmadning badiiy ijodi, hikoya yozish mahorati, hikoya tili uslublari va badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Hikoya, badiiy ijod, hikoya qilish, stilistika, til uslubi, badiiy tasvir vositalari.

Аннотация. В этой статье отражены художественное творчество Саида Ахмеда, навыки написания рассказов, стили повествовательного языка и средства художественного изображения.

Ключевые слова: Рассказ, художественное творчество, повествование, стилистика, языковой стиль, средства художественного изображения.

Abstract. This article reflects on Said Ahmed’s artistic creativity, story-writing skills, story language styles, and skill in using artistic visual tools.

Key words: Story, artistic creativity, storytelling, stylistics, language style, artistic visual tools.

With his colorful stories, journalistic articles, realistic short stories and novels, Saeed Ahmad occupies a worthy place in modern Uzbek literature. He is especially famous as a master of satire and humor.

The press played an important role in the growth of the writer. He worked in the newspapers “Yosh Leninchi”, “Red Uzbekistan”, magazines “Mushtum”, “Sharq yulduzi”, radio committee of Uzbekistan.

Saeed Ahmad was first known as a short story writer. In 1940, his first collection of short stories – “Tortik” - appeared.

Saeed Ahmad calls this collection, which includes many stories, “exercise”. But Abdulla Qahhor, who is the teacher of the Youth, strongly criticizes this. He said: “Sayed Ahmed seems to be able to play a proper practice when he picks up a drum, twists his ears, presses the curtain, and clicks, but he has not practiced playing yet. All the stories in “Tortiq” show that. In the story “Ko'klam chechaklari” Saeed Ahmed also shows the thoughts of a patient who was bedridden due to the war (after all, he was a man, he did not want to be bedridden and stare at the ceiling while his wife was

struggling to earn money), his wife's heart expressing the exuberance and springiness of women's feelings, and at the same time loyalty to their family, they can easily find their way to the reader's heart [1].

In the second group of stories, the comic spirit takes the main place. These include the stories of the series “Desert Eagle”, “Desert Winds”, “Hindcha Oyin”, “Kuchukcha”, “Kolbasa qori”, “O‘rik Domla”. The puns, exaggerations and exaggerations characteristic of our people in these stories make the language of the work extremely attractive [2]. In the comic stories of the writer, such as “Stranger”, “Khanka and Tanka”, “My friend Boboev”, vices such as arrogance, provocation, ostentatiousness encountered in life are skillfully exposed. With his small comic works, Said Ahmed founded the amusing theater of miniatures on Uzbek radio and television.

The novel “Ufq”, created in 1964, was the greatest achievement of the second stage of the writer’s creative career. This novel is a trilogy, consisting of parts called “Forty-five days”, “Days of Hijran”, “On the threshold of the horizon”. In it, the artist reflected the heroic labor of the villagers behind the front lines during the war years, the qualities of the Uzbek people, such as generosity and generosity, selflessness and hard work. The novel was so successful that Abdulla Qahhor, who once severely criticized the young writer, positively evaluated the work in 1965 in his article entitled “Inspiration and Skill Effect” as follows: seeing that they had come, we wished that they would be good musicians and play good exercises. This dream is coming true. “Ufq” is an exercise played by him with inspiration and skill.

Said Ahmad’s novel “Ufq” has a special place in Uzbek prose. The story of the construction of the Great Fergana Canal, which was completed in 45 days by the unselfish Uzbek people, the hard work of our people at the front and behind the front during the war years, and the hardships they endured during the post-war recovery period, are expressed in the novel. In our opinion, if there were no events related to the image of Tursunboy in the work, the work would not have differed from the traditional novels created on the military theme in Uzbek literature. Because in “Days of Hijran”

the heroism of our soldiers at the front, the labor of the Uzbek people behind the front, the bravery of women, girls and the elderly to ensure victory were sung.

This image, the plot line related to the fate of Tursunboy among the events are the most impressive and exciting moments of the work.

War Hero Ikromjon Usmanov returned from the front with one leg amputated. After that, they brought the order that had not been handed over to him and presented it solemnly at the meeting. Ikramjon is happy and proud that the country appreciates his services.

Khayolan imagines his son Tursunboy at the front line, on the battlefield. Imagining that overcoats are suitable for his tall and handsome son, he is happy that his son is defending the Motherland in difficult times.

Ikramjon and Jannat have no children except for Tursunboy, so they focus all their hopes on him. The writer emphasizes this situation in several places of the work. Uncle Rayimberdi asked Ikromjon, who had one of his legs amputated: “Didn’t you suffer a lot?”, Ikromjon replied: “I am cutting it so badly that I can see my stupid Tursunboy. It’s like saying, who are you leaving me for? No, I did not die alone, I survived. When I came, he was gone. I couldn’t see the face of our lonesome. May he return safely. If God doesn't show, if something happens to him, I'll be done...” [3] - thus the writer explains to the reader that Tursunboy played a decisive role both in the life of Ikramjon and in the life of aunt Jannat.

Said Ahmad is an advanced writer who has contributed greatly to the development of Uzbek prose with his cheerful, relaxing stories and weighty novels.

REFERENCES

1. Normatov U., Said Ahmad [Literary portrait], T., “Teacher” 1971.
2. Gafurov I., Poet of Prose, T., “Teacher” 1984.
3. Ufq, T., 1976.
4. Election [3 volumes], 1982.
5. Selected works [3 volumes], T., 2000.
6. Karakoz Majnun, T., 2001.

O‘ZBEK AYOLLARIGA XOS QASOSKORLIK HISLATI (NAZAR ESHONQULNING “SHAMOLNI TUTIB BO‘LMAYDI” ASARIDAGI BAYNA MOMO MISOLIDA)

Termiz davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi Toshqulova Zebiniso
Termiz davlat pedagogika instituti
talabasi Ochildiyeva Dilrabo

Annotasiya: Ushbu maqolada o‘zbek ayollarining o‘ziga xos bo‘lgan fazilatlari, qasoskorlik, o‘z yoriga bo‘lgan sadoqati, farzandiga bo‘lgan muhabbati, har qanday buyuk kuch oldida yengib bo‘lmas alanga ekanligi tasvirlangan. Chorasiz qolgan ayollar nomard erkaklarga qarama-qarshi mardonavor, jasurlig bilan qarshi kurash olib borganligi aks etadi.

Kalit so‘zlar: ayol, ona, “Mardlik afsonasi”, Nazar Eshonqul, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, To‘maris, Bayna momo

Аннотация: В данной статье описаны уникальные качества узбекских женщин, мстительность, верность ближнему, любовь к своему ребенку, а также то, что они являются непобедимым пламенем перед любой великой державой. Отражено, что женщины, оставшиеся беспомощными, храбро и мужественно сражались против недостойных мужчин.

Ключевые слова: женщина, мать, “Легенда о мужестве”, Назар Эшанкул, “Ветер не поймаешь”, Томарис, Байна Момо

Abstract: This article describes the unique qualities of Uzbek women, vindictiveness, loyalty to one's neighbor, love for their child, and the fact that they are an invincible flame in front of any great power. It is reflected that women who were left helpless fought bravely and courageously against unworthy men.

Key words: woman, mother, “Legend of Courage”, Nazar Eshanqul, “You Can’t Catch the Wind”, To‘maris, Bayna Momo

Ayol!

Ojiza! Ollohimning yaratgan mo‘jizasi! U yaralibdiki, olam, borliq porlagan! Ollohimning jannati uning poyida! Muhhabatni yaratgan ham ayoldir. Ayniqsa o‘zbek ayollari sadoqat va vafo timsoli. Dunyodagi eng mard ayollar ham bizning o‘zbek ayollari timsolida gavdalangan. Ayollarizmizning mardligi, jasurligi timsolida aynan To‘marisni ko‘ramiz. Yana To‘marisning qalbida vatanga bo‘lgan muhabbat bilan birgalikda dilbandining to‘kilgan qoni uchun qasos olish o‘ti ham alanglagan. O‘zbek ayollarining mardligi, jasurligi o‘zbek yozuvchilarning e’tiborini chetlab o‘tmadi va o‘z asarlarida aks ettirdi. Jumladan, Shuhratning “Mardlik afsonasi” asari buni yaqqol

misolidir. Asarni o‘qir ekanmiz, To‘marisning jasorati, zolimlar qo‘lidan xalqini ozod etganiga guvoh bo‘lamiz. To‘marisnimg Kayxusrav bilan bo‘lgan jangda, o‘g‘lini tuzoqqa tushirishadi va o‘g‘li dushmanlar qo‘lida jon beradi. Dilbandining o‘limi eshitgan To‘marisning yuraklari o‘qdek teshiladi, yurak bag‘ri ezili, dunyolar ko‘ziga tor ko‘rinadi. Ruhiy azob ta’sirida, hattoki, ko‘zlariga yosh kelmaydi. Va shu ondan boshlab ona vujudida qasos o‘ti alanga ola boshlaydi. Bu dardning yagona davosi - o‘ch olish. Hasrat o‘tida yongan To‘maris zolim dushmanlari bilan mardonavor jang qiladi va mag‘lub etadi. Xotima qismi esa:

...So‘ngra boqdi dumalab yotgan u boshga:

“Tiriklikda sıra to‘ymaganding sira qon - yoshga,
Mana endi to‘yib ol, boshing ko‘mib ich,
Endi senga kerakmas qolqon- u qilich”,
...El tinchidi o‘lkada ur - sur yo‘qoldi
Yovdan faqat tuproqda qonli iz qoldi. [“Mardlik afsonasi” Shuhrat]

O‘zbek ayollarini qancha maqtasakda shuncha oz va bu kabi asarlar ham kam emas. Yana bir shu kabi asarlar sirasiga Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” asarini ham kiritishimiz mumkin. Ijodkorning ushbu hikoyasida Bayna moma obraziga ijodiy yondashuv o‘ziga xos va adib yaratgan ushbu timsol milliy G‘urur va Sharaf - shonimiz desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu asar o‘ziga qadar yaratilgan asarlardan bir qancha jihatlari bilan ajralib Yozuvchining ushbu hikoyasi o‘zbek hikoyachiligida yangilik bo‘ldi. Inson qadri, xotirasi bu - bebaho, ma’naviy qadriyat. Uni behurmat qilib, oyoq osti qilish eng ayanchli axloqsizlikdir. Asarda ellik yil yolg‘izlik davrini o‘tkazgan, eri va o‘g‘lining judolik azobida yashagan mushtipar o‘zbek ayoli gavdalanadi. Bir vaqtning o‘zida ham eri, ham o‘g‘lidan ayrilgan Bayna momoning qalbida hasrat o‘ti alanga oldi. Bir on bo‘lsada nafrat tuyg‘usi tark etmagan bu ayolni, yillar zalvori bu ayolni qari va ozg‘in, yozuvchi nazdida qari echkiga o‘xshab qo‘ygandi.

“Uning bug‘doy ko‘tarib yurishidan ori kelgan Ollomurod tegirmonchi Bayna momoni insofga chaqirdi: — Siz bunday ovora bo‘lib yurmang, - dedi u. - Biron

erkakdan berib yuborsangiz, tortib, o‘zim uyingizga olib borib tashlayman. —Bu qishloqda erkak yo‘q, - dedi Bayna momo zarda bilan, so‘ng elkasidagi bug‘doyni tegirmonga kiraverishda tushirdi. Gapirayotganda ovozi titrab ketdi. Tegirmonchi tilini tishlab qoldi”. Keltirilgan misolda o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan, kesatiq qilish holati bilan birga uning har qanday holda ham erkaklarday o‘z g‘ururini ustun qo‘yishi birgalikda tasvirlangan.

Umri davomida o‘ziga qilingan nohaqliklarni unutolmay, hattoki o‘z qishloqdoshlaridan ham nafratlanib yashagan ayolning holati ushbu misolda namoyon bo‘ladi: U ba’zida qishloqdoshlarini ochiq masxara qilardi: “E, senmisan, Salom ko‘sa, xotiningning ishtonini kiyib yuribsanmi deyman”, “Hakim otchopormisan, buncha urg‘ochi baytalga o‘xshab qiyshanglaysang...” “Bu qishloqning ayollari endi faqat xezalak tug‘adi”. Bu masxara va nafrat yillar o‘tishi bilan Bayna momoni qishloqdan butunlay ajratib qo‘ydi.

Zamon otboqar itday o‘lim topgandi. Jasadning shu turishi avval o`zi, keyin tepasi qulab tushgan ulkan minorni eslatardi- kiyimlar pora-pora yirtilgan, avrati uzib tashlangan,o`nta barmoqning hammasi kesib olingandi...Baribir barmoqni izlab topisholmadi. Jasadni barmoqsiz ko‘mishga to‘g‘ri keldi. Jussasi ekchi bolasiday bo‘lib qolgan Bayna momoning Zamon otboqarga bas kelishi uchun, albatta, unga nafrat va qasd olish tuyg‘ulari yordam bergan.

To‘y deb kelib, aza ustidan chiqayotgan mehmonlarni, to‘y beraman deb, endi aza berayotgan qishloqdoshlarini kuzatib, xuddi qutlug‘ bir vazifani o‘tab, endi dunyoda armoni qolmagandek, yillar g‘ijimlab tashlagan yuzida bir jununvash ifoda qotib qolgan holda tersotaliklar hayotiga yigirma uch yil soya solgan tosh haykal kabi qilt etmasdan o‘tirardi. Keltirilgan parchada yigirma uch yil davomida o’zidagi qasd olish maqsadini uddasidan chiqqan ayolning tasviri o’ta nozik tasvirlar bilan chizilgan.

Ayol ojiza, lekin u bir dengiz kabidir. Bir mavjlansa hech kim omon qolmaydi. Yillar davomida Bayna momoni ich-etini yeb kelgan hasrat o‘tini faqatgina qasos olish o‘chiroldi. Vahshiylarcha ko‘z oldida otib tashlangan eri va o‘g‘lining qotili boshiga

bundanda battarroq o‘limni ravo ko‘rdi. Yillar zalvori butun yoshligini olgan bu ayolni yuragidagi qasos o‘ti o‘z intiqomini topdi.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev o‘zining “Yirik shaxslar tasviri yo‘lida” nomli maqolasida Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasiga alohida to‘xtalib, asarning badiiy talqini haqida shunday yozadi: “Shamolning tutib bo‘lmaydi” hikoyasidagi Bayna momo milliy adabiyotimizda mutlaqo tasvir etilmagan obraz. Hikoya chinakam insonga, butun shaxsga bitilgan madhiyadir. Nomusli odamni, g‘ururli insonni, chinakam shaxsni yengib bo‘lmaydi. Uni qiynash, chalish, yiqitish, boringki, o‘ldirish mumkin, lekin mag‘lub qilish mumkin emas. Shaxsligi shakllanmagan yoxud sindirilgan kimsada g‘urur bo‘lmaydi. E.Fromm aytmoqchi: “...eng ulug‘ fazilat – itoatkorlik va eng katta gunoh – bo‘ysunmaslikdir”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Mardlik afsonasi”. Shuhrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik (1978-1980)
2. Nazar Eshonqul “Shamolni tutib bo‘lmaydi”
3. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
4. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
5. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
6. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 5.
7. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.
8. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.

YANGI O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA INSON RUHIYATI (ABDUQAYUM YO‘LDOSH ASARLARI MISOLIDA)

TerDPI o‘qituvchisi Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi,
TerDPI talabasi Abdiyeva Mehriniso Farxod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi o‘zbek adabiyotining ulug‘ ijodkori bo‘lmish Abduqayum Yo‘ldoshning hayot va ijod yo‘li, uning noyob hikoyalari va bu hikoyalardagi personajlarning ruhiyati, zamonaviy o‘zbek adabiyotining jilg‘alari haqida fikr yuritamiz.

Kalit so‘zlar: Abduqayum Yo‘ldosh hayoti, ijodi, zamonaviy ruh, nasriy asar, yangi hikoyalari, personajlar, ularning ruhiyati.

Аннотация: В этой статье мы обсудим жизненный и творческий путь Абдугаюма Йолдоша, великого творца новой узбекской литературы, его уникальные истории и психику героев этих рассказов, а также перипетии современной узбекской литературы.

Abstract: In this article, we will discuss the life and creative path of Abduqayum Yoldosh, the great creator of new Uzbek literature, his unique stories and the psyche of the characters in these stories, and the twists of modern Uzbek literature.

Key words: Abduqayum Yoldosh’s life, work, modern spirit, prose work, new stories, characters, their mentality.

Yangi (zamonaviy) o‘zbek adabiyoti moziy (ta’rix, o‘tmish) adabiyotlaridan farq qiladi. Albatta, ikki adabiyotlarda ham inson tushunchasi yotadi. Boringki, o‘tmish adabiyotlaridan zamon nuqtayi nazaridan, bosh obrazlar va personajlardagi o‘zgaruvchanlik, xilma-xillik ulardagi ruhiyat bilan ajralib turadi.

Ijodkor badiiy asarda qahramon xarakterini ochib berishda turli vosita va uslubdan foydalanadi. Bu esa muallifdan alohida mahorat talab etadiki, asar qahramoni xarakterini to‘la ochib berish asar badiiy qiymatini yanada oshiradi. Atoqli adabiyotshunos T.Boboyev o‘zining ilmiy qarashlarida xarakter haqida to‘xtalib o‘tar ekan, quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Xarakter – ma’lum ijtimoiy faoliyat tipi. Xarakter, L.I.Timofeyev ayganidek, obrazning yadrosi. Xarakter, birinchi navbatda, konkret hayotiy sharoitda o‘z individual xatti-harakatlari va ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo‘ladigan insonning aniq tasviri. Umuman aytganda, qahramonning muhim xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy belgilar majmui xarakter deb yuritiladi” [T.Boboyev.—Adabiyotshunoslik asoslari‖. T:—O‗zbekiston‖. 2002-y. B. 52]

Adabiyotda inson ichki dunyosining chuqur badiiy tadqiqi “badiiy psixologizm” deb ataladi. Boshqacha aytganda, psixologizm – adabiyot va san’atda insonning turli psixik holatlari, ruhiy kechinmalarini teran tasvirlash demakdir. Shu o‘rinda badiiy psixologizm tushunchasining maydonga kelishi va qamrovining kengayishiga asos bo‘lgan psixologik yondashuv haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Bu borada o‘zbek adabiyotshunosligida A.Alimuhamedov, H.Umurov, D.Quronov kabi olimlar muhim tadqiqotlar olib borganlar. [Алимуҳамедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир // Ўзбек адабий танқиди (Антология). Тошкент, Turon-Iqbol, 2011. 544 б. Б. 51-64; Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент, Фан, 1983; Қуронов Д.Роман ҳақида айрим мулоҳазалар. 22.03.2013 web:]

Yangi o‘zbek adabiyotida shunday ijodkorlar borki, ularning asarlari, boringki kichik-kichik hikoyalari ham matbuot yuzini ko‘rar ekan kitobxon qalbini zabt etadi, unda fikrlashni, tafakkur qilishni uyg‘otadi. Shunday ijodkorlardan biri Abduqayum Yo‘ldoshdir. Keling dastavval uning hayoti haqida qisqacha aytib o‘tsak.

Abduqayum Yo‘ldosh 1962-yil 29-fevralda Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanida tug‘ilgan. Toshkent Politexnika institutini (hozirgi Texnika universiteti) bitirgan (1985). “Qaro ko‘zim. Shayx ur-rais” (1990), “Sunbulaning ilk shanbasi” (1998), “Timsohning ko‘z yoshlari” (2003), “Parvoz” (2004), “Bir tun va bir umr” (2007) kabi kitoblari nashr etilgan. R.Bredberi, A.Kristi, F.Braun, E.Potter hikoyalarini, Ye.Berezikovning “Buyuk Temur” romanini (H.Shayxov bilan hamkorlikda), P.Shermuxamedovning “Buyuk Xorazmiy” romanlarini o‘zbekchaga tarjima qilgan. “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan (1999).

Ijodkorning zamonaviy ruhda yaratilgan hikoyalari talaygina. Keling, dastavval, “Yetim so‘z” hikoyasini olaylik. Bu hikoya tamomila hozirgi zamon insonlariga aloqador. Amoldorlarning kerilib gapirishlari, ishga kelganda esa, qo‘lidan hech narsa kelmasligini ijodkor ochib bergan. Sunnatning kichkinagina bir o‘yiniga bardosh bera olishmaydi, boringki, ular o‘z maqolalarining tag sarlavhasiga, jurnallariga “Biz bormiz, sen aslo e’tiborsiz qolmaysan, Sunnat” deb yozishgan va bundan shuhrat,

maqtovlar ham kutishayotgan edi. Sunnatning tabiyatida, ruhiyatida allaqanday bir jimlikmi, bo‘shliqmi bor, u doim kelajagi haqida qayg‘urar va har vaqt rejalar tuzib yuradigan, tiyrak nigohli, dunyoga hayrat ko‘zlari bilan boqadigan bola. Ijodkor hikoyani aytilgan so‘z, va’da asossiz qolgani uchun “yetim so‘z” deb nomlagan bo‘lsa ajab emas.

Asarda yosh bola ruhiyatini badiiy mahorat bilan tasvirlangan, ya’ni kichik Sunnatning katta yoshdagi insonlarning balandparvoz va’dalariga ishonib, xursandchiligidan yettinchi osmonga uchganday, bir joyga o’tirolmay yangi oilasini intiq holda kutganligi, va pufakchaday omonat orzular hayolida sabrsizlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zim shu ahvoldaman-u, yaramga tuz sepmoqchiday, joyida o‘ynoqilab tipirchilab turgan Sunnat so‘rab qolsa bo‘ladimi: – Uyimiz qaysi qavatda? “Uyimiz”? O‘lay agar, tarsaki tortib yuborishimga sal qoldi.

Shu parchaning o‘zida ham yosh bolaning umid daraxtlari gullamay so‘layotganiga guvoh bo‘lamiz. Uning berilgan va’dalar quruq gap ekanligiga ishonchi komil bo‘lgach, ichki olamidagi yosh, o‘ynoqi bolakayning faqat jismigini tirik qolganday yurardi. Buni quyidagi parcha orqali ifoda etmoqchimiz:

Sunnatning yoniga bordim. U kompyuter ekranidan ko‘z uzmas, bekorchi bir nimalarni chizib o‘tirardi. Unga diqqat bilan qarab turaverdim. Ammo bolakay menga mutlaqo e’tibor bermadi, baayni yonida begona, notanish odam turganday... Xo‘jayin ikkalamiz ishxonaga qadar “miq” etmay keldik...

“Hayot beshafqat” bu hikoya bizga hayotning past-u baland cho‘qqilari borligini, yaxshi kunlarimiz kabi yomon kunlarimiz bor ekanligini, ammo bu kunlarni Allohim bizga sinov qilib berganligini, bu sinovlardan biz odamiyligimizni, nomusimizni saqlagan holda chiqishimiz kerakligini uqtiradi. Hikoyada Suyunning o‘zida yo‘q bo‘lgan narsalarni bor deb kerilishi, kalondimog‘ligi o‘z boshiga yetadi. Bir narsa doim hayollarimni band etadi, aslida hayot beshafqatmi, yoki undagi insonlarmi? Biz o‘z hayotimizni o‘zimiz barbod qilib, keyin osongina barchasida hayotni ayblaymiz. Hikoya qahramonlaridan Shokir aka ham qizining boshiga

tushganlarida hammani (hayotni ham) ayblaydi. Undagi bu alam, qasos hissi nafsini uyg‘otib gunoh ishlar qilishga boshlaydi va u begunoh qiz Oygulning hayotini barbod qiladi. Aslida Shokir akani ham ayblash noto‘g‘ri, chunki u bir ota, qizi uchun joni achiydi yana Oysuluv yagona qizi edi, nachora endi barchasiga kech.

Yozuvchining keyingi yana bir hikoyasi “Hayot endi boshlanadi”dir. Bu hikoyada o‘zbekning sodda, samimiy, hayotdan har doim umid qilib, yaxshi narsalarni so‘rab yashaydigan Toshkentboy ismli qishloq yigiti tasvirlanadi. Bu personaj orqali yozuvchi o‘zbeklardagi soddalik va samimiylikni, beg‘uborlikni, umid va kelajakka bo‘lgan ishonch tuyg‘usi kuchli ekanligini ko‘rsatib bergan. Toshkentboyning tug‘ilgan sanasi ham g‘ayritabiiy 1964-yil 29-fevral. Barchamizga sir emaski, 29-fevral to‘rt yilda bir marotaba keladigan kundir. Balkim ijodkor Toshkentboy doim boshqalarni o‘ylab yashaydigan, jigarlarini deb hayotining o‘tib ketayotganini ham sezmayotgan, sezayotgan bo‘lsada bir kun hammasi yanada yaxshi bo‘lishiga ishonayotgan, umid qilib yashayotgan kam sonlini insonni tasvirlagani uchun bu sanani tanlagandir.

Qo‘shimcha sifatida aytish mumkinki, Abduqayum Yo‘ldoshning o‘zi ham shu sanada, yili bo‘lsa shunga yaqin 1962-yilda tug‘ilgan. Toshkentboy butun hayoti davomida o‘zini o‘ylamasdan yashagan, 8 ta uka-singlisini uyli-joyli qilib olay keyin o‘zim uchun yashayman deb umri o‘tayotgan yigitdir. U o‘zini doim “hayot endi boshlanadi” deb ishontirardi va shunga umid qilardi. Lekin hayot sen ishlaringni bitirib bo‘lguningcha to‘xtab turadigan narsa emas. U suv kabi o‘tib ketadi, bir kiprik qoqquningcha umring tugaydi, buni sezmay ham qolasan. Toshkentboy umid qilib, ishonib yashadi hatto hayotining so‘ngi lahzasida ham “hayot endi boshlanadi” deb aytdi. Ammo uning hayoti tugagan edi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Zamonaviy o‘zbek adabiyoti ham, zamonamiz kishilarining ahvoli, ruhiyati, orzu-intilishlari va maqsadlarini to‘laqonli ochib beradi. Abduqayum Yo‘ldosh yaratgan obrazlarni ularning xarakterini tushunish uchun uning birgina hikoyasini o‘qib chiqish kifoya qilmaydi, negaki, bir asarida yaratgan obraz va uning xarakteri boshqa bir asaridagi obrazning davomidek tuyuladi. Bu ijodkorlarning,

nafaqat Abduqayum Yo‘ldosh, shuningdek Nazar Eshonqul, Salomat Vafo, Qo‘chqor Norqobillarning hikoyalarini o‘qigan kitobxon zerikmaydi, olam-olam quvonch va ma’no olishi, shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qobulova N, “Erkin A’zam nasrida davr va inson konsepsiyasi” filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissirtatsiya, Samarqand, 2020 y.
2. Yo‘ldoshev A. “Mashaqqatlar osha yulduzlar sari”. Hikoyalar. Toshkent- “Yangi asr avlodi” - 2021.
3. Abduqayum Yo‘ldoshev, “Ishq afsunlari” Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2019-y.,
4. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
5. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
6. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
7. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 168-170.
8. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).
9. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.
10. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.

TUN VA TONG OBRAZINING TARIXIY DAVRLARGA XOS NAMOYON BO‘LISHI

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Toshqulova Zebiniso

Annotatsiya: Tun va tong ko‘rinishidan oddiy bo‘lib ko‘ringan tabiat hodisasi dunyo yaratilgandan buyon, inson yer yuziga tushurilgandan buyon, ya’ni butun tarix davomida rivojlangan madaniy e’tiqodlar, falsafiy g‘oyalar va qarashlar, ijtimoiy siljishlar va o‘zgarishlarni o‘zida eks ettirib keluvchi kuchli adabiy motiv bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Bu motiv hattoki hozirgi yangi o‘zbek she’riyatida ham o‘zining tasirini ko‘rsatgan jihatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘z: Tun, tong, kun qismi, semantika, dialektika, she’riy janrlarda ishlatilishi,

Аннотация: Природное явление, кажущееся простым с появления ночи и утра, со времен сотворения мира, со времени сошествия человека на землю, то есть на протяжении всей истории развивались культурные верования, философские идеи и взгляды, социальные сдвиги и о служил сильным литературным мотивом, отражающим изменения. Мы можем видеть аспекты этого мотива, проявляющие его влияние даже в современной узбекской поэзии.

Ключевые слова: Ночь, утро, часть дня, семантика, диалектика, употребление в поэтических жанрах,

Abstract: A natural phenomenon that seems simple from the appearance of night and morning, since the creation of the world, since the descent of man to the earth, that is, throughout history, developed cultural beliefs, philosophical ideas and views, social shifts and o has been serving as a strong literary motif reflecting the changes. We can see the aspects of this motif showing its influence even in modern Uzbek poetry.

Key words: Night, morning, part of the day, semantics, dialectics, use in poetic genres.

Kunduz bilan kecha Quyoshning “Davroni kull” natijasida kecha kunduzning boshlanishi deb faraz etilgan doiraga qaytib kelishidan iboratdir. Agar kelishilgan bo‘lsa va u katta (doira) bo‘lsa uni qaysi doira bo‘lsa ham (qabul etilgan). Chunki katta doiralarning har biri bil quvva (potencial) ufqdir. Bilquvva ufq (deganimning) ma’nosi (shuki), mazkur doira biron turarjoy uchun ufq bo‘lishi mumkin. “Davroni kull” falakning undagi narsalar bilan o‘zining ikkala qutbi ustida kun chiqishdan kun botishga tomon ko‘rinib turgan harakatidir. Kun bu – Quyosh kulchasining

ko‘tarilishidan to botgunicha o‘tgan muddat; kechasi esa uning aksidir. Buni umuman barcha xalq etirof etadi, ko‘pchilik shunga kelishib, bu to‘g‘rida bir-birlari bilantortishmaydilar. Lekin islomning faqih olimlaridan biri, kunduz va ro‘za muddatini barobarlash uchun kunduz avvalini - tong otishi, oxirini – Quyosh botishi deb ta’riflaydi va bunga oliy tangrining “Tongda oq ip kora ipdanajralib ko‘ringuncha yeb-iching, keyin kechgacha ro‘za tuting!” [“Памятники минувших поколений”. Абу Райҳон Беруний.] degan so‘zini dalil qilib keltiriladi [Танланган асарлар”. 1-том.. Абу Райҳон Беруний. Ўзбекистон “Фан” нашриёти. Тошкент-1968].

Tun va tong dialektikasining qadimgi dunyo janrlaridagi ko‘rinishiga to‘xtaladigan bo‘sak, o‘sha davrlardagi eng muhim va xalq og‘zaki ijodining eng baholangan janrlaridan biri sanalmish mifologiyada juda ham ko‘p ma’no-mazmunlarini ko‘rishimiz mumkin.

Mifologiya va Kosmologiyada tong dialektikasi yangi tsiklni belgilab bergan, u qayta tug‘ulish, yorug‘likning zulmat ustidan g‘alaba qozonishi hamda umid razmlarini ifodalab kelib, o‘sha davr adabiyotining eng muhim, va obrazli ramzlaridan sanalgan. Buni qadimgi misrliklar afsonalarida ham ko‘rish mumkin, Quyosh xudosi Ra har kuni ko‘tarilib, tartibsizlik kuchlarini zabt etgan manzarali tasvirlangan.

O‘rta asrlar davrida esa tun va tong obrazi ko‘proq diniy ahamiyatga ega bo‘ldi. Tun gunoh va jaholatni, zulmatni, tong esa najot, poklik, g‘alaba ramzi sifatida namoyon bo‘lib kelgan. Tong va tun leksemalarining poetikasi haqida so‘z yuritganda, albatta, bizga qadar yetib kelgan buyuk yozuvchi, tilshunos olim Mahmud Qo‘shg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asariga murojat qilmasdan qolmasligimiz kerak. Muallif o‘z asarining qismi sanalgan Alp Er To‘ngaga bag‘ishlangan marsiyasida ham tun leksemasi mavjud bo‘lib, muallif bu so‘zdan o‘z ma’nosida foydalangan. Ya’ni bu so‘z davr nuqtayi nazaridan qo‘llangan sanaladi. Bizgacha yetib kelgan bitiklardan sanalmish “Kultegin”da ham yov bosgan mahal tun chog‘ida sodir bo‘linishiga ishora qilib, “kunduz o‘tirgim kelmadi, tun uyqim kelmadi” jumlasi orqali ham qo‘llanilayotgan leksemaning davrni, zamonni ifodalagan.

Mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodida ham tun va tong obrazi dialektikasining ko‘plab variantlari ishtirokida g‘azal, ruboiy, tuyuq, muxammas, musaddas, musamman, mustasne, tajriband, tarkiband, noma kabi janrlarda o‘zlarining takrorlanmas asarlarini yaratganlar. Bundan tashqari XV asrlardagi nasriy asrlarda ham (Navoiy, Bobur) ko‘rishingiz mumkin. Ushbu maqolada o‘sha janrlarda ishtirok etgan tun hamda tong dealektikasining ishtirokini o‘rganib chiqamiz.

Kecha kelgumdur debon, ul sarvi gulro‘ kelmadi.

Ko‘zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.

Navoiyning hammaga ma’lum-u mashhur bo‘lgan “Kelmadi” radifli g‘azalidagi ushbu baytda kecha, ya’ni tun leksemasining omonimlik shaklini yuzaga keltirib, o‘qiguvchini fikrlashga undaydi. Ushbu misrada ikki kecha so‘zi payt ravishining bir ma’no turini ifodalab kelmoqdami yoki bir? Keling bu savolga quyidagicha javob qilamiz. Birinchi misradagi kecha so‘zi so‘zlanayotgan vaqtdan oldingi payt ravishini ifodalayotgan bo‘lsa, ikkinchi misradagi kecha so‘zi kunning qo‘rong‘ulikka cho‘mgan qismini ifoda etmoqda va ana shu jihatdan bir so‘z ikki ma’no anglatib iyhom san’atini yuzaga keltirmoqda.

Navoiy qalamiga mansub bo‘lgan, ramali musammani mahzuf bahrida yozilgan “Axtarin ashk ettiyu sovuq nafasni oh subh” nomli g‘azalida ham tun va tong dialektikasining faol tarzda ishtirok etyganini ko‘rishimiz mumkin.

Axtarin ashk ettiyu sovuq nafasni oh subh,

Bo‘ldi go‘yo shomi hajrim holidin ogoh subh.

G‘azalning matlasidayoq shoir ikki so‘z orqali tazod san’atidan foydalangan. Ya’ni shom kun qismining qoromg‘ilashib boshlangan qismini anglatigan mahalidir. Shoir yor ishqida kuyish, yonishni o‘z hajrni shom bilan yonma-yon tasvirlab uni shunchalik alanga kabi ekanl;igiga ishora etmoqdaki, hattoki uning kuchliligidan tong mahalining bosqichlaridan biri sanalmish subh ham bundan ogoh bo‘lganligini ifodalamoqda.

G‘am tuni muhliq g‘amim anglab yoqa chok ayladi,

Tong elidin har nafas holimga tortib oh subh.

G‘azalning ikkinchi baytida tun so‘ziga etibor qaratadigan bo‘lsangiz, g‘am so‘zi bilan birha kelayotganligiga guvoh bo‘lasiz. Ma’lumki, qora leksemasi ko‘pincha dard, alam, g‘ariblik, qayg‘u, yovuzlik, yordan yiroqdalik, dil hiralik kabi ma’nolarni anglatadi. Xuddi shu o‘rinda tun so‘zi ham shoirlar ijodida ko‘pincha vaslga yetishmagan yorning hijron dardida yonish chog‘i ekanligini tasvirlaydi. Navoiy ham shu o‘rinda “g‘am tuni” jumlasini ishlatib, biz yuqorida aytib o‘tgan ma’lumotlarni yana bir bor isbotlab o‘tgan. Birgina Navoiy emas, yana ko‘plab mumtoz adabiyoti vakillari ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsangiz, bunday o‘xshashliklarga guvoh bo‘lasiz.

Ushbu misrada ijodkor yorning ma’shiuqasi hajrida qanchalik yonishini ko‘rayotgan, sezayotgan g‘am tuni o‘z yoqasini yirtadigan darajaga keldi demoqda. Ya’ni oshiq chidayotgan dardan tun taslim bo‘lmoqda, bunday dardlarga faqatgina haqiqiy oshiqlargina chidashlari mumkin ekanligi tasxish va mubolag‘a san’atlari orqali ifodalab berilmoqda.

Tiyra hijrondin chu yo‘qtur farq subhu shomima,
Xoh shom o‘lsin qorarg‘an ro‘zg‘orim, xoh subh

Shoir hijron dardidan shu qadar azoblayabdiki, subh tong va shomining farqiga bormay qolgan. Subh tong yorishdan oldingi kun vaqti sanalsa, shom ham tunning eng boshlang‘ich qismi sanaladi.

Subhdam bedoru giryon bo‘l, agar fayz istasang,
Kim, sening uyqungg‘a xandon bo‘lmasun nogoh subh.

Ushbu baytda Navoiy islom dinida azaldan farz sifatida ma’lum bo‘lgan amallardan biri bomdod namozidan keyin toat-ibodatda bo‘lishlik talab qilinganligiga ishora qilyabdi. Inson uyida fayz, baraka bo‘lishi uchun ham erta tongdan turib duoda bo‘lishligi aytiladi. Navoiy ushbu baytda oshiq o‘z dardiga davo istab kunning ushbu qismida uning halovati qochishini anglatyabdi. Subh chog‘i bedor holda turginki, sening uyquda ekanliginga subh shodlanmasin deya targ‘ib etmoqda.

Yangi o‘zbek she’riyatida esa tun va tong dialektikasi o‘zgacha ma’no anglata boshladi. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda bu leksemalar o‘z ma’nosida, mumtoz

adabiyoti vakillari ijodida hajr, dard, alam ma’nolarida, milliy uyg‘onish davri vakillari ijodida g‘aflat, qaramlik, mustamlakalik ma’nolarini anglatgan bo‘lsa, endi zamonaviy o‘zbek sheriyatida u kishi hissiyotlarini ifodalovchi element vazifasini o‘tay boshladi. Inson hissiyotlaridagi majoziylik, ramziylik hamda mavhumlikni anglata boshladi, ya’ni bundan shoir va yozuvchilar o‘z navatorliklari orqali erishishdi. Bu jihatlar esa, avvalo, she’riyatda o‘z ifodasini topdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tmoqchimizki, davrlar osha ayrim leksemalar o‘z ma’nosini anglatmay qolishi, yoki qisman ma’nosini yuqotishi mumkin. Tun va tong leksemalari esa o‘z ma’nolarini saqlab qolgan holda, o‘z ma’nosidan tashqari qo‘shimcha ma’no hamada falsafiy ma’no ham anglata olgan. Buni yuqoridagi misollar orqali anglashimiz mumkin. Bu ikki leksema inson ruhiyati, hissiyoti, uning tabiati haqida ham ma’lumot beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Памятники минувших поколений”. Абу Райҳон Беруний.
2. «Танланган асарлар”. 1-том.. Абу Райҳон Беруний. Ўзбекистон “Фан” нашриёти. Тошкент-1968
3. «Девону дуғотит-турк»даги линавистик атамалар. Салима РУСТАМИЙ. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ. Тошкент-2006
4. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
5. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
6. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 168-170.
7. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.

“PUANKARE” HIKOYASIDA ARMONGA AYLANGAN ORZU TALQINI.

Musurmonqulov Adham Abdurashid o‘g‘li, TerDPI o‘qituvchisi
adhammusurmonqulov76@gmail.com
Iskandarova Jasmina Bahodir qizi, TerDPI talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abduqayum Yo‘ldosh hayoti va ijodi hamda do‘sti tomonidan xiyonat zarbasi bilan yaralangan, ilm yo‘lida o‘zini fido etgan, maqsadiga erishishiga bir qadam qolganda orzu-maqsadi armonga aylangan sof vijdonli, ammo hayotga baxti kulmagan matematik ustozni bir kunlik baxti va undan keyingi baxtsizlik onlari boshlanishi va Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” asari orqali inson yashashi uchun moddiy ta’minot zarurligi, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari orqali yoshlikni vaqtida qadrlash lozimligi to‘grisida fikr va mulohazalar bayon etilgan hamda xulosalar jamlangan.

Kalit so‘zlar: Puankare, gipoteza, formula, asar, hikoya, qahramon, urf-odat, orzu-umid, vijdon, maqsad, nido.

Аннотация: В данной статье о жизни и творчестве Абдукаюма Юлдоша.В произведении рассказывается об учителе математики, которого предал друг, который пожертвовал собой ради науки, чья мечта не осуществилась, когда он был в шаге от достижения своей цели, который имел чистую совесть, но прожил несчастную жизнь.В произведении Улугбека Хамдама «Равновесие» показана необходимость материального обеспечения человеческого существования. Ценность молодежи объясняется и анализируется в книге Алишера Навои «Махбуб-уль-Кулуб».

Ключевые слова: Пуанкаре, гипотеза, формула, произведение, история, герой, традиция, мечта-надежда, совесть, цель, восклицание.

Annotation: This article is about the life and work of Abduqayum Yoldosh. The work tells about a math teacher who was betrayed by his friend, who sacrificed himself for the sake of science, whose dream was not fulfilled when he was one step away from achieving his goal, who had a pure conscience but lived an unhappy life Ulugbek Hamdam’s work “Balance” explains the necessity of material support for human existence and Alisher Navoi’s appreciation of youth through “Mahbub ul-qulub” and summarizes the conclusions.

Key words: Puankare, hypothesis, formula, work, story, hero, tradition, dream-hope, conscience, purpose, exclamation.

“Qalbni orzudan mahrum qilish yerni
havodan ayrib qo‘yish bilan barobar”.
E.BULVER-LITTON.

“Puankare” hikoyasi eng oliyjanob va yuksak insoniy fazilatlari bilan birga yoshlik sururi, ishq va muhabbatning nafis navolari, o‘zbekona, sodda, ayni paytda

betakror tuyg‘ular o‘zining yorqin ifodasini topganligi bilan kitobxonni maftun etgan asardir. So‘zning badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish, musiqiy ravonlik, tuyg‘ular tiniqligi, samimiylik va mayinlik, ruhiyat manzaralarini lo‘nda va yakdil ifodalay olish Abduqayum Yo‘ldosh uslubining yetakchi xususiyatlaridir.

Hikoyani o‘qigan kitobxon o‘yga tolishi tayin. Sababi shuki, ravon hajmli kichkina hikoya bolsa-da, mazmuni boy bo‘lishi bilan birga ta’lim-tarbiya, oila, do‘stlik, urf-odatlardagi muammolarni ko‘tarib chiqqan. Asar dastlab do‘sti tomonidan xiyonat zarbasi bilan yaralangan, ilm-fan yo‘lida o‘zini fido etgan, maqsadiga erishishga bir qadam qolganda orzu - maqsadi ushalmagan, sof vijdonli, ammo hayotda sira baxti kulmagan, matematik domlani bir kunlik baxti va undan keyingi baxtsiz onlari bilan boshlanadi. Yoshi o‘tib borishiga qaramay u hamon formulalar dunyosida yashaydi. Yangilik yaratish ilinjida erta-yu kech fanda ochilmagan sir-sinoatlarni kashf etishga intiladi. Bu orzu, istak, niyat, umid borgan sari maqsadiga aylanib uni butun vujudini qamrab olgan bir paytda, yetti farzandning to‘ng‘ichini oila qurish fursati keldi. Hammasi uylangandan so‘ng boshlandi... Erkak kishi uchun yaxshi ayol dunyoning yarim matosi.

Qahramonimiz orzu qilib yurgan pari qayergadir uchib, o‘rniga noshukur, qanoatsiz, erini tushunishdan yiroq bo‘lgan ayol kelib qoldi. Axir, erni er qiladigan ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin. Taqdir uning ustidan kulganday ayoli ham o‘zi istagandek bo‘lmadi. Bu ushbu jumlada namoyon bo‘lgan:”Adashmasam, agar g‘ij-g‘ij imlo xatolarini tuzatib o‘qisak, “Dushanba xolamning tug‘ilgan kuni. Seshanba dugonamning to‘yi. Chorshanba tushga ammamning uyida “non sindirar”, kechqurun “qiz chaqirdi”… mazmunida edi. Bu ro‘yxat sinoatini so‘radim. Yosh kelin-kuyov sifatida ularning hammasiga borishimiz kerak ekan. Tabiiyki, quruq qo‘l bilan so‘ppayib kirib borilmas, arzirli sovg‘a-salom olish shart ekan. Rafiqam alohida ta’kidlab o‘tdi: –Yosh kelinman. Hammaning ko‘zi menda bo‘ladi. Uyaltirib qo‘ymang. Mening uyalganim – sizning yerga kirib ketganingiz bo‘ladi-ya. Pul masalasi sal og‘irroq bo‘lib turibdi-ku… Rafiqam qovog‘ini uydi: –Bo‘yningizga majburlab osilib olmagandim. Mard bo‘lib uylandingizmi, endi buyog‘igayam chidab

bering-da.” [1: 30-b]. Ma’lumki inson yashashi uchun moddiy ta’minot zarur. Uning fikrlashi uchun esa ma’naviy but bo‘lishi kerak bo‘ladi. Agar bu ikki narsa tugal bo‘lmasa inson hayoti to‘kis bo‘lmaydi. Ya’ni insoni yashashi uchun puli bo‘lsa-yu, ammo ma’naviyati bo‘lmasa, unday insonning oilasi ham o‘zi ham tinch bo‘lmaydi. Lekin, faqat ma’naviyat bilan ham qorin to‘ymaydi. Ulug‘bek Hamdam ta’kidlaganidek, “Insonda moddiy va ma’naviy muvozanat bo‘lishi zarur.” [2: 260-b]. “Pul masalasi sal og‘irroq bo‘lib turibdiku...” jumlasi orqali asar qahramonining muvozanati buzilganiga amin bo‘lamiz. Hikoyadagi “Puankare” gipotezasi asarda maqsad timsoli sifatida ifodalangan bo‘lishiga qaramay, u vijdon ramzini ham anglatgan. Vijdonimizni ko‘plab shartlari mavjud. Shu shartlardan o‘tolsak, hayotimiz so‘ngida odamiylik cho‘qqisini zabt etganimizni his qilamiz. Aksincha bo‘lsa vijdonimizni boy berib qo‘ygan hisoblanamiz.

Milliy g‘oyaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan “komil inson” tushunchasi “Puankare” asarining bosh qahramoni obrazida ko‘z oldimizga gavdalandi. Komil inson haqidagi ta’limot insonning ma’naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy nuqtai nazaridan yetuklik darajasiga ko‘tarilishini ko‘zda tutadi. Komil inson bo‘lib shakllanish uchun insonda vijdon bo‘lmog‘i darkor. Vijdon o‘zi nima? Vijdon – axloqiy tushuncha. Yaxshilik nima- yu, yomonlik nimaligiga javob beradigan ichki ishonch, o‘z xatti-harakatlari uchun axloqiy mas’uliyatni anglash. Axloqiy burchni o‘zida shakllantirish hamda o‘zida uni ado etishni talab qilishdir. Xuddi shu vijdon asar qahramonining oila oldidagi burchini ado etishga undadi. U bir paytlar o‘zi orzu qilgan suluv emas, balki taqdir unga tuhfa etgan yorning ta’na-dashnomlaridan joni halqumiga kelgan bo‘lsa-da uning bir ko‘ngli: “Kostyumni yelkangga il-da, chiq ket. Hammasiga tupur. Dunyo keng”, dedi. Boshqa ko‘ngil: “Sen erkakmisan yo hajiqiz? Tug‘ilajak zurriyotingda nima ayb? Otalik mas’uliyati bormi senda o‘zi? O‘zing tirik bo‘la turib xotiningni yesir, bolangni sag‘ir qilmoqchimisan?” [O‘sha manba: 43-b]. dedi-yu fikridan qaytdi. Ya’ni demoqchimizki, uning vijdoni oila oldidagi nafaqat burchini balki, mas’uliyatni hamda erkaklik vazifasini o‘tashga da’vat etdi. Asar qahramoni “Puankare” gipotezasini shaydosiga aylandi. Avval orzu, so‘ng maqsad

qildi. U gipotezani shunday ta’riflaydi: ”Dunyo paydo bo‘lishidagi murakkab jarayonlarni o‘rganishda hamda olamlar shakli haqidagi savollarga javob berishda o‘ta muhim ahamiyatga egaligi sababli bu gipotezani ba’zan “Koinot formulasi” deb ham atashadi. [O‘sha manba: 15-b]. “U ushbu ilmni mohiyatini ochib berishga urinsa-da, ilmiy rahbari ruxsat bermadi. U o‘z maqsadidan voz kechmadi. Qahramonimizning ushbu yo‘ldagi shaxsiy fazilatlari bizni hayratga solmay qo‘ymadi, albatta. Ayniqsa, mana bu joyi “Men baxtiyor edim. Zero asosiy ishim millimetrma-millimetr, zarrama-zarra oldinga siljiyotgandek edi. Horigan chog‘larim emaklab bo‘lsa ham maqsad sari intilardim, qo‘llarimdan mador ketganida yerni tirnoqlarim bilan kovlab bo‘lsa ham ilgariga siljirdim...” [O‘sha manba: 15-b]. – degan jumladan so‘ng asar qahramoni ilm olish uchun igna bilan quduq qazigan ekan-da deb o‘ylaymiz.

Hayotning har xil makrlariga, aldashlariga chalg‘igan yigit oradan ancha yillar o‘tib ketganini bilmay qoldi. Bu orada bir necha biznes boshlashga harakat qildi ishi yurishmadi.Uning uchun endi faqat maqsadga yetish dunyodan armonsiz o‘tish muhim edi. Qahramoning dunyodan armonsiz o‘tish orzusi ushbu jumlada namoyon bo‘lgan: “Men ham insonman o‘zim uchun o‘zgina yashay, o‘zimning yoshlik orzu-niyatlarim uchun ozgina ishlay. Armon bilan o‘tib ketmay dunyodan!” [O‘sha manba: 54-b]. Ushbu nido orqali asar qahramoni bizni orzu-niyatlarimizni yoshlik chog‘imizda amalga oshirishimizga da’vat etiyabdi. Negaki, yoshlik inson hayotining eng go‘zal davri, kuchga to‘lgan, imkoniyatlar, orzu -umid va rejalarga boy davri. Aynan mana shu davrda amalga oshirgan ishlarimiz kelgusida hayotimizni belgilab beradi. N.Hikmat takidlaganidek: “Yoshlik, bu – orzu. Bu – ishonch jasoratga intilish. Bu lirika va romantika. Bu kelajakka tuzilgan ulkan rejalar. Bu – istiqbolning boshlanishi”. [7: www.ziyouz.com/kutubxona]. She'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiyning ”Mahbub ul-qulub” asarida yigitlik va qarilik davr xususiyatlariga alohida to‘xtaladi:

Ahbob, yigitlik g‘animat tutungiz
O‘zni qariliq mehnatidin qorqutunguz.[8: 115-b.]

Navoiy yigitlik chog‘ini yoshlikni eng go‘zal, zavqli paytlari deya ta’riflaydi. Keksalikni g‘am, dard, zaiflik davri deya baholaydi. U kishilarga murojaat qilib,

yoshlkni qadriga yetishni, uning har bir onini g‘animat bilishni, qarilik azobidan hushyor bo‘lishni ta’kidlaydi

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bu dunyoda har bir insoning puankaresi bor. Inson maqsadsiz yashay olmaydi. Hammaning maqsadi mavjud. Ammo shu maqsadlar turlicha bo‘ladi. Kimdadir katta, kimdadir kichik, kimdadir esa oliy. Hayotda mayda-chuyda yumushlar, chalg‘ituvchi omillar ko‘p. Har bir inson maqsadi sari dadil yurib borarkan, ana shu mayda-chuydaliklar, maishiy muammolar, tiriklik tashvishlari yo‘liga to‘siq bo‘lib, chalg‘itishga urinadi. Agar chalg‘ib, birorta to‘siqni bartaraf qilishga ovora bo‘lib qolsa, albatta, ikkinchisi ham tayyor turgan bo‘ladi. Oqibatda umr o‘tib ketganini bilmay qoladi. Ushbu asardagi nido kitobxonni, insonning umri yakuniga yetib qolmasidan maqsadlarini amalga oshirshga va hayotining eng go‘zal, kuch g‘ayratga to‘lgan davrini g‘animat bilishiga chaqiradi. Aks holda maqsadi armonga aylanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ”Puankare” Abduqayum Yo‘ldosh. – Toshkent: Akademik nashr, 2022;
2. Ulugbek Hamdam “Muvozanat” “Sharq’’ nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati;
3. N.Hikmat Ziyo istagan qalblar uchun! Kutubxona https://www.ziyouz.com/kutubxona;
4. A.Navoiy. ‘’Mahbub ul-qulub’’. MAT.20. tomlik. 14-tom. Toshkent: Fan, 1998.
5. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
6. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
7. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
8. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 168-170.
9. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.
10. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).

“KICHIK HIKOYANING YUKSAK BADIIY DUNYOSI”

Hakimova Farida
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,
Xolmo‘minova Mahliyo Shavkat qizi
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shodmonqul Salomning “Xalaji” hikoyasi tahlilga tortilgan. “Xalaji” hikoyasidagi obrazlar, syujetlar Sobiq Sho‘ro davridagi “Paxta ishi” voqealariga asoslanadi. Shu davr insonlari, ulardagi xarakter, hissiy kechinmalari birgina buyum atrofida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sobiq Sho‘ro davri, Paxta ishi, xalaji, o‘rik daraxti, To‘xtamish chol, Ulash kampir, O‘rol, qadr-qimmat.

Аннотация: Эта статья проанализирована историей Халаджи Шодмонкула Салома. Образы, сюжеты в истории «Халаджи» основаны на события в хлопковой работе в эпоху советского союза.Люди той эпохи, их характер и эмоциональные переживания раскрыты вокруг одного предмета.

Ключевые слова: Бывший советский период, хлопковые работы, халаджи, абрикосовое дерево, старик Тохтамыш, старуха Улаш, Урол, достоинство.

Annotation: This article is analyzed by the story of Khalaji Shodmonkul Salom. The images and plots in the history of “Khaladzhi” are based on events in cotton work during the era of the Soviet Union. The people of that era, their character and emotional experiences, are revealed around a single object.

Keywords: The former Soviet era, Cotton farming, Khalaj, Apricot tree, Toxtamish Chol, Ulash Kampir, Orol, Dignity or Self-worth.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘z ijodi bilan tanilib kelayotgan, Surxon vohasining hikoyanavis, publitsist adibi Shodmonqul Salom boshqa adiblar singari o‘z asarlari bilan kitobxon qalbidan muhim o‘rin egallab bormoqda. Shodmonqul Salom Termiz Davlat Universitetining kimyo fakultetini bitirgan bo‘lsada, uning qalbida adabiyotga tanshalik bor edi. Shu tuyg‘u uni ijod sari yetakladi. Atoqli shoir Eshqobil Shukur Shodmonqul Salomga qarata shunday iliq fikrlar yozgan: “Meni yana bir narsa quvontirdi, sizda o‘lik she’r yo‘q. Har bir she’ringiz bilan gaplashsa,xasratlashsa, kuylashsa bo‘ladi”. U hikoya yozish bilan bir qatorda bir qancha she’rlar ham yozgan. “Kutmoq-yuraklarda tangri kamoli”, “Yurak iqlimi”, “Ko‘ngil kitobi”, “Borligini bilganlar” kabi she’rlari ijodining yorqin namunlaridir.

Sobiq Sho‘ro davr voqealari tasvirlangan “Xalaji” hikoyasi ham chuqur majoziy xarakterga ega. Hikoya nomi kitobxonni o‘ziga jalb qiladi va muhokama qilishga undaydi. “Xalaji hikoya”sida Sobiq Sho‘ro davrida O‘zbekistonning paxta plantatsiyasiga aylantirilishi, o‘z mulkiga, yeriga egalik qilaolmayotgan millatning ayanchli taqdiri, paxtani chigitidan ayirib beradigan oddiy qo‘lbola asbob xalaji atrofida kechgan ta’sirchan voqealar bilan bayon etiladi. Zukko kitobxon asar o‘qish davomida xalajini ko‘hnaligini, ko‘ngilga yaqinligini Oqboy fermer aytgan: “Ko‘hnam qayerda-ko‘nglim shuyerda” jumlalari orqali anglab oladi. To‘xtamish chol yillar davomida hayotini ishga bag‘ishlab topgani bedavo dard. U umrining so‘nggi vaqtlarida shu gaplarni ko‘p takrorlaydigan bo‘lib qolgandi. Kampir dunyoning moliga mehr qo‘yma degich edi otam rahmatlik. Biz uch qiz, bir o‘g‘il o‘stirdik.Yana shu o‘rikni o‘stirdik. Bilmasam nima qildik? “Birgina asardagi shu jumlalar orqali umrining 30 yildan oshig‘ini shu paxta ishi uchun sarflab umri davomida o‘zi uchun hech vaqo qilaolmaganligidan, ichida dardi bo‘lsada sira nolimaydiganday, To‘xtamish bobo obrazi orqali o‘sha davrdagi xalqning dardini, qiynalsada boriga shukr qilgan, umrini boshqa davlatga xomashyo yetkazuvchi bir ishchi kuchi, mashinaday, o‘tkazgan insonlarning holatini ko‘rishimiz mumkin. Yana asar davomida shunday jumlaga ko‘zimiz tushadi, “O‘zi ekkan paxtadan o‘zi foydalanmaydigan dunyoying xalaji”. Bu jumla ortida ulkan majoziy ma’no bor. Sobiq Sho‘ro davrida xalqimiz o‘ziga tegishli bo‘lgan narsalardan foydalanishga qo‘rqganlar hattoki qilgan mehnati tuhmat bo‘lib, qanchadan qancha insonlarning umri zah, quyosh nurlarini ko‘rmay, xazon bo‘lgan

Yuqorida turgan mansabdorlar manfaat olish uchun qilgan tuhmatlari, jirkanch ishlari bilan oddiy xalqning yostig‘ini quritgan.

Jamiyat insonlar uchun qadrli bo‘lgan narsalarga e’tiborsizligi, O‘rol Ulash kampirning eridan qolgan birgina xalajini yer bilan yakson qilgani va kampirning hayotdan ko‘z yumishiga sababchi bo‘lsada o‘zini hech nima bo‘lmagandek tutishidan yaqqol ko‘rinib turibdi. Kampirning yettisi bo‘lmay turib o‘g‘lidan pul olib “plan to‘ldi” deb ko‘nglini xotirjam qilgani bilan nafaqat buyumni balki insonning qadr-

qimmatini ham qiymati yo‘qligini ko‘rsatib bergan. “Plan to‘ldi” bu o‘rinda O‘rol o‘z maqsadiga yetgani paxtani o‘z vaqtida topshirishi kerak bo‘lgan miqdori tushunilsada lekin u uyma-uy yurib kimningdur uyida ozgina paxta ko‘rsa ham o‘g‘irlikda ayblab, qamatish bilan qo‘rqitib, pulini bor yoq narsalarini olgani bilan planiga yetadi xolos. Kampirnig nazarida 10 kelinni ishini qiladigan xalaji asbobi yog‘ochiham qadrli edi.Uni hammadan qizg‘anishi, asrab-avaylashi ham bejiz emas. To‘xtamish chol pavarish qilgan o‘rik daraxti yog‘ochidan tayyorlangan edi. Shu sababli kampirga judayam qadrli. Asardagi “Men xudodan emas, plan to‘lmay qolishidan qo‘rqaman” degan jumlalar orqali kitobxon o‘z shaxsiy manfaati, nafsi yo‘lida jamiyatdagi ayrim insonlarning dunyoga kelishiga sababchi bo‘lgan insonini hattoki allohni tanimay qolish darajasida munofiq bo‘lib ketganligini anglaydi.

Ulash kampirni bir dona sarg‘aygan tishi hech og‘riqsiz til ustiga kelganda aytadiki, tishham odamlarga o‘xshaydi, biri ketsa qolgan unga suyanib turganlariham ketadi, xuddi Cholning o‘zi parvarish qilgan bir tup o‘rik daraxtidek.

Kampirning joni uzilishidan avval nevarasiga yuzlanib shuni iltimos qiladi, Nima edi, “eski tishimni olmidi” shuni ayt. Oqboy g‘o‘ng‘illab boshladi.

-Eki tishimni ol

Yangi tishimni ber

-Yana ayt, -dedi kampir bezovtalik bilan. Yumuq ko‘zlaridan yosh suzardi.

-Aytaber.

-Eski tishimni ol

Yangi tishimni ber

-Eski tishimni ol

Yangi tishimni ber…

Nabirasning shirin tilidan aytilgan bir qo‘shiqdan so‘ng kampirning yuragi taskin topgandek bo‘ldi va shu kechaning o‘zida joni uzuldi.

Sobiq Sho‘ro davrining shavqatsiz tuzumi insonlarning nafaqat ijtimoiy hayotiga balki ongi shuuriga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. O‘rolning yorug‘ dunyoni ko‘rishiga sababchi bo‘lgan, Ulash kampir uni 7 oylikda chala tug‘ilganida, telpakka solib omon

olib qolgandi lekin u kampirning o‘limiga sababchi bo‘ldi. Uning chala deyilishi faqatgina tanasiga nisbatan aytilar, endi esa uning ma’naviy olami ham chala ekanligni anglaymiz.

O‘lim haq. Jonni berguvchiham , olguvchiham yagona Allohdir. Hayotining so‘ngi lahzalarini yashayotganini bilgan insonning ko‘z oldidan jami gunohlari birma-bir o‘tadi. Foniy dunyodagi oxirgi kunida O‘rol bobo iymonga keladi. Oqboydan xalajini aylantirishini so‘raydi xuddi tavba qilgandek.

Asar orqali ijodkor Sobiq Sho‘ro davrida inson qadrining naqadar qiymatsizligi, umrini shu paxta ishiga bag‘ishlab o‘zini, dunyo molini unutib qora terga botib, boriga shukr qilib oxirida yo bedavo dardga yo‘liqqan yo mehnati tuhmat bo‘lib umri zavol bo‘lgan insonlarning ayanchli taqdirlari, jamiyatning naqadar xarob holatda bo‘lganligini ko‘rsatib bergan. Kampir aytganidek bu dunyoda “ko‘ngildan boshqa har narsa eskiradi”. Dunyo mansabi, boyligi o‘tkinchidir.

O‘tmish og‘riq keltirishi mumkin lekin undan qochish emas saboq olish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodmonqul Salomning “Xalaji” hikoyasi
2.Ko‘ngil obidasiga yo‘l. Shodmonqul Salom. -Toshkent “MASHHUR PRESS” nashriyoti-, 2018-240b.
3.Shodmonqul Salomning hayoti va ijodi.
4. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse, 1*(4), 34–37.
5. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 5.
6. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
7. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.

IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANI EPISTOLYAR USLUBNING YORQIN NAMUNASI

Denov tadbirkorlik va pegagogika instituti
o‘qituvchisi Dusmuratov Qahromon Mamadiyevich.

Annatatsiya: Epistolyar uslubda yozilgan asarlar odatda muallif va o‘quvchi o‘rtasida qandaydir bevosita muloqot, yozishmalar orqali hikoya qilishni anglatadi. *“Bonu”*romani ham aynan shu uslubni tanlab, o‘zining ichki konfliktlarini va xarakterlarning ma'naviy holatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: ichki kechinmalar,xat yozishmalar, hissiy portret, shaxsiy izlanishlar psixologik tahlil, munosabatlar, monologlar.

Annotation: Works written in the epistolary style usually mean telling a story through some kind of direct communication, correspondence between the author and the reader. The novel “Bonu” also chooses this method and reveals its internal conflicts and the spiritual states of the characters.

Key words: inner experiences, correspondence, emotional portrait, personal research, psychological, monologues.

Аннотация: Произведения, написанные в эпистолярном стиле, обычно подразумевают рассказывание истории посредством некоторого непосредственного общения, переписки между автором и читателем. Роман «Бону» также выбирает этот метод и раскрывает его внутренние конфликты и душевные состояния героев.

Ключевые слова: внутренние переживания, переписка, эмоциональный портрет, личностные исследования, психологический анализ, отношения, монологи.

Epistolyar uslubda yozilgan asarlar, asosan xat yoki xabarlar shaklida bo‘lgan yozma asarlardir. Ushbu uslubda yozilgan asarlar o‘quvchiga shaxsiy va intim muloqotlar orqali muallifning fikrini yoki voqealarni etkazishni maqsad qiladi.Shoir Iqbol Mirzoning “Bonu” romanini 2016-yilda yozib tugallangan. Roman epistolyar uslubda. Unda Bonuning ko‘rgan- kechirganlari maktublar, yozishmalar shaklida bayon qilingan.

“Bonu” romani o‘zining chuqur psixologik tahlili, ijtimoiy masalalar va insoniy qadriyatlarni ko‘tarishi bilan ajralib turadi. Ushbu asar, hayotning murakkabligi va insonning o‘zining ichki dunyosiga qilingan sayohatni tasvirlashda epistolyar uslubning kuchini to‘liq namoyon etadi. Bonuning hayoti, uning shaxsiy qarshiliklari va kurashlari o‘quvchini o‘zining ichki qalbiga sayohatga chiqaradi. Bonu asarda

o‘zining ayollik sha'ni, matonati, jasorati va sabri bilan ajralib turadi. U ko‘plab iztiroblar, sinovlar va hayotdagi qiyinchiliklarga duch keladi, ammo uning ruhiy kuchi va sabr-toqati, hatto eng qorong‘i davrlarda ham, unga yashashga va qarshilik ko‘rsatishga imkon beradi. Bonu — bu nafaqat ayol, balki insonning o‘z orzulari, umidlari va muhabbatiga sadoqatini saqlagan qahramon. Uning taqdiri ko‘p o‘quvchilarga ilhom manbai bo‘ladi, chunki u hayotning barcha shiddatini boshidan kechirsa-da, o‘zini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ladi. Bonuning hikoyasida eng ko‘zga tashlanadigan mavzular — sevgi, ishq va vafodir. Bu tuyg‘ular uni eng og‘ir davrlarda ham kuchga to‘ldirib, uni hayotga bo‘lgan ishtiyoq bilan yanada mustahkamladi. Huvaydo boboning o‘gitlari, Shoira opaning mehribonligi, va boshqa ijobiy obrazlar Bonuning yengilmas ruhini kuchaytiradi. Uning hayotidagi eng qiyin pallalarda, atrofidagi odamlarning mehr va qo‘llab-quvvatlashi unga hayotda davom etish uchun kuch beradi. Romanda hayotning zarbalari va ularni yengishga qaratilgan kurashning tasvirlari juda ta'sirli. Bonu o‘zining shaxsiy muammolari bilan kurashda, nafaqat o‘zini, balki atrofidagi insonlarni ham qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, Shoira opa, uning hayotidagi farishtaga o‘xshagan odam bo‘lib, Bonu uchun katta tayanch bo‘ladi. Shoira opaning barcha qiyinchiliklarga qaramay, halol hayot kechirishga intilishi va uning yordamiga kelishi, asar ichidagi insoniylik va yuksak qadriyatlarning ramzi sifatida o‘rin olgan. Dilbar obrazining salbiyligini esa tahlil qilish qiziqarli, chunki u ayollik sha'nini umuman qadrlamaydi, balki boshqalarning hayotiga aralashib, ularni to‘g‘ri yo‘ldan adashtirishga urinishadi. Ularning aksiyalari orqali asarda ayollarning ijtimoiy ahvoli, jamiyatdagi ta'sir va o‘zgarishlar masalalari ochiladi. “Bonu” asarida ta'lim tizimining holati ham alohida ta'kidlanadi. Maktabda ishlagan Bonu o‘qituvchilar va direktorlarning yangiliklarga befarqligi va ta'limning siymosizligi haqida qayg‘ularni ifodalaydi. Bu, o‘z navbatida, adabiyot va ilmga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi, shuningdek, yoshlarning bilimga intilishi va o‘zini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. “Tanangda og‘riq his etsang, demakki sen tirik jonsan, O‘zgalar og‘rigin sezsang demakki, sen insonsan, insonsan!” [Iqbol Mirzo “Bonu” 278 bet, Sharq nashriyoti 2018] — Bu parchadagi fikr Bonuning barcha hayotini, uning ichki kurashlarini va

o‘zining boshqalarga bo‘lgan mehrini aks ettiradi. Agar inson boshqalarning dardini his qilsa, demak, u haqiqatan ham insonga aylangan, degan g‘oya asar davomida o‘quvchiga uzluksiz tarqatiladi. Huvaydo boboning g‘azallari asarda o‘ziga xos ma’noga ega. Bonu uchun bu g‘azallar nafaqat bobosining o‘gitlarini eslatadi, balki uning hayotiga umid va kuch bag‘ishlaydi. Bu g‘azallarni o‘qish Bonuga tasavvur qilish imkoniyatini beradi, unda qiyinchiliklarga qarshi kurashish va hayotga qayta tiklanish uchun kerakli kuchni topadi. Shuningdek, Huvaydo boboning hikmatlari Bonuga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, uning hayotdagi maqsadlarini anglashiga yordam beradi,

“Bonu” — bu o‘z taqdiri bilan kurashayotgan, o‘zining ichki dunyosini kashf etayotgan va sevgisi uchun iztiroblar chekishni davom ettirayotgan bir ayolning hikoyasi. Asarda ko‘tarilgan ijtimoiy, ma’naviy va shaxsiy masalalar orqali o‘quvchi nafaqat bosh qahramonning hayotini, balki insonning o‘zligi, uning sabri, matonati va muhabbatga sodiqligini his etadi. Iqbol Mirzo bu asari orqali insoniy qadriyatlar, hayotning murakkabligi va go‘zalligini mukammal tarzda tasvirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iqbol Mirzo “Bonu” 278 bet, Sharq nashriyoti 2018
2. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1979. 444 б.

“DONISHMAND SIZIF” ROMANIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR TALQINI

Aliyeva Dilshoda, TerDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada romanning turlari qatorida rivojlanayotgan roman-mif haqidagi qarashlar ilgari surilgan, mifopoetik qarashlar ildiziga nazar solingan. Roman mif na’munasi sifatida X.Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif” romani tahlilga tortildi, Sizif obrazlar genezisi atroflicha o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Roman, roman-mif, mif, poetika, mifopoetika, Sizif, Sizif mehnati, obraz, majoz, sayyor sujet, ramz.

Аннотация: В статье выдвигаются представления о романе-мифе, развивающиеся среди типов романа, и рассматриваются корни мифопоэтических представлений. В качестве примера романного мифа проанализирован роман Х.Достмухаммада «Мудрый Сизиф», подробно изучен генезис сизифовых персонажей.

Ключевые слова: Роман, роман-миф, миф, поэтика, мифопоэтика, Сизиф, труд Сизифа, образ, метафора, подвижный субъект, символ.

Annotation: The article puts forward views on the evolving novel-myth among the types of novels, looks at the roots of mythopoetic views. As an example of a novel-myth, H. Dostmuhammad's novel "The Wise Sisyphus" was analyzed, the genesis of Sisyphus's images was studied in detail.

Key words: Novel, novel-myth, myth, poetics, mythopoetics, Sisyphus, Sisyphus labor, image, metaphor, planetary subject, symbol.

Roman janri millat badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasini namoyon etadi. Roman janriga xos belgilarni tayin etish borasida o‘zbek adabiyotshunosligida ham ancha ishlar qilingan. Agar dastlabki tadqiqotlarda hajmning kattaligi va mavzu janrining asosiy belgilari sifatida qaralgan bo‘lsa, keyinchalik romanning mohiyati o‘zga unsurlardan ham qidirila boshlandi. Chunonchi, adabiyotshunos professor Dilmurod Quronov: “asarda qo‘yilgan muammolar ko‘lami janr xususiyatlarini belgilovchi unsur sifatida olinishi mumkin. Bu jihatdan roman dunyo-yu davrni bilish maqsadiga qaratilgan bo‘lsa, qissa markazida qahramon xarakteri, hikoyada esa konkret hayotiy voqea turadi… Ko‘ramizki, roman, qissa, hikoya janrlariga mansub asar qahramonlari asarda tutgan mavqei, ahamiyati, vazifasi jihatidan farqlanadi. Roman muallifi uchun qahramon vosita – dunyoni anglash (bunisi maqsad) vositasi, qissanavis uchun qahramonning o‘zi maqsad (voqea-hodisalar vosita), hikoyanavis uchun voqeaning o‘zi maqsad bo‘lib qoladi”.104 Olimning roman dunyo-yu davrni

bilish maqsadida yaratiladi va uning qahramoni ana shu jarayonning vositasi degan fikri ayniqsa o‘rinlidir. Hozirgi kitobxon uslubiy-kompozitsion voqeabandlik, an’anaviy syujet tuzilishi va izchil tahlil, tasvirning maksimal aniqligidan ko‘ra borliq ijodkor qalb prizmasidan o‘tkazilib hissiy qabul qilingan, fikr-tuyg‘ular tasvirida zamon va makon kengligi, muammolar gormoniyasi aks etgan asarlarga ko‘proq qiziqmoqda.

Adabiyotshunos H.Boltaboevning yozishicha: «Bu uslubiy hodisaning ildizlari Sharq adabiyotining qadimgi lirizmga boyligi, yuksak romantik talqinda aks ettirilgan xalq ijodi namunalari va boshqalarga borib taqaladi».[Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992. 15 б-бет 265]

Bu fikrga qo‘shimcha ravishda, o‘zbek kitobxoni badiiy didiga G‘arb va jahon adabiyotidagi tajribalarning ta’sir etishi ham muayyan rol o‘ynamoqda, deb ta’kidlagan bo‘lar edik. Aksariyat adiblar romanlarda og‘zaki adabiyot an’analari afsona, rivoyat, ertaklarga xos jihatlardan, shartli usul va vositalardan unumli foydalanmoqdalar. Badiiy tasvir tizimidagi shartli obrazlilik, majoz va ramz vositalaridan foydalanib yozuvchi niyatining badiiy asarga ko‘chirilishi muhim uslubiy belgidir. Zamonaviy mavzuga bag‘ishlangan romanlarda bunday shayton va inson munosabatlarining tasvirlanishi asar syujet qurilishiga afsona va rivoyatlarning olib kirilishi bilan bog‘liqdir. Noreal voqealarning bayon etilishi va folklor motivlarining qo‘llanilishi bevosita muallif nutqi orqali ham asarga kiritilishi mumkin. Jumladan, Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” romanidagi Odam Ato va Momo Havoning taqdiri to‘g‘risidagi afsona-mif muallif nutqi orqali asarga singdirilib boriladi. Bu afsona asarning kompozitsion qurilishida muayyan o‘rin tutib, qahramonlar hayoti va taqdiriga qiyosan falsafiy mohiyat kasb etadi. Tahlil qilingan zamonaviy romanda biz mif elementlari salmog‘ining oshganligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Asar poetikasini tahlilga tortganda mifopoetika elementlari nuqtayi nazaridan yondashishimiz lozim. Ammo so‘nggi yillarda shunday romanlar ham yaratilyapdiki, bunday romanlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri roman-mif deyishimiz mumkin. X.Do’stmuhammadning “Donishmand Sizif” romanini aynan ana shunday asarlardan biridir. Asarni “roman-mif” deyishga badiiy voqelikning genezisi, epik sujet va

motivlar silsilasining shakllanish yo‘sinlari hamda obrazlar tizimi asos bo’lgan. Roman yunon folklor sujet tizimiga mansub “Sizif mehnati”, “Sizif toshi” haqidagi epik sujetning o’zbek romani doirasiga transformatsiyalanish jarayoni natijasida yaratilgan. Bu romanda kutilmagan voqealar, antiqa holatlar, g‘aroyib obrazlar o‘ziga xos shakllarda, ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bir qarashda ulardagi voqealar bizning hayotimizga xos emasdek, qahramonlar, obrazlar bizga notanishdek, ularning xatti-harakatlari ajabtovurdek taassurot uyg‘otadi.

Yunon afsonalariga qayta-qayta murojaat qildi hamda afsonalarga tayangan holda mutlaqo yangicha poetik tahlil va tadqiq qilishga qo‘l urib, “Donishmand Sizif” nomli roman yaratdi. Romanda adib milliy folklor, mumtoz adabiyot an’analari, jahon adabiyoti badiiy ifoda usullaridan keng foydalandi. Bu tasvir usullarining barchasida sharqona e’tiqodiy asoslarni inobatga oldi. Ma’lumki, yunon dramaturglari Gomer, Esxil, Sofokl, Yevripid asarlarida Sizif obrazi tasvirlangan. Ammo ular bizgacha saqlanib qolmaganligi tufayli ma’lumotga ega emasmiz. Yangi davr adabiyotida Sizif obraziga qiziqishlar ortdi. Nasrda A.Kamyu, F.Merl va tasviriy san’atda Titsian o‘z asarlarida bu obrazga murojaat qildi.106 Yunon afsonalarida Zevs oliy xudo, barcha xudolar va odamlar hukmdori sifatida talqin qilinadi. U Kronos va Reyaning o‘g’li bo‘lib, afsonaviy mabudlarning uchinchi avlodiga mansub. Zevs Tartarda otasi va ko‘plab titanlarni yengib, Olimp tog’ida hukmronlikni o‘z qo‘liga oladi. Shundan so‘ng butun olamni qayta tuzishga kirishadi. Yunon mifologiyasida shamol mabudi Eolning o‘g’li sifatida tilga olingan Sizif (Sisif lotincha Sisyphus)-bunyodkor shaxs. U toshlardan Korinf shahrini qurib, unga o‘zi shohlik qilgan. Vafotidan so‘ng, yer osti zulmat dunyosi- Aidga surgun qilinib, mashaqqatli mehnatga mahkum etilgan. Ilohiy hukmga ko‘ra Sizif og’ir xarsangtoshni dumalatib tog’ tepasiga chiqarishi lozim edi. Biroq har gal cho‘qqiga yetay deganida, yumaloq xarsang pastga yumalab ketaveradi. Mavjud talqinlarga ko‘ra, Sizif g’oyatda og’ir, tuganmas va mutlaqo besamar yumush, ya’ni tuganmas azob-uqubatga giriftor etilgan. Shu boisdan, “Sizif mehnati”, “Sizif toshi” iborasi ko‘pincha mashaqqatli ish va azob-uqubatni anglatadi. Sizif nima uchun bunday azobga mahkum etilgani sababi haqida miflarning turli xil versiyalari saqlanib

qolgan. Ularning ayrimlarida Sizif mabudlar sirini oshkor qilib qo‘ygani aytiladi. X.Do‘stmuhammad romanda shu versiyaga asoslangan. Ya’ni u Olimp mabudlari, xususan Zevsning Sizifga bo‘lgan munosabatini dialogik yo‘sinda aks ettirgan. Shuningdek, Qadimgi yunon rivoyatlarida Sizif dumaloq toshni tog‘ cho‘qqisiga olib chiqishga intilgan inson sifatida tasvirlanadi. Lekin u harchand urinmasin toshni cho‘qqiga olib chiqolmaydi. Rivoyatga ko‘ra, toshni cho‘qqiga olib chiqishga urinishning o‘zi bema’nilikdir. Yozuvchi xuddi ana shu holatni asari asosiga oladi. Sizifning tosh dumalatishdek be’mani harakatlaridan ma’ni topishga urinadi. Asar qahramoni Sizif har gal pastga qulagan toshni cho‘qqi tomon qayta olib chiqar ekan, hayotning mohiyatini yangicha inkishof etadi, idrok qiladi, insonning insoniylik qudratini anglaydi. Shu tariqa oddiy Sizifdan donishmand Sizifga aylanadi. “So‘zlash – o‘tib borayotgan hozirning sharpalari bo‘lsa, sukut – boqiylik, mangulik timsoliga aylanardi uning nazarida. Bamisoli gap sotsa – hozir bilan, sukut saqlasa – abadiyat bilan muloqotga kirishayotgandek sezardi o‘zini Sizif. Mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, X.Do‘stmuhammadning Sizif obrazi o‘zigacha bo‘lgan Sizif obrazlaridan farq qiladi. Gomer Sizif obrazini tasvirlaganda unda ayyorlik, munofiqlik sifatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi, ya’ni uni ramzan “Ayyor Sizif” deyishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 59. 41
2. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. –Тошкент: Фан, 1992. 15 б-бет 265
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.- Toshkent: O‘zbekiston ME, 7-jild, 2004.- B.60
4. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
5. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 168-170.
6. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
7. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
8. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, *46*(1), 67–69.

KRISTOFER POL KERTIS ASARLARINING BADIIY TAHLILI: MILLIY KOLORIT VA FALSAFIY YONDASHUV

Qodirjonova Iqbola Bahodir qizi
O‘zDJTU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kristofer Pol Kertis asarlari Milliy va falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Kertis Afro-Amerika tarixi va madaniyatining murakkab jihatlarini aks ettirgan holda, kitobxonlarni ijtimoiy tengsizlik, irqchilik, hamda inson huquqlari masalalari bilan tanishtiradi. Maqolada Kertis asarlarida milliy kolorit va falsafiy mushohada orqali aks etgan birdamlik, sabr-toqat va o‘zlikni kashf etish kabi tushunchalarni yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Afro-Amerika adabiyoti, bolalar adabiyoti, madaniyat, tenglik, irqchilik, iqtisodiy tanazzul, madaniy bo‘shliq, inson huquqlari, falsafiy qarashlar.

Annotation: This article analyzes the works of Christopher Paul Curtis from both a national and philosophical perspective. Curtis, reflecting the complex aspects of Afro-American history and culture, introduces readers to social inequality, racism, and human rights issues. The article focuses on the themes of unity, patience, and self-discovery, which are reflected in Curtis's works through national color and philosophical contemplation.

Keywords: Afro-American literature, children's literature, culture, equality, racism, economic decline, cultural void, human rights, philosophical views.

Аннотация: В данной статье анализируются произведения Кристофера Пола Кертиса с национальной и философской точки зрения. Кертис, отражая сложные аспекты афро-американской истории и культуры, знакомит читателей с проблемами социальной неравенства, расизма и прав человека. Статья освещает такие понятия, как единство, терпимость и самопознание, которые проявляются в произведениях Кертиса через национальную окраску и философские размышления.

Ключевые слова: Афро-американская литература, детская литература, культура, равенство, расизм, экономический упадок, культурный вакуум, права человека, философские взгляды.

“Badiiy asar odamning odam haqidagi hikoyasidir”, deydi Chingiz Aytmatov. [5:22] Chindan ham ijodkorlar o‘z asarlarida asosan insonning ichki dunyosi, ruhiy holati, kechinmalari va qarorlaridan kelib chiqqan natijalari va boshqa insonlar bilan munosabatlarini qog‘ozga tushiradilar. Kristofer Pol Kertis ham bir tomondan muayyan voqea yoki hodisani tasvirlasa-da, boshqa tomondan u insonlarga xos muammolarni, ularning orzu-umidlarini, sevgi yoki nafratini aks ettiradi. Uning

asarlari Amerika bolalar adabiyotida alohida o‘rin egallab, asosan, afro-amerikaliklar, ularning tarixi, ijtimoiy muammolar, tengsizlik, irqchilik, inson huquqlari, bolalar dunyosi va ularning shaxs sifatida rivojlanishi kabi mavzularni yoritadi. Kertis ko‘pincha yosh kitobxonlar uchun yozadi, ammo uning asarlari kattalar orasida ham ma’lum va mashxur.

Kertisning asarlarida bolalar va o‘smirlarning hayotiy muammolari va ruhiyatini chuqur aks ettirish orqali bolalarning kattalar dunyosiga kirib borishi, shaxs sifaida kamol topishi va o‘zini anglash jarayoni aks ettiriladi. Bolalar murakkab vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi, ongi va xarakteridagi o‘zgarishlarni kuzatadi. Masalan, “The Watsons Go to Birmingham-1963” (“Uotsonlar Birmingemga yo‘l oldilar”) asarida Uotsonlar oilasining irqchilik va tengsizlik muammolari bilan yuzlashgan AQShning janubiy shtatlariga safari haqida hikoya qiladi. [1] Ushbu asarda milliy rangbaranglik va insoniy qadriyatlar masalasi ko‘tariladi. XX asr 60-yillar Amerikaning janubidagi irqchilik kurashlari va uning ta’siridagi Afro-Amerikaning madaniy jihatdan o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Asar qahramonlari-Uotsonkar oilasi AQSh shimolidagi Michigan shtatidan Birmingamga yo‘l oladi va bu orqali Amerikaning shimoliy va janubiy hududlaridagi ijdimoiy, madaniy va iqtisodiy tafovutlar ochib beriladi. Shimolda irqiy tengsizlik, hurofot yashirin ko‘rinishda bo‘lsa, janubiy shtatlarda ochiq oydin namoyon bo‘ladi. Ushbu sayohat orqali o‘quvchilar o‘sha davrdagi afro-amerikaliklarning tenglik va tinchlik uchun kurashlari haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Milliy koloritni ifodalash uchun Kertis o‘z ijodida oddiy hayotiy voqealardan foydalanadi va bu orqali ma’lum bir davr atmosferasini aniq tasvirlay oladi. “Asl san’at oddiy va kundalik ashyolarga shunday ma’no yuklay oladiki, natijada o‘sha tasvirlangan mazmun tarixiy mazmun kasb etadi”. Birmingemdagi iqchilik va adolatsizlikni kitobxonlar o‘z davrdagi odatiydek ko‘ringan voqea-16-iyun cherkovdagi portlash orqali his qila oladilar. Bu voqea asardagi qahramon bolalar ruhiyatiga kuchli ta’sir qilishi ham davr voqealiklari va adolatsizlikning bolalar ongida qanday iz qoldirishi mumkinligi, buning salbiy va ijobiy tomonlari yoritib beriladi. Cherkovdagi portlash voqeasi Kenni uchun hayotda birinchi marta o‘lim va shafqatsizlik bilan to‘qnashuv bo‘ladi va uning

dunyoqarashini tubdan o‘zgartiradi. Bu unga nafaqat adolatsizlik va kamsitish, balki haqiqiy xavf va zo‘ravonlikning ham namoyon bo‘lishi edi. Kenni oldinlari dunyoni bolalarga xos sof nigoh bilan ko‘rgan bo‘sa, ushbu mash’um voqeadan so‘ng uni kuchli qo‘rquv, xavotir va tushkunlik qamrab oladi. Chunki u begunoh bolalrning sababsiz halok bo‘lganini o‘z ko‘zi bilan guvohi bo‘ladi, kattalar olamidagi shavfqatsizlik, yovuzlik va nafratni his qiladi. U hech kim bilan gaplashmay, qattiq depressiyaga tushib qoladi, ammo oilasinig qo‘llab quvvatlashi bilan ruhiy yaralariga malham topadi. Kenni endi his tuyg‘ularini oilasi bilan bo‘lishishni, dunyoga kattalardek qarashni, hayotdagi qiyinchilik va adolatsizliklarni qabul qilishni o‘rganadi, ruhiy va hissiy o‘sib, o‘zini anglaydi.

Kertisning yana bir asari “Elijah of Buxton” (“Bukstonlik Iliya”) da afro-amerikaliklarning uzoq davom etgan azob-uqubatlari va ozodlikka intilishlari tasvirlanadi.[2] XIX asrda Kanadadagi Bukston qishlog‘ida, ozod qilingan afro-amerikalik qullar jamoasida yashagan Iliya Frimen (Elijah Freeman) ismli bolaning hayoti va o‘zini anglash jarayonida o‘z xalqining azob-uqubatlarini yashab o‘tishi va his qilishi jarayoni asarda aks ettiriladi. XIX asr o‘rtalari AQShda qullik va ozodlik uchun kurash avjiga chiqqan, Bukston qishlog‘i esa ozod qilingan qullar va uning avlodlari yashayotgan joy bo‘lib, bu jamoa qullikdan qochgan afro-amerikaliklar uchun xavfsizlik va erkinlik ramzi hisoblanadi. Kertis Bukstonda yashagan insonlar jamoasi orqali qullikdan ozodlikka erishgan afro-amerikaliklarning hayotini va ular saqlab qolgan madaniy qadriyatlarni tasvirlaydi.. Iliyaning qullikka asr tushgan yaqinlarini ozod qilishga urunishlari o‘z xalqining azob va mashaqqatlarini chuqurroq his qilishga undaydi. Bu voqealar unga insoniyatning qadr-qimmatini tushunishga, adolat va insoniylikning asl bahosi va hayotdagi o‘rnini anglab yetishiga imkon beradi. San’atning betakror mohiyati ham shundaki, u aynan shu davrdagi odamlar ong – shuurini, hayot nafasi va jamiyat ehtiyojlarini tasvirlanayotgan mazmunga singdirib yuboradi, natijada o`sha ifoda obyekti barcha xalqlar va elatlarning nazarini tortadigan e’tiborini qozonadigan mohiyati bilan umumbashariy qadriyat maqomiga ega bo`ladi.[4:16]

Qisqa qilib aytganda, Kristofer Pol Kertisning asarlari o‘zida falsafiy va ma’naviy jihatlarni birlashtirgan holda, o‘quvchini inson ruhining chuqur qatlamlariga va Amerika tarixining murakkab davrlariga sayohat qildiradi. Uning asarlari kattalar uchun ham bolalar uchun ham o‘zini anglash, kashf etishga yordam beradi. Kertis o‘z hikoyalari orqali o‘quvchilarga inson qadr-qimmati, adolat, tenglik va birdamlik kabi tushunchalarning asl mohiyatini ochib beradi. Rus munaqqidi Frindler aytganidek, har qanday adabiy asar, san’atkor ijodiy faoliyatining ruhiy olami, insoniyat tarixi, moziyi va kelajagi bilan keng tizimlararo aloqalantirilgan tutashuvi asosida yuzaga keladi, ayni paytda, hamkorlik hamda o‘zaro munosabatning aniq murakkab yaxlitligini shakllantiradi.[3:175] Chindan ham milliy-madaniy, g‘oyaviy-falsafiy betakrorlik va o‘ziga xoslik Kertisning ijod falsafasi mazmunini tayin etish bilan birga yozuvchining badiiy izlanishlari, hayotiy tajribalari va kechmishlari tabiatini ham ko‘rsatib bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Curtis Ch. P. Elijah of Buxton. Delacorte Press, 2007.
2. Curtis Ch. P. The Watsons Go to Birmingham—1963. Delacorte Press, 1995.
3. Ibodullayeva Q.R. BADIIY MATNDA RUHIY KECHINMA VA OBRAZLILIK // Academic research in educational sciences. №10. 2023.-B. 168-175.
4. N.Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot –Toshkent: “Fan”, 2012. -B.15-27.
5. Yakubov.I, Omanova M.A. Badiiy tahlil asoslari. O‘quv-uslubiy majmua. Toshkent: Nizomiy nomidagi Davlat Pedagogika Universiteti, 2020, -B.22

“MALLA SAVDOGAR” DOSTONIDA TUT DARAXTI GENEZISI VA UNDA IFODALANGAN EZGULIK RAMZI

Achilova Zuxra Qurbonovna
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya: Umumturkiy dostonlardan biri Go‘ro‘g‘li dostoni turkumlanishi bilan farqlanadi, shuningdek, baxshilar tomonidan kuylangan dostonlar turkumi variantlarini sayqallanib borishi, syujetlarni boyitilishi, bayon etilayotgan voqealarning genezisi, hatto manzaralar chizgisining timsollar ruhiyati bilan uyg‘unligi, tuyg‘ularning sinovlardagi kechinmasi va hokozolar baland pardalarda kuylanganini ko‘ramiz. Jumladan, O‘zbekistonning janubiy vohasi Qashqadaryo va Surxandaryo baxshilari tomonidan mohirona ijro etilgan Go‘ro‘g‘li turkumiga kiruvchi “Malla savdogar” dostoni tadqiq etilishga molik yuksak badiyatdir.

Maqolada Malla savdogar dostonidagi Nuralixon va tut daraxti bilan bog‘liq syujet tanlab olingan. Nuralixonni og‘riqli kechinmalari va tut daraxti haqidagi mifologik genezis haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘z: Go‘ro‘g‘li turkumidagi Malla savdogar dostoni, Chorshanbe Rahmatullayev varianti, Nuralixon va tut daraxti syujeti, Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Termiziy hadislari va rivoyati, Nosuriddin Burxoniddin Rabg‘uziy qissasidagi tut daraxti bilan bog‘liq genezis hikoyat, hozirgi o‘zbek she’riyatida tut daraxti obrazini ifodasi.

Аннотация. Один из общетурецких эпосов, эпос "Горогли", отличается своей классификацией, а также уточнением вариантов серии эпосов, исполняемых бахши, обогащением сюжетов, генезисом рассказываемых событий и даже гармонией линий пейзажа с окружающим миром. дух персонажей, переживание эмоций в испытаниях - и мы видим хокозо, исполняемые на высоких занавесях. В частности, сага "Малла-купец", принадлежащая к серии "Горогли", мастерски исполненная бахшами Кашкадарьи и Сурхандарьи южного оазиса Узбекистана, является высоким искусством, достойным исследования.

В статье выбран сюжет, связанный с Нур али-ханом и тутовым деревом из эпоса о торговце Малле. Обсуждаются болезненные переживания Нурали-хана и мифологический генезис тутового дерева.

Ключевые слова: Сага о торговце Малла из цикла "Горогли", версия Чоршанбе Рахматуллаева, сюжет о Нуралихане и тутовом дереве, Имам Бухари, Имам Муслим, хадисы и повествования имама Термизи, рассказ Насуриддина Бурханиддина Рабгузи о происхождении тутового дерева, современное воплощение образа тутового дерева в узбекской поэзии.

Abstract. One of the all-Turkish epics, the Gorogli epic, is distinguished by its classification, as well as the refinement of the variants of the series of epics sung by the Bakhshis, the enrichment of plots, the genesis of the events being told, even the harmony of the line of the scenery with the spirit of the characters, the experience of emotions in trials and we see hokozos sung on high curtains. In particular, the saga "Malla the merchant" belonging to the Gorogli series, skillfully performed by the Bakhshis of Kashkadarya and Surkhandarya of the southern oasis of Uzbekistan, is a high art worthy of research.

In the article, a plot related to Nuralikhan and the mulberry tree from Malla the merchant's epic is selected. Nurali Khan's painful experiences and the mythological genesis of the mulberry tree are discussed.

Keywords: Malla merchant saga from the Gorogli series, Chorshanbe Rahmatullayev's version, Nuralikhan and the mulberry tree plot, Imam Bukhari, Imam Muslim, Imam Termizi's hadiths and narration, Nasuriddin Burkhaniddin Rabguzi's story about the genesis of the mulberry tree, current expression of the image of the mulberry tree in Uzbek poetry.

Insoniyat ma'naviy ibtidosi so'z. So'zga ehtiyojlik, tafakkur etishga, so'zni san'atkorona qo'llashga bo'lgan ishtiyoq ilk davrlarda xalq og'zaki ijodini yuzaga kelishiga turtki bo'lgani moziydan aniq. Ayniqsa, og'zaki ijodning yirik janrlaridan sanalgan dostonlarda inson fitrati va qalbining uyg'un quri, suxanlikning quvvayi hofizasi tiniq namoyon bo'ladi.

Go'ro'g'li dostoni tarmoqli turkumlar bilan boshqa dostonlardan farqalanadi. Go'ro'g'li bilan bog'liq sulolaning shajaraviy qismati turkumlar variantida badiyatning uslibiy xususiyatlari bilan boyitilib boriladi va o'qirmanga bir olam so'z nafostini zavqini berish bilan birga, doston voqealari mushohadaga undaydi.

"Malla savdogar" dostoni "Nuralixon" dostoni turkumini yuzaga keluvchi debocha vazifasini o'taydi. Dostonda Go'ro'glining tog'asi Ahmad vazirni kirdikorlari tufayli Nuralixonning onasi va opasi bilan birgalikda azob chekishi badiiyiiylikning baxshiyona uslubida ta'sirli ifodalangan.

Nuralixonning tut daraxti bilan bog'liq minnatdorlik hissi aks etgan syujet mavjud. Ana shu tasvirni ochiqlamoq uchun, avvalo, ildizi tuproq bilan bog'langan dataxt haqida izlanmalar izmiga tushamiz.

Zaminga bo‘lgan e’tiqod tufayli inson shuurida tabiat hodisalardan xulosa chiqarish yoki ilohiyot haqidagi ilk e’tiqodiy ko‘rinishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Inson farzandi tabiatni o‘ziga hamnafas, qismatdosh sifatida ham tasavvur etgani xalq og‘zaki ijodida ko‘p uchraydi.

Yer yuzidagi har bir xalqning daraxtga bo‘lgan munosbatini ifodalovchi mifologik qarashlar mavjud. Azaldan daraxtga e’zoz ko‘rsatish tushunchalari nainki asotirlarda, balki diniy va ilmiy jihatdan ko ‘plab manbalar borligi aniq.

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Rasulloh sollalohu alayhi va salam : “Agar qiyomat boshlansa va biringizning qo‘lida ko‘chat bo ‘lsa, qiyomat qoim bo ‘lmasdan uni ekishga ulgursa, ekib qolsin” , deganlar (Imom Buxoriy “Al-adab al-mufrad” da) Hadisning ma’nosi keng.

Qarang, qiyomat bo‘lishi aniq, ekilayotgan nihol meva berishi tugul, ko‘karishi amrimahol. Lekin ezgu va savobli ishni to‘xtatmaslik kerak. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam borliqqa jonli-jonsiz tabiatga g‘amxo‘r bo‘lishni, jumladan, daraxt ekib, bog‘ yaratishni ta’lim berganlar. Anas Molikdan rivoyat qilingan hadisda: “Qaysi bir musulmon bir ko‘chat eksa yoki ekin-tikin qilsa, undan qushmi, insonmi, haymonmi yesa, albatta, uning uchun bundan sadaqa hosil bo‘ladi”, deyiladi. (Imom Buxoriy, Imom Muslim va Imom Termiziy rivoyati).

[1.30-31-b.]

Din ulamolari hadislarga tayangan holda, dunyoda har bir muhim narsani yaralishi bilan bog‘liq kunlar bo‘lib, hafta kunlarida nimalar yaralganligi aytib o‘tishgan, aynan daraxtni dushanba kunida yaralganligi haqida aytiladi. Shu o‘rinda esaltib o‘tish joizki, o‘zbek xalqini daraxt bilan bog‘liq bir odati mavjud. Ya’ni xonadonda o‘g‘il farzand tug‘ilsa, usha kundan ulg‘ayib uy qurganda yaraydigan terak, tol va hokozo, shuningdek, rizqli bo‘lsin deb turli mevali daraxt nihollarini o‘tqazilgan. Chorshanbi baxshi Rahmatullayev kuylagan “Malla savdogar” dostonida Nuralixon bilan tut daraxti syujeti bor. Bu syujet voqeasida otasi Avazxon tufayli qullikdan ozod bo‘lgan Nuralixon, Chambilga yo‘l olishdan avval uning yodiga mol boqib yurganida tog‘ bag‘ridagi yakka tut daraxtini esga olib, uni qo‘msaydi.

U “Shu tutni bir ziyorat qilib xayrlashib ketayin” - deb tut tomon yuradi. Zang tog‘ining bir irmog‘ida o‘sgan bu tut ko‘p yillardan beri yashnab, quloch yozib yotar edi. Nurali buning soyasida yotib uxlab, tutlaridan qoqib yer edi. Tut qishloqdan juda uzoq tog‘ bag‘rida savlat solib o‘sib turardi. Nurali bu tutdan ko‘p foyda ko‘rgan. Bu tut daraxti mamlakatlarda elma-el yurib , savdo-sotiq qiluvchi savdogarlarning ham sevimli daraxti edi. Bahor, yoz, kuz oylari o‘tgan yo‘lovchilar ulkan tut tagida tushib, dam olib, salqinlab o‘tar edi. Nurali ba’zi paytlarda ularning huzuriga kelib, non tilab olib yer edi. Rahmdil savdogarlar unga pishirgan turli ovqatidan berar edi. Shul tufayli tutni Nurxon yakka tut demay, ona tut deb, har doim aylanib borganda dili yayrab, qorni to‘yib qaytar edi.

Nuralixon tutga bo ‘lgan minnatdorchiligini shunda ifodalaydi:

Bag‘ringda sayratib turli qushingdi,
Soya sob mehmonga egding boshingdi,
To‘yib yedim, mayiz, kishmishingdi,
Ardoqlading adashgan g‘arib kishingdi,
Yana ming yil yashayvergin yoshingdi,
Salqin soya, ona tutim, xush endi.

Tumanli kun nur taratding boshima,
Oysiz kecha Ravshan bo‘lding ko‘zima,
Yig‘lab kelsam, quvonch berding
Sen yetkarding bugungi parvozim,
Mehrigiyo ona tutim, xush endi.
Barglaring shitirlab, ajib sho‘xliging,

Menga ayon ul yoqimtoy pokliging,
Kelganlarga quloch ochib saqlagung,
Zavq berardi sayrab tuti, kakliging,
Sendan lazzat surgan menday bir quling,

Ko‘zga ziyo ona tutim, xush endi.

Bahor kelsa, meva, sharbatga to‘lding,
Yoz oylari men sho‘rga soya bo‘lding,
Do‘l-yomg‘irda boshiga pana bo‘lding,
Ba’zi nokas insondan dono bo‘lding,
Unutmayman bu dunyoda, xush endi.

Tog‘ boshida ko‘karasan, aziz tut,
Yakka tut deb atashibdi eli-yurt,
Barcha kelganlarning sendan doim shod,
Yana ming yil gurkirab o‘s, yashnab yot,
Ketar chog‘im kelib qildim ziyorat,
G‘amxonamsan, archa tutim, xush endi.

Yoningdan yana tut nihollar o‘ssin,
Archaday tutashib tog‘lardi bossin,
Archa tut deb har elga noming ketsin,
Xayr endi Nuralibek yo‘l tortsin,
Kelgan yo‘lga ravondir bosh endi.

Nuralixon tut daraxti bilan xayrlashib Chambil tomon ravona bo‘ladi [2.170-171-b.]

Bu izhor ifodasidan anglash mumkinki, inson farzandi aziyat sinovida toblanish bilan birga, nimadan najot topsa, taskinlik tuysa unga o‘z munosbatini ayon qiladi.

O‘tmishdan ayonki, o‘zbek mahalla ko‘chalarini ikki yon tomonida yoxud hovli uylarning ko‘cha qismida mevali daraxtlar ekilgan. Bu mevali daraxtlar toliqqan, ochgan odamga mador bo‘lgan, soyasida dam olgan va albattaki, daraxt egasiga ezgu duolar qilgan. O‘zbek xalqida “oltin olma, duo ol” iborasiga amal qilish go‘zal fazilatlardan biri sanaladi.

Chekka hududlarda saqlanib qolgan “obi rahmat” odati bor, bunda marhumni eslash, ya’ni inson vafot etgach, uning bahorning ilk yomg‘iri kunida yod etib yetti xil quritilgan mevalardan “obi rahmat” tuzalib, yetti qo‘shniga uzatilgan. Qo‘shnilar marhum haqqiga duo qilishgan. Aynan yetti xilli “obi rahmat” dagi quritilgan mevalardan biri tut mayizi ham bo‘ladi.

Urush va ocharchilik davrlarda ko‘rgan keksalar “tut pishig‘iga yetsak, o‘lmaymiz” deyishar ekan. Demak, tut inson taniga mador bo‘ladigan mevalardan biri ekanligi bilan qadrlanadi.

Dostonga kiritilgan Tut va Nuralixon syujeti genezesi odam bolasining ochlik, tashnalikdan muhofaza etgan tut daraxtining chizgisida ezgulik ramzini ifodasini payqaysiz.

Botanika ilmi nazari bilan qaralgan tut (morus) – tutdoshlar oilasiga mansub bo‘lib, mevali daraxtdir. O‘zbekistonda tutning besh xil turi o‘stirilishi qayd etilgan.

Albatta tut daraxti bilan bog‘liq el orasida turlicha cho‘pchak, asotirlar ijod etilgan. bundan bir necha namunalarni qayd etish mumkin.

Maslan: … bir afsonada keltirilishicha, qadim zamonlarda azizlardan biri dam olib o‘tirganida birdan dushman bostirib kelib qoladi. Aziz avliyo qarasa, hamma nobud bo‘ladigan. Shunda noiloj qochishga majbur bo‘ladi. Bir to‘da dushman uning orqasidan quvadi. Avliyo tutga iltijo qilibdi, tut ikkiga ajralibdi va u ana shu tutning ichiga kirib yashirinibdi. Uni quvlab kelayotgan dushmanlar tut daraxti yoniga kelganda izni yo‘qotib qo‘yib, qayoqqa borishni bilmay, hayron bo‘lib turishganida, tutning ustiga qo‘nib turgan alashaqshaq:

– Ana, avliyo tutning orasiga kirib ketdi, ishonmasangizlar qarab ko‘ringlar, yaktagining bir uchi chiqib turibdi, -debdi.

Olomon qarasa, haqiqatdan ham, yaktakning bir uchi chiqib turgan emish. Ular yaktak uchidan har qancha tortishmasin, avliyoni chiqarib ololmabdilar. Shundan keyin bitta arra olib kelib, tutni yarim belidan arralay boshlabdilar. Kesilgan tut ag‘darilib tushibdi va orasidan qon chiqibdi. Shu-shu har doim tutni kessa, tanasidan qizil suyuqlik chiqib turadigan bo‘libdi. Ushbu afsona bilan mushtarak syujetlar

mumtoz adabiyotdagi Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida Zakariyo (s.a.v.) nomi bilan bog‘lanadi. [3. 48-49-50-51-b.]

Ushbu qissa quyidagicha bayon etilgan:

Zakariyo alayhissalom duo qildilar: “Ey Xudoyo, menga bir solih o‘g‘il bersang, toki o‘rnimga Senga toat-ibodat qilib yursa. Chunki meni qarilik yengib bormoqda”

Rivoyat qilinishicha, bir kishi Xudodan o‘g‘il tiladi. Alloh taolo xunasa o‘g‘il berdi. “Ey Xudo, menga xunasa o‘g‘il beribsan-ku ”-dedi. Shu payt xitob keldiki: “Sen o‘g‘il tilading, Men tilaganingni berdim. Zakariyo solih o‘g‘il tiladi, unga Yahyodek o‘g‘il berdim. Demak, sen so‘rashni bimading.

Xullas, Zakariyo alayhissalom o‘g‘il ko‘rdilar. Otini Yahyo qo‘ydilar. Iso alayhissalom bilan tengqur edilar. Yetti yoshga kirdilar. Otalari xalqqa va’z aytdilar. Bir kuni do‘zax sifatini bayon qilayotgan edilar, Yahyo alayhissalom oh urib behush bo‘ldilar. Bir fursatdan keyin o‘zlariga kelib uylariga ketadilar.

O‘sha davr podshosi bir xotin olgan edi. U xotin avvalgi eridan bo‘lgan bir qiz bilan keldi. Qizi balog‘atga yetgandi. Podshoh unga oshiq bo‘lib qolib, ulamolarni yig‘ib so‘radi: “Uylansa bo‘ladimi yoki yo‘q?”. Ular shohning g‘azabidan qo‘rqib, xushomad qilib: “Ravo bo‘lur”, deb fatvo berishdi. Qizning onasi aytdi: “Yahyoni olib kelinglar, nikohni o‘qisin”. Yahyo alayhissalomni olib keldilar. U zot bu nikoh joiz bo‘lmasligini aytib, nikoh o‘qimadilar. Podshoh qizga yaqinlik qilmoqchi edi, qiz dedi: “Yahyo bilan Zakariyoni o‘ldirmaguningcha qabul qilmayman”. Podshoh ularni tutib kelishni buyurdi. Shu payt xotifdan ovoz keldi: “Agar Yahyoning qoni yerga tomsa, yerdan giyoh unmaydi”. “Qozonga so‘yinglar”-,dedi. Yahyo alayhissalomni qozonga so‘yishgan edi, qon qozondan chiqib, hamma yoqni to‘ldirdi. Xalq qon ichida qoldi. Hazrat Yahyoning kesilgan boshlari “Nikoh ravo emas”, deb ovoz berar edi. Ulamolar: “Biz sizdan qo‘rqib noto‘g‘ri fatvo bergan edik. Endi qizni o‘ldimaguningizcha qon to‘xtamaydi” dedilar. Oxiri qizni ham bo‘g‘izladilar. Qon to‘xtadi. U vaqtda Zakariyo alayhissalom qochib ketgan edilar. Kofirlar quvlashdi. Bir daraxtdan yashirishni so‘ragan edilar, yorilib o‘z ichiga oldi. Daraxt yana qayta birlashdi, ammo Zakariyo

alayissalom etaklarining uchi chiqib qoldi. Kofirlar arra olib kelib arralamoqchi bo‘ldilar. Shunda munojot qildilar. Hazrat Jabroil alayhissalom kelib: “Ey Zakariyo, daraxtdan panoh tilamay, Allohdan panoh so‘raganingizda bu holga tushmas edingiz. Allohdan o‘zgadan panoh tilaganlarning jazosi shudir”, dedilar. Shundan keyin sabr qilib turdilar. Qachonki arra tomoqlariga kelganda faryod qildilar. Shu zamon xitobi ilohiy bo‘ldi: “Ey Zakariyo, Mendan o‘zgadan panoh tilaganning jazosi shu. Agar yana bir bora faryod qilsang, otingni payg‘ambarlar devonidan o‘chiraman”. Shundan so‘ng jim bo‘ldilar. Kofirlar u zotning bo‘yinlarini kesishdi.[4. 179-180-b.]

Yana tut bilan bog ‘liq mifologik voqeani yodga olishimiz mumkin:

“Tut shirasi” nomli afsonaga ko‘ra, dushmanlaridan qochib borayotgan bir avliyo tut daraxti yoniga kelganida, xudoga yolvoradi. Shunda xudoning amri bilan tut yorilib, avliyo uning ichiga kirib ketgan ekan. Tut tanasidan gohida sizib chiqadigan qizg‘ish rangli suyuqlik – shira ana o‘sha avliyoning qonli ko‘z yoshlari deyiladi.

Shuningdek, afsonalarda tut mevasining yilning istalgan faslida yoxud bir kunda pishib yetilaverishi motivi uchraydi. Asli ismi Hazrati Umar Subutiy bo‘lgan xalq orasida “Urkut buva” nomi bilan mashhur afsonada keltirilishicha, qish kunlaridan birida shu avliyoning oldiga do‘stlari mehmon bo‘lib kelishibdi. Ular kelayotganlarida “Hazratga bir karomat ko‘rsating deb aytamiz”, – deb maslahat qilishibdilar.

Hazratning eshiklari oldida katta tut daraxti bo‘lib, ular o‘sha tutni pishgan holatda ko‘rsating, deb aytmoqchi bo‘libdilar. Ular avliyonkiga kelib, kechasi bilan mehmon bo‘lishibdi va ertalab tashqariga chiqsalar, o‘sha katta tut daraxti oppoq bo‘lib pishib turgan, hattto g‘arq pishgan tutni chumchuqlarga qarab: “ha, qirilg‘aysizlar!” – deyishi bilan tut shoxlariga qo‘nib turgan chumchuqlarning hammasi birdaniga yerga tushib o‘lib qolibdi. Shundan keyin bu avliyoni “Qironchi bobo” deb ataydigan bo‘libdilar. Uning qabri hozirda Darg‘onota degan joyda ekan. Hazrati Umar Subutiy u kishiga qarab: “Bu ishni noto‘g‘ri qildingiz, endi qushlarni tiriltiring!” – debdi. Ammo Qironchi bobo qanchalik urinmasin, chumchuqlarni tiriltirishning uddasidan chiqolmabdi, oxiri bu ishni qilolmaslikni tan olibdi. Shunda avliyoning o‘zi tut tagida o‘lib yotgan qushlarga qarab: “Qani turinglar!” –degan ekan, qushlarning hammasi

tirilib, uchib ketibdi. Shunda avliyoning do‘stlari “Qushlarni hurkitdingiz!” – deyishibdi va o‘shandan buyon bu avliyoning nomi “Urkut bobo” bo‘lib, u dafn etilgan qabriston ham shu nom bilan atala boshlabdi.

Bundan tashqari, afsonalarda tut daraxtining tabiiy xususiyatlariga ham diqqat qaratiladi. “Tut daraxtining xosiyati” afsonasida hikoya qilinishicha, “Qadim zamonda, Surxon vohasi tomonda bir podshoh yashab o‘tgan ekan. Kunlarning birida podshoh me’morlariga yangi yerda o‘ziga saroy qurdirishni buyuribdi. Me’morlar tez fursatda shohning amrini bajarishga kirishib ketibdilar. Oradan ko‘p yil o‘tmay, saroy qurilishi yakuniga yetibdi, ammo biroz vaqtdan so‘ng kelib xabar olsalar, imorat poydevoridan nuray boshlaganmish. Shoh saroyni qayta qurishga farmon beribdi. Quruvchilar imoratni bu safar yana ham mustahkamroq qilib qurishibdi. Biroq, shu hol yana takrorlanibdi. Quruvchilar bu xabarni podshohga qanday yetkazishni bilmay qo‘rqib turganlarida, ularning huzuriga shu hududda istiqomat qiluvchi bir donishmand chol kelibdi va me’morlarga saroyning hovlisiga tut ekishni hamda qurilishni boshlashdan oldin imorat atrofiga ko‘chatlarni o‘tqazish kerakligini aytibdi. Quruvchilar donishmand aytganidek qilishibdi. Saroy shohga ma’qul bo‘libdi., bu safar vaqt o‘tsa hamki, saroyning poydevori nuramasdan, ko‘rinishiga zarar yetmabdi. Quruvchilar hodisani podshohga ham so‘zlab berishibdi, podshoh o‘sha donishmand cholni topib, huzuriga olib kelishlarrini buyuribdi. Cholni topib kelishgach, shoh undan bu holning sababini so‘rabdi.

– Olampanoh, siz saroy qurishni buyurgan joy qo‘riq yer bo ‘lganligi bois, tuprog‘i sho‘r edi. Tut daraxtining esa ildizlari mustahkam bo‘lib, aynan sho‘rni va sizot suvlarni o‘ziga tortadi, – deb javob beribdi chol. Podshoh esa uning donishmandligiga tasannolar aytibdi. Hovlilar, imortalar yaqinida tut ekish odati shundan saqlanib qolgan ekan”. Keltirilgan afsonada Yevropa xalqlaridagi homiy sifatid eshik oldiga yoki uy hovlisiga daraxt ekish bilan bog‘liq mushtarak motivlar ham ko‘zga tashlanadi. [3. 48-49-50-51-b.]

Xulosa etiladigan bo‘lsa, “Malla savdogar” dostonida tut daraxti syujeti shunchaki voqea jarayaoni emas, balki Nuralixon va tut daraxti o‘rtasidagi ramzda

odamizod farzandi ezgulikni borliqdagi har bir yaratiqdan o‘rnak olishi kerakligiga ishora etilgan. Tut-bu ezgulik va oqibat mevasi edi. Shu tufayli Nuralixon joniga mador bo‘lgan tut daraxtiga minnatdorchilik bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hidoyat jurnali. № 6-2019. Orif Tolib. Yashnab tursin yashil og‘ochlar maqolasi. 30-31-b.
2.Malla savdogar dostoni, 170-171-b.\\Chorshanbi baxshi Rahmatullayev kuylagan\\yozib oluvchi: Abdumo‘min Qahhorov, Abduolim Ergashev,Toshkent, “Akademnashr” 2019-yil.
3.Rustamova Gavhar Bahrom qizi O ‘zbek folklorida daraxtlar obrazi: genezisi va badiiy talqinlar (f.f.b.f.d. dissertasiyasi) 48-49-50-51-b.
4.Nosiruddin Burxonuddin Rabg‘uziy Qissasi Rabg ‘uziy , T. “Yoshlar nashriyot uyi”, 2018-yil. 179-180-b

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARI HAYOTIY TAJRIBA PODEVORIDIR

Mengziyoyeva Dilorom Anvar qizi,
Termiz Davlat pedagogika instituti magistranti
dilamengziyoyeva@gmail.com +998909349651

Annotatsiya. Alisher Navoiyning yozganlari orasida “Mahbub ul-qulub” asari shoirning umri oxiridagi ko‘rgan kechirganlarini ifoda etib yozilgan pandnoma asaridir. Komil shaxs tarbiyasiga oid va komil inson axloqiga bag‘ishlangan muhim manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada birinchi bobidan to uchunchi bobigacha yozilganlari birma-bir tahlillab asoslab beriladi. odob-axloq haqida fikr yuritilar ekan insonlarning ezgu sifatlari: saxovatlik, saxiylik, mehribonlik, hilm, rostgo‘ylik, mehnatkashlik, kamtarinlik, tavoze kabi bir qator insoniy hislatlar va fazilatlar ulug‘lanadi. Bularga qarama-qarshi bo‘lgan takabburlik, dangasalik, fisq-u fasod, yolg‘onchilik, firibgarlik, johillik, ochko‘zlikni hazrat Navoiy insoniylikka zid illat deb qaraydi. Asarda mutafakkir uzoq yillar hayotiy tajribasi, o‘zining kuzatishlari natijasidagi xulosalarini original fikrlar orqali yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Mahbub ul-qulub”, ilm talabi, nasr, nazm, komillik, rostgo‘ylik, sabr, shoshqaloqlik, mehnatsevarlik, yoshlar tarbiyasi, yaxshi xulq, yaxshilik va yomonlik.

Абстрактный Работы Алишера Навои между Произведение “Махбуб уль-Кулуб” имеет особое значение как важный источник, написанный о воспитании совершенной личности и совершенной нравственности человека. В этой статье Размышляя о манерах, воспеваются ряд человеческих качеств и добродетелей – щедрость, щедрость, доброта, знания, честность, трудолюбие, смирение, скромность – высокомерие, лень, хазрат Навои рассматривает коррупцию, ложь, мошенничество, невежество, жадность. как пороки против человечества. В произведении мыслитель проливает свет на свой многолетний жизненный опыт, свои выводы в результате наблюдений посредством оригинальных мыслей.

Ключевые слова Алишера Навои, “Махбуб уль-Кулуб” требуют знаний, совершенства, честности, терпения, спешки, трудолюбия, воспитания молодежи, хорошего поведения, хорошего и плохого;

Abstract. In reflecting on the ideas of morality put forward in Alisher Navoi's “Mahbub ul-qulub”, a number of human virtues-generosity, kindness, humility, honesty, diligence, humility, humility qualities are glorified. Pride, laziness, corruption, lying, fraud, ignorance, and greed are considered by Navoi to be inhumane. In the play, the thinker reflects his conclusions based on many years of life experience and observations through original ideas.

Keywords: Alisher Navoi, Mahbub ul-qulub, hilm, demand for knowledge,

honesty, humility, generosity, patience, haste, diligence, humility, virtues, perfection, youth education, good behavior, good and evil;

Nihoyatda katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan adabning axloqiy-talimiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-marifiy mavzudagi muayyan qarashlarining teran badiiy ifodasidan tarkib topgan “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”)

Asari 3 qismdan iborat.

Avvalg‘i qism: Xaloyiq ahvol va af’ol va ahvoli kayfiyati – har xil toifa odamlar fe’l-atvori va ahvoli kayfiyati.

Ikkinchi qism: Hamida af’ol va zamima xisol xosiyati – yaxshi fe’llar va yomon xislatlar xosiyati.

Uchinchi qism: Mutafarriqa favoid va amsol surati - xilma-xil foydalar va hikmatli so‘zlarning ko‘rinishi.

Pandnoma an’anaviy “hamd” - Ollohning tanholigi (“vahdad”) va ulug‘vorligi, na’t - Muhammad alayhissalomning maqtovi bilan boshlanadi. Asarning birinchi qismi 40 fasldan iborat. Unda “egallagan vazifasi, ko‘rsatilajak ta’siri jihatidan jamiyat taraqqiyotida belgili mavqega ega qirq to‘qqiz toifa ahlining fe’l-atvori, ahvoli xususida fikr yuritiladi. Bu safda shohdan gadogacha bo‘lgan aksariyat toifa a’zolarini uchratish mumkin”.

Navoiy turfa toifa ahllarini goh tanqidiy, goh ijobiy, goh nafratli qarashlari bilan takrorlanmas o‘xshatishlar vositasida juda chiroyli tasvirlaydi. Asarda quyidagi toifa ahllari haqida fikr yuritiladi: odil sultonlar, islompanoh beklar zikrida, zolim va fosiq shohlar, vazirlar, nomunosib noiblar, noqobil sadrlar, fosiq qozi, mufti, mudarrislar, kotiblar, nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari, imomlar, muqriylar, qissasoz va qissaxonlar, nasihat ahli va voizlar, ahli nujum, mutrib-u mug‘anniylar, tabiblar, tijorat ahli, bozor kosiblari, dehqonlar, yetim va laimlar, riyoyi shayxlar, xarobot ahli va darvishlar kabi. Navoiy fikrlarini dalillash maqsadida har bir toifaga berilgan tavsifdan so‘ng she’riy izohlar keltiradi. Chunonchi, birinchi qismda 7 ta masnaviy, 16 ta bayt, 3ta nazm, 6 ta ruboiy va 7 ta qit’a berilgan.

“Mahbub ul-qulub”ning birinchi qismida bayon etilgan fikrlar ulug‘ adibning hayotiy tajribalari, umumlashmasi bo‘lib, unda atrofdagi voqea-hodisalardan

doimo ogoh bo‘lishga da’vat etiladi. Bu da’vatlar yurt sarvaridan tortib, oddiy fuqarogacha taalluqlidir.

Asarning ikkinchi qismida komillikka erishish yo‘li, tasavvuf tamoyillari haqida fikr yuritiladi. “Ushbu qismdan yomonliklardan mosivo bo‘lishning eng to‘g‘ri yo‘li nafsni riyozat bilan mavh etib sabr-u qanoat bilan pok yashash, ruhni chiniqtira borib, hamida axloqqa erishish xususida fikr yuritiladi. Nafsni mag‘lub etib, ilohiy fayzdan bahra olishning dastlabki bekati-tavbadir. Tavbadan murod haq yo‘liga kirgan solikning barcha yomon ishlardan ogoh bo‘lib, ulardan butkul voz kechishi, har taraflama poklanishdir”

O‘n fasldan tarkib topgan asarning ikkinchi qismida tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze’ va adab, zikr, tavajjuh, rizo, ishq singari tasavvufiy istilohlar sharhlanadi. Shuningdek, har bir masala nazariy jihatdan yoritilgandan so‘ng fikrlarni dalillash maqsadida bir hikoya keltiriladi. “Mahbub ul-qulub”ning ikkinchi qismi tuzilishiga ko‘ra “Hayrat ul-abror” dostonidagi maqolat va hikoyatlarga o‘xshab ketadi. Bu qismda 1ta masnaviy, 3 ta qit’a, 4 ta ruboiy, 14 ta bayt keltirilgan.

Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismi “Mutafarriqa favoid va amsol surati” (“Turli foydali maslahatlar va maqollar”) deb nomlangan. Bu bo‘limda odob va axloq masalalariga doir to‘rt yuzga yaqin maqol va hikmatli so‘zlar tanbehlar shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, adib ular orqali pand-nasihat berib, go‘zal insoniy fazilatlarni egallashga, yomon illatlardan saqlanishga, ilm o‘rganishga, yaxshilarga yor, muhtojlarga madadkor bo‘lib, xalq va Xoliq oldidagi burch, vazifalarini halol ado etishga da’vat etadi”.

Asarning bu qismi turli foydali pand va hikmatlar, 127 ta tanbehdan iborat. “Asarning mazkur bobi oldingi boblarda bayon etilgan ijtimoiy-falsafiy, axloqiy- ta’limiy qarashlarni ulug‘ shoirning maqollarga uyg‘un hikmatli so‘zlari bilan birmuncha kengaytiriladi va umumlashtiriladi. Keltirilgan tanbehlar adibning uzoq yillar davomidagi hayotiy kuzatishlar hosilasi bo‘lib, o‘ziga xos hukmlardan iborat”. Bobda Navoiy saj’ va boshqa badiiy san’atlardan mohirona foydalangan. [Ziyo uz.com sayti. Alisher Navoiy asarlari tahlili sahifasi]

Bu qismda 57 ta bayt, 19 ta qit'a, 12 ta masnaviy, 8 ta ruboiy, 2 ta nazm keltirilgan. Pandnomada jami 22 masnaviy, 19 ruboiy, 88 bayt, 31 qit'a, 5 nazm bor.

Adibning "Mahbub ul-qulub" asari biz bilamizki, umrining oxirida yozilgan asari hisoblanadi. Shuning uchun ham bu asar Alisher Navoiyning butun hayoti davomida ko'rgan-kechirganlari, orttirgan hayot tajribalari, 60 yillik hayot mahsuli deyishimiz mumkin.

"Mahbub ul-qulub" yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarbiyaviy asar. Asarda komil inson g'oyasini o'rtaga tashlanadi. Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari komil inson tarbiyasiga doir muhim manbalardandir. Ayniqsa, uning ikkinchi qismida ma'naviy barkamollikka oid qator fazilatlar sharhlanadiki, ulardan yoshlarimiz uchun eng zarurlaridan biri qanoatdir. Qanoatga shunday ajoyib ta'rif beriladi: "Qanoat – bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi; u bir xazinadirki, undagi boylik sochilgan bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug'i izzat va shavkat hosilini beradi; u bir daraxtdirki, unda qaram bo'lmaslik va hurmat mevasi border. Qanoatli darvishning quruq noni ta'magir shohning xitoycha dasturxonidan yaxshiroq; faqirlik yo'lida farog'atlining yovg'on umochi olg'ir badavlatning nabotlik ovqatidan totliroqdir. Shoh uldirki, olmaydi-yu beradi, gadoy uldirki, sochmaydi- yu teradi. Qanoatda tinchlik va farog'at bo'lganiday, aksincha, tamada razillik va uqubat bor". Darvoqe, qanoat bilan tabiatini toblagan inson mol-davlat ilinjida olis yurtlarda sarson-sargardon kezmaydi, obro'-e'tiborini yerga urmaydi, oilasi va xalqining sha'niga dog' tushirmaydi.

"Mahbub ul-qulub"dagi har bir tanbeh, bayt yoki qit'a hayotiy hikmat darajasiga ko'tarilganki, bu tanbehlar zamiriga xalqning ko'p asrlik hayot tajribasi davomida to'plagan maqol va matallarining mazmuni singdirilgan.

Alisher Navoiyning eng so'nggi yirik nasriy asari "Mahbub ul-qulub"dir. "Mahbub ul-qulub"da shoirning umri davomida ko'rgani, kuzatgani, boshidan kechirgani, inson va yashash bilan bog'liq ko'pdan-ko'p mulohazalari bayon qilingan Adibning "Mahbub ul-qulub" asari biz bilamizki, umrining oxirida yozilgan asari hisoblanadi. Shuning

uchun ham bu asar Alisher Navoiyning butun hayoti davomida ko‘rgan-kechirganlari, orttirgan hayot tajribalari, 60 yillik hayot mahsuli deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. (2018). *Mahbub ul-qulub*. “Yoshlar” nashriyoti
2. Mahmudova, G. (2014). A.Navoiy “Mahbub ul-qulub” asaridagi hikoyatlarning g‘oyaviy mohiyati. Bitiruv malakaviy ish N. (8-9-bet)
3.Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub” Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. –B. 4
4. www.ziyouz.com.
5. www.ziyonet.uz.

“TIL VA ADABIYOT HAQIDA BIR YOKI IKKI SO‘Z”

Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziyning falsafiy iborasi
"Qalbing qadring bor joyida bo‘lsin!"

Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li
TerDPI Boshlang‘ich ta’limda matematika
va ona tili kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Adabiyot darsliklarida yozuvchining tili va uslubi masalasi, yo umuman tilga olinmaydi, yo umumiy tarzda tushuntiriladi. Tilning go‘zalligi, ravonligi, ta’sirchanligi kitoblarimiz sahifalarida o‘z aksini topishi kerak.

Kalit so‘zlar: Tilning go‘zalligi, ravonligi, ta’sirchanligi kitoblarimiz sahifalarida o‘z aksini topishi kerak.

Аннотация. В учебниках литературы вопрос о языке и стиле писателя либо не упоминается вообще, либо разъясняется в общих чертах. Красота, беглость и впечатляемость языка должны отражаться на страницах наших книг.

Ключевое слово: Красота, беглость и впечатляемость языка должны быть отражены на страницах наших книг.

Abstract. In literature textbooks, the question of the writer's language and style is either not mentioned at all, or explained in general terms. The beauty, fluency, and impressiveness of the language should be reflected on the pages of our books.

Key words: The beauty, fluency, and impressiveness of the language should be reflected on the pages of our books.

Shoh yo‘q, o‘yin yo‘q, chunki, Shoh shaxmat taxtasining qirolidir. Adabiyot darsliklarida ham "Til-bu uslub til yo‘q, yozuvchi yo‘q." Nutqning ulug‘ligi yozuvchining tili va uslubida namoyon bo‘lib, ularning har ikkisi birgalikda badiiy asar yuksak intellektual mazmunga ega bo‘lishining muhim shartidir. Adibning adabiy mahoratini oshirish, yosh va tajribasiz qalamkashlarning olg‘a siljishida til va uslubni o‘rganishning ahamiyati ham katta.

Adabiyot darsliklarida yozuvchining tili va uslubi masalasi, yo umuman tilga olinmaydi, yo umumiy tarzda tushuntiriladi.

Badiiy asar tilining tadqiqi haqida gapirganda, avvalo, birinchi tojik va o‘zbek adabiyotshunosi ustoz Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziyning beqiyos xizmati yodga tushadi. Ustoz “Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy” o‘zining “Firdavsiy va uning “Shohnoma”si haqida”, “Ustod Rudakiy” va boshqa risolalarida, shuningdek, “Tojik

adabiyoti namunasi” taqriznomasida, tilning eng muhim xususiyatlari va shoirlar uslubini kashf etadi va ular haqida qimmatli ilmiy ma’lumotlar beradi.

O‘z xalqi til va adabiyotning ibratli namunasi bo‘lgan sevimli shoirimiz “Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy” ona tilining bitmas-tuganmas xazinasidan saxovatpeshalik bilan foydalanish haqida shunday satrlar aytgan: uning bu so‘zlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan: “Yozuvchiga badiiy so‘z ustasi bo‘lib, o‘z xalqining so‘z boyligidan shu qadar mohirlik bilan foydalanganki, o‘quvchi uning asarlarini zavq bilan o‘qib kelmoqda.

Tilning go‘zalligi, ravonligi, ta’sirchanligi kitoblarimiz sahifalarida o‘z aksini topishi kerak. Tilni xalq yaratadi, yozuvchi esa xalqqa tilimizning tarovati va go‘zalligini ko‘rsatishi kerak. Eng muhimi, yozuvchining tilida yuksak tuyg‘ular bo‘lishi kerak. Yuksak tuyg‘ularsiz asarlar balandparvoz bo‘la olmaydi”.

Asar tili badiiy mahoratning ajralmas qismidir. Ya’ni, adibning badiiy mahorati haqida so‘z borar ekan, uning tilini unutish qiyin emas.

Boshqacha aytganda, yozuvchilar ijodini o‘rganish va tahlil qilish jarayonida shaklni mazmundan, mazmunni shakldan ajratib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, “Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy” “Qalbing qadring bor joyida bo‘lsin” nomli hikoyasiga to‘xtalib o‘tmoqchi bo‘lganimiz shu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, jami 30 nafar kishining ijodidan ko‘pchiligi ular asosiy kasblaridan tashqari she’r va hikoyachilik bilan ham shug‘ullanadilar, misollar keltiriladi.

“Qadring bor joyida qalbing bor bo‘lsin” hikoyasi berilgan. Hikoyaning qisqacha mazmuni quyidagicha: Salimjon maktabni tugatgach, qishloqqa keladi va Rizvonxola hovlisida yashashni tanlaydi. Rizvonxolaning yolg‘iz o‘g‘li ilm yo‘lida shahid bo‘lgandi. Ota farzandi uchun qayg‘u bilan dunyodan ko‘z yumadi. Rizvonxola Salimjonni bolasidek sevadi. Kunlar davomida Salimjonning tug‘ilgan kuni to‘g‘ri keladi. Salimjonning do‘stlari yig‘ilib, Barno isimli qiz mehmonlarga xizmat qiladi.

Salimjon Barnoni sevib qoladi. Do‘stlar – Rajab, Sulton, Shahobiddin va boshqalar suhbat davomida Salimjonning muhabbatidan xabardor bo‘lib qoladilar. Barnoni boshqa birov qiziqtiradi, lekin u rad etadi. Ular Salimjon bilan suiqasd

uyushtirishmoqchi bo‘lishdi: ...Birdan kuchli zarbadan uyg‘onib ketdim va haykalday tik turgan uch niqobli odamni ko‘rdim. Men deyarli aqlimni yo‘qotdim.

Harakat qilishga ulgurmay, o‘sha uch jonivor menga hujum qildi. Menimcha, tanamda sog‘lom joy qolmagan. Men hushimdan ketdim...

- O‘lsa-chi, bitta yo‘lovchi kam
- Oh, nima deysan? Yodu xayoling joyida-mi?

Bu suiqasdni Shahobiddin va uning do‘stlari uyushtirgan. Oxiri yigitlar Salimdan kechirim so‘rab, qilgan ishlariga pushaymon bo‘lib, ilm olish safariga ketayotganliklarini e’lon qiladilar va Barnoning xatini Salimga beradilar.

Hikoya tili sodda va ravon. Ko‘p ishlatiladigan so‘zlar, kitobiy so‘zlar, so‘zlashuv-xalq so‘zlari, erkin va turg`un iboralar, maqol va matnllar muhim uslubiy mavqega ega. Jumladan, hikoyada lisoniy iboralar ko‘p qo‘llangan bo‘lib, bu muallifning tilni bilishi va tushunganligidan dalolat beradi: ... ko‘zni qamashtirmoq; ko‘zlar yoshi; qotgan boshim, jonim sabil; yurakni tez urishi; inson ruhi bo‘lish; yuzning guzalligi; yurak dog‘ini yuvish; nazardan uzoqlash; qurbonlik qilish va qurbon qilmaslik; kimgadir yurakdan ofarin o‘qish; yurakdan urish; ko‘zga yaqin yurish; umid olovini yoqmoq; tasavvur ipini uzish; yurakni qabul qilish; oltin ham axloqsizlikda ko‘rinadi; Keksalarning qalbiga kirish; gapirishni to‘xtatish; soya qilish; qo‘lda ikki oyog‘i bor; (birovning) dumini kesib tashlash; haqida gapirish; men sezmadim, sezmadim; shahar darvozasi yopilishi mumkin, yomon gapirma; Og‘zaki so‘z yuzta shovqinga sabab bo‘lishi mumkin; girdobdan (narsadan) chiqmoq; o‘zini yo‘qotmoq; (birovning, biror narsaning) ko‘zini olmoq; yomonlik (bir narsa, kimdir); olov ustiga sho‘r suv; yurak cho‘kadi; yurak urishi; qo‘l va yurak bilan (biror narsaga) bormaslik; devorning sichqonchasi bor, sichqonchaning quloqlari bor; biror narsaga umid qilmoq; biror narsaga tupurmoq; sog‘inmoq; uzukni ko‘tarish; qo‘lni ko‘kragiga qo‘yish; sut bilan emas, kuch bilan kirgan aql o‘lmasdir; haqiqat achchiq va hokazolar.

Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy Alloh taoloning in’omi borligi va o‘qituvchilik kasbi bilan birga shu qalam sohibi bo‘lganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy. Bo‘ston-T..1960
2. Adabiyoti tojik (R.Hodizoda T. Ni’matzoda “Ma’orif”-1960
3. T. Temirov (Baroyi sinfi X. Dushanbe “Ma’orif”-1960
4. A. Avloniy Turkiy guliston yo xud axloq asari – T “O‘qituvchi” 1972
5. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li. (2023). "ZUFONGO’YO VA JAHONPOYO" LUG‘ATIDA SO’Z TARKIBI. *IMRAS*, *6*(7), 565–569.
6. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li, & Shonazarova Madinabonu Xamrobek qizi. (2024). RO‘DAKIYNING SHE’RIYATI VA TILI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. *PEDAGOGS*, *57*(1), 143–146.
7. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 5.
8. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
9. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).
10. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.
11. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.
12. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.

KNUT GAMSUNNING “EDVARDA” ROMANIDA SHAXS FOJIASI

Mamatqulov Botir Jovli o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs fojiasi masalasi Knut Gamsunning “Edvarda” asari misolida ko‘rib chiqiladi. Asardagi shaxsning ichki dunyosini, muhabbat va xiyonat, ehtiros va insof o'rtasidagi murakkab munosabatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Knut Gamsun, Edvarda, Glan, Yeva, shaxs fojiasi.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос личной трагедии на примере произведения Кнута Гамсуна «Эдварда». В произведении анализируется внутренний мир личности, сложные взаимоотношения любви и предательства, страсти и честности.

Ключевые слова: Кнут Гамсун, Эдвард, Глан, Ева, трагедия личности.

Abstract: This article examines the issue of personal tragedy on the example of Knut Hamsun's work "Edvarda". The work analyzes the inner world of the individual, the complex relationships between love and betrayal, passion and honesty.

Key words: Knut Hamsun, Edvarda, Glan, Eve, personality tragedy

Knut Gamsun (1859-1952) asarlari romantizm, modernizm va ramziylik xususiyatlarini birlashtirib, XX asr adabiyoti rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Gamsunning yozish qobiliyati shaxsiy kuzatishlar va tajribalar orqali rivojlangan. U o‘z asarlarida inson psixologiyasi, ichki nizolar va tabiat bilan o‘zaro munosabatlarni chuqur ifodalagan. Gamsun ijodida Norvegiya folklori, mifologiyasi va tabiatga panteistik muhabbat ta’siri seziladi. Uning uslubi o‘z qahramonlarning ichki dunyosiga nozik e’tibor qaratilishi bilan ajralib turadi, ko‘pincha hayotning realistik tavsifidan farq qiladi.

“Edvarda” romani birinchi marta 1894-yilda nashr etilgan. Ushbu asar chuqur psixologiya, tabiatni romantik idrok etish va fojiali sevgi chizig‘ini birlashtirgan holda Gamsun ijodining kvintessensiyasi sifatida qaralishi mumkin. Gamsun qahramonlarning kayfiyatini va shimoliy tabiat muhitini yetkazish uchun ramziylik va nozik psixologik tavsiflardan foydalanadi. Uning tili tafsilotlar va metaforalarga boy bo‘lib, asarga o‘ziga xos estetik qiymat beradi.

Syujet. Romanning bosh qahramoni leytenant Tomas Glan Norvegiyaning shimolida o‘rmondagi kulbasida yolg‘izlikda yashaydi. U tabiatdan, ov qilish va

yolg‘izlikdan zavqlanib, jamiyatdan uzoqda yashashni afzal ko‘radi, biroq, uning hayoti ikki ayol bilan murakkab munosabatlarga kirganda o‘zgaradi: boy savdogarning qizi Edvarda va kambag‘al Yeva. [Эдварда 2015: 10, 22]

Glanning sevgi hikoyalari romanda nafaqat dekorativ, balki ramziy rol o‘ynaydigan go‘zal tabiat fonida boshlanadi. «Edvarda”dagi tabiat ham bosh qahramon Edvarda ham qahramonning ichki dunyosining aksidir. Glan tabiat bilan uyg‘unlikka intiladi, lekin uning ehtiroslari, shubhalari va mantiqsiz harakatlari bu muvozanatni buzadi, natijada fojiali oqibatlarga olib keladi.

Asosiy qahramonlar: Tomas Glan. Tabiat bilan uyg‘unlikda yashaydigan qahramon, ofitser va ovchi. U o‘ziga xos romantik qahramonni, jamiyatdan ajralgan odamni ifodalaydi. Uning ishtiyoqi, xudbinligi va sevgini tushunish yoki tushunmasligi fojiali oqibatlarga olib keladi.

Edvarda Mak. Boy savdogarning injiq qizi. U Glanning muhabbat ob'ektiga aylanadi, ammo uning noz-karashmasi va nomuvofiq xatti-harakatlari doimiy tushunmovchilik va azob-uqubatlarga olib keladi.

Yeva. Glan bilan o‘tkinchi munosabatda bo‘lgan temirchining rafiqasi. Uning taqdiri fojiali, chunki u baxt keltirmaydigan munosabatlar tuzog‘iga tushib qoladi.

Inson va tabiat. Glan tabiat bilan chuqur aloqani his qiladi, bu romanning asosiy mavzularidan biriga aylanadi. Tabiat neytral fon sifatida emas, balki qahramonlarga ta'sir qiladigan jonli dunyo sifatida namoyon bo‘ladi. Glan o‘zini odamlarga qaraganda tabiatga yaqinroq his qilsa-da, u bilan aloqasi ham beqaror bo‘lib chiqadi. Romanning boshida Edvarda va ilhom manbai sifatida taqdim etilgan tabiat vaqt o‘tishi bilan uning azob-uqubatlari va xatolariga guvoh bo‘ladi. Glan uyg‘unlik tuyg‘usini yo‘qotadi, chunki uning insoniy his-tuyg‘ulari — sevgi, rashk, umidsizlik oddiy va tabiiy hayot haqidagi orzusiga zid keladi.

Sevgi fojiasi. Glanning Edvarda va Yeva bilan munosabatlari inson his-tuyg‘ularining murakkabligini va ular olib keladigan muqarrar azob-uqubatlarni aks ettiradi. Glan va boy savdogarning qizi Edvarda o‘rtasidagi sevgi insoniy munosabatlarning chuqur dramasini aks ettiradi. Ularning his-tuyg‘ulari qarama-

qarshiliklarga to‘la: ehtiros begonalashish bilan, muloyimlik keskinlik bilan almashtiriladi. Glan kuchli his-tuyg‘ulariga qaramay, o‘zaro xafagarchilik va kamsitilish ajralishga olib keladi. Bu ikki kishi bir-biriga intiladigan sevgi, lekin ularning hayot va erkinlik haqidagi turli g‘oyalari ularni birga bo‘lishiga qarshilik qiladi.

Individualizm va izolyatsiya. Qahramon jamiyatdan qochadi, lekin bu izolyatsiya ichki mojarolarga va boshqa odamlar bilan muloqot qila olmasligiga olib keladi. Glan yolg‘izlikka intiladi va yovvoyi tabiatda uyg‘unlikni qidiradi, u yerda o‘zini erkin va tirik his qiladi, biroq, uning jamiyatdan ajralishi Glanni yolg‘iz qilib qo‘yadi. U boshqa odamlar amal qiladigan me’yorlar va qoidalarni tushunmaydi, ba'zida mensimaydi. Uning dunyodan uzoqligi nafaqat jismoniy, balki hissiy ham bo‘ladi: Glan boshqalar bilan to‘liq muloqot qila olmaydi, bu esa fojiali oqibatlarga olib keladi.

Romanda shaxs fojiasi bosh qahramon, Tomas Glanning atrofdagi dunyo va odamlar bilan murakkab munosabatlari orqali ochiladi. Bu fojia uning jamiyatga integratsiyalasha olmasligi, tabiat bilan uyg‘unlikka intilishi, insoniyat madaniyati bilan ziddiyatga aylanishi, sevgidagi qarama-qarshi his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlari bilan bog‘liq.

Aybdorlik hissi. Fojia Glanning xatti-harakatlari, ayniqsa Edvardaning iti Ezop bilan sodir bo‘lgan shafqatsiz voqeasi uchun aybdorligi bilan yakunlanadi. Bu harakat uning Edvarda bilan aloqasini va u orzu qilgan dunyoni yo‘q qilish ramziga aylanadi. Finalda qahramon hamma narsadan butunlay ajralib chiqadi: odamlar, tabiat va hatto o‘zidan. Uning ketishi og‘riqdan qochishga urinishdir, lekin u hech qanday ozodlik emas.

Fojianing mohiyati. “Edvarda”dagi inson fojiasi qahramonning ichki dunyosini atrofdagi haqiqat bilan bog‘lay olmaslikdir. Glan erkinlik va uyg‘unlikni xohlaydi, lekin insonning zaif tomonlarini, his-tuyg‘ularini va nomukammalligini qabul qila olmaydi. U o‘zining qarama-qarshiliklarining asiri bo‘lib chiqadi.

Fojia Glanning odamlar bilan uyg‘unlikda yashay olmasligidan iborat. Uning Edvardaga bo‘lgan muhabbati qisqa umr ko‘radi, chunki ikkala qahramon ham bir-

birini tushuna olmaydi. Edvardada Glanga nisbatan moyillik uyg‘onadi, lekin qiz yigitning yovvoyi, jilovsiz xarakteriga tayyor emas edi. Glanning Yeva bilan aloqasi ham uzoqqa bormaydi, chunki munosabatlar samimiylikdan yiroq edi. Mak bilan ziddiyat Glanni jamiyatdan begonalashtirish tuyg‘usini kuchaytiradi. Romanning oxiri esa bu munosabatlar va qahramonning ichki kurashining halokatli yakun topishini ko‘rsatadi. Gamsun “Edvarda”da tabiiy boshlanish va ijtimoiy konventsiyalar o‘rtasidagi hal qilib bo‘lmaydigan ziddiyatni ochib beradi, bu esa romanni chuqur fojiali asarga aylantirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гамсун Кнут. Эдварда. Тошкент: Янги аср авлоди, 2015.
2. Бойназаров Ф. Жаҳон адабиёти. Қўлланма, – Тошкент: мусиқа. 2006.
И. Султон. Адабиёт назар

THE ROLE OF PHILOSOPHICAL AND NATIONAL FOUNDATIONS IN LITERARY ANALYSIS

Dosmambetova Muyassar – 2nd year student
Nukus SPI named after Ajiniyaz, Nukus

Anotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asar tahlilida falsafiy va milliy asoslarning o‘rni yoritib beriladi. Ushbu elementlar adabiy asarning mavzusi va strukturasi shakllanishiga qanday ta’sir ko’rsatishi va matn mazmunini chuqurroq anglash imkonini berishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Falsafa, milliy o'zlik, adabiyot, tahlil, madaniy meros

Аннотация: В данной статье рассматривается роль философских и национальных основ в анализе литературных произведений. Анализируется, как эти элементы влияют на тематику и структуру произведения, а также углубляют понимание его содержания.

Ключевые слова: Философия, национальная идентичность, литература, анализ, культурное наследие

Abstract: This article explores the significance of philosophical and national foundations in literary analysis, emphasizing how these elements shape both the narrative structure and thematic depth of a work. By examining literature through the lens of philosophy and national identity, readers gain insight into the cultural and intellectual background that informs the text, enriching their understanding and appreciation of the work.

Keywords: Philosophy, National Identity, Literature, Analysis, Cultural Heritage.

Introduction

Literature serves as a profound reflection of human thought and cultural values, shaped by philosophical questions and national identity. In analyzing literary works, it is essential to consider the underlying philosophical themes and the national context, as these elements provide insight into the author's worldview and the collective experience they seek to convey. By examining philosophical and national foundations, we achieve a fuller understanding of the narrative, its characters, and the message it communicates to society.

Philosophical Foundations in Literature

Philosophical themes in literature address universal questions about life, morality, and human nature. Authors often use these themes to delve into existential concerns, ethical dilemmas, and the human condition. For instance, Fyodor

Dostoevsky's novels confront issues of free will, faith, and redemption, reflecting his deep engagement with philosophical and religious thought (Dostoevsky, Crime and Punishment, p. 56). Similarly, the existentialist themes in Albert Camus's The Stranger illustrate the absurdity of life and the search for meaning (Camus, The Stranger, p. 22).

National Foundations in Literature

National identity is a powerful influence on literature, shaping the themes, characters, and settings of a work. Authors often draw upon their cultural heritage, embedding elements of national history, folklore, and traditions in their narratives. This cultural embedding enhances the authenticity of the work, allowing readers to gain insight into the society from which it originates.

For example, in Uzbek literature, Alisher Navoi's poetry reflects the values and traditions of the Uzbek people, weaving in elements of Islamic philosophy and Central Asian heritage (Navoi, Hamsa, p. 145). His works convey the moral and ethical values of his time, preserving them for future generations. Similarly, in Irish literature, James Joyce's Ulysses is deeply rooted in the Irish experience, using Dublin as a backdrop to explore themes of nationalism, identity, and personal freedom (Joyce, Ulysses, p. 102).

Interplay Between Philosophical and National Foundations

In many literary works, philosophical and national foundations are closely intertwined. Philosophical reflections are often contextualized within a national setting, giving them a unique cultural perspective. This interplay enhances the richness of the narrative, as it combines the universal with the particular.

For instance, in One Hundred Years of Solitude by Gabriel Garcia Marquez, existential themes of fate and cyclical time are interwoven with Colombian history and culture. This fusion creates a narrative that is both a philosophical exploration of human destiny and a cultural chronicle of Latin American society (Marquez, One Hundred Years of Solitude, p. 205).

Conclusion

The analysis of philosophical and national foundations in literature offers a multidimensional approach to understanding a text. By examining these elements,

readers can connect with both the universal themes and the unique cultural background that shape the work. This dual perspective not only enriches the reading experience but also fosters a deeper appreciation of literature as a reflection of human thought and national identity. As we continue to explore these foundations, we gain valuable insights into the complexities of literary expression and the cultural heritage it preserves.

References

1. Dostoevsky, Fyodor. Crime and Punishment. Moscow: Penguin Classics, 2002, p. 56.
2. Camus, Albert. The Stranger. Paris: Gallimard, 1942, p. 22.
3. Navoi, Alisher. Hamsa. Tashkent: Fan Publishing, 1983, p. 145.
4. Joyce, James. Ulysses. New York: Modern Library, 1934, p. 102.
5. Marquez, Gabriel Garcia. One Hundred Years of Solitude. Harper & Row, 1970, p. 205.

ABDULLA QAHHORNING “MING BIR JON” HIKOYASI TAHLILIDA FALSAFIY VA MILLIY ASOSNING O‘RNI

Ergasheva Zebo Odiljon qizi, TerDPI talabasi
+998954420545 zergasheva932@gmail.com

Annotatsiya: Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasi o‘zbek adabiyotining yorqin asarlaridan biri bo‘lib, unda xalqning hayoti, milliy urf-odatlari va falsafiy g‘oyalarning uyg‘unligi aks etadi. Hikoya insonning bardoshliligi, hayot uchun kurashi va qiyinchiliklarga qarshi iroda bilan turish kabi umumbashariy falsafiy mavzularni yoritadi. Shu bilan birga, milliy asoslar orqali o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlari va ijtimoiy hayoti o‘ziga xos mahorat bilan tasvirlangan.Asarda kambag‘allar hayoti va sinfiy tengsizlik masalalari keskin ko‘tarilgan bo‘lib, ularning sharoitga moslashishi va kurashchanligi inson ruhining qudratini ifodalaydi.

Kalit so‘zlar: falsafiy, hayot va o‘lim, oddiy xalq turmushi, bardoshlilik, hayot uchun kurash, sinfiy tengsizlik, o‘zbek xalqi turmush tarzi.

Аннотация: Повесть Абдуллы Каххора “Тысяча жизней” — одно из ярких произведений узбекской литературы, отражающее жизнь народа, национальные традиции и гармонию философских идей. История исследует универсальные философские темы, такие как человеческая устойчивость, борьба за жизнь и воля противостоять невзгодам. При этом образ жизни, традиции и общественная жизнь узбекского народа с уникальным мастерством описываются через национальные основы, олицетворяющие силу человеческого духа.

Ключевые слова: философский, жизнь и смерть, жизнь простых людей, толерантность, борьба за жизнь, классовое неравенство, образ жизни узбекского народа.

Annotation: Abdulla Qahhor’s story “A Thousand Lives” is one of the bright works of Uzbek literature, which reflects the life of the people, national traditions and the harmony of philosophical ideas. The story explores universal philosophical themes such as human resilience, the struggle for life, and the will to face adversity. At the same time, the lifestyle, traditions and social life of the Uzbek people are described with a unique skill through national foundations. represents the power of the human spirit.

Key words: philosophical, life and death, ordinary people's life, tolerance, struggle for life, class inequality, lifestyle of the Uzbek people.

Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasi o‘zining falsafiy chuqurligi va milliy asoslar bilan boyitilgan mazmuni bilan ajralib turadi. Asar xalqning hayot tarzini, turmush sharoitlarini, ijtimoiy va ma’naviy masalalarni yoritishda o‘ziga xos uslubda yaratilgan.

Quyida hikoyaning falsafiy va milliy asoslari tahlil qilinadi:

Hikoyada falsafiy asos inson va jamiyat munosabatlari, hayotning murakkabligi va insoniyatning kurashchanligi orqali aks etadi:

1. Hayot va o‘lim muammosi:

Hikoyada “ming bir jon” ifodasi orqali inson hayotining qiymati va uning ichki kuchi, bardoshliligi ramziy ko‘rinishda tasvirlanadi. Bu, ayniqsa, kambag‘allarning qiyin hayot sharoitlariga qaramasdan, yashash uchun kurashishga bo‘lgan irodasini ko‘rsatadi.

2. Jamiyat va sinfiy tengsizlik: Hikoyada kambag‘allarning og‘ir ahvoli, boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi qarama-qarshilik falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Bu Abdulla Qahhorning ijtimoiy tengsizlikka bo‘lgan tanqidiy munosabatini ifodalaydi.

3. Insonning ruhiy kuchi va bardoshliligi: Qahramonlarning sharoitga moslashishi va hayotga bo‘lgan qattiq irodasi insonning ichki falsafiy jihatdan kuchliligini ko‘rsatadi. Bu hayotga bo‘lgan muhabbat va umid falsafasini targ‘ib qiladi.

Milliy asosning o‘rni

Hikoyada o‘zbek xalqining an’analari, madaniyati va turmush tarzi o‘ziga xos uslubda tasvirlangan:

1. Milliy turmush tarzi: Hikoyadagi tasvirlar orqali qishloq aholisi hayoti, xalqning mehnatkashligi va oddiy hayot kechirish tarzi tasvirlangan. Bu o‘zbek xalqining mehnatsevarligi va sabr-bardoshini aks ettiradi.

2. Milliy qadriyatlar va urf-odatlar: Hikoyada milliy qadriyatlar, insoniy munosabatlar va oila tushunchasi muhim o‘rin tutadi. O‘zbek xalqining mehr-oqibat va qo‘llab-quvvatlash kabi qadriyatlari hikoyaning milliy ruhi orqali namoyon bo‘ladi.

3. Til va obrazlilik: Abdulla Qahhorning hikoyadagi uslubi va til boyligi o‘zbek xalqining milliy nutq madaniyatini yoritadi. Jumladan, ramziy ifodalar, xalq maqollari va obrazli tasvirlar milliy xususiyatga ega.

Falsafiy va milliy asosning uyg‘unligi

Hikoyada falsafiy va milliy asoslar o‘zaro chambarchas bog‘langan. Masalan:

Milliy qahramonlarning hayot tarzi va muhit tasviri orqali muallif umumbashariy falsafiy masalalarni yoritadi.

Qiyinchiliklarga bardosh berish va hayotga bo‘lgan muhabbat o‘zbek xalqining ruhiyatiga xos fazilat sifatida berilgan.

Kambag‘allik va tengsizlik masalalari xalqning milliy hayotidan kelib chiqqan bo‘lsa-da, bu muammo butun insoniyatga taalluqli muhim falsafiy masala sifatida yoritiladi.

Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasi milliy va falsafiy asoslarning mukammal uyg‘unlashuvi bilan ajralib turadi. Milliy ruh asar qahramonlarining xarakterida va tasvirlarda, falsafiy chuqurlik esa inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarda namoyon bo‘lgan. Bu ikki asos asarni o‘zbek adabiyoti durdonasiga aylantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Qahhor “Ming bir jon”, “Adabiyot muallimi”.-Toshkent 2019
2. O.Genri “So‘nggi yaproq”, Xurshid Davron electron kutubxonasi
3. E.Xudoyberdiyev “ Adabiyotshunoslikka kirish’’
4. H. Umurov “Adabiyor nazariyasi’’ Toshkent, “Merius’’ 2004
5. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.
6. Majidova Shahnoza Komilovna. (2023). AVESTO DA SUV KULTI BILAN BOG‘LIQ MIFLAR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR. PEDAGOGS, 46(1), 63–66.
7. Musurmonqulov A. An Algorithm For Ranking Verbs And Tagging Them In The Corpus //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 5.
8. Musurmonkulov A. Correlation Of Lexical-Semantic Relations With Graduonymy //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 168-170.
9. Sayfullayev N. H. o‘g‘li. (2023). IJTIMOIY – SIYOSIY TERMINLAR TUSHUNCHASI VA TALQINI. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(12), 106–111.
10. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o‘g‘li, & Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG‘LIQLIGI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 155–157.
11. Lobar Mardonova, & Sevinch Abirova. (2024). TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI . *TADQIQOTLAR.UZ*, *39*(8), 79–82.